“O‘ZBEK FILOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI VA UNI O‘QITISH METODIKASI MUAMMOLARI” mavzusidagi IV XALQARO AN’ANAVIY ILMIY-AMALIY ANJUMAN

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
JIZZAKH STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

2025-yil 9-dekabr

ANJUMAN MATERIALLARI

Jizzax - 2025

www.jdpu.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK ADABIYOTINI O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI
tomonidan tashkillashtirilgan

“O‘ZBEK FILOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI VA UNI O‘QITISH METODIKASI MUAMMOLARI”

mavzusidagi
IV XALQARO AN’ANAVIY ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI
(2-kitob, III-VI shu’balar)

JIZZAX-2025

OO‘K: 821.512.133
KBK: 83.3(5o‘)

*Mazkur 2 jilddan iborat kitob Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-son farmoyishi bilan tasdiqlangan “2025-yilda o‘tkazilishi tasdiqlangan Xalqaro va Respublika ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi”ga kiritilgan buyrug‘ining 1-ilovasiga muvofiq Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti filologiya fakulteti, o‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasi tomonidan tashkillashtirilgan **“O‘zbek filologiyasining dolzarb masalalari va uni o‘qitish metodikasi muammolari”** mavzusidagi IV an’anaviy Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari asosida tayyorlandi.*

To‘plam adabiyotshunos olimlar, izlanish olib borayotgan yosh tadqiqotchilar, o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari hamda magistrlar uchun mo‘ljallangan.

TO‘PLOVCHI VA NASHRGA TAYYORLOVCHI:

JDPU professori, f.f.d. (DSc) ***Nodira Soatova Isomitdinovna***
JDPU dotsenti, f.f.f.d. (PhD) ***Turopova Parizod Shavkat qizi***
Do‘stlik tuman IM o‘qituvchisi ***Toshpo‘latov Muhammadqodir Olim o‘g‘li***

BOSH MUHARRIR:

O‘zbek adabiyotini oqitish metodikasi kafedrasi mudiri, dotsent, f.f.f d.(PhD) ***Jo‘rayev Murodulla Alishboyevich***

MAS’UL MUHARRIR:

JDPU professori, f.f.d. (DSc) ***Nodira Soatova Isomitdinovna***

TAQRIZCHILAR:

O‘zbek adabiyotini oqitish metodikasi kafedrasi professori, f.f.d. (DSc) ***Usmonjon Qosimov***
O‘zbek adabiyotini oqitish metodikasi kafedrasi professori v/b., f.f.d. (DSc) ***Karimova Yulduz Akulovna***
O‘zbek adabiyotini oqitish metodikasi kafedrasi dotsenti, f.f.d. (DSc) ***Mamadaliyeva Zuhra Umaraliyevna***

Ushbu to‘plam Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universitetining Ilmiy-texnik kengashi 2025-yil dekabr oyi bayonnomasi qarori asosida nashrga tavsiya etildi.

III. TIL TARIXI, TILSHUNOSLIK VA TILLARNI QIYOSIY O‘RGANISH MASALALARI

Shu’ba raisi: *f.f.d. (DSc), dotsent* Mamadaliyeva Zuhra Umaraliyevna
Kotibi: *f.f.f.d. (PhD), dotsent Jo‘rayev Murodulla Alishboyevich*

-SAL, -SEL EKLERİNİN TÜRKİYE TÜRKÇESİNDEKİ SERÜVENİ VE BUGÜNKÜ DURUMU

İdris Nebi UYSAL,
Prof. Dr., Karamanoğlu Mehmetbey Üniversitesi
Edebiyat Fakültesi Türk Dili ve Edebiyatı
Bölümü Karaman / TÜRKİYE

“Cumhuriyet’in ilanından sonra eğitim ve kültür alanlarında gerçekleştirilen köklü değişikliklerin başında 1 Kasım 1928 tarihinde yapılan harf inkılabı ile takip eden senelerde önce Türk Tarih Kurumunun (12 Nisan 1931), ardından Türk Dil Kurumunun (12 Temmuz 1932) kurulması gelir. Gazi Mustafa Kemal’in “Artık dil işlerini düşünecek zaman gelmiştir. Ne dersiniz? Öyle ise Türk Tarihi Tetkik Cemiyeti gibi bir de ona kardeş dil cemiyeti kuralım. Adı Türk dili tetkik cemiyeti olsun.” sözüyle harekete geçtiği ikinci tarih, aynı zamanda bilim çevrelerinde Dil Devrimi’nin başlangıcı olarak kabul edilir [Korkmaz 2007: 407]. Devrimin esası Türk dilinin tarihini araştırmak, onu yabancı ek ve kelimelerden arındırmaktır. Başlangıçta Türk Dili Tetkik Cemiyeti adını taşıyan Kurum, ismini öz görev ve hedefine uygun olarak 1936 yılında Türk Dil Kurumu (=TDK) şeklinde değiştirir. Yine aynı amaç ve plan doğrultusunda 26 Eylül - 5 Ekim 1932 tarihleri arasında İstanbul Dolmabahçe Sarayı’nda düzenlenen 1. Türk Dili Kurultayı, Dil Devrimi’nin çerçeve programı ve yol haritasının belirlendiği toplantı olarak kayıtlara geçer [Devrim ve kurultayla ilgili ayrıntılı bilgi için bk. Lewis 2007 ve Doğan 2020b]. Takip eden dönemlerde Kurum, Türkçenin geçmişinin ve diğer dillerle ilişkisinin araştırılmasının yanında terimler başta olmak üzere dildeki yabancı kökenli kelimelere Türkçe karşılıklar bulunması, bunlar için halk ağzından kelimeler derlenmesi gibi yoğun bir faaliyet zincirinin içine girer. İşte -sal, -sel eklerinin dilimizdeki sergüzeşti, TDK’nin dile yerleşmiş yabancı unsurlara Türkçe karşılıklar bulma çabasına giriştiği bu döneme rastlar.

Bugün yalnızca yazılı ve görüntülü yayın organlarında değil toplumun hemen her kesiminin dilinde misallerine fazlaca rastlanan -sal, -sel ekleri; toplumun, sanat ve bilim çevrelerinin, dilcilerin gündemine Dil Devrimi’ni takip eden günlerde girer. Tespit edebildiğimiz kadarıyla bu ekler, Şemsettin Sami Bey’in hazırladığı 1901 tarihli Kâmûs-ı Türkî ile sözlük tarihimizde Latin harfleriyle yayımlanmış ilk tek dilli sözlük olma vasfı taşıyan İbrahim Alâettin’in

(Gövsa) harf inkılabından kısa bir süre sonra hazırladığı Yeni Türk Lûgati [1930] gibi eserlerde yoktur. Bu ekleri alan kelimelerin sözlüklere yansıması, TDK'nin 1942 yılında yayımladığı Felsefe ve Gramer Terimleri isimli kılavuz ile kuruluşundan 13 sene sonra çıkardığı ilk Türkçe Sözlük'le gerçekleşir. Kılavuzda geçen -sal, -sel'li örneklerden bir kısmı şöyledir: anlıksal, ansal (zihnî), bilimsel, bireysel, duygusal, duyumsal, mantıksal, ruhsal, toplumsal. 1945 yılında kullanıcıların istifadesine sunulan ilk sözlükte ise daha çok misalle karşılaşılır: anıtsal, anlamsal, bedensel, belleksel, bilimsel, bitkisel, deneysel, dinsel, düşsel, mantıksal, ruhsal, tarımsal, tarihsel, tinsel, ussal gibi. İki eserde yer alan örnekler; söz konusu eklerin, kökenlerine bakılmaksızın, her kelimeye getirilebildiğini göstermektedir. Ayrıca mezkûr eklerle genişlemiş kelimelerin, dönemin gazete ve dergileri ile sanatçılarının, bilginlerinin, düşünürlerinin dilinde olabileceğine dair güçlü bir fikir vermektedir.

-sal, -sel eklerinin Türkçedeki yaşam öyküsüne dair Felsefe ve Gramer Terimleri isimli kılavuz üzerine yapılan ilmî müzakerelerde birtakım ek bilgiler bulmak mümkündür. Hasan Eren'in [1990] aktardığı notlara göre Millî Eğitim Bakanlığı, 1952 yılında bu kılavuzdaki algı, bellek, bilinç, birey, etki, tepki gibi bazı terimlere gösterilen tepkiler üzerine bir komisyon teşkil eder. Peyami Safa, Hasan Eren, Mehmet Ali Ağakay, Nihat Sami Banarlı gibi sanatçı ve bilginlerden müteşekkil komisyonda hararetli tartışmalar yaşanır. Eren'in ifadesine göre, toplantılarda "ağır saldırıya uğrayan" eklerden biri de -sal, -sel'dir. Fakat müzakereler sırasında yazar Peyami Safa'nın örnek vermek amacıyla Fransızcadan tercüme ettiği bir cümlede "anıtsal" kelimesinin Fransızca "monumental"den daha güzel durduğunu söylemesi, toplantıda eke dair olumlu bir yaklaşımın ortaya çıkmasına neden olur. Müzakereciler arasında yer alan Nihat Sami Banarlı bu duruma itiraz etse de toplantıda söz konusu eklerin Türkçe asıllı kelimelere getirilerek işletilmesinin uygun olacağı yönünde bir ilke kararı alınır. Ne var ki ilerleyen günlerde ortaya çıkan ve hâlen dilimizde dolaşan bir kısmı gereksiz bir kısmı yanlış onlarca örnek, heyetçe alınan kararın uzun ömürlü olmadığını, hükmünü kısa sürede yitirdiğini açıkça göstermektedir.

Kökeni ve Yapısı

Tüm yabancılığına, dahası çirkinliğine rağmen dilimizdeki işlekliği günbegün artan -sal, -sel eklerinin menşei konusunda öne sürülen birkaç fikir vardır. Ziyaeddin Fahri Fındıkoğlu, Tahsin Banguoğlu, Ömer Asım Aksoy, Hasan Eren, Zeynep Korkmaz, Haydar Ediskun, Nihat Sami Banarlı, Ahmet Temir gibi isimlerin görüşlerini iki grupta toplamak mümkündür: kumsal (<kum-sal) ve uysal (<uy-sal) kelimelerinden hareketle ekin Türkçe kaynaklı olduğunu iddia edip zamanla işlevinin genişle(til)diğini düşünen ve bunu makul karşılayan kesim; bir de aslı -al, -el olan ekin Latin kökenli olduğunu, Fransızca aracılığıyla Türkçeye geçtiğini, siyasal (<siyasa-l) ve ulusal (<ulus-al) kelimelerinin -sal biçiminde yanlış ayrılmasına bağlı olarak bu hecenin bir ek gibi görüldüğünü dile getiren kesim. İkinci grupta yer alanların diğerine nazaran baskın olduğunu, şahsi kanaatimizin de bu istikamette olduğunu belirtmekte yarar görüyoruz.

Türkçedeki Anlamı

Yukarıda da izah edildiği üzere -sal, -sel; Dil Devrimi’nin bakiyesi olan yapılardan biridir. Bunlar Türkçeye yerleşmiş askerî, dinî, fikrî, ilmî, tarihî gibi birçok kelimedeki Arapça nispet ekinin (î) yerini tutmak üzere yararlanılan ve getirildiği kelimeye “nispet (bağıntı, ilgi, ilinti) bildirme, ait olma” anlamı veren eklerdir. Aslında dilimizde bu görev, söz konusu ekler kullanılmadan belirtisiz isim tamlaması yoluyla yahut aynı anlamı veren benzer işlevli ekleri (-an, -en, -ça, -çe, -lı, -li, -lık, -lik, -sız, -siz vb.) ve yapıları (-la ilgili olan, olan, -an olan kimse, -dan olan kimse gibi) kullanmak suretiyle yapılabilmektedir. Türkçe bu tarz farklı ifade imkânlarına, anlatım yollarına sahip güçlü ve zengin bir dildir. Nitekim mezkûr eklerin pek çok misalde Arapça nispet ekinin yerini tutması da mümkün değildir. Tut(a)madığı da hemen göze çarpmaktadır. Mesela, -sal, -sel ekleri “Arap’la ilgili olan, Arapça” anlamlarına gelen Arabî kelimesindeki nispet i’sini karşılamada yetersiz kalır. D. Mehmet Doğan’ın [2020b] da ifade ettiği üzere, Türkî kelimesi yerine Türksel biçimini kullanmak asla mümkün değildir. Fakat mevcut durum, işin bu raddeye gelebileceğine dair kaygıları artırmaktadır.

Günümüzden Örnekler

Kimi araştırmacıların “sal”lanan, kimilerinin de “sala bindirilip sele verilen” diye nitelediği böyle kelimeler, ne yazık ki, Türkçede 1940’lı yıllardan bu yana her geçen gün artmıştır. Hakkında birtakım tartışmaların yapılması; Türkçeye yabancılığı, aykırılığı üzerine pek çok yazının kaleme alınması “sallanan yahut sele verilen kelimeler”in sayısını azaltmadığı gibi bilakis böyle örneklere ilgiyi daha da ziyadeleştirmiştir. Dilimizin binlerce yıllık yapısına tamamen aykırı olan yeni şekillerle ekimiz, daha yaygın ve hemen her kelimenin sonuna ulanır hâle gelmiştir. Ne acıdır ki eğit-sel, gör-sel, işit-sel- yönet-sel gibi yanlış ama söylendiği vakit kullanıcısına, sözüm ona, entelektüellik ve modernlik (!) görüntüsü veren, dillerine de biraz Öz Türkçe (!) havası katan biçimlerin çekim alanı gün geçtikçe artıyor. Tezlerde, akademik çalışmalarda, felsefi ve edebî metinlerde bu acı tablonun örnekleri hemen göze çarpıyor. Bunun yanında siyasetçiler, sanatkârlar başta olmak üzere ilim, kalem ve kürsü erbabı birçok kişinin dilinde bu kelimeleri duymak mümkün.

D. Mehmet Doğan [2020a] imzalı Doğan Büyük Türkçe Sözlük’ün son baskısında geçen, mevcut diğer güncel sözlüklerde de kendisine yer bulan örneklerden bir kısmı şöyle: abecesel (alfabetik, alfabe sırasıyla), anıtsal (abidevî, anıtlık), belgesel (belge niteliği taşıyan, belgelik), çevresel (çevrelik), çevrimsel (devrî, çevrimlik), çözümsel (çözümlemeli, çözümlü, tahlili, analitik), evsel (evle ilgili, eve ait), göksel (semavî, gökçül), görsel (görmekle ilgili, plastik, görüntü, fotoğraf, resim), işlevsel (işlevli, işe yarar, fonksiyonel) vb.

Belgeselleştirmek, gelenekselci, geleneksellik, gelenekselleştirmek, görsellik, görsel sanatlar, görsel sanatlar uzmanı, işlevselleştirebilmek, işlevsel olmak, küresellik, küreselleşmek, yapısalcılık, yapısalcı anlayış, zihinsel engelliler, zihinsel engelliler öğretmenliği gibi türemiş biçimler, adlandırmalar,

tamlama ve birleşikler ise ekin Türkçedeki yerini iyice sağlamlaştırdığını göstermektedir.

Sonuç

Türkçedeki alıntı unsurlara öz Türkçe karşılıklar bulma çabalarının ürünleri arasında yer alan -sal, -sel ekleri; Dil Devrimi’nin bir mirası, o dönemin bir hatırası olarak dilde yaşamaya devam ediyor. Dahası, her geçen gün etkinliğini artırıyor; kullanım sahasını genişletiyor. Başlangıçta dar bir alanda ve belirli kelimelere eklendiği anlaşılan bu ekler, Türkçe fiil kök veya gövdelerine de getirilmek suretiyle dilin yerleşik kaidelerinin dışına çıkılmasına da yol açmış, emsal teşkil ederek birçok olumsuz örneğin ortaya çıkışına da zemin hazırlamıştır. Kelimelerin tahrifi yalnızca isimlerle ve Türkçeyle kalmamış, dilimizdeki Arapça, Farsça, İngilizce birçok Doğu yahut Batı kökenli kelime, bu “katil” yahut “virüs” ekten nasibini almıştır: ahlaksal, aletsel, bedensel, düşünsel, göndergesel, oyunsal, parasal, partisel, primsel, puansal vb. Oysa Arap asıllı olmasına rağmen asırlarca tabiatına uygun kullanılan nispet i’si, kastedilen manaya muvafık şekilde işletilmiş; ilahî, ma(v)î, semavî; Fuzuli, Kanuni, Rumî ve daha nicesi insanımızın dilinde, zihninde ve gönlünde yer edinmiştir.

O yıllarda dildeki “yabancı” unsurları ayıklamak isterken dilin bünyesine daha yabancı olan, yabancılıkla kalmayıp aynı zamanda zarar da veren başka ögelerin dile yerleşmesine fırsat verilmiştir. Bu ameliyeler; Türkçenin binlerce yıllık birikimini yok eden, tarihini hiçe sayan, kaidelerini çiğneyen, dilin kendi mecrasındaki tabiî gelişimini engelleyen pek çok unsurun dilde neşvünema bulmasına yol açmıştır.

Daha fazla kelimeyi sal’a bindirip kaybetmemek ve sel’e kaptırmamak en büyük temennimizdir.

KAYNAKLAR:

1. Doğan, D. Mehmet (2020a), *Doğan Büyük Türkçe Sözlük*, 26 bs., Ankara: Yazar Yayınları.

2. Doğan, D. Mehmet (2020b), *Türkçenin Cenaze Töreni*, Ankara: Yazar Yayınları.

3. Eren, Hasan (1990), “Yeni Bir Ek: -sal, -sel”, *Türk Dili*, S 580, s. 291-305.

4. İbrahim Alâettin (1930), *Yeni Türk Lügati*, İstanbul: Kanaat Kütüphanesi.

5. Korkmaz, Zeynep (2007), “26 Eylül 1932 Dil ve Kültür Tarihimizde Bir Dönüm Noktası”, *Türk Dili*, S 669 (Eylül 2007), s. 403-410.

6. Lewis, Geoffrey (2007), *Trajik Başarı Türk Dil Reformu*, İstanbul: Paradigma Yayıncılık.

7. TDK (1942), *Gramer ve Felsefe Terimleri*, Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.

8. TDK (1945), *Türkçe Sözlük*, Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.

AZƏRBAYCAN DİLİNİN ŞİMAL DİALEKTLƏRİNDƏ SİFƏT VƏ ONUN DƏRƏCƏ KATEQORİYASININ İFADƏSİ

Səmədova Könül İbrahim qızı,
ADPU-nun Müasir Azərbaycan dili kafedrasının müdiri f.e.d., prof. ADPU-nun Müasir Azərbaycan dili kafedrasının müdiri, dosent

Türkoloji ədəbiyyatlarda çox zaman sifət və zərf yanaşı işləndiyinə görə onları bir-birindən ayırmaq məsələsi də problem kimi ortaya çıxmışdır. Bu problemi aradan qaldırmaq üçün, eyni zamanda sifət və zərfi bir-birinə qarışdırmamaq üçün onların semantik yox, funksional aspektdən baxılması vacib hesab olunmuşdur [Sovremenniy Kazaxski yazık, 1962: s. 301]. Sifət türkoloji ədəbiyyatlarda müxtəlif adlarla – *sifət* (müasir Azərbaycan dilində), *sın esım* (müasir qazax dilində), *alametçi* (müasir qaqauz dilində), *sıpatlav sez* (müasir qumuq dilində), *sıfat* (qaraçay-balkar dillərində), *sıyfat* (müasir tatar dilində), *sıpat* (müasir türkmən dilində), *demdek adı* (müasir tuva dilində), *sıfat (*müasir türk dilində), *sifat* (müasir özbək dilində), *supət* (müasir uyğur dilində), *sın atooç* (müasir qırğız dilində) işlədilir.

Dilimizin dialekt və şivələrində keyfiyyət və əlamət ifadə edən çox sayda söz var ki, ədəbi dilin lüğət tərkibində belə sözlərlə qarşılaşmaq mümkün deyil. Bu sözlərin müəyyən qismi çox qədimdir və yalnız bu və ya digər ərazilərdə saxlana bilmişdir: *tunuk* - zəif, *əmiri* - əla, xəstə, nazik, *qılvız* – aravuran, *qodal* - gödək, *xəpər* - gödək, *qarsov* - axmaq, *danqaz* - söz qaytaran, *alağuz* - xəbərçi, *qəlbi* – hündür. Gördüyümz kimi, bu sözlərdən *alağuz, qılvız, danqaz, tunuk, qarsov* sözləri qədimdir və ədəbi dilimiz üçün arxaikləşmişlər. Bunlardan bir hissəsi isə şivələrimizdə müəyyən məna dəyişmələri ilə indi də qalır [Hüseynov, 1979: s. 44].

Elə sözlər var ki, onlara ədəbi dildə rast gəlinmir: *mimix-midix*-cox ləng iş görən biri, *ağızemmez* – yazıq, aciz, *xırca* - kök, *həfrayi*-hərdəmxəyal, *şəhbüdüm* - yüngülxasiyyətli, dolu, *xımıx* - yastı, basıq burun, *mayıf* - şikəst, *taytax; qıtmır // qırçı - xəsis* (Qəb., Nic.)*; sullaf* - sakit, *maytarax*-axsaq; *yarebaxan* - adam, *surxo, səllim* - işsiz, boş; xəlvət iş görən; *salız* -yavaş iş görən, tələsməyən, ehmal; *muğdusa*-çirkin, xoşagəlməz, *lələön*-acgöz, doymaz; *darqursax* - hövsələsiz, əsəbi, *çəpəl* - üstü başı çirkli // mundar, pis adam anlamında (Şə., Oğuz, Qəb.) və s.

Sifəti başqa nitq hissələrindən fərqləndirən əsas əlamətlərdən biri də onun dərəcə əlamətləridir. Bu əlamət, demək olar ki, yalnız sifətə aid olub, başqa nitq hissələrində yoxdur. Azərbaycanda, eləcə də digər türk dillərində sifət dərəcələrinin sayı dəqiq şəkildə müəyyən edilməyib. Qazax və qırğız dillərində yalnız müqayisə və üstünlük dərəcələri, türk, özbək dillərində isə adi, müqayisə və üstünlük dərəcələri kimi qeyd edilir. Əlamət və keyfiyyətin dərəcələrini ifadə eləyən söz, şəkilçi və ədatlar dialekt və şivələrdə ədəbi dil ilə müqayisədə kifayət

qədər zəngindir. Ədəbi dili tərk etmiş, bəzən isə zəif formada istifadə olunmuş bir neçə sifət dərəcə əlamətləri dialekt və şivələrimizdə indi də aktiv formada işlənməkdədir.

Sifətlərdə dərəcə anlayışından danışarkən əksər tədqiqatçılar bu kateqoriyanın dərəcə əlamətlərini müxtəlif formalarda göstərmişlər. M.Hüseynzadənin “Müasir Azərbaycan dili” kitabında sifətin beş dərəcəsi göstərilmişdir: *adi, müqayisə, üstünlük, kiçiltmə və çoxaltma dərəcələri.* M.Hüseynzadə həmin əsərin sonrakı nəşrlərində isə sifətin dərəcələrinin sayını 6-a çatdırmışdır: *adi, müqayisə, üstünlük, şiddətlənmə, kiçiltmə və çoxaltma*. F. Zeynalov isə bu dərəcələri beş yerə bölmüşdür: *adi, müqayisə, üstünlük, kiçiltmə və çoxaltma*. O, müqayisə dərəcəsininin morfoloji əlaməti kimi *-rak*[2] şəkilçilərini göstərir. Sözügedən şəkilçi bütün türk dillərində geniş formada yayılan şəkilçildir: *qızılraq – qırmızıtəhər.-rək* başqa ərazilərdə yaşayan kalmıklardan fərqli olaraq Orenburq kalmıklarının dilində indiyədək qorunub saxlanılmışdır [Öner, 2013: s. 105].

Bu şəkilçi qazaxcada *-leu, -lau, -deu, -dau, -teu, -tau və -kılt, -kıl, -ğılt, -ğıl, -tım, -şil, -şıl* şəkilçiləri ilə də əmələ gəlir. Dialekt və şivələrimizdə, həmçinin şimal ləhcəsinin şivə qruplarında da müasir Azərbaycan ədəbi dilində olduğu kimi, sifətin üç dərəcəsi müəyyən edilir: adi, azaltma və ya kiçiltmə, çoxaltma və ya üstünlük.

Şimal ləhcəsinin dialekt və şivələrində sifətin ədəbi dildə işlənən özəlliklərindən fərqli olan formaları da var. İlisu şivəsində də ədəbi dilimizdə olduğu formada tələffüz edilir. Lakin tələffüzündə spesifik çalarlar qazanır; *qırmizi, qoq, yeşil, göyçək, gözəl // qozəl, qomqoq, əybəjər, qipqırmızi, yemyeşil* [İlisu, 2012: s. 53].

Adi dərəcə. Adi dərəcədə olan sifətlər ədəbi dildən leksik-semantik, həm də fonetik xüsussiyyətlərinə görə bir-birindən fərqlənir: *güdə, abi-qəlbi, qolay, hündür, nay, yaman, alçağ // alçax, çəpəl* - üstü çirkli adam, murdar, pis, əxlaqsız, *hasalax-balaca alçaq, dəcəl, sital - xuruş - xardalaş - nadinc, sözəbaxmayan, aciz, həmayıl - tənbəl, maxlayi – maymaq - key, cürəfə* - arıq, *cana* - pis, *hasalax* - balaca və s.

Bu sözlər, demək olar ki, bütünlükdə şimal ləhcəsi şivələrinin əksəriyyətində geniş formada işlədilir.

Yaman oğul atanın..
Nanəcib qız ananın,
Gözlərini tor eylər [İbrahimli, 2014: s. 48].

Azaltma dərəcəsi. Bu dərəcə əşyada əlamətin kiçik dərəcədə olduğunu göstərir. Bu da ədəbi dilimizdə olduğu kimi, iki şəkildə özünü biruzə verir:

1) morfoloji əlamətlərlə.
2) sintaktik əlamətlərlə.

Şimal dialektlərində istər qıpçaq, istərsə də oğuz qrupu dillərində üstünlük təşkil edən şəkilçilər bunlardır: *-imtıl, -ımtıl, -ümtül, -ımtıl, -ımtraq, -umtuk, -mtik, -mtık, -cək, -cak, -cık, -cek, -cik, -qılt.*

Qıpçaq və karluq qrupu dillərində azaltma dərəcəsinin özünəməxsus olan xüsusi şəkilçiləri var: qazax dilində *-qıt, -qılt, -tım- -sıl, sarqıt, qızılqılt, aksıl karaltım və s.* Bu da öz növbəsində şimal ləhcəsi dialektlərində əksini tapmışdır. Şimal ləhcəsi dialektlərində müşahidə olunan dərəcə əlamətləri aşağıdakılardır:

1. *-cix’, -cıx, -cik, -cığ, azacığ, körpəcig* (Ş.).

2. *-əntur, -antur, -untur, -ıntur, -antıl, -ıntul, -ımtıl, -untul, -umtul, -ımtul, -ümtül, -ümtul* (samitlə bitənlərdə), *-mtul, -ntur* (saitlə bitənlərdə): *ağıntur, sarıntur, bozmntul, qaramtıl, ağımtul, sarımtul, göyümtül // göyümtul*

3. *-ımso, -so, -imsul, -ımsul, güdəso, uzunso, ağımso, -umsoy, -ümsöy: ağumsoy, göyümsöy* (Qax), *sarımsul, göümsul.*

4. *-şinni: qaraşinni* (Şə.-Bal.) (Bu şəkilçi ədəbi dildə *-şın* variantında verilib).

5. *-cavaz: ağcavaz* (Şə.).*-Ağcavaz çit olur, parça olur* (Şə.).

6. *-arax:* bozarax, bu şəkilçi də ədəbi dildə əvvəllər daha aktiv formada olan -raq, -rək səkilçisinin də bir variantıdır, bu şəkilçi “oyrot” dilində də -erik, -arık, -örük şəklində sifətin azaltma dərəcəsi kimi işlənilir: kazırık, aqarık.

7. -artdax: *bozartdax və qızartdax,*

8. *-sünnü:* bu şəkilçi “uzun” sifətinə birləşərək uzunsünnü (uzun təhər) sözünü yaradır və əlamətin adi dərəcədən bir qədər aşağı olduğunu bildirir. Uzunsunni yemiş, “sünnü” sözü Zaqatala-Qax şivələrində bəzən kiməsə lağ mənasında “sünnü baş” ifadəsi də işlədilir. Təbii ki, bu tamamilə başqa məna ifadə edir.

9. *unturux-unturax:* Ədəbi dildə işlənən *-mtraq* şəkilçisinin bir variantıdır. Boz sifətinə qoşularaq *boz təhər, bozunturux, bozuturx* yaxud da *bozunturax* kimi olur.

10. *cavaz: ağ* sifətinə birləşərək *ağcavaz* sifətini yaradır.

11. Bu dərəcənin şəkilçisi olan *-rək // -rəx, -rax // -rağ “Kitabi*-Dədə Qorqud” dastanlarından başlayaraq XX əsrin əvvəllərinə kimi ədəbi dildə işlənmişdir: “*Bundan yegrəyi yoxdur ki, gözüm görərkən oğul, gel səni evərəyim*”. Müasir türk dillərinin bir çoxunda azaltma dərəcəsi *–rak* şəkilçisi vasitəsilə ifadə edilir ki, bunun da müxtəlif variantlarına təsadüf edilir. Bu şəkilçi müasir özbək dilində birvariantlı *-rok,* müasir tatar dilində ikivariantlı *-rak, -rək,* müasir çuvaş dilində dördvariantlı - *-rex, rax,-tarax, -terex* şəkilçiləri ilə özünü göstərir [Zeynalov, 2008: s. 135].

12. Şəki dialektlərində azaltma dərəcəsinin *-mtrax, -artdax* şəkilçilərinə də təsadüf olunur: *bozartdax, qızartdax, ağımtrax. – İrəngi boz kimi olanda diyirsən bozartdaxdı* (Şə.). *-artdax* şəkilçisi Gəncə dialektində də müşahidə edilir.

13. Şəki dialektində isə *-unturux* şəkilçisinə təsadüf olunur: *bozunturux* (Şə.). Bu şəkilçi Naxçıvan dialekt və şivələrində də özünü göstərə bilir.

14. Qıpçaq qrupuna aid türk dillərindən olan qazax dilində azaltma dərəcəsi *-leu, -lau, -deu, -dau, -tau*, həmçinin *kılt, -kıl, -ğılt, -ğıl, -şıl, -tım, -şil* şəkilçiləri ilə də əmələ gələ bilir: *aktay, jaksılay, bozğıl, ülkündey, sarğılt, kökşil, dımgıl, akşıl* və s. [ÇTYD, 2014: s. 136].

Sintaktik üsulla yaranan sifətlər. Sifətin azaltma dərəcəsi sintaktik üsulla

da düzəlir. Bu zaman *ala, təhər, hal, açıq, buğdayı və s.* sözlərin qoşulması ilə bu kimi ədatlardan istifadə edilir. *Hal* və *təhər*, tə:r sözləri isə bütün əsli sifətlərə qoşula bilir; *bozhal, aghal, ağtə:r, qarahal, sarıtə:r, göytə:r.*

Çoxaltma dərəcəsi. Bundan başqa şimal ləhcəsi dialektlərində sifətin çoxaltma dərəcəsi də işlənir. Sifətin çoxaltma dərəcəsi nisbi olsa da, müəyyən bir əlamətin əşyada olan miqdarını (irəli və geri) bildirməyə xidmət edir. Bu forma adətən sifətlərin sonuna *-ca*[2] ədatının artırılması ilə düzəlir. F.Zeynalov bu şəkilçinin qoşulduğu sözlərin əslində çoxluq bildirməsini çoxaltma dərəcəsi kimi izah edir. Azlıq mənası bildirən sözlərlə işləndikdə isə bu şəkilçi həmin azlığın əksi mənasında, yəni geriyə doğru çoxaldır. Məsələn: *böyükcə, balaca, körpəcə, xırdaca* və s. Çoxaltma dərəcəsi dialekt və şivələrimizdə ədəbi dilimizdə olduğu kimi iki formada özünü göstərir: 1) analitik formada; 2) sintetik formada.

Analitik formada sifətin əvvəlinə müəyyən sözlər əlavə edilir: *çox yaxşı, ən yaxşı* və s. (Şə.) Sintetik üsulla əmələ gələn sifətin ilk hecası, ya da ilk iki səsindən sonra *p, m, t, f, r, ş, l, s, n* səslərini əlavə etməklə çoxaltma dərəcəsini düzəltmək mümkündür: *safsarı, təmtəzə, təftəzə, qafqara, cımcındır, qəttəzə, ufuzun, şifşirin, əfəyri, yamyaşıl.* Qaxın İlisu kənd şivəsində bəzən sifətin sintetik yolla əmələ gələn formasında *-p* ünsürü gah ikiləşir, gah da cingiltili qarşılığı *(b)* ilə birlikdə götürülür: *appaağ-apaağ.*

Bəzən isə dialektlərdə *balan, bələn* və *düm* hisssəciklərindən də istifadə olunur: *dümbələndüz, dümbey, bombalanboş.*

Bundan əlavə F. Zeynalov sifətin “intensiv” formasını da qeyd etmişdir ki, əslində bu forma çoxaltma dərəcəsindəki *p, m, r, s* samitlərinin köməkliyi ilə əmələ gəlir. Bu formaya başqa türk dillərində də rast gəlmək olur.

Türkmən dilində: *ıpıssı “isti”, qömqök, upuzun, gip-gizil* və s. Bu cəhət şimal ləhcəsinin şivə qruplarında da eyni formada nəzərə çarpır: *gömğöy, tepteze, qomqoy, dümağ, qətteze, sappasağ, qafqara* və s. (Zaq., Bal., Qax, Şə.).

Sifətin çoxaltma dərəcəsi sintetik üsulla da əmələ gəlir: *laf qara, lafteze, tütqara, laf yaxşı* və s.

Şimal dialekt və şivələrində sifətin müxtəlif formalı maraqlı xüsusiyyətləri ilə qarşılaşmaq olar. Burada istifadə edilən sifətlərin çoxu elə ədəbi dilimizdə mövcud olan sifətlərdir. Lakin bölgənin mənşə baxımından qarışıq olduğunu nəzərə aldıqda, görürük ki, elə sifətlər var ki, yalnız o bölgədə işlədilir. Burada sifət özünün quruluşuna və dərəcəsinə görə ədəbi dildən fərqlənir. Adi dərəcənin şimal ləhcəsi şivələrində müasir ədəbi dilimizdə olduğu kimi, heç bir morfoloji əlaməti yoxdur. Azaltma dərəcəsi ədəbi dildə olduğu kimi, şimal dialektlərində də iki formada düzəlir. Çoxaltma dərəcəsi də, həmçinin iki şəkildə (analitik və sintetik) özünü göstərir. Lakin çoxaltma dərəcəsinin əlamətləri daha çox nisbi xarakter daşıyır.

ƏDƏBİYYAT:

1. Sovremenniy Kazaxski yazık: (1962) (Fonetika i morfoloqiya) Alma-ata: izd-vo, Akad. Nauk Kaz. SSSR,. 452 s.

2. Hüseynov A.Ə. (1979) Azərbaycan dialektologiyası: (Dərs vəsaiti), Bakı: APİ-nin nəşri, 90 s.
3. Mustafa Öner (2013) Bugünki qıpçaq türkcəsi. Ankara: Türk dil yayınları, 2-ci baskı, 269 s.
4. İlisu: (2012) (ensiklopedik məlumat kitabı) İkinci nəşr. tərt. ed. S.N.Murtuzayev. Bakı:Vətən, 416 s.
5. İbrahimli Ş. (2014) Yaşadır Vətənə məhəbbət məni - Bakı: Elm və təhsil, 168 s.
6. Kitabi-Dədə Qorqud dastanları (1962) - Bakı: Azərnəşr,154 s.
7. Zeynalov F.R. (2008) Türk dillərinin müqayisəli qrammatikası - Bakı: M.B.M, I hissə, 354 s.
8. Çağdaş türk yazı dilləri: (2014) III kuzeybatı Kıpçak qrubu - Ankara: Akçağ Baskı, 591 s.

АВЛИЁХОН ЭШОН ШЕЪРИЯТИ ЛИНГВОПОЭТИКАСИ

Шеранов Бойирбай Ғозибоевич,
Академик Б.Ғафуров номидаги ХДУ ДТМ
ўзбек филологияси факультети, ўзбек тили ва унинг таълими методикаси кафедраси мудири,
филология фанлари номзоди, доцент (Тожикистон)

Тинчлик ва миллий бирлик асосчиси – Миллат пешвоси, Тожикистон Республикаси Президенти муҳтарам Эмомали Раҳмон “Адабиёт инсон руҳини шакллантирадиган жавҳар сифатида жомеа аҳлининг маънавий тарбиясида муҳим рол ўйнайди”, деб алоҳида таъкидлаган эди. Дарҳақиқат, адабиёт жамият маънавий такомилида алоҳида мавқега эгадир. Мамлакатимиз Президентининг миллий бирлик ғояси жаҳон давлатчилик саҳнида эътироф этилиб, амалда ҳаётийлигини кўрсата олди. Адабиётнинг ҳам муҳим хизматларидан бири ҳам башарият ҳаётида сарҳад билмаслигидир.

Шу айтиш жоизки, шоир Авлиёхон Эшон ижоди икки қўшни давлатлар учун баравар хизмат қилаётганлиги таҳсинга сазовордир. Унинг ижодини ўрганиш ҳар икки давлат таълими ўзбек тилидаги синфлари адабиёт дарсликларига киритилган. Жумладан,

1.“Тўрт фасл тасвири” шеъри, “Оқшом ташбеҳлари” шеъри, “Лавҳа” шеъри, 5-синф, Ўзбек адабиёти (Қирғизистон Республикаси таълими ўзбек тилидаги синфлар учун);

2. “Авлиёхон Эшон ҳаёти ва ижодини ўрганиш, Авлиёхон Эшон – лирик шоир “Бир куни” шеъри, “Вазифа” шеъри, 8-синф, Адабиёт (Тожикистон Республикаси таълими ўзбек тилидаги синфлар учун);

3. “Кўклам” шеъри, “Сўнгги қиш” шеъри, “Севги” шеъри, 9-синф, Ўзбек адабиёти (Қирғизистон Республикаси таълими ўзбек тилидаги синфлар учун);
4. “Авлиёхон Эшон – лирик шоир”, “Муҳаббат” шеъри, “Очун” шеъри ва тўртликлари”, 11-синф, Ўзбек адабиёти (Қирғизистон Республикаси таълими ўзбек тилидаги мактаблари учун) каби[6,4].

Ўтган асрнинг 80-йилларида ўзбек шеъриятига навқирон бир авлод кириб келди. Улар қаторида истеъдодли шоир Авлиёхон Эшон ўз сўзи билан намоён бўлди. У ўзига хос нозик таъб, сатрлари ўқилиши ва уқилиши орқали чуқур идрок этиладиган лирик-фалсафий шеърлар яратди. Унинг шеърларида оригинал ташбеҳлар, истиоралар, ўхшатишлар ўзига хослик касб этди. «Тушуниши қийин бўлган» сатрлар китобхонни чуқур мулоҳаза ва мушоҳадага ундай бошлади, сўзда маъно жилваси оддий қолиплардан, содда шакллардан воз кечди. Сўз воқелик воқеалар баёнига эмас, бадиият латофатига йўғрилди. Шоир ва у тақдим этган шеърият олами эътироф этилди.

Таниқли адабиётшунос олим Абдувоҳид Ҳайит шоир ижодига берган юксак баҳоси ўринлидир : “... Авлиёхон Эшон шеъриятида Шарқу Ғарб шеъриятига хос фазилатлар уйғунлашиб кетган.Масалан, Авлиёхон Эшон шеърларида Ғарб шеъриятига хос шакл, қофия тизимларидан фойдаланганлигини ҳам кўриш мумкин.Умуман, шоир ҳар бир шеър учун ўзига хос шакл, қиёфа яратишга ҳаракат қилган.... шеърларига хос асосий хусусият –шарқона нафислик, зукколоик, унинг шеърларида гўзаллик ҳар доим парда отидаги келинчакдек сирли ва жозибадор кўринади”[2, 145] .

Бу ҳол, таълим жараёнида Авлиёхон Эшон шеъриятининг нафақат бадиий, шу билан бирга лингвопоэтик хусусиятларини ўрганиш долзарб масаларидан бири эканлигини кўрсатади.

Замонавий ўзбек шеъриятида Авлиёхон Эшон ҳассос лирик шоир сифатида танилди. Шоирнинг илк асарларидан баҳор нафаси уфуриб турарди. Унинг лирик шеърларида баҳор, офтоб, майса, ғунчалар, қушлар, зангори осмон –барча-барчаси жозибадор бўёқларда берилади, кетмончилар – заҳматкаш деҳконларга тугунчаларда патир кўтарган қизалоқлар ҳам қадрланади. Шоир қаҳрамони нозиктаъб, борлиқни турфа рангларда бор латофати билан англайди, унда жўшиб турган ҳис-туйғулар нозик пардаларда берилади.

Шоирнинг бундай оҳангдаги шеърлари анчагина. Чунончи, ижодининг дастлабки палласида ёзилган “Баҳор” (1978), “Кўклам” (1980), “Севги” (1985), “Куз суврати” (1986), “Ҳаёт” (1986), “Тун” (1987) каби шеърларида гоҳ сокин, гоҳ шиддатли ёшлик эҳтиросларига тўлган хаёллар табиат лавҳалари фонида гавдалантирилади. Шоирнинг илк лирик шеърлари унинг “Тунги тиловатлар” тўпламига киритилган [3]. Унинг ҳар бир шеърида кишини ўзига жалб қилувчи синоат, фалсафий мушоҳадалилик, инсоннинг маънавий камолоти инъикос этади. Шеърларда қалбдаги ҳаяжон,

истаклар, ишонч ва эътиқод тилимизнинг фавқуллода имкониятлари боис ўзига хос оҳангда ифодаланади.

Лирик асар шоирнинг қалб туйғулари, эҳтиросларини, куйланаётган мавзуга нисбатан билдирилаётган муносабатларининг яққол ифодасидир. Бундай асарларнинг лирик қаҳрамони шоирнинг ўзи ҳисобланади. Лирик асарлар бир неча турларга бўлинади. Анъанавий адабиёт назариясида фалсафий лирика, ишқий-муҳаббат лирикаси, ҳажвий лирика ва манзара лирикаси каби жанрлар мавжуд. Лирик жанрларнинг қайси турида ижод этишлик ижодкорнинг унга муносабатига боғлиқдир [5,255].

Шоирнинг “Бир куни” шеърида комил инсон ғояси тараннум этилган [4,48,7,185]. Ваҳоланки, инсон бутун ҳаёти давомида оилада, жамиятда ўз мавқеига эга бўлишлик учун комилликка интилиб яшайди ва инсонни қуршаб турган борлиқ ҳамма вақт уни синовлар исканжасига олиб туради. Яъни, у остонадан ҳатлаган ондаёқ синов гирдобига тортилади. Айтайлик, саломлашмаслик – бу бетамизлик. Шундай қилинса, маънавиятига гард юқтирилади, кимдир ранжийди. Кимгадир қўпол сўзлаб қўйса, пушаймон бўлади, ҳалимлик мезонини бузиб қўйган бўлади. У ҳамма вақт маърифат нурига интилади, бу инсонларга бериладиган меҳр нури, оламни мунаввар айлагулик туганмас офтоб ва у ўзида бор меҳрни улашгиси, эзгулик нури билан зулматга ўралган тунни ҳам ёритгиси келади. Бу нур инсонда қандай намоён бўлади ва унга қандай эришади? Албатта, чин инсоний фазилатлар, солиҳ амаллар орқали инсон ҳақиқий ўзлигини зоҳир эта олади. Бунинг учун инсон билим, ҳалол меҳнатга иштиёқмандлик, касбга меҳр, ҳурмат ва эҳтиром, қадр ва ардоқлаш ҳиссига эга бўлиши лозим. У шудагина шоир айтганидек, “бир куни фариштадан ҳам, ҳурдан ҳам покиза бўладин”, юраги шу қадар шаффоф бўладики, ҳатто кўзгунинг ҳам кўзи қамашади, тошлар эриб, сувлар ташналикни қондиради, у қайғунгизга шерик бўлиб, яна меҳнатдан қабарган қадоқ кафтини кўксига қўйиб меҳр улашади.

Лирик қаҳрамон таъкидлаган “Бир куни” қачон содир бўлиши мумкин? Бунинг учун эса бир умр ва ёрқин бир кун керак бўлади. “Бир кун” – камолотга эришган кун. “Бир кун” – порлоқ келажак. Келажак эса ёруғ кунларни Эзгулик сари етаклаб келаётган (бир кун) инсон қисмати.

“Бир кун” иборасини инсон олдига қўйган мақсадга етишган кун сифатида тушуниш мумкин. Бизнингча, шоир шу билан бирга комил – идеал инсон тимсоли ғоясини илгари сурган. Инсонни шундай тасаввур этганки, унинг ҳамма нарсадан пок, шаффоф бўлишини орзу қилинади. Яъни, киши ярамас фазилатлар билан бундай мақомга ета олмаслигини уқтирилган.

Шоирнинг “Бир куни” шеърининг тузилиши ҳам бошқа шеърлардан фарқ қилади. Яъни, инсон ҳаётида комилликка босқичма-босқич эришиб боришлиги, ундаги фазилатлар қандай намоён бўлишлиги кўрсатилган. Шеърда ҳар бир киши ўз ҳаёти мазмунига эътибор беришлигини мумкин бўлади. Чунки ўз ҳаётида бефарқ қарайдиган, ҳафсаласизлик билан “ҳа, бир

куни бўлади-да”, дейдиганлар ҳам учраб туради. Шу жиҳатдан “Бир куни” бедорликка даъватдир.

Шунингдек, шеър кишида бошқача кайфият уйғотади. Одатда ўтаётган кунларимизга эътибор бермаймиз ва унинг бесамар ўтиб кетади. Шу боис, ўтаётган кунларни бир куни сарҳисоб ҳам килишимиз зарур бўлади. Маънавий юксаклик кишига бериладиган энг юксак баҳо саналади. Бу кишининг одоби, аҳлоқи, турмуш тарзи, маданиятида кўзга ташланади. Бошқача айтганда, “бир куни” маънавий юксакликка чорлаяпти.

Таниқли шоир Авлиёхон Эшоннинг фалсафий лирикаси тасвир ва ифода хусусиятига кўра, ўзига хос бадиий оламдир. “Бир куни” шеъри ҳам ўзига хос эркин вазнда ёзилиб, эркин, озод инсоннинг қандай бўлмоғи, унинг маънавияти қанчалар юксак бўлишлиги самимий ва холис тасвирлаб берилган.

Шоирнинг “Бир куни” шеърининг тадрижий давоми “Вазифа” шеъри саналади[4,58,7,184].Бу масалага адабиётшунос олим, профессор А.Абдуқодиров бирмунча аниқлик киритган. “Авлиёхон “Бир куни“ шеърида ёзади:

Бир куни
Фаришгадан ҳам,
Ҳурдан ҳам покиза бўлади одам.

Топ-тоза бўлади –
Кўкси остидан
Кўриниб туради оппоқ юраги.

Инсон қачон шу даражага етади? Шоир “Вазифа” шеърида бу саволга жавоб беради. Шеърда инсоний ўзликни енгиш вазифаси қўйилган. Биринчи мисрадаги “Мен ўзимни енгишим керак!” бадиий ифодаси ғоят чуқур тасаввуфий маънога эга. Мисрадаги “мен” ва “ўзимни” сўзларида “менлик” ва “ўзлик” тушунчалари мужассамлаштирилган.

“Менлик” инсоний кибрни, “ўзлик” инсоний нафсни ифодалайди. Бу икки тушунча кимда бирлашса, уни хароб қилмай қўймайди. Улар ҳатто алоҳида-алоҳида намоён бўлганда ҳам, инсонни олижаноб фазилатлардан маҳрум этиб, адойи абгор қилади.

Лирик қаҳрамон инсоний менлик – ўзликни англаган, унинг даҳшатини кўрган шахс бўлиб, тавба эшиги олдига келган ва ўзини енгишга қарор қилган. Аммо бу қарорни амалга ошириб бўлармикин?! Чунки инсоний менлик – ўзликни енгиш ниҳоятда мушкул. Кимдир уни енгса Ҳаққа етади.

Менлик-ўзликни англаш макон-манзиллари кўп бўлиши билан бирга, уларни эгаллаш ҳам ғоят мушкулдир. Чунки бир мақомни эгалламай, иккинчисига ўтиш мумкин эмас. Баъзан эса бир мақомни эгаллаш учун бутун умр етмаслиги мумкин. ...Буни тўғри англаган лирик қаҳрамон ўзини

енгишга интиладики, у бунга эришса, ўзгани, ҳаммани ва ҳатто бутун дунёни енгган бўларди. Маълум бўладики, ўзини енгиш шу қадар юксак аҳамиятга эга экан[1,4].Бу шеърнинг тасаввуфий талқини ва бунга яна ҳам чуқурроқ, айтайлик мана бу тарзда ёндошув мумкин.Яъни, инсон учун берилган ҳаёт аслида ҳақиқатга эришмоқ учун ато этилган. Бугун бу ишни, эртага у ишни, келгусида яна ниманидир амалга оширмоқ, бажо келтирмоқ ҳақиқатни муқаррар этмоқдир. Бешикни тебратаётган она қўллари аслида, ишора. Чунки дунёни ўз Эгаси кимнингдир қўли билан тебратиб туради. Баъзи инсонлар нодонлиги туфайли “дунёни мен бошқаряпман”, деган андишасиз хулосага келади. Шу жиҳатдан, том маънода “мен”ликни англаш зарур. Бунинг учун аввало “Мен ўзимни енгишим керак!”

Атоқли адиб Ўткир Ҳошимовнинг ибратли ҳикмати бор: “Одамнинг умри шунча қисқа-ю, типирчилаши оламни тутади”. Шу жиҳатдан шоир илгари сураётган мазкур ҳаётий “Вазифа” ўта муҳим. Вазифа эса ижроси билан гўзал ва шарафли. Вазифа – вафо. Шу боис ҳам Навоий ҳазратлари “Вафосизда ҳаё йўқ ва ҳаёсизда вафо йўқ”, дея уқтирганлар. Яна вазифанинг ўзга олмос қирраси ҳам бор: “Бу ёруғ дунёга ўзгани эмас, Ўзимни енгмоққа келганман, холос”. Донишмандлардан бири “Инсонни маҳв этиш мумкин, лекин уни енгиб бўлмайди”, деган экан. Шубҳасиз, инсонни ғараз йўлида топташга бўлган ғализ ҳаракат, фитна ва адоват, фисқ-фужур, ҳийла-найранг қаттиқ қораланган.

Муҳими, инсон аввало, ўзлигини англаши, “енгиши” лозим. Шу боис, бу шеърни шоирнинг ижодий дастурий шеъри деб аташ мумкин.

Қадимги юнон файласуфи Суқротга “Ўзинг ўзингни англа, бил!” ҳикмати шиор бўлган, дейишади. Бизнингча, “Вазифа” шеърида ҳам шу шиорга ҳамоҳанглик бор. Инсон учун бу дунёдаги бирламчи вазифа ҳам ўзни енгиб, ўзни англашликдир. Чунки яшашдан мақсад нима? “Одам умрини қандай ишларга сарфлаши керак?” деган саволларга жавоб беришга интилади.

“Вазифа” шеъри кишини фикрлашга мажбур қилади. Ўзликни англаш – зоҳирий ва ботиний оламни англашдир. Юқорида тасаввуфда комил инсон ўзликни англаш учун бир неча мақомларни босиб ўтиши зарурлиги айтилган. Шеърда бу ҳол мухтасар ҳолат ва вазиятда ифода этилган..Кўпинча шеърлар узундан узоқ ва тафсилоти билан ёзилади. “Вазифа” шеъри ана шу анъанавий шеърларга мувофиқ келмайди. Лекин ҳажмига нисбатан мазмуни чуқурроқ. Чунки биз болаликда “Бўлай десанг боғбон, Ё Ватанга посбон, Ё осмонда учувчи, Ё денгизда сузувчи... Барига билим керак!” тарзидаги шеърларга кўникиб кетганмиз. Бунда ҳам шунга ўхшаш фикр бор, лекин “Вазифа”да асосий ғоя ўзгача ифодаланган:

Мен ўзимни енгишим керак!
Бунинг учун етарли асос-
Бу ёруғ дунёга
Ўзгани эмас,

Ўзимни енгмоққа
Келганман,
Холос [7,184].

Шоирнинг “Вазифа” шеърнинг асосий хусусиятларини ниҳоятда соддалаштириб қуйидагича белгилаш мумкин: шеърдаги илгари сурилган ғоя ҳар бир кишини курашчанликка чорлайди. Масалан, мен ватанпарвар бўлишлигим учун халқимнинг тарихи, тилини билишлигим зарур. Агар менда шу фазилатлар бўлмаса, манқурт бўлиб қолавераман; “Вазифа” шеъри мустақиллик мадҳияси. Масалан, мен ўзимни енгишим учун мустақил фикрга эга бўлишим керак. Яхши-ёмонни, тўғрилик-ёлғончилик, некбинлик-бадбинликни фарқлашим зарур. Шундагина хатога йўл қўймайман, қийинчиликларга бардош бера оламан; “Вазифа” шеърида ўзликни англаш илгари сурилган, унинг ёрқин нуқталаридан бири ўзликни англаш баробарида ўзгалар ғаму дардига шерик бўлишлик,Шундагина инсон ўзидаги худбинликни, манманликни, кибру ҳавони енгган бўлади.

Хуллас, Авлиёхон Эшон шеърияти лингвопоэтик хусусиятларини ўрганиш инсон маънавий камолоти, руҳий юксакликка ҳидоят этишнингбадиий лисоний имкониятларини ойдинлаштиради..

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.Абдуқодиров А.Тасаввуфий маънолар олами// Тавба эшиги.Шеърий тўплам. Хужанд, 2014.-88 б.
2.Абдувоҳид Ҳайит.Авлиёхон Эшон шеърияти//Шарқ юлдузи. №1. Тошкент, 2022.-176 б.
3.Авлиёхон Эшон.Тунгги тиловатлар.Шеърлар.Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.-88 б.
4.Авлиёхон Эшон.Сирли пардалар.Шеърий тўплам.Тошкент, “Муҳаррир”.-2022.-220 б.
5.Султонов И.О.Адабиёт назарияси. Университет ва педагогика институтллари филология факултетлари учун дарслик. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1980.- 393 б.
6.Шеронов Б. Мактабда Авлиёхон Эшон ҳаёти ва ижодини ўрганиш. Хужанд, “Нури маърифат “ 2025.-171 б.
7.Шоназаров Ю,, Эрмуҳамедов А., Абдуллаев О., Юнусова М.,.Адабиёт. 8-синф. Ўқув қўлланма.Хужанд,-2015.-215 б.

ХАЛҚ ДОСТОНЛАРИДА АЙРИМ ПАРЕМАЛАРНИНГ ВАРИАНТЛАШУВ ҲОДИСАСИ

Жуманазарова Гулжаҳон Умирзоқовна,
ЖДПУ профессори, ф.ф.доктори

“Халқнинг тийнати ва табиатини, руҳияти ва менталитетини тилдан айро ҳолда тасаввур қилиб ҳам, тадқиқ этиб ҳам бўлмайди. Тилдаги бирликларда, айниқса, образли сўз, образли ибора – ифодаларда халқнинг ментал ўзига хослиги у ёки бу тарзда инъикосини топади. Зотан, бундай образли ифодалар халқнинг образли нигоҳи, идроки ва тафаккури маҳсули ўлароқ дунёга келган”[4]. Н.Маҳмудовнинг ушбу мулоҳазасини халқ достонлари тилидаги паремиологик бирликлар (бундан кейин: ПБ) ҳам алоқадор дейиш мумкин. Биз қуйида Фозил шоир куйлаган достонлар тилидаги ПБларнинг вариантлашув ҳодисасини таҳлил қилишга уриниб кўрамиз.

Адабий тил доирасида ва шеваларда фаол ишлатиладиган ПБлар халқимиз тарихида қадимдан қўлланилган, улар ҳозирги ўзбек адабий тилида ҳозирги кунда ҳам фаол ишлатилади. Бундай бирликларнинг баъзи намуналари халқ достонлари матнида аслият ҳолида, бошқа хил намуналари ижро жараёнида бахши томонидан шеваларга мослаштирилиб, қисман ўзгартирилган ҳолда қўлланилган.

“Мард йигитлар элдан олар хабарни / Муллалар ўқиган зеру забарни”. “Балогардон” достонида қўлланилган бу паремадаги иккала мисранинг ҳар бирида умумий мантиқни ифодаловчи яхлит фалсафий мазмун мавжуд. Масалан, биринчи мисрадаги “*Мард йигитлар элдан олар хабарни”* лисоний бирлиги халқ афоризми даражасига етган, уни *“Мард йигитлар элнинг корига ярайди”* тарзида ҳам изоҳлаш мумкин. Чунки ижодкор халқ *“Йигит ғами элида, Эллар ғами дилида”* (ЎХМ, I, 215) каби мақолни бежизга яратмаган. Иккинчи мисрадаги “*Муллалар ўқиган зеру забарни”* мақолида эса ўқишни, ёзишни, умуман, саводхонликни ўргатиш ва ўрганиш мақсадида таълим олган шахс, яъни муллага хос, деган мазмун ўз ифодасини топган. Бу мақолни ҳозирги адабий тилидаги “*Бўзчи билганини тўқир”* мақолининг варианти деб ҳисоблаш ва уни “ҳамма ўз ишининг устаси” тарзида изоҳлаш мумкин. Иккала мисрадаги битта халқ афоризми ва битта мақолнинг шеърий тарзда шаклланиши таҳлил қилинаётган ПБнинг ажойиб намунасини ташкил этган. Унда иккита поэтик образ бор: мард йигит ва мулла. Вазн, ритм ва оҳанг жиҳатидан деярли бир хил бўлган (бу ерда мард сўзи ортиқчалик қилган, лекин халқ бахшиси ижрода фикр оқимига қараб ишлатган – *таъкид бизники*) ибратли иккита мустақил мисраларнинг ижрода ёнма-ён ва кетма-кет келиши ўз-ўзидан ПБнинг шеърий шаклини ҳосил қилган. Бу хилдаги шеърий ПБлар фақатгина халқ бахшиси томонидан яратиладики, уларнинг ҳар бирида ўзига хос ибратли

мазмун бор. Мазкур ПБнинг вужудга келиши аслида тасодифий ҳолда, аниқроғи, яъни достоннинг ижроси жараёнида яратилган: унинг дастлабки мисраси Гўрўғлибек ва қирқ йигитлари хатти-ҳаракатларининг ижродаги ифодаси афористик бирлик даражасига етган бўлса, иккинчи мисраси илгаридан мустақил мазмун англатувчи тайёр халқ ифодаси – *“Мулла зеру забарин ўқир, / Бўзчи билганин тўқир”* мақолининг биринчи компонентини ёнма-ён келтириш орқали яратилган. Бундай мустақил образларнинг тенг, аммо мустақил вазифа ўташларини англатувчи, тенг шаклий ифодаларнинг бирга келтирилиши уларнинг ўзаро ҳамоҳанг сўзлар билан якунлашишига эришиш, яъни қофиядош қилиш халқ донишмандлигининг, санъаткорлигининг маҳсулидир. Бундай юксак маҳорат халқ оғзаки поэтик ижодида фақат бахши-шоирларнинг эпик репертуарига ва ижросидаги услубий изланишларига хос хусусият саналади.

Таҳлил этилаётган ПБдаги қофиянинг боши ҳам тасодифий эмас. Чунки ундаги ҳар бир образнинг бажарадиган вазифаси, хатти-ҳаракати жонли сўзлашув нутқида кесим вазифасини ўтовчи қуйидаги сўзлар тартибида ифодаланиши мумкин: *“Йигитлар элдан хабар олади, / Муллалар зеру забар ўқийди”*. Иккала образнинг асосий ҳаётий вазифаси хабар олиш ва зеру забар ўқиш, яъни араб ёзувидаги диний китобни ўқишдан иборат. Демак, образларнинг ҳаётий вазифаларини ифодаловчи табиий сўзлар – қофиялар ижро жараёнида бахшининг эпик баёни ва достон поэтикаси талабларидан келиб чиқиб, айрим жузъий ўзгаришларга учраган ҳолда қўлланилган, холос.

Достонлар тилидаги паремаларнинг вариантлари ҳақида гап борар экан, уларнинг умумхалқ варианти ёки ўзгартирилган янги вариантини аниқлаш муаммосига эътиборни қаратиш лозим. Бу борада тилшуносликда эътироф этилган айрим мулоҳазаларга таянамиз: а) умумхалқ паремасидаги бирор сўз синоним бўлмаган бошқа сўз билан, шунингдек, унинг бир неча сўзи алмаштирилган бўлса, сўзларнинг ўринлари қисмлар орасида алмаштирилса ёки грамматик формалар, феъл замонлари алмаштирилган бўлса, бундай паремаларни автор томонидан ўзгартирилган вариант деб қараш керак; б) агарда умумхалқ паремасидаги бирор сўз синоними билан алмаштирилса, парема таркибидаги олмошлар алмаштирилган бўлса, баъзи грамматик формалар ўзгартирилса, паремадаги қисмлар орасида боғловчилар ишлатилса, сўзларнинг тартиби алмаштирилган бўлса, пареманинг бирор қисми эллиптик тушиш ёки экспрессив (ўзгаришга) қисқаришга учраган бўлса, бундай паремалар умумхалқ паремаларни вариантлари бўлади”. Гап паремаларнинг вариантлари ҳақида борар экан, Фозил шоир улардан достонлар ижросида қай тарзда фойдаланган? Айни муаммонинг ечимини топиш ва уларни баён қилиш мақсадида айрим кузатишларимизни беришни лозим топдик. «Балогардон» достонида қўлланган ва юқорида таҳлил қилишга жалб этилган “*Мард йигитлар элдан олар хабарни, Муллалар ўқир зеру забарни”* тарзидаги пареманинг яна

бошқа бир варианти “Нурали” достонида Соқибулбулнинг Ғиротни эгарлаши билан боғлиқ эпик баёнида қўлланган: *... Соқи отни эгарлаб турган ери экан: ...Муллалар ўқиган зеру забарни, / Усталар ишлатган тийру табарни. / Соқибулбул солди отнинг устига, / Тилла корсон, олқор мугиз эгарни (Н.:122).*

Келтирилган матндаги тагига чизилган ПБнинг биринчи ва иккинчи мисралари тарихан мустақил мазмунга эга бўлган алоҳида мақолдан иборат. Яъни даставвал бу мисралар алоҳида-алоҳида мақол сифатида шаклланган, уларнинг ҳар бири ҳаётий асосга, бадиий заминга асосланган ҳолда бахши томонидан ижро жараёнида яратилган. Буни ҳар бир мисранинг халқ орасида кенг тарқалган вариантлари ҳам тўлиқ тасдиқлайди. Масалан, *“Муллалар ўқиган зеру забарни”* мақолини ҳозирги адабий тилдаги “*Мулла билганин ўқир”* мақолининг варианти, деб ҳисобласак ўринли бўлади. Бу мақолнинг ҳам ўз навбатида халқ орасида жуда кўплаб вариантлардаги намуналари мавжуд. Мисолларга мурожаат этамиз: ЎХМ тўпламида “*Мулла билганин ўқир, Бўзчи билганин тўқир”, “Мулла билганин ўқир, Товуқ кўрганин чўқир”, “Мулла билганин ўқир, Эшонлар ўтирик тўқир”, “Мулла билганин ўқир, Қарға кўрганин чўқир”* каби вариантлардаги намуналар берилган (I, 282). ЎТПЛда ҳам айни ҳолни кузатамиз: *“Мулла билганини ўқийди, товуқ кўрганини чўқийди”, “Мулла билганини ўқийди, қарға кўрганини чўқийди”, “Мулла билганини ўқир, бўзчи билганини тўқир”* паремалари тарихий намуналардан эканлиги қайд этилган (148-149). Таҳлил этилаётган пареманинг иккинчи мисрасидаги *“Усталар ишлатган тийру табарни”* мақолида “ўткир табар, яъни ўткир болтани фақат усталар ишлатади”, деган фикр ифодаланган.

Ҳар икки мақолнинг шеърий шаклда шакллантирилганлиги ва ҳар бирида умумий мантиқий фикрни англатувчи фалсафий мазмун ифодаланганлигининг муайян сабаблари бор. Назаримизда, улар: биринчидан, “Балогардон” ва “Нурали” достонларнинг эпик жанрга мансублиги, иккинчидан, халқ бахшисининг ижро жараёнида айтмоқчи ёки таъкидламоқчи бўлган асосий фикри достонлар сюжети баёнига тўлиқ мослиги ва учинчидан, энг муҳими, ҳар иккала достоннинг лингвопоэтик талабларидан келиб чиққанлиги билан белгиланади.

Бу ўринда нега энди мазкур мақол *(Муллалар ўқиган зеру забарни, Усталар ишлатган тийру табарни)* оддий жонли сўзлашув нутқидаги *(“Муллалар ўқийди, усталар ишлайди)* каби ихчам, лўнда шаклда яратилмаган, деган савол туғилиши мумкин. Бу саволга жавобимиз қуйидагича бўлади: мақол аслида ибратни ўргатади, ибратомуз фикрни ифодалайди. Шундай экан, изоҳланаётган мақол ва унинг хилма-хил вариантлардаги намуналари ПБ сифатида ушлаб турадиган ибратомуз фикр (мулланинг ўқиши ва устанинг ишлаши)нигина айтишдан иборат эмас. Агар ана шундай мазмуннигина ифодалаш асосий мақсад бўлса, у ҳолда оддий аксиоматик фикрни, қуруқ маълумотни ифодаловчи лисоний бирлик пайдо

бўлиши мумкин. Мақолдан кўзда тутилган асосий мақсад ибратли фикрни, яъни ҳар кимнинг ўз билганини қила олишини, билганидан ортиқ муайян бир нарса (топшириқ ёки вазифа)ни қила олмаслигини, бинобарин, ҳар кимдан иқтидори ва интеллектуал салоҳиятига яраша муайян бирор нарса (топшириқ ёки вазифа)ни талаб қилиш мумкинлигини таъкидлашдан иборат. Шунинг учун ҳам мазкур мақол ва унинг хилма-хил вариантларидаги намуналар бир-бирига бутунлай зид бўлган икки семантик майдонда, икки хил ҳаётий вазиятда айнан бир хилда, аммо икки хил семантик маънода қўлланилади. Биринчи семантик майдон оддийгина талаб, йўл-йўриқ ва мезон маъноларини ифодалашдан иборат. Мисол учун, ҳар бир касб эгасидан ўз билими, малакаси, кўникмаси ва интеллектуал салоҳиятига яраша бирор нарса (топшириқ ёки вазифа) сўралади, талаб қилинади. Айни шу маъно мақолдаги семантик маънонинг биринчиси ва энг асосийси. Иккинчи семантик маъно эса юқоридаги маънонинг бевосита образлар томонидан, яъни бажарувчилар томонидан кечириш, ижозат сўраш маъносида ифодаланишдан иборат. Айни шу таъкидланаётган икки семантик майдон мақолнинг исталган ҳаётий воқеа ҳамда вазиятларда қўлланишига, энг муҳими, мақолнинг кўчма маънони ифодалашига сабаб бўлган. Масалан, инсон бошқалар олдида бирор-бир вазифа ёки топшириқни бажариш пайтида йўл қўйиши мумкин бўлган нуқсонлар учун олдиндан узр сўраши ёки ана шу вазифа – топшириқни бажаришдаги ўзининг моҳирлиги, уддабуронлиги ва интеллектуал салоҳияти учун фахрланиш иштиёқи туғилган пайтда мазкур мақолга қайта-қайта мурожаат этади. Ҳолбуки, у инсон ҳаётда мулла ҳам, уста ҳам бўлмаслиги мумкин. Демак, мақол асосидаги ибратли маъно ҳар бир инсоннинг бирор ишни ўз билганича бажаришга лойиқ эканлигини ифодалашдан иборат.

Ўзбек тилшунослигида, хусусан, паремиологиясида мақоллардаги асосий маънонинг уларда иштирок этган образларга бўлган алоқадорлиги масаласи лингвопоэтик жиҳатдан ҳанузгача етарли даражада тадқиқ этилган эмас. Айни шу масалага ойдинлик киритиш учун юқоридаги мақолга қайта мурожаат қиламиз: *Муллалар ўқиган зеру забарни, / Усталар ишлатган тийру табарни.*

Таъкидлаганимиздек, “Нурали” ва “Балогардон” достонлари тилидан келтирилган бу мақолдаги асосий маъно муайян ишни, вазифа ёки топшириқни муайян шахс (инсон) ўзи уддалаганича, иқтидори ва интеллектуал салоҳияти етганича бажаришини ифодалашдан иборат. Агар бу мақол ҳар бир ишни муайян шахс (инсон) ўз билганича бажаришини тасдиқловчи вазиятда қўлланса, мақолда иккаласи (мулла, уста)нинг вазифалари берилган муайян вазият учун тенг алоқадордир. Агар мақол бевосита ҳаракат, ҳолат орқали бажарилиши лозим бўлган муайян вазият учун қўлланилса, у ҳолда мақолдаги мулла образининг вазифаси етакчилик қилади ва уста образи ифодаланган мисра мақолнинг иккинчи мисраси бўлиб келиши мумкин. Агарда борди-ю, таъкидланаётган мақол сўз, нутқ

орқали бажарилиши лозим бўлган вазият учун қўлланилса, уста образининг вазифаси етакчилик қилади ва мазкур образ вазифаси ифодаланган мисра мақолнинг иккинчи мисраси бўлиб келиши мумкин.

Кўрамизки, икки мисрали шеърий мақоллардаги маъно мақолдаги образлар вазифадошлигига нисбатан икки хил зоҳир бўлади. Таҳлил қилинаётган мақолдаги ҳар ким муайян ишни ўзи билганича, иқтидори ва интеллектуал салоҳияти етганича бажариши мулла ва уста образларига бир хилда тегишли.

Хуллас, достонлар тилида ПБларнинг икки хил намуналари учрайди: а) адабий тилда ва шеваларда фаол қўлланадиган намуналар; б) достонлар тилида учрайдиган, лекин мантиқан ҳозирги ПБларга тенг келадиган намуналар. Ҳар иккала намуналар Фозил шоир достонлари тилининг лингвопоэтик хусусиятларини очиб беришда муҳим манба саналади.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Балогардон. – Тошкент.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
2. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1984. – 288 б.
3. Нурали. – Тошкент.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
4. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012.
5. Ўзбек халқ мақоллари. 2 томлик. Т.1.–Тошкент: Фан,1987.– 366 б.

МОДЕЛИ КОНЦЕПТУАЛИЗАЦИИ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Мусаев Абдукарим Сулайманович,
Доцент ДЖДПУ, ф.ф.ф.д.(PhD)

В современной лингвистике концептуализация понимается как один из ключевых когнитивных механизмов, обеспечивающих формирование, структурирование и языковую репрезентацию знаний об окружающем мире. В рамках когнитивно-прагматической парадигмы язык рассматривается не как автономная знаковая система, а как инструмент концептуального моделирования опыта, опосредованный культурой, телесностью и коммуникативной практикой.

Фундаментальные положения данного подхода были сформулированы в трудах Дж. Лакоффа и М. Джонсона, которые показали, что абстрактное мышление в значительной степени организуется посредством

концептуальных метафор, проецирующих структуры конкретного опыта на сферы отвлечённых понятий. Р. Лангакер дополнил эту идею понятием конструала, подчеркивая, что языковая репрезентация одной и той же ситуации может варьироваться в зависимости от фокуса внимания, перспективы и прагматической установки говорящего. Ж. Фоконье и М. Тернер ввели модель концептуальной интеграции (blending), объясняющую сложные механизмы смыслообразования.

В российской традиции значительный вклад в развитие когнитивной фразеологии внесли В. Н. Телия, Д. О. Добровольский и А. В. Кунин, рассматривавшие фразеологические единицы как знаки вторичной номинации, аккумулирующие культурно значимые смыслы и оценочные компоненты.

Фразеологические единицы занимают особое место в системе языка, поскольку они представляют собой результат коллективного осмысления типовых ситуаций, эмоциональных состояний и социальных сценариев. В отличие от свободных словосочетаний, фразеологизмы фиксируют устойчивые концептуальные модели, которые воспроизводятся в речи как готовые когнитивные шаблоны.

В русском языке фразеология отличается высокой образностью и семантической многослойностью. Например, выражение *плыть по течению* концептуализирует пассивную жизненную позицию через пространственно-динамическую метафору, соотнося человеческое поведение с движением воды. Фразеологизм *остаться с носом* репрезентирует концепт неудачи и обмана через метонимическую редукцию ситуации потери ожидаемого результата.

Подобные единицы демонстрируют, что концептуализация в русской фразеологии часто строится на пересечении нескольких когнитивных механизмов: метафоры, метонимии и оценочной интерпретации. При этом важную роль играет грамматическая вариативность, позволяющая изменять временной, модальный и аспектуальный ракурс:

сел в лужу – факт;

садится в лужу постоянно – характеристика поведения;

сядешь в лужу – предупреждение.

Таким образом, грамматическая форма становится инструментом прагматической перефокусировки концепта.

Несмотря на различие типологических характеристик русского (флективного) и узбекского (агглютинативного) языков, в их фразеологии обнаруживаются универсальные концептуальные домены: жизнь, судьба, труд, опасность, речь, моральная оценка. Универсальность проявляется в использовании базовых телесных и пространственных схем, однако культурная специфика определяет выбор исходных образов и степень их экспрессивности.

Русская фразеология демонстрирует склонность к экспрессивно-оценочной концептуализации, часто окрашенной иронически или драматически: *играть с огнём*, *ходить по тонкому льду*, *выносить сор из избы*. Эти выражения репрезентируют риск, опасность и социальные запреты через яркие визуальные сценарии, апеллирующие к коллективному опыту.

В узбекском языке фразеологизмы в большей степени ориентированы на нормативно-этическую регуляцию поведения и коммуникативную сдержанность: *тилни тиймоқ*, *кўнглини олиш*, *кўз-қулоқ бўлмоқ*. Здесь концептуализация тесно связана с ценностями гармонии, уважения и социальной ответственности.

Особое место в обеих лингвокультурах занимает антропоцентрическая модель, в рамках которой части тела служат источниками метафоризации. В русском языке это выражается в высокой частотности соматических фразеологизмов: *держать язык за зубами*, *терять голову*, *руки опускаются*. Подобные конструкции концептуализируют психоэмоциональные состояния через телесный опыт, усиливая экспрессивность высказывания.

В узбекской фразеологии телесные образы также продуктивны, однако они чаще связаны с идеей самоконтроля и моральной устойчивости: *бағри кенг*, *юзини ерга қаратмоқ*. В данном случае телесность выступает не столько источником эмоциональной экспрессии, сколько маркером этической оценки личности.

Историческое взаимодействие русского и узбекского языков, особенно в советский период, привело к определённой интерференции в сфере концептуализации. Это проявляется в заимствовании фразеологических моделей и калькировании образных схем, что, однако, не устраняет глубинных культурных различий. Русские фразеологизмы, будучи включёнными в узбекский языковой контекст, часто переосмысливаются с учётом локальных ценностных установок.

Модели концептуализации в русском и узбекском языках, реализуемые через фразеологию, отражают сложное взаимодействие универсальных когнитивных механизмов и культурно-специфических факторов. Русская фразеология характеризуется высокой степенью образной свободы, эмоциональной насыщенности и грамматической динамичности, что обеспечивает многоуровневую концептуализацию опыта. Узбекская фразеология, напротив, демонстрирует устойчивость, нормативность и ориентацию на коллективные ценности.

Сопоставительный анализ показывает, что фразеология является одним из наиболее репрезентативных уровней языка для изучения моделей концептуализации, поскольку именно в устойчивых выражениях закрепляются типизированные способы осмысления опыта, эмоционально-оценочные компоненты и культурные сценарии. Русская

фразеология демонстрирует динамичность, образную свободу и высокую степень экспрессивности, что позволяет ей выполнять функцию многомерной концептуализации абстрактных понятий.

Узбекская фразеология, сохраняя универсальные когнитивные механизмы, отличается большей устойчивостью и нормативностью концептуальных моделей, ориентированных на этическую регуляцию поведения и поддержание социальной гармонии. Анализ позволяет заключить, что выявленные различия обусловлены прежде всего спецификой лингвокультурного сознания носителей языков.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР:

1. Лакофф Дж. Женщины, огонь и опасные вещи. – М., 2004.
2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago, 1980.
3. Langacker R. Foundations of Cognitive Grammar. – Stanford, 1987.
4. Телия В. Н. Русская фразеология. – М., 1996.
5. Добровольский Д. О. Когнитивные основы фразеологии. – М., 2011.

INTEGRATION OF ONOMASTIC UNITS INTO SYMBOLS

Abbasova Zemfira Isakhan gizi,
Doctor of Philosophy in Philology,
Azerbaijan State Pedagogical University

SUMMARY

The article examines the integrative and implicit symbolic meaning layers that onomastic units - anthroponyms, toponyms, ethnonyms, theonyms and other proper names - carry in the cultural system of language. The cross-cultural semantic stability of integrative symbols and their stabilized symbolic function across different languages are analyzed. The research results show that onomastic units are not only a nominative element of the language system, but also a symbolic structure that carries cultural identity, psychological stereotypes, archetypes and collective experience. The onomastic system based on integrative and implicit symbols occupies an important place in the linguo-culturological analysis of language and allows us to reveal the semasiological, pragmatic and discursive nature of the symbol. The article also explains the mechanisms of formation of the symbolic function of onomastic units - the processes of metaphorization, historical-mythological transformation, discursive loading and associative expansion on scientific grounds.

Key words: onomastic unit, symbol, integrative symbol, implicit symbol, linguoculturology, semasiology, archetype.

ONOMASTİK VAHİDLƏRİN SİMVOLLARA İNTEQRASİYASI

Zemfira İsaxan qızı Abbasova,
ADPU, Filologiya üzrə fəlsəfə doktoru

Onomastik vahidlər – antroponimlər, toponimlər, etnonimlər, teonimlər və digər adlar – dilin yalnız nominativ funksiyasını deyil, həm də milli-mədəni yaddaşı daşıyan simvolik mahiyyəti ilə seçilir. Bu vahidlər zamanla məcazi-assosiativ mənalar qazanır, kollektiv şüurda müəyyən arxetipik və kulturoloji obrazların daşıyıcısına çevrilir. Mətnlərdə bu cür onomastik vahidlərin simvol kimi işlədilməsi dilin linqvokulturoloji imkanlarını genişləndirir və müəyyən bədii-estetik effekt yaradır (Məmmədov, 2010, s. 42).

Onomastik vahidlər yalnız advermə funksiyası daşımır, həm də mədəniyyətin dərin qatlarına sirayət edən simvolik məna kompleksi formalaşdırır. Bu vahidlərin semantik yükü, xüsusilə inteqrativ və implisit simvolik təbəqələrdə özünü göstərir. İntegrativ simvollar müxtəlif dillər və mədəniyyətlər arasında vahid məna modelini qoruyub saxlayır, implisit simvollar isə kontekstual, üstüörtülü və assosiativ mənalarla xarakterizə olunur (Qasımova, 2016, s. 42).

Onomastik vahidlərin simvollara inteqrasiyası yalnız dilçilik deyil, həm də mədəniyyətşünaslıq, mifologiya, psixologiya və ədəbiyyat nəzəriyyəsi ilə səsləşən çoxsahəli tədqiqat istiqamətidir. Dünya ədəbiyyatında və ərəb-islam mədəniyyətində xüsusi adların kulturoloji simvol səviyyəsinə yüksəlməsi geniş yayılmışdır. Bu proses bir tərəfdən arxetipləşmə, digər tərəfdən isə assosiativ-semantik genişlənmə mexanizmləri ilə izah olunur (Eliade, 1992, s. 61).

Onomastik vahidlərin simvollara çevrilməsi onların yalnız referensial deyil, həm də konnotativ funksiyasının güclənməsi ilə bağlıdır. Antroponim, etnonim və ya toponim mətn daxilində öz ilkin nominativ mənasından uzaqlaşaraq ümumiləşmiş obraz – simvolik göstərici qazanır. Bu hal dilçiliyin linqvokulturoloji istiqamətində “simvolik nominasiya” adlanır (Kravçenko, 2004, s. 87). Məsələn, Azərbaycan dilində “Xızır” adı yardım, möcüzə və xilaskar arxetipinin simvoluna çevrilmişdir. Ərəb ədəbiyyatında “Leyla” adı eşqin metafizik, ideal obrazını bildirir, Yaxın Şərq poetikasının arxetipik məhəbbət simvollarından biri kimi formalaşmışdır (İbn Quteybə, 1985, s. 119).

Ərəb dilinin klassik mənbələrində xüsusi adların simvolik mahiyyəti olduqca güclüdür. Buna səbəb: 1. Mifoloji və dini mətlərin təsiri: Qurani-Kərim və hədislərdəki onomastik vahidlər – “İbrahim”, “Yusuf”, “Musa” və s. – zamanla əxlaqi və mənəvi keyfiyyətlərin simvoluna çevrilmişdir (Təbəri, 1997, s. 55).

Cahiliyyə dövründən etibarən qəbilə adları, qəhrəman adları və coğrafi adlar poetik məna qazanaraq simvolik işarə funksiyası daşımışdır. Adlar yalnız fərdi deyil, kollektiv kimlik kodu kimi qəbul olunur; buna görə mətnlərdə bu adlar kollektiv təcrübəni təmsil edən simvollara çevrilir (Al-Jahiz, 1969, s. 203).

Etnonimlər çox vaxt müəyyən xarakter, temperament, davranış modeli və ya mədəni stereotipi ifadə edən simvolik vahidə çevrilir. Məsələn, klassik ədəbiyyatda “Qureyş” etnonimi liderlik, qüvvət və siyasi nüfuz simvolu kimi istifadə edilir (İbn Hişam, 1955, s. 74).

Toponimlərin simvolikləşməsi isə əsasən mədəni-mifoloji assosiasiyalarla bağlıdır. “Kərbəla” toponimi İslam mədəniyyətində faciə, sədaqət və şəhadət simvoludur. “Nəcd”, “Hicaz”, “Bəsrə”, “Kufa” kimi adlar müxtəlif ədəbi üslubların, elm mərkəzlərinin və intellektual istiqamətlərin simvolik göstəricisinə çevrilmişdir (Brockelmann, 1943, s. 213).

Onomastik vahidlərin simvol kimi öyrənilməsi bir neçə səviyyədə aparılır: Semantik səviyyə Burada adın ilkin leksik mənası ilə mətn daxilində qazandığı əlavə simvolik mənalar müqayisə olunur. Məsələn, “Züleyxa” adı yalnız qadın adı deyil, həm də sədaqətli eşq və gözəllik simvoludur (Əl-Qurtubi, 1988, s. 42).

Kognitiv-assosiativ səviyyə Adın kollektiv şüurda oyatdığı assosiasiyalar, mifoloji və dini arxetiplərlə əlaqəsi araşdırılır. “Səməd”, “Qadir”, “Rəhman” kimi teonimlər də bu səviyyədə simvolik gücə malikdir (İbn Fəris, 1979, s. 98).

Diskursiv səviyyə Onomastik simvolların konkret mətndə, müəllif üslubunda və ya ədəbi ənənə içində necə işlədiyi müəyyən edilir. Klassik ərəb şairlərinin qəsidələrində müəyyən toponimlərin nostalji və ayrılıq simvolu kimi istifadə olunması buna misaldır.

Azərbaycan dilçiliyində onomastik simvollar Azərbaycan folkloru və klassik ədəbiyyatında püskürmüş adların simvolik funksiyası genişdir. “Koroğlu”, “Nigar”, “Araz”, “Savalan”, “Göyçə”, “Qubad”, “Şah İsmayıl” və s. adlar təkcə ad deyil, milli-mədəni arxetiplərin sözlə ifadə formasıdır (Hüseynzadə, 2012, s. 131).

İnteqrativ simvolların əsas xüsusiyyəti onların çoxmədəniyyətli kod halına keçməsidir. Məsələn, “Koroğlu” obrazı türk xalqlarının yaddaşında həm qəhrəmanlıq, həm ədalət, həm də sosial müqavimət simvolu kimi formalaşmışdır (Məmmədli, 2012, s. 118). Eyni zamanda “Xızır” obrazı türk, ərəb və fars mədəniyyətlərində yardım və xilaskarlıq modeli kimi çıxış edir (El-Zein, 1998, s. 79). İngilis dili nümunələri Shakespeare-in “Romeo” adı qlobal ədəbiyyatda ehtiraslı, faciəvi eşqin inteqrativ simvolu kimi çıxış edir (Bloom, 2004, s. 55). “Sherlock Holmes” isə rasional təfəkkür və analitik metod simvoluna çevrilmişdir (Bertonneau, 2011, s. 23). Ərəb dili nümunələri Ərəb ədəbiyyatında “Layla” feminitet, gözəllik və əlçatmaz eşqin simvoludur (Ibn Qutayba, 1985, s. 214). “Majnun” isə eşqin mistik ekstaz halını ifadə edən ümumarab simvolik arxetipdir (Qays, 1999, s. 63). İmplisit simvollar İmplisit simvollar kontekstə əsaslanır və açıq şəkildə ifadə olunmayan, lakin mədəni kollektiv yaddaş tərəfindən tanınan mənaları ehtiva edir. 3.1. Azərbaycan dilində “Şuşa” toponimi yalnız şəhər adı deyil, həm də mədəniyyət, sənət və müqavimət simvolu kimi formalaşmışdır (Əliyev, 2021, s. 102). “Araz” hidronimi isə ədəbiyyatda həsrət, ayrılıq və sərhədlərin rəmzi olaraq işlədilir (Kazımov, 2007, s. 77). İngilis dilində “Waterloo” tarixi məğlubiyyət hadisəsi olsa da, dilə uğursuzluq metaforası kimi

keçmişdir (“to meet one’s Waterloo”) (Crystal, 2011, s. 143). “El Dorado” isə əlçatmaz sərvət anlamı ilə implisit simvolizmin tipik nümunəsidir (Parker, 1991, s. 58).

Ərəb dilində “Zamzam” (زمزم) sözü İslam mədəniyyətində saflıq və bərəkət anlamının gizli simvolunu daşıyır (Al-Faruqi, 2000, s. 231). “Kərbəla” isə sədaqət, fədakarlıq və dini emosional yaddaşın güclü simvoludur (Hussain, 1994, s. 66). İnteqrativ simvol adətən mədəniyyətlərarası miqyasda sabit qalır, implisit simvol isə daha çox lokal diskurs, tarixi kontekst və emosional yaddaş çərçivəsində açılır (Vondráček, 2019, s. 91).

Bu proses ərəb ədəbiyyatındakı simvolik onomastik sistemlə paralellik təşkil edir və iki mədəniyyət arasında assosiativ-semantik oxşarlıqları üzə çıxarır.

Onomastik vahidlərin simvollara inteqrasiyası dilin kulturoloji potensialının ən mühüm təzahürlərindəndir. Xüsusi adlar yalnız nominativ vahid kimi deyil, milli-mədəni kod, arxetip və metaforik simvol kimi fəaliyyət göstərir. Ərəb, Azərbaycan və ümumtürk mədəniyyətində bu prosesin tarixi kökləri vardır və mətndaxili funksiyası həm semantik, həm də pragmatik səviyyədə genişləndirici rol oynayır. Bu baxımdan onomastik simvolların linqvokulturoloji tədqiqi müasir semasiologiya, mədəni dilçilik və tekstoloji analiz üçün böyük əhəmiyyət daşıyır. Onomastik vahidlər mədəniyyətin konseptual xəritəsini yaradan əsas nominativ strukturlardan biridir. Onların inteqrativ və implisit simvollar kimi işlənməsi dilin yalnız ünsiyyət vasitəsi deyil, həm də kulturoloji yaddaş mexanizmi olduğunu nümayiş etdirir.

ƏDƏBIYYAT:

1. Al-Jahiz. Kitab al-Bayan wa-t-Tabyin. Beirut: Dar al-Fikr, 1969, 3 cild, 403s.
2. Brockelmann, C. History of Arabic Literature. Leiden:Brill,1943, volume1,506 s.
3. Eliade, M. The Sacred and the Profane. New York: Harcourt Brace, 1992, 256 s.
4. Əl-Qurtubi. Təfsir. Qahirə: Darul-Kutub, 1988, 450 s.
5. İbn Fəris. Mu’cam Maqayis al-Luġa. Beirut: Dar al-Fikr, 1979,745s.
6. İbn Hişam. Sira. Qahirə: Mısır Universiteti Nəşri, 1955, cild I, 481 s.
7. İbn Quteybə. Ədəbül-katib. Qahirə: Darul-Ma’arif, 1985, 389 s.
8. Kravçenko, A.V. Linqvokulturologiya əsasları. Moskva, 2004, 312 s.
9. Məmmədov, Q. Onomastikanın əsasları. Bakı: Elm, 2010. 228 s.
10. Hüseynzadə, Ə. Azərbaycan onomastikasında simvolik strukturlar. Bakı: Elm və Təhsil, 2012, 174 s.
11. Əliyev S. Azərbaycan mədəniyyət yaddaşında Şuşa toponimi. Bakı: Elm və Təhsil, 2021, 156 s.
12. Qasımova N. Simvol və mənanın linqvokulturoloji təhlili. Bakı: ADPU Nəşriyyatı, 2016, 214 s.
13. Kazımov K. Azərbaycan ədəbiyyatında toponimlərin poetikası. Bakı: Nurlan, 2007, 189 s.

14. Məmmədli A. Türk epik ənənəsində qəhrəmanlıq simvolları. Bakı: Elm, 2012, 203 s.
15. Ibn Qutayba. Kitab ash-Shi’r wa’s-Shu’ara’. Beirut: Dar al-Fikr,1985,392 s.
16. Qays ibn Əl-Muləvvəh. Divan Majnun Layla. Qahirə: Cairo University Press, 1999, 118 s.
17. Al-Faruqi I. R. Cultural Dimensions of Islamic Symbolism. Cairo: Islamic Research Center, 2000, 276 s.
18. El-Zein A. Islam, Arabs and the Intelligent World of the Jinn. Syracuse: Syracuse University Press, 1998, 264 s.
19. Hussain M. Karbala and the Emotional Memory in Islam. Beirut: Academic Publishing, 1994, 143 s.
20. Bloom H. Shakespeare: The Invention of the Human. New Haven: Yale University Press, 2004, 745 s.
21. Bertonneau T. The Semiotics of Detective Fiction. Oxford: Oxford Scholars Press, 2011, 207 s.
22. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2011, 495 s.
23. Parker J. Myths of the New World. Princeton: Princeton University Press, 1991, 211 s.
24. Vondráček J. Cross-Cultural Semiotics. London: Routledge, 2019, 233 s.

KOGNITIV LINGVISTIKA VA UNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Xamdamova Xanifa Shukurillayevna,
Jizzax politexnika instituti
O‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi dotsenti

Jadal rivojlanib kelayotgan hozirgi zamon tilshunosligida, xususan, o‘zbek tilshunosligida tillarni qiyosiy tadqiq etish masalasi juda muhimdir. O‘zbekistonda tillarni qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiq etish borasida muvaffaqiyatli izlanishlar olib borilayotganli quvonarli hol, albatta. Bilamizki, insoniyat taraqqiyoti tarixida vujudga kelgan turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri va bir-birini boyitishi masalalari ham madaniyatshunoslik fani doirasida qolaversa, insoniyat hayotining turli tomonlari bilan bog‘liq madaniy tushunchalarni yaxlit holda, bir tizim sifatida o‘rganadi. Jahon tilshunosligida dunyo xalqlarining madaniy va ma’naviy boyliklari bilan tanishish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etsa, o‘zaro qiyoslash uni munosib baholaydi.

Ma’lumki, tilshunoslik fani tilda bo‘layotgan barcha o‘zgarishlarni atroflicha o‘rganadi. Har qanday fan esa, o‘z navbatida, ehtiyoj tufayli yuzaga keladi va rivojlanadi. Jamiyat o‘z taraqqiyotini ta’minlash uchun hamma davrda ilm-fanni rivojlantirish va uning muammolarini tadqiq qilishga alohida e’tibor

berib keladi. Inson tili benihoya murakkab bo‘lib, uning barcha jihatlarini yaxlitligicha va birdaniga tasavvur qilish o‘ta murakkabdir. Shunday bo‘lsa-da, dunyo tilshunosligi tarixidagi bir necha asrlik tajribalar turli oqim namoyandalari tilni tadqiq etish eng maqbul yo‘l hisoblab, bu yo‘lda o‘rganish obyektini va uning mohiyatini aniq ko‘rsatib berish uchun butun umrlarini sarflaganlarini ko‘rsatadi[1].

Til va madaniyat munosabati, uning ijtimoiy hayotda aks etishi, xorijiy tillarni o‘rganish masalalari alohida e’tiborni talab qiladi. Inson ongi tobora rivojlanib borar ekan, uning dunyoqarashi, fikri, nuqtayi nazari ham takomillashib, kengayib boraveradi. Har bir fanda rivojlanish bo‘lgani kabi tilshunoslik ham kundan kunga taraqqiy topib, turli yangi oqimlar, yo‘nalishlar, yangi ilmiy-nazariy qarashlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Buning natijasida esa tilshunoslikning yangi turlari paydo bo‘ldi: psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, mentalingvistika, neyrolingvistika, kognitiv lingvistika va h.z [2]. Kognitivizm – shunday bir yo‘nalishki, uni inson axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida o‘rganadi. Uning xatti-harakati esa insonning ichki holatini ifodalovchi qabul qilish, qayta ishlash, xotirada saqlash, nutqqa tatbiq qilish singari tushunchalar yordamida ifodalanishi lozim bo‘ladi. Kognitsiya (sognition), ya’ni bilish faoliyati axborot (ma’lumot)ni qabul qilish, taqdim etish va yaratish harakatlari hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslikda qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, ammo tillararo lingvokognitiv hamda milliy-madaniy jihatlar chuqur o‘rganilgan emas, turli tillar bilan qiyoslab o‘rganilishi lisonning yanada serqirraligini namoyon qilishga ko‘maklashadi. Zamonaviy tilshunoslikda yetakchi o‘rinda tilni anglash emas, balki til, madaniyat va shaxsning o‘zaro munosabatlarini o‘rganish taqazo etiladi, bir-birini tushunish muammosi o‘rtaga tushadi. Ko‘rsatilgan uchlikning o‘zaro munosabati tilning milliymadaniy o‘ziga xosligini o‘rganishda muhim jihatni kasb etadi [3].

Kognitiv tilshunoslik kognitologiya asosida vujudga keldi. U tilning kognitiv aspekti bilan kiziqadi. Malumki, kognitsiya olamni bilishda inson bilimlarining ongda paydo bo‘lish va boyib borish jarayoni ekan, bilimlarni o‘zgartirish esa bevosita yoki bilvosita lison bilan aloqada bo‘ladi, bog‘lanadi. Insonning bilish qobiliyati uning lisoniy qobiliyati bilan hamohangdir. Til eng acociy muloqot jarayon bo‘lganligi sababli, olamni bilishda biz unga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilamiz. Kognitiv fan paydo bo‘lishi bilanoq, bir necha fanlar o‘rtasida-o‘zining aloqasini o‘rnatdi. Amerikalik psixolog H.Gardiner fanlararo bilimlar qayta ishlanadi va qo‘llanilish muammolari yechimini ishlash bilan band bo‘lishini qayd qiladi: «Kognitiv fanlar chorrahasida olti fan sohasi tutashishi va yagona bir ilmiy maqsad – tabiiy va sun’iy tizimlarda bilimni jamlaydi»[4]. Miller fikricha, «Kognitiv tilshunoslikning vazifasi, kognitiv strukturalar hamda so‘zlovchi-tinglovchi dinamikasini ta’riflash va tushuntirishdan iborat, so‘zlovchi-tinglovchi – axborotni qayta ishlovchi sistema hisoblanadi.

Tilshunoslik kognitologiya fani shakllanishida asos yoki poydevor bo‘lib xizmat qilgan uch soha: 1) insonlarga xos topshiriqlarni bajarish qobiliyatiga ega

bo‘lgan kompyuter dasturlarining yaratilishi; 2) kognitiv psixologiya doirasida bilish faoliyatining ruhiyatga oid tomonlarining chuqur o‘rganilishi; 3) generativ grammatika nazariyasining taraqqiy etishi va ushbu nazariya bilan bog‘liq lingvistik yo‘nalishlarning paydo bo‘lishini qamrab oladi»[5].

O‘.Q.Yusupov konseptga quyidagicha ta’rif beradi: «Konsept – bu tashqi yoki ichki dunyodagi biror narsa yoki hodisa haqida ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo‘lgan ijobiy, salbiy yoki neytral munosabat, ya’ni baholashdir»[6] .

Sh.Safarovning o‘zbek tilshunosligida kognitiv tilshunoslik haqidagi nazariy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Kognitiv tilshunoslikda «konsept» nimani anglatadi, degan savolga aniq javob topish qiyin. Buning asosiy sababi «konsept» tushunchasining o‘ta mavhum hodisa ekanligidir. Sh.Safarovning fikricha: «…konsept»ning zamiridagi «mental struktura» hech qanday moddiy ko‘rinishga ega bo‘lmay, balki aqliy idrok jarayonida hosil bo‘ladigan, tasavvurdagi tuzilma ekanligini unutmaslik lozim. Boz ustiga, «konsept» atamasi «tushuncha», «ma’no», «mazmun» kabi boshqa mental hodisalar bilan yonma-yon turadiki, ayni paytda ularning o‘zaro munosabatini aniqlash, farqli belgilarini ajratish muammosi ham paydo bo‘ladi» [5].

Hozirgi vaqtda kognitiv tilshunoslikda keng tarqalgan metodlardan biri freym semantikasi hisoblanadi. «Lingvokognitologiyaga ko‘ra, har qanday matn ma’lum bir freym ifodasidir»[7, 34]. Freym nazariyasini yaratgan olimlardan biri M.Minskiy unga shunday ta’rif beradi: «Freym – stereotip vaziyatlarni namoyon qilish usullaridan biri hisoblanib, har qanday freymda ko‘pqirrali axborot o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Binobarin, freym u yoki bu tipik vaziyatning keng hajmli prototipi bo‘lib, matn yaratilishi jarayonida kognitiv kontekst vazifasini bajaradi. Bu o‘rinda shuni ham aytish lozimki, matn yaratilishi tadqiqida kognitiv strukturalardan biri bo‘lgan geshtalt ham muhim o‘rin tutadi.

Freym inglizcha «frame» so‘zidan olingan bo‘lib, «karkas» yoki «ramka» degan ma’nolarni anglatadi. Bu atamani birinchi bo‘lib fanga 1974-yilda, sun’iy intellekt muammolari hamda kompyuterda bilimlarni namoyish etish usullarini tadqiq qilgan amerikalik olim M.Minskiydir. Ushbu atama sun’iy intellektni modellashtirish jarayonini tasvirlashda foydalanishni davom ettirib, o‘z o‘rnini kognitiv tilshunoslikda topdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ch.Fillmor «freym» tajribani andozaga soluvchi kognitiv tuzilma bo‘lib, lisoniy birliklar vositasida shakllanishini aytadi: «Freym –konseptning negizini tashkil qiladi». N.V.Volosuxina konsept va freym orasidagi o‘zaro munosabatni tahlil qiladi: «Freym – kognitiv model bo‘lib, konseptning skletidir» , Sh.Safarovning o‘zbek tilshunosligida «freym» atamasi haqidagi nazariy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi: «Har bir shaxs ongida «freymlar to‘ri to‘plami» mavjudki, ushbu to‘plam bilim va idrok faoliyatini ma’lum ko‘rinishdagi «andoza»lar asosida amalga oshishini ta’minlaydi» [8].

Freymning tabiati va uning asosiy belgilari haqida bildirilgan jahon va o‘zbek tilshunosligidagi fikr-mulohazalarni o‘rganish va tahlil qilish natijasida

shuni aytish mumkinki, turli tadqiqotlarda mazkur tushunchaga berilgan ta’riflar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, biri ikkinchisini to‘ldiradi va bir-birini taqazo etadi. A.E.Mamatovning «Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada?» nomli maqolasida, kognitiv tilshunoslik terminlariga (konsept, mikrokonsept, makrokonsept, superkonsept, konseptualizatsiya, kategorizatsiya, konseptosfera, freym, ssenariy, prototip va h.k.) bergan ta’rifi o‘zbek tilshunosligida o‘ziga xos zaruriy manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдувахобова Д.Э. Та’лим жараенида ма’навий-ма’рифий ишларни самарали ташкил этиш йуллари, шакл, метод ва воситалари. Образование и инновационные исследования. Межд. наych. журнал, 2021
2. Jumanazarova G. “Rustamxon” dostonda Leksemalarning metaforalizatsiyasi. Ijtimoiy fanlar tadqiqoti va sharhi xalqaro jurnali, 136-140. 2022
3. Зияева Махбуба Фазлидиновна. Шахс ма’навий камолотида тилшуносликнинг урни. 2021
4. Mardanov R. Obrazlar tizimida diniy va dunyoviy tafakkurning qiyosiy talqini. Myg‘аллим һәм үзликсиз билимлендирио‘, 104, 2022.
5. Mardanov R. O‘zbek mumtoz she’riyatida qosidga murojaat an’anasi. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (9), 414-420, 2023.
6. Хамдамова Ханифахон Шукуриллаевна. Speaking a foreign language-as a key to further selfimprovement. Современные проблемы науки, общества и образования. 2011
7. Хамдамова Х. The study of metaphors in philology. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 85-89. (2021).
8. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – T.:Fan, 2013. –34 b
9. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax. Sangzor, 2006. – B.25–46

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARDA METONIMIYALARNING QO‘LLANISHI

Almamatova Shahnoza Tursunqulovna,
JDPU dotsenti, f.f.nomzodi

Predmet yoki hodisalarning makon yoki zamondagi o‘zaro doimiy bog‘lanishlari asosida birining nomini ikkinchisi bilan almashtirilishi metonimiya hodisasi sanaladi. (Metonimiya grekcha–metoymia, aynan qayta nomlash) Bunda bir predmet bilan ikkinchi predmet orasida na tashqi, na ichki umumiy belgi bo‘lmaydi, balki ular orasida doimiy real aloqaning mavjudligi birining nomini aytganda ikkinchisini anglash, nazarda tutish imkonini beradi. Predmet

va hodisalar bir-biri bilan chegaradosh, bir-biri bilan bog‘langan bo‘ladi. Masalan, Samovar so‘zining “choyxona” ma’nosi metonimik yo‘l bilan hosil bo‘lgan. Misolda keltirilgan “samovar” deyarlik choyxonada ishlatiladi. Odamlar choy ichib hordiq chiqaradigan makon ham uning nomi bilan atalgan. Natijada samovar so‘zida yangi ma’no qirrasi paydo bo‘lgan. Demak, bir ob’ekt yoki bir necha ob’ekt nomlarining boshqa shunday ob’ekt yoki predmetlarning bir-biriga bog‘langan, qo‘shnichilik asosida tasavvur qilinishi metonimiyani yuzaga keltirar ekan.

Ajoyib so‘z zargari Abdulla Qahhor o‘z hikoyalarida metonimik ko‘chimning nodir ko‘rinish (variant)larini yaratgan.

Muallifning hikoyalarida metonimik ko‘chim variantlarining aksariyati uchraydi. Masalan, “Kartina” hikoyasida: Bog‘bon mehmonlarni kechki payt bo‘shatdi va o‘shanda ham “attang, fursatlaring bo‘lganda ***hameshabahorni*** ko‘rsatar edim” deb qoldi. U “***hameshabahor***” deb parnikni aytar edi. (“Kartina”, 1-tom, 293-bet).

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining buyuk memuar asari “Boburnoma”da Hindistondagi hayvonot, nabotot olami haqida gapirar ekan, ularning izohini, nimaligini ham aytib, izohlab beradi. Abdulla Qahhor ham bu o‘rinda qo‘llangan “hameshabahor”ning izohini ham beradi. Bu leksemaga e’tiborni qaratadigan bo‘lsak, predmetlar (issiqxona va unda o‘sadigan o‘simliklar) orasidagi mantiqiy aloqadorlik (haqiqiy bahor – bahor fasli bilan sun’iy bahor) ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Tabiiy gulning nomi metonimik yo‘l bilan parnikka – issiqxonaga o‘tkazish unda doimo gullarning mavjudligi bunga asos bo‘lgan. Bunday atash badiiy-stilistik bo‘yoqdorligi bilan o‘quvchi diqqatini tortadi.

Yozuvchining uch hikoyasida “***samovar***” so‘zi metonimik qo‘llangan. “***Samovar***” leksemasi deyarlik hamma badiiy matnlarda choyxona ma’nosida metonimik qo‘llanadi. Lekin Abdulla Qahhorda uchalasi ham farqli ishlatilgan: ***Samovarda*** o‘tirgan edik, birpasdan keyin Jonfig‘on chiqdi va yonimizga kelib:

-Shu gap gap bo‘ldimi, yo tag‘in jinniligi tutarmikin? –dedi (“Jonfig‘on”, 1-tom, 101-bet). Matndagi metonimik qo‘llangan “***samovar***” leksemasi o‘rin, joy, samovar joylashgan joyni anglatmoqda.

Guzar tomonda faqat bitta chiroq miltillar edi. ***Samovarlar yotgan***. Qaytib uyiga kirdi (“Anor”, 1-tom, 55-bet).

Birinchi matndagi samovar o‘rin, joy ma’nosini anglatsa, ikkinchi matndagi samovar payt ma’nosini, choyxonaning hammadan keyin yopilishi, butun elning uyquga ketganligini anglatish uchun qo‘llanilmoqda.

Uchinchi hikoyada o‘qiymiz:... endi bu ***samovaringni*** ko‘rganimdan keyin, ***samovarga*** muncha ishqing tushib qoldi, desam to‘g‘ri keladi.

– Samovar senga yoqdimi, axir?

– Yoqdi! (“Asror bobo”, 1-tom, 241-bet).

Bu o‘rinda “***samovar***” leksemasi ham predmetni, ham o‘rin ma’nolarini anglatmoqda. Yozuvchining mahorati shundaki, turli yillarda yaratilgan

hikoyalarda qo‘llangan (ishlatilgan) ***samovar*** metonimik ko‘chimi bir-birini takrorlamasdan turli ma’nolarni, turli badiiy-ekspressiv ifodalilikni anglatib kelmoqda.

Bunday badiiy ekspressivlikning takrorlanmas namunasini “Ig‘vogar” hikoyasida o‘qiymiz: - Maraz ana shunaqa, qochib kirgani ***eshik izlab*** yurgan kunlarning birida, banogoh, buyuk “talant” egasi ekanini bilib qoldi: tandirning ustida qovun urug‘ini cho‘qiyotgan tovuqqa “kisht” deb qo‘lidagi katta pichoqni otgan edi, pichoq borib tovuqning qoq kallasiga tegdi. (“Ig‘vogar”, 1-tom, 156-bet).

Yozuvchining badiiy qahramonlar yaratishdagi yutuqlaridan biri shundaki, har bir qahramonning harakteriga qarab uni harakat qildiradi va shunga mos holda tilimizning ifoda imkoniyatlaridan kelib chiqib so‘z tanlaydi. Uning vositasida yuzaga kelgan tasvir voqealar rivojiga singib ketadi. Yuqoridagi parchada “***eshik izlab***” birikuvi predmetlar orasidagi aloqadorlik asosida metonimik qo‘llanmoqda. Aslida hikoya qahramoni panalash uchun joy izlab yurgan paytda bu vazifani uni panaga oladigan o‘rin – uy –eshik bajaradi. Hamma uchun kimligini so‘ramasdan pana beradigan uy – xona metonimik ko‘chim asosida yaratilib badiiy-stilistik vazifa bajarishga xizmat qilgan.

Badiiy adabiyotda inson psixologiyasini tasvirlovchi obrazlar juda ko‘p, lekin Abdulla Qahhor yaratgan psixologik holat mutlaqo boshqacha. “Boshsiz odam” hikoyasidan parcha: Shu bilan u xotin dom-daraksiz bo‘lib ketdi. Ikki soatdan keyin yana bir keldi-yu, Faxriddinga indamay, yana bir ***uyga*** kirib ketdi. (“Boshsiz odam”, 1-tom, 82-bet).

Ushbu parchadagi ***uy*** leksemasi predmetlar orasidagi makonga, o‘rin-joyga nisbatan aloqa asosidagi ko‘chim (metonimiya)ga ko‘ra xona ma’nosini anglatadi. Umuman, ***uy*** yashash uchun mo‘ljallangan binoni anglatib, shu binodagi hamma xonalarni birgalikda anglatadi. Lekin bu o‘rinda alohida olingan xona ***uy*** deb nomlanmoqda. Bu metonimik ko‘chim predmetlar orasidagi doimiy aloqadorlikka asoslangan, ikkinchi tomondan, so‘zlashuv nutqiga xos koloritni ham tashimoqda.

Mashhur “Bemor” hikoyasida o‘qiymiz: Doktorxona deganda Sotiboldining ko‘z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan ***yigirma besh so‘mlik pul*** kelar edi. (“Bemor”, 1-tom, 56-bet).

Parchadagi ***yigirma besh so‘mlik pul*** birikuvi narsa va uning ifodalovchisi orasidagi aloqadorlik asosidagi metonimik ko‘chim yo‘li bilan yasalib, pora va poraxo‘rlikning daliliy ko‘rinishini kuchli emotsional –ekspressivlik asosida ifodalamoqda hamda kontekstual ma’no yuzaga kelmoqda.

Bu orqali xalqning saviyasi, o‘ta qoloq va qashshoq hayot, ijtimoiy zo‘ravonlikning asorati ana shu qisqagina tasvirda o‘z ifodasini topgan.

Abdulla Qahhor makon va zamon aloqadorligi asosida ajoyib metonimik ko‘chimlar yaratgan. Chunonchi, “Xotinlar” hikoyasida shunday sintaktik konstruksiya mavjud: Sobiraxon otning boshini tortib:

– Ota, juda ***xayol surib*** qoldingiz? – dedi. (“Xotinlar”, 1-tom, 258-bet).

Bu metonimik ko‘chimda (xayol surib) shaxsning ruhiy holati juda nozikta’blik bilan chizilgan. “***Xayol surib***”ning ***o‘rnida o‘ylab, o‘y surib qoldingiz*** deyish mumkin edi. Ammo “xayol surib”da emotsional-ekspressivlik kuchli ifodalangan. Chunki “***xayol surmoq***”da tasavvur qilish, xotiradan o‘tkazish kabi jarayonlar kuchliroq gavdalanadi. Qiyoslang: “o‘y surish”ni – o‘ylash, deyish mumkin bo‘lgani holda “xayol surish – xayollash deb bo‘lmaydi. “***Xayol surish***”da tafakkur imkoniyati konkretroq his qilinadi.

Yozuvchining hikoyalarida harakat uyg‘unligi asosida metonimik ko‘chimlar yaratilgan: ... kecha o‘zingiz ariqdan ko‘zoynagingizni izlatdingiz ...

Qutbiddinov labini burdi.

– Ko‘zoynak izlasa burundan suv oqar emishmi? Ming la’nat! Bor, uyga kir, darsingga ***qara***! (“O‘jar”, 1-tom, 116-bet).

Keltirilgan parchadan ma’lumki, badiiy qahramonning noqulay holatga tushgan vaqtdagi ruhiy tarangligini anglatish uchun (tasvirlash uchun) chiroyli metonimik ko‘chim ishlatilgan. Bu o‘rinda qara (qaramoq) fe’li o‘rnida kontekst talabiga ko‘ra ***tayyorla***, ***qil*** kabi fe’llarni ishlatish mumkin edi. Lekin ***qara*** fe’lidagi stilistik bo‘yoqdorlik ana shu vaziyatga (badiiy qahramonning noqulay ahvoldan chiqish holatiga) mos tushgan. Natijada, chiroyli metonimik ko‘chim yuzaga kelgan.

Xullas, Abdulla Qahhor ana shunday metonimik ko‘chimlar orqali ona tilimizning beqiyos, betakror ifoda imkoniyatlarga boy ekanligini namoyish qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qahhor A. Asarlar, 6-tomlik, 1-tom, G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent, 1967.
2. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. Toshkent, 1977 yil.
3. Sultonova M. Abdulla Qahhor uslubi, “Fan” nashri, Toshkent, 1967.
4. N.Mahmudov. Abdulla Qahhor hikoyalarining lingvopoetikasiga doir, O‘TA, jurnali, 1987 yil, 4-son, 34-36-betlar.
5. Tohirov Z. Metonimik hosila ma’nolarida pragmatik semalar. O‘TA, 1975, 3-son.
6. Mirtojiev M. Metonimiyaning sodir bo‘lishi. “O‘zbek tili leksikologiyasi va grammatikasi masalalari”, ToshDU, ilmiy ishlar to‘plami, 561-son, Toshkent,1988.
7. Mahmudov N. Termin, obrazli so‘z va metafora. O‘TA, jurnali, 2013. 4-son.

БИЛАН КЎМАКЧИСИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Турдибоев Тоҳир Ҳасанович,
Академик Б.Ғафуров номидаги Хужанд давлат университети доценти, филология фанлари номзоди

Мактабда кўмакчи мавзусини ўтишдан мақсад ўқувчиларни ўзбек тили фани бўйича билимларини бойитиш, уларга ёрдамчи сўзларнинг маъно ва вазифаси, ўзига хос хусусиятлари, шунингдек, кўмакчининг мустақил сўзлардан ҳамда ёрдамчи сўзларнинг бир-биридан фарқли томонларини ўргатиш; ўқувчилар нутқида кўмакчини тўғри ва ўринли қўллай билиш малакаларини ҳосил қилиш; кўмакчининг ёзилишини (баъзан шеъриятда билан ўрнида -ила, -ла, бирлан тарзида қўлланиш ҳолларини) уқтириш; содда ва қўшма гапларда кўмакчининг яна бошқа вазифа-хусусиятларини тушунтиришдан иборатдир[1,162].

Маълумки, ўқувчилар кўмакчи сўз туркумини морфология бўлимида ўрганишади, шу туркум тўғрисида малака ҳосил қилишади. Мактабда ёрдамчи сўзларни синтаксисга боғлаб ўрганиш ҳам мақсадга мувофиқдир, чунки кўмакчининг маъно ва вазифаси уюшган бўлаклар ҳамда қўшма гапларнинг предикатив қисмларини бириктиришда ҳам яққол намоён бўлади.

Дарсликларда кўмакчига турлича таъриф берилади: от, олмош, ҳаракат номи, сифатдошлардан кейин келиб, уларнинг бошқа сўзга тобеланиш билан боғланишини билдирадиган ёрдмчи сўзлар кўмакчи дейилади[2,189].

Кўмакчилар ўзлари бошқа сўзларни феъл билан боғловчи ва феълнинг валентик имкониятига кўра, уларни синтактик жабҳага тортувчи ёрдамчи сўз туркумидир. Кўмакчи қайси сўздан кейин келса ўша сўз билан биргаликда бир сўроққа жавоб бўлади, ўша сўз билан бирга гапнинг бирор бўлаги бўлиб келади.

Ҳозирги давр талаблардан келиб чиққан ҳолда, мавзуларни ўтишда фан тараққиёти янгиликларига ҳам эътибор берилиб ўқитилса, айни муддо бўлур эди. Шу боис кўмакчилар тўғрисидаги бошқа фикрларни ҳам дастурига боғлаб ўтиш мақсадга мувофиқ бўларди.

Илмий манбаларга ташлайдиган бўлсак кўмакчилар соф кўмакчилар ва кўмакчи отлар каби гуруҳларга ажратилади. Синтактик грамматик вазифада кўмакчиларнинг бу икки гуруҳи ўзаро фарқ қилмайди. Фарқ фақат уларнинг луғавий маъно муносибатига кўра белгиланади. Кўмакчи отларда мустақил сўзларга хос луғавий қиймат сақланади. А.А.Коклянова кўмакчиларни сўзларнинг гапда бошқарув йули билан тобеланишини таъминловчи, ўзи бошқарган сўз билан изофали алоқада боғланиб, ўрин келишиги билан турланувчи лексик грамматик категория сифатида

изоҳлайди [3,111]

Тилшунос Е. Т. Черкасова кўмакчиларнинг мустақил маъноли сўзлардан фарқи ҳақида ёзганда, уларни икки тамонлама синтатик алоқа шароитида вазифа бажаришини (ҳам ўзи боғланган от билан, ҳам ҳоким синтактик мавқеидаги сўз билан) эътироф этади. Кўмакчиларнинг маъно хусусида уларнинг ўзлари қўшилган мустақил сўз маъноси билан боғлиқлигини ва кўмакчиларнинг маъносини айтади. Уларнинг умумий маъноси барча кўмакчилар учун муштарак бўлган семантика бўлса, хусусий маъноси кўмакчиларнинг лекик маъноси бўлиб, бу маънога кўра кўмакчилар ўзлари мансуб бўлган гуруҳ ва таггуруҳдаги бошқа барча кўмакчилардан фарқланади -ажралади. Мазкур маъно у ёки бу кўмакчининг сўзлараро умумий маъно муносабатларини ҳар хил шаклларда рўёбга чиқарувчи «ички шакл» га ўхшаш маъновий қийматдир [4, 20-21].

Хуллас, кўмакчилар гап қурилиши учун зарур бўлган, гап таркибида объектли ва ҳолли муносабатларни юзага чиқарувчи муҳим, аҳамиятли граматик ҳодисалардир. Гап қамровида объектли ва ҳолли синтактик муносабатлари юзага чиқариш жиҳатидан кўмакчилар келишик қўшимчаларига вазифадош ҳодиса саналади.

Шунингдек, мактабда кўмакчиларнинг ўзларига хос фаолиятидан яна бошқа вазифани бажариши ҳам мумкинлиги, яъни кўмакчилар конверсия жараёни туфайли ўзлари мансуб бўлган вазифадан четлашиши тўғрисида ҳам маълумот бериш диққатга моликдир. Чунки кўмакчилар боғловчи ва юкламага хос вазифа пайдо қилади, леин кўмакчиларнинг боғловчи вазифасига ўтиши мураккаб жараён эканлигини ҳам унутмаслик зарур.

«Билан» кўмакчиси тўғрисида маълумот беришдан олдин, бу сўзнинг соф кўмакчилар турига мансублиги, унинг маъно ва вазифаси жиҳатидан бошқа кўмакчилардан фарқли томонлари тушунтирилади.

Билан кўмакчисининг маъно ва вазифаларига бағишланган ишларда[5,41-42] бу ёрдамчи сўзнинг тенгланиш алоқасини ифодаловчи моддий материал бўла олиши хусусида ҳам гап боради, бундан ташқари мазкур кўмакчининг келиб чиқиши адабий тил ва шевалардаги кўриниши -ла, -ила бирлан шаклида қўлланиши каби фикрни келтириш билан чекланиш мумкин. «Ўзбек адабий тили ва сўзлашув услубида билан кўмакчиси ўзининг энг кўп қўлланиши ҳамда, англанаётган маъно турларининг хилма-хиллига билан соф кўмакчилардан ажралиб туради» [6,41-42].

Билан кўмакчиси тўғрисида норматив грамматика ва дарсликларда тўлиқ маълумот берилган, шунингдек, унинг услубий хусусиятлари ҳақида ҳам бир қатор мақолалар эълон қилинган. Олий мактаб дарсликларида «билан»нинг биргалик, ҳамкорлик, курол- восита, иш-ҳаракат объекти маъносини англатиши, ҳаракат номлари билан, вақт билдирувчи сўзлар билан бирга келганда, ҳар бир ҳаракат кетидан иккинчисининг тез бошланиши вақт маъносини ифодаланиши сингари маънолар англатиши

қайд этилган [7, 283-285]. Шунингдек, шеъриятда турли хил шаклга эга бўлиши ҳақида назарий масалалари мисоллар орқали далилланган.

Мактаб дарслигида «билан» сўзининг фақат кўмакчилик хусусиятлари тўғрисида маълумотлар берилиб, мисоллар келтирилган. Шунингдек, билан кўмакчисининг конверсия ҳодисаси туфайли боғловчи вазифасига кўчиши ҳақида қўшимча маълумотларни бериш тавсия этилади, чунки ”билан”нинг бошқа кўмакчилардан аҳамиятли ва фарқли томонини бу сўз якка ҳолда ҳам боғловчи вазифасида қўллана олиши шунингдек, бу кўмакчининг боғловчига айланишида кўмакчига препозитив тарзда “уланган” феъл шаклларнинг таъсири катта аҳамиятга моликдир.

У феълнинг ҳаракат номи ҳамда сифатдош шаклларига қўшилиб – (и)ш+билан; ган(и)+билан сингари андозалар ҳосил қилиш хусусиятига алоҳида тўхталиш жоиздир.

Билан кўмакчиси тенгланиш ҳамда тобеланиш маркери вазифаларида боғловчига кўчади. Бу ёрдамчи тенгланш алоқаси маркери сифатида тенгланиш алоқасини ифода этганда, содда гаплар таркибида аниқроғи материал жиҳати от, отлашган сўз ва олмошларга тенг келувчи уюшиқ бўлакларни боғлайди, бириктирув боғловчиси “ва” нинг маъно ва вазифасига мойил маъно ва вазифа бажаради, яъни тенгланиш лоқасига асосланган синтагматик бутунлик ҳосил қилади: Толибжон билан болалар мақбарани айланиб у ёқ-бу ёқларини кўриб бўлгунларича йигит ёнғоқ тагига шолча солиб ўртага дастурхон ёзиб қўйди. (С.Аҳмад)

Билан кўмакчисининг “ва”га хос маъно вазифада қўлланиши ўзига хос прагматик қиймат касб этади. Мазкур луғавий грамматик (лексик-грамматик бирликнинг) «ва» боғловчисига хос синтактик тавсифда бўлиб унда ва боғловчисининг маъно ва вазифа қамровида кўзга ташланмайдиган “қиррача” ҳам мавжуд. Билан тенг боғловчига мойиллашганда ҳар хил ёрдамчи ўз туркумларига хос икки хил прагматик қиймат ифодалайди, бир вақтнинг ўзида ҳам «ва» боғловчисининг грамматик хусусиятига тааллуқли жиҳат билан, таъкид, кучайтириш юкламаларига хос прагматик қиймат синхрон тавсифда қўшилиб кетади, қоришади. Шунинг учун ҳам “Толибжон билан болалар мақбарани айланиб у ёқ-бу ёқларини кўриб бўлгунларича йигит ёнғоқ тагига шолча солиб ўртага дастурхон ёзиб қўйди”; “Толибжон, болалар мақбарани айланиб у ёқ-бу ёқларини кўриб бўлгунларича йигит ёнғоқ тагига шолча солиб ўртага дастурхон ёзиб қўйди”гаплари бири бошқасидан мазмуни, грамматик жиҳати, коммуникатив вазифаси, номинатив қамрови каби хусусиятларига кўра фарқ қилмайди. Ёки шу каби хусусиятини қуйидаги мисолда ҳам кўриш мумкин: Насим полвон билан Жаъфар Мирвалининг энг ишонган кишилари. Ур деганини уришарди, теп деганини тепишарди.(С.Аҳмад)

Билан кўмакчисининг яна характерли томони, яъни мазкур ёрдамчининг нафақат тенгланиши алоқасини ифода этувчи тенг боғловчиларига, балки тобеланиш алоқасини ифода этувчи эргаштирувчи

боғловчиларга киради. Ана шундай маъно ва вазифада қўлланувчи кўмакчилар ҳам эргаштирувчи боғловчи тарзида ҳам ёки кўмакчи (унда фақат “билан” назарда тутилади) тарзида ҳам уқиш мумкин: Толибжон винтелятор вилкасини разеткга тиқиши билан урчуқ гириллаб айлана кетди.(С.Аҳмад); Ажаб, таёқ тегиши билан чўғларнинг ҳаммаси сўнди (С.Аҳмад).

Билан кўмакчиси феълнинг ҳар хил шаклларини ҳосил қилувчи қўшимчалар билан бирикиб эргаштирувчи боғловчи мақомига эга бўлганда ҳам анча фаоллиги мазкур кўмакчи феълнинг эгалик қўшимчаларини олган -(и)ши кўрсаткичли шакиллари билан -(и)ши билан кўринишидаги мураккаб боғловчига айланишини, бу боғловчи пайт маъносидаги эргаш гапли қўшма гапни вужудга келтиришини мисоллар орқали кўриш мумкин: Эртанги олма товсилиши билан кетма-кет ўриқ чиқади (С.Аҳмад); Тоққа қор тушиши билан автобусларнинг қатнови ҳам сийраклашиб қор тепдан пастга аста- секин ўрмалашни бошлаганда бутунлай тўхтайди (С.Аҳмад).

Шунингдек, билан кўмакчисининг феълнинг эгалик билан турланган гани қўшимчали шаклларига қўшилиб, гани билан кўринишдаги эргаштирувчи боғловчига айланади. Шу ўринда бир нарсани таъкидлаш жоизки, мазкур боғловчи кўп маъно (вазифа)ли бўлиб, пайт ва тўсиқсизлик маъноларидаги эргаш гапли қўшма гапларни ҳосил қилади: У келгани билан машина бортини очиб тахтадан кўприк қилишди (С.Аҳмад); Ўқитувчи синфга киргани билан ўқувчилар ўрнидан туришди ва ҳоказо.

Хуллас, билан кўмакчиси танҳо ҳолда ҳам, формант шаклида ҳам боғловчи мақомини олиб, содда гапрлар таркибида уюшган бўлакларни ва эргаш гапли қўшма гапларнинг предикати қисмларини бириктириши мумкин. Кўмакчи сўз туркуми ҳақида гап кетганда, “билан”нинг кўмакчилик хусусиятидан ташқари, боғловчилик “фаолиятини” ҳам айтиб ўтиш мақсадга мувофиқдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.Ғуломов Ё., Расулов И., Рустамов Ҳ., Мирзоаҳмедов Б. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. Тошкент: “Ўқитувчи”, 1975.
2.Ғуломов А., Абдуллаев Й., Маърупов З., Омилхонова М. Она тили. 6-7-синфлар учун дарслик. Тошкент: “Ўқитувчи”, 1996.
3.Коклянова А.А. Послелоги и служебные слова в узбекском языке. М.,1965.
4.Черкасова Е.Т. Переход польнозначных слов в предлоги. М.,1967.
5.Рустамов Т. Соф кўмакчилар. Тошкент: Фан, 1991.
6.Ўрибоева Д.Б. Ўзбек сўзлашув нутқидаги ўзгармайдиган сўзлар. Самарқанд, 1997.
7.Ўзбек тили грамматикаси. 1. Морфология. Тошкент: Фан, 1975.

MILLI DIL VE MILLI KIMLIK SORUNLARI: TEHLIKE ALTINDAKI TÜRK DILLERI

Kahramanova Yegane,
Azerbaycan Dövlet Pedaqoji Universitesi
Doçent, filoloji doktoru

Milli dil ve milli kimlik meselesi birbiriyle ilişkili meseledir ve birçok durumlarda siyasi niteliktedir. Çünkü dil politikası herhangi bir ülkenin ana ideolojik yönlerinden biridir. Dil politikası, herhangi bir sosyal toplumda mevcut olan dilleri ve işlevlerini etkilemek amacıyla yürütülen bir faaliyet biçimi anlamına gelir. Bu isim altında, bir siyasi birim bünyesinde konuşulan dillere, bunların kullanımına ve faaliyetlerine, hükümetin yürüttüğü çalışmalara ilişkin kararlar ve yasa tasarıları ele alınmaktadır. Her ülkenin dil politikasını kendine göre uygulayan kurumların olduğunu biliyoruz.

Dolayısıyla dil politikası kavramı hem bilimsel hem de politik bir anlam taşımaktadır. Genel olarak dil politikası herhangi bir etnik grubun ulusal kimliği meselesiyle doğrudan ilgilidir. Dolayısıyla her toplumun ulusal diline karşı atılan adımlar o toplumun ulusal kimlik sorununu tehlikeye atmaktadır. Bu açıdan bakıldığında bağımsız devletliğe sahip olmayan ve herhangi bir devletin içinde veya ona bağlı olarak yaşayan halkların durumu şüphesiz daha zordur. Çünkü çeşitli devletlerde uygulanan ulusal dil politikası çoğunlukla küçük ulusların ve etnik azınlıkların ortadan kaldırılması ve asimilasyonunu amaçlamaktadır. Bu yüzden Türk halklarının milli dili ve milli kimliğinden bahsederken, bağımsız devletliğe sahip olan Türk halklarından ve bağımsız devletliği olmayan ancak ayrı devletler bünyesinde faaliyet gösteren Türk halklarından bahsetmek gerekir.

Мнения Б. Халилова совпадают с мнениями З. Будаговой. На самом деле наличие таких расхождений создаёт определённую свободу в употреблении запятой. Нужно признать, что подобная разнородность мнений существует и сейчас. То есть единой точной системы пока нет. Внимание привлекает мнение профессора А. Эфендизаде: «Иногда бывают случаи, когда после подлежащих o, bu, стоящих перед существительным, запятая не требуется. Например, в предложениях “O Kiyevdən dünən qayıdıb” (“Он вчера вернулся из Киева”), “Bu Nəsiminin heykəlidir” (“Это памятник Насими”) местоимения o, bu выступают только как подлежащие и не смешиваются с определением. Когда эти местоимения выполняют функцию подлежащего, нет необходимости отделять их запятой перед служебными словами. Потому что в таком случае они никогда не могут быть определениями. Например: “O da qaynaqçıdır” (“Он тоже сварщик”)» [4, с. 76]. А. Эфендизаде считает целесообразным ставить запятую после местоимений o, bu, выражающих подлежащее, только в том случае, если за ними следует служебное слово. На наш взгляд, следует установить единое правило относительно постановки запятой после местоимений o, bu, когда они употребляются в роли подлежащего. Это устранило бы произвольность в употреблении запятой.

Профессора М. Ширалиев и М. Гусейнов считали приемлемым ставить запятую после местоимений o, bu, если далее следует

существительное, прилагательное или числительное [5, с. 9]. Профессор И. Мамедли считает приемлемым ставить запятую после этих местоимений, если далее следует член предложения, выраженный всеми частями речи, кроме глагола и служебных частей речи. Он подчеркивает, что если местоимения o, bu в роли подлежащего стоят перед глаголом или служебными частями речи (за исключением причастий и модальных слов), запятая не ставится [6, с. 9].

Профессор А. Ахундов отмечает, что в книгах о знаках препинания чаще всего разъясняется их грамматическая сущность, но не уделяется внимания их фонетической функции. Особенно запятая рассматривается исключительно с грамматической точки зрения. Учёный пишет: «Действительно ли это так? Почему, например, в предложении “O kitab oxumaqla vaxtını keçirirdi” между словами o и kitab нет паузы, но мы должны ставить запятую после o? И почему в предложении “O özü də kitab oxumağı sevirdi”, где между словами o и özü də есть пауза, мы не должны ставить этот знак? Только потому, что так написано в учебниках?» [7, с. 185]. А. Ахундов обращает внимание и на случаи, связанные с двоеточием, точкой с запятой, тире. Учёный считает избыточное употребление знаков препинания в письменной речи нежелательным и приветствует ограниченность их употребления в русском и европейских языках. На наш взгляд, если употреблять знаки препинания только в действительно необходимых случаях, их место в письменной речи было бы чётким и бесспорным. Например, если насчитывается 54 случая употребления запятой и в каждом требуется её постановка, запомнить эти правила и применять их на письме становится крайне трудным. Для сравнения можно сказать, что в таких развитых языках, как английский, запятая употребляется редко - только при необходимости.

З. Будагова также отмечает, что после деепричастий с формантами -ıb / -ib и -araq / -ərək, выполняющих в составе предложения функции обстоятельств образа действия, времени, причины, цели, запятая не ставится. Если же такие деепричастия выступают в роли однородных сказуемых, то после них ставится запятая.

На самом деле вопрос постановки запятой после деепричастий с этими формантами спорный. Интересны мысли Мусы Адилова по этому поводу. В своей книге «Грамматика азербайджанского языка» для школьников он пишет, что если действие, выраженное деепричастием с формантом -ıb, относится к подлежащему, то ставится запятая. Например: “Mən tez maşına minib, gedən dostumu yola saldım”. Если деепричастие с -ıb выступает как однородное сказуемое и между ним и основным сказуемым находится несколько слов, после деепричастия требуется запятая. В его статье «Деепричастие и запятая» также приводятся подобные сведения. Автор утверждает, что запятая связана не с морфологией, а с синтаксисом, то есть с синтаксической ролью слова в предложении. Поскольку

деепричастие - это предмет морфологии, связывать с ним постановку знака препинания неправильно [8, с. 15]. То есть учёный не принимает постановку запятой после деепричастия. На наш взгляд, это правильный подход. М. Адилов подтверждает выводы А. Ахундова.

На наш взгляд, такие спорные вопросы требуют окончательной ясности.

ƏDƏBİYYAT:

1. Budaqova Z.İ. Azərbaycan dilində durğu işarələri. Bakı: Elm, 1977, 85 s.
2. Dəmirçizadə Ə.M. Müasir Azərbaycan dili: I hissə, Bakı: Maarif , 1972, 308 s.
3.Qulamoğlu N. Müasir Azərbaycan dili punktuasiyasının bəzi problemləri. Bakı: Elm və təhsil,2019,124s.
4. Əfəndizadə Ə.R. İki halda verğüldən istifadəyə dair // Nitq mədəniyyəti məsələləri, 1988, səh. 66-76
5. Şirəliyev M.A., Hüseynov M.H. Azərbaycan dilinin durğu işarələri. Bakı: Azərnəşr,1945,14s.
6. Məmmədli İ.O. Durğu işarələrinin yazıda işlənməsi məqamları haqqında. “Azərbaycan “qəz., Bakı, 2014, 27 fevral, səh.9
7. Axundov A.A. Bir daha durğu işarələri haqqında // Dil və mədəniyyət, Bakı, 1992, səh. 181-189
8.Adilov M. Feli bağlama və vergül// Azərbaycan dilivə ədəbiyyat,1961,s.15-20

JADIDCHI OLIM ABDURAUF FITRATNING O‘ZBEK ADABIY TILI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI

Soyipov Sunatulla Normatovich,
JDPU dotsenti

Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoro shahrida ziyoli oilasida tug‘ilgan bo‘lib, uning otasi asosan savdogarchilik bilan shug‘ullangan va u shu sababli ham 1918-yilgacha Qashqadaryoda yashaydi. O‘sha paytlarda Abdurauf onasi Mustafo Bibi tarbiyasida bo‘ladi. Uning onasi ham ziyoli va o‘qimishli bo‘lganligi uchun Fitrat onasi tilidan Navoiy, Uvaysiy, Zebiniso, Bedil, Feruz kabi yirik shoirlarning g‘azallarini tinglaydi. Dastlab u eski maktabda, so‘ngra Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil oladi. 1902-1903-yillar davomida u haj safariga boradi va uni ado etadi. So‘nra Arabiston, Anaduli (Turkiya), Kavkazorti, Eron, Afg‘oniston, Hindiston bo‘ylab sayohat qiladi. U 1906-1908-yillarda Rossiyaning Qozon, Nijniy Novgorod,Yaraslavl, Moskva, Reterburg shaharlarida bo‘lgan. XX sar boshlarida vujudga kelgan ”Tarbiyai atfol” jamiyati ko‘magi bilan 1908-1913-yillar davomida u Istambuldagi Voizon madrasasida tahsil olgan. Madrasada unga o‘sha madrasaning taniqli mudarrislaridan Yusuf Akchura ta’lim bergan.

Abdurauf Fitrat 1908-1913-yillarda Turkiya dorulfununida o‘qib yurgan paytlarida uning zukko, bilimdonligi dorulfununning professor-o‘qituvchilarini

hayratga soladi. Unga u yerda Fitrat – Donishmand taxallusi beriladi. Uning dastlabki maqolalari Turkiyaning “Hikmat” jurnalida bosilgan. O‘zi esa Rossiya imperiyasidan kelgan muhojirlar bilan aloqa bog‘lagan.

Fitratning Usmonlilar poytaxtida o‘tkazgan to‘rt yili Bolqon urushi va yosh turklarning konstitutsiyaviy inqilobiga to‘g‘ri keladi. Fitrat Istambulda o‘qib yurgan paytlarida Buxoroliklar bilan birgalikda “Buxoro ta’lim maorifi” jamiyatini tuzgan. Mazkur jamiyat buxoroliklarning o‘zaro moddiy-ma’naviy uyushmasi vazifasini bajargan hamda Buxoro va Turkiston maorifining oldinga siljishiga doir bir qator ishlarni amalga oshirgan. Turkiyadagi bunday inqilobiy muhit albatta Futratga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi va u shu tariqa siyosat maydoniga kirib keladi.Turkiyada Fitrat Sharq adabiyoti, san’ati va tarixini chuqur va atroflicha o‘rganadi va o‘sha paytda ilg‘or hamda taraqqiyparvar turk adabiyoti vakillari, shuningdek, turk adabiyoti orqali G‘arb adabiyoti bilan yaqindan tanishadi. G‘arb va Sharq xalqlari madaniyati, adabiyoti o‘rtasidagi farqlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘radi va ularning sabalarini teranroq anglaydi.

Fitrat vatanga qaytgach, o‘sha davrdagi Buxoro jadidlarining tashkilotchilaridan biri sifatida xalqni ma’rifat va madaniyatdan bahramand qilish uchun astoydil kirishadi, xuxusan, u Buxoroning turli tumanlarida o‘qituvchilik qilib, yoshlarga jadidchilik g‘oyalarini keng targ‘ib etadi. Fitrat 1905-yildan “Yosh buxoroliklar” harakatining so‘l qanotiga boshchilik qiladi.1916-yilga qadar buxorolik jadidlar yakdil va yagona jabha bo‘lib ish olib borgan bo‘lsalar, keyinchalik ular ikkiga bo‘linib ketadilar. Abduvohid Burhonov boshchiligidagi jadidlarning bir qismi eski tarzda faqat ma’rifat-madaniyat tarqatish yo‘lini tutgan bo‘lsa, ularning boshqa bir bo‘lagi Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev kabi chet mamlakatlarda o‘qib kelgan yoshlar omma o‘rtasida ma’rifat va madaniyat taqatish bilan birga amirga qarshi kurashishni ham yoqlab chiqadilar. Bunday bo‘linishning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

1.Turkiston o‘lkasi, shu jumladan Buxoro amirligidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatning og‘irligi, rus podshosi va amirlikning ikki yoqlama zulmkor siyosati.

2. Bolshiveklarning mahalliy xalq orasida olib borayotgan tashviqot va targ‘ibotlari ta’siriga ishonuvchanligi.

3. Mahalliy xalq vakillarining siyosiy vakumda saqlanganligi, ularning siyosat borasidagi g‘oyaviy-nazariy saviyasining yetarli darajada rivojlanmaganligi.

1917-yildagi fevral voqealaridan so‘ng jadidlarning Buxorodagi ahvoli murakkablashgach, Fitrat Samarqandga ko‘chib borib, u yerda 1917-yil apreldan 1918-yil martgacha “Hurriyat” gazetasiga muharrirlik qiladi va gazeta tahririni rivojlantirish maqsadida u nashriyotga O‘rta Osiyo jadidchilarining darg‘alaridan biri, Muftiy Muhammadxo‘ja Behbudiyni taklif qiladi. Fitrat 1917-yilning oktyabr oyini “Yurt qag‘usi” deb baholaydi. Ammo u nurli kelajakdan umid uzmadi va 1917-yil 27-noyabrda e’lon qilingan Turkiston Muxtoriyatini cheksiz mehr bilan qarshi oldi. Hatto 27-noyabr kunini “Milliy laylatulqadrimiz” deb

atadi. Ammo uning quvonchi uzoqqa cho‘zilmadi. 1918-yilning 19-20-fevralida Turkiston Muxtoriyati bolsheviklar va armanlarning “Doshnoq” partiyasi tomonidan dahshatli ravishda yoq qilindi. Bu voqea tarixda “Doshnoq” voqeasi nomini oldi.

Fitrat 1918-yilda Toshkentga ketdi. U dastlab Xadradagi maktabda, so‘ngra Turkiston musulmonlar dorulfununi qoshida tashkil etilgan dorulmuallimida til va adabiyotdan dars berdi. 1919-1920-yllarda Afg‘oniston amirligining Toshkentdagi vakolatxonasida tarjimon bo‘lib ishladi.

Toshkentda u asosan ilmiy, ijodiy hamda ma’rifiy ishlar bilan ko‘proq band bo‘ldi. Bir qancha darsliklar chop ettirda va “Chig‘atoy gurungi” nomli ijtimoiy-adabiy tashkilot tuzib, unda faol ishtirok etdi. 1920-yil u “Tong” jurnalini tashkil etdi va u orqali yosh ziyolilar avlodini vatanparvarlik, millatparvarlik ruhiyatida tarbiyalashga kirishdi.

1923-yilda Yan Rudzitak boshchiligida Moskvadan kelgan ishchi guruh Fitratni ishdan bo‘shatib, uni Rossiyaga yubordilar. Fitrat 1923-1927-yillarda Moskvadagi Sharqshunoslik institutida ishladi, ilm bilan shug‘ullandi. So‘nra Peteburg davlat universitetining Sharq fakultetida turk, arab, fors tili va adabiyoti, madaniyatidan talabalarga dars bergan, shuningdek, o‘sha universitetning professorligiga saylangan. U “Abulfayzxon”, “Bedil”, “Qiyomat”, “Shaytonning tangriga isyoni”kabi asarlar yozib, chop ettirdi. 1927-yili Fitrat Rossiyadan qaytdi va 1937-yilga qadar Samarqanddagi Oliy pedagogika instituti hamda Toshkentdagi Til va adabiyot institutida faoliyat yuritdi. Fitrat o‘z hayoti davomida yuzlab ijtimoiy-publisistik maqolalar, o‘nlab ijtimoiy-siyosiy va ilmiy risolalar yaratdi. U birgina turkistonda emas, balki Afg‘oniston, Turkiya, Kavkaz, Volgabo‘yi matbuotlarida ham faol ishtirok etdi.

O‘zbekistonda milliy istiqlol sharofati bilan o‘zligimizni anglash va targ‘ib etish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq fan va ta’limning barcha jabhalarida tub islohatlar amalga oshirila boshlandi. Shuningdek, til siyosati, ona tili mavqeinng yuqori ko‘tarilishi va unga munosabatlarning tamoman yangilanishi esa mustaqillik arafasida bo‘ldi.

Darhaqiqat, xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo‘lmish ona tilimiz o‘zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo‘ldi. Bu esa Vatanimiz tarixida tom ma’nodagi buyuk voqea bol’di.

Shunday ekan, bugungi kunga kelib, milliylikning nafaqat til, balki bu tilning asosini, mag‘zini tashkil etuvchi tafakkurga ham xosligi qonuniyatlarini hisobga olgan holda o‘zbek adabiy tilining ma’lum bir qoidaga asoslangan grammatikasi yaratilishi tarixiga ham e’tiborni qaratmog‘imiz lozim, deb o‘ylaymiz. 20-30-yillarga kelib, tilshunos olimlarimiz zamon talablaridan kelib chiqqan holda bu borada ko‘pgina salmoqli ishlarni amalga oshirganlar va bulardan eng asosiysi taniqli jadidchi olim Abdurauf Fitratdir.

Abdurauf Fitrat o‘tgan asrning 30-yillarida o‘zbek tilshunosligidagi barcha muammolarni hal etishni o‘z zimmasiga olgan tilshunos hamda professor-olimlardan biri hisoblanadi. U o‘zbek tilining muhim nazariy masalalarini ishlab

chiqib, o‘sha davr Turkiston ilmiy muhitida, xususan, til siyosatida faol ishtirok etdi va tilshunos sifatida o‘zbek adabiy tilining imlo qoidalarini, sintaktik me’yorlarini hamda adabiy tilning taraqqiyot yo‘llarini belgilash va o‘zbek tili punktuatsiyasi, morfologiyasi va sintaksisi qonuniyatlarini yaratish uchun katta, salmoqli hissa qo‘shdi.

Jumladan, tilshunos jadidchi olim birinchilardan bo‘lib o‘zbek adabiy tili grammatikasini yaratishga kirishdi va 1925-yilda uning “O‘zbek tili” qoidalari to‘g‘risida bir tajriba: “Sarf” (1-kitob),”Nahv”(2-kitob) nomli asarlari mukammal holda bosmadan chiqdi. Mazkur asarlar o‘zbek adabiy tili grammatikasining barcha qoidalarini o‘z ichiga qamrab olgan qimmatli kitob bo‘lib, u o‘sha davr ilm ahli hamda tilshunos olimlari e’tiborini o‘ziga tortdi va 1925-1930- yillar oralig‘ida bir necha bor nashr qilindi. Mazkur asarning “Birinchi kitob” deb nomlangan “Sarf” bo‘limi o‘zbek adabiy tili morfologiyasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda olim o‘zbek adabiy tili tovushlar tizimi, tovush o‘zgarishlari, so‘z va ularning turlari, tub va yasama so‘zlar, qo‘shimchalar, qo‘shimchalarning turlari, qo‘shma va sodda otlar, so‘z turkumlari, ko‘makchilar va belgilar xususida to‘liq ilmiy ma’lumotlar berilgan.

Shuningdek, Fitrat o‘zining mazkur asari muqqadimasida o‘sha davr o‘zbek adabiy tili ahvoliga to‘xtalib, shunday yozadi:

“Bizning til, adabiyotimizning eng so‘ngi kunlari Farg‘onali Umarxon zamonida edi. Til, adabiyotimiz Umarxon paytida yashnab ko‘tarildi-da, undan keyin sekin-sekin pasaya boshladi. Bora-bora yiqilishning, yo‘qolishning eng og‘ir, eng qora daqiqalarini boshidan o‘tkazdi. Ozgina paytdan so‘ng Turkistonda yetishgan yarim shoirlar, yarim yozg‘uchilarni esa, eski adabiyotimizning so‘ngi so‘lmishlari deb ko‘rsatmoq yanglish bir ish bo‘lmaydir. Bularning qalamlari va undan to‘kilgan jumlalar buzuq so‘zlar, siniq fe’llar qaranglig‘ bo‘lib chiqa boshladi” [Abdufauf Fitrat, 2006].

Asardan keltirilgan ushbu iqtibosda olim o‘sha davr o‘zbek tilshunosligining nochor ahvolga tushib qolganligi, tilda ma’lum bir grammatik qoidalar bo‘maganligi, ilm ahli o‘z asarlarini xohlaganidek qilib yozaverishlari, o‘zbek tili lug‘at tarkibida yo‘q bo‘lgan forscha, arabcha so‘zlarni yozuvchi-shoirlar o‘zlarining asarlarida buzuq-yuluq holda ishlataverishlari, natijada xalq ommasi asarlar tilida qo‘llanilgan o‘sha tushunarsiz so‘zlar hisobiga asarlarni to‘laqonli tushunmasliklari, bunday nochor sharoitdan o‘zbek tili va adabiyotini olib chiqish choralarini izlab bir to‘xtamga kelganini aytadi va o‘zbek adabiy tilining qat’iy bir qoidaga bo‘ysundirilgan grammatikasini yaratish va shu asosida maktablarda yosh avlodlarga uni o‘qitish masalasini oldinga suradi.

Shuningdek, o‘zbek adabiy tili grammatikasi va tilini qaytadan sodda tushinarli hamda xalq tiliga yaqin holda yaratish zamon talabi ekanligini ta’kidlab, uning yechimini quyidagicha ko‘rsatib o‘tadi:

“Tilimizning sof shaklini daladagi el-aymoqlarimizda ko‘ra olamiz. Dalada yashagan el-aymoqlarimiz orasida ularning jon ozug‘i bo‘lib turgan dostonlar, ertaklar, matallar, laparlar, ashulalar, qo‘shiqlar bor. Shularni og‘izdan chiqqan

kabi yozib olish kerak. Yana el- ulus orasida yozuv doirasiga kirgan Zufunun, Sayqaliy, Yusufbek kabi dostonlar bor. Ahmad Yassaviy, Gul Sulaymon hikmatlari , Rabg‘uziyning “Qissa ul-anbiyosi”, Mashrab, Huvaydo g‘azallari, Durbek, Navoiy, Bobur, Boyqaro, Lutfiy, Mir Haydar, Munis, Umarxon, Fazliy, Gulxaniy kabi aristokrat shoirlarimizning asarlari bor… Shunlarning hammasini qilni qirq yorib tekshiraylik, bir-biriga solishtirib, kelishtirib, tekli, tubli natijalar olaylik. Mana shu yo‘lda, shu shaklda yaroqlanib maydonga chiqqanimizda ko‘rilgan ishlar, olingan natijalar ilmiy bo‘lib chiqadir. Kimsaningda lom-mim deyishiga yo‘l qo‘ymaydir” [Abdufauf Fitrat, 2006].

Biz Fitratning o‘zbek tili bo‘yicha aytgan mazkur fikridan yuqorida nomlari zikr etib o‘tilgan xalq kitoblari, jumladan, dostonlar, ertaklar hamda o‘zbek adabiy tilida yozilgan buyuk mutafakkirlarimizning qimmatli asarlarini va ularning tilini to‘liq o‘rganib, namuna sifatida ilk bor mukammal holdagi, ma’lum bir grammatik qoidaga bo‘ysundirilgan o‘zbek adabiy tili grammatikasi loyihasini yaratishga qo‘l urganligini ko‘ramiz. Shu bilan birgalikda olim ushbu ishni bir kishi qila olmasligini hamda bu ish o‘sha davr ilm ahli va tilshunos olimlari oldida turgan dolzarb muammolardan biri ekanligi xususida ham to‘xtalib o‘tib, bu haqida shunday deydi: “Bu ishning qulaylig‘i bo‘lmog‘oni belgili. Bunlar bir kishining qo‘lidan kelmaydir. Bu yo‘lda tirishmak yangi chiqqan yigit yozg‘uvchilarimizning hammalariga tushadur. Yangi o‘zbek adabiyotig‘a ilmiy bir asos bermak, unga zamonaviy, madaniy borliq bag‘ishlamoq uchun mana shu yo‘llarg‘a bot kirishmak hammamizga lozimdir. Bu ishlarning tugal natijasini kutib turish yaramaydi. Bu ulug‘ binoning, bu adabiyot madrasasining birinchi toshini tezlik bilan qo‘ymoq lozim, mana shu fikrlarg‘a berildim-da, men til qoidalari to‘g‘risida qo‘lda bo‘lgan narsalarni tuzib, terib shu bilikchani chiqardim.

U bir saboq bitigi emas, mutolaa kitobidir. Tilimiz to‘g‘risida tugal bir narsa emas, boshlang‘ichdir: tuzatmak, kengaytmak yo‘li ishlari yigit kuchlarimizning jonli tebranishlarini kutadir” [Abdufauf Fitrat, 2006].

Fitrat asaridan keltirilgan mazkur jumlalardan biz, XX asr arafasidagi ijtimoiy-siyosiy, moddiy va ma’naviy, madaniy va ruhiy muhit o‘sha davr o‘zbek adabiy tili taraqqiyoti uchun katta to‘siq bo‘lib, unda salbiy bir iz qoldirganligini, o‘sha paytdagi o‘zbek tilining lug‘at tarkibida ayrim (arab va fors tillariga xos bo‘lgan) grammatik shakllarning qo‘llanishini, imlo va alifbo sohasida muayyan o‘zgarishlar yuz berayotganligi hamda usha davr tilida eski o‘zbek va yangi o‘zbek adabiy tili xususiyatlari bilan birga, boshqa tillarning ham unsurlari tez-tez uchrab turishini hamda ana shunday sharoitda olim o‘zbek adabiy tilining nazariy masalalarini ishlab chiqishda va til grammatik qoidalarini ma’lum bir qat’iy tizimga solish borasida juda katta salmoqli ishlarni amalga oshirib, mazkur qimmatli asarini o‘sha davr tilshunos olim va ziyolilari muhokamasiga topshirdi va uni mukammallashtirish, rivojlantirish kerak ekanligini dolzarb muammo sifatida birinchi rejaga olib chiqdi.

Fitrat o‘z asarining fonetikaga bag‘ishlangan faslida o‘sha davr o‘zbek adabiy tili tovushlarini sinchkovlik bilan o‘rganib, birma-bir tahlil etib, boshqa (arab,fors) tillar tovushlari bilan qiyoslab, tilimiz tovushlar tizimini biroz soddalashtirib, qisqartirib, zamon talabidan kelib chiqqan holda 23 ta deb ko‘rsatadi va qat’iy belgilaydi [Abdufauf Fitrat, 2006].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida tovushlar soni 25 ta deb qabul qilingan [М.Асқарова & Р.Юнусов & Д.Муҳаммедова, 2006]. O‘sha davr o‘zbek adabiy tilida hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi singari internatsional so‘zlar bilan birga kirib kelgan sirg‘aluvchi “j” (jurnal) va qorishiq “s” tovushlari bo‘lmaganligi sababli tilshunos olim o‘z asarida o‘zbek adabiy tili tovushlari sonini 23 ta deb ko‘rsatib o‘tgan. Uning o‘zbek adabiy tili tovushlari soni bo‘yicha qarashlari aynan, hozirgi o‘zbek adabiy tili tovushlar tizimi bilan mushtarakligidan dalolat beradi. Bundan biz o‘zbek adabiy tili tovushlar tizimini yaratishda uning “Sarf” asari fonetika bo‘limi to‘g‘ridan-to‘g‘ri asosiy manba bo‘lib xizmat qilganligini ko‘ramiz. Shu bilan birgalikda, Fitratning tilshunoslik sohasida buyuk, hassos olim bo‘lganligini o‘zbek adabiy tilidagi “i” tovushini so‘zlar talaffuzida ifodalanishiga qarab ikki turga bo‘lganligidan ham anglab olishimiz mumkin. Bu borada olim “Bizning tilimiz yalpi turk tilining keng bir tarmog‘idir. Turk tilida bo‘lg‘on asosiy hollarning bizning tilda bo‘lishi tabiiydir. Turk tilining butun tarmoqlarida bo‘lg‘oni kabi bizning tilda ham so‘zlar ohang e’tibori bilan yo‘g‘on , ingichka bo‘lib ikkiga bo‘linadi.

Bu ohang masalasini eski yozma asarlarda ko‘p ko‘rganimiz kabi dalada yashaganlar orasida ko‘proq uchratmoq mumkindir. Fors adabiyoti, madrasa tajvidi ta’siri bilan buzilgan shahar shevalarida bu holni ko‘rganimiz bilan bizning shevada yo‘g‘onlik, ingichkalik ohangi yo‘q deb bo‘lmaydi” [Abdufauf Fitrat, 2006], deb o‘zbek adabiy tilidagi “i” tovushiga ishora qiladi va asl o‘zbek adabiy tili fonetikasidagi “i” tovushi qatnashgan so‘zlarni yo‘g‘on so‘zlar, fors tilidan o‘zlashgan “i” tovushli so‘zlarni esa ingichka so‘zlar deb alohida ko‘rsatib o‘tadi.

Uning “i” tovushi talaffuzi xususidagi qarashlaridan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, xaqiqatdan ham, asl o‘zbek adabiy tili so‘zlarida qo‘llaniladigan “i” tovushi bilan fors tilidan o‘zlashgan so‘zlardagi “i” tovushi talaffuzi o‘rtasida tafovut borligining guvohi bo‘lamiz. Bunday farq tilimizda hozirgi kungacha ham saqlanib kelmoqda. Masalan: shirin, pir, dida, shirkat, shir kabi forscha o‘zlashma so‘zlardagi “i” tovushi bilan hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi asl o‘zbekcha bo‘lgan bir, yil, tirnamoq, to‘qqiz, sakkiz so‘zlaridagi “i” tovushi talaffuziga e’tibor berib, har ikkalasini muqoyasa etadigan bo‘lsak, fors tili o‘zlashma so‘zlaridagi “i” tovushi o‘zbek tili so‘zlaridagi “i” tovushi talaffuzidan sezilarli darajada yumshoqroq va cho‘ziqroq talaffuz etiladi. Chunki fors tilidagi “i” tovushi cho‘ziq unli tovush hisoblanadi [M.Abdusamatov, 2007]. Asl o‘zbek adabiy tili so‘zlaridagi “i” tovushi esa, Fitrat o‘z asarida alohida ta’kidlab o‘tganidek, qisqaroq, yo‘g‘onroq, g‘alizroq talaffuz etiladi va mazkur tovushni

biz ko‘proq rus va qozoq tillaridagi “ы” tovushi talaffuziga monand ekanligini ko‘ramiz.

Jumladan, tilshunos olim o‘zining “Sarf” asarida o‘zbek adabiy tili unli tovushlariga alohida to‘xtalib, ularni arab va fors tillari unli tovushlari tizimi va sonidan kelib chiqqan holda soddalashtirib a, o, e. i, u, o‘ kabilar deb ko‘rsatib o‘tadi.

“Eski turkiy til (11-14 asrlar) yozma obidalarida 9 ta unli tovush a,ä,ā,e,o,ɵ,u,ÿ,i va eski o‘zbek tili (15-19 asrlar) yozma manbalarida 10 ta unli tovush a,ā (o),ä,e,o,ö,u,ÿ,i,ü mavjuddir” [Ғ.Абдураҳмонов Ш.Шукуров К.Махмудов, 2008].

Yuqorida keltirilgan iqtibosdan ham ko‘rinib turibdiki, turkiy va eski o‘zbek tillarida unli tovushlar soni 9,10 ta bo‘lgan. Shu sababli ham Fitrat turkiy va eski o‘zbek tilidagi unli tovushlar tizimi va sonini o‘sha davr yozma manbalari, xalq kitoblari va dostonlari tili asosida sinchkovlik bilan o‘rganib, fors va arab tillaridan o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlarning son jihatini hamda o‘zbek tilida 9 ta, 10 ta unli tovush bo‘lsa yozishda, o‘qishda ko‘proq chalkashlik, xatoliklarga yo‘l ko‘yilishi sabablarini e’tiborga olib, ularni soddalashtirib, qulaylashtirib, fors tili unli tovushlari sonidan kelib chiqqan holda 6 ta qilib belgilagani haqiqatdan holi emas.

Shuningdek, olim yana o‘z asarida o‘zbek adabiy tili morfologiyasiga ham to‘xtaladi va o‘zbek tilida ko‘pgina so‘zlarga egalik qo‘shimchalari hamda so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida tovush yo‘qolishi vujudga kelishini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Jumladan, o‘-g‘il, ko‘-ngil, bu-yur so‘zlaridan o‘g‘il, ko‘ngil, o‘rin kabilarga egalik qo‘shimchasi, “buyur” so‘ziga “uq” so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida “i” tovushi tushirib qoldirilib, “o‘g‘il” so‘zi “o‘g‘lim” “ko‘ngil” so‘zi “ko‘nglim”, “o‘rin” so‘zi “o‘rnim”, “buyur” so‘zi “buyruq” tarzida talaffuz etilishini ta’kidlab o‘tadi va o‘zbek tilidagi ikki bo‘g‘inli so‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shilishi bilan o‘sha so‘zlardagi bir tovush tushib qolishi natijasida yana ikki bo‘g‘inli so‘zlar hosil bo‘lishi xususida ham ilmiy, asosli ma’lumotlar keltiradi va bunday holatni qat’iy qoida sifatida o‘zbek adabiy tili grammatikasiga birinchilardan bo‘lib olib kiradi. Uning kiritgan mazkur qoidasi hozirgi o‘zbek adabiy tili grammatikasida ham o‘z aksini topgan va o‘qish va yozishda unga to‘liq amal qilinadi. O‘zbek adabiy tilidagi o‘ziga xos bo‘lgan bunday holatga muallif o‘z asarida quyidagicha ta’rif beradi.

“O‘g‘ul, o‘run, ko‘ngil, buyur” so‘zlaridan har biri ikki bo‘g‘inli (ikki hijoli) dir. Mana shularning so‘ngi tovushlariga yana bir oltinchi tovush qo‘shganda o‘-g‘u-lim, o‘-ru-nim, ko‘-ngi-lim, bu-yu-ruq shaklida, yani uch bo‘g‘inli so‘zlar bo‘lishi kerak ekan, shunday bo‘lmaydir; bular oralig‘idagi bir “i” cho‘zig‘ unlisi yo‘qolib, o‘g‘lim, ko‘nglim, buyruq shaklidagi ikki bo‘g‘inli so‘zlar bo‘lib qoladir.

Bu albatta, tilimizning yingillik istaganidan chiqib qolgan bir hol. Bu hol yozuvlarimizda bor. Yuqoridagilarga o‘xshagan ko‘p so‘zlarni yozg‘uchilarimiz

hech narsa sezmasdan shu yo‘lda to‘g‘ri keltirib yozadi. Biroq bu hol umumiy qoida bo‘lib qabul etilmagan, shuning uchun har so‘zda yozilmaydi” [Abdufauf Fitrat, 2006].

Biz buyuk tilshunos olim Abdurauf Fitratning “Sarf”(Mofologiya) deb nomlangan o‘zbek adabiy tilining fonetika va morfologiyasiga bag‘ishlab yozilgan qimmatli asarini hozirgi o‘zbek adabiy tili grammatikasi bilan o‘xshashlik jihatlarini imkoniyat darajasida ilmiy-qiyosiy jihatdan tahlil qildik va quyidagi xulosalarga keldik. Olim ushbu asarini yozar ekan avvalo, arab, fors va rus tillarining grammatikasini mukammal o‘rganib chiqqan, chunki o‘sha davrda o‘zbek adabiy tilining grammatikasi yaratilmagan edi. Shu sababli ham u o‘zi bilgan bir necha tillarning grammatik qoidalaridan kelib chiqib, shningdek, o‘zbek adaiy tili tarixini, shu tilda yozilgan badiiy-ilmiy asarlar tilini mukammal o‘rganib, qat’iy bir qoidaga asoslangan o‘zbek adabiy tili morfologiyasini yaratdi. Uning bu borada qilgan buyuk ishlari tahsinga sazovor bo‘lib, Fitratdan keyin mazkur ishga qo‘l urgan tilshunos olimlar uchun u dasturulamal bo‘lib xizmat qilganligi aniq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлари. 5 жилд.-Т., Маънавият, 2006.
2. Асқарова М. Юнусов Р. Муҳаммедова Д. Ўзбек тили практикуми . – Т., 2006.
3. Abdusamatov M. Fors tili. –T., 2007.
4. Абдураҳмонов Г. Шукуров Ш.Махмудов К. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси, -Т., 2008.

KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING SHAKLLANISHI VA FANLARARO ALOQALARI

Xidirov Otabek Jo‘raboyevich,
f.f.f.doktori (PhD), dotsent

Raqamli dunyoda yuzaga kelgan tendensiyalar zamonaviylashishni talab etadi, shu nuqtayi nazardan ushbu olamda paydo bo‘lgan tushunchalarni anglash va tafakkur hamda tasavvur qilish uchun yordam beradigan yo‘nalishlardan biri kognitiv tilshunoslikdir. Mazkur yo‘nalish tilni inson tafakkuri bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganadigan fan sohasidir. Kognitiv tilshunoslikka ko‘ra, til faqat aloqa vositasi emas, balki insonning fikrlashi, idrok etishi va bilimni shakllantirish tizimi sifatida qaraladi.

Kognitiv tilshunoslik til ma’lumotlarini kodlash va transformatsiya qilish mexanizmi bo‘yicha ishlashda muhim rol o‘ynaydi. Tilshunoslikning ushbu yo‘nalishida shaxsning onggi, tafakkuri va ular bilan bog‘liq bo‘lgan ruhiy

jarayonlari hamda holatlari o‘rganilganligi uchun uni bilim va bilish, inson faoliyati jarayonida dunyoni idrok etish haqidagi fan deyish maqsadga muvofiq.

Kognitiv tilshunoslikda til insonning aqliy qobiliyatlari bilan chambarchas bo‘g‘liq ekanligidan kelib chiqib, ushbu yondashuvda ilgari suriladigan asosiy mavzular quyidagilardir:

- tabiiy til orqali yuzaga keladigan kategoriyalashuvning strukturaviy xususiyatlari ya’ni prototiplik, sistemali polisemiya, kognitiv modellar;
- tilning funksional tamoyillari;
- sintaksis va semantika o‘rtasidagi konseptual bog‘liqlik;
- tildan foydalanishning pragmatik asoslari.

Kognitiv tilshunoslik – bu tilshunoslikdagi zamonaviy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, dastlab 1970-yillarning boshlarida rasmiy yondashuvlardan voz kechish asnosida vujudga kelgan. Shu bilan birga, kognitiv tilshunoslik o‘z ildizlarini 1960-1970-yillarda shakllangan zamonaviy kognitiv fan taraqqiyotiga, xususan, inson tomonidan kategoriyalash jarayoni bilan bog‘liq ishlarga hamda Gestalt psixologiyasi kabi oldingi ilmiy an’analarga taqaladi. 1970-1980 yillarda bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar kam sonli olimlar tomonidan olib borilgan bo‘lsa, 1990-yillarning boshlariga kelib, bu sohada izlanishlar jadallik bilan olib borila boshlandi, qolaversa, o‘zini *kognitiv tilshunos* deb tanituvchi tadqiqotchilar soni ham oshdi. 1989-1990 yillarda esa Xalqaro Kognitiv tilshunoslik jamiyati va Kognitiv Tilshunoslik ilmiy jurnali tashkil etildi. Yirik kognitiv tilshunoslardan biri bo‘lgan R.Langaker bu voqeani “kognitiv tilshunoslikning mustahkam asoslangan, o‘zini anglagan intellektual harakat sifatida tug‘ilishi” – deb ta’riflagan [1:68].

Tilshunoslikda kognitivizm sohasining paydo bo‘lishi antik davrlarga borib taqalashiga qaramay, uning rasmiy tilshunoslik sohasida tan olinishi XX asrning so‘ngiga borib taqaladi. Ushbu yo‘nalishga oid izlanishlar til va tafakkurning murakkab munosabatlari o‘rganilishidagi asosiy muammolarni ilgari suradi va ular asosan tilshunoslikning nazariy jihati bilan bog‘liqdir.

Til va tafakkur o‘rtasidagi munosabat muammosi rivojlanishining navbatdagi bosqichi psixolingvistika bo‘lib, u nutqni yaratish va idrok etish jarayonlarini, tilni inson ongida saqlanadigan belgilar tizimi sifatida o‘rganish jarayonlarini, tilning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadi [2:132].

Ta’kidlashlaricha, kognitivlik aslida falsafaiy tushuncha bo‘lib, lug‘atlarda uning izohi turlicha keltirilgan. Jumladan, Falsafiy qomusiy lug‘atlarda ushbu atama quyidagicha izohlanadi: *Kognitivlik – hodisalarni anglash va bilib olish imkonyiatini bildiruvchi tushuncha [3:198]*. Shuningdek, Moskvada nashr qilingan Falsafiy ensiklopedik luga’tda esa bu atamaga quyidagicha ta’rif berilgan: “*Когнитивные (lot. cognitio – знание, познание), познаваемые, соответствующие познанию” [4:263], ya’ni bilish jarayoni va unga mos keluvchi tushunchalar sifatida ko‘riladi.*

Yuqoridagi keltirilgan ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, kognitiv atamasi zamirida inson ongida ro‘y beradigan bilish va u bilan bog‘liq psixofiziologik,

mantiqiy, neyrofiziologik, biologik jarayonlar nazarda tutiladi. Bu jarayonlar bevosita insonning milliy-mental tabiati, tafakkur tarzi bilan bog‘liq holda tadqiq etiladi. Shu nuqtayi nazardan, kognitiv tilshunoslik birinchi galda psixolingvistika bilan bog‘liq bo‘lib, u lisoniy hodisalarni psixologik jihatlariga e’tibor qaratadi. Shuningdek, antropolingvistika bilan bog‘liq bo‘lib, inson tafakkuri evolyutsiyasi muammolarini ham qamrab oladi. O‘z navbatida, mental tafakkur bilan bog‘liq muammolarni qamrab oladi va shu bo‘yicha etnolingvistikaga ham murojaat qiladi.

Inson tomonidan til tizimini harakatga keltiruvchi omillarni o‘zlashtirishi va ulardan foydalanish usullarini tartibga solinishi kabi masalalar bilan shug‘ullanadigan bo‘lim ham Kognitiv tilshunoslikdir. Yuqorida kognitiv tilshunos soha vakili paydo bo‘lganligini esga olgan holda, kognitivist – tilshunos lisoniy hodisalarning tafakkur faoliyatidagi o‘rni, bajaradigan vazifalari bilan qiziqadi. Ushbu soha vakillari til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatni faollashtiruvchi sabablarni izlaydi va bu sabablar oqibati bo‘lgan muloqot jarayoni – lisoniy sintaktik tuzilmalarni tarkiban hamda mzmunan anglashga, tahlil qilishga harakat qiladi.

Shunday ekan insonning lisoniy faoliyatini tushuntiruvchi fan sifatida ushbu yo‘nalish tilshunoslik va psixologiyadan tashqari, sun’iy intellekt nazariyasi, psixolingvistika, neyrolingvistika kabi fan sohalariga oid ilmiy yondashuvlarni ham umumlashtiradi. Kognitiv tilshunoslikka oid tarjima qilingan va xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida kognitiv tilshunoslikka oid bilimlar L.Talmy, J.Lakof va R.Langaker kabi olimlarning fikrlari bilan boshlanganligi aniqlandi. Xususan, R.Langaker kognitiv grammatika modeliga asos solgan u yaratgan nazariya hozirgacha qo‘llanilib keladi. Kognitiv grammatika modelida grammatika tor doirada, barcha tushunadigan vosita sifatida o‘rganilmaydi, balki kengroq ma’noda – til tizimining to‘liq tuzilmasi, ya’ni tovush, ma’no va morfosintaksisni o‘z ichiga olgan yaxlit tizim sifatida qo‘llaniladi. J.Lakof ham kognitiv metafora nazariyasining asoschilaridan biri, M.Jonson esa J.Lakof bilan birgalikda kognitiv metafora va inkorporatsiya nazariyalarini ishlab chiqqan. L.Talmi esa kognitiv semantika ya’ni til orqali makon, harakat va kuch konsepsiyalarining ifodalanishini o‘rganadi. G.Faukonner til va tafakkurning aralash konseptual nazariyasini ilgari surgan olim sifatida tanilgan. Bu olimlar tomonidan ilgari surilgan fikrlarni inobatga olgan holda bir so‘z bilan rasmiyatchilikdan voz kechish va tilni soddalashtirish maqsadida ushbu nazariyalarni ilgari surishgan. Eng qiziq tarafi shundan iboratki, sanalgan olimlarning 90 foizi AQSH lik olimlardir. Bundan kelib chiqadiki, insoniyatning tafakkurini rivojlantiruvchi va til bilan bog‘langan modellarni ishlab chiqish aynan shu davlatdan boshlangan.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida kognitivizm va kognitiv tilshunoslik hamda turli til modellari va mexanizmlari ustida ish olib borayotgan V.Evans, D.Geyertaerts, U.Kroft, D.Kruz, J.Fokonye kabi olimlarni keltirish mumkin. Rus tilshunoslari orasida ham kognitiv tilshunoslikning masalalari bo‘yicha

ishlayotgan tilshunos olimlar ham uchraydi. V.Maslova, Y.Kubryakova, Z.Popova, I.Strenin, N.Boldirev, A.Babushkin kabi olimlar semantik va kognitiv yondashuvni mohiyatini ochib berishda, konseptual tahlil madaniy konseptlar, diskurs va mental modellar bo‘yicha tadqiqot olib borishda ilg‘or bo‘lishgan.

S.Askoldovning ta’kidlashicha: “Til fikrlar va g‘oyalarning tabiati va tuzilishi haqida tushuncha beradigan kognitiv funktsiyani aks ettiradi. Demak, kognitiv tilshunosikning tilni o‘rganishning boshqa yondashuvlaridan farq qiladigan eng muhim jihati shundaki, til inson ongining muayyan fundamental xususiyatlari va dizaynini aks ettiradi deb faraz qilinadi. Kognitiv tilshunoslikda til insonning kognitiv qobiliyatlaridan birining ifodasi sifatida qaraladi”[14:14].

A.V.Kravchenkoning fikriga ko‘ra, “kognitiv tilshunoslik o‘z oldiga til vositasida bilimlarni saqlash, ifodalash va uzatish mexanizmlarini tadqiq etishni asosiy vazifa qilib qo‘yadi”. Jahon tilshunosligida yaratilgan boy nazariy ma’lumotlarga suyangan holda muayyan ijodkor shaxs tilining lingvokognitiv xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek tili sohiblarining “tafakkur grammatikasi”ni yoritib berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy olimlar tomonidan ilgari surilgan fikrlarni umumlashtirgan holda zamonaviy tilshunoslikka oid tadqiqotlarda kognitiv tilshunoslik insonning tafakkuri jarayonlari va til o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishga yo‘naltirilgan fundamental yo‘nalishlardan biri sifatida alohida o‘rin egallashini anglash munkin. Ushbu yondashuv tilni mustaqil va yopiq tizim emas, balki inson ongining, bilish va idrok qilish jarayonlarining ajralmas bir bo‘lagi sifatidan talqin etadi. Shu ma’noda kognitiv tilshunoslik nafaqat an’anaviy lingvistik yondashuvlardan, balki psixologiya, psixolingvistika, neyrolingvistika, sun’iy intellekt nazariyasi kabi boshqa kognitiv fanlar bilan ham yaqin aloqada shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Geeraerts, Dirk & Cuyckens, Hubert. Introducing Cognitive Linguistics. The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics. 2012. 10.1093/oxfordhb/9780199738632.013.0001.

2. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. Монография.. АСТ: «Восток-Запад». 132 с.

3.Қомусий луғат, Тошкент, Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти: 2004. 198-бет.

4.Философский энциклопедический словарь, -Москва, Советская энциклопедия, 1983, С.263

5.Аскольдов, С.А. Коцепт и слово. - М.: Academia, 1997. Стр.14

XORAZM VOHASI MAQOLLARINING LINGVOKULTUROLOGIK VA SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARIGA DOIR

Jumanyazova Muxabbat Xusinovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi prof.v.b., f.f.n.

Xorazm vohasi folklori asarlari voha xalqining mentalitetini, milliy qiyofasini o‘zida aks ettiradi. Ayniqsa, maqollar xalq tafakkuri, ijtimoiy tajribasi, milliy dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini mujassamlashtirgan ixcham va chuqur ma’noli birliklar sifatida qaraladi. Ular nafaqat til hodisasi, balki milliy mentalitetning, jamiyatning axloqiy me’yorlari, madaniy xotiraning kodlangan shakli sifatida ham ahamiyatlidir.

1863–1864-yillarda Herman Vamberi “O‘rta Osiyoga sayohat”, “Chig‘atoy tili saboqlari” nomli kitoblarini yaratgan. Uning “Chig‘atoy tili saboqlari” kitobining “Xrestomatiya” qismida 112 o‘zbek maqoli eski o‘zbek yozuvida (o‘qilishi lotin alifbosida) olmon tiliga tarjimasi bilan berilgan [2]. Herman Vamberi tomonidan yozib olingan maqollar, Fattoh Abdullayev ta’kidlaganidek, “adabiylashtirib” berilgan bo‘lsa ham [1.250] ularning tahlili voha xalqining ijtimoiy-madaniy tajribasi, axloqiy me’yorlari va mental tasavvurlari xususida keng ko‘lamli ma’lumotlar beradi. Xususan, lingvokulturologik tadqiqotlarda maqollar semantik qatlam, madaniy kodlar, majoziy struktura va qadriyatlarni aks ettiruvchi piktogrammalar sifatida tahlil qilinadi.

Lingvokulturologiya tilda aks etgan milliy qadriyatlarni, madaniy stereotiplarni va insonning milliy ongini tadqiq etadi. Maqollar esa xalqning tarixiy xotirasi va madaniy tajribasini saqlovchi muhim lingvokulturologik birliklardir. Ular ko‘pincha quyidagi kodlarni mujassamlashtiradi: 1) axloqiy kodlar – ezgulik, rostgo‘ylik, qanoat; 2) ijtimoiy kodlar – jamiyat tuzilmasi, muhitga moslashuv; 3) aql/intellekt kodlari – fikrlash, tajriba, donolik; 4) mental kodlar – milliy xarakter va dunyoqarash. [4]

Maqollar semantik tuzilishi jihatidan ko‘pincha antiteza, parallelizm, majoz, metafora kabi badiiy vositalarga asoslanadi. Ularning pragmatik mohiyati esa nasihat berish, ta’lim-tarbiya vazifasini bajarish, ogohlantirish yoki baholash, ijtimoiy xulq me’yorlarini belgilashdan iborat.

Quyida biz H.Vamberi Xorazmda yozib olgan ayrim maqollarni tahlilga tortamiz (bunda qavs ichidagi son maqolning H.Vamberi majmuasidagi tartib raqamini anglatadi) [2.45-51].

“G‘aribning bir to‘yg‘ani – chala boyig‘ani” (8). Mazkur maqolning mazmuniy talqini quyidagicha: maqolning markazida “g‘arib”, ya’ni kambag‘al, yetishmovchilikda yashovchi inson obrazi turadi. Maqol shuni bildiradiki, kambag‘al bir kun to‘q yashasa ham, bu uning haqiqiy boylikka erishganini anglatmaydi; uning quvonchi chala, boyligi vaqtincha.

Maqolning lingvokulturologik xususiyatlarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

1. Madaniy kod.

Ijtimoiy tengsizlik kodi: Kambag‘allik–boylik ziddiyati o‘zbek madaniyatida doimiy mavzu bo‘lgan.

Qismat va sabr kodi: G‘aribning bir kunlik to‘yi ham uning qismati bilan chegaralangan deb ko‘riladi.

Oddiylik–kamtarinlik kodi: Kambag‘alning quvonchi ham ortiqcha emas, kamtarona.

2. Mental qadriyatlar

O‘zbek xalq dunyoqarashida boylik doimiy mehnat va avloddan-avlodga o‘tuvchi baraka bilan bog‘lanadi.

“G‘arib” obrazi ko‘pincha mehr-shafqat uyg‘otuvchi ijobiy obraz.

3. Semantik qatlamlar

“G‘arib” – iqtisodiy/ijtimoiy noqulaylik ramzi.

“Bir to‘yg‘ani” – vaqtinchalik yaxshilanish, barqaror emas.

“Chala boyig‘ani” – haqiqiy emas, ko‘zga ko‘ringan boylik.

4. Ramziylik va poetik obraz

G‘aribning to‘yg‘ani - metafora bo‘lib, “bir kunlik farovonlik” degani.

“Chala boyigan” - “ko‘zbo‘yamachilik boyligi” tasviridir.

Aytish mumkinki, maqolning semantik mazmuni “Bir to‘yg‘ani” - ozgina nasiba; “chala boyig‘ani” - nisbiy ravishda yaxshi holatga kelish majozi.

Lingvokulturologik jihatdan esa o‘zbek xalqida qanoat, shukr, kamiga ham rozi bo‘lish qadrlanadi. Kambag‘allik va boylik o‘rtasidagi tafovut mental tasavvurlarda aks etadi. Uning pragmatik vazifasi esa qanoatga undash, jamiyatdagi tabaqalanishni obrazli tushuntirish.

“Bosh bo‘lmasa – gavda losh” (22) maqoli mazmuniy talqinda boshning gavdadagi muhim organ ekanligidan kelib chiqib, rahbar, yo‘lboshchi, aql markazi bo‘lmasa jamiyat, oila yoki jamoa nobud bo‘ladi, degan ramziy mazmunga ega. Uning lingvokulturologik xususiyatlariga keladigan bo‘lsak,

1. Madaniy kod

Iyerarxiya kodi: O‘zbek madaniyatida bir jamoaning o‘z rahbari, oqsoqoli bo‘lishi muhim.

Tartib-intizom kodi: Tashkiliy birlikning boshqaruvchisiz bo‘lishi “losh” (joniz tan) kabi qadrsiz.

2. Mental qadriyatlar

Oila va urug‘chilik tizimida katta-kichik, oqsoqolning o‘rni alohida e’tirof etiladi.

Aql, idrok, maslahat, boshqaruvning ustuvorligi aks etgan.

3. Semantik qatlamlar

“Bosh” - rahbar, aql, markaz, boshqaruv.

“Gavda” - jamoa, xalq, oila, tan.

“Losh” - iflos holat, jonsiz, boshqaruvsiz tananing ramzi.

4. Poetik obrazlilik

Maqolda metaforik parallelizm bor: bosh : gavda = rahbar : jamoa

“Losh” komponenti esa ogohlantiruvchi keskin semantik yukni beradi.

“Bor maqtansa, topilur; yo‘q maqtansa, chopilur” (12) maqolini mazmuniy talqinini ko‘rsatsak: Boy odam maqtansa - bor narsa topiladi; yo‘qsiz maqtansa - yolg‘onligi bilinib, kamsitiladi.

Maqolning lingvokulturologik xususiyatlari esa quyidagicha:

1. Madaniy kod

Haqiqat–yolg‘on kodi: O‘zbek mentaliteti yolg‘on maqtanishni qoralaydi.

Halollik va rostgo‘ylik kodi: Yo‘q narsani maqtash - uyat hisoblanadi.

Obro‘-e’tibor kodi: Yolg‘on maqtov odamning obro‘sini "chopadi" (yo‘q qiladi).

2. Mental qadriyatlar

Riyo, manmanlik, ortiqcha maqtanishdan tiyilish.

Kishi qadr–qimmati uning amali bilan o‘lchanishi kerak.

3.Semantik qatlam

“Bor” - haqiqiylik, mavjudlik.

“Maqtansa” - ijtimoiy tan olinishi mumkin.

“Topilur” - tasdig‘i bor, o‘z isbotini topadi.

“Yo‘q” - bo‘sh, puch.

“Chopilur” - ijtimoiy jazolanadi (masxara, tanqid, sharmandalik).

4. Ramziy obrazlilik

Bu maqolda antitezali metafora ishlatilgan: bor ↔ yo‘q, topilur ↔ chopilur

Shuningdek, so‘z o‘yini - fonetik parallelizm (aliteratsiya) mavjud.

“Tez so‘zlar tez pushaymon bo‘lur” (37). Maqolning semantik mazmuni: maqol sabab–oqibat munosabatiga qurilgan: shoshma-shosharlik → pushaymon bo‘lish. “Tez” va “pushaymon” antonimik parallelizmni tashkil qiladi.

Maqol lingvokulturologik talqinga ko‘ra o‘zbek xalqining muomala odobi, og‘ir-bosiqlik, vazminlik haqidagi qadriyatlari aks etgan. So‘zning mas’uliyat ekanini eslatadi.

Uning pragmatik vazifasi

Ogohlantirish, nutqni tartibga solish, salbiy oqibatdan qaytarish.

“Yo‘ldoshing ko‘r bo‘lsa, ko‘zing qisib tur” (43) maqolida “ko‘r” – o‘z ma’nosidan tashqari “cheklangan, ojiz, kamchilikka ega” ma’nosidagi majoziy birlikdir. “Ko‘z qisish” – o‘zini tiyish, moslashish ramzi.

Lingvokulturologik jihatdan xalq ongida vaziyatga moslashish, jamoaga haddan oshib aralashmaslik, o‘zini tuta bilish qadrlanadi. Bu mental kamtarlik modeli hisoblanadi. Uning pragmatik vazifasi esa insonlarga muhitni inobatga olishni o‘rgatadi.

Yuqorida tahlil qilingan maqollar o‘zbek xalqining, xususan, Xorazm vohasining milliy dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy-madaniy tajribasini o‘zida mujassam etuvchi lingvokulturologik birliklardir. Ular semantik jihatdan ixcham bo‘lishiga qaramay, majoziy va aksiologik qatlamlar jihatidan

chuqur mazmunga ega. Maqollar xalq tafakkurining kodlangan shakli bo‘lib, jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi kuchli pragmatik vositadir. Ushbu tahlillar folklorshunoslik, lingvokulturologiya, aksiolingvistika va paremiologiya yo‘nalishlarida olib borilayotgan tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961.
2. Čagataische Sprachstudien enthaltend grammatikalischen Umriss, Chrestomathie und Wörterbuch der çagatischen Sprache von Hermann Vambery, Leipzig:F.A.Brockhaus, 1867. 358 p.
3. Хроленко А. Т. Основы лингвокультурологии. – Москва: Флинта-наука, 2021. – 221 стр.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Oltinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022.

THE LIFE AND WORK OF ZAURBEK KURAZOVICH MALSATOV, INGUSHETIAN REPRESENTATIVE OF THE 1ST TURKOLOGICAL CONGRESS

Hasanova Ulkar,
Azerbaijan State Pedagogical University
Specialist of the Turkish History
Department of the Turkology Center

Born on June 3, 1894 in Temir-Khan-Shur (Dagestan) into a military family. He graduated from high school in Blagoveshchensk. In August 1918, he participated in battles with the White Guards advancing towards Vladikavkaz and was wounded twice. He began working in the education system in 1920. In the same year, he became a member of the RKP(b). He created the Ingush alphabet in Latin in 1921 and based on it published the newspaper "Serdalo" in 1923. He also, together with N.F. Yakovlev, introduced the terms "Nakh language" and "Vinakh people" into scientific circulation. He is the founder of the scientific study of the Nakh languages. He has written a number of scientific works on linguistics, folklore, and literary studies. In addition, Malsagov tried himself in fiction. He wrote two plays in the Ingush language - "The Abduction of a Maiden" (1923), which laid the foundation for the Ingush national theater, and "Revenge" (1927), the first national drama of the Ingush people. He also translated poems by M. Lermontov and other Russian poets into the Ingush language. As an educator, Malsatov made great contributions to the eradication of illiteracy in Ingushetia. With his active participation, schools were opened in Ingushetia, and in 1924 the Ingush Literary Society was established. In a short period of time, he

united the entire cultural color of Ingushetia and was able to arouse interest in native writing among the broad masses of the Ingushetian population.

In 1923, he was elected a member of the Revolutionary Committee and appointed People’s Commissar of Education of the Mountain Autonomous Soviet Socialist Republic. He participated in scientific expeditions conducted in 1920-1922 and 1927 in the territory of the former Dzherakhovsky and Metskhalsky communities of Ingushetia under the leadership of the linguist N.F. Yakovlev. In August 1927, Malsagov wrote in the newspaper "Serdalo":

On July 20, an expedition from the Ingush Scientific Research Institute of Local History set out for the Jeyrakh Gorge to conduct economic, ethnographic, and archaeological research in the gorge. The expedition spent two weeks in the gorge and collected numerous and interesting materials. Kh.B. Akhriyev and Z.K. Malsatov collected numerous materials for the Ingush dictionary, recording local family legends, proverbs, and sayings. As a result, the expedition found 120 photographs, sketches, and old plows, looms, butter, etc (3).

In 1924, the Mountain Republic was divided into national autonomous regions. Malsagov became the head of the Ingush regional public education department. He organized the publication of textbooks, wrote primers for adults and children himself, compiled a problem book on arithmetic and several books for reading. As a good linguist, the Ingushetia regional executive committee sent Malsatov on a mission to Turkey in 1928 to study the literature of the Orstkhoy people who migrated to Turkey in the second half of the 19th century. Under the leadership of Professor L.P. Semenov, Malsagov actively participated in archaeological and ethnographic expeditions to mountainous and flat Ingushetia in 1925-1932. From 1926 to 1930, Malsagov studied at the Faculty of Linguistics and Material Culture of Leningrad State University, specializing in Peri-Caucasian linguistics and Arabic. After completing his education, he became the director of the Ingush Scientific Research Institute of History, Language and Literature from 1931, and the director of the Chechen-Ingush Scientific Research Institute of History, Language and Literature from 1934. At the same time, he was a member of the commission for the study of the tribal composition of the RSFSR of the USSR Academy of Sciences, a corresponding member of the Central Bureau of Geology, and an associate professor at the North Caucasus Pedagogical Institute.

In order to study and scientifically understand the history, language, and culture of the Batsbi, Malsatov participated in an expedition to Mount Tusheti in 1932. As a result, he recorded 34 songs, riddles, materials on the origin of the Batsbians, chronological terms of cattle breeding, and the conjugation of the five most common verbs with examples. Based on the materials of the expeditions, Malsatov wrote "The Batsby Language", "The Dialect of Aux", and a number of other works. The terms "Nakh language", "Vainakh people" and others were proposed by him and Professor N.F. Yakovlev. In 1933, the Institute of Oriental Studies of the USSR Academy of Sciences published a number of Arabic

documents of Imam Shamil. Later, other similar documents became known. Malsatov, on his own initiative, sent photographs of five Arabic letters of Shamil, kept in the North Ossetian Museum in Ordzhonikidze, to the Institute of Oriental Studies. They were introduced into scientific circulation in 1945 in the article “Shamil’s Arabic Letters in North Ossetia” by I.G. Krachkovsky and A.N. Genko (2).

3. Kazimov, Z. (2012). *The Structure of Text and Meaning Relations*. Baku: Elm.
4. Yusifov, A. (2003). *Linguistic Analysis of Text*. Baku: Qafqaz University.
5. Veysalli, F. (2014). *Text Theory and Discourse*. Baku: Elm ve Tehsil.
6. Guliyev, Q. (1995). *Complex Syntactic Wholes in the Azerbaijani Language*. Baku: Elm.
7. Jalilov, Q. (2008). *Structural Features of Speech and Text*. Baku: NDU.
8. Halliday, M.A.K., & Hasan, R. (1976). *Cohesion in English*. London: Longman.
9. Beaugrande, R. de & Dressler, W. (1981). *Introduction to Text Linguistics*. London: Longman.
10. Van Dijk, T.A. (1980). *Macrostructures: An Interdisciplinary Study of Global Structures in Discourse, Interaction, and Cognition*. Hillsdale, NJ: Erlbaum.
11. Brown, G., & Yule, G. (1983). *Discourse Analysis*. Cambridge: Cambridge University Press.
12. Cook, G. (1994). *Discourse and Literature*. Oxford: Oxford University Press.
13. Hasanov, M. (2018). *Functional Analysis of Text and Discourse*. Baku: Elm ve Tehsil.
14. Mehdiyev, S. (2001). *Theoretical Foundations of Syntax*. Baku: Chiraq.
15. Crystal, D. (2008). *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. Oxford: Blackwell.

MULOQOT VA KOMMUNIKATSIYA TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK TALQINI

Xoldorova Shohista Azamjon qizi,
JDPU o‘qituvchisi

Bugungi kunda muloqot insoniyat hayotida nafaqat ehtiyoj, balki qadriyat sifatida o‘z o‘rnini egallagan. Chunki muloqot shaxsning jamiyatdagi mavjudligi, o‘zini namoyon qilishi, ijtimoiy tajriba orttirishi va o‘zaro munosabatlar tizimiga kirishishining bosh omilidir. Muloqot shaxslar, guruhlar va hatto millatlararo munosabatlarning poydevorini tashkil etadi. Shu bois muloqot tushunchasi lingvistika, sotsiologiya, psixologiya, antropologiya va pedagogika fanlarida ko‘p qirrali tadqiqot obyektlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Tilshunoslikda muloqotning mazmuni faqat “uchrashish” yoki “ko‘rishish” kabi tashqi belgilar bilangina cheklanmaydi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida muloqotga berilgan “uchrashish, ko‘rishish, qabul qilish”[10] kabi talqin kundalik muomala doirasidagi qo‘llanishni ifodalasa-da, ilmiy nuqtayi nazardan muloqot bundan ancha keng qamrovli jarayondir. A.A.Leontyev muloqotni “insoniyatning birgalikdagi faoliyatini tashkil etuvchi va unga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik jarayon” sifatida baholaydi. [7] B.F.Lomov esa muloqotni shaxs rivojlanishining asosiy mexanizmi deb biladi va unda uch asosiy aspektni farqlaydi: kommunikativ (axborot almashinuvi), interaktiv (o‘zaro ta’sir), perceptiv (o‘zaro idrok). [9]

Shuningdek, muloqot haqida so‘z borganda “kommunikatsiya” termini ba’zan muqobil variant sifatida qo‘llanadi. Izohli lug‘atlarda “kommunikatsiya”ning tilshunoslik nuqtayi nazaridan “fikr almashuv, aloqa” ma’nolarini anglatuvchi atama sifatida berilishi ham bunga asos bo‘ladi. Biroq ilmiy adabiyotlarda bu ikki tushuncha o‘rtasidagi mazmuniy farqlar borasida ham turli yondashuvlar mavjud. Masalan, ingliz tilidagi lingvistik adabiyotlarda “kommunikatsiya” termini nutqiy yoki yozma signallar orqali fikrlar va axborot almashinuvi sifatida talqin qilinadi. O‘z navbatida, “muloqot” so‘zi odamlar o‘rtasida fikr, axborot va emotsional kechinmalar almashinuvini bildiradi. Bu holatda ikki tushuncha o‘rtasida farq sezilmaydi. Aynan shunday fikrga tayanadigan tilshunoslar muloqotni tilning kommunikativ funksiyasini turli nutqiy vaziyatlarda namoyon bo‘lishi sifatida izohlaydilar. [4]

“Kommunikatsiya” so‘ziga kelganda, lotin tilidagi *communicare* fe’li “muloqot qilmoq” ma’nosidan tashqari “nimanidir umumiy qilish; birgalikda harakat qilmoq; biror narsani bo‘lishmoq” ma’nolariga ega. *Communicatio* va rus tilidagi “общение” so‘zlari esa *communis* (“umumiy”) so‘zidan kelib chiqqan. Bu yerda muloqot biror umumiy predmet yoki umumiy mazmun atrofida yuzaga kelishi nazarda tutiladi. [8]

Lingvistik adabiyotlardan farqli ravishda, psixologik va sotsiologik adabiyotlarda “muloqot” va “kommunikatsiya” sinonim emas, balki qisman kesishuvchi tushunchalar sifatida qaraladi. Bu yerda “kommunikatsiya” termini moddiy va ma’naviy dunyodagi har qanday obyektlar (tirik va jonsiz tizimlar o‘rtasidagi aloqani ham) o‘rtasidagi aloqani qamrab oladi. Hayvonlarning ishora va signallar orqali bir-biriga ta’sir ko‘rsatishi, insonning texnika vositalar (robot, kompyuter, sun’iy intellekt tizimlari) bilan aloqa qilishi – bularning barchasi kommunikatsiya doirasiga kiradi. Muloqot esa odamlarning o‘zaro bilish yoki affektiv-baholovchi axborot almashinuvidagi shaxslararo o‘zaro ta’siri sifatida talqin etiladi. Bunda insonning inson bilan axborot almashuvi, fikrni qabul qiluvchi va qayta ishlovchi ongli subyektlar o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik jarayon nazarda tutiladi. Muloqot tuzilmasida uch komponent ajratiladi: kommunikatsiya (axborot almashinuvi), interaksiya (o‘zaro ta’sir va xulq-atvorni tashkil etish), persepsiya (o‘zaro tushunishni ta’minlovchi hissiy idrok). Muloqot ruscha “общение” so‘zining etimologiyasiga ko‘ra “birga, birgalikda” ma’nolarini anglatadi, ya’ni *“Men + Sen = Biz”*.

Tilshunoslikda bu ikki tushuncha ba’zan sinonim sifatida ishlatilsa-da, muloqot termini lingvistik jihatdan “axborot almashish”, “kishilar o‘rtasidagi munosabat” mazmunlarini anglatuvchi kengroq pragmatik birlik sifatida izohlanadi. Ammo bu ta’rif ham muloqotni faqat insonlararo jarayonga tenglashtirmaydi: odamning hayvonlar bilan ishoraviy aloqa qilishi, diniy matnlarda uchraydigan inson-ilohiy muloqot tasavvurlari ham muayyan darajada kommunikativ harakatlarga asoslanadi. Shu bois muloqotning ***sof insoniy*** va *sof insoniy bo‘lmagan muloqot[2.120]* shakllari farqlanadi. Xususan, M.S.Kagan muloqot olamini kommunikantlarning jonli yoki jonsiz, aniq yoki mavhum bo‘lishiga qarab quyidagicha tasniflaydi:

1. Real hamsuhbat bilan muloqot;
2. Illyuzor hamsuhbat bilan muloqot;
3. Xayoliy hamsuhbat (kvazisubyekt) bilan muloqot;
4. Badiiy personaj bilan muloqot.

Mazkur tasnifdan ko‘rinadiki, kommunikatsiya jarayoni subyekt–subyekt yoki subyekt–obyekt/kvazisubyekt munosabatlari asosida kechishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida kommunikatsiya va muloqot tushunchasining ma’lum farqlanishga ega ekanligi haqida munosabat bildirishimizga asos vazifasini bajaradi. Shu nuqtadan qaraganda, muloqot insonning faqat boshqa ongli inson bilan axborot almashuvi jarayoni sifatida talqin etilishi mantiqan asosli. Chunki muloqotda hissiy kechinmalar, niyat, maqsad, ijtimoiy-psixologik moslashuv kabi faqat inson tafakkuriga xos komponentlar mavjud.

Hayvonlarning kishi buyruqlariga bo‘ysunishi yoki sirk hayvonlarining mashqlarni bajarishi esa shartli reflekslar asosida shakllangan xatti-harakatlar bo‘lib, bunda haqiqiy subyekt-subyekt darajasidagi ma’naviy-aqliy axborot almashinuvi kuzatilmaydi. Shu sababli bunday jarayonni muloqot deb emas,

balki kommunikatsiyaning shartli-obyektiv shakli sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi davr texnologik taraqqiyoti natijasida insonning robotlar, sun’iy intellekt tizimlari va chat-botlar bilan “aloqa” qilishi ham kengayib bormoqda. Bu tizimlar axborotni qabul qilishi, qayta ishlashi va javob berishi mumkin, biroq ularning harakati mustaqil tafakkur mahsuli bo‘lmay, algoritmlar yoki tashqi boshqaruv asosida sodir bo‘ladi. Bunday jarayon *subyekt – kvazisubyekt (*to‘liq subyekt bo‘lmagan, lekin subyekt sifatida faoliyat ko‘rsatish xususiyatiga ega bo‘lgan tizim) tipidagi aloqadir va uni muloqot emas, balki kommunikatsiya sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan aniqroq bo‘ladi. Aytish mumkinki, har qanday muloqot kommunikatsiya hisoblanadi, biroq har qanday kommunikatsiya muloqot darajasiga ega bo‘la olmaydi.

Tilshunos olimlar V.I. Karasik, O.S. Issers, T.A. van Deyk, E. Goffmanlar ham muloqotni axborot uzatish jarayonigina emas, balki ijtimoiy rollarni ifodalash, diskurslar orqali ijtimoiy haqiqatni qurish, munosabatlarni boshqarish, shaxs pozitsiyasini bildiruvchi vosita sifatida talqin qiladilar. Shuning uchun muloqot lingvistik mohiyatiga ko‘ra nafaqat semantik, balki ijtimoiy-pragmatik jarayondir.

Aynan mana shu funksional kenglik va muloqot shakllarining zamonaviy jamiyatda jadal ortib borishi muloqot turlarini turli mezonlar asosida tasniflash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtada N.I. Formanovskaya muloqotni bir qator mezonlarga ko‘ra guruhlashni taklif etadi:

1. Suhbatdoshlarning bir-birlariga nisbatan joylashuvi bo‘yicha: Yuzma-yuz (kontakt) va masofali (distant) muloqot

2. Muloqotda muayyan vositalardan foydalanishiga ko‘ra: Bevosita va bilvosita muloqot.

3. Muloqotning tarkibiy-tashkiliy xususiyatlariga ko‘ra: Monologik va dialogik muloqot.

4. Holatga bog‘liq holdagi interaktiv rollarga ko‘ra: Ritual, rolli va ishchan muloqot.

5. Ishtirokchilar soniga ko‘ra: O‘zaro (interpersonal), jamoaviy va ommaviy muloqot.

6. Muloqot maqomiga ko‘ra: Rasmiy va norasmiy muloqot.

7. Muloqotning ijodiy xususiyatiga ko‘ra: Ijodiy va stereotip muloqot.

8. Ijtimoiy munosabatlar xususiyatiga ko‘ra: Kooperativ (hamkorlikka qaratilgan) va konfrontatsion (ziddiyatli, bahsli) muloqot.

9. Aloqa usuli va diskurs xususiyatlari jihatidan: Og‘zaki va yozma muloqot.

10. Axborot mazmuniga ko‘ra: Informativ va fatik muloqot.

11. Muloqotning kompozitsion shakliga ko‘ra: Narrativ va kommunikativ rejimli. [11]

Mazkur tasnif muloqotning ijtimoiy-madaniy, funksional, vaziyatli hamda vositali xususiyatlarini hisobga olgan holda, muloqot jarayonining murakkab va ko‘p qatlamli tuzilishini aniqlashga yordam beradi. Olima taqdim etgan mezonlar muloqotning turli ko‘rinishlarini aniqlash va tavsiflashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq muloqot jarayonining murakkabligi shundan iboratki, u doimo bir vaqtning o‘zida bir nechta mezonlar bilan belgilanadi. Masalan, masofaviy muloqot bir vaqtning o‘zida rasmiy, bilvosita, yozma va informativ xususiyat kasb etishi mumkin. Shu bois muloqot turlarini o‘rganishda mezonlarning bunday o‘zaro kesishuvchanligi muloqotning real jarayonda qanday namoyon bo‘lishini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Muloqotning yuqorida qayd etilgan turlari tilning qo‘llanishi, nutq strategiyasi, tanlanadigan lingvistik vositalar va kommunikativ maqsad bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, rasmiy muloqotda uslubiy neytrallik, standart qoliplar, aniq va aniqlangan mazmun ustuvor bo‘lsa, norasmiy muloqotda erkinlik, ekspressivlik, emotsional bo‘yoqdorlik kuchli namoyon bo‘ladi. Xuddi shuningdek, kooperativ muloqotda hamkorlikni kuchaytiruvchi strategiyalar (muloyimlik, qo‘llab-quvvatlash, ijobiy baholash) qo‘llanilsa, konfrontatsion muloqotda bahslashish, zidlik, inkor strategiyalari faol bo‘ladi. Dialogik va monologik muloqot turlari ham pragmatik jihatdan sezilarli darajada farqlanadi. Dialogik muloqot sheriklarning o‘zaro ta’siriga, fikr almashinuvi dinamikasiga asoslanadi. Monologik muloqot esa asosan bir tomonlama nutq faoliyati bo‘lib, unda ma’lumotni tizimli, izchil va ko‘p hollarda tayyor shaklda yetkazish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Goffman, E. Interaction Ritual: Essays on Face-to-Face Behavior. – New York: Anchor Books, 1967.Goffman, E. Forms of Talk. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1981.

2. Raupova L. Diskursiv talqinda polipredikativ birliklar: Monografiya. – 2022. B. 120

3. Van Dijk, T.A. Discourse and Communication: New Approaches to the Analysis of Mass Media Discourse and Communication. – Berlin–New York: Walter de Gruyter, 1985.

4. Вержинская Е.А. «Коммуникация» и «Общение»: соотношение понятий // Вестник Оренбургского Государственного Педагогического Университета, 2010. № 1-2 (55). С. 58-61.

5. Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. – Москва: УРСС, 2017.

6. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепцы, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2004.

7. Леонтев А.А.Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Смысль, 1975.

8. Лето Я. В. Понятия «общение» и «коммуникация» в психологии // Молодой ученый, 2016. № 12. С. 770-772.

9. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. – Москва: Наука, 1984.

10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. – Тошкент, 2020. 2 жилд. – Б. 635.

11. Формановская Н. И. *Речевое общение: коммуникативно-прагматический подход.* – М.: Русский язык, 2002.

“ONAMGA” VA “ROZIDIL” SHE’RLARIDA RITORIK SO‘ROQ GAPLARNING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI

Sindarov Kaxramon Tolliboyevich,
JDPU o‘qituvchisi

Ritorik so‘roq gaplar lingvistika va pragmatikaning muhim aspektlaridan biridir. Ritorik so‘roq gap o‘zida tasdiq yoki inkor mazmuni bo‘lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan gaplardir [8]. U so‘zlovchilarning fikrini kuchaytirish, muayyan nuqtayi nazarni ta’kidlash yoki auditoriyani jalb qilish maqsadida ishlatiladi. Ritorik so‘roq gaplar odamlar orasidagi muloqotda ko‘p uchraydi, xususan, adabiy matnlarda. Ritorik so‘roq gapning eng keng tarqalgan qo‘llanishi, bu o‘quvchini yoki tinglovchini o‘ylantirish va uning emotsional holatini shakllantirishga qaratilgan. Ritorik so‘roq gapning lingvistik tahlili ko‘pincha pragmatik nuqtayi nazardan amalga oshiriladi. Pragmatika so‘zlar va iboralarning real muloqotda qanday ishlatilishini, ularning ma’nosi va auditoriya tomonidan qanday qabul qilinishini o‘rganadi. Pragmatika yunoncha *“pragmos”* so‘zidan olingan bo‘lib, *“ish”, “harakat”* degan ma’noni bildiradi. [Hakimov, 2013. B. 6] She’riy matnlarda ritorik so‘roqlar ko‘plab pragmatik vazifalarni bajaradi. Ritorik savol she’riy va badiiy ifodalar orqali fikrlarni kuchaytirish uchun qo‘llaniladi. O‘zbek she’riyatida ritorik so‘roqning qo‘llanilishi ko‘plab she’rlarning syujetini kuchaytirish va qahramonlarning ruhiy holatini aks ettirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Lingvopragmatika ritorik so‘roqlarning ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday ishlatilishini, ular muloqotda qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadi. Bunday so‘roqlar, shuningdek, o‘zaro tushunishning markaziy jihati bo‘lib, ular orqali insonlar bir-birining nuqtayi nazarini qabul qilishadi, ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashadi. Shu bilan birga, ritorik so‘roq gaplar ham ijtimoiy mavqe va rolni belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Ritorik so‘roq gaplar ma’lum bir kontekstga bog‘liq holda ularning semantik va pragmatik ma’nosi ham o‘zgartiradi. Misol uchun, she’rda ishlatilgan ritorik savol, shaxsiy hissiyotni, masalan, kuchli iztirobni yoki sevgi tuyg‘ularini namoyon qilish uchun ishlatiladi. She’riy matnlarda ritorik so‘roq gaplarning lingvopragmatik

tahlili, o‘quvchining matn bilan muloqotdagi pozitsiyasini o‘rganadi. Ritorik so‘roq gaplar she’riyatda o‘quvchining o‘ylash jarayonini tashkil qiladi, hissiy va aqliy javoblarni kuchaytiradi. Bunday tahlil, shuningdek, ritorik so‘roqning so‘zlashuvda qanday funksiyalarni bajarishini o‘rganishga imkon beradi. Bunday o‘rganish, o‘quvchilarga adabiy tahlilni yanada chuqurroq anglash imkoniyatini beradi, chunki ritorik so‘roq gaplar nafaqat badiiy ifodalar, balki muloqotning yuzaga kelishi va rivojlanishida ham muhim vositalardan biridir. Lingvopragmatik tahlil she’riy asarlarda ritorik so‘roq gaplarning samarali ishlatilishining mexanizmlarini o‘rganish imkonini beradi. Shu tarzda, ritorik so‘roq gaplar she’riyatning yadro elementi sifatida uning muloqotdagi rolini va o‘quvchi bilan aloqadagi nozik aloqalarni kuchaytiradi.

She’riy matnlarda ritorik so‘roq gaplarni tahlil qilishda bir nechta ilmiy yondashuvlar qo‘llaniladi. Lingvopragmatika va mazmun tahlili usullari asosiy metod sifatida ishlatiladi. Lingvopragmatik yondashuv ritorik so‘roqlarning tilshunoslik, semantika va pragmatika nuqtayi nazaridan qanday ishlatilishini, ularning ma’no yaratishdagi va muloqotdagi rolini tahlil qilishni ta’minlaydi. Bu yondashuv orqali ritorik so‘roq gaplar nafaqat grammatik tuzilishi, balki ularning ijtimoiy va madaniy kontekstidagi ahamiyati ham o‘rganiladi. Mazmun tahlili usuli yordamida she’rlardagi ritorik so‘roqlar tanlab olinib, ularning semantik, pragmatik va stilistik funksiyalari o‘rganiladi. Ushbu metod yordamida, she’riy matnlar orqali yuzaga keladigan ijtimoiy va psixologik holatlar, shuningdek, ritorik so‘roqlarning so‘zlashuvdagi ta’sirchanligi, tinglovchi yoki o‘quvchining ruhiy holatiga qanday ta’sir qilishi tahlil etiladi. Maqola uchun O‘zbek adabiyotining mashhur vakili - Muhammad Yusufning she’rlari tanlanadi. She’rlar orasida “Onamga” va “Rozidil” kabi ritorik so‘roqlarni o‘z ichiga olgan namunalar mavjud. Tanlangan she’rlarda ritorik so‘roqlarning lingvistik tuzilishi va ularning semantik, pragmatik, va badiiy ahamiyati o‘rganiladi. She’rlarning mazmuni, shaxsiy hissiyotlarni ifodalash, g‘azab, baxtsizlik, sevgi, gumon va ishonchsizlik kabi emotsional holatlarni ta’kidlashda qanday ishlatilganligi tahlil qilinadi.

She’rdagi ritorik so‘roqlarni tahlil qilishning bir nechta bosqichlari mavjud. Avvalo, she’rlardagi ritorik so‘roqlarni tanlash va ularning grammatik tuzilishini aniqlash muhim. Bu bosqichda ritorik so‘roqlarning aniq grammatik shakllari, masalan, savolning qanday shaklda berilganligi, uning semantik ma’nosi ajratib olinadi. Keyingi bosqichda, har bir ritorik so‘roqning pragmatik vazifasi tahlil qilinadi. Bu tahlilda, ritorik so‘roq orqali shoir qanday maqsadga erishishga intilganini, o‘quvchiga qanday ta’sir qilishni ko‘zlaganini aniqlashga harakat qilinadi. Bundan so‘ng, she’rlardagi ritorik so‘roqlarning semantik va pragmatik funksiyalari aniqlanadi. Ular o‘quvchida qanday hissiy reaksiyalarni keltirib chiqaradi, ritorik so‘roqning turlariga qarab qanday ma’no shakllanadi, masalan, ritorik-tasdiq, ritorik-inkor, ritorik-taajjub, ritorik-g‘azab va boshqalar, bu jarayon o‘rganiladi. Maqolada lingvopragmatik yondashuvni qo‘llash orqali

ritorik so‘roqlarni ijtimoiy va madaniy kontekstda tushunish va ularga to‘g‘ri tahlil berish maqsad qilinadi.

Maqola davomida she’riy matnlarda ritorik so‘roq gaplarni o‘rganish, ulardan qanday pragmatik va badiiy maqsadlarda foydalanilishi, shuningdek, bu so‘roqlarning lingvopragmatik kontekstdagi o‘rnini aniqlashga qaratilgan tahlil amalga oshirildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ritorik so‘roqlar she’riy matnlarda faqatgina badiiy vosita sifatida emas, balki muloqotdagi faol vosita, auditoriyani o‘ylantiruvchi va emotsional jihatdan ta’sir ko‘rsatuvchi kuchli mexanizm sifatida xizmat qiladi. Ushbu so‘roqlar o‘quvchining fikrini, his-tuyg‘ularini kuchaytiradi va matnning tasviriy kuchini oshiradi. Ritorik so‘roqlar she’riyatda, xususan, Muhammad Yusufning she’rlarida, badiiy tasvirni kuchaytirish, qahramonning ichki kechinmalarini aks ettirish, fikrni ta’kidlashda keng qo‘llaniladi. Bu tahlil, ritorik so‘roqlarning tasdiqlovchi va inkor etuvchi funksiyalarini o‘rganishda yordam beradi. Ularning yordamida shoir o‘zining ruhiy holatini, g‘azab, baxtsizlik, sevgi va umidsizlik kabi tuyg‘ularni ifodalaydi.

Muhammad Yusufning “Onamga” she’rida ishlatilgan ritorik so‘roqlar, shoirning ona oldidagi afsuslarini, g‘amlarini va azoblarini ifodalashga xizmat qiladi. She’rning quyidagi satrlarida ritorik so‘roqning ritorik-tashvish xususiyati namoyon bo‘ladi:

Men uchun ham aziz holingni so‘rsin,
Sensiz g‘arib ko‘nglim ko‘ngilmi, onam,
Endi men ham senga o‘g‘ilmi, onam!

Bu so‘roqlar nafaqat javob talab qilmaydi, balki shoirning ona oldida kechirimsizlik, uning qilgan xatolariga afsuslanish holatini namoyon etadi. *“Men senga loyiq bo‘la olmadim, onam”* degan ma’noni yashiradi. Bu ritorik so‘roq orqali shoir o‘zining farzandlik burchini bajarmaganligini, onasiga zararga yetkazganligini va uning oldida uzr so‘rashni tasdiqlaydi. Bu holat ona va bola o‘rtasidagi chuqur hissiy munosabatni, uning psixologik aspektlarini o‘quvchiga yetkazishga xizmat qiladi. Shoirning afsus-nadomatlari, uning ichki iztiroblari, sadoqat va farzandlik burchini bajarmaganlikni his etish, ritorik so‘roq yordamida yanada kuchayadi. Shu tarzda, ritorik so‘roqlarni qo‘llash orqali shoir ona oldidagi hissiy vaziyatini kuchaytiradi va o‘quvchini uning ruhiy holatini tushunishga undaydi.

Muhammad Yusufning “Rozidil” she’rida ham ritorik so‘roqlarni qo‘llash orqali shoir o‘zining gumon va ishonchsizlik holatini ifodalashga erishadi. She’rning quyidagi misrasida ritorik so‘roqning ritorik-gumon ma’nosi aks etadi:

Bu yoqda uvol-u, u yoqda halol –
Chinorday yurakni bukar qilday g‘am.
Yaxshi odamlarni ko‘rib, ehtimol,
Sayrab yuborgandir Asqad Muxtor ham.

Bu she’rda shoir o‘zining ichki g‘amlarini, nohaqlik va adolatsizliklarni his etib, o‘zining ichki kurashini aks ettiradi. “*Chinorday yurakni bukar qilday g‘am*” - bu so‘zlar shoirning ichki iztirobini va uning qalbida yuzaga kelgan shubhalarini

tasvirlaydi. Ritorik so‘roq yordamida u o‘zining ishonchsizlik holatini va voqeaga nisbatan gumonini bayon etadi. Bu so‘roqlar o‘quvchini voqeani boshqa burchakdan ko‘rishga undaydi va shoirning fikrini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi. Ritorik so‘roqlar she’riyatda nafaqat mantiqiy, balki emotsional ta’sirni ham kuchaytiradi. Shoirlarning badiiy uslubi va ritorik so‘roqlarning qo‘llanilishi o‘quvchining his-tuyg‘ulariga bevosita ta’sir qiladi. Muhammad Yusufning she’rlaridagi ritorik so‘roqlar uning hayotida ro‘y berayotgan voqealarga nisbatan o‘z fikrlarini va his-tuyg‘ularini kuchliroq ifodalashga yordam beradi. Bu so‘roqlar orqali o‘quvchi uning ichki dunyosiga, shaxsiy kechinmalariga chuqurroq kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ritorik so‘roqlar she’riyatda o‘zining badiiy, pragmatik va lingvopragmatik ahamiyatiga ega. Ushbu so‘roqlar shoirlarga o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash, o‘quvchini o‘ylantirish va matnning ta’sirini kuchaytirish imkonini beradi. Muhammad Yusufning "Onamga" va "Rozidil" she’rlari misolida ritorik so‘roqlarning ishlatilishi, o‘quvchini chuqurroq fikr yuritishga, shoirning ruhiy holatini tushunishga va uning ichki kechinmalarini his qilishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusufning she’rlari misolida, ritorik so‘roqlar shoirning ichki iztiroblari, gumon va ishonchsizlik holatlarini ifodalashda, shuningdek, ona va farzand o‘rtasidagi hissiy munosabatlarni kuchaytirishda keng qo‘llanilgan. Bu so‘roqlar o‘quvchini nafaqat o‘ylantiradi, balki uning ruhiy holatini ham shakllantiradi. Ritorik so‘roq gaplarni pragmatik va lingvopragmatik yondashuvlar asosida o‘rganish, o‘zbek she’riyatidagi badiiy vositalarni tahlil qilishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon beradi. Bu bilimlar, o‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunoslikda metodologik yondashuvlarni boyitishga hissa qo‘shadi. Kelajakda, boshqa adabiy asarlar ham ritorik so‘roqlarni o‘rganish orqali til va badiiyatga doir chuqurroq bilimlarni rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari / M. Hakimov; ma’sul muharrir A.Nurmonov. – Toshkent: Akademnashr – 2013. B. 6

2. To‘raqulov, A. (2018). *O‘zbek adabiyotida ritorik so‘roqlar: Nazariy va amaliy tahlil*. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti.

3. Rahimov, M. (2017). *Lingvopragmatika: Asosiy tushunchalar va amaliy yondashuvlar*. Toshkent: Akademnashr.

4. Shodmonov, E. (2018). *O‘zbek she’riyatidagi badiiy vositalar va ritorik so‘roqlar*. Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi.

5. Abdurahmanov, M. (2016). *Ritorik so‘roqlar va ularning adabiy matnlardagi roli*. Toshkent: Adabiyot va San’at nashriyoti.

6. Tursunov, S. (2019). *Ritorik so‘roqlarni tilshunoslikda o‘rganish metodlari*. Toshkent: O‘zbekiston Matbuot va Noshirlik Uyushmasi.

7. Vohidov, E. (2015). *Ritorik savollar va adabiyotshunoslik*. Toshkent: Yangi avlod.

8. https://uz.wikipedia.org/wiki

ODIL YOQUBOVNING “ULUG‘BEK XAZINASI” ASARI TILI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Bo‘tayev Akram Achilovich,
JDPU o‘qituvchiSI

O‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Odil Yoqubov o‘zining ko‘plab asarlari orqali o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ma’naviy olamining teran qatlamlarini ochib bergan. Ayniqsa, uning “Ulug‘bek xazinasi” nomli tarixiy-publitsistik asari o‘zbek mumtoz tafakkuri, ilm-fan va tarixiy haqiqatlar asosida yaratilgan bo‘lib, bu asar faqat syujet rivoji bilan emas, balki unda qo‘llanilgan til vositalari, ayniqsa leksik boylik bilan ham alohida e’tibor qozongan. Mazkur maqolada asarning leksik qatlamlari, ularning tasnifi, ma’nodoshligi, tarixiy va emotsional rang-barangligi tahlil qilinadi.

Tarixiy leksika - “Ulug‘bek xazinasi” asarida tarixiy leksika asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Asar voqealari XV asrda, buyuk alloma Mirzo Ulug‘bek yashagan davrda bo‘lib o‘tganligi sababli, o‘sha davrga oid ko‘plab tarixiy termin va so‘zlar ishlatilgan. Masalan, “madrasai oliya”, “rasadxona”, “ziji jadid”, “sulton”, “amir”, “xazinabon”, “zarrab” kabi so‘zlar shu qatlamga kiradi. Bu leksik birliklar orqali yozuvchi o‘quvchini tarixiy muhitga olib kiradi, obrazlarning tabiiyligini ta’minlaydi. Tarixiy leksikaning qo‘llanishi asarning realizm darajasini oshiradi va davr ruhi bilan uyg‘unlikda tasvir yaratishga xizmat qiladi.

Ilmiy va terminologik leksika – Asarning asosiy g‘oyasi – ilm-fanning, ayniqsa astronomiya fanining qadimdan yurtimizda taraqqiy topgani va bu jarayonda Ulug‘bek kabi allomalarning o‘rni haqida bo‘lgani sababli, unda ko‘plab ilmiy terminlar ham uchraydi. “Zij”, “quvvayi ko‘z”, “ko‘zatish nuqtasi”, “yulduz jadvali”, “asbob-ul-hay’a”, “matematik asoslarga tayangan holda” kabi iboralar Ulug‘bekning ilmiy merosini tasvirlashda til vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu terminlar orqali nafaqat tarixiy haqiqat ochiladi, balki o‘quvchiga o‘sha davr ilmiy tafakkurining chuqurligi ham yetkaziladi.

Emotiv va ekspressiv leksika – Asarda Ulug‘bek shaxsining ichki kechinmalari, ilmiy faoliyati, davr ziddiyatlari va ijtimoiy bosimlar fonida uning ruhiy holati tasvirlangan. Bu tasvirlarda emotsional va ekspressiv leksik vositalar muhim rol o‘ynaydi. “Qalbi ezildi”, “iztirobga tushdi”, “vijdon azobi”, “ruhiy siqilish”, “yuksak ilhom” kabi ifodalar Ulug‘bekning insoniy jihatlarini ochishga yordam beradi. Bu leksik birliklar obraz psixologiyasini chuqurlashtirish bilan birga, o‘quvchida hamdardlik tuyg‘usini uyg‘otadi. Emotiv leksika asarning badiiy qiymatini oshirishda asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Xalq og‘zaki nutqi va milliy leksika - “Ulug‘bek xazinasi”da xalq og‘zaki ijodiga mansub iboralar, maqollar, dialektal birliklar hamda milliylikni ifodalovchi leksik vositalar tez-tez uchraydi. Bu so‘zlar asarga milliy kolorit beradi. Masalan, “ayov”, “jonim aytmasa”, “odamiylik yuzasidan”, “yurt tuprog‘i”, “xalq dardi” kabi iboralar orqali asardagi obrazlar xalqona va tabiiy ko‘rinishda aks ettiriladi. Ayniqsa, xizmatkorlar, oddiy xalq vakillarining nutqida bu kabi leksik birliklarning ko‘plab ishlatilgani asarning ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi farqni ham yoritadi.

Xulosa qilib aytganda Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” asari leksik jihatdan nihoyatda boy va murakkab tuzilmaga ega. Unda tarixiy, ilmiy, ekspressiv, emotsional va milliy leksika uyg‘un holda ishlatilgan. Bu uyg‘unlik asar badiiy qiymatini oshiribgina qolmay, o‘quvchini o‘sha davrga, o‘sha muhitga chuqur olib kirishga xizmat qiladi. Leksik vositalarning boyligi va maqsadga muvofiq qo‘llanishi asarni nafaqat badiiy, balki lingvistik jihatdan ham qimmatli manbaga aylantiradi. “Ulug‘bek xazinasi” asarining til jihatlari kelajakdagi tilshunoslik tadqiqotlari uchun ham muhim o‘rganish obyekti bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O.Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi” // Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994-yil, B-335.

2. B.Abdushukurov “Qadimgi turkiy til” // Toshkent, “Navoiy Universiteti” nashriyot - matbaa uyi, 2019-yil B-128.

O‘ZBEK ISMLARINING DIAXRONIK NUQTAYI NAZARDAN TARQALISH DINAMIKASINI O‘RGANISH

Melibayeva Soxibaxon Adxammirza qizi,
Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU tayanch doktoranti

O‘zbek antroponimikasining shakllanishi va rivojlanishini diaxronik nuqtayi nazardan o‘rganish, ya’ni ismlarning tarixiy davrlar bo‘yicha o‘zgarish jarayonini tahlil qilish, xalqning madaniy, diniy va ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlarni chuqur anglash imkonini beradi. Tilshunoslikda diaxronik yondashuv, avvalo, til hodisalarining vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishini, ularning semantik va struktur tahlilidagi tarixiy qatlamlarni aniqlashga qaratilgan. Shu bois o‘zbek antroponimlari ham o‘z taraqqiyotida turli tarixiy-madaniy bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lib, ularning shakllanishi xalqning turmush tarzi, e’tiqodi, siyosiy tuzumi va madaniy aloqalari bilan chambarchas bog‘liqdir.

E.Begmatov turkiy tillar antroponimiyasi tarixidagi jiddiy, sezilarli o‘zgarish yasagan davrni uchga bo‘lish mumkinligini bildirgan:

1. Islom dini qabul qilingungacha bo‘lgan qadimiy davrlar;

2. Islom dini qabul qilingandan XX asrgacha bo‘lgan davr;
3. XX asr davri.

O‘zbek antroponimiyasini diaxronik jihatdan tahlil qilganda, tarixiy rivojlanishiga ko‘ra bir necha davrlarga ajratish mumkin. Har bir davr o‘zining madaniy, diniy, etnik va ijtimoiy-siyosiy sharoitlariga ko‘ra o‘ziga xos antroponimmik tizim va nomlash an’analarini shakllantirgan. O‘zbek antroponimiyasining shakllanish va rivojlanish taraqqiyotini olim E.Begmatov tomonidan davrlashtirishga ushbu davrlarga qo‘shimcha tarzda quyidagi davrlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Qadimgi turkiy davr (V - VII asr);
2. Islom dini davri (VIII-XIX asrlar);
3. Sovet tuzumi davri (1920-1991);
4. Mustaqillik davri (1991- va bugungi kun).

Birinchi bosqich -qadimgi turkiy davr antroponimiyasi bo‘lib, bu davr ismlarida xalqning animistik va totemistik dunyoqarashi yaqqol namoyon bo‘lgan. Tabiat hodisalari, hayvonot dunyosi, ruhiy kuchlar bilan bog‘liq nomlar keng tarqalgan: *Bo‘ri, Qoplon, Qaldirg‘och, Arslon,, Shahina, Yulduz, Quyosh* kabi ismlar shular jumlasidandir. Ular o‘sha davr kishilarining tabiat bilan uyg‘un hayot kechirganligini va e’tiqodiy qarashlarini ifodalagan.

Tangri, alla, kun, oy, ranglar bilan bog‘liq animistik qarashlar orqali vujudga kelgan tarkibida *oq, ko‘k, qora* komponetntli ismlarning barchasi qadimgi turkiy davrda animistik g‘oyalar asosida shakllangan va buguni kunda ham ayrim o‘zbek ismlari tarkibida uchraydi. *Tangriberdi, Allamurod, Kuntug‘mish, Oytosh, Oqnazar, Qorajon* va boshqalar.

Ikkinchi bosqich - islom dini davri (VIII–XIX asrlar) bo‘lib, bu davrda arab va fors-tojik ismlari keng yoyildi. Diniy manbalardan olingan, Qur’on va hadisda uchraydigan shaxs ismlari - *Abdulloh, Muhammad, Hasan, Husayn, Zaynab, Fotima* kabi nomlar xalq orasida muqaddas va hurmatli sanalgan. Shu bilan birga, forscha shakllar - Jamshid, Rustam, Bahrom, Dilorom singari poetik ohangli ismlar ham ommalashgan.

Uchinchi bosqich - Sovet davri (1920–1991) antroponimiyasidir. Bu davr o‘ziga xos ideologik va zamonaviy ruh bilan ajralib turadi. Kommunistik mafkura ta’sirida yangi turdagi ismlar paydo bo‘ldi: Kim (Kommunizm uchun kurashchi inson), Oktabr, Mels, Oktyabr, Kolxozbek, Sovxozbek, Svetlana, Valeriy, Nina kabi rus va xalqaro ismlar keng qo‘llanildi. Bu o‘zgarish o‘zbek antroponimiyasiga o‘zga madaniy qatlamning kirib kelishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbek ismlarining sho‘rolar davrida mafkuraviy qarashga bo‘ysundirilganligini E.Begmatovning tahlillari orqali quyidagicha izohlash mumkin :

- bolaga diniy motivli ismlarni berish ancha kamaydi, chunki sho‘rolarning ateistik targ‘iboti zarbasiga uchrash mumkin bo‘lgan. Bolaga ism berishda avvallari islom dini talablariga mos ism qo‘yilgan bo‘lsa, endilikda bu udumga doimo ham amal qilinmaydigan bo‘ldi, shaharlarda esa deyarli unutildi;

• tarkibida “Xudo, Tangri, Haq, Alloh” kelgan ismlardan bu komponentlar ongli ravishda tushirib, yashirib yoziladigan va aytiladigan bo‘ldi. Hozirgi o‘zbek tilidagi Berdi, Berdiboy, Bergan ismlari, ulardan yasalgan Berdiyev, Berdiyeva, Berganov, Berganova familiyalari aslida Xudoyberdi, Tangriberdi, Olloberdi, Ollobergan, Xudoybergan, Tangribergan shaklidagi nomlardir;

• sho‘rolarning quloqlarni surgun qilish siyosatidan qo ‘rqish oqibatida ismga boy, xon, xonim, mirza, sulton, eshon kabi so‘zlarni qo‘shmaydigan bo‘ldi yoki bunday tituli ismlar rasmiy joylarda tilga olinmadi;

• ba’zi oilalarda o‘tmish ajdodlar asrlar davomida amal qilib kelgan qadimiy etnografik tushuncha va tasavvurlarni ifoda etadigan bolaga ism qo‘yish bilan bog‘lik ba’zi marosimlarni ochiqdan ochiq ijro etishga qo‘rqish natijasida o‘sha marosim bilan bog‘liq motivli ismlarni qo‘yish ham kamaya bordi. Bu holat, ayniqsa, shahar joylarda aniq ko‘rinar edi;

• sho‘rolar olib borgan til siyosati natijasida ism berishdagi odatlar va ismlarni ham o‘zining mafkurasiga moslashtirishga harakat qildi;

• sho‘rolarning ruslashtirish siyosati Ittifoqda yashovchi turkiy xalqlarni, jumladan, o‘zbeklarning antroponimlariga munosabati, bundagi ruscha shakl familiya va otchestva (ota ism)ga o‘tkazishida yorqin ko‘rindi. “Ushbu harakat o‘tgan asrning 30-yillaridan boshlandi, 40-yillarga kelib ancha rasmiy tus oldi, Ikkinchi jahon urushidan keyin tamoman huquqiy (yuridik) kuchga kirdi. Bu masalada hukumatning maxsus qarorlari qabul qilindi, yo‘riqnomalar e’lon qilindi. O‘sha davrdagi “Tug‘ilganlik haqida”gi guvohnomalarda, pasport va boshqa hujjatlarda hujjat egasining ismi va familiyasini qayd qilish uchun bittagina joy (grafa) ajratilgan bo‘lib, nomni milliy shakllarda ham yozish grafasi mavjud emas edi. Mana shu hol mahalliy ismlarni ruslashtirishning maqsad va usulini aniq ifodalaydi. O‘zbek ismlari, familiya, ota ismni boshqa shaklda yozish man etilgan edi”[1;156]

Mustaqillikdan keyingi davr (1991-yildan hozirgacha) bo‘lib, unda milliy o‘zlik va diniy uyg‘onish motivlari asosiy o‘rin egalladi. O‘zbek tilidagi asl shakldagi, arabcha-turkcha ildizli va diniy ma’noli ismlar qayta tiklandi. Sovet davrida sun’iy paydo qilingan ismlar asta-sekin yo‘qolib bordi, bunday ism egalari ismlarini o‘zgartirgan holatlar ham uchradi.

Bugungi zamonaviy ism qo‘yish an’anasida pretsedent nomlardan foydalanish ko‘rsatkichi ham ancha yuqoriladi. Bunda diniy pretsedent nomlar, tarixiy, siyosiy shaxs nomlari, adabiy asar qahramonlari va afsonaviy shaxslar nomlaridan keng foydalanilmoqda. *Temur, Alisher, Bobur, Zulfiya, Jaloliddin, Muhammad, Muhammadsodiq, Fotima, Oysha* va boshqa shu kabi ismlar shular jumlasidandir.

Ismlarning tarqalish dinamikasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, har bir tarixiy davrda ustun bo‘lgan motivlar va semantik yo‘nalishlar jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, e’tiqod va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. Masalan, sovet davrida xalqaro nomlar ideologik bosim tufayli ommalashgan bo‘lsa,

mustaqillikdan keyin diniy-ma’naviy ismlar milliy uyg‘onish belgisi sifatida qabul qilina boshlandi.

Shunday qilib, o‘zbek antroponimiyasining diaxronik rivojlanishi millat tarixining, diniy va siyosiy qarashlarining, madaniy qadriyatlarining o‘zgarishini o‘zida mujassam etgan murakkab madaniy-lingvistik tizimdir. Har bir ism ma’lum davrning ijtimoiy-madaniy xotirasini aks ettiradi va xalqning tarixiy o‘zligini belgilovchi lingvokulturologik birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. 156-b.
2. Бегматов Э. O‘збек исмлари. 14600 исм изоhи. – Тошкент.: “O‘збекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2007;
3. Begmatov E.A. Ismlarning sirli olami. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2014.
4. Галиуллина Г.Р. Татарская антропонимия в лингвокультурологическом аспекте. Автореферат дисс. ...доктр. филол. наук. Казан, 2009.
5. Гарифуллина Ф.Р. Имена - тотемы узбеков Хорезма. – Хива, 1991. – №1. – Б.30.
6. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб, пособие для студ. высш. учеб, заведений / В.А. Маслова. – М.: Издателский центр «Академия», 2001. – С.30
7. O‘zbek ismlarining izohli imlo lug‘ati.– Toshkent.: Bookmany print, 2004.

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA MORFEMIKANING QO‘LLANILISHI

O‘ralova Madina Erkin qizi,
JDPU magistranti

So‘z tarkibi tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lib,u so‘zning ma’noli qismlari haqida ma’lumot beradi. Bu bo‘lim morfemika deb ataladi [1;146]. Morfema so‘zning eng kichik bo‘linmas ma’noli qismi bo‘lib,u 2 turga bo‘linadi.Ular quyidagilar:

1)o‘zak morfema;
2)affiksal morfema.

O‘zak morfema-so‘zda ishtirok etadigan,leksik ma’no ifodalay oladigan morfemadir.O‘zak morfema so‘z yasalishi uchun ham,so‘zning biron-bir grammatik shakli yasalishi uchun ham asos bo‘la oladigan morfemadir:ishchi,ishchan, ishsiz.

Affiksal morfema-mustaqil leksik ma’no ifodalay olmaydigan,so‘zning leksik yoki grammatik ma’nolarning shakllanishida xizmat qiladigan morfemadir: kuchli,harakatchan(so‘z yasayapti),uylar,uyim(shakl yasayapti)[2;46]. Morfemik tahlil matnning til va qurilishi,yozuvchi uslubi va

badiiy ifodasini anglashda muhim ahamiyatga ega. Abdulla Qodiriyning "O‘tkan kunlar"romani o‘zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichida muhim o‘rin tutgan asar sifatida turli morfemik birliklarga juda boy. Bu asardagi morfemalarning qo‘llanilishi,ularning funksiyasi,ma’no yasashdagi o‘rnini ko‘rib chiqamiz.

“O‘tkan kunlar” romani tilida so‘z yasovchi affikslar.

Asarda so‘z yasovchi qo‘shimchalarning serqirraligi kuzatiladi.

1)-chilik affiksi

Kasb-kor,faoliyat yoki mashg‘ulot bildirgan.

-Marg‘ilonga nima yumush bilan kelgan edingiz?

-**Savdogarchilik** bilan taqsir [3;40].

Savdo+gar+**chilik**[4;208]

2)-lik affiksi

Predmetning sifatini yoki mavhum tushunchalarni yasashda qo‘llaniladi.

"Sizdan hali **yoshlik** g‘ururi ketmagan,lekin manim bolam bo‘lg‘anlig‘ing‘izni siz ham unutmang" der[3;211].

Yosh+lik[4;91]

So‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarning qo‘llanilishi.

1)-g‘a/-qa affiksi

Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi.

-Kimga muhabbat qo‘ygan,xabaringiz bo‘ldimi?

-Bo‘ldi.Qutidorning qiz**ig‘a**[3;39]

Bunda arxaik -g‘a qo‘shimchasi ishlatilgan.

2)-lar

Ko‘pincha hurmat ma’nosida ishlatilgani kuzatiladi.

“Otabek**lar** kelar emish.”

Ko‘plik ma’nosida ham qo‘llangan:

Qiz**lar** majlisi-gullar,lolalar,to‘tilar,qumrilar majlisi! Bu uyda-Kumushbibining tog‘asining uyida qizlar majlisi,gullar majlisi![3;52]

3)-di,-ur

Fe’lning zamon va mayl qo‘shimchalari

Qodiriy ko‘proq sodda fe’l shakllarini ifodalaydi.

“Otabek xonaga kirib o‘tirdi.” – o‘tir + di

“Kumush uni kutib turur edi.” – tur + ur (eski shakl)

Qodiriy roman tilida o‘tmish davr ruhini yaratish uchun tarixiy so‘z shakllari va arxaik morfemalardan ham foydalanadi.

Yusufbek hojining nutqida -dur, -kim kabi qadimiy shakllar:

“Bu ish senga munosibdur, Otabek.”

Arxaik qo‘shimchalar, eski fe’l shakllari XIX asr muhitini jonlantiradi.

Misol:

“Ular bozori**g‘a** tush**ur**lar.” - “tushurlar” - eski ko‘plik fe’l shakli.

“Erta-indin o‘g‘**u**ldan ajralasiz.”[3;131]

“Tur**g‘an** gap.Otabekning Marg‘ilon**g‘a** uzoq bormay turishi mumkin emas edi.”[3;131]

“Tag‘in o‘zbek oyimning rangi o‘chkan,qoni qoch**qan**.”[3;131]
“Bu kalvak o‘g‘lingiz marg‘ilonliqning eshigida qul bo‘lib yotib oladir.”[3;132]

Abdulla Qodiriy ushbu vositalar orqali davr ruhini,qahramon harakterini va badiiy tasvir kuchini boyitadi. Ushbu roman o‘zbek tili,morfemik tizimini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jumanazarov U.A. Ibragimova F.A. Jumanazarova G.U. Ona tili. – Toshkent.: Innovatsiya va ziyo, 2022, – B.146.
2. M.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent.: 1992. – B.46.
3. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent, 2012
4. A.G‘ulomov,A.N.Tixonov,R.Qo‘ng‘urov. O‘zbek tili morfem lug‘ati-1977. – B.461.

TIL TARIXI, TILSHUNOSLIK VA TILLARNI QIYOSIY O‘RGANISH MASALALARI

Alibayeva Mashxura Abdunabi qizi,
Guliston davlat pedagogika institute magistranti

Bilamizki, qiyosiy tilshunoslik, komparativistika - tilshunoslikning qarindosh tillarni, ya’ni genetik jihatdan o‘zaro bog‘liq tillarni o‘rganuvchi, ular o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlovchi hamda ularning zamon va makon bo‘yicha tadrijiy taraqqiyotini tavsiflovchi sohasi; til oilalarining, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, tillar tarixini qayta tiklash (rekonstruksiya qilish)da asosiy tadqiqot vositasi sifatida qiyosiy tarixiy metodan foydalanadi; tadqiqotning eng umumiy shakli - (eng avvalo fonetikani qamrab oladigan) qiyosiy-tarixiy grammatikalar va (leksikani namoyon etuvchi) etimologik lug‘atlar tuzishdan iborat. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tavsifiy yoki sinxronik tilshunoslik, me’yoriy va umumiy tilshunoslikka qarshi turib, ularni inkor etadi; shu bilan birga, u bir qancha masalalarda tavsifiy tilshunoslik bilan ham, umumiy tilshunoslik bilan ham o‘zaro aloqada, bog‘liqlikda bo‘ladi. O‘zbek tili tarixi mustaqil fan sohasi sifatida o‘zbek tilining mohiyati, uning tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari to‘g‘risidagi fandir. Fanning asosiy maqsadi va vazifasi o ‘zbek tilining tarixiy taraqqiyot yo‘lini tahlil va tadqiq etishdan iborat. “O‘zbek tili tarixi” mustaqil fan sohasi sifatida o‘zbek tilining mohiyati, uning tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari to‘g‘risidagi fandir. Fanning asosiy maqsadi va vazifasi o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyot yo‘lini tahlil va tadqiq etishdan iborat. O‘zbek tili tarixi fani uch bo‘limni o‘z ichiga oladi: Qadimgi turkiy til, O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi, O‘zbek adabiy tili tarixi. “Qadimgi turkiy til” kursida VI-X asrlarda yaratilgan va bizgacha ytib kelgan turli yozma manbalarning lisoniy

xususiyatlari, ularning o‘rganilish tarixi, grafikasi kabi masalalar yoritiladi. [Barchinoy Yunusova,2023,4-bet] Har bir til oilasining boshqa til oilalaridan ajratib turuvchi xususiyatlari mavjud. Turkiy tillar oilasi uchun xos bo‘lgan singarmonizm, so‘z boshida undoshlarning ketma-ket kela olmasligi. bir bo‘g‘inda undoshlarning qator kelmasligi, gap bo‘laklarining joylashish tartibi kabi xususiyatlar bu tillami boshqa til oilalaridan farqlab turadi. Muayyan tilga xos xususiyatlar shu til oilasining til qurilishi. grammatik tizimini tashkil etadi. Til oilasining o‘ ziga xos xususiyatlari muayyan davr nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Tilga xos fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfem-morfologik xususiyatlar o‘zgaruvchan bo‘lib. turli tillardagi o‘xshash jihatlar genetik asos til belgilari bilan izohlanadi. Shu bilan bir qatorda tashqi omillar ham nazarda tutiladi. Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillar fonetik qonuniyatini birinchilardan bo‘lib yoritgan olimdir. U “Devonu lug‘otit turk”da fonetik qommiyatlarning tovush almashuvi, tovush tushishi, tovush ortishi kabi ko‘rinishlarini batafsil izohlagan.[X.A.Dadaboyev,Z.T.Xolmanova,2015,23-bet]. Turkiy tillarni bir til oilasiga birlashtiruvchi va boshqa til oilalaridan farqlovchi xususiyatlardan biri leksik tarkibning bir-biriga yaqinligi hamda grammatik qurilishning mushtarakligidir. Shuning uchun chuvash va yoqut tillaridan boshqa hamma turkiy tillar bir-biriga tushunarlidir. X.A.Dadaboyev, Z.T.Xolmanova, 2015,40-bet] Qadimgi turkiy tilda boshqa so‘z turkumlari kabi ravishlar ham o‘z ifodasini topgan. Yodnomalardagi ravishlar ish-harakatni bajarishdagi turli holatlarni , holat va belgining belgisini bildirishda qo‘llanadi. Ravishlar sifatlar kabi turlovchi va tuslovchi affikslarni qabul qilmaydi, ya’ni bu turkumdagi so‘zlar o‘zgarmaydi, o‘zlari bog‘langan leksemalar bilan moslashmaydi, ularni boshqarmaydi; ravishlar bu so‘zlarga bitishuv yo‘li bilan bog‘lanadi.[Barchinoy Yunusova,2023,62-bet]. Turkiy tillar oilasi uchun xos bo‘lgan fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin: 1. Turkiy tillarda, o‘zbek tilida ko‘p bo‘g`inli so‘zlarning miqdori juda oz. Bir bo‘g`inli (o‘q, ot, oy kabi) va ikki bo‘g`inli (bo‘ri, yetti, tulki kabi) so‘zlarning miqdori esa ko‘p. 2. O‘zbek tilida va boshqa turkiy tillarda so‘zlar, asosan, uch tovushli bo‘ladi: kun, til, bel, kel kabi. 3. Barcha turkiy tillarda bo‘lgani kabi o‘zbek tilidagi so‘zlarning aksariyati ko‘p ma’noli xususiyatga ega. Bunga misol tarzida bosh, tish, uch kabi umumturkiy so‘zlarni aytish mumkin. 4. Turkiy tillarda, chunonchi, o‘zbek tilida affikslar so‘z oxiriga qo‘shiladi: ezgulik (ezgu+lik), ko‘zsiz (ko‘z+siz) kabi. 5. Turkiy (o‘zbekcha) so‘zlarning oxirgi bo‘g`inida (pastki, ostki, ustki kabi ayrim ko‘makchilarni hisobga olmaganda) undoshlar yondosh kelmaydi. 6. Turkiy tillarda, chunonchi, o‘zbek tilida so‘z boshida undoshlar ketma-ket kela olmaydi. 17 7. O‘zbek tilida va boshqa turkiy tillarda so‘zning o‘zagi deyarli o‘zgarmaydi: tilni, tilga, tildan, tilsiz, tilli, tillik kabi. 8. Turkiy tillarda, chunonchi, o‘zbek tilida grammatik jins kategoriyasi yuq, prefiks va old qo‘shimchalar mavjud emas. 9. O‘zbek tili va boshqa turkiy tillar sintaksisi sohasida gap bo‘laklari o‘zining muntazam joylashish tartibiga ega (aniqlovchi aniqlanmishdan, ega kesimdan oldin joylashadi). 10. Turkiy tillarda, chunonchi, o‘zbek tilida bog`lovchilar

deyarli yo‘q (ularning aksariyati arab va fors tillaridan o‘zlashgan). 11. Turkiy tillarning lug`at tarkibi bir-biriga juda yaqin va uning manbasini tub turkiy so‘zlar tashkil etadi.[Yoqub Saidov,2019,16-17-betlar].

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikt.da qo‘llanuvchi qiyosiytarixiy metodning asosiy tadqiqot usullari quyidagilardir: 1) tashqi (qiyosiy) rekonstruksiya (tor ma’nodagi qiyosiytarixiy metod) - qarindosh tillardagi genetik jihatdan teng, o‘xshash so‘z va morfemalarni qidirib topish va bobo tildagi izchil tovush o‘zgarishlarining qarindosh tillardagi natijalarini aniqlash; bobo tilning taxminiyfaraziy modelini yaratish va keyinchalik undan kelib chiqqan avlod tillarning aniq morfemalarini tiklash qoidalarini tuzish; taqqoslanayotgan tillar o‘rtasidagi mosliklar tizimini (fonetika, morfologiya, sintaksis, leksika, frazeologiyada) aniqlash va shu asosda tillarning qarindoshligini belgilash vab.;2)ichki rekonstruksiya - ayrim olingan bir til tizimida ushbu til tarixining ancha ilk bosqichlarida ba’zi bir elementlarning mavjud bo‘lgani haqida aniq guvohlik beruvchi hodisalar va o‘zaro munosabatlarni aniqlash; ayrim bir tildagi eng qadimiy shakllar bilan eng yangi shakllarni o‘zaro taqqoslash; 3) o‘zlashma (rekonstruksiya qilinayotgan tillarga o‘zlashgan yoki shu tillardan boshqa tillarga o‘zlashtirilgan) so‘zlar tahlilidan ma’lumotlar chiqarib olish; 4) toponimika materiallaridan ma’lumotlar chiqarib olish va boshqalar Amalga oshirilgan rekonstruksiyalar til tizimining barcha tomonlarini: fonologiya, morfonologiya, morfologiya, leksika, qisman sintaksisni qamrab oladi. Biroq ushbu rekonstruksiyalarni tarixan aniq bir bobo til bilan bevosita tenglashtirib bo‘lmaydi, ular tarixiy haqiqat bo‘lmish bobo til haqidagi mavjud ma’lumotlarni modellashtiradi, xolos; ushbu ma’lumotlar ba’zi obyektiv sabablarga ko‘ra barcha avlod tillarda yo‘qolib ketgan morfemalar hamda fonemaviy ziddiyatlarni aniq rekonstruksiya qilish imkoniyati yo‘qligidan, muqarrar ravishda to‘liq, mukammal bo‘la olmaydi; bir qator rekonstruksiyalar taxminiyfaraziy holatda bo‘ladi.

Tillarni tarixiy taraqqiyotsiz qiyoslash, tarixiy qiyoslashdan farqli ravishda, qarindosh va noqarindosh tillarni chog‘ishtirish deb atalib, u avvaldan Yevropaning antik davrida (yunon va lotin tillarini chog‘ishtirish), qadimiy Hindistonda (sankrit bilan prakritlarni - o‘rta hind tillarni chog‘ishtirish), 11-12-asrlar Sharq tilshunosligida [M.Koshg‘ariy va M.Zamaxshariy lug‘atlarida qarindosh va noqarindosh tillar lug‘aviy birliklarning chog‘ishtirilishi] mavjud bo‘lgan. Chog‘ishtirma tilshunoslik 17-18-asrlarda Yevropadagi va dunyoning boshqa mintaqalaridagi turlituman qarindosh tillar bo‘yicha tadqiqot materiallarining to‘plana borishi bilan yanada rivojlanadi va Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikt.ning paydo bo‘lishiga zamin hozirlaydi.

Xulosa qilib aytganda,til tarixi,tilshunoslik va tillarni qiyosiy o‘rganish masalalari ayrim tillar kelib chiqishini aniqlash, jumladan, tillar o‘rtasidagi genetik qarindoshlikni - ularning yagona bir manba (bobo til)dan kelib chiqqanligini o‘rganish Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maqsadlari doirasiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Barchinoy Yunusova. O‘zbek tili tarixi. – Toshkent, 2023. – B.4
2. X.A.Dadaboyev,Z.T.Xolmanova. Turkiy tillarning qiyosiy tarixiy gramatikasi. – Toshkent.: Tafakkur bo‘stoni, 2015. – B.40
3. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2023.
4. Yoqub Saidov. O‘zbek adabiy til tarixi. – Buxoro.: Durdona, 2019. – B.16-17

“BOBURNOMA” ASARI TILIDA QO‘LLANILGAN AYRIM FORSCHA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING LEKSIK HAMDA GRAMMATIK JIHATDAN TAHLILI

Mahkamova Zilola Jamol qizi,
JDPU magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.n, dotsent S.N.Soyipov

Zahiriddin Boburning “Boburnoma” asari o‘z davri va keyingi davrlar uchun o‘zbek tili va adabiyoti tarixi, tarix, geografiya hamda etnografiya sohalari bo‘yicha asosiy manba bo‘lib xizmat qiluvchi ilmiy asar bo‘lib [1,46], u asosan Hindistonda eski o‘zbek yozuvi va tilida yaratilgan me’muar hamda qomusiy asar hamdir. Mazkur asar nafaqat o‘zbek adabiyoti tarixi, balki jahon adabiyoti tarixida ham munosib o‘rin egallab kelmoqda. Shunday ekan, “Boburnoma” tarixiy-badiiy asar sifatida turkiy xalqlar nasrining ilk namunalaridan biri sifatida katta ahamiyat kasb etadi va u nodir tarixiy manba bo‘lishi bilan bir qatorda, ilm-fanning turli sohalarini qamrab oluvchi kitob hamdir.

“Boburnoma” ko‘pgina manbalarda “Voqeoti Boburiy”, “Tuzuki Boburi”, “Tavorixi Boburi”, “Boburiya” kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Keyinchalik esa uni “Boburnoma” deb atash rasm bo‘lib qolgan[1;47].

Shu sababli ham mazkur qomusiy asar XVIII asrdayoq Yevropaning ko‘plab mamlakatlari tillariga tarjima qilindi va u qayta-qayta nashr etilib, butuin jahon bo‘ylab shuhrat topdi. Shuningdek, undagi tasvirning g‘oyatda keng qamrovli ekanligi, u XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi Orta Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston tarixi, jug‘rofiyasi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, bu mamlakatlarning xalqlari etnik qatlami, yashash tarzi, tili, urf-odatlari va boshqa jihatlari haqida ishonchli ma’lumotlarga boy asar ekanligi hamda asar muallifining bilim va qiziqish doirasining beqiyosligi, voqea-hodisalarning rostgo‘ylik bilan tasvirlanganligi, til va uslubining sodda, ravon hamda ixchamligidir, desak aslo xato bo‘lmaydi.

Shularni e’tiborga olib, biz, “Boburnoma” ning til xususiyatlariga e’tibor qaratar ekanmiz, bu borada ko‘plab masalalarni inobatga olmog‘imiz lozim bo‘ladi. Jumladan, ushbu asarda muallif tarixiy voqea va hodisalarni haqqoniy

tasvirlash uchun ko‘plab arabcha, turkiycha, mo‘g‘ulcha, hindcha o‘zlashma so‘zlardan foydalangan va asar tilining yanada chiroyli, rang-barang, sodda, ravon, xalq tiliga yaqin bo‘lishini ta’minlash maqsadida forscha so‘zlardan ham unumli hamda o‘rinli foydalanganki, ular asar tilining ifoda imkoniyatini yuksak darajaga ko‘targan. Shu sababli ham mazkur asar tili kop jihatdan xalq kitoblari tilli bilan mushtarak hisoblanadi.

Shu sababli ham biz, ushbu maqolamizni o‘zbek tiliga fors tilidan tarixiy voqelik nuqtai nazaran o‘zlashgan, shuningdek, Boburning “Boburnoma” asari tilida qo‘llanilgan forscha qo‘shma va murakkab sifatlarning ifodalagan leksik, semantik hamda grammatik ma’nolarini tilshunoslik nuqtai nazardan tahlilini amalga oshirishga bag‘ishladik.

Mazkur asar tilini tilshunoslik nuqtai nazardan tadqiq etishimiz natijasida unda forscha asliy va nisbiy sifatlar bilan bir qatorda, bir qancha qo‘shma va murakkab sifatlar qo‘llanilganligini va ular asliy va nisbiy sifatlarga nisbatan bir muncha kamchilikni tashkil etishi aniqladi. Shuningdek, yana asarni ilmiy jihatdan tahlil etishimiz barobarida uning tilida forscha qo‘shma sifatladan 35 turi qollanilganligini va ular asar tilining ma’lum darajada ifoda imkoniyatini kengaytirganligini ko‘ramiz.

“Boburnoma” asari tilida qo‘llanilgan forscha qo‘shma sifatlarga etibor qaratadigan bo‘lsak, ular yasalishiga ko‘ra, o‘zbek tili sifatlari bilan bir xillikni tashkil etadi [2;57]. Jumladan, ular har ikkala tilda ham ikki yoki undan ortiq mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lgan turli xil so‘z turkumlariga mansub bo‘lgan lesilarning o‘zaro birikuvidan yasaladi [3;254]. Bunday so‘zlar bir necha mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lgan leksimalar vositasida yasalgan bo‘lsada, unig tarkibidagi komponentlari o‘z leksik ma’nolarini ma’lum darajada yo‘qotib, bir leksik ma’noni ifodalash uchun xizmat qiladi [4,136]. Umuman olganda, o‘zbek tilida ham predmetning belgisini bildiruvchi mustaqil leksik manoga ega bo‘lgan so‘zlar sifat deyiladi [5;136]. Shunday ekan, biz, “Boburnoma” asari tilida qo‘llanilgan forscha qo‘shma va murakkab sifatlarni ular qatnashgan gaplari bilan iqtibos sifatida keltiramiz, shuningek, ularning asar tilida ifodalagan ma’nolariga qarab, ilmiy tavsif va tasnifini amalga oshiramiz. Masalan:

“Xisravshoh adolatpesha va odil va xushtab’va fazilatlik podshohzoda edi” [1,63]. *“Sharqi siyahsang o‘langidur. Charmagaron darvozasi bila bu o‘lang orasida vosita Qutlug‘qadamning go‘rxonasidur”* [1,118]. *“Xushsuhbat kishi edi. Samarqandni manga mulozamat qilib edi”* [1,163].

Yuqoridagi asardan iqtibos sifatida keltirilgan gaplarning birinchisida forscha qo‘shma sifatlardan “adolatpesha” va “xushtab’” kabilar qo‘llanilganligini ko‘ramiz. Mazkur qo‘shma sifatlardan biri bo‘lmish “adolatpesha”ning yasalishiga ahamiyat eradigan bo‘lsak, bu so‘z arabcha “adolat” va forscha “pesh” so‘zining o‘zaro birikuvidan yasalgan bir leksik ma’noni ifodalovchi forscha qo‘shma sifatdir. Mazkur qo‘shma sifat tarkibidagi “adolat” so‘zi esa yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, arabcha bo‘ lib, u “adl” so‘ziga arabcha muannas jinsdagi otlarga qo‘shilib ulardan ko‘plik soni yasovchi

qo‘shimcha “-at”ning qo‘shilishidan hosil qilingan ot so‘z turkumiga oid leksima bo‘lib, u o‘zbek tiliga “adolat”, “to‘g‘ri”, “haqiqat” kabi ma’nolarni ifodalovchi so‘zlar orqali tarjima qilinadi.

Bu borada yana shuni aytib o‘tishimizmiz joizki, ushbu “adolatpesha” so‘zi tarkibidagi “pesh” yuqorida ta’kitlab o‘tganimizdek, forscha so‘z bo‘lib, o‘zbek tiliga “old”, “oldida”, “oldiga” kabi leksik ma’nolarni ifodalovchi so‘zlar vositasida tarjima qilinadi. Ushbu forscha qo‘shma sifat tarkibidagi har ikkala komponent ham so‘z turkumi jihatidan ot bo‘lib, ularning o‘zaro birikuvi orqali yasalgan “adolatpesha” so‘zi esa, to‘liqligicha bir leksik ma’noni ifodalovchi forscha qo‘shma sifatdir. Shundan kelib chiqib, biz, mazkur “adolatpesha” so‘zini asardan iqtibos sifatida keltirilgan gapda o‘zek tili nisbiy sifatlaridan “adolatli” so‘zi o‘rnida unga sinonim sifatida qo‘llanilganligini ko‘ramiz.

Shuningdek, yana ushbu gapda forscha qo‘shma sifatlardan “xushtab” so‘zi qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu so‘z ham xuddi “adolatpesha” kabi ikki mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarning o‘zaro birikuvidan yasalgan forscha qo‘shma sifatdir. Mazkur so‘z forscha “xush” (yaxshi) va arabcha “tab’” (xarakter) kabi sifat+otning o‘zaro birikuvidan yasalgan qo‘shma sifatdir. Ushbu “xushtab” forscha qo‘shma sifati asardan misol tariqasida keltirilgan gapda o‘zbek tilidagi “yaxshi xarakterli”, “yashi tabiatli” kabi murakkab sifatlar o‘rnida ularga sinonim so‘z sifatida qo‘llanilgan. Bu, ya’ni “adolatpesha” va “xushtab” kabi forscha qo‘shma sifatlarlarning asar tilida xuddi shunday leksik ma’nolarni ifodalash uchun qo‘llanilganligini yuqorida asardan iqtibos sifatida keltirilgan gaplarning tabdili mazmunidan ham anglab olishimiz mumkin. Asardan misol tariqasida keltiriolgan gap:

*“Xisravshoh **adolatpesha** va odil va **xushtab** ’va fazilatlik podshohzoda edi”.*

Ushbu gapning tabdili mazmuni: *“Xisravshoh **adolatli**, to‘g‘ri so‘z, **yaxshi tabiatli** va fazilatli podshohzoda edi”.*

Asardan iqtibos sifatida keltirilgan navbatdagi gapda muallif forscha qo‘shma sifatlardan “siyahsang” so‘zini qo‘llaganki, ular asar tilining rang-barangligini, jozibadorligini hamda o‘sha davr xalq tiliga yaqinligini ta’minlash uchun xizmat qilgan. Mazkur gapdagi forscha “siyaxsang” so‘zining yasalishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu so‘z ham boshqa shu kabi forscha qo‘shma sifatlar singari ikki mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lgan leksimalarning birikuvidan yasalgan qo‘shma sifatdir. Shunday ekan, mazkur qo‘shma so‘z “siyah” va “sang” kabi mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lgan forscha so‘zlarga bo‘linadi va uning tarkibidagi “siyah” so‘zi forscha asliy sifat bo‘lib, bu so‘z o‘zek tiliga “qora” so‘zi ma’nosida tarjima qilinadi. “Sang” esa forscha ot so‘z turkumiga mansub leksima bo‘lib, bu so‘z o‘zbek tiliga “tosh” so‘zi ma’nosida tarjima qilinadi. Bu ikki so‘z o‘zaro birikib, “siyahsang” ko‘rinikshidagi sifat+otning o‘zaro birikuvidan yasalgan qo‘shma sifatni tashkil etadi. Bu so‘z, ya’ni “siyahsang” forscha qoshma sifati to‘liqligicha o‘zbek tiliga “qora toshli” kabi ma’noni ifodalovchi murakkab sifat ifodalaydigan leksik ma’noda tarjima qilinadi va bu so‘z asarda ham xuddi shunday ma’noda qo‘llanilgan. Ushbu fikrimizga asos

sifatida mazkur iqtibosning tabdili mazmunidan ham anglab oilishimiz mumkin. “Boburnoma” dan misol tariqasida keltirigan gap:

*“Sharqi **siyahsang** o‘langidur. Charmagaron darvozasi bila bu o‘lang orasida vosita Qutlug‘qadamning go‘rxonasidur”.*

Mazkur gapning tadili mazmuni*:*

*“Sharqi **Qoratosh** vodiysidir va Charmagaron darvozasi bilan bu vodiyni Qutlug‘ qadamnining maqbarasi bog‘lab turadi”.*

Asardan misol tariqasida keltirilgan gaplarning keyingisida “xushsuhbat” so‘zi qo‘llanilgan va ushbu so‘zning yasalishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, mazkur so‘z ham forscha qo‘shma sifat hisoblanib, u ham alohida mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lgan ikki komponentga bo‘linadi. Ular forscha “xush” va arabcha “suhbat” so‘zlaridir va bu ikkala mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lgan forscha va arabcha so‘z o‘zaro birikib, “xushsuhbat” shaklidagi forscha qo‘shma sifatni tashkil etgan. Shunday ekan, yuqorida keltirilgan forscha “xush” leksimasi o‘zbek tiliga “yaxshi” so‘zi ma’nosida tarjima qilinib, u so‘z turkumi jihatidan sifat hisoblanadi. Arabcha “suhbat” so‘zi esa, o‘zbek tilidagi “gap” so‘zi ifodalaydigan leksik ma’noni anglatatib keluvchi, ot so‘z tujrkumiga xos so‘zdir. Ushbu ikkala so‘z birikishi natijasida yasalgan “xushsuhbat” shaklidagi forscha qoshma sifat o‘zbek tiliga “yaxshi suhbatli” shaklidagi murakkab sifat ifodalaydigan leksik ma’noda tarjima qilinadi va ushbu so‘z gapda asar muallifi tomonidan xuddi shunday ma’noni ifodalashda qo‘llanilgan. Ushbu gapdagi “xushsuhbat” so‘zining yuqorida zikr etib o‘tilgan ma’noda qo‘llanilganligini asardan misol tariqasida keltirilgan mazkur gapning mazmunidan ham anglab olishimiz mumkin.

Asardan iqtibos sifatida keltirilgan gap:

*“**Xushsuhbat** kishi edi. Samarqandni manga mulozamat qilib edi”.*

*Us*bu gapning tabdili mazmuni:

*U **yaxshi suhbatli** kishi bo‘*lib, *Samarqandni menga bergan edi.*

Shu bilan birgalida Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asari tilini yanada chiroyli, xalqchil, guzal, rang-barang va unda turkiy adabiiy til butun jozibasi va ifoda imkoniyati bilan namoyon bo‘lishi uchun o‘sha davr turkiy adabiiy tiliga o‘zlashgan forscha qo‘shma sifatlar bilan bir qatorda, **murakkab sifatlardan** ham o‘zbek tili sifatlariga sinonim yoki ekvivalent tarzida qollagan. Shuningdek, mazkur asar tilini tishunoslik nuqtai nazardan tahlil etishimiz natijasida unda forscha qo‘shma sifatlarga nisbatan murakkab sifatlar ancha kamchilikni, ya’ni 20 dan ortiqni tashkil etishi aniqlandi.

Biz usbu asar tilida qo‘llanilgan ayrim forscha murakkab sifatlarni asardan iqtiboslar keltirish asnosida tilshunoslik nuqtai nazaridan ilmiy tahlilga tortamiz. Masalan:

“Bir jins anor bo‘lur” “dono kalon” derlar, chuchukligida zardolu mayxushlig‘idin andak choshni bor” [1,7]. *“Otqa bo‘g‘uz kam yoft bo‘ldi”* [1,83].

Asardan iqtibos sifatida keltirilgan gaplarning birinchisida muallif tomonidan forscha “dona kalon” so‘z birikmasi qo‘llanilgan, mazkur so‘z

birikma forscha murakkab sifat hisoblanadi. Shuningdek, murakkab sifatlarning qo‘shma sifatlardan farqli tomoni shuki, ular tarkibidagi mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarning har biri alohida urg‘u oladi va bir-biridan ajratib yoziladi. Shunday ekan, ushbu forscha “dona kalon” so‘z birikmasi ham forscha “dona” va “kalon” so‘zlarining o‘zaro birikuvi orqali yasalgan murakkab sifatdir. Murakkab sifatlar deb odatda ikki yoki undan ortiq mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lgan va har biri alohida urg‘u olgan, lekin bir leksik manoni ifodalovchi, shuningdek, biror-bir predmetning sifatini anglatub keluvchi so‘z birikmalariga aytiladi [3,256]. Darhaqiqat, ushbu forscha “dona kalon” so‘z birikmasi tarkibidagi “dona” so‘zi ma’nosiga etibor qaratadigan bo‘lsak, bu so‘z fors tilida biror-bir predmetning sonini ifodalashda qo‘llaniladigan numirativ deb ataluvchi yordamchi so‘zdir [7,187]. Shu sababli ham ushbu “dona” so‘zi o‘zbek tiliga fors tilidagi ma’nosida predmetning sonini ifodalashda qo‘llaniladigan numirativ so‘z sifatida o‘zlashgan.

Forscha “dona” so‘zi yana o‘zbek tilida ham fors tilida ham asosan ot so‘z turkumiga mansub so‘z hisoblanib, u nima? kabi so‘roqqa ham javob bo‘la oladi. Endi ushbu murakkab so‘z tarkibidagi “kalon” so‘zi leksik manosiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu so‘z forscha asliy sifat bo‘lib, o‘zbek tiliga “katta” so‘zi ma’nosida tarjima qilinadi.Bu ikkala “dona” va “kalon” so‘zlari birikib, “dona kalon” shaklidagi bir predmetning sifat-xususiyatini ifodalab keluvchi so‘z birikmasini hosil qilgan va bu so‘z birikmasi o‘zbek tiliga “ doni katta” yoki “katta donli” kabi leksik ma’nolarni ifodalovhi murakkab sifatlar ifodalaydigan ma’noda tarjima qilinadi. Biz ushbu “dona kalon” shaklidagi forscha murakkab sifat xususida bildirgan fikrlarimizga asos sifatida mazkur gap va uning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga o‘girilgan tadilini keltiramiz.

Asardan iqtibos sifatida keltirilgan gap:

*“Bir jins anor bo‘lur” **“dono kalon”** derlar, chuchukligida zardolu mayxushlig‘idin andak choshni bor”*

Ushbu gapning tabdili mazmuni:

*“Shunday bir anor bo‘lar, uni **“katta donali”** anor derlar, uning mazasi o‘rikdan ko‘ra biroz shirinroqdir”.*

Asardan misol tariqasida keltirilgan gaplarning navbatdagisida forscha “kam yoft” so‘z birikmasi qo‘llanilgan bo‘lib, bu so‘z ham “dona kalon” so‘z birikmasi kabi forscha murakkab sifat hisoblanadi. Mazkur so‘z birikmasi ham mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lgan forscha ikki so‘zning o‘zaro birikuvidan yasalgan bo‘lib, ular “kam” va “yoft” so‘zlaridir. Ushbu leksimalarning birinchisi “kam” so‘zi bo‘lib, uning manosiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, o‘zbek tiliga “oz” so‘zi ma’nosida tarjima qilinadi va u so‘z turkumi jihatidan ravish hisoblanadi. Ikkinchisi esa forscha “yoftan” fe’lining o‘tgan zamon o‘zagi “yoft”dir. Mazkur forscha “yoftan” fe’li o‘zbek tiliga “topmoq” fe’li leksik ma’nosida tarjima qilinadi.

Shundan ko‘rinib turibdiki, mazkur so‘z birikmasining yasalishida “kam” va “yoft” so‘zlari o‘zaro birikib, “kam yoft” shaklidagi forscha murakkab sifatni

tashkil etgan. Bu so‘z birikmasi o‘zbek tiliga “kam topiladigan” kabi ma’noni anglatuvchi murakkab sifat ifodalaydigan leksik ma’noda tarjima qilinadi. Shunday ekan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham ushbu forscha murakkab sifat “kam yoft” ning “kam yob” shakli faol muomalada qo‘llanib kelinmoqda. Mazkur forscha “kam yob” so‘z birikmasi ham fors tilida murakkab sifat hisoblanib, u “kam” so‘zi va “yoftan” fe’lining hozirgi zamon o‘zagi “yob” ning o‘zaro birikuvidan yasalgan qo‘shma sifat hisoblanadi. lekin hozirgi o‘z o‘zbek adabiy tilida “kam yob” shaklidagi forscha murakkab sifatining ikkala komponenti bir-biriga qo‘shilgan holatda, ya’ni “kamyob” shaklida qo‘shma sifat ko‘rinishida qo‘llanilanib kelinmoqda. Buni biz iqtibos sifatida keltirilgan mazkur gapning tabdili mazmunidan ham anglab olishimiz mumkin.

Asardan iqtibos sifatida keltirilgan gap:

“Otqa bo‘g‘uz ***kam yoft*** *bo‘ldi”* .

Iqtibos sifatida keltirilgan gapning tabdili mazmuni:

“Otlar uchun yemish ***topilmas*** *narsaga aylandi”*.

Bu borada xulosa qilib yana shuni ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, “Boburnoma” saridan misol tariqasida keltirilgan gaplardan ko‘rinib turibdiki, Bobur o‘zining mazkur asari tilida forscha asliy sifatlar bilan bir qatorda, qo‘shma va murakkab sifatlaridan ham ma’no ifodalashda unumli va o‘rinli foydalanganligini va ular hisobiga o‘z asari tilining chiroyli, rang-barang, ta’sirchan hamda o‘sha davr xalq tiliga yaqin bo‘lishini ta’minlaganligini, shuningdek, usbu so‘lar hisobiga turkiy adabiy tilining ifoda imkoniyatini yanada kengaytirganligini va uni o‘sha davr fors tili mavqei darajasiga ko‘targanligini ko‘ramiz. Shu sababli ham ushbu buyuk mutafakkirning nafaqat “Boburnoma”, balki boshqa asarlarida ham turkiy adabiy til butun jozibasi va ifoda imkoniyati bilan namoyon bo‘lganligini ko‘ramiz. Shuningdek, “Boburnoma” asar tilini o‘rganishimiz natijasida yana shunga amin bo‘ldikki, muallif mazkur asarida forscha qo‘shma sifatlardan 35, murakkab sifatlardan esa 20 dan ortiq turini qo‘llagan. Biz ulardan ayrimlarinigina asardan iqtiboslar keltirish asnosida leksik- semantik hamda grammatik jihatdan tahlilini amalga oshirdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Ҳсанов Саидбек. Заҳириддин Муҳаммад БоБур. –Т., 2011.-Б., 46, 47.

2. Сафаров Қ. Ҳозирги ўзбек тили. -Т., 2009., -В., 57.

3.Sayfullayeva D., Menliyev B., Qurbonova M.,Raupova L.,Abuzalova M.,Yo‘ldassheva D. Hozirgi o‘zbek tili. –T., 2021. B., 254, 256.

4. Халилов А. Форс тили. Т., 1992., -В., 136.

5.Турсунов У., Мухторова Ж., Раҳматуллаев Ш. –Т., 1992.,-Б., 280.

6. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи Шамсиев. П. -Т., 1989.,-Б.,63., 18., 163., 7., 83.

7. Abdusamatov. M. Fors tili. –T., 2007., -B., 187.

ARAB VA FORS TILLARIDAN O‘ZLASHGAN BIRLIKLARNING O‘ZBEK TILIDAGI SEMANTIK RIVOJI

Qodirova Dilfuza G‘opirjon qizi,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti.

O‘zbek tilining leksik tarkibi shakllanishida arab va fors tillaridan kirib kelgan o‘zlashmalar muhim manba hisoblanadi. Asrlar davomida ular diniy, ilmiy va ijtimoiy nutqda faol qo‘llanib, fonetik va grammatik moslashuvlar orqali o‘zbek til tizimiga singib ketgan. Bu jarayon davomida o‘zlashmalar shakl bilan birga ma’noda ham o‘zgarib, semantik transformatsiya hodisasiga uchragan.

Semantik transformatsiya – birlikning manba tilidagi etimologik ma’nosi bilan hozirgi o‘zbek tilidagi qo‘llanilishi o‘rtasidagi tafovut bo‘lib, ma’no kengayishi, torayishi, metaforik siljish yoki konnotativ-emotsional o‘zgarishlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Masalan, arabcha fitna so‘zi “sinov” ma’nosidan “g‘avg‘o”, “buzg‘unchilik” kabi salbiy semantikaga ega bo‘lib borgan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, o‘zlashmalarning fonetik va morfologik moslashuvi keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning semantik transformatsiya mexanizmlari va zamonaviy nutqdagi funksional yuklari yetarlicha tahlil qilinmagan.

Maqolaning asosiy maqsadi – arabiy va forsiy o‘zlashmalarning o‘zbek tilidagi semantik o‘zgarishlarini aniqlash, ularning hozirgi til tizimidagi ma’no qatlamlarini yoritish va bu jarayonning tarixiy hamda ijtimoiy-lingvistik omillarini izohlashdir.

Transformatsiya (lot. transformatio – qayta tuzmoq) lingvistikada bir sintaktik tuzilmani boshqa bir tuzilma shakliga o‘zgartirish jarayonini anglatadi[2;111]. Ushbu jarayon tilning qoidalari asosida birliklarning shaklini, tarkibini yoki mazmunini o‘zgartirishga xizmat qiladi hamda tilning moslashuvchanligini namoyish etadi. Transformatsion yondashuv ayniqsa o‘zlashgan birliklarning semantik va grammatik o‘zgarishlarini izohlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Noam Chomsky tomonidan ishlab chiqilgan transformatsion-generativ grammatika tilning chuqur va yuzaki tuzilmalari o‘rtasidagi munosabat orqali o‘zgarish jarayonlarini izohlaydi[12;36]. Chuqur tuzilma birlikning asosiy semantik mazmunini, yuzaki tuzilma esa uning nutqdagi ifoda ko‘rinishini bildiradi. Chomsky bevosita o‘zlashmalarni tahlil qilmagan bo‘lsa-da, uning modeli orqali arabcha va forscha birliklarning o‘zbek tilidagi semantik o‘zgarishlarini tushuntirish mumkin; masalan, fitna so‘zi chuqur tuzilmada “sinov” ma’nosini bildirsa, yuzaki tuzilma darajasida “g‘avg‘o”, “buzg‘unchilik” kabi salbiy konnotatsiyalarni olgan.

Semantik o‘zgarishlarni izohlashda E.C. Traugotning semantik evolyutsiya modeli alohida ahamiyatga ega. U semantik transformatsiyani torayish, kengayish, salbiylashuv, ijobiylashuv, metaforik va metonimik siljish kabi turlar

orqali tushuntiradi[8;124]. Traugotning subjectification va intersubjectification g‘oyalari orqali so‘zlarning ijtimoiy-emotsional qatlamlarda qanday o‘zgarishi izohlanadi.

P.Gärdenforsning kognitiv semantika yondashuvi semantik transformatsiyani ongdagi “mental makon”dagi siljish sifatida ko‘radi[3;15]. U ma’no markazining o‘zgarishi; semantik aniqlikning ortishi; miqyosning o‘zgarishi; semantik maydonlararo o‘tish; bir semantik maydon doirasidagi metonimik siljish kabi turlarni farqlaydi. Bu model arab va fors tillaridan o‘zlashgan birliklarning o‘zbek tilidagi konseptual-semantik qayta shakllanishini izohlashda metodologik asos bo‘ladi.

Otabek Shukurov semantik transformatsiyani strukturaviy jarayon sifatida talqin etadi va uni uch darajaga ajratadi[11;48–60]. Bu yondashuv o‘zlashgan birliklarning etimologik ma’noga nisbatan qanday o‘zgarishini tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

Umidjon Qo‘ziyevning DSc dissertatsiyasida o‘zlashmalarning semantik taraqqiyoti alohida o‘rganilgan bo‘lib, u “semantik to‘yinish” tushunchasini ilgari suradi. Bu jarayon ikki yo‘nalishda kechadi[7;143–144]:

Donor tildagi semantik qatlamlarning qabul qilinishi; bunda o‘zlashgan birlik o‘zbek tilida bir nechta ma’no spektrini jamlab, mazmuniy barqarorlik hosil qiladi.

Qabul qiluvchi til kontekstida yangi ma’nolarning shakllanishi; bunda birlik vaqt davomida yangi ijtimoiy, stilistik yoki emotsional konnotatsiyalarni oladi.

O‘zbek tili arab va fors tillari bilan ko‘p asrlik leksik aloqalar davomida o‘zlashgan birliklarni fonetik va morfologik jihatdan moslashtiribgina qolmay, ularni semantik jihatdan ham qayta talqin qilgan. O‘zlashmalar madaniy, diniy, ijtimoiy ehtiyojlar asosida semantik transformatsiyaga uchragan va yangi ma’no qatlamlari bilan boyigan.

Quyida o‘zbek tilidagi arabcha va forscha o‘zlashmalarning to‘rtta asosiy semantik transformatsiya turi amaliy misollar asosida yoritiladi:

1. Semantik torayish. Birlikning keng ma’nosi muayyan ijtimoiy-psixologik kontekstga torayadi. Andisha (forscha andīsha – “fikr”, “o‘ylash”) o‘zbek tilida faqat “uyat”, “or”, “boshqalar fikridan xavotirlanish” ma’nosida qo‘llanadi. Misol: “Andisha qil, el nima deydi!” Bu torayish natijasida so‘z axloqiy-ijtimoiy nazorat vositasiga aylangan.

2. Semantik kengayish. Dastlab tor ma’nodagi birlikning qo‘llanish doirasi kengayadi. Musofir arabcha musāfir – “yo‘lchi”; o‘zbek tilida bu so‘z “g‘urbat”, “vatan sog‘inchi”, “ruhiy sinov”, “yolg‘izlik” kabi ko‘plab konnotativ qatlamlarga ega bo‘lgan. Misol: “Musofir yurtda aziz bo‘lmas.” Bu kengayish tarixiy-madaniy tajriba asosida shakllangan.

3. Metaforik transformatsiya. So‘zning denotativ ma’nosi figurativ ma’noga ko‘chadi. Hazm (arabcha hazm – “ovqatni eritish”) o‘zbek tilida “ruhiy qabul qilish”, “katta og‘irlikni ko‘tara olmaslik” kabi metaforik ma’nolarda

qo‘llanadi. Misol: “Bu haqoratni hazm qila olmadim.” Bu ko‘chish tilda obrazlilikning kuchayganidan dalolat beradi.

4. Konnotatsion siljish. Yadro ma’no o‘zgarmaydi; biroq so‘z salbiy yoki ijobiy stilistik yuklamaga ega bo‘ladi. Mutasaddi (arabcha mutaṣaddī – “ish boshlovchi, mas’ul shaxs”) o‘zbek tilida ko‘pincha tanqidiy ma’noda qo‘llanadi: “beparvo”, “sust”, “mas’uliyatsiz” konnotatsiyasi paydo bo‘lgan. Misol: “Mutasaddilar yana e’tiborsizlik qilyapti.” Bu jarayon ijtimoiy baholashni kuchaytiruvchi semantik qatlam paydo bo‘lganini ko‘rsatadi.

Arabcha va forscha o‘zlashmalarning o‘zbek tilidagi semantik transformatsiyasi tilning tarixiy taraqqiyoti, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy ehtiyojlar va kognitiv jarayonlar bilan bevosita bog‘liq. Transformatsiya torayish, kengayish, metaforik o‘zgarish va konnotatsion siljish orqali tilning mazmuniy, stilistik va ijtimoiy boyishiga xizmat qiladi. Ushbu jarayonlarni nazariy modellar asosida tahlil qilish o‘zbek tilidagi o‘zlashmalarning semantik tizimini chuqur anglash imkonini beradi.

Ushbu maqolada o‘zbek tiliga arab va fors tillaridan o‘zlashgan leksik birliklarning semantik transformatsiyasi tizimli tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zlashgan birliklar nafaqat fonetik va morfologik moslashuv jarayonidan o‘tgan, balki mazmunan ham chuqur o‘zgarishlarga duch kelgan. Semantik transformatsiya jarayoni bir nechta asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: ma’no torayishi, kengayishi, metaforik siljish va konnotativ (ijtimoiy, stilistik va emotsional) yuklamaning ortishi.

Demak, semantik transformatsiya jarayoni tilning kognitiv, madaniy va stilistik boyishida muhim ahamiyatga ega. Arabcha va forscha o‘zlashmalar o‘zbek tilida nafaqat passiv leksik birlik sifatida, balki faol semantik va kommunikativ vosita sifatida ishlatiladi. Bu jarayon, ayniqsa, subyektivlashtirish, semantik to‘yinish va konnotatsion siljish orqali o‘zbek tilining leksik va stilistik rivojlanishini kuchaytiradi.

Shu bois, maqola o‘zbek tilshunosligida arab va fors tillaridan o‘zlashgan birliklarning semantik transformatsiyasini tizimli yoritib, ularning zamonaviy nutqdagi funksional va stilistik rolini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek tilining leksik tizimining rivojlanish dinamikasini tushunishda, semantik evolyutsiyani kognitiv-funksional nuqtai nazardan tahlil qilishda, shuningdek, o‘zlashmalarning ijtimoiy va madaniy kontekstda ishlatilishiga oid ilmiy qarashlarni chuqurlashtirishda muhim manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдуллаев Ф.А. Арабизмы в узбекском языке: Дисс. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1946. – 143 с.

2. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. –111 б.

3. Gärdenfors P. Semantic transformations // Language and Semiotic Studies. – 2015. – T.1, №1. – C. 9–19. – URL: https://www.degruyter. com/ document/doi/10.1515/lass-2015-010103/html

4. Iskandarova Sharifa & Kuziyev Umidjon & AshurovDilmurod & Rakhmatullayeva, Dilafruzkhon. (2024). Advancing Natural Language Processing: Beyond Embeddings. 792-796. 10.1109/ICICAT62666.2024.10923033.

5. Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so‘z o‘zlashtirish // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2015. – №3. – B. 9.

6. Mirtojiyev M. O‘zbek semasiologiyasi. – T.: Mumtoz so‘z, 2010. – 288 b.

7. Qo‘ziyev U. O‘zbek tilidagi izohli lug‘atlarda o‘zlashma so‘zlar tadqiqi: Filol.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD)…dis. aftoref. – Farg‘ona, 2018. – 52 b.

8. Qo‘ziyev U. O‘zbek tilida o‘zlashma so‘zlarning tarixiy taraqqiyoti va me’yorlashuv omillari: DSc dissertatsiyasi. – Andijon, 2025. – 255 b.

9. Traugot E.C., Dasher R.B. Regularity in Semantic Change. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 364 p.

10. Traugot E.C. Semantic Change // K. Brown (Ed.). Encyclopedia of Language and Linguistics. – 2nd ed. – Oxford: Elsevier, 2006. – P. 124–131.

11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. –T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.

12. Shukurov O. Yangi davr o‘zlashmalarida transformatsion darajalanish // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2022. – №2 (43). – B. 48–60. – DOI: 10.36078/1652710255

13. Chomsky N. Syntactic Structures. – The Hague: Mouton, 1957. – 116 p.

O‘ZBEK TILIDAGI INGLIZCHA O‘ZLASHMALARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Allambergenova Maftuna Maxsudovna,
Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

Mustaqillikkacha bo‘lgan so‘z o‘zlashish jarayonida ayrim leksemalarning tilimizga rus tilining fonetik, leksik, morfologik yoki sintaktik hodisalariga moslashgan holda o‘zbek tili leksikasiga o‘zlashganini kuzatish mumkin. *Trenirovka* leksemasi ham shu hodisa mahsuli bo‘lib, ma’lum sifat-xususiyatlarga ega bo‘lish yoki ularni saqlab qolish uchun muntazam ravishda amalga oshiriladigan mashqlar, mashg‘ulotlar tushunchasini ifodalaydi. Bu leksemaning asl varianti mustaqillikdan so‘ng *trening [ingl.* training – o‘rgatish, tarbiyalash, mashq qildirish] shaklida o‘zlashtirildi.

Trening leksemasining faollashganini hozirgi paytda turli vaqtli matbuot sahifalarida ham kuzatish mumkin. Bu leksema *seminar-trening, o‘quv-trening* leksemalari tarkibida ham uchrab turadi. Psixoterapiya sohasida *autotrening* (ichki a’zolar funksiyasi, harakat faoliyati buzilganda o‘z-o‘zini ishontirish va o‘z-o‘zini boshqarish orqali shu holatdan forig‘ bo‘lishga olib keladigan psixoterapiya, ruhiy davolash usuli)[5;510] sifatida ham ishlatiladi. Shunisi, muhimki, bu leksema ingliz tilida keng ma’noda ishlatilsa-da, hozirda tilimizda ko‘proq o‘quv sohasiga xoslangan holda ishlatiladi.

Ma’lumki, rus tilida *h* fonemasi mavjud emas. Shunga muvofiq rus tili orqali o‘zlashgan *xaker* [*ingl.* hacker < hack – buzmoq; kesmoq, qirqmoq], *xuligan* [*ingl.* hooligan < irlandcha atoqli ot (Houlihan) dan] va *xoll* [*ingl.* hall – zal] kabi leksemalarda ham tarkibidagi *h* fonemasi o‘rniga *x* fonemasi ishlatilgan. Bu hodisani asli fransuzcha deb taxmin qilingan, rus tiliga ingliz tilidan o‘zlashgan *xokkey* [ingl. hockey < ehtimol eski *fr.* hoquet – cho‘ponlarning uchi qayrilma tayog‘i] leksemasi orqali ham kuzatish mumkin.

Ingliz tilida fe’lning gerundiy (gerund) shakli mavjud bo‘lib, bu shakl fe’l asosiga *-ing* qo‘shimchasi orqali hosil qilinadi va otga yaqin turadi. Shuningdek, fe’llardan shu shaklga omonim ot yasovchi qo‘shimcha ham mavjud. Leksikamizdagi belting, brifing, demping, doping, reyting, xolding, trening, monitoring, karting, marketing, kreking, sheyping, konsalting, peyjing, trening kabi inglizcha o‘zlashmalar borki, ularni etimologik jihatdan o‘rni bilan fe’lning gerungiy (harakat nomining -sh shakliga to‘g‘ri keladigan) shakli yoki ot yasovchi qo‘chimcha qo‘shimcha sifatida qabul qilish mumkin.

Ingliz tilida fe’llarga qo‘shilib ot yasovchi *-tion* qo‘shimchali leksemalar ko‘plab uchraydi. Ingliz tilidan rus tiliga bunday shaklli bir necha olinmalar o‘zlashtirilayotgan tilning tabiatiga adaptatsiya qilingan holda qabul qilingan. Masalan, *vulkanizatsiya* [*ingl.* vulkanization – kauchukni rezinaga aylantirish], *innovatsiya,* [*ingl.* innovation – kiritilgan yangilik, ixtiro] *natsionalizatsiya* [*ingl.* nationalisation < lot. natio, nationis – millat, xalq], *press-konferensiya* [*ingl.* press-conference < *fr.*], *registratsiya* [*ingl.* registration < lot. registrum – qayd etilgan, yozib qo‘yilgan], *eskalatsiya* [*ingl.* escalation – zina bilan yuqoriga ko‘tarilish], *filtratsiya* [*ingl.* filtration < lot. filtrum - kigiz] kabi leksemalar ham o‘zbek tili leksikasiga shu holatda o‘zlashtirildi.

Ma’lumki, o‘zbek tilida ot so‘z turkumida eng faol so‘z yasovchi -chi qo‘shimchasi hisoblanadi. Uning ingliz tilidagi muqobili -er shakli bo‘lib, bu qolip asosida yasalgan *broyler, broker, buldozer, bufer, vaucher, gamburger, gangster, golkiper diler, dispetcher, doker, jemper, mikser peyjer, printer provayder, prodyuser, revolver, rekorder sviter, server, skaner, skver, skreper, skreper, snayper, sprinter, spiker, stayyer, starter, taymer, tanker, tender, tiker, toner, trauler, treyler, trener, triller, fermer, flomaster, xaker, charter,* shuningdek, *investor, monitor, sponsor, tranzistor, ekskavator, repitetor hamda importyor, reportyor, trenajyor* kabi 100 ga yaqin leksemalar tilimizga o‘zlashgan.

Yogurt [ingl. yoghurt < *turk.* yogurt, *t.-tat. – qatiq*] leksemasi asl turkiy leksema bo‘lib, jem, meva konservasi, shokolod, kakao va boshqa qo‘shimcha (to‘ldirgich)lar aralashtirilgan, qaymoqli kremga o‘xshash sut-qatiq mahsuloti (oddiy ivitilgan qatiq, kefir va boshqalar) ma’nosida ishlatiladi. Bu ham *utyuk* leksemasi kabi o‘z shaklini o‘zga til xususiyatlariga mos ravishda o‘zgartirib qaytgan leksema sifatida o‘zlashma sifatida baholanadi.

O‘zlashmalarda yangilik bo‘yog‘i bo‘lganligi bois ularni manbalarda turlicha yozish holatlari ham kuzatilmoqda. Hatto O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham *noutbuk//notbuk, yogurt//yo‘g‘urt, pleyer//pleyyer, bluming//blyuming, kanistr//kanistra* kabi ayrim leksemalar imlosi ikki xil shaklga ega bo‘lib qolgan. Bu kabi so‘zlar o‘z qatlam leksikasida ham ko‘plab topiladiki, ularning imlosini imkon qadar ikki xil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim deb o‘ylaymiz.

Esish harakatini ifodalovchi so‘zlar sirasi uchun *shamol* yetakchi, uyushtiruvchi so‘z hisoblanadi. O‘zbek tilida yel-yog‘in otlarini maxsus tadqiq qilgan A.Aliqulov «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da esish harakatini ifodalovchi 34 ta so‘z mavjudligini aniqlagan. Ulardan 21 tasi (bod, bodi sabo, bo‘ron, garmsar, garmsel, girdibod, dovul, yel, yelvizak, izg‘irin, izg‘iriq, musson, nasim, sabo, samum, tayfun, to‘fon, shabada, shabboda, quyun, g‘urg‘urak) ning leksikografik talqinida *shamol* so‘zidan sema ifodalovchisi sifatida foydalanilgan“[1;19].

Bu uyadoshlar qatoriga kiruvchi *tayfun* *[ingl.* typhoon < *xit.* taifung (tay fsh) – kuchli shamol yoki *arabcha to‘fon* – toshqin; suvning ko‘tarilishi] *geografik atama sifatida* shiddatli, nihoyatda kuchli shamolli tropik siklonlarning mahalliy nomi sifatida ishlatiladi.

Provayder *[ingl.* provider – ta’minlovchi, yetkazib beruvchi] leksemasi bugungi kun axborot texnologiyalari fani sohasi va publitsistik uslubda faol qo‘llanyapti. Uning lug‘atdagi ma’nosi o‘z mijozlariga internet tarmog‘idan foydalanish bo‘yicha turli xizmatlar ko‘rsatuvchi firma, vositachi tashkilot sifatida qayd etilgan.

Shou *[ingl.* show – ko‘rsatish, tomosha; ko‘rsatmoq, namoyish qilmoq] leksemasi ommaviy tomoshabinlar va tinglovchilarga mo‘ljallangan dabdabali, televizion yoki konsert estrada tomoshasi ma’nosiga ega. Tarkibida shou elementi mavjud: shou tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq ishbilarmonlik faoliyati, shou tashkil etish yo‘li bilan daromad topish ma’nosidagi *shou-biznes [ingl.* show-business], suhbat, ashula asosida tashkil etiladigan ko‘ngilochar ko‘rsatuv ma’nosidagi *tok-shou [ingl. talk*-shou] leksemalari juft holatda shakllanib o‘zlashgan, o‘zlashish tarixi uzoq bo‘lmagan leksemalardir.

Rekordsmen, sportsmen, biznesmen, yaxtsmen, barmen *leksemalari inglizcha qo‘shma yasama so‘z bo‘lib, shaxs oti yasash qolipi hosilalaridir.* ***Rekordsmen*** *[ingl.* recordsmen – rekordchi, rekordga erishgan kishi] hozirda ishlatilishi passivlashgan leksema bo‘lib, uning sinonimi bo‘lgan ***rekordchi*** leksemasining qo‘llanilishi unga nisbatan faollashgan. Tilimizda kalka usulida hosil qilingan ***rekordsmen – rekordchi, sportsmen – sportchi, biznesmen –***

bizneschi, barmen – bar egasi, yaxtsmen – yaxtada yelkanli sport bilan shug‘ullanuvchi kabi juftliklar mavjud.

Tilning jamiyat bilan hamnafas yuradigan, undagi o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirishni talab qiladigan muhim bo‘limi ham leksika hisoblanadi. Leksika tildagi o‘zgarishlarni o‘zidan boshqa doiralarga qaraganda kengroq aks ettiradi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida *ekzotika [yun.* exotikos – begona, o‘zga yerli] maqolasida bir mamlakatga xos bo‘lib, uzoqdagi boshqa mamlakat xalqiga qiziq, g‘alati, g‘ayrioddiy bo‘lib ko‘rinadigan narsalar, urf-odatlar (*Ekzotika bilan milliy ruhni saqlash orasida katta farq bor.* SH.Shomuhamedov, Badiiy tarjima va adabiy tanqidchilik) ko‘rinishida izoh berilgan[4;21].

So‘z o‘zlashish jarayoni murakkab jarayon bo‘lib, o‘zlashma so‘z o‘zlashayotgan tilning fonetik hodisalariga muvofiq holda moslashadi. Masalan, *xokkey* inglizcha (*ingl.* hockey < ehtimol eski fr. hoquet – cho‘ponlarning uchi qayrilma tayog‘i; darvozali muz maydoni yoki maysa ustida klyushka va to‘p (shayba) bilan komanda bo‘lib o‘ynaladigan sport o‘yini[4;405] so‘z bo‘lib, o‘zbek tiliga rus tili ta’sirida o‘zlashgandir. Rus tilining fonetik tarkibida o‘zbek tiliga xos bo‘lgan *o‘, q, g‘, h* tovushlarining mavjud emasligi sababli *hokkey* ko‘rinishida emas, *xokkey* shaklida rus tili fonetik hodisalariga mos ravishda tilimizga o‘zlashdi.

Kompozitsiya usuli. So‘zning ikkala qismi ham inglizcha so‘zdan tashkil topadi. Masalan, *supermarket*, video-salon (*video saloon)* – film tomosha qilishga mo‘ljallangan xona, internetkafe, tokshou (talk-show) – suhbat asosida olib boriladigan ko‘ngilochar tadbir, shou-biznes, shuningdek, shu asosda o‘zbekcha so‘z yasalishidagi Ozodshou – shu nom egasi ishtirokidagi ko‘ngilochar tadbir kabi misollarni keltirish mumkin.

So‘z o‘zlashtirishdagi eng faol ishtirokchilar sport mashg‘ulotlarini sevuvchilar orasida topiladi. Masalan, *vindserfing, armrestling, fristayl, skeytbord, kikboksing*.

Ommaviy kompyuterlashish jarayoni asosida avval mutaxassislar orasida, so‘ng esa kompyuterdan foydalanuvchilar orasida bir qancha kompyuter texnikasiga oid so‘zlar o‘zlashdi: *kompyuter, fayl, printer, skaner, noutbuk, brauzer, sayt* va boshqalar.

O‘zlashma so‘z faol bo‘lsa, o‘z atrofiga bir necha yangi tushuncha ifodalovchi so‘zlarning olib kirilishiga ham sabab bo‘ladi: *prezentatsiya, nominatsiya, videofayl, videorolik, videoklip, videokasseta, videosalon, triller, xit, diskoteka, disk-jokey.*

Ayrim o‘zlashma so‘zlar jozibadorligi, ta’siriy-tasviriylik va eshitilishi jihatidan ham o‘zlashayotgan til leksikasiga muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, *eksklyuziv – nodir, favqulodda, o‘ziga xos; top-model – ajoyib model; imij – qiyofa, ko‘rinish* kabi.

Eski nashrdagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi ko‘pgina so‘zlar yangi izohni talab etganidek, yangi nashrdagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi ayrim

so‘zlar ham qayta izohni talab etadi. Bunga misol sifatida *kompyuter* leksemasining izohli lug‘atdagi ma’nosiga e’tibor qaratamiz: “Murakkab qurilmaga ega bo‘lgan elektron hisoblash mashinasi”[2;397]. Bu sodda ta’rif zamonaviy kompyuter so‘ziga nisbatan ancha noto‘liq bo‘lib, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”[6;687]da berilgan izoh uni to‘ldiradi, deyish mumkin. Qisqacha qilib aytganda, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *kompyuter* so‘ziga beriladigan izoh “Murakkab qurilmaga ega bo‘lgan elektron hisoblash mashinasi” ko‘rinishida emas, balki, “Matn va turli tasvir ko‘rinishidagi axborotlami monitorda aks ettira oladigan, boshqarish, protsessor, xotira va kiritish-chiqarish qurilmalaridan iborat, oldindan berilgan dastur bo‘yicha ishlaydigan avtomatik qurilma” sifatida kengroq izohlanishi mumkin bo‘ladi.

Umuman olganda, fan-texnikaning jadal rivojlanishi hamda internet va interanet tizimi asosida turli tilda so‘zlashuvchi kishilarning fikr almashinishi natijasida dunyo miqyosida globallashgan zamonaviy texnologiyalarga oid so‘z va atamalarning baynalmillashishi kuchaydi. Shuningdek, bu holat jamiyatning siyosiy, ma’naviy, madaniy, iqtisodiy sohalaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aliqulov A. O‘zbek tilida yel-yog‘in lug‘aviy-ma’noviy guruhi (tizimi, nutqiy voqelanishi va leksikografik talqini): Filol.fanlari nomzodi dis... - Toshkent, 2011.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. 2-jild.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2008. 4-jild.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2008. 5-jild.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-tom. 2000.
6. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2002. 4-tom.

“BOBURNOMA” ASARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI TADQIQI

Ummatova Bahora Shakar qizi,
JDPU talabasi
Ilmiy rahbar: JDPU dotsenti ,f.f.doktori J.Jo‘rayev

“Boburnoma” ravon uslubda yozilgan, syujeti betakror badiiy ta’svir elementlari yordamida ifodalangan sermazmun asardir. Asar tilining ravonligi ko‘p hollarda “sodda” lik bilan izohlangan: “Boburnoma”ning tili juda sodda”

(A.Shcherbak)[5:44]. “… xoh pozada, xoh poeziyada sof va sodda uslub masteri edi”(Jan Pol)[6]. Boburnoma tilidagi ifoda teranligini, muallif o‘y-kechinmalari, his-tuyg‘ularining real tasvirlanishini, mohirona portret chizgilarini, “soddaligi” bilangina ta’riflab bo‘lmaydi. Asar tilida jonli va obrazli tasavvurning ifodalanishi, arab va forscha terminlardan keng o‘rinlarda foydalanilganligi, turli hikmatli so‘zlar (maqol, ibora) va arabcha birikmalarning qo‘llanilganligi, hindcha so‘zlarning ishlatilganligi “Boburnoma” tilining ta’kidlanganchalik sodda emasligidan dalolatdir. “Boburnoma” tilining alohida ajralib turadigan xususiyati shundaki, muallifning lingvistik bilimi, yozma nutq qoidalarini mukammal egallaganligi hamda o‘z fikr-mulohazalarini maqsadga muvofiq tarzda aniq dalillar asosida aks ettirganligi bilan ham belgilanadi. Bobur ishlatgan har bir so‘zni teran anglab, tasvir vositasi quroliga aylantirgan. So‘zlashuv uslubiga xos birliklarni to‘g‘ri tanlagan va leksik birliklarning semantik imkoniyatlaridan o‘rinli foydalangan. Sababi so‘zlashuv uslubidagi turli qo‘pol, uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar asar tilining ravonligiga va badiiy qiymatiga putur yetkazar edi.

Shu sababli Bobur umummilliy e’tirofga aylana oladigan xalq so‘zlashuv uslubidagi so‘zlarni tanlab oladi. Boburnomada voqea-hodisalar, shaxslar qiyofasi, fe’l-atvori dunyoqarashi, tafakkuri, ruhiyati, tabiat va jamiyat tasviri til imkoniyatlari orqali mohirona tasvirlangan.

Muallifning zakiyligi, aqliy salohiyati, teran mushohadaliligi bilan belgilanuvchi bu ifoda uslubi asar tili va uslubining ta’sirchan motivlarga boyligini ta’minlashga xizmat qiladi.

“Boburnoma leksikasining o‘ziga xosligini belgilovchi lingvistik omillar quydagilar:

1. “Boburnomada XV-XVI asarlardagi O‘rta Osiyo Afg‘oniston, Hindiston tarixiy muhiti, aholisi, ijtimoiy-siyosiy, maishiy turmush tarzini aks ettiruvchi lug‘at fondi mujassamlangan.
2. Asarda Bobur faoliyati bilan bog‘liq hind, pushtu, urdu tillariga oid so‘zlar, narsa-buyum, hodisa nomlari uchraydi.
3. Turkiy leksemalarning semantik xususiyatlari namoyon bo‘lgan.
4. Eski o‘zbek adabiy tilidagi forscha-tojikcha, arabcha, mo‘g‘ulcha, o‘zlashmalarning semantik, funksional-stilistik xususiyatlari aks etgan.
5. Muallifning turli tilga mansub so‘zlar qiyosiga oid fikrlari, so‘z etimologiyasi, imlosi tahliliga doir mulohazalari ifodalangan.
6. Asarda eski o‘zbek tiliga oid bir qator manbalarda kuztilmaydigan arxaik birliklar va mualliflik mahorati bilan belgilanuvchi leksik, frazeologik okkazionalizmlar qo‘llangan.
7. “Boburnoma” memuar janrda yozilgan bo‘lib, voqelikning o‘ta sinchkov, teran aql-idrok, chuqur bilim tengsiz xotira sohibi bo‘lgan muallif shuuri orqali bayon etilishi asar tilining o‘ziga xosligini ta’minlagan”[3:15].

Odatda yozma tarixiy manbalar leksikasini tahlil qilishda shakl va mazmun birligiga, mumtoz badiiy matnning tarixiyligiga, an’anaviyligiga, va davr tilining

badiiy namumasi sifatida yuzaga kelishiga alohida e’tibor berildi. Xususan, “Boburnoma” muallif dunyoqarashi, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, ruhiyati va xotira imkoniyatlarini aks ettirgan mukammal asardir.

“Boburnoma”da 14728 ta so‘z qo‘llangan shundan 4007 tasi (umumiy leksikaning 27,2 %) ni nomlar tashkil qiladi, jumladan: 1507 tasi antroponim, 1253 ta toponim, 284 ta etonim, 175 ta zoonim, 247 ta fitonim, 37 ta kitob va risola, 4 ta kema nomi. 1925 tasi (13,1 %) arab, fors-tojik, hind, pushtu tiliga oid chet so‘zlardir. 7901 tasi (53,64 %) eski o‘zbek adabiy tilida faol qo‘llangan leksik birliklardir. 700 tasi (4,75 %i) arxaik birliklar, 195 tasi (1,31%) okkozional so‘zlardan iborat”[3:16].

“Boburnomada qo‘llanilgan so‘zlarni semantik maydon asosida o‘rganish mavzuiy tasniflashga qaraganda kengroq doiradagi semantik belgilarga asoslanadi. Semantik predmet (realema) muayyan lisoniy belgi orqali ifodalangan borliqdagi real predmetlarning belgilar majmuasidir” [4:29].

Boburnoma leksikasi bir nechta semantik maydondan tashkil topgan:

1. Shaxs va uning faoliyati bilan bog‘liq semantik maydon 1796 ta so‘zdan iborat

- Shaxs ismini bildiruvchi semantik guruh: Sulton Husayn, Xoja Ismoil, Boboquli.
- Ta’na azosini bildiruvchi semantik guruh: qo‘l, ilig, barmoq, kift.
- Shaxsning tashqi ko‘rinishini ifodalovchi semantik guruh:

1) Kiyim-kechak tushunchasini ifodalovchi so‘zlar: bo‘rk, abrishim, to‘n, nimcha, po‘stin, qullob, jiba, dubulg‘a

2) Shaxs qiyofasini ifodalovchi so‘zlar: suyuq saqolliq, bodom qovoqliq.

- Shaxs fe’l-atvorini ifoda etuvchi semantik guruh: xushta’b, sodda zarif, fazilatliq, xasis, badbaxt, sharobxo‘r va h.k.

2. Harakat-holat tushunchalarini aks ettiruvchi semantik maydon (jami 1775 so‘z).

Harakat-holatni bildiruvchi fellar bir nechta turlarga bo‘linadi:

- harakat fe’llari: otlanmoq, to‘p uloqtirmoq, chopmoq.
- holat fe’llari: taraddud qilmoq, taraqqiy qilmoq,rioyat qilmoq.
- nutq fe’llari: arz qilmoq, shikoyat etmoq, aytmoq.

3. Belgi xususiyat bildiruvchi semantik maydon. (jami 185 so‘z). Asarda rang bildiruvchi qora, oq, qizil sifatlari bir nechta ma’nolarda qo‘llanilgan:

1) Rang, belgini ifodalagan:

“… Muhamma Ali jang-jangg‘a xossa qora mahmadlik boshliq, qalmoqi jiba berib, tug‘ ham inoyat bo‘ldi”[1:298].

2) o‘ljaga olingan hayvonlarni bildirgan: “… cherik eli raxt va gala qora o‘lja kelturdilar”[1:210].

3) askarlar to‘dasi ma’nosida kelgan:

“…Tanbalning qorasi Navkand soridin paydo bo‘ldi”[1:129].

4) antroponim sifatida kelgan: ”So‘zangaron darvozasi Qora barlosning buljori edi”[1:147].

5) Bobur qora so‘zini oqmas suv o‘rnida qo‘llagan. “…Hindustonda oqar suv daryolardin o‘zga kamdur. Ahyonan ba’zi yerda qora suvlar bor”[1:344].

Bobur oq rangni bar so‘zi orqali ifodalagan: “Boshidin quyrug‘igacha besh-olti muxtalif rangi bor, kabutarning bo‘ynidek barroqdur”[1:348].

4. Fan sohasiga oid tushunchalarni ifodalovchi semantik maydon adabiyotshunoslik, astronomiya, musiqa va tibbiyot ilmiga oid atamalarni o‘z ichiga oladi: yulduz, falak, she’r ruboiy, misra, bezgak, hasba, istima tabib, harorat.

5. Makon tushunchasini bildiruvchi semantik maydon.

Geografik atamalarni keng miqyosda qo‘llagan Bobur asarda topoobektlarning etimologiyasidan tortib, joylashgan o‘rni, tabiati va istiqomat qiluvchi xalqi haqida ham qimmatli ma’lumotlarni berib o‘tgan. Boburnomada tilga olingan Hindiston, Kobul, Xuroson toponimlari hudud jihatidan eng katta maydonga egaligi bilan ajralib turadi. Boburnomada toponimlarga oid muhim ma’lumotlar uchraydi.

Jumladan, Xodarvesh dashtining etimologiyasi quydagicha keltirildi: “…Xo‘jand va Kandibodom orasida Xodarvesh nomli bir dasht bor. Bundan sharq tomonidan bo‘lgan Marg‘inonga ham shu yerning shamoli boradi.Xo‘jand buning g‘arbida bo‘lib, mudom bu yerdan u yerga shamol esadi, qattiq shamollari bor. Derlarki, bir necha darvesh bu dashtda qattiq shamolga yo‘liqib, bir-birlarini topolmay “Xo darvesh”. “Xo darvesh” deya-deya halok bo‘lganlar. O‘shandan beri bu dashtni xodarvesh deydilar”[2:30-31].

6.Zamon tushunchasini ifodalovchi semantik maydon.

Boburnomada zamon tushunchasi bir qancha terminlar asosida ifodalangan. Vaqt tushunchasi uchun xoslangan kun, oy, asr, yil, fasl, hafta pos, pahr, giri, daqiqa kabilarni aytishimiz mumkin. Bundan tashqari namozi shom, namozi xufton, ot minguncha fursat kabi birikmalar bilan ham zamon tushunchasi ifodalangan.

Yuqoridagi tahlillar asosida ta’kidlashimiz joizki, “Boburnoma “eski o‘zbek adabiy tilining lingvistik xususiyatlarini aynan fonetik, leksik, grammatik va etimologik jihatlarini aks ettirgan qimmatli manbadir. Asarda XV-XVI asr ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy muhiti, aholining turmush tarzi, dunyoqarashi, tiliga oid tushunchalarni ifodalagan leksemalar o‘rin olgan. Asar tili va uslubi o‘zbek tili tarixini tadqiq etishda va tarixiy leksikologiya masalalarini batafsil o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. З.М.Бобур. Бобурнома.– Тошкент, 1960.
2. В.Рахмонов, К.Муллахужаева. Бобурнома табдили. – Тошкент, 2008.
3. З.Холманова. Бобурнома лексикаси тадқиқи. – Тошкент, 2009.
4. Ш.Искандарова. Ономасиология муаммолари ва ўзбек тили лексикасини майдон сифатида ўрганиш. – Тошкент, 1998.
5. Шчербак А.М. Грамматика строузбекского языка. – М– Л, 1962.
6. Gane Poole.Babar. Oxtord At the clarendonpress, 1889.

“QADIMGI TURKIY LUG‘AT”NI YARATISH UCHUN ASOS BO‘LGAN MANBALAR VA ULARNING TASNIFI

To‘ychiyeva Nozima Farhod qizi,
JDPU talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD), dots. D.A.Abduvaliyeva

Qadimgi turkiy til turkologiya fanining eng qadimiy va eng muhim qatlamlaridan biri hisoblanadi. Turkiy tillarning lug‘aviy fondini tiklash, taraqqiyot bosqichlarini aniqlash va turkiy xalqlarning uzoq yillik tarixiy merosini o‘rganish jarayonida yozma yodgorliklarning o‘rni nihoyatda ahamiyatlidir. Qadimgi turk xalqlari tomonidan, turli hududlarda yaratilgan runiy, uyg‘ur, brahmi, moniy va arab yozuvlari turkiy tilning boy fonetik, grammatik va semantik tizimini o‘zida aks ettirgan bo‘lib, ular qadimgi turkiy lug‘atlarni yaratishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan va hozirgi kunga kelib ham tadqiqotlarning asosiy manbasi bo‘lib qolmoqda.

Qadimgi yodgorliklarni o‘rganar ekanmiz, ularda nafaqat turkiy tillarga doir ma’lumotlar, balki o‘sha davrdagi turkiy qabilalarning turmush sharoiti, urf-odati, diniy e’tiqodi hamda ijtimoiy tuzilmalari haqida ham bilib olishimiz mumkin.

XX asrning eng mukammal va eng ahamiyatga molik lug‘atlaridan biri hisoblangan “Qadimgi turkiy lug‘at” (Древнетюркские словар) da ham aynan ushbu yodgorliklardan keng qamrovda foydalanilgan.

“Qadimgi turkiy lug‘at” 1969-yili rus turkologlari E.R.Tenishev, A.M.Serbak, D.M.Nasilov, V.M.Nadelyayev tomonidan tayyorlangan eski turk, uyg‘ur, turk va o‘rta turkiy davrlarni qamrab olgan yig‘ma lug‘atdir. U 7-13 - asrdagi matnlar va yodgorliklarni qamrab oladi [1;3]. Ushbu lug‘atda ko‘plab so‘zlarning etimologiyasi berilganiligi sababli (barchasi emas) uni etimologik lug‘at deb ham ayta olamiz. Asar 20 000 turkcha so‘z va idiomalardan iborat. (Afsuski hozirgi kunda rus tilida bo‘lgan ushbu lug‘atning turkiy tilga ilmiy tarjimasi yo‘q)

Bu lug‘atning yaratilishi turkologiya tarixida katta burilish yasadi. Chunki undan avval qadimgi turkiy tilning lug‘aviy tarkibi bo‘yicha alohida izohli, tizimli manba mavjud emas edi. Shu sababli “Qadimgi turkiy lug‘at” qadimgi turkiy tilni mustaqil ravishda ilmiy o‘rganish, qiyosiy-tarixiy metod asosida boshqa turkiy tillar bilan qiyoslash, shuningdek, turkologiyada umumlashtiruvchi manba sifatida qabul qilindi. “Qadimgi turkiy lug‘at” (Древнетюркские словар) faqat lug‘at emas, balki qadimgi turkiy madaniyat ensiklopediyasi sifatida qaraladi. Albatta lug‘atning ushbu darajaga yetishida, qadimgi turkiy yodgorliklarning hissasi beqiyosdir, shu bilan birga bu topilmalar nafaqat ushbu lug‘at balki, turkiy tillar lug‘atshunosligining poydevori bo‘lgan.

“Qadimgi turkiy lug‘at” dagi so‘zlarga asos bo‘lgan manbalar Go‘kturk xoqonligidan to mo‘g‘ullar istilosigacha bo‘lgan davr bilan chegaralanadi. Manbalar qo‘llanilgan alifbosiga ko‘ra beshga bo‘linadi: Runiy (O‘rxun alifbosi), arab, uyg‘ur, moniy va brahmi alifbolarida yozilgan matnlar.

Ushbu manbalar o‘z ichiga bir qancha asarlarni qamrab oladi. Quyida ularni keltiramiz:

1. Runiy harfli matnlar: Kultegin bitigi, Bilga xoqon bitigi, To‘nyuquq bitigi, Ongin bitigi, Muyunchur va Kuli Chor bitigi. Bu yirik bitiklardan tashqari yuzdan ortiq kichik hajmdagi yozuvlardan foydalanilgan. To‘g‘ri o‘qilishi aniq bo‘lmagan Oltoy, Yenisey, Ko‘y Sari, Qora Tala kabi matnlar lug‘atga kiritilmagan.

2. Arab harflari bilan yozilgan matnlar: Arab harflari bilan yozilgan uchta buyuk asar: “Devonu lug‘otit turk”, “Qutadg‘u Bilig va “Hibbat-ul haqoyiq” ;

3. Uyg‘urcha harflar bilan yozilgan matnlar: bu guruhga “Oltin Yorug‘”, “Sakkiz Yukmek”, “Sutra”, “Pusar”, “Qalyanamqara va Papamqara shahzodalari afsonasi”, “O‘g‘uzxon” dostoni, “ Turkcha Turfan matnlari’, “Uyg‘urcha”, “Turkcha Mainhachia aus Chostscho” kabi asarlar kiradi;

4. Moniy harfli matnlar: “Xuastuanift”, “Turkcha Turfan matnlari”, “Turkcha Mainhachia aus Chostscho” ; (oxirgi ikki asar ayrim joylarda uyg‘urcha matnlar bo‘lganligi sababli, uyg‘ur bo‘limiga ham qo‘shilgan)

5. Brahmi yozuv matnlari: bular asosan Gabain tomonidan nashr etilgan oz sonli diniy matnlardan iborat [2;89].

Bilamizki, ushbu asarlar turli xalqlarning urf-odati, turmush tarzi, dini, ijtimoiy kelib chiqishi haqida batafsil ma’lumot beruvchi qadimiy asrlar bo‘lib, ular nafaqat “Qadimgi turkiy lug‘at” balki yana boshqa ko‘plab ilmiy asarlar, lug‘atlar, maqolalar yaratilishida asos manba bo‘lib xizmat qilgan. Quyida ushbu asarlarning ba’zilari to‘g‘risida qisqacha mazmuniy tavsif berib o‘tamiz.

Birinchi guruhga mansub bo‘lgan runiy harfli matnlar sirasiga kiruvchi asarlar, turkiy tillar tarixini o‘rganishda yetakchi manba bo‘lgan. Ulardan biri Kultegin bitiktoshidir. Bu bitiktosh ikkinchi turk xoqonligi asoschisi Eltarish xoqonning kichik o‘g‘li Kultegin sharafiga qo‘yilgan. U 731-yilda 47 yoshida vafot etgan. Yodgorlik uning akasi Bilga xoqon tomonidan 732-yilda o‘rnatilgan. Matn muallifi esa Eltarish xoqonning o‘g‘li Yo‘llug‘ tegin [3;124].

Bilga xoqon bitigi esa ikkinchi turk xoqonligi asoschisi Eltarish xoqonning to‘ng‘ich o‘g‘li. U 734-yilda 50 yoshida vafot etgan. Yodgorlik toshi 735-yilda uning o‘g‘li Yo‘llug‘ tegin tomonidan o‘rnatilgan. Bitiktosh 80 satrdan iborat. Mazkur bitiktoshni Kultegin bitiktoshi bilan birga 1889-yilda rus olimi N. M. Yadrinsev Mo‘g‘ulistonning Kosho Saydam vodiysida Ko‘kshin O‘rxun daryosi bo‘yidan topgan. Yodgorlik matni nemis, fransuz, ingliz, rus tillariga tarjima qilingan, turk va o‘zbek tillarida tavsif etilgan [4;124].

To‘nyuquq bitiktoshi Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkarda To‘nyuquq sharafiga qo‘yilgan. Bitiktoshda Turk xoqonligining qayta tashkil topishi, bu ishda Eltarish xoqonning xizmati, To‘nyuquqning xoqonlik

shakllanishi, yuksalishidagi turli o‘lka va qabilalarga qarshi uyushtirilgan harbiy yurishlardagi qahramonligi, vatanparvarligi batafsil bayon etilgan [5;835].

XI-XIV asrlarda yaratilgan arab grafikasiga oid manbalar asosan diniy, leksikografik, adabiy hamda tarixiy mazmundagi asarlarni o‘z ichiga oladi. Bu matnlar turkiy tilning fonetik, morfologik va semantik tizimini o‘rganishda muhim manbalardan hisoblanadi. Shu o‘rinda ayta olamizki, arab harflari bilan bitilgan matnlar sirasiga kiruvchi asarlar turkiy til rivojlanishi va “Qadimgi turkiy lug‘at”ning yaratilishida uchun asos bo‘lgan deb ayta olamiz. Ushbu asarlardan lug‘atda keng qamrovli foydalanilgan. Quyida ushbu asarlar haqida qisqacha ma’lumot keltiramiz.

“Devonu lug‘otit turk” (arabcha tarjimasi “Turkiy so‘zlar devoni”) - Mahmud Qoshg‘ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari (1071-72). Bu asarda XI asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G‘arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug‘ va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirilgan [6;146].

Arab alifbosida yozilgan keyingi asarimiz “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yo‘llovchi bilim”) - Yusuf Xos Hojib asari, turkiy adabiyotning nodir namunasi, 1069-1070-yillarda yaratilgan. Muallifning asar muqaddimasida xabar berishicha, bu kitob o‘z davridayoq keng tarqalib, mashhur bo‘lgan. “Qutadag‘u bilig” dostonini yaratar ekan, muallif o‘z oldiga qoraxoniylar davlati hokimiyatini mustahkamlash, Tavg‘achxon bilan Eloqxonlar o‘rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etish, hukmron doiralarning turli ijtimoiy tabaqalarga munosabatini belgilash, ma’rifat va obodonchilik uchun kurash, yaxshi xulq-odobni targ‘ib qilish kabi maqsadlarni qo‘ygan. Bu bilan Yusuf Xos Hojib o‘z davrining yirik ma’rifatparvari va donishmandi sifatida gavdalanadi [7;407].

Bundan tashqari Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari ham yuqoridagi manbalar qatoridan joy olgan bo‘lib, u badiiy so‘z san’ati va o‘zbek adabiy tilining beqiyos yodgorligi hisoblanadi. Buyuk shoir Alisher Navoiy o‘zining “Nasoyim ul-muhabbat” asarida Ahmad Yugnakiyni ko‘zi ojiz bo‘lsada qalb ko‘zi ochiq deb ta’rif berib ketadi va uning yozish mahoratini ham yuqori baholaydi.

Keyingi manba uyg‘ur yozuvi bilan yozilgan matnlar bo‘lib, uyg‘ur matniga oid bo‘lgan asarlardan biri hisoblangan “O‘g‘uznoma” turk va o‘g‘uz xalqlari shajaraviy ma’lumotlari va ularning buyuk xoqoni O‘g‘uzxon to‘g‘risidagi yodgorlik hisoblanadi. Ammo asarning qayerda va qachon ko‘chirilganli haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. N. Mallayev bu asarni XIII-XIV asrlarda yozilgan deb hisoblaydi [8;239-240].

Endi esa qadimiy asarlardan biri bo‘lmish “Oltin yorug” asli qadimgi hind-sanskritcha “Suvarnaprabhasa”. Budda diniga oid bo‘lgan sutraning turkiy tarjimasi bo‘lib, qisqacha “Oltin yorug” nomi bilan yuritiladi. U dastlab tabg‘ach tiliga, xitoy tilidan X asrda beshbaliqlik Singku Seli Tutung tomonidan qadimgi turkiy tilga o‘girilgan. Bizgacha uning 10 ga yaqin nusxasi yetib kelgan. 1910-

yili S.E.Malov Suchjou shahriga yaqin Vungshagudan topgan va 1913-1917-yillarda nashr ettirgan [9;220]. Asarda buddaviylikning asosiy g‘oyalari, insonni ezgulikka, saxovatga, mehr-shafqatga, rostgo‘ylikka, sabr-toqat va donolikka da’vat etuvchi falsafiy qarashlar yoritilgan.

“Sekiz yukmak”-Turfondan topilgan bu yodgorlik matnini nemis olimlari V.Bang, A.fon Gaben va turk olimi G.R.Rahmatiylar 1934-yilda Berlinda nashr ettirganlar. Bulardan tashqari, uyg‘ur yozuvida yozilgan bir qancha obidalar, turli afsonalardan olingan parchalarning matnlari bitilgan yodgorlik bor. Shuningdek, VIII-X asrlarga va keyingi davrlarga oid juda ko‘p uyg‘urcha yuridik-huquqiy hujjatlar ham mavjud. Bu yodgorliklarda ham adabiy til, ham xalq so‘zlashuv tili xususiyatlari aks etgan [10;220].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bundan tashqari uyg‘ur matnlariga oid yana bir qancha asarlarimiz “Qadimgi turkiy lug‘at” uchun asosli va muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarlarning har biri ya’ni yaratilishi, mazmuni, muallifi haqida ma’lumotlar mavjud.

Moniy harfli matnlarga ega bo‘lgan asarlardan biri bu “Xuastuanift”dir. “Xuastuanift” (moniylarning tavbanomasi) moniylik dininig falsafiy asari, o‘n besh bo‘limdan iborat. Ilk o‘rta asrlarda asarning eroniy, sug‘diy, turkiy, xitoycha versiyalari keng tarqalgan. Bu yodgorlikning turkiy versiyalari uyg‘ur, moniy yozuvida bo‘lib, ular Sank-Peterburg, Berlin va Londonda saqlanadi [11;220].

Olimlarning fikricha, “Xuastuanift” dastlab qadimgi eroniy tillarning birida yaratilgan. Keyinchalik, moniy ta’limotini kengroq yoyish maqsadida, boshqa tillarga ham o‘girilgan. Uning turkiy versiyasi, taxminan, VIII asrda yaratilgan. Asar tilining ko‘k turk yodgorliklari tiliga juda yaqinligi, uyg‘ur yozuvli nusxaning xat uslubi, shuningdek, asarning moniy yozuvida ham tarqalganligi na shundan guvohlik bermoqda [12;63].

So‘nggi guruhga mansub bo‘lgan Brahmi yozuvi matnlariga Gabain tomonidan nashr etilgan oz sonli diniy manbalar kiradi. Oz bo‘lsada, ushbu manbalar “Qadimgi turkiy lug‘at” ni yaratishda asos bo‘lgan manbalar sirasiga kiritilgan.

“Qadimgi turkiy lug‘at” yaratilishiga asos bo‘lgan yozuv tizimlari runiy, uyg‘ur, moniy, brahmi va arab yozuvlari turkiy xalqlarning tarixiy-madaniy taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Ushbu yozuvlar nafaqat til taraqqiyotining bosqichma-bosqich shakllanish jarayonini yoritadi, balki turkiy xalqlarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi va ijtimoiy hayoti haqida muhim ma’lumotlarni ham o‘zida mujassam etadi.

Runiy yozuvlar qadimgi turkiy xalqlarning mustaqil yozma madaniyati shakllanganligining ilk dalilidir. Ular orqali yaratilgan O‘rxun-Enasoy bitiklari tilshunoslik, tarix va adabiyot uchun beqiyos manba bo‘lib xizmat qiladi. Keyinchalik uyg‘ur yozuvik runiy an’analarini davom ettirib, buddaviylik, moniylik va boshqa diniy-falsafiy oqimlarining yoyilishida asosiy vositaga aylandi. Brahmi yozuvi orqali esa turkiy xalqlar Sharq svilizatsiyasi, xususan, hind madaniy muhitining yozuv an’analari bilan aloqada bo‘lgan. Arab

yozuvining qabul qilinishi esa islom dini tarqalashining tabiiy natijasi bo‘lib, u turkiy tillarning yozma shaklini yangi bosqichga olib chiqqan va ilmiy-ijodiy asarlar yaratilishiga keng yo‘l ochgan.

Shu tariqa, ushbu yozuv tizimlari “Qadimgi turkiy lug‘at” ning shakllanishi va rivojlanishida zamin bo‘lib xizmat qilgan. Ular turkiy xalqlarning yozma merosida izchillikni ta’minlab, lug‘at tarkibida tarixiy qatlamlarning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradi. Natijada, “Qadimgi turkiy lug‘at” nafaqat leksikografik manba, balki turkiy yozuv madaniyati taraqqiyotining yuksak bosqichini namoyon etuvchi ilmiy yodgorlik sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Древнетюркский словар В. М. Наделяев , Д. М. Насилов , Э. Р. Тенишев
А. М. Шербак. – Ленинград, 1969. 3-bet.

2. Yusuf Gunduz древнетюрский словар-Drevnetyurkskiy slovar- Eski turkcenin sozlugu. DOI: 10.5281/zenodo. 12594595. 89-bet.

3. Abdushukurov B. B. Qadimgi turkiy til. “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi. – Toshkent, 2019. 124-bet.

4. Abdushukurov B. B. Qadimgi turkiy til. “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi. – Toshkent, 2019. 219-bet.

5. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.– Toshkent.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2005. 835-bet.

6. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2005. 146-bet.

7. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2005. 407-bet.

8. Abdushukurov B. B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent.: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2019. 239-240-bet.

9. Abdushukurov B. B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent.: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2019. 221-bet.

10. Abdushukurov B. B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent.: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2019. 221-bet.

11. Abdushukurov B. B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent.: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2019. 220-bet.

12. N.Rahmonov. Ruhiyatdagi nur murodi // Sharq Yulduzi, 2001. 63-bet.

FRAZEMA VA ULARNING SEMANTIK MA’NOLARI
(badiiy asarlar talqinida)

Almamatova Ruxshona Murod qizi,
JDPU talabasi
Ilmiy rahbar: JDPU o‘qituvchisi G.T. Imamova

Til xalqning tafakkur oynasidir. Har bir xalq tili orqali o‘z dunyoqarashi, qadriyati va hayot falsafasini ifodalaydi. Shunday ifoda vositalaridan biri bu frazemalardir, ya’ni barqaror so‘z birikmalari hisoblanadi. Ular tildagi ma’no boyligi va milliyligini o‘zida aks ettiradi.

“Frazeologizm (yunoncha phrasis- ifoda, jumla logos-so‘z) tlsh. Tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutqqa tayyor holda kirib keladigan lug‘aviy birlik (masalan, tomdan tarasha tushganday - to‘satdan, qo‘qisdan). Asarda chuqur ma’noli, hikmatona jumlalar - frazeologizmlar ko‘p uchraydi” [1. 364]. Masalan, O‘lmas Umarbekovning “Fotima va Zuhra” romanida shunday misralar yozilgan: “Bir kuni u tegishli joylarga yozaman, dedi. Do‘ppi tor kelib qolguday bo‘lsa, suvdan qup-quruq chiqadi... Aliyev uning farosatiga tan berdi” [2.15].

Bir gapda ikki ibora nihoyatda o‘rinli qo‘llanilgan. Do‘ppisi tor kelib qolguday bo‘lsa, ya’ni do‘ppisi tor kelmoq - frazeologik ibora hisoblanib ikki ma’noda ishlatiladi. 1) o‘z ma’nosida: so‘zma-so‘z olganda bosh kiyimning tor kelishi, boshiga sig‘may qolmoq degani. 2) ko‘chma (semantik) ma’nosi: kimdadir noqulay holat tug‘ilishi yoki qilmishi fosh bo‘lishidan, jazodan qo‘rqish ma’nosida ishlatiladi. Ya’ni to‘satdan qiyin ahvolga tushmoq ma’nosida qo‘llanilgan. Ikkinchi ibora esa *“suvdan quruq chiqmoq”* iborasi batamom ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan. Sababi suvga tushib ham undan quruq chiqishning iloji yoq. Semantik ma’nosi jazodan qutulib ketmoq, ya’ni aybini yashirib, o‘zini begunoh ko‘rsatmoq degan ma’noni anglatadi. Bu iboraning stilistik vazifasi esa personajning ayyorligini yoki omadini ifodalashda qo‘llaniladi.

Frazemalar xalq og‘zaki ijodi mahsuli hisoblanadi. Uning nutqdagi vazifasi so‘zning ta’sir doirasini kengaytirish sanaladi. Masalan, G‘ofur G‘ulomning “Shum bola” qissasidan parchani tahlil qilsak. “Hash-pash deguncha o‘laksa qilib, machitning sahniga olib chiqadilar, bu yerda ham *ko‘ziga qon to‘lgan* olomon sho‘rlikni ura ketadi, o‘ldirib xotirjam bo‘lgandan keyin : “O‘zi nima gap, nima qildi, kim boshlab urdi, kim ushladi, kimning hamyoni?”, degan gaplar chiqa boshlaydi”[3. 110]. *Ko‘zi qonga to‘lmoq* iborasini oddiy tilda jahli chiqqan, badjahl so‘zlarini ham qo‘llashimiz mumkin edi, ammo bu frazeologik iborani ushbu nutqda qo‘llash kishilarning tushunishini imkon qadar osonlashtiradi va gapdagi ta’sirchanlikni oshiradi.

Frazemalar, barqaror brikmalarni o‘rganuvchi fan *frazeologiya* deb ataladi. Frazeologiya (gr. Phrasis-“ifoda”, logos-“ta’limot”) atamasi ikki ma’noda ishlatiladi: 1) til frazeologik tarkibini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tilning frazeologizmi majmui. Frazeologiyaning o‘rganish predmeti frazeologizmning o‘rganish tabiati va substansional xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatidir.[4. 151]

Frazeologiya leksikologiyaning bir qismi bo‘lib, frazeologizmlar ko‘rinishi jihatidan qo‘shma leksama, so‘z birikmasi va gapga o‘xshaydi. Ular, asosan, tilimizga qo‘shma leksema ko‘rinishida tayyor turg‘un birikma tarzida kirib keladi. Frazeologizmlar lug‘aviy birlik bo‘lganligi uchun u gap tarkibida bir mustaqil so‘z kabi harakat qiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning “Asror bobo” hikoyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, iboralar nutqimizning ajralmas bo‘lagi ekanligiga yana bir bor guvoh bo‘lamiz:

1. –Ha, ishqilib, boshi toshdan bo‘lsin.[5. 6] Boshi toshdan bo‘lsin frazemasi omon bo‘lsin, talofat yetmasin ma’nolarida qo‘llanilgan. Tuzilishi: ot+fe’l
2. –Birortasini ko‘rsatsangiz o‘lasizmi? Hammaning yuragini qon qildingiz-ku? - dedi.[5. 6-bet] “Yuragini qon qilmoq - frazeologik ibora bo‘lib, uning semantik ma’nosi iztirobga solmoq, alamli holatga duchor etmoq, juda hafa qilmoq ma’nosini anglatadi. Tuzilishi: ot+fe’l
3. –Qo‘y endi, ozor berma, ko‘ngli yarimta degan edi, … [5.6] “Ko‘ngli yarimta” iborasi hafa, ranjigan leksemalarini ifodalaydi. Tuzilishi: ot+son
4. Bularning yuragiga hamma narsa sig‘adi.[5. 7] “Yuragiga hamma naarsa sig‘moq” iborasi insonning bag‘rikengligi, mehribonligi, sabr-toqati kengligini bildiradi. Tuzilishi: ot+olmosh+fe’l
5. Sening ko‘kragingda o‘t bor, soch shu o‘tni, ho‘l-u quruq baravar yonsin.[5. 7-bet] “ Ho‘l-u quruq baravar yonsin” frazemasi aybdormi, aybsizmi ajratma degan ma’noda kinoya tarzda qo‘llanilgan. Tuzilishi: sifat+hol+fe’l
6. “Buni kampir ham payqadimikin?” - deb sekin razm solsa, payqabdi; payqabdi-yu, aftidan, ko‘ngliga g‘ulgula tushibdi. [5.8] “Ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushmoq – ko‘ngli hijil bo‘lmoq” iboralari shubhalanish, notinchlikni anglatadi. Tuzilishi: ot+ot+fe’l

Bu asarda yana shunga o‘xshash bir qancha frazemalarni uchratishimiz mumkin: quloq solmaslik - aytganini bajarmaslik, o‘pkasi to‘lmoq, sabr kosasi to‘lmoq -boshqa chiday olmaslik, qattiq hafa bo‘lish ma’nolarida, boshiga ko‘tarmoq –to‘polon qilmoq, g‘amini yemoq - qayg‘urmoq, yuragingni keng qil - ortiqcha o‘ylamaslik, ko‘ngli bo‘lmaslik esa xohlamaslik ma’nolarini beruvchi frazemalar asar ta’sirchanligini oshirishga ko‘maklashgan.

Xalq og‘zaki ijodi frazemalardan unumli foydalanishgan. O‘zbek folkloridan yuksak namunasi hisoblangan Alpomish dostonidan parcha ko‘radigan bo‘lsak, frazeologik iboralardan mahorat bilan foydalanilgan:

Dardli qul dardimni kimga yoraman,
Ayriliq o ‘tida bag ‘ri poraman
Muna elda sig ‘indi bo ‘p turaman,

O‘z akamga qanday zakot beraman.[9. 11-sahifa]

Dardimni kimga yoraman- hozirgi kunda *dardini to‘kib solmoq* frazeoligik iborasiga to‘g‘ri keladi, leksik ma’nosi dardimni kimga aytaman iborasiga tog‘ri keladi. Ayriliq o‘tida bag‘ri poraman - “*Bag‘ri pora*” frazeologik iborasi o‘zbek tilida juda chuqur, achchiq iztiroblarni, qalbning ezilganini, yurakning bo‘lak-bo‘lak bo‘lib ketgandek azobni anglatadi.

Men seni zo‘rlikman olorim bordir,
Do‘lanib qo‘yningga kirarim bordir,
Novvosday bo‘p seni surarim bordir,
Bilgin, Ko‘kamanning ko‘ngli qabardi.
Agar bilsang, alplar xabar topadi,
Ot o‘ynatib, bari yig‘ilib keladi,
Qora kunni o‘zbeklarga soladi,
O‘zbekning qo‘lidan nima keladi?[9. 60-sahifa]

“Do‘lanib qo‘yniga kirmoq” frazeologik iborasi o‘zbek tilida biror kishining mehri, g‘amxo‘rligi, himoyasi yoki panohiga to‘liq kirib olish; o‘zini unga yaqin, ishonchli qilib ko‘rsatish ma’nolarini bildiradi. Semantik ma’nosi - o‘zini suyukli, yaqin qilib olish. “Ko‘ngli qabarmoq" iborasi - hafsalasi pir bo‘lmoq, sabri tugay boshlamoq, ichidan bezori bo‘lmoq. Biror ish cho‘zilib ketganda yoki kimningdir xatti-harakati yoqmay qolsa, odamning ichi bezillab, sabri tugay boshlash holati. “Qora kunni o‘zbeklarga solidi” satrida “qora kunni boshiqa solmoq” frazeologik iborasiga yaqin ibora mavjud. Bu frazemaning semantik ma’nolari: 1. Katta kulfat yetkazmoq. Biror odamning hayotida jiddiy muammo, fojia yoki qiyinchilik keltirib chiqarish. 2. Qattiq azob, tashvishga qo‘ymoq. Odamni ruhiy yoki moddiy jihatdan ezadigan holatga duchor etish. 3. Omadsizlik, musibatga duchor qilmoq. Kutilmagan yomon voqeani boshiga solish.

Frazemalar leksikologiyaning bir bo‘lagi ekan, ular ham o‘zaro omonimlikni, sinonimlikni, hatto antonimlikni hosil qilishi mumkin.

Frazeologizmlarda semantik munosabat.

Leksikada bo‘lgani kabi frazeologiyada ham lisoniy-semantik munosabat amal qiladi**.**

Frazeologik sinonimiya. Ma’nodoshlik hodisasi frazeologizmlarda ham mavjud. Frazeologizmning ma’nodoshlik paradigmasida birliklar ifoda semalari darajasiga ko‘ra farqlanadi: yaxshi ko‘rmoq – ko‘ngil bermoq, yer bilan yakson qilmoq-kulini ko‘kka sovurmoq, ipidan ignasigacha - miridan sirigacha, qilidan quyrug‘igacha va h. Ma’nodosh frazeologizmlarning atash semasi bir xil bo‘ladi. Masalan, ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrug‘igacha kabi iboralarida “butun tafsiloti bilan” atash semasi umumiy. Ammo ular uslubiy xoslanganlik va bo‘yoqdorlik darajasini ifodalovchi semalari bilan farqlanadi.

Sinonim frazeologizmlarni frazeologik variantdan farqlash lozim. Sinonim iboralarda ayni bir so‘z bir xil bo‘lishi mumkin. Lekin qolgan so‘zlar sinonim leksemaning ko‘rinishlari bo‘lmasligi lozim. Jonini hovuchlab va yuragini

hovuchlab iboralarida bir xil so‘z mavjud. Ammo jon va yurak so‘zlari sinonim leksema ko‘rinishi emas. Ko‘ngliga tugmoq va yuragiga tugmoq iboralari frazeologik variant.

Frazeologik antonimiya. Zid ma’noli antonimlar bir-biriga teskari tushunchani ifodalaydi. Misollar: ko‘ngli joyiga tushdi-yuragiga g‘ulg‘ula tushdi, qoni qaynadi- og‘zi qulog‘iga yetdi.

Frazeologik omonimiya. Frazeologizmlar omonimik munosabatda ham bo‘lishi mumkin. Misollar: so‘z bermoq I («va’da bermoq»), so‘z bermoq II («gapirishga ruxsat bermoq»), boshga ko‘tarmoq I («ardoqlamoq»), boshga ko‘tarmoq II (<<to‘polon qilmoq»), qo‘l ko‘tarmoq I («ovoz bermoq»), qo‘l ko‘tarmoq II («urmoq»).

Frazemalar nutqimizdagi milliy ifoda boyligining yuksak namunasi bo‘lib, xalqning tarixiy, madaniy va ruhiy dunyosini aks ettiradi. Ularning semantik ma’nosi faqat so‘zlar yig‘indisi emas, balki obrazli fikrlashning ifodasi sifatida shakllanadi. Frazemalarni o‘rganish tildagi ma’no qatlamlarini, xalq tafakkurining rivojlanish bosqichlarini anglashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. E.Begmatov. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. To‘rtinchi jild.–Toshkent.: O‘zbekiston nashiryoti, 2020.
2. O‘lmas Umarbekov. Fotima va Zuhra romani. –Toshkent.: Turon Zamin nashiryoti, 2023.
3. G‘ofur G‘ulom. “Shum bola” qissasi. –Toshkent.: Yangi nashr, 2019.
4. R.R.Sayfullayeva. Hozirgi O‘zbek tili. –Toshkent.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
5. Abdulla Qahhor. Asror bobo hikoyalar to‘plami. –Toshkent.: Oltin Qalam nashriyoti, 2023.
6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili frazeologiyasi. – Toshkent.: Fan, 1978
7. Abdullayev A. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent.: Universitet, 2020
8. Alpomish dostoni. – Toshkent.: Yangi nashr -2019

LEKSIKOLOGIYA BO‘LIMINING MAZMUN PLANI

Turg‘unboyeva Sarvinoz Uyg‘un qizi,
JDPU talabasi
Ilmiy rahbar: JDPU dotsenti D.Fayzullayeva

Tilshunoslikning muhim va keng qamrovli bo‘limlaridan biri - leksikologiya hisoblanadi. U tildagi barcha so‘zlarning tuzilishi ma’nosi, kelib chiqishi va qo‘llanilish xususiyatlarini o‘rganadi. Leksikologiya nafaqat so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini, balki ularning ijtimoiy, tarixiy va madaniy ahamiyatini ham o‘rganadi. Leksikologiya orqali tilning rivojlanishi darajasi,

xalq tafakkuri va madaniyati o‘z aksini topadi. Shu jihatdan leksikologiya tilshunoslikning eng muhim va amaliy ahamiyatga ega sohalaridan biri hisoblanadi. Leksikologiya (yunoncha lexikos - lug‘atga oid va logos - ta’limot) tilshunoslikning lug‘aviy birliklari tarkibini tekshiradigan bo‘limidir. Leksikologiya har bir so‘zni yolg‘iz holda emas, balki boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya yoki semantika, etimologiya, stilistika hamda so‘z yasalishi haqidagi ta’limot sohalari bilan chambarchas bog‘liq. Leksikologiyada so‘zlarning ma’no jihatdan o‘zaro bog‘langan, ya’ni monosemiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, so‘z ma’nolarining erkin yoki bog‘liq holda bo‘lishi kabi masalalari ham o‘rganiladi.

Leksikologiya - tilshunoslikning yirik va asosiy sohalaridan biri. Bu atama grek tilidan olingan: "lexikos" so‘z, "logos" ta’limot, ya’ni "so‘z haqida so‘z", " so‘z haqida ta’limot" ma’nolarini bildiradi. Shuning uchun leksikologiyada tilning so‘z boyligi o‘rganiladi. Uni lug‘at tarkibi yoki leksika ham deyiladi. Leksika atamasi ikki ma’noda ishlatiladi:

1.Tildagi barcha so‘zlar yig‘ndisi, majmuasi, ya’ni tilning lug‘at tarkibi;

2. Tilshunoslikning ana shu lisoniy boylikni o‘rganuvchi sohasi, ya’ni fan tarmog‘i (bu o‘rinda leksika - leksikologiya atamasining dublet muqobili).

Tilning boyligi uning lug‘at tarkibidagi leksikasidagi so‘zlar miqdori bilan belgilanadi. Unda so‘zlar miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, til ham shuncha boy bo‘ladi. Lug‘at tarkibi leksika davrlar osha o‘zgarib turadi. Bu o‘zgarish undagi so‘zlar miqdorining o‘zgarishi bilan belgilanadi. Masalan, 1981 - yili Moskvada ikki jildda nashr etilgan "O‘zbek tilining izohli lug‘ati"da o‘zbek adabiy tilida mavjud 60 ming so‘z sharhlangan bo‘lsa, 2006 - 2008 - yillarda Toshkentda besh jildda nashr etilgan "Izohli lug‘at" da 80 mingdan ortiq so‘z va so‘zga tenglashuvchi lisoniy birliklar sharhlangan. Demak, hozirgi o‘zbek leksikologiyasi 80 mingdan ortiq so‘zni o‘z ichiga olgan lug‘at tarkibi leksikasini o‘rganadi. Leksikologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida bir qancha ichki bo‘lim va tarmoqlardan tarkib topadi. Semasiologiya, onomastika, etimologiya, uning asosiy bo‘limlaridir. Shuningdek, leksikologiyaning hozirgi tasviriy leksikologiya, tarixiy leksikologiya, dialektal leksikologiya, qiyosiy leksikologiya, sistemastruktur leksikologiya kabi turlari mavjud. Bu bo‘lim va turlarning har biri o‘zining alohida - alohida o‘rganish obyektga ega. Chunonchi, semasiologiyada lug‘aviy birliklarning mazmun jabhasi bilan aloqador masalalari o‘rganiladi. Shakl va ma’no nomutanosibligi bilan bog‘liq ma’nodoshlik, ohandoshlik, shakldoshlik leksikologiyaning ana shu bo‘limi mundarijasiga kiradi. Leksikologiyaning turlari ham biri boshqasida o‘z mundarijasi va uning tavsifi bilan farq qiladi. Chunonchi, tasviriy hozirgi leksikologiyada tilning muayyan davrga xos lug‘aviy birliklari tizimi o‘rganiladi. Leksikologiyaning bu turi sinxron leksikologiya deb ham ataladi. Tarixiy leksikologiya - tasviriy leksikologiyaning aksi. Til tarixiy taraqqiyotining o‘tmish bilan bog‘liq lug‘at tarkibi leksikologiyaning shu turida o‘rganiladi. Uni diaxron

leksikologiya deb ham ataladi. Qiyosiy leksikologiya o‘zaro qardosh yoxud qardosh bo‘lmagan tillarning lug‘at tarkibini, uning muayyan bir qatlamini qiyosan o‘rganuvchan sohadir. Qiyosiy leksikologiyaning ham tarixiy va tasviriy jabhalari mavjud. Sistema - struktur leksikologiya lug‘aviy hodisalarning bevosita kuzatishda bo‘lmagan mavhum va sof ilmiy bosqichga xos tomonlarini o‘rganadi. So‘zlar majmuasidan iborat tizim, sistema, biri boshqasi bilan organik bog‘liqlikdagi uch ichki "qatlam" dan tarkib topadi. Bu "qatlam"lar mikro qurilma, medioqurilma va makroqurilma atamalari bilan nomlanadi.

Leksikologiya tilshunoslikning yirik sohalaridan bo‘lib, so‘z va uning man’nolari haqidagi ta’limotdir. O‘zbek tilshunosligida juda uzoq davrlardan buyon so‘z va uning ma’nolari haqida fikr yuritib kelingan bo‘lsa-da, lekin o‘zbek tili tizimida leksik sathining o‘rni va leksik birliklarini o‘rganuvchi alohida bo‘lim, ya’ni leksikologiya o‘zbek tilshunosligining tarkibiy qismi sifatida XX asrning o‘rtalaridan boshlab shakllandi. O‘zbek tili leksikologiyasining shakllanishida 50 - yillarda nashr etilgan F.Kamolning "O‘zbek tili leksikasi", Ya.D.Pinxasovning "Hozirgi o‘zbek tili leksikasi" risolalari hamda "Hozirgi zamon o‘zbek tili" deb nomlangan fundamental asar katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Leksikologiya tilshunoslikning muhim va asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib u tilning eng faol qatlami lug‘at boyligini o‘rganadi. Leksikologiya o‘rganish orqali biz tilimizni yanada boyitish, to‘g‘ri va ma’noli so‘zlashni o‘rganamiz. Bugungi kunda yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi va chet tillar ta’siri ostida til doimiy ravishda o‘zgarib bormoqda. Shuning uchun leksikologiyani chuqur o‘rganish nafaqat tilshunoslar, balki har bir til egasi uchun muhim bo‘lib, til madaniyatini yuksaltirish va uni asrashda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Nozima Qozoqova - Leksikologiyani interfaol ta’lim texnologiyalari asosida o’qitish. Namangan 2023.
2.Ermatov Ixtiyor, Berdialiyev Abduvali - Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent 2021.
3.Irisqulov.M.T. -Tilshunoslikka kirish. Toshkent 2009.

TIL TIZIMDAGI SHAKL VA MA’NO UYG‘UNLIGI

Tursunpo‘latova Lobar Erkin qizi,
JDPU talabasi
Ilmiy rahbar: JDPU dotsenti D.Fayzullayeva

Tilshunoslik sohasi eng qadimiy va muhim bo‘limlaridan biridir. Bu sohaning nutqdagi ko‘rinishi morf va tildagi ko‘rinishi morfema hisoblanadi. O‘zbek tilidagi ishchi so‘zi ikkita morfdan tashkil topgan, chunki bu so‘zning tarkibida eng kichik ma’no anglatuvchi birlik: ish va chi bor. Ish va chi

elementlari boshqa kichik ma’noli bo‘laklarga bo‘linmaydi. Ish so‘zini I, sh singari bo‘laklarga bo‘lish mumkin, lekin ular hech qanday ma’no anglatmaydi. Ishchilarimizdan degan so‘zda esa oltita eng kichik ma’no anglatuvchi bo‘laklar bor: ish-chi-lar-im-iz-dan. Ish so‘zning o‘zagi, chi- kasbni ko‘rsatuvchi, lar- ko‘plik ma’nosini anglatuvchi, im- shaxs ma’nosini, iz- ko‘plik ma’nosini va dan- chiqish ma’nosini anglatuvchi elementlardir. Shunga o‘xshash misollarni boshqa tilarda ham keltirish mumkin. Masalan, ingliz tilidan: fishers so‘zi uchta ma’no anglatuvchi birlik, ya’ni fish –er va –s dan tashkil topib, o‘zbek tiliga “baliqchilar” deb tarjima qilinadi. Shunday qilib, morfologiyaning birligi fonetika, fonologiya birligidan tubdan farq qiladi. Morfologiya birligi ma’nodor, fonetikaniki esa ma’no anglatmaydigan birliklardandir. Morf va morfemalar ikki tomonlama birliklar deb ham yuritiladi, fon va fonemalar bir tomonlama birliklar deb yuritiladi. Chunki morf va morfemalarning ifodalovchi va ifodalanuvchi tomonlari bor. Ifodalovchi deganda morf va morfemalarning og‘zaki nutqda eshtiladigan tovush va tovushlar birikmasini, yozma nutqda esa harflarni yoki harflar birikmasini tushunamiz. Ifodalanuvchi deganda eshtilgan tovush yoki ko‘rilayotgan harf, harf birikmalarining anglatadigan ma’nosi tushuniladi. Til tizimidagi morfologik jarayonlarni chuqur tahlil qilish orqali tildagi Grammatik tizim, so‘z yasashning usullari hamda semantik rivojlanish tizimlarini aniqlash mumkin. “Morfologiya” atamasi qadimgi yunon tilidagi mophe – “shakl” va logos – “ta’limot” so‘zlaridan kelib chiqqan. Morfologiyaning asosiy vazifasi – so‘zlarning tuzlishi va ularning grammatik tuzilishini o‘rganishdir. Morfemikada quyidagi tushunchalar muhim o‘rin tutadi: 1. Morfema – eng kichik ma’noli birlik. 2. Leksik morfema – so‘zning asosiy ma’nosini bildiradi. 3. Affiksal morfemalar – qo‘shimchalar orqali so‘zga yangi grammatik yoki leksik ma’no yuklaydi. O‘zbek tilida so‘z yasalishi asosan affiksatsiya yo‘li bilan amalga oshadi. Masalan, kitob –kitobxon-kitobxonlik shaklida ketma-ket affikslar qo‘shilishi orqali yangi ma’no hosil bo‘ladi. Grammatik shakllanish esa so‘zning turlanishi ya’ni, otlarda – kelishik, son; fe’llarda – zamon, shaxs, mayl orqali ifodalanadi. Bu jarayonlar tilda paradigmatic munosabatlarni shakllantiradi va morfologiyaning asosiy tizimini tashkil etadi. Har bir so‘z turkumiga xos ichki tizimlarni shu turkumga xos morfologik kategoriyalar tashkil etadi. Morfologik kategoriyalar tashkil etadi. Tilshunoslikda, morfologiya so‘zlar, ular qanday tuzilishi va shu tildagi boshqa so‘zlar bilan bog‘liqligi haqidagi fan bo‘lib, u so‘zlarning tuzilishi va qismlarni misol uchun o‘zak, so‘z o‘zagi, old qo‘shimcha va so‘z oxiridagi qo‘shimchalarni o‘rganadi. Tuzilishiga ko‘ra qo‘shimchalar ikkiga bo‘linadi: sodda qo‘shimchalar, murakkab qo‘shimchalar. Sodda qo‘shimchalar bir morfemadan iborat bo‘ladi va boshqa ma’noli bo‘linmaydi. Masalan, -chi, -i, -ch, -gi, -gir, -lik, -liq, -lar, -la. Murakkab qo‘shimchalar ikki yoki undan ortiq qo‘shimchalarning birikib yaxlit bir affiks holiga kelishidan hosil bo‘ladi. Masalan, -qa, -cha, -gacha, -la. Shuningdek, morfologiya so‘z turkumlari , intonatsiya, urg‘u va kontekstning so‘zlarning talaffuzi va ma’nosini o‘zgartirish yo‘llarini ham o‘rganadi. Morfologiya

so‘zlarning qo‘llanishiga ko‘ra tillarni tasniflaydigan morfologik sinflarga ajratish tizimidan shunigdek, so‘zlar va ularning til lug‘atini qanday tashkil etishini o‘rganuvchi leksikologiyadan farq qiladi. Til tizimining har bir darajasi – fonetika, leksika, sintaksis va morfologiya o‘z funsional birliklari orqali umumiy ma’no yaratish jarayonida ishtirok etadi. Shu jihatdan morfologiya tilda shakl va ma’noning eng yaqqol ko‘rinishini namoyon etadi. Bugungi lingvistik tadqiqmotlarda morfologiyani faqat shakliy tizim sifatida emas, balki kognitiv va semantik aspektlarda o‘rganish usullari kuchaymoqda. Bu yondashuv shakl va ma’noning inson tafakkuri bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Sun’iy intellekt va avtomatik tarjima tizimlarida ham morfologik tahlil shakl va ma’no uyg‘unligini aniqlashda asosiy vosita sifatida qo‘llanilmoqda.

Tilning shakl va ma’no uyg‘unligi morfologik tuzilmaning asosiy mezonidir. O‘zbek tilida bu affiksatsiya tizimi orqali ko‘rsatib beradi. Morfologiyaning tahlili shuni ko‘rsatadiki, til birliklarining shakl va ma’nodagi izchilligi grammatik me’yor, semantic aniqlik va kommunikativ samaradorlikni ta’minlaydi. Shunday ekan, morfologiya faqat so‘z shaklini o‘rganish bilan cheklanmay, tilning ichki ma’noviy tizimini ham ochib beruvchi fan sohasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2009.
2. Bo‘ronov J.B. Ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. –Toshkent, 1973.
3. Xo‘jayev A. O‘zbek tili morfologiyasi. – Toshkent, 2020.
4. M. Hakimov . Zamonaviy o‘zbek tilining grammatik qurilishi. – Toshkent, 2019.

IV. ADABIY MANBANI MATNIY TADQIQ ETISHNING USTUVOR VAZIFALARI

Shu’ba raisi: f.f.f.d. (PhD), dotsent Ne’matova Hulkar Abdulbakiyevna
Kotibi: f.f.f.d. (PhD), dotsent v/b. Tulishova Gulzina Ravshanovna

ШАЙХ ОЗАРИЙ ШАХСИЯТИ ВА ИЖОДИЙ МЕРОСИ

Жўраев Жалолиддин Аминжонвич,
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети Журналистика ва ўзбек филологияси факультети ўзбек адабиётшунослиги кафедраси доценти в.б., филология фанлари доктори

Али Ҳамза бин Али Малик бин Ҳасан Тусий (1382-1462) Темурийлар даврининг кўзга кўринган алломаларидан. Илм аҳлига кўпроқ Шайх Озарий номи билан машҳур. У ҳақида кўплаб муаллифлар томонидан маълумотлар ёзиб қолдирилган. Хусусан, Давлатшоҳ Самарқандий: “Маърифатда ягона, муҳаққиқ ва олий ҳиммат киши бўлиб, ҳамиша художўйлар билан суҳбатда, дунё ишларига кам илтифот эди. Қирқ йил фақрлик ва қаноат жойномози устида ўлтириб кун кечирди. Шарофатли хотирини нафс орзуи билан ранжитмади. Фазилатида зоҳир ва ботин илмлар ораста, тариқат ва мужоҳидада содиқ дам ва росих қадам эди. Исми Ҳамза ибн Али Малик ат-Тусий, тахаллуси Байҳақийдир.

Шайх (Озарий)нинг отаси Байҳақ сардорлари жумласидан (157 бет) бўлиб, насаби собиҳи давлат Муиниддин Аҳмад ибн Замчи ал-Ҳошимий ал-Марвозийга уланади... (Исми) Хожа Али Малик сарбадорлар замонида Исфаройнда соҳиб ихтиёр эди.

Шайх (Озарий) йигитлик чоғида шеър ёзиш ҳамда шоирлик билан машғул бўлди ва зўр шуҳрат топди. Хожа Абдулқодир Удий баҳслашиш ниятида шайхни хожа Саомон (Соважий)нинг бир неча қасидаси билан имтиҳон этди. Лекин енгилиб қолиб, унга (шайхнинг) улуғлар назаридаги эътиборини баҳона қилган.

Мусулмонлар ҳомийси (Шоҳрух султон) унинг таъзиму тарбиятида бўлиб, унга малик уш-шуаролик лаврзимни ваъда этган. Аммо шу аҳвол асносида таҳқиқ олами насими унинг муаттар хотири боғига қараб эсди, жаҳонни тобловчи офтоб унинг ғам-ғуссали кулбаси туйнугидан фақирлик шеъласини сочди... фақиру фано кўчасига кирди, турли такаллуфлар ва фойдаю зиённи баҳосизлик шамолига совурди. Шайхлар шайхи, собиҳ маърифатлар қиблагоҳи шайх Муҳиуддин Тусий Ғаззолий суҳбатига мушарраф бўлди. Ундан тариқатни, ҳадис китобини ўрганди ва у билан ҳажга жўнади. (Шайх) Муҳиуддин Тангри ҳимоясида эрмиш Ҳалаб

шаҳрида оламдан ўтди. Шундан кейин шайх Озарий саййид Неъматуллю ҳузурига борди ва бир мунча вақт хизматида сулук касб қилгач, онҳазратдан табаррук хирқа олиб, (жаҳон) саёҳатиға машғул ўлди. Ўттиз авлиё билан учрашиб, асар суҳбатини топди, икки марта пиёда ҳажга бориб келди. Бир йил Маккада турғун бўлди. Ўша ерда (Каъбани) зиёрат этиш тартиблари ва Каъба тарихидан баҳс юритувчи “Саъй ас-сафо” (“Ёруғликка интилиш”) китобини ёзди. (Шундан кейин) Ҳиндистонга борди ва бир қанча вақт ўша даёрда истиқомат қилди.

Шайх илми ғайбдан билган ҳақиқат ва маърифтларнинг (159 бет) бундан ортиғини ушба тазкира сиғдиролмайди. Унинг шарафли девони (барча) иқлимларда машҳурдирки, (Шайх Озарийнинг) девонидан ўзга назм ва насрда ёзган бир қанча рисолалари, жумладан, ҳикматлар, масаллар ва мақоллар, муўкул шеърлар шарҳи тўпламидан иборат “Жавоҳир ул-асрор”, “Саъйи сафо”, “Туғройи Ҳумоюн” ҳам “Ажойиб ал-ғаройиб” асарлари ҳам бордир.

Шайх (Озарий)нинг вафоти 1462 (866 ҳижрий) йил Исфаройн қасабасида содир бўлди. У саксон икки йил умр кўрди. Шайхнинг мунаввар қабри (ўша) Исфаройн қасабасидадир. У тирик чоғидаёқ тамом молу мулкини ўзи бино этмиш хонақоҳга, солиҳлар, зоҳидлар, ғариблар ва толиби илмлар маоши учун вақф қилган эди. Ўзи ҳам ўша хонақоҳда дафн этилгандир. Шу кунларда шайхнинг покиза қабри хонақосида дарс бериш, сабоқ олиш, зиёратчилар илтижосининг рўшнолиги равнақ топибдур. Султону ҳокимлар, шайхнинг пуркушойиш руҳи ҳурматига ўша хонақоҳ ва мозорда доимий истиқомат этувчилар учун ҳамиша эҳсон бериб туридилар, бу (мозорнинг даромади) барча солиқлардан озод қилинган, вассалом”,–деб ёзади[1].

Алишер Навоий “Мажолис ун-нафоис” тазкирасида: “Шайх Озарий” – Исфаройнда зуҳур қилди ва шеъри шуҳрат тутти ва куҳулият синнида майли сулук сари тушти. Ҳажжи муборак сафарига бориб, сайр расми била Ҳинд сари мутаважжиҳ бўлди. Анда кўп акобир ва машойих хизматиға мушарраф бўлуб, ул мулк салотини санга мурид ва муътақид бўлдилар ва дебдурларким, Гулбарга подшоҳи Шайхқа бир лак ярмоқ таклиф қилди, аммо ўз расмлари бирла бош ерга қўймоқ таклифи ҳам кўргузли. Шайх ул важҳқа бош эндурмади ва бу байтни айттиким:

Ман тарки ҳинду жифи Жайпол гуфтаам,
Боди бурути Жуна ба як жав намехарам.

Мазмуни:

Тарк этиб Ҳиндуни мен қари Жайпол дегаймен,
Жуна кибру ҳавосини арпага олмагаймен.

Ва Ҳинддин қайтғандин сўнгра Исфаройнда гўша ихтиёр қилиб, тоатқа машғул бўлди ва баъзи кутуб, мисли “Ажойиб уд-дунё” ва “Жавоҳир ул-асрор” Шайхнингдур. Ўзга мусаннафоти ҳам бордур. Ва девони ҳам машҳурдур. Му матлаъ анингдурким:

Боз шаб шуд чашми ман майдонаи гиръя об зад,
Сайли ашк омад шабихун бар сипоҳи хоб зад.

Мазмуни:

Яна кеча бўлди, кўзим йиғи майдониға сув урди,
Кўз ёши сели тунда уйқу сипоҳига ҳужум қилди.

Ва шайхнинг қабри ҳам Исфаройнда ўз масканида-ўқдурур ва Ҳожи Авҳад Муставфийким, фазойили шарҳидин мустағнийдур, шайхнинг вафоти тарихин “Хусрав” лафзи топибдур. Бу фақир Мавлоно Тўти Таршизи фавтиға “Хурўс” лафзи тарих топиб эрдим, маълум бўлдиким бир тарихда ўтурубдурлар”[2].

Шарафиддин Роқимий қуйидагиларни қайд қилган: “Ҳазрати Шайх Озарийнинг асл номи Ҳамза ибн Абдулмалик ат-Тусий ал-Байҳақийдир. Ҳазрат шайхнинг оталари сарбадорлар жамоасидин эдилар. УЛ зот зоҳирий илмлар бирла ораста, ботиний илмлар зевари бирда пироста эдилар; дину миллат илми далилларининг отаси; авлиёлик ва кашфи ҳақиқатлари аҳкомлари бўйича олим; илоҳий маърифат чироғи ул зот қалби меҳробида мунаввар; чексиз илоҳий раҳматлар жавоҳирлари ул зот дили ганжинасида тўпланган дир. Ул зот мушкин ҳидли қаламлар шакарнисоридир. Ҳазрати шийхнинг фасиҳ нутқлари гўё сирлар жавоҳири ғазал девони, бир неча рисоласидир. Назму насрдин “Жавоҳир ул-асрор”, “Саъ ус-сафо”, “Туғройи Ҳумоюн”, “Ажойиб ул-ғаройиб” ва ҳоказолардир. Шайхнинг вафоти санаси 866 (милодий 1462) йилда Султон Муҳаммад ибн Бойсунғур салтанати замонида содир бўлди. Файзбахш мозорлари Исфаройн қасабасидадир. Саксон йил умр кўрдилар. Хожа Аҳмад Муставфий “Тарихи гузида”да ҳазрат шайх вафотлари тарихини айтганлар. Тарих:

Дареғ аз орзўйи шайхи замона,
Ки мисбоҳи вужудаш гашт безав.
Чироғи дил ба мисбоҳи ҳаёташ,
Ба анвоъи ҳақойиқ дошт партав.
У ў монанди хусрав буд дар шеър,
Аз он тарихи фавташ гашт “Хусрав”.

Мазмуни:

Замона шайхи орзуларидан дариғ,
Вужуди чироғи нурсизланди.
Дил чироғи ҳаётининг мисбоҳига,
Турли ҳақойиқлардан нур инарди.
Шеъриятда хусравмонанд бўлгани учун,
Вафоти тарихи “Хусрав” (866) бўлди”[3].

Шайх Озарийнинг оти. Қадимги манбалар ҳамда сўнгги йиллардаги тадқиқотларда Озарий Исфаройний мавзуида ёзганларида унинг отини Ҳамза деб кўрсатадилар. Лекин унинг ўзи “Али Ҳамза бин Али Малик бин Ҳасан Тусий” деган. Шу сабабли бўлса керак Саъид Нафисий ҳам Али Ҳамза шаклида ёзади. Жумладан, бир ғазалида:

آن علی حمزه است یعنی آذری مداح شاه
که سخن رانی درین شهنامه با رستم یکی است

Мазмуни:

Ул Али Ҳамзадир, яъни Озарий шоҳнинг маддоҳидир
Ки, ушбу “Шоҳнома”даги сўз Рустамники билан бирдир.

Куния ва лақаблари. Ҳамза билан бирга Али Ҳамзага нисбатан Озарий Исфаройний камроқ истифода этилган. Куния ва лақаби турли манбаларда Нуриддин, Фахриддин, Жалолиддин ва Жамолиддин шаклида учрайди. Озарийнинг ўзи бирорта асарида мазкур кунияларни кўрсатмаган.

Шайх Озарий ва унинг баъзи замондошлари. Амири аъзам фозил Низомиддин Шайх Аҳмад ўзининг Суҳайлий тахаллусининг танлаши билан боғлиқ воқеани айтиб берган. Шайх Аҳмад туркий ва форс тилларида ёзган шеърларидан иборат девон тартиб берган. Унинг мадҳига бағишлаб кўплаб шоирлар асар битганлар. Шулардан бири Ҳусайн Воъиз Кошифийнинг “Анвори Суҳайлий” асариди. Маълумотлар кўра Шайх Аҳмад Амир Низомиддин Шайх Аҳмад Суҳайлий Чиғатоий, Шайхим Суҳайлий ёки Шайхимбек номилари билан Чиғайтой улусида машҳур бўлган. Шоҳрух замонида давлатнинг муҳим ишларига мсъул бўлган. Ёшлик даврида Султон Абусаъид аъёнларидан саналган. Шоирликда Шайх Озарий ёнида шогирдлик қилган. “Тазкират уш-шуаро”нинг муаллифи ёзишича кунлардан бир кун у Шайх Озарийдан ўзига тахаллус танлаб беришни сўрайди. Буни Шайхимбек қуйидагича хотирлаган: “Мен ёшлик айёмининг гуллаган вақтида ориф шайх Озарий қуддиса сирриҳу мулозиматига етишдим ва табъим ашъор айтишга қодир эди, муносиб бўлган тахаллусни топлмаётган эдим, илтимос қилиб шайх менга муносиб тахаллусни мушарраф қилишини онҳазратдан тиладим. Шайхнинг ихтиёридаги бир жилд китоб қўлида эди ва буюрдилар: “Мана шу китобни фол тариқасида очаман, шояд бирор муносиб сўз чиқиб қолса”. Очганларида саҳифанинг бошидан “Суҳайл” сўзи чиқди. Жуда ҳам маъқул деб билиб, менга Суҳайлий деб буюрдилар. Ўшандан кейин менга маъоний эшиклари очилди[4].

Амир Низомиддин Шайх Аҳмадга тахаллус танланганидан кейин у киши гоҳи Суҳайл, гоҳи Суҳайлий деб тахаллус қилиб юрди. Шайх Озарий бу тахаллусни у кишига берганлар[5]. Суҳайлийнинг вафоти 907 ҳижрий қамарийга тўғри келади (1501)[6].

Мирзо Улуғбек билан мулоқотлари. Гўё Шайх Озарий ва Мирзо Улуғбек ўртасида шайхнинг ҳаёти давомида турли вақт ва турли жойда уч маротаба учрашув содир бўлган:

Биринчи учрашув: Ҳамза бин Али Малик Исфаройний ўзининг Мирзо Улуғбек билан биринчи учрашувини нақл қилган[7]: “880 ҳижрий қамарий (1475) йили 16 ёшлар атрофида, Қорабоғда Соҳибқирон Темур Кўрагоннинг қиссахони бўлган тоғамнинг ҳамроҳи эдим, Удуғбек Мирзо хизматига тушдим. Айёми туфурият ва бир қанча муддат болак хурсандчиликларида Улуғбек билан ўйнадим. Болалик расмига кўра мен

билан дўстлик ва яқинлик бўлгани сабабли сеҳргарликлар ҳақида ва ҳикоятлар айтардим.

Ёки бўлмаса, отасининг мавқеи ва ўзининг ўрнига кўра бир қанча вақт Амир Темур саройида бўлиб, Амир Темурнинг болалари ва набиралари билан бирга ўйнаган[8].

Бу даврдаги ўйин ва султон болалари билан муносабат кейинчалик султонларнинг мадҳида Ҳамзанинг руҳиятига яхши таъсир ўтказган[9].

Исмоил Амир Хизий ўз мақоласида Ҳамзанинг ўша даврдаги аҳволини қўйвчиларга мана бундай тақдим қилади: “Тарих саккиз юзинчи ҳижрий қамарийда Амир Темур Соҳибқироннинг қиссахони тоғамнинг ёнига Қорабоққа бориб у ерда бир буддат Улуғбек билан бирга ўйнаган. Ўқиши тугагандан кейин табъини синовдан ўтказиш (яхши шеър ёзиш ва бошқалар билан мушоира қилиш) га киришди”[10].

Али Ҳамза бу сафар ва тоғасининг аҳволи ҳақида “Мифтоҳ ул-сарор” китобида ёзган[11]: “Кичиклиги ва ёшлигимнинг гуллаган вақтида 800 ҳижрий қамарий (1397) йилнинг боши эди, ушбу фақир сатараллоҳи таъоло бираҳма саъиди ғариб тоғамнинг хизматига Табриз томонга юрганимда, ушбу фақирнинг тоғаси ниҳоятда сўз фасоҳатида ниҳоятда зуфунун бўлиб, сўз келтиришда, жумладан, назм ва насрдан қисса ва тарихлар, устозларнинг девонларини ўқирди. Тиббиётни ўқишни бошлаб, баъзи риёзий илимлар илмлардан вуқуф топиб, жуда кўп саёҳат қилган сабабли ушбу фақирда суҳбати фат ул-айни таъсирини ҳосил бўлди. Туркистон соҳибқирони Амир Темур Кўругоннинг ҳумоюн узангиси Ҳиндустон, кейин Гуржистон мамолики, Рум ва Шом фатҳидан кейин қишлаш учун Султония ва Қарабоққа келди. Каминаниг тоғаси ўша даргоҳни билувчиси ва ўша боргоҳнинг тарбияланувчиси, жаҳон ҳукмини очишни ҳосил қилган у (киши)нинг мусоҳибларидан бўлганидан Шайх Ҳасан қиссахон ҳазратнинг ҳузурида тоғамнинг ўрни олдинги мансабига барқарор бўлганида, Табриз томонга келди ва бизни буйруққа кўра, кўчириб саъодатпаноҳнинг даргоҳига олиб кетди. Ушбу каминани ҳозирда Мовароуннаҳрнинг волийси бўлган шаҳзода Улуғбекнинг мулозимати ва мусоҳиблигига тайин қилди. У ҳам ҳали ёш эди. Ушбу фақирнинг ёдида қариб беш минг байт турли достонлардан ёдида бор эди ва кўплаб саёҳат ва қиссаларни хорасига жойлаб у билан ўйин ва болалик ва надимлик расмига кўра бирга бўлиб, юқоридгидек вақт ўтди”[12].

2. Иккинчи учрашув: Ҳамза бин Али Малик шоирлик ва шеър ёзишининг бошланишида Озарий деб тахаллус қиларди, Машҳад шаҳрида Улуғбек (Мирзо) ва унинг ўртасида иккинчи учрашув содир бўлди. Ушбу учрашув ҳақида ёзганлар: “Ҳамза Озарий ёшлигида Машҳуди муқаддасда эътиборини Улуғбек Кўрагонга қаратди. Ушбу учрашувда Шайх Садриддин Раввос ҳам қатнашган бўлиб, суҳбат ана шу уч киши ўртасида бўлиб, Озарий тахаллусини Садриддин Раввос тақдиқлаган.

“Ҳамза Шайх Садриддин Раввос билан бирга Машҳади ризавийга Улуғбек Мирзо дидорига борганда (Улуғбек) Мирзо аввал Шайх Садриддиндан раввсолик (тахаллусини сабаби)ни сўради: “Сиз син билан раввосмисиз ёки со биланми?”. (Садриддин): Содлик раввосмиз”, – деди. (Улуғбек Мирзо деди): Сиз араб тилида бўлмаган раввос экансиз”,–деди[13].

Кейин у (Улуғбек Мирзо) Шайх Озарийдан: “Озарий, сизнинг тахаллусингиз қанақа?”,–деб сўради. Шайх деди: “Фақир озар ойида туғилган. Ўшанга кўра Озарий деб тахаллус қилганман”. Мирзо буюрдилар: “Сиз шоирпеша бўлмапсиз. У озар замми зол, фатҳ эмас”. Шайх бадиҳа тарзида деди: “Озар ойининг золи йиллар давомида зол ва хорлик мақомида ўтказди ва кейини иккита бўлиб долга яқинлигидан орқасидан зикри воқе бўлди. Аммо шуур ва идрок мақомида келиб қиём бўлиб, рост бўлди”. Мирзо табъининг баландлигидан хушват бўлди. У билан яхши суҳбати бўлиб, улуғ мақом тайинлади ва унинг саҳбатига муштоқ бўлди[14].

Учинчи учрашув: Ҳамза Озарий ва Улуғбек (Мирзо) ўртасидаги уч учрашувнинг ҳар бири хос шароит ва турли жойларда ўзини истагига кўра юз берган. Шайх Озарий Исфаройнга келганида, ҳеч ким билан учрайшамликка, ёлиз ўзи исломнинг мукаррам расули (сав) ва унинг аҳли байти мадҳига бағишлашга аҳд қилган эди. Ўша вақтда Улуғбек Мирзо ҳам Темурий подшоҳ эди. У ўз сипоҳиилан Исфаройндан ўтаётиб, ҳукумат марказида олиб кетаётганда учинчи учрашув содир бўлди. Ушбу учрашувнинг тафсилоти Ҳамза Озарийдан қуйидагича нақл қилинган[15]: “Узоқ вақтдан кейин, яъни 852 ҳижрий қамарий (1448) йили (Шайхнинг умридан 68 йил ўтганда) Исфаройнда у (Улуғбек)нинг дидорига бордим. У узоқдан мени фақир ва солиҳлар кийимида кўриб салом берди ва: ”Сен бизнинг қиссахонимизнинг жияни эмасмисан?”,–деб сўради. Мен подшоҳнинг зеҳн идроки ва пок ҳофизасидан ҳайратланиб дедим: “Ҳа, ўшаман”. (Ўшанда замони) Қаробоғ, Ғуз ва Гуржистон ҳамда ўша диёрнинг ажойиботларини ўртага ташлади. Қанчалик эсимда қолган бўлса, жавоб бердим. Подшоҳнинг хотири дақиқлиги билан боғлиқ бу сингари нақллар жуда кўп.

Шогирд ва муридлари. Тафсилотларга бой умри давомида кўплаб илм ва андиша аҳллари Шайх Озарий билан муносабат, мушоира, мукотибаси бўлган. Замондошларининг баъзилари улардан олдин таниш бўлишган. Шу сабабли Озарийнинг кўплаб мурид ва шогирдлари учун ҳам эсланганки, гарчи ҳар бирининг аҳволга қисқача ишора бўлса ҳам, аҳволининг баёни узун бўлиши мумкин. Шунга кўра Шайх Озарий Исфаройнийнинг баъзи шогирд ва муридлари исмларининг рўйхати тузилади.

Темурий султон ва шаҳзодалардан Шоҳрух Мирзо, Улуғбек Мирзо ва Бойсунғур Мирзолар Шайх Озарийнинг муридлари қаторида бўлиб, унинг ҳузурида файзлар топганлар ва шайхнинг пандлари уларга ёрдам берган.

Ҳинд Баҳманий султонларидан Аҳмадшоҳ Баҳманий, унинг валиаҳди ва ўринбосари Алоъиддинлар Шайх Озарийнинг муридлари ва ихлосмандлари жумласидан. Озарий юборган донишмандона мактуби Султон Алоъиддавлага таъсир қилиб, олдинги хатоларига тавба қилди ва қадрдолиги юзасидан қимматбаҳо ҳадяларни Исфаройнга Шайх Озарий ҳузурига юборган. Исфаройн темурийлар даврида темурий шаҳзода ва амарларнинг шарқдан ғарбга ёки ғарбдан шарққа борди-келдиси йўли устида бўлгани сабабли сафарлари вақтида Исфаройнда тўхтаб, Шайх Озарий зиёратига етишиб, ҳузуридан файз ҳосил қилганлари ҳақида кўплаб маълумот топиш мумкин.

Шайх Озари кўплаб шогирдлар етиштирган бўлиб, уларнинг баъзиларининг номларини келтирамиз: Шайх Нўъмон Маҳмудободийнинг ўғли Шайх Тожиддин Иброҳимзода Гилоний, Шайх Абдулҳамид Исфаҳоний, Саййид Хуррамий номи билан машҳур Шайх Файхриддин Аҳмад, Амир Номириддин Бамий, Саййид Ҳусайн Кавсарий, Шайх Хўжан номи билан машҳур Низомиддин, Саййд Али Сабзаворий, Табризда машҳур Саййид Шамсиддин Ақтобий, Саййид Нуриддин Ижий, Саййид Мажнун Румий, Шайх Муҳаммад Ҳалвоий Шерозий, Саййид Азизиддин Омулий, Саййид Ҳабиб Шерозий, Шайх Муҳаммад Мурчагир мударриси Ҳирот, Шайх Довуд Машҳадий, Саййид Муҳаммад Бадахшоний, Саййид Имодиддин Шерозий, Саййид Қосим Шервоний, Дарвеш Ҳусан Гилоний, Муҳаммад Термизий Кобулий, Саййид Тожиддин Сейстоний, Шайх Муҳаммад Табасий, Саййид Қанбар Туний, Мулло Шодий Куҳи Софий, Мулло Абдуллоҳ Саййидийнинг ўғли Мулло Ҳожий, Саййид Ҳабибуллоҳ Побараҳна, Саййид Шамсиддин Ҳиравий, Шайх Камолиддин Шерозий, Саййид Жалолиддин Ҳиравий, Мавлоно Шайх Ардабелий, Ҳожи Ихтиёр Тафтий Яздий, Саййид Шамсиддин Хокий Кермоний, Мавлоно Алоъиддин Муҳаммад Козруний Форсий, Саййид Бобо Қаландар, Саййид Минҳож, Хайриддин Гилоний, Садиддин Насруллоҳнинг отаси Шайх Бурҳониддин Халил Товусий, Бобо Ҳожи Муҳаммад Сирожийлар.

Шайх Озарий ўзидан катта илмий ва адабий мерос қолган. Шулардан бири **“Баҳманнома”** асар назмда ёзилган бўлиб, баҳманий султонларининг тарихига бағишланган[16]. Асар Фирдавсийнинг “Шоҳнома”, Низомийнинг “Искандарнома”га эргашиб ёзилган. Шайх Озарий “Баҳманнома”дан кейин “Достони Султон Ҳумоюншоҳ Баҳманий”ни Исфаройнда ёзиб, Даканга юборган. Озарий вафот этиб қолгани сабабли асар охирига етмаган. Шу сабабли бошқа шоирлар томонидан баъзи қитъалар қўшилган. Ана шундай шоирлардан Мавлоно Назирийдир. У асли Машҳаддан бўлиб, Даканда Ҳумоюншоҳ Баҳманий сарояида яшаган[17]. Шунингдек, у вазир Хожа Маҳмуд Қовон тарбияси олганлардан биридир. У “Баҳманнома”нинг бир қисмини ёзиб, илова қилган. Сомеъий Даканда Маҳмудшоҳ Баҳманий саройи шоирларидан. Хожа Маҳмуд Қовоннинг маддоҳи сифатида машҳур бўлган. У ҳам Озарийнинг нохирига етмаган “Баҳманнома”сининг бир

қисмини ёзган[18]. Шундай қилиб, Озарий вафотидан сўнг, шоирлар томонидан “Баҳманнома”га Ҳиндистон баҳманийлар сулоласининг инқирозигача бўлган давр тарихини изофа қилганлар. Ушбу жиҳатга кўра, асар турли номлар билан ҳам аталган.

“Ажойиб ул-ғаройиб”да ишқ мазҳаби хусусида сўз боради ва маломайтилар ошиқлар дейилади[19]. Асарда шаҳар, қишлоқ, чашма, иморат, ҳайвонот, қуш ва бошқалар зикр қилиниб, уларнинг назми учун “Ажойиб ул-махлуқот”, Замахшарийнинг “Рабиъ ал-аброр” ва “Ажойиб уд-дунё” сингари асарлардан фойдаланган[20].

“Миръот”. Баъзи қўлёзма нусхалар унвонида асар “Ажойиб” ёки “Ажойиб ул-ғаройиб” номлари билан кўрсатилади. Лекин Озарийнинг ўзи асарнинг номини “Миръот” деб зикр қилган. Асар тўрт бўлимдан таркиб топган[21]: Биринчи боб “Ал-том ул-кубро”, иккинчи боб “Ғаройиб уд-дунё”, учинчи боб “Ажойиб ул-аъло”, тўртинчиси “Саъй ас-сафо”. Албатта баъзилар “Миръотни” алоҳида мустақил асар сифатида ҳам эътироф этадилар. **“Саъй ас-сафо”** “Доират ул-маърифи бўзурги ислом”да “Саъй ас-сафо”ни “Миръот”нинг бир боби сифатида эмас, балки мастақил бир асар деб кўрсатилган[22]. Шайх Озарий ушбу китобни зиёрат ва ҳаж йўлкўрсаткичи сифатида назмда ёзгани сабабли, баъзилар уни мавзуга оид мастақил асар сифатида баҳолайдилар[23].

“Туғройи Ҳумоюн” Шайх Озарий асарларидан яна бири “Туғройи Ҳумоюн”дир. Ушбу асар тўғрисида етарли маълумот топилмади.

“Мифтоҳ ул-асрор” Ҳамза бин Али Малик Исфаройнинг 830 ҳижрий қамарий (1426) йилда илк ҳаж сафаридан қайтгандан кейин бир муддат Суриянинг Ҳалаб шаҳрида яшади ва ўша муддатда ирфоний-мазҳабий мазмундаги биринчи “Мифтоҳ ул-сарор” асарини ёзди. Ушбу асарининг ёзилиш сабабини бошқа бир асари – “Жавоҳир ул-асрор”да зикр қилган[24]: “Саккиз юз ўттизинчи йилнинг бошида муборак сафардан Шом томонга қайтиш пайтида ёзилган эди, тўрт боб, яъни “Аллоҳ таолонинг сўзларининг очилишини билиш”, “Пайғамбаримиз ҳадисларидаги қийинчиликлар”, “Аллоҳ барчаларидан рози бўлсин машойихларнинг Аллоҳ таоло каломларининг тимсолларини тушунтириб бериши”, “Аллоҳ раҳматига олсин ислом шоирларининг ёпиқ сўзлари маъноларини изоҳлаш”дан иборат.

“Жавоҳир ул-асрор” Қуръони каримнинг ирфоний сирлари, пайғамбар ҳадислари, тасаввуф шайхларининг сўзларига бағишлангани сабабли “Мифтоҳ ул-асрор”нинг қисқартирилган шакли деб ҳисоблайдилар[25]. Шу боис асар боблари ҳақида маълумот беришга ҳаракат қиламиз. Биринчи боб: Асрори Каломуллоҳ. Қуръоннинг баъзи сураларининг бошланиши бўлган муқатта ҳарфлар ҳақида. Иккинчи боб. Асрори аҳодиси набавий. Қуръони Каримнинг ирфоний сирлари ва баъзи набавий ҳадисларнинг тафсири ва шарҳи. Учинчи боб. Асрори каломи

авлиё. Баъзи ирфоний сўзларнинг шарҳи. Тўртинчи боб. Асрори каломи шеър. Шоирларнинг шеърларидаги баъзи тушуниш қийин бўлган ўринлар.

“Мунтахаби “Жавоҳир ул-сарор” “Жавоҳир ул-сарор”дан сайланма шаклида Абдураҳмон Жомийнинг “Ашаъат ул-маъмаот” ва Азизиддин Насафийнинг ирфоний асари билан бир жилдда 1303 ҳижрий (1885) йилда Теҳронда нашр қилинган[26].

“Сафарнома” Шайх Озарийнинг турли хил сабаблар билан борган жойлари ва ерларда кўрганлари билан боғлиқ битик. Унинг сафарлари 800 ҳижрий қамарий (1397) йилда 16 ёшидан бошланган.

Озарий “Девон”и. Озарий девонига турли жанрлаги, жумладан, қасида, ғазал, маснавий, таркиббанд, таржиъбанд, рубоий ва бошқалар жамланган. Шайх Озарий шеърияти ҳам Алишер Навоий таърифлагани сингари шеърият ихлосмандлари томонидан қадрланган, унинг мазмун ва бадиияти китобхонлар эътиборини тортолган. Шу боис Озарий девони қўлёзмалари ватанимиз ҳудудида кўп бор кўчирилган ва халқ орасида машҳур бўлган.

Хулоса қилиб айтганда, Али Ҳамза бин Али Малик бин Ҳасан Тусий – Шайх Озарий темурийлар даври маънавий ҳаётида ўзига хос ўрин тутган аллома сифатида маълум. Аллома Хуросон, Арабистон ярим ороли ва Ҳиндистон каби минтақаларда бўлиб, темурийлар ва баҳманий ҳукмдорлар билан яқин муносабатда бўлган. Мазкур ҳукмдорлар маънавий ҳаётида муҳим ўрин тутган. Ҳозирда Ўзбекистон қўлёзма фондларида Шайх Озарийнинг “Жавоҳир ул-асрор” ва “Девон”и қўлёзмаларининг турли даврларда кўчирилган ўнлаб нусхалари сақланади. Ушбу жиҳатлар Шайх Озарий шахсияти ва асарларига аждодларимизнинг муносабатини белгиловчи омиллар саналади. Келгусида аллома шахсияти ва асарларинин чуқурроқ тадқиқ этиш, уларларининг кейинги давр ижодкорларининг асарларига таъсири масаласини ўрганиш муҳим саналади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. –Б. 157-160.
2. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1966. –Б. 12.
3. Шарафиддин Роқимий. Тарихи томм. –Тошкент: Маънавият, 1998. –Б. 44.
4. تذکره الشعرا. ص. ...51
5. تذکره ریاض الشعرا. جلد اول. ص. 973.
6. تاریخ اظم و نثر ور ایران در زبان فارسی
7. تاریخ تیموریان و ترکمنان . ص. 108.
8. تاریخ ادبیات ایران در عصر تیموریان. ص. 532.
9. تاریخ ادبیات ایران در عصر تیموریان. ص. 532.
10. مجله وحید سال 43. ص. 41.

11. نسخه خطی مفتاح الاسرار. ص. 9.
12. تاریخ نظم نثر دذ ایران در زبان فارسی. ص. 786.
13. تاریخ فرشته. جلد اول. ص. 326: مجالس العشاق. ص. 333.
14. تاریخ فرشته. جلد اول. ص. 326: مجالس العشاق. ص. 333.
15. تاریخ تیموریان و ترکمنان. ص. 109: تذکره الشعرا. ص. 363: مجالس العشاق. ص. 333.
16. احوال و آثار و افکار شاه ولب. ص. 213و 322.: تاریخ نظم و نثر در ایران و در زبان فارسی. صص. 795.: دایره المعارف بزرگ اسلامی. جلد 1. ص. 267
17. Баҳманийлар - ўрта асрларда Ҳиндистонда ҳукмронлик қилган сулола. Б. сулоласининг асосчиси Ҳасан Зафархон бўлиб, Абу Музаффар Алоуддин шоҳ номи б-н тахтга чиққан. Дастлаб Гулбаргани, кейин (1429 й.дан) Бидорни ўзига пойтахт қилган. Б. давлати Декан мулкдорларининг Деҳли султонлигига қарши қўзғолони натижасида вужудга келиб (1347), ҳукмронлик мусулмон мулкдорлари қўлига ўтди ва ҳарбий тузум жорий этилди. Ёш султонлар Низомшоҳ (1461-63) ва Муҳаммадшоҳ Ш нинг оталиғи (регенти) ва вазири Маҳмуд Хован даврида Б. Давлати анчагина қудратли эди. Маҳмуд Хован асли Эрон савдогарларидан бўлиб кейинчалик Б. саройида вазирлик даражасига кутарилган. Мулкдорларнинг ўзаро кураши, айниқса Вижаянагар давлати билан доимий урушиб туриши натижасида Б. заифлашди. 15-а. Охири –16-а.нинг бошида Баҳманийлар давлати Бижопур, Голконда, Бидор, Берор ва Аҳмаднагар султонликларига ажралиб кетди. Манба: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. II жилд.– Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. –Б. 168.
18. تاریخ نظم و نثر ایران در زبان فارسی. ص. 795.
19. مقدمه ای بر مبانی عرفان و تصوف. ص. 243.
20. تاریخ ادبیات در ایران/ جلد 4. ص. 328
21. تذکره العشاق. ص.399: دایره معارف بزرگ اسلامی. جلد 1. ص. 266.: تاریخ ادبیات در ایران. جلد 4. ص. 325
22. تذکره الشعرا. ص.399: تاریخ ادبیات در ایران . جلد 4. ص. 325: تاریخ ادبیات فارسی. ص. 399.: دایره معارف بزرگ اسلامی. جلد 1. ص. 266.:تاریخ ادبیات در ایران. جلد تذکره العشاق. ص 325188. 4.
23. تاریخ نظم و نثر در ایران و در زبان فارسی. ص. 294.
24. نسخه خطی مفتاح الاسرار. ص. 20-22
25. تاریخ نظم و نثر در ایران و در زبان فارسی. ص. 294
26. محمع الفصحا. ص. 17.

HAYDAR XORAZMIYNING “ME’ROJNOMA” NOMLI ASARI UCHUN CHIZILGAN MINIATYURALARI XUSUSIDA

Jo‘rayev Jamoliddin Aminjonovich
JDPU dotsenti, filologiya fanlari doktori

Haydar Xorazmiy tomonidan bitilgan “Me’rojnoma” nomi bilan Muhammad sallollohu alayhi vasallamning me’roj voqeasiga bag‘ishlangan asar diniy ruhda bo‘lgani uchun sobiq ittifoq davrida umuman tilga olinmas edi va yoki keng ommaga ma’lum qilinmas edi. So‘nggi yillarda diniy erkinlik tufayli ana shunday asarlar hozirgi kunda olimlarimiz tomonidan o‘rganilmoqda.

“Me’rojnoma”ni tadqiqotchilar tomonidan turli jihatdan o‘rganmoqdalar, san’tshunoslar – rang tasvirini, dizaynerlar – o‘sha davr libos turlarini, dinshunoslar – islom nuqtai nazaridan, matnshunoslar asar matnining badiiyati va tilini o‘rganmoqlar. Jumladan, turk olimlaridan Akar Metinning “Turk adabiyotida nazmdagi me’roj nomlari”, Jihan Dog‘anning “Me’rojnoma harazm turkchasida yozilganmi?”, Husayn Durgutning “Ivan Lutskevichning “Me’rojnoma” kitobining turkcha variantining ayrim xususiyatlari haqida”, Osman Sertqoyaning “Me’rojnoma”ning matnini tayyorlashi, o‘zbek olimlaridan I. Haqqul va S. Rafiddinoalar tomonidan Sulaymon Boqirg‘oniyning “Me’rojnoma”sini ba’zi qismlari nashr qilingan. [2;7]

Qosimjon Sodiqov tomonidan “Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanuvchi uyg‘ur tilida yozilgan qo‘lyozma” [3; 65–71] nomli maqolasi kabi tadqiqotlarda turli ijodkorlarning “Me’rojnoma” asari haqida fikr yuritilgan bo‘lsa-da, uning muallifi Haydar Xorazmiy ekanligiga aniq fikrlar berilmagan.

Biroq, “Me’rojnoma” asarnining muallifi Haydar Xorazmiy ekani birinchi bor rassom Shomahmud Muhammadjonov Asqar Mahkam bilan suhbatda quyidagicha: “Bugun biz xalq amaliy san’ati deb atayotganimiz – mo‘jaz rangtasvir G‘arbda hozir ham musulmon san’ati deb yuritiladi. Ming yildan ziyod vaqt davomida Islom qonunlari asosida yashab, hayot tarzining barcha ko‘rinishlarini ana shu nizomga qo‘rgan ushbu san’t ham ma’lum qonuniyatlar asosida rivoj topganini inkor qilish ma’naviy ko‘rlik, so‘qirlik bo‘lar edi.

... Rivoyat qilishlaricha, Payg‘ambar alayhissalomning uzuklarida arining, Hazrat Alining tugmasida sherning tasviri bo‘lgan. Ba’zi bir aqidaga ko‘ra suvrat andozasi xuddi ana shulardan kelib chiqqan, biroq Islomning jonli mavjudot aksini chizish ta’qiq etgani haqidagi butkul soxta qarashlari Parijda saqlanayotgan Haydar Xorazmiyning “Me’rojnoma” asaridagi 45 miniatyura rad etadi. Zero, bu miniatyuralarning jami Ilohiy mavzuda bo‘lib, payg‘ambarning “Me’roj”ga ko‘tarilishi ta’rif va tavsifdan iborat. Bordi-yu o‘sha soxta da’volarda jilla qurisa jon bo‘lsa, Turkiyaning birgina To‘pqopi muzeyida saqlanayotgan 32 ming mo‘jaz rang tasvir asarini kim yaratgan?”, – deb qayd qilgan. [1; 26-27.]

Haydar Xorazmiy “Me’rojnoma”sining uyg‘ur yozuvidagi nusxasi asosidagi nashri Pave De Kurteyl tomonidan Parijda 1882 yilda amalga oshirilgan. [4; 2-43] Nashrga shoirning “Gulshan ul-asror”i va “Me’rojnoma”si matnidan lavhalar berilgan. Kurteyl nashriga “Me’rojnoma”ning Fransiya milliy kutubxonasida saqlanuvchi Suppl. Turc. 190-raqamli qo‘lyozma asos bo‘lgan. “Me’rojnoma” nashrning 1-43-betlardan o‘rin berilgan.

Jahongir Turdievning ham turkiy me’rojnomalar haqidagi tadqiqotida Fransiya milliy kutubxonasida Suppl. Turc. 190-raqam ostida saqlanayotgan

“Me’rājnāma”ning uyg‘ur yozuvli nusxasiga murojaat qilgan bo‘lib, manba Fransiya milliy kutubxonasida Suppl. Turc. 190/1513II-raqami bilan saqlanishini qayd qilgan. Ushbu manbadan Haydar Xorazmiyning “Me’rājnāma” hamda Farididdin Attorning “Taẓkiratu-l-awliyā” asarlari o‘rin olgani, 1b–68a-varaqlariga “Me’rājnāma”, 69b – 264 b-varaqlariga esa “Taẓkiratu-l-awliyā” asari bitilganligi haqida ma’lumot beradi.[2;43]

Eronlik olimlar Nag‘mai Haraziyon, Marjon Murtazaviy, Abbos Novbaxtlarning “Me’rojnoma” haqida روایت شرقی معراج نامه میرحیدر (Rivoyati sharqiy “Me’rojnomai Mir Haydar) nomli maqolasida Haydar Xorazmiy muallifligiga tegishli bo‘lgan “Me’rojnoma” asarini tadqiq etganlar. Maqolada Temuriy shahzodalardan Shohrux mirzo davrida 839-840 hijriy yillarda “Boysung‘ur mirzo” rahbarligida ko‘plab rassomlar bo‘lganligini keltiriladi. Shu davrda “Me’rojnoma”ni Hirotlik “Malik baxshi” tomonidan “uyg‘ur” yozuvida yozilganligini qo‘lyozmada esa 60 ta tasvir borligi aytiladi. [9;123]

Ikkala tadqiqotda ham mualliflar “Me’rojnoma”ning Fransiya kutubxonasida saqlanayotgan nusxaning saqlanish raqamini “Suppl. Turc. “190” deb ko‘rsatganlar. Ammo, Turdiev Jahongirning tadqiqotida asar muallifi ko‘rsatilmagan. Bizningcha bunga sabab J. Turdiev Pave De Kurteylning nashridan (Kurteylning “Gulshan ul-asror”, “Me’rojnoma”lardan lavhalar berilgan majmuasi) foydalangan. Nashrda faqat qo‘lyozmaning raqami ko‘rsatilib, muallifi zikr qilinmagan.

Eronlik tadqiqotchilar “Me’rojnoma”ning muallifi Mir Haydar kotibi hirotlik Malik Baxshi ekanini qayd qilganlar. [10; 34]

“Me’rojnoma”ning ushbu nusxasi haqida Eronning “Tebyan madaniyat bo‘limi” xodimi Sumayyo Ramazon Mohiy tomonidan **معراج‌نامه‌ی میرحیدر** “Me’rojnomai Mir Haydar” nomli maqola elon qilingan. Unda aytilishicha, “Amir Temurning o‘g‘li Shohrux saltanati o‘sha davr madaniy hayotida beqiyos davr bo‘lib, uning homiyligida Hirotdagi Shohrux kutubxonasida kitob yozish san’ati o‘sha davrgacha yuksak bosqichlardan biriga ko‘tarilgan. Uning saltanatidan qolgan kitoblardan biri Mir Haydarning go‘zal va betakror “Me’rojnoma” asar ekanldigi aytiladi. Kitob hozirda Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanishi va kitobning hajmi 34x22 sm, varaqlari soni 265 ta ekanligi ifodalangan. Hirotda Shohrux uchun tasvirlangan, kitob va rassom o‘zining rasmlarida **1435/839-840 yillarda** o‘zining eng yuqori texnik mahoratini ko‘rsatganligi keltiriladi**.**

Haydar Xorazmiyning “Me’rojnoma” asari Shohrux sulton davrida yozilganligi uchun “Me’roji Shohruxiy” deb ham nomlangan. Mir Haydarning asari Malik Baxshi Hirotiy tomonidan uyg‘ur yozuviga va turkiy tillarga tarjima qilgan. Qo‘lyozmaga 61 ta tasvir bilan bezatilgan mos ravishda Muhammad alayhissalomning jannatning zangori va tilla zaminlaridan boshlanib, rang-barang qanotli farishtalar hamrohligida buyuk sayohatining muvaffaqiyatli bosqichlarini hayajonli ko‘z oldida [tomoshabin] namoyon bo‘ladi.

“Mir Haydarning Me’rojnoma” kitobi, avvalambor, rang-barangligi bilan tahsinga sazovor. Jabroil rang-barang qanotli soyabonini oltin va kumush yulduzlar bilan qoplangan osmonda to‘liq ulug‘vorlikni ko‘rsatib turibdi.

Ayniqsa, temuriylar davrining rang-barangligi nafaqat chinni idishlarda, balki mato va devor qoplamalarida ham yorqin binafsha, qirmizi, oltin, indigo, oltin, sariq, och yashil va gilamlarning yorqin ranglari har bir tasvir vitrajdek ko‘zni qamashtiradi” [8;56].

Sumayyo Ramazon Mohiyning maqolasida “Me’rojnoma” asari qo‘lyozmasidan olingan “Hazrati Muhammad (s.a.v.) ning osmonda oq xo‘rozni ko‘rishi”, “Qora dengiz”, “Yarim olov va yarim qor farishtasi”, “Yetmish boshli farishta”, “Nopok ayollarning uyi” kabi miniatyura suratlari va ularning qisqacha talqini o‘z ifodasini topgan. Har bir miniatyura tagida uning Parij milliy kutubxonasidan olinganligi ta’kidlangan.

Qo‘lyozmaning asl nusxasida mazkur rasmlarni kengroq ko‘rinshidagi izohini arabiy va turkiy tillarda ko‘rish mumkin. Jumladan, “Oq xo‘roz” rasmi qo‘lyozmada quyidagichi talqin qilingan. “Rasulullоh sallolahu alayhi vasallam samoyi avvaliya vosil bo‘lduqda arshda bir oq xo‘roz ko‘rdiki boshi arsh (da), oyoqlari yor yuzina bosishi, ul mahalda.[7; 11a-varaq.]

“Yarim olov va yarim qor farishtasi” nomli rasmni “Rasulullоh sallolahu alayhi vasallam avvalgi va ikkinchi samo o‘rtasida bir malakni ko‘rdi. Nisfi (yarmi) qordan va nisfi otashdan, bir alinda qordan tasbeh va bir alinda nor (olov) dan. Ko‘k ko‘ruldiki ul tasbeh sadosidur. [7; 12a-varaq.]

“Yetmish boshli farishta” rasmi qo‘lyozma talqinda qo‘yidagicha: “Rasulullоh sallolahu alayhi vasallam daryoi kanorda yetmish boshlu bir ulu malak ko‘rdiki, mahalda.[7;15a-varaq]

“Qora dengiz” rasmni qo‘lyozmdagi talqini shunday keltiriladi. “Rasulullоh sallolahu alayhi vasallam bahri asvad (qora dengiz)ni ko‘rub, ichinda to‘lmish maloik. Jabroyil alayhissalomga savol o‘ldug‘i Rasul alayhissalom “Nechuk bahr der?” Javob berdiki magar Alloh taolodin g‘ayri kimsa bilmas. Va ham Rasulullоh alayhissalom bir malakni ko‘rdiki boshi arsh(da) oltin oyog‘i yer yuzini bosmish, ul mahalda.[7; 30a-varaq]

Rizo Tehroniyning ham Haydar Xorazmmiyning “Me’rojnoma” asari haqidagi بررسی تطبیقی عناصر ساختاری در معراج نامه احمد موسی و میراج نامه میر حیدر (Bar rasi tatbiqiy anosir soxtori dar me’rojnomai Ahmad Muso va Mir Haydar-Mir Haydar va Ahmad Musoning “Me’rojnoma” asari va strukturaviy elementlarning qiyosiy tahlili) nomli maqolasida Mir Haydar Xorazmiy va Ahmad Musolarning “Me’rojnoma” asarlariga chizilgan sakkizta miniatyura rasmlari qiyosiy tadqiq etilgan. [5;21]

Ahmad Musoning “Me’rojnoma”idagi suratlar kompozitsiyasidagi bu strukturaviy elementlar bilan Mir Haydarning “Me’rojnoma” idagi o‘xshash elementlar bilan va farqli jihatlar o‘rganilgan. Jumladan, Ahmad Musoning “Me’rojnoma” asaridagi suratlarida diniy-tarixiylik tasvir-langanligi. Kishilarning joylashish turi, me’moriy elementlar bilan munosabati va tabiiy

maydonning chuqurligidan foydalanish, umumiy mo‘g‘ul naqshlaridan foydalanish tahlili qilingan. Mir Haydarning she’riy, noreal va mavhum makonlaridan olingan me’rojnoma rasmlari ularda yaqqol ko‘rinishi va farqlanishi tadqiq etilgan.

Mir Haydar va Ahmad Musolarning asarlari tadqiqiga bag‘ishlagan maqolada Haydar Xorazmiyning “Me’rojnoma” asari qo‘lyozmasiga chizilgan “Quddus yo‘lida” sarlavhali rasmning tahlilini ko‘rish mumkin. Qo‘lyozmada arabcha izohi o‘qib bo‘lmaydigan darajada xiralashib qolgan, ammo turkiy tilda yozilgan sharhida qo‘yidagi fikrlar beriladi: “*Rasulullоh sallohu alayhi vasallam Burog‘g‘a minub maloyika sog‘inda vusulatda xidmatda turub, sanjoq olinda hozir o‘lunduqlari mahalda.*

“Nurdan uch piyola” sarlavhali rasmning izohi qo‘lyozmada arab tilida quidagicha ta’riflangan.

و خضار الملايكة الاجل النبى صلى الله عليه وسلم ثلاثة اقداح . الواحدة لبن و الاخر شراب
والاخر عسل و شرب النبى قدح اللبن لا غيره فقال له الملايكة ما فعلت يا محمد بشربک اللبن وحده ولم
تشرب غيره فان امتک يحرجون من الدنيا بالايمان و فرح بهذا الكلام

[7; 76a-varaq.]

Turkiychasi: Rasulullоh alayhi vasallam uchun uch maloyika Bayti ma’murda turub olarning nurdan uch qadah birisi sut va birisi sharob, birisi asal edi. Olub sutni ichdi, g‘ayrisin ichmadi. Jabroyil alayhissalom tahsin aytub, sharobdin ichmading, agar ichmish o‘lsang ummating zalolatga dushardi, dedigi mahalda.

Maqoladagi yana bir “Ibodat” sarlavhali rasm qo‘lyozmada qo‘yidagicha talqin qilingan. Bu rasmning arabiy izohi hoshiyada bo‘lgani uchun, varaqlar cheti ezilib ketgan, yozuvning yarmi o‘chib ketgan. Turkiy tildagi sharhi quyidagicha keltiriladi: “Rasulullоh sallohu alayhi vasallam “*Bayt ul-Muqaddas”da zikron o‘lon anbiyolarga imomat o‘tdugi mahalidadur, Nubuvatullohi alayhim ajmayin* . [7; 76a- varaq]

Elaheh Rezanezhad Yazdiy tomonidan تیموری براساس نگارهای مکتب هرات بر
بررسی سیر تخول پوشش بانوان (سبک تزینات نقوش) در خراسان بزرگ عصر

[6; 105-121]

“Temuriylar davrida Buyuk Xurosonda Hirot maktabi rasmlariga asoslangan ayollar kiyimlari evolyusiyasini o‘rganish (naqshlarning bezash uslubi)” nomli maqolada Haydar Xorazmiyning “Me’rojnoma” asarida keltirilgan ikkita rasm tahlilga tortilgan.

Elaheh Rezanezhad Yazdiy tadqiqotida Shohrux davri miniatyuralarida ayollar kiyimi ayollar kiyimining uslubini va libosning bezaklari va naqshlarini tekshirish uchun “Shohrux davrida yozilgan Mir Haydarning “Me’rojnoma”si qimmatli nusxasining eng yaxshi manbasidir” deyiladi. Maqolada mualllifi “Payg‘ambarning Jannatga tashrifi” sarlavhali ikkita miniatyurasi tahlil qilingan. Ushbu rasmlar qo‘lyozmaning [7; 49b-50a-varaq] ga joylashtirilgan bo‘lib, qo‘lyozmada qo‘yidagicha izohi arab va turkiy tilda berilgan. “*Hazrat Muhammad alayhissalom jum’a kuni jannat ichinda hurlar ko‘rdi. Davomiy*

munshakkar bir birlariga “Marhaban” (Xush kelibsiz) deb kulub o‘ynarlar va sayron erdilar edi, ul mahalda. Arabiy izohda quyidagicha ifoda qilingan.

و ایضا روية النبی صلی الله علیه وصلم کرما فی وسط الجنة و فیه جماعة کثرة من الحور بعضهم جالسة علی الکارسی و بعضهم تلعب مع بعضهن

Keltirilgan ikkinchi rasmning izohida “Rasulullоh alayhissalom jannatda bir uluv ko‘shk ko‘rdi, ichinda cho‘q hurlar o‘lub, so‘rdiki “Bu maqom kimgadur?” Javob berdilarki “Hazrat Umargadir!”. Ushbu jumlaning arabiy jumlasi qo‘yida keltiriladi.

روية النبی صلی الله علیه وسلم للحور فی یوم الجمعة و هن راکبات علی الجمالی و تضحکن و تراحب بعضهن علی بعض و هن فی السیرة

[7; 49 a-varaq]

Elaheh Rezanezhad Yazdiy ushbu miniatyuralar orqali qo‘lyozma yozilgan davrdagi ayollar bosh kiyimi qanday bo‘lganligini o‘rganishga harakat qilgan. “Birinchi bosqichda ayollar kiyimlarini tahlil qilish, boshni yopish, so‘ngra mos ravishda tana va oyoq qoplamasi to‘lanadi. “Me’roj” nomidagi rasmlarda bosh kiyimning besh turi mavjud”, – deydi. Birinchisi: boshning old tomonida uchta halqali dumaloq bosh kiyim. U to‘rtta pat bilan bezatilgan. Ikkinchidan: trapezoid qirralari bo‘lgan oltin toj va qizil marvaridlar bilan bezatilgan. Uchinchisi: oddiy somon shlyapa Xitoy uslubida. To‘rtinchisi: gul bilan bezatilgan gumbaz shaklidagi bosh kyim rangli va yashil barglar bilan bezatilgan. Beshinchisi: shunga o‘xshash uzun bosh kyimlar, ko‘tarilgan qanotli qush, oltinchisi esa faqat oddiy mato. U boshning yuqori qismini qoplaydi” kabi izohlar bilan rasmlarni san’tshunoslik bo‘iycha talqin etgan.

Haydar Xorazmiyning “Me’rojnoma” asari qo‘lyozmasidga chizilgan rasmlarning uyg‘ur yozuvida yozilgan matning har birining hoshiyasida arabiy va turkiy tillarda izohi keltirilgan. Masalan, qo‘lyozmaning birinchi rasmida Payg‘ambarimiz huzuriga Jarboyil alayhissalomning kelgan holati tasvirlangan. Izohda qo‘iydagicha ikki tilda berilgan: *“Jabroyil alayhissalom Rasulullоh sallohu alayhissalomg‘a kelib “Bu kecha laylat ul- me’roj, dar Haqqi Taolo seni huzuri sharifig‘a da’vat eturki, ko‘kli qobusi ochilib, jumla maloyika siza manzurdur, deyu xabar berdigi mahali” jumlalarini”* turkiy tilda ifoda etgan bo‘lsa,

جبریل ع م صلی الله علیه وسلمغه کلوب بو کیچه لیلة المعراج در حق تعالی سینی حضور شریفیغه دعوت ایتور کوکلی قابوسی اچلوب جمله ملایکه سیزگه منظور دیو خبر بیردیگی محلی

یجی الجبریل علیه السلام و اخباره للنبی علیه السلام من اللیلة له لیلة المعراج و ان الله تعالی یطلبک jumlasini arab tilida keltiradi. [7; 3b-varaq.]

Asar qo‘lyozmasining so‘ngi rasmida erkaklarning ko‘p gunoh qilib, do‘zahda tirik chayonlar bilan azoblanayotgan holati tasvirlangan. Bu rasmning faqat arabcha izohi berilib, turkiycha izohi berilmagan. Arabcha izoh quyidagicha:

صفة الرجال الذین نفوسهم کبیرة و اخلاقهم سیة و یتکبرون علی الخلق و اذا ماتو فان الله تعالی یعذبهم یوم القیامة بین العقارب الحیات

[7; 6 b-varaq]

Tarjimasi: Kibrli bo‘lgan kishilarning xislati: kibru havoga ega, axloqi yomon kishilardir, agar o‘lsalar, Alloh taolo ularni qiyomat kuni tirik chayonlar bilan azoblaydi.

Umuman, ushbu qo‘lyozmagi turkiy tildagi izohlar keyinchalik boshqa kotib tomonidan kiritilgan. Chunki, arabiy xat bilan turkiy xat ikki xil dastxatda yozilgan.

Asar uchun chizilgan miniatyuralarni turli aspektlarda o‘rganish ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Rassom Shomahmud Muhammadjonov ta’kidlaganidek bunday asarlarni “Rangtasvir va tasavvuf xali o‘z kashshoflarini yaratmadi” [1;26-27],- degan fikrlariga tayangan holda, balki mumtoz asarlarga ishlangan suratlarning tasavvuf bilan bog‘lab o‘rganishni ham taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, garchi ba’zi manbalarda turkiy tilda yozilgan “Me’rojnoma”ning muallifi keltirilmagan bo‘lsa-da, so‘nggi tadqiqotlar natijalari uning Haydar Xorazmiy deyishga asos bo‘ladi. Me’roj voqeasiga bag‘ishlangan asar bir tomondan chuqur aqidaviy va tasavvufiy munozaralarni, ikkinchi tomondan esa rivoyatlarining Qur’on oyatlari bilan o‘zaro bog‘liqligi tufayli yuksalishning o‘ziga xos turini o‘z ichiga olgan barcha asarlar qatorida qimmatlidir. “Me’rojnoma” asari islom dini nuqtai nazaridan qiyomatga bo‘lgan eng chuqur e’tiqodlarni o‘zida mujassamlashtiribgina qolmay, balki ezgulik va yomonlik, past-balandlik, baxt va qayg‘u haqidagi eng nozik tasavvufiy va ma’rifiy qarashlarni o‘zida aks ettirgan asarlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Асқар Маҳкам. Ворислик ва меросхўрлик // Санъат, 1990. №7, -Б. 26-27.
2. Турдиев Ж. Туркий тилдаги меърожномаларнинг қиёсий-матний тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. - Тошкент, 2022. – Б.7.
3. Садиков К. Уйгурописьменная рукопись хранящаяся в Национальной библиотеке Франции //Илмий-таҳлилий Ахборот// Scientific-analytic Bulletin. 2018. № 1. – С. 65–71.
4. Courtaille. A. Pavet de. Miradj-nameh. Le manuscrit Oigour de la Biblitotheque Nationale Paris. 1882. XXXI+95 p.S. 2-43
5. Rizo Tehroniy. بررسی تطبیقی عناصر ساختاری در معراج نامه احمد موسی و میراج نامه نکره ۹۸ شماره۴۱ بهار \\ میر حیدر
6. تیموری بر اساس نگار های مکتب هرات (Elaheh Rezanezhad Yazdiy)الهه رضانژادیزدی (سبک تزینات نقوش) در خراسان بزرگ عصر بربررسی سیر تخول پوشش بانوان \\ Rajshomar Journal .Vol 1(1), 2020; 105-121
7. Haydar Xorazmiy. Me’rojnoma.Qo‘lyozma. Fransiya milliy kutubxonasi xazinasi Suppl. Turc №190 /1513II, 49b-50a-varaq.

8. سمیه رمضان ماهی(Sumayyo Ramazon Mohiy. Me’rojnomai Mir Haydar) . سگای، ماریرز. (1385). معراج‌نامه، سفر معجزه‌آسای پیامبر(ص). ترجمه‌ی معراج‌نامه‌ی میرحیدر مهناز شایسته‌فر. تهران: موسسه‌ی مطالعات هنر اسلامی (مهاس)
9. مرجان مرتضوی، عباس نوبخت ، نغمه خرازیان (Нағмаи Ҳаразиён, Маржон Муртазавий, Аббос Новбахт روایت شرقی معراج نامه میرحیدر \\ کمیای هنری\\ سال پنجوم شماره 21 زمستان 1390
10. شماره 190 باز یابی کرد - plements Turks sup لینک مستقیم نسخه معراج نامه میر حیدر معراج نامه میر حیدر در کتابخانه ملی فرانسه نگاهداری می شود و می توان این نسخه - Callica را در http://gallica.bnf.fr/ark:/12148/btv1b8427195m/
11. planchecontact.r=Supplements%20Turks%20 190

BİRİNCİ BAKI TÜRKOLOJİ QURULTAYINA DAİR AZƏRBAYCAN ARXİVLƏRİNDƏ SAXLANILAN SƏNƏDLƏR

Xudiyeva Vəzufə Hüseynağa qızı,
Bakı Dövlət Universiteti, İnformasiya və sənəd Menecmenti fakültəsi müəllimi

Məlum olduğu kimi, Azərbaycan Respublikasının arxivlərində mühafizə olunan bu sənədlərin tədqiq olunması I Bakı Türkoloji Qurultayının konkret olaraq əhəmiyyətini və mahiyyətini, tarixdəki rolunu, eyni zamanda türk dünyasının mədəni və elmi inkişaf proseslərinə təsirinin öyrənilməsi baxımından fundamental, əvəzsiz mənbə mənbə hesab olunur.

Bakı şəhərində baş tutmuş I Bakı Türkoloji Qurultayı sovet milli siyasi görüşünün formalaşmasında, türkoloji elmlərin inkişaf etməsində və SSRİ ərazisndə türklərin mədəni identiklik və kimlik formalaşması prosesində əhəmiyyətli yer tutan hadisədir. Öz dövrünə görə Qurultay unikal miqyasda baş tutmuşdu. Belə ki, qurultayda 13 ölkədən və respublikadan 130-dan artıq nümayəndə iştirak edərək 70-dən çox elmi məruzəni müzakirə etmişlər. Müzakirə olunan məsələlərə - əlifba islahatı, ortaq terminoloji araşdırmalar, türk dillərinin təsnifatlaşdırılması və türkçülüyün metodoloji aspektləri kimi fundamental elmi tezis və araşdırmalar daxildir.

Qeyd etməliyik ki, bu tarixi əhəmiyyətli hadisə ilə bağlı ən mötəbər və kompleks quruluşlu informasiya mənbələri Azərbaycan Respublikasının arxivlərində mühafizə olunmaqdadır. Bu sənədlər sədəcə qurultayın işini, keçirilməsini öyrənmək baxımından deyil, həm də mövcud dövrün siyasi vəziyyətini, elmi mühitini, ittifaq respublikaları arasındakı mədəni-siyasi münasibətləri araşdırmaq, öyrənmək baxımından da olduqca mühümdür və əhəmiyyətini qoruyur. Qurultayın işini əks etdirən sənədlər təşkilatı, elmi və siyasi xarakter daşıyır və konkret bir dövrün istimai, siyasi və elmi reallıqlarını əks etdirir.

Azərbaycan Respublikası Prezidentinin İşlər İdarəsi Siyasi sənədlər Arxivində, keçmiş Kommunist Partiyası Arxivi və AMEA-nın fondlarında və başqa arxivlərdə mühafizə olunan sənədlər araşdırmaçılara və elmi işçilərə Qurultayın işini və o dövrü çoxmərhələli yanaşma, müxtəlif aspektlərdən təhlil və analiz etmə imkanları verir. Bu mühazirənin məqsədi I Bakı Türkoloji Qurultayının işini əks etdirən arxiv sənədlərinin çeşidliliyini, məzmununu, tarixi-elmi mahiyyətini, ideoloji məzmununu və xəttini, çağdaş türkoloji araşdırmalara verdiyi töhfə və imkanları araşdırmaq və analiz etməkdir.

Arxivlərdə mühafizə olunan sənədlərin ümumu strukturu

I Bakı Türkoloji Qurultayının işini əks etdirən arxiv sənədləri müxtəlif istiqamətlərdən yaranmışdır. Bu sənədləri tipinə və xarakterinə görə beş əsas kateqoriya üzrə qruplaşdırmaq olar:

Təşkilati sənədlər

Bu qrupa daxil olan sənədlər qurultaya hazırlıq, onun işini və yekunlaşmasını əhatə edir:

- Təşkilat komitəsinin yığıncaqlarının protokolları.
- Nümayəndələrin siyahıları.
- Məruzələrin qeydiyyata alınma prosedurları.
- Proqram, Qurultayın gündəliyi, fəaliyyət və iş qrafikləri.
- Büdcə və maliyyə hesabatlılıq sənədləri.

Bu sənədlər qurultayın həm elmi-siyasi, həm də kütləvi bir hadisə kimi yüksək peşəkarlıq və təşkilatçılıqla hazırlandığını göstərir.

Siyasi və ideoloji sənədlər

Bu sənədlər sovet hakimiyyətinin Qurultaya yanaşmasını, onun təşkilatı, siyasi və ideoloji münasibətini əks etdirir:

- VKP(b) Mərkəzi Komitəsinin qərarları.
- Azərbaycan Kommunist Partiyası rəhbərliyinin məxfi göstərişləri.
- Moskvanın təlimatları.
- Stalin, Zinovyev və partiyanın digər rəhbərlərinə göndərilən teleqramlar.
- Kadr seçimi, “etibarlı nümayəndələr” in qeydiyyatını aparılması.

Bu kateqoriyaya daxil olan sənədlər Qurultayın sadəcə elmi deyil, eyni zamanda siyasi bir layihə olduğunu isbatlayır.

Akademik sənədlər

Türk dil qrupu üzrə məruzələr, elmi tezislər, müzakirə materialları və stenoqramlar:

- Dilçiliklə bağlı araşdırmalar.
- əlifba islahatı istiqamətində layihələr.
- Terminologiyanın eyniləşdirilməsi.
- Türk dil qruplarının tasnifatlaşdırılması layihələri.
- Stenoqrafik protokollar.

Rəsmi və şəxsi yazışmalar

Bu kateqoriyaya iştirakçı alimlərin bir-birləri ilə və Təşkilat komitəsi ilə aparılan yazışmaları daxildir:

- Məruzə ilə bağlı göndəriş məktubları.
- Nümayəndələrin təsdiq olunması və ya rədd edilməsi barədə müzakirə məktubları.
- Şəxsi qeydlər və arxa-plan məlumatları.

Bu məktub və yazışmalardan Qurultayın elmi çevrəsinin daxili münasibətlərini və iş prinsiplərini anlamağa imkan verir.

Mətbuat çıxışları və təbliğat sənədləri

Qurultay ərəfəsində çap olunmuşlar:

- Qəzetlərdə çıxan xəbərlər
- Plakat və bukletlər
- Təbliğat materialları.
- Elmi-populyar məqalələr.

Bu sənədlər Qurultayın ictimai təsir yükünü, sovet informasiya və təbliğat aparatının onu hansı istiqamətdən təqdim etdiyini əks etdirir.

Sənədlərin məzmun təhlili

-Qurultaya hazırliq mərhələsi

Arxiv materiallarından məlum olur ki, Qurultaya hazırlıq bir neçə istiqamətdən təşkil olunub. Təşkilat Komitəsinin 1925-ci ilin son aylarından başlayaraq 1926-cı ilin ilk aylarına qədər keçirdiyi iclaslar əsasən qrultayın proqramının və gündəliyinin formalaşdırılması ilə bağlı olmuşdur. İclaslarda aşağıda qeyd olunmuş məsələlərin önə çıxdığını öyrənirik:

- Latın əlifbasına transformasiyanın elmi əsaslandırılması prinsipləri
- Türk dillərinin quruluş və tərkib baxımından müqayisə olunması
- Terminologiyanın və ortaq elmi leksikonun formalaşdırılması
- Türk xalqları və dövlətləri arasında mədəni inteqrasiya siyasətinin inkişaf etdirilməsi.

Bu mərhələdə partiya rəhbərliyinin prosesə hakim olması və müdaxiləsi açıq şəkildə sənədlərdə əks olunmuşdur. Bəzi məxfi protokollarda nümayəndələrin siyahısının “ideoloji filtrdən keçirilməsi” xüsusilə vurğulanır ki, bu da Moskvanın qurultayın işini ciddi şəkildə nəzarət altına aldığını sübut edir.

Sxem 1



Birinci Bakı Türkoloji Qurultayına dair sənədlərin strukturu

-Nümayəndələrin seçilməsi və siyasi nəzarət

Prezident arxivində mühafizə olunan sənədlərdən aydın olur ki, nüayəndələrin siyahısının tərtibi və onların təsdiq olunması üçün iki əsas prinsip diqqətə alınmışdır:

1. Elmi əhəmiyyəti və türkoloji biliklərinin səviyyəsi
2. Siyasi etimad və etibarlılıq

İkinci meyar daha prinsipialliq daşıyırdı. Çünki bir çox türkoloqların adları sırf “milli meylləri güclü olduğu üçün” iştirakçı siyahısına daxil edilməmişdi. Bu faktın özü Qurultayın ideoloji məqsədini daha açıq şəkildə ortaya qoyur.

Cədvəl 1

№	Sənəd növü	Arxiv yeri / Saxlanma fondu	Məzmun / Mövzu	Şərhlər / Qeydlər
1	Məxfi, tam məxfi və adi protokollar	**Azərbaycan Respublikası Prezidentinin İşlər İdarəsi - İctimai-siya**	Təşkilat komissiyasının iclas protokolları, qurultayın təşkili məsələləri, qərarlar	AMEA mənbələrində qeyd olunur ki, arxiv bu qurultaya aid teleqramları, VKP(b) MK qərarlarını, məktubları saxlayır.

		si Sənədlər Arxivi		
2	Teleqramlar	Prezident Arxivi / Siyasi sənədlər arxivi	İnformasiya mübadiləsi: mərkəzi sovet hakimiyyəti ilə yazışmalar, Stalinə göndərilmiş teleqramlar	Bu teleqramlar qurultayla bağlı birbaşa siyasi əhəmiyyəti olan sənədlərdir.
3	VKP(b) MK qərarları	Prezident / Siyasi Arxiv	VKP(b) Mərkəzi Komitəsinin qurultayla bağlı qərarları	Bu qərarlar qurultayın təşkilinə rəsmi siyasi dəstəyin verilməsini göstərir.
4	Nümayəndə heyətlərinin siyahıları	İctimai-siyasi Sənədlər Arxivi	Qurultaya gəlmiş nümayəndələrin adları, respublikalar, təşkilatlar	Bu siyahılar qurultayın əhatəsini, iştirakçı ölkələri / respublikaları anlamağa kömək edir.
5	Stenoqrafik hesabatlar (sessiyalar)	Prezident Arxivi / Kommunist Partiyası Arxivi	Qurultayda keçirilmiş sessiyaların çıxışları, müzakirələr	Çıxışların stenoqramı elmi dilçilik, əlifba dəyişiklikləri, terminologiya məsələlərini əhatə edir.
6	Məruzələr	Arxiv + nəşrlənmiş toplusu	Qurultayda təqdim olunan məruzələr: dil, əlifba, terminologiya, ədəbi dil	Məsələn, Cəlil Məmmədzadənin, F. Ağazadənin və digər elm xadimlərinin məruzələri.
7	Siyasi materiallar / şəxsi profillər	Prezident Arxivi / Kommunist Partiyası Arxivi	Qurultaya rəhbərlik edən şəxslər haqqında arxiv materialları	Qurultayın təşkilatçılarının partiya fəaliyyəti, ideoloji mövqeləri haqqında sənədlər də var.
8	Məktublar	Arxiv (siyasi / partiya)	Qurultay təşkilatçıları və iştirakçıları arasında yazışmalar	Bu məktublar qurultay planlaşdırılması, gündəmin formalaşması məsələlərini əks etdirə bilər.

9	Elmi sessiya materialları (yubiley konfransları)	**AMEA - Folklor İnstitutu**	“Birinci Türkoloji Qurultay: Görünən və Görünməyən Tərəflər” adlı elmi sessiya materialları	2016-cı ildə keçirilmiş sessiyanın materialları toplanıb və nəşr olunub.
10	Dövlət sənədləri / Prezident sərəncamları	**Azərbaycan Respublikası Prezidentinin Rəsmi Səhifəsi**	Qurultayın 100 illik yubileyinin keçirilməsi ilə bağlı sərəncam	22 oktyabr 2025-ci il tarixli sərəncam.

Birinci Bakı Türkoloji Qurultayına dair Azərbaycan arxivlərində saxlanılan sənədlər

Qurultayın elmi hissəsi: stenoqram və məruzələr- Arxivlərdə mühafizə olunan stenoqramlar Qurultayın elmi müzakirələrini canlandırmaq və təhlil etmək üçün zəngin, qiymətli mənbədir. Aşağıda qeyd olunmuş mövzular xüsusilə diqqət çəkir:

- **Türk dilərinin təsnifatı**

Əsas müzakirə detalları:

- Çuvaş dilinin türk dil qrupunda yeri
- Oğuz, karluk, qıpçaq dillərinin özünəməxsusluğu və türk dil qrupunda yeri
- Ortaq Türk dilinin mümkünlüyü.

Qeyd etmək lazımdır ki, bu müzakirələr müasir türkoloji təsnifat üçün baza rolunu oynamıdır.

- **Əlifba islahatı**

Latın əlifbasına transformasiya qurultay nümayəndələrinin ən çox diqqət ayırdığı məsələ idi. Arxiv sənədlərindən məlum olur ki:

- Azərbaycan nümayəndə heyəti digərlərindən fərqli olaraq ən hazırlıqlı qrup olub
- Otra Asiya respublikalarının nümayəndələrinin arasında fikir ayrılığı müşahidə olunub
- Moskva əlifba islahatından siyasi məqsədlər üçün istifadə edib.

Stenoqramlardan məlum olur ki, bəzi məruzəçilər əlifba islahatını “Türk dünyasının mədəni birliyi” istiqamətində fundamental məsələ hesab ediblər.

Texnologiya və elmi dil

Bir sıra məruzəçilər tərəfindən “ortaq türk elmi dili” ideyasını təklif olunmuşdur. Terminoloji komissiyanın arxiv materiallarında aşağıda qeyd olunmuş sahələr üzrə eyniləşdirmə (vahidlədirmə) cəhdləri müşahidə olunur:

- Dilçilik və terminoloji vahidlər
- Pedaqoji terminologiya və anlayışlar
- Elmi təsnifat vahidləri və kateqoriyaları

Bu məlumatlar türk elminin inkişaf perespektivini başa düşmək üçün xüsusilə əvəzedilməzdir.

Məxfi və tam məxfi sənədlərin araşdırılması

Azərbaycan arxiv fondlarında mühafizə olunan ən diqqətçəkən sənədlərdən biri də qurultayın işinə dair tam məxfi sənədlərdir. Bu sənədlər aşağıdakıları ehtiva edir:

✓ Sovet hakimiyyətinin Qurultaya ideoloji münasibəti;
✓ İştirakçı alimlər arasında “milliətçi meyllər” barədə qeydlər;
✓ Qurultayın qəbul etdiyi qərarların siyasi nəticələri üzrə aparılan daxili müzakirələr;
✓ Əlifba islahatının kommunist mədəni qavramındakı yeri;

Bu materiallardan Qurultayın siyasi istiqaməti daha aydın anlaşılır.

3. Arxiv materiallarının tarixi və elmi əhəmiyyəti

Türkoloji elmlərin inkişafı üçün mənbə

Arxiv marerialları türk dil qrupunun əsaslı tədqiq olunması üçün XXI əsrdə ən aktual hesab olunan malumatları özündə ehtiva edir:

- Dialektoloji materiallar
- Fonetik təsnifatlar
- Sintaktik paralellər
- Əlifba islahatının həyata keçirilməsi üçün təkliflər

Qeyd edək ki, bu materialların xeyli hissəsinə başqa mənbələrdə rast gəlinmir.

Sovet milli siyasətinin öyrənilməsi üçün əsas mənbə

Arxiv sənədləri aşağıda qoyulmuş suallara cavab verir:

- Sover hakimiyyəti və partiya türkologiya sahəsinə hansı üsullarla nəzarət edirdi?
- Türk dünyasının mədəni birliyi Moskva üçün hansı siyasi və strateji təhlükələr yaradırdı?
- Elmi fəaliyyətlər ideoloji çərçivələr daxilində hansı prinsiplərə əsasən məhdudlaşdırılmışdı?

Bu kimi suallar müasir türkoloji politologiya elmi üçün xüsusi əhəmiyyət daşıyan məsələlərdəndir.

Cədvəl 2

Sənəd növü	**Yaranma tarixi / mərhələsi**	**Məzmunun xarakteri**	**Qeyd**
Hazırlıq komissiyasının sənədləri	Qurultaydan əvvəl (1925–1926)	Təşkilati qərarlar, iştirakçı siyahıları, proqram layihələri	Qurultayın strukturunu müəyyən edən ilkin materiallar
Qurultayın gündəliyi və açılış	Açılış günü (26 fevral 1926)	Rəsmi çıxışlar, gündəliyin təsdiqi, təşkilati məsələlər	Qurultayın rəsmi başlanğıcını təsdiqləyən ilk sənədlər

protokollar ı			
Stenoqraml ar (mətndə tam yazılmış müzakirələ r)	Qurultayın gedişi (26 fevral – 5 mart 1926)	Dil, əlifba, fonetika, terminologiya ilə bağlı çıxışlar və debatlar	Ən geniş və elmi baxımdan əsas mənbə
Məruzələr və elmi təqdimatlar	Qurultay günləri ərzində	Türk dillərinin təsnifi, müasir dil islahatı, əlifba dəyişiklikləri	Akademik araşdırmaların təqdim edildiyi əsas hissə
Komissiya qərarları	Qurultay davam etdiyi müddətdə	Əlifba komissiyası, terminoloji komissiya və s.	Qərarların hüquqi və praktiki əsasları
Qətnamələr	Qurultayın sonunda (5 mart 1926)	Yeni türk əlifbası, dil islahatı istiqamətləri ilə bağlı yekun sənədlər	Qurultay nəticələrinin rəsmi şəkildə təsdiqi
Məktublar və yazışmalar	Qurultaydan əvvəl və sonra	Təşkilatçılar, alimlər və digər ölkələr arasında yazışmalar	Arxivlərdə saxlanan əlavə informativ material
Qurultay haqqında mətbuat məlumatlar ı	Qurultay dövrü və sonrası	Qəzet xəbərləri, rəsmi press-relizlər	Tarixi kontekstin öyrənilməsi üçün vacibdir

Birinci Bakı Türkoloji Qurultayına dair sənədlərin yaranma xronologiyası

- **Türk dünyasının mədəni inteqrasiyası**

Qurultayda müzakirə olunan materiallar türk xalqları arasında:

- ortaq əlifba
- terminlərin uyğunlaşdırılması
- elm sahəsində əməkdaşlıq
- kimi proseslərin ilk ciddi tarixi təzahürüdür.

Müasir tədqiqatlar üçün arxiv materiallarının istifadəsi

Azərbaycan arxiv fondlarında mühafizə olunan materiallar müasir elmin inkişafı üçün geniş tədqiqat imkanları yaradır.

Türk dillərinin tarixi rekonstruksiyası-Stenoqramlar və məruzələrdə önə sürülən dialekt faktları bu məsələnin inkişafı üçün zəruridir.

Sovet ideoloji mexanizmlərinin tədqiqi-Məxfi sənədlər sovet hökümətinin milli siyasətinin hansı formada işlədiyini real fakt və nümunələr əsasında göstərir.

Türkoloji düşüncənin XX əsrdə formalaşması- Qurultay sənədləri və müzakirə materialları dilçiliyin metodoloji inkişafını izləmə imkanı yaradır.
Əlifba və yazı islahatları tarixi- Latın qrafikalı əlifbaya keçidin elmi və siyasi istiqamətlərini araşdırma imkanı yaradır.

Azərbaycan arxiv fondlarında mühafizə olunan I Bakı Türkoloji Qurultayına dair sənədlər türkoloji elmlər, keçmiş sovet hökumətinin milli siyasətinin və türk xalqlarının mədəni inkişaf səviyyəsinin araşdırılması və öyrənilnməsi baxımından əvəzolunmaz informasiya mənbələridir. Bu arxiv materiallarından biz yalnız Qurultayın işini deyil, həm də dövrün siyasi, ideoloji səviyyəsini, elmi müzakirələrin əsas mahiyyətini və o dövr hökümətin mədəni strateji siyasətinin istiqamətlərini anlamağa imkan yaradır. Arxiv materialları istər türkoloji araşdırmaların metod və yanaşmalarının istərsə də türk xalqları qupuna aid olan millətlərin ortaq mədəni inkişafının formalaşmasını və inkişafını öyrənmək baxımından xüsusi əhəmiyyət daşıyan mənbələrdir. Bu informasiya materialları XX əsr türk fikrinin, dil və əlifba siyasətinin, mədəni və elmi münasibətlərinin, inteqrasiya proseslərinin tarixə həkk olunmuş yaddaşı adlandırıla bilər. Onların strukturlaşdırılmış və əhatəli araşdırılması Azərbaycan və bütövlükdə türk dünyasının elmi-mədəni irsinin daha yaxşı və dərindən anlaşılmasına şərait yaradır.

ƏDƏBİYYAT:

1. Latın əsaslı yeni türk əlifbası və i bakı türkoloji qurultayı [mətn] : Biblioqrafiya /tərtibçilər: K. V. Nərimanoğlu; ə. Ağakişiyev; s. Abdullayeva; red.: M. Vəliyeva, bakı: Çinar-çap, 2006, 40 s.: Ill., 23 sm.

2. Muradov, M. (2023). Bakida keçİrİlən bİrİncİ türkolojİ qurultay. *Philological issues are in the eyes of young researchers, 1*(1).

3. Səfərli, a. M. (2021). Birinci türkoloji qurultay iştirakçılarının repressiyasi: Hənəfi zeynalli. *Türk dİllərİnİn və ədəbiyyatinin tədqiqi və tədrisinin aktual problemləri* (pp. 79-82).

4. Xudiyeva, V. (2025). 1926-cı il i bakı türkologiya qurultayına aid sənədlərin tədqiqi. Akademik tarix və düşüncə jurnalı, 11(6), 4573-4579.

5. Https://azertag.az/xeber/birinci_turkoloji_qurultayin_80_illiyine_hesr_olunmus_elmi_konfr_ans_oz_isini_basa_chatdirmisdir-346218

6. https://president.az/az/articles/view/17825

ТЎРТ ТАХАЛЛУСДА ИЖОД ҚИЛГАН ВОИЗ - АДИБ

Умурзоқов Баҳриддин Сафарович,
Янги аср университети профессори
филология фанлари доктори (DSc), доцент

Шарқ мумтоз адабиётида тўртта нисба (ном ёки тахаллус) билан тилга олинадиган адиб ёхуд шоир кам учрайди. Ҳирот илмий ва адабий мактабининг етук намояндаси бўлган Мавлоно Ҳусайн Воиз Кошифий Сабзаворий ўғлининг атанишида, асарлари муқаддимасидаги ўзини танитувида эса (имзосида) мана шундай ўзига хослик мавжуд**: “Сафий”, “Кошифий”, “Ҳиравий”, “Фахрий”.**

Мавлоно Фахруддин Алий Сафий ибн Ҳусайн Воиз Кошифий ўз даврининг алломаларидан, XV-XVI аср Ҳирот адабий муҳити етук вакилларидан бири ҳисобланади. Ижодкор ўз асарлари муқаддимасида ўзини:

(عليّ بن الحسين الواعظ الكاشفى المشتهر بالصفى)

Яъни, «*Фахруддин Алий ибн Ҳусайн ал-Воъиз*[1] *Кошифий* – у «*Сафий*» тахаллуси билан танилган»[11, 2 b] дея танитган. Бошқа бир асарида, яъни ”Ҳирз ал-амон мин фитан аз-замон” (حرز الامان من تن الزمان) қўлёзмаси аввалида эса “*Алий ибн Ҳусайн Воъиз Кошифий Ҳиравий*”[2] (على بن الحسين الواعظ الكاشفى الهروى) деб таништирган 19,1 b].

Ўзбекистон Миллий Энциклопедиясидаги маълумотга кўра, Мавлоно Ҳусайн Воиз Кошифий (Мавлоно Камолуддин Ҳусайн ибн Алий Воъиз Кошифий Сабзаворий) 200 дан ошиқ асарлар муаллифи, ЎзР ФА ШИда алломанинг 45 номдаги асарларининг 197 та қўлёзма ва 75 та тошбосма нусхалари сақланади [20,7]. Воиз Кошифий ўз даврининг етук қомусий олими бўлиб, катта шон-шуҳратга эга бўлишига қарамасдан, унинг ҳаёти ва илмий мероси ҳақида адабиётшунослигимизда батафсил маълумот берувчи бирон та ҳам махсус йирик монография ёзилмаган.

Фахруддин Алий Сафий ҳақида эса ҳеч қандай маълумот йўқ. Мана шунинг учун ҳам фиҳрист-каталогларда, замонавий тадқиқотларда, ҳатто бу ота ва ўғил ижодкорни бир шахс деб ҳисоблаш ҳолатлари кўп учрайди.

Инглиз шарқшуноси Ч.А.Стори ўзининг “Персидская литература. Био-библиографический обзор” китобида “Тафсир-и Сафий” асари ҳақида мухтасаргина маълумот берган. Сторининг қайдига кўра, мазкур “Тафсир” Қуръоннинг бошидан то охиригача тасаввуфий шарҳ-изоҳ бўлиб, у шеърий, яъни маснавий жанрида битилгандир .

Ч.А.Стори ушбу “Тафсир-и Сафий”ни Ҳасан б. Муҳаммад-Боқир Исфаҳоний – ал-мулаққаб “Сафий”, яъни шоир Сафий Алий-шоҳга (ваф. 1316/1899) нисбат берган [14, 75] .

Биз Ч.А Стори ўз китобида маълумот берган “Тафсир-и Сафий” асари Фахруддин Алий Сафийга тегишли, деган сўздан, албатта, йироқмиз. Аммо Фахруддин Алий Сафий ҳам отаси ва устозига эргашиб, Жомий, Кошифий ва Навоийнинг вафотидан сўнг, кексалик ёшида арабий ва ёки форсий тилда «Тафсир» ёзган бўлиши мумкин, деб тахмин қиламиз ва ана шу асар қўлёзмасининг топилишидан умид қилиб қоламиз.

Фахруддин Алий Сафий ўз отаси Мавлоно Воиз Кошифийнинг «зу фунунлик», яъни *алломалик* мартабасига ҳавас қилгани аниқ.

«Сафий» (الصفي) тахаллусини шоирга устози Мавлоно Абдураҳмон Жомий бергани нақл қилинган. Аслида Фахруддин Алий ўзига «Зиё(уддин)» деб тахаллус танлаган ва бу ҳақда Абдураҳмон Жомийга айтганида, Жомий бундай жавоб қилган: «Сен «Зиё» тахаллусингни ўғлимга (Юсуфга) бергин – уни Зиёуддин Юсуф, деб атаймиз, ўзингга эса «Сафий» деб тахаллус қўйгил!»

Назаримизда Мавлоно Жомий бу тахаллусни “...ва ул зот билан табаррукланилгай” (و يتبرك به---) [13, 5 b] нияти ва умидида Жаноб Расулуллоҳ алайҳиссаломга нисбат берилган муборак исмлар орасидан танлаб берган. Чунки “Далоил ал-хайрот” асарида Ҳазрат Муҳаммад алайҳиссаломнинг 204 та “Асмоу-л-ҳусно”си (اسماء محمد صلى الله عليه و سلم), яъни маъноси чиройли исмлари берилган бўлиб, мазкур муборак исмларнинг 31-чиси “Сафиййй” (صَفِيٌّ)дир [3, 150].

Мавлоно Жомий янги ном берган ана кундан бошлаб Фахруддин Алий ёзган асарларига «Сафий», яъни *Алий Сафий*, деб тахаллус (имзо) қўя бошлайди [16, 9] .

Алий Сафийнинг яшаб ижод этган жойи, вафот этган ва дафн қилинган ери Ҳирот бўлгани учун «*ал-Ҳиравий*» (الهروي) деб ҳам аталган. Баъзи хориж тавсифларида, масалан, Туркия қўлёзма асарлар тўпламида Алий Сафий отаси Ҳусайн Воиз Кошифий Савзаворийнинг «ал-Байҳақий (البيهقي) , «ал-Валий» (الولي) нисбалари билан ҳам янглиш зикр қилинган [15, 30].

Алий Сафий бошқа тахаллуслар билан ҳам, масалан “***Фахрий***” *(فخرى)* тахаллуси билан ҳам зикр этилган [9, 150 a] .

Алоуддавла Йаҳйо Сайфий Ҳусайний Қазвиний Комий ўзининг “Нафоис ал-маъосир” (نفائس المعاثر) асарида ана шу ҳақда маълумот берган: “***Фахрий***” *машҳур муллозода бўлиб, мавлоно Ҳусайн Воиз Кошифийнинг ўғлидир. Муборак номлари Фахруддин Алий эди, баъзи асарларини “Сафий” тахаллуси била битибдур. “Рашаҳот” ул зотнинг ақлам-и анбар фоми (*яъни, мушки анбар қалами*)га тегишлидир*...”[9, 151 b] .

Аммо Фахруддин Алий Сафийнинг ўзи ғазаллари, шеърлари ва барча насрий асарларида “Сафий”(الصفي) тахаллус қилганини ёзган.

“Сафий” (الصفي) тахаллуси билан ижод қилган бошқа шоир ҳам бўлганми?

Тарихда “Сафий” (الصفي) тахаллусли кўп ижодкор ўтгани маълум. Масалан, “Луғат-нома-и Даҳхудо”да “Сафий” (الصفي) тахаллусли 11та шахс ҳақида маълумот берилган. Мазкур Қомус китобда 10-ўринда “*Сафий” – Мавлоно Сафий ибн Мавлоно Ҳусайн Воиз Кошифий*, ҳақида сўз боради. Луғат муаллифи Алий Акбар Даҳхудо Мавлоно (Фахруддин Алий) Сафийга “Мажолис ан-нафоис” асаридаги Навоийнинг таърифи ва маълумотини келтириш билан чекланган [6, 13214].

Алоуддавла Қазвиний Комий “Нафойис ал-маъосир” асарида “Сафий” (صفی) тахаллусли яна бир шоир ҳақида маълумот берган [9, 350 b] · Лекин бу шоирнинг ҳам ижодкоримиз билан тахаллусдош бўлгани маълум бўлди. Мазкур шоир Дору-л-малик Шероз(ий)нинг аёнларидан бўлиб, номи – Хожа Шайх Муҳаммаддир ва у толиби илмлардан бўлган.

“Нафойис ал-маъосир”да Хожа Шайх Муҳаммад - Сафийнинг “*Рухсор-и ту мусҳафе-ст, бе-саҳв-у ғалат…*” мисралари билан бошланган рубоийси келтирилган [9, 350 b]:

رباعي رخسار تو مصحفيست بي سهو و غلط كش كلك قضا نوشته از مسك فقط
جشم و دهنست آب و وقف ابرومد مزكان اعراب خال و خط حرف و نقط

Шарқшунос Ч.А.Стори ўзининг “Персидская литература. Био-библиографический обзор” китобида “Сафий” тахаллусини қўллаган яна бир шоир - Ҳасан б. Муҳаммад-Боқир Исфаҳоний – ал-мулаққаб шоир Сафий Алий-шоҳ (ваф. 1316/1899) ҳақида маълумот берган [14, 175]. Мазкур шоир Фахруддин Алий Сафий Кошифий Ҳиравийдан уч юз йил кейин яшаб ижод этган.

Бу шоирларнинг Алий Сафий Кошифий Ҳиравийга давр жиҳатидан ҳам, ижод борасида ҳам ҳеч қандай алоқаси йўқлигини маълум бўлди.

Тадқиқотчилар ўртасида Алий Сафийнинг вафот санаси борасида деярли мунозара йўқ. Биз “деярли” дедик, чунки ижодкорнинг вафот санаси борасида берилган маълумотларда ҳам ноаниқликлар бор. Қуйида шу хусусга ҳам аниқлик киритамиз.

Ижодкорнинг таваллуд санаси ҳақида эса тарихчилар, хусусан, эронлик тарихчи олимлар ва тазкиранавислар аниқ бир маълумот айтишмаган[3]. Эронлик тадқиқотчи Аҳмад Гулчин Маъоний ҳам «Латойиф ат-тавойиф» нашри аввалидаги ўз тадқиқоти муқаддимасида Алий Сафийнинг вафот санаси ҳақида сўз очади, аммо ижодкорнинг туғилган санасини келтирмайди. А. Г. Маъонийнинг ёзишича, Алий Сафий ҳижрий 939 санада, тақрибан 63 ёшида вафот этган [5, 10].

Бу маълумотга ҳам аниқлик киритиш лозим.

«Рашаҳот» асарида Алий Сафий ўзининг таваллуд йили ҳақида бундай ёзган: «Хизмат-и волидим (яъни, Ҳусайн Воиз Кошифий) алайҳи-р-раҳма

айтур эрдиларким, «Сен Жумъа кечаси Жумоду-л-аввал ойининг йигирма бирланчисида секиз йуз олтмиш етти (867 сана)да мутаваллид бўлдинг...»

Ҳижрий 867 сана милодий ҳисоб билан 1462–1463 йилга тўғри келади. 867 га 63 ни қўшсак – 930. Ҳолбуки, Алий Сафий 939 йилда вафот этган. 939 дан 63 ни олсак, 876 қолади. Алий Сафий: «867 санада таваллуд топган эканман», деб ёзган. Алий Сафийнинг 63 ёшда эмас, балки 73 ёшида вафот этгани маълум бўлмоқда.

Алий Сафийнинг Сабзаворда туғилганига «Рашаҳот»даги қуйидаги маълумот асос бўла олади: «Мен биринчи марта Самарқандга келиб, Ҳазрати Эшон (яъни, Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор –Б.У.) билан учрашиш шарафига муяссар бўлганимда, ул зот мендан: «Эй, йигит! Қаерликсан?» деб сўрадилар. Мен: «Туғилган ерим Сабзавор, аммо Ҳирийда (Ҳирот шаҳрида) нашъ-у намо топибдурман», деб жавоб бердим» [16, 9] .

Алишер Навоий «Мажолис ан-нафоис» (Нафосатли мажлислар) номли асарида Алий Сафий ҳақида бундай ёзган: «*Ул бағоят дарвешваш ва фоний, дардмандшева йигитдур. Ҳиротдан Самарқандга Ҳазрати Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор суҳбатига мушарраф бўлур учун борди ва андоқ дерларким, онда қабул шарафин топиб, иршод ва талқин саодатига сарафроз бўлуб, яна Хуросонга келди...*» [8, 132] .

Алий Сафий илк сабоқни замонасининг етук олимларидан бири бўлган ўз отаси Мавлоно Кошифийдан олган. У Ҳирот мадрасаларида илм таҳсил қилган. Абдураҳмон Жомий, Алишер Навоий ва бошқа Ҳирот олимлари, шоирлари билан кундалик мулоқотда бўлганини унинг «Латойиф ат-тавойиф» («Ажойиб лутф сўзлар») номли асаридан ҳам билиб олиш мумкин. Мазкур асарда Ҳиротнинг таниқли олимлари, шоирлари ўртасида бўлиб ўтган қизиқ ҳикоялар, латиф сўзлар, ҳикматлар, ҳозиржавобликлар ўз ифодасини топган.

Фахруддин Алий Сафий Мавлоно Ҳусайн Воиз Кошифийнинг ёлғиз фарзандидир. Тазкиранавислар ва тадқиқотчиларнинг бу ҳақдаги фикрлари бир хил [5, 3].

Эронлик тарихнавислар ва тадқиқотчиларимизнинг асарларида Мавлоно Абдураҳмон Жомий ва Мавлоно Ҳусайн Воиз Кошифий божа бўлишган, деган қараш бор [5, 4] .

Тарихчи олим, акад. Б. Аҳмедов эса «(Ҳусайн Воиз) Кошифий Абдураҳмон Жомийнинг қайин инисидир», деб ёзган [2, 202]. Ҳолбуки, «Рашаҳот» асарида эса Ҳусайн Воиз Кошифийнинг Абдураҳмон Жомийга ким бўлгани ҳақида аниқ маълумот баён қилинган. Алий Сафий ўз асарида Мавлоно Жомийга алоҳида боб ажратган. У Абдураҳмон Жомий таржима-и ҳолини муфассал баён қилар экан, бундай деб ёзган: «*Ушбу сатрлар муаллифига (*яъни, Алий Сафийга*) тўққиз юз тўртинчи сана Шаъбон ойида Мавлоно Саъдуддин қуддиса сирруҳу ҳазратларининг катта ўғли Хожа-и Калон хизматига кириш ва ул зотга домод (*куёв*) бўлиш насиб бўлди. Ва (*Мавлоно Хожа-и Калон*) мени бандаликка (*яъни, муридликка*) қабул*

*қилдилар. Шунда падарим алайҳир-раҳма (*яъни, Мавлоно Ҳусайн Воиз Кошифий*) дедиларки, «шул воқеъаки, бундан қирқ йил олдин (туш) кўрган эдим, мана шу соатда воқеъ бўлди, ўз таъбирини топди…»*

Алий Сафий «Рашаҳот»да Мавлоно Жомий таржимаи ҳоли баён қилинган боб охирида яна қуйидагиларни ёзган: «*Махфий қолмасинким, Ҳазрати Мавлоно Саъдуддин қуддиса сирруҳунинг валади бузрукворлари Ҳазрати Хожа-и Калоннинг икки қизлари бор эди. Бирига Мавлоно Жомий уйланган эдилар, иккинчи қизлари эса мен билан никоҳланди. Ва (қуйидаги мисралар) мана шу маънода айтилди:*

Қитъа:

Ду кавкаб-и шараф аз буржи Саъд миллат-у дин,
Тулуъ кард-у бар омад ба сони дурр зи садаф.
Аз-он яке ба зийо гашт байт-и ориф-и Жом,
Аз-ин ҳазиз ва бол-и Сафий шуд авж-и шараф”.

Таржимаси:

Икки шараф юлдузи миллат ва диннинг бахтиёрлик буржидан,
Дур садафдан чиққан каби нур сочиб чиқди.
Улардан бири Жом орифи уйининг нури бўлди,
Бу насибадан Сафийнинг қаноти шараф чўққисига етди [*7, 212].*

Демак, Абдураҳмон Жомий асли сабзаворлик бўлган Мавлоно Ҳусайн Воиз Кошифий билан эмас, балки унинг ўғли Алий Сафий билан божа бўлган.

Эронлик олим Аҳмад Гулчин Маъонийнинг ёзишича, «Рийоз ал-уламо» муаллифига кўра, Мавлоно Кошифий Ҳирот ва Мовароуннаҳрнинг бошқа шаҳарларида шиа ва рофизий фирқаларига мансуб деб танилган эди [5, 17]. Аслида эса, Мавлоно Кошифий ва ул зотнинг ўғли Алий Сафий Аҳлу-с-сунна ва-л-жамоа эътиқодида ва ҳанафий мазҳабида эдилар. Бунга уларнинг ёзган асарлари яққол мисол бўлади.

Отасининг вафотидан кейин Ҳиротнинг катта жомеъсидаги ваъз, хитобат иши Алий Сафийга қолди. ««Ҳабиб ас-сийар фи ахбор-и афрод-и башар» («Башар аҳли сийратидан хабар берувчи дўст») асари муаллифи Ғиёсиддин Муҳаммад ибн Хожа Ҳумомиддин ибн Хожа Жалолиддин Муҳаммад ибн Бурҳониддин Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Мавлоно Хондамир (тав.1473 - ваф.1534.) бу ҳақда қуйидагиларни ёзган: «929 ҳижрий сана (мил. 1522 й.) Мавлоно Камолуддин Ҳусайннинг фарзанд-и аржуманди Мавлоно Фахруддин Алий отаси ўрнига қоими мақом (ўринбосар) бўлди. Жумъа сабоҳи у Ҳирот жомеъсида – бу жомеъ барча файз оладиган муборак бир ердир – халққа насиҳат қилур, барчани Ҳаққа даъват этур эди. Ғоят хуш, балиғ, чиройлик нутқ қилур ва бу хитоб-иршоди билан кўнгилларга сурур бахш этур...» [5, 5; 18, 45].

Фахруддин Алий Сафий ҳам ўз отаси каби воизликда шуҳрат қозонган. Ҳирот жомеъси бош имоми сифатида фаолият юритган.

«Туҳфа-и Сомий» асарига ишланган миниатюра «Мавлоно Фахруддин Алий Сафийнинг ваъз мажлиси» деб номланади [5, 40]. Бу миниатюра Фахруддин Алий Сафийнинг Ҳирот илмий муҳитида ўзига хос мавқе эгаси бўлганига далолат қилади. Миниатюрадаги расмда Алий Сафий марказда тасвирланган бўлиб, у соқоли қоп-қора, қирқ-қирқ беш ёшли инсон қиёфасидадир. У курсида ўтирган ҳолда жамоатга жумъа маъвизаси асносида хитоб қилмоқда:



Алий Сафий *хатоба* (ваъз иши, воизлик)да тахминан олтмиш ёшларида ўз отасидек ҳақиқий машҳурликка эришган, Ҳирот халқининг, аркони давлатнинг, муаррихлар ва мусаввирларнинг назарига тушган. Алий Сафий ўн йилдан ортиқ вақт мобайнида Ҳиротнинг бош воизи сифатида фаолият юритади.

Ҳижрий 938 сана Рамазон ойининг 29-куни (мил. 1531 й.) Убайдуллоҳхон ўз лашкари билан Ҳирот ташқарисига келди ва бу шаҳарни қамал қилди. Сув, озиқ-овқат каби шаҳар халқи учун келадиган ёрдам йўлини батамом тўсиб қўйди. Аҳвол кундан-кун ёмонлашади. Иш шунга бориб етадики, халқ ит ва мушук гўшти ейишга мажбур бўлди. Айни сананинг Рабийъу-л-аввал ойининг 14-куни (мил. 1531 й.) Шоҳ Тахмосб Ҳирот халқига ёрдамга келди. Убайдуллоҳхон чекинди ва Ҳирот қамалдан озод бўлди.

Алий Сафий «Латойиф ат-тавойиф» асари дебочасида ёзишича, у 939 ҳижрий сананинг (мил. 1532 й.) охирида Ҳирот қамалидан кейин турли қийинчилик ва бало-уқубатлардан узоқ бўлиш мақсадида Ғуржистон (Ҳирот, Ғур, Марваруд ва Ғазна оралиғидаги тоғли ноҳия)га – Шоҳ Муҳаммад Сайфу-л-мулук хизматига борган [5, 12].

Шоҳ Муҳаммад Сайфу-л-мулук Алий Сафийга ҳурмат кўрсатади. Шу боис Алий Сафий кўп таҳликалардан омон қолган. Чунки бу даврда суннийлар ва шиаларнинг тортишувлари авж олган эди.

Алий Сафий ўзига кўрсатилган иззат-у ҳурматдан хурсанд бўлиб, Шоҳ Муҳаммадни мақтаб бир қасида ёзади. Шоир мазкур қасидасида азоб-уқубатлардан қандай омон қолганига алоҳида урғу берган. Аммо Алий Сафийнинг хотиржамлиги узоққа бормайди.

Ўша йили Шоҳ Тахмосб Сафавий (Шоҳ Тахмосб – “Тахмосп I, Шоҳ Тахмасиб” номлари билан танилган Эроннинг иккинчи ҳукмдори. У 3 марта 1514 й.да туғилган, 1576 й.да вафот этган. Шоҳ Тахмосб сафавийлар давлатининг асосчиси Шоҳ Исмоилнинг тўнғич ўғли ҳисобланади, тахтга отасидан кейин ўтирган) Ғуржистонга ўз амирларини қўшин билан юборди. Улар шаҳарни қўлга киритадилар. Шоҳ Тахмосбнинг ўзи эса Машҳадга юриш қилади.

Ғуржистон ўт-олов, уруш чангалида қолган кунлар Алий Сафий бу шаҳардан қочади ва Ҳиротга қараб йўл олади. Бу сафар Алий Сафий учун оғир йўлчилик бўлган. У охирги бир йил мобайнида бошидан ўтказган азоб-уқубатлар таъсирида йўлда – Ҳирот яқинида вафот этади. Бу ҳақда «Анвору-л-қудсиййа» асарида бундай маълумот берилган: «У (яъни, Алий Сафий) Ҳирот ташқарисида вафот этди. Унинг жасади Ҳирот шаҳри ичига олиб кирилди ва дафн қилинди. Бу воқеа ҳижрий 939 сана (мил. 1532 й.)да содир бўлди» [19, 137].

Эронлик тадқиқотчи Аҳмад Гулчин Маъоний фикрига кўра, Фахруддин Алий Сафий бу вақтда олтмиш уч ёшда бўлган. Аммо бизнингча, бу вақтда Алий Сафий 73 ёшда бўлган. Бу хусусга юқорида аниқлик киритдик.

Алломанинг қабри ҳозирда Ҳирот шаҳридаги Ихтиёриддин қалъаси яқинида, улкан чинор остида – отаси Ҳусайн Воиз Кошифий қабри билан ёнма-ён жойлашган [5, 12].

Тадқиқотчи С. Болтабоев “Тафсир-и Ҳусайний”нинг Туркия фондларида сақланаётган қўлёзма нусхалари тадқиқига бағишланган мақоласида “Ҳусайн Воиз Кошифий Сабзавор шаҳрида вафот этган ва ўша ерда дафн бўлган”, деб ёзган. С. Болтабоев бу мазкур маълумотни қайси манбадан олганини кўрсатмаган.

Бизнингча, бу янглиш. Чунки ҳатто Эронлик олимлардан А.А.Муъйнийнийон ва А.Г.Маъоний ҳам “Рашаҳот” ва “Латойиф ат-тавойиф”га бағишланган йирик тадқиқот-нашрларида ота ва ўғил Кошифийларнинг бир-бирига яқин жойлашган қабрлари фото-суратини эълон қилишган [5, 19]:

472

Фахруддин Алий Сафий мозори.Ҳиротдаги Ихтиёриддин қалъаси яқинида жойлашган.

Фахруддин Алий Сафий қабртошидаги ёзув арабий бўлиб, қуйидагичадир:

هذا مرقد منور مولينا الاعظم فخر الملة و الدين على المشتهر بصفى ابن مولانا المغفور الواعظ الكاشفى قدس الله اسرارهم قد توفى في شهر رمضان المبارك سنه ثلاث و ثلاثين و تسعمائه

Таржимаси: “*Бу бизнинг устозимиз, миллат ва диннинг фахри бўлган зот (яъни, Фахруддин) Алийнинг нурли қабридир, ул зот «Сафий» номи билан машҳурдирлар ва Мавлоно ал-мағфур ал-Воъиз ал-Кошифийнинг ўғлидирлар – Аллоҳ таъоло ҳар икковларининг мозорларини мунаввар айласин! Ул зот (яъни Мавлоно Алий Сафий) муборак Рамазон ойида тўққиз юз ўттиз учинчи йил вафот этди*.”

Мавлоно Фахруддин Али Сафийнинг мозор тоши.

Аҳмад Гулчин Маъоний ўз китобида тўғри ёзганидек, бу қабртошида Алий Сафийнинг вафот санасига олти йил етишмайди [5, 52] · Дарҳақиқат, Алий Сафийнинг вафот санаси ҳижрий 933 эмас, балки ҳижрий 939 санадир.

Баъзи тадқиқотларда Фахруддин Алий Сафийнинг вафот санаси милодий 1503 кўрсатилган [17, 212] . Ҳолбуки, юқорида айтганимиздек, Алий Сафий ҳижрий 939 сана (мил. 1532-1533 й.)да вафот этган.

Фахруддин Алий Сафийнинг оила қургани ва кимнинг хонадонига куёв бўлгани ҳақида юқорида батафсил тўхталдик, аммо унинг фарзандлари бор ё йўқлиги ҳақида эса қўлёзма манбаларда ҳам, замонавий тадқиқотларда ҳам бирон-бир маълумот тополмадик.

Юқорида баён қилинганлардан келиб чиққан ҳолда, айтиш мумкинки, шу кунгача адабиётшунослигимиз ва тасаввуфшунослигимизнинг тадқиқ доирасидан четда қолиб келаётган Мавлоно Фахруддин Алий Сафий илмий-алабий мероси тафсилотли ўрганилмаган. ЎзМЭда Алий Сафий ҳаёти ва ижоди ҳақида эса умуман маълумот берилмаган. Шу боис бу ижодкорнинг ҳаёти, илмий-адабий фаолиятига доир маълумотларни янги манбалар асосида тадқиқ этиш ижолкор илмий-адабий меросининг мумтоз адабиётимиз тарихида тутган ўрнини белгилаш имкониятини яратади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Анвор ал-қудсиййа фи маноқиб ас-содоти ан-Нақшбандия. Босма.– Миср, 1344/1925.
2. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Босма.– Тошкент.: Ўқитувчи, 1991.; Навоий
замондошлари хотирасида // Тўпловчи: Б.Аҳмедов. – Тошкент., 1985.
3. Далоил ал-хайрот. Босма. –Макка,2012./
الدلالات الواضحات على دلائل الخيرات و شوارق الانوارفى ذكر الصلاة على النبي المختار للامام ابى عبدالله محمد بن سليمان الجزولي ،

، تاليف: يوسف بن اسماعيل النبهانى، ه 1433 – م2012 ،نسخة مكة المكرمة، ص150

4. Kara, Mehmed. Yeseviyenin temel kitabi «Cevahiru-l-ebrar min emvaci-l-bihar. / Ahmed-i Yesevi – Hayati, eserleri, tesirleri. – Istanbul, 1996. «Seha».
5. Латойиф ат-тавойиф. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди. Қўлёзма № 3655.
6. Луғатнома-и Алий Акбар Даҳхудо. – Теҳрон, 1334 - 1258./
لغت نامهء دهخدا، جلد نهم، علي اكبر دهخدا،1258 - 1334-هجرى-شمسي ،ص 13214.
7.Мавлоно Фахруддин Алий Сафий. Латойиф ат-тавойиф. – Теҳрон, 1373/1953.
8.Мажолис ун-нафоис. 12-жилд. – Тошкент., 1966.
9. Нафоис ал-маъосир.ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди. Қўлёзма № 800.
10. Одоб ал-асҳоб. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди. Қўлёзма №11726.
11.Рашаҳот. ЎзР ФА ДАМ қўлёзмалар фонди. Қўлёзма № 33/2.
12. Рашаҳот. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди. Қўлёзма № 632.

13.Рашаҳот. ЎзР ФА ДАМ қўлёзмалар фонди. Қўлёзма № 33.
14. Стори Ч.А. “Персидская литература” био-библиографичесуий обзор”. Перевод с английского, переработал и дополнил Ю.Э.Брегель. Том 1. Изд. “Наука”.- Москва, 1972.
15. Türkıye yazma eserları toplu katalogu. – Ankara, 1994.
16. Фахруддин Алий Сафий. Рашаҳот. – Т., 2004.
17.Эркинов А., Полвонов Н., Аминов Ҳ. Муҳаммад Раҳимхон II – Феруз кутубхонаси фиҳристи. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2010.
18. Хондамир. «Башар аҳли сийратидан хабар берувчи дўст» китоби. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ҳақидаги боблар. Форс тилидан таржима, кириш сўзи ва изохлар муаллифи: Бекжонов И. – Тошкент.: SHAPQ, 2011.
19. Ҳирз ал-амон мин фитан ал-замон. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди. Қўлёзма № 8303/2.
20.ЎзМЭ, 5-том. – Тошкент., 2003.

IMLO BUXORIY SHE’RIYATINING MAVZULAR KO‘LAMI

Bekova Nazzora Jo‘rayevna,
BuxDU professori, f.f.doktori
Komilova Zebiniso Botir qizi.
BuxDU magistranti

O‘zbekiston mumtoz adabiy merosi Sharq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Unda diniy, axloqiy va falsafiy g‘oyalar mujassam bo‘lib, asrlar davomida xalq ma’naviyatini shakllantirishga xizmat qilib kelgan. Shunday bebaho durdonalardan biri bu - “Devon Imloyi Buxoriy”dir. Mazkur asar Alhoda nashriyoti tomonidan chop etilgan bo‘lib, uning tayyorlanishida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti mutaxassislari bevosita ishtirok etishgan. Qo‘lyozmalar asosida tiklangan ushbu nashr nafaqat adabiyotshunoslar, balki tarixchi va ma’naviyatshunoslar uchun ham qimmatli manba hisoblanadi. Bugungi kunda milliy merosni o‘rganish, uni yoshlarga yetkazish va adabiyotning tarbiyaviy ahamiyatini kengaytirish dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtayi nazardan “Devon Imloyi Buxoriy”ni tadqiq etish nafaqat tarixiy zarurat, balki bugungi kun uchun ham muhim ilmiy vazifadir.

“Devon Imloyi Buxoriy” tarkibida diniy-ma’rifiy, tasavvufiy, axloqiy va falsafiy ruhdagi ko‘plab she’rlar jamlangan. Asarda Allohga muhabbat, ilmning ahamiyati, sabr-toqat, halollik, dunyoga haddan tashqari berilmaslik kabi mavzular keng yoritiladi.Bunga misol tariqasida quyidagi misrani keltirishimiz mumkin.

Forscha:

Ey mah-e hosn,posht-e nazar kon be su-ye ma
Zahed shekaste bad do dastat kea z hasad
Bostan-e ons, banda mag‘ir az gonah
‘Efvat makon, made be nowbahar sabu-ye ma

Ma’nosi:
Ey go‘zallik oyidek yuzli, biz tomonga nigoh tashla,
Ey zohid, hasad sabab qo‘llarin sinib kestin.
Ey mehr bog‘i , guhoh uchun qo‘limni ushlama,
Poklik qilmaysanmi, bahorning qadahini bizga bermaysanmi.

Ushbu misrada shoir guhoh qilishdan qaytish, hasad qilmaslik,doimo pok bo‘lish kabi fazilatlarni ilgari surgan.Shoirning asosiy maqsadi insonni ruhiy poklanishga, komillikka va ma’naviy yuksalishga chorlashdir. She’rlarda dunyo boyliklari va mol-mulkning o‘tkinchiligiga urg‘u berilib, haqiqiy baxt faqat ilm, diyonat va ruhiy tozalikda ekanligi uqtiriladi. Asarda ilmga berilgan yuksak e’tibor ham alohida o‘rin tutadi. Shoir ilmni insonning qalb ko‘zgusi deb biladi. Ilm orqali inson nafaqat dunyoviy, balki oxirat saodatiga ham erisha oladi. Shu bois devon o‘z davrida ilm ahliga katta ta’sir ko‘rsatgan. Adabiy xususiyatlari “Devon Imloyi Buxoriy” o‘z davrining yuksak badiiy namunalaridan biridir. She’rlarda tashbeh, istiora, tajnis, tanosib kabi badiiy san’atlar keng qo‘llangan.Masalan:

Forscha

Doshman bovad kasi ke namayad dava-yi ma,
Juz ‘ishqi dust, kist shavad rahnama-yi ma?
Az ghayr khar sar ke guzarad ba pa-yi ma?
Ghayr az riza-yi dust che bashad riza-yi ma?
Bashad hazar martaba kamtar baqa-yi ma,
Az may shavad gushada dil-i bi-nava-yi ma.

Ma’nosi:

Bizning dardimizga davo ko‘rsatgan kishi-dushman bo‘lur,
Do‘stning ishqidan boshqa kim bizga yo‘l ko‘rsatadi?
Begonadan tikan va ranjdan boshqa narsa oyog‘imiz ostiga tusharmikan?
Do‘stning rizosidan boshqa narsa biz uchun rozi bo‘lishi mumkinmi?
Bizning umrimiz ming marotaba oz bo‘lsa ham,
May(ishq sharobi) bilan g‘amgin ko‘nglimiz ochilib,kengayadi.

Misralarda ko‘pincha Qur’on oyatlari va hadislarning ma’nolari badiiy tarzda ifodalangan bo‘lib, ular asarga diniy-falsafiy ruh bag‘ishlaydi.

Forscha:

Ki bud tan parvarīdan pesha-yi atvor-i mā
Boshad az afghān-i bulbul rawnaq-i gulzor-i mā
Az tama’ parhez mī-so‘zad dil-i bīmār-i mā

Pur bud az husn-i ān mah kūcha-yi bozār-i mā
Dar guzar az fikr-i ta’mīr-i fano, memār-i mā
Maslahat rā xanda mī-āyad ba īn kirdār-i mā

Tarjimasi:

Tanparastlik - bizning yo‘limiz emas,
Bulbul nolasidan yashnar bog‘imiz, nafas.
Tama’ni tark etish - dil dardiga davo,
Go‘zal mah husnidan to‘lgan bizning ko‘chamiz.
Biz - foniy dunyo ta’miridan o‘tgan me’morlar,
Bizning bu yo‘limizdan maslahat ham kuladi, azizlar.

Tahlil:

Bu baytlarda shoir nafsni tiyish, sabr, va ruhiy yuksalish g‘oyasini kuylaydi. “Tanparastlik” - moddiylik, nafs quliga aylanishni bildiradi; shoir esa bunga qarshi ruhiy poklikni qo‘yadi.

Bulbul nolasining “gulzarga fayz berishi” - inson qalbidagi dard va muhabbatning yaratuvchan kuchini ramziy ifoda etadi.

Tama’dan voz kechgan “dil bemor” - Alloh ishqida kuyar qalbdir.

Shoir dunyoning o‘tkinchi ta’miridan voz kechib, fanoga - o‘zligini yo‘qotish orqali haqiqiy komillikka intiladi. Bu - naqshbandiyona tafakkur, tasavvufning asosiy ma’nosi.

Giryayi shām o sahar az kaf made dar rāh-i ‘ishq
Muhtasib oftad ba pāy-i kham, kharābātī shavad
Jon fido kardan nishon-i himmat-i mardān ke hast
Az firāq shu’la khūyī ān qadar kāhīda’im
Boda-nūshī sāz, amlō az malāmat gham makhur
Shu’la-yi xūbī ān qadar mā rā basūkht o barīda’im

Tabdili:

Ishq yo‘lida kecha-yu kunduz yig‘lashni qo‘yma,
Bir kun muhtasib ham mayxonaga yiqilar, xarobotlik bo‘lar.
Jonni fido etish - mardlikning eng oliy belgisi,
Ayriliq alangasi bizni shunchalar so‘ndirdi, yo‘qotdi.
May ich, ey do‘st, malomatdan qo‘rqma, g‘am yema,
Go‘zalning shu’lasidan biz kuydik, tozalangandek bo‘ldik.

Tahlil: Bu she’r ishq, sadoqat va fano (yo‘q bo‘lish) g‘oyalariga bag‘ishlangan. Shoir kecha-kunduz yig‘lashni - ya’ni Allohni sevish yo‘lida sabr bilan iztirob chekishni - poklanish vositasi deb biladi. “Muhtasib” - riyokor din egasi ramzidir; u ham oxirida ishq mastligiga taslim bo‘ladi. Jonni fido etish - sufiyona mardlik belgisi. Bu “nafsni qurbon qilish”dir. May ichish - tasavvufda “ilohiy mastlik”, ruhiy ozodlikni bildiradi. Shoir “go‘zalning shu’lasidan kuyish”ni ma’naviy tozalanish, Alloh ishqida yo‘q bo‘lish deb talqin qiladi.

Shoirning ijodi Alisher Navoiy, Hofiz, Sa’diy kabi mumtoz shoirlarning an’analari bilan uyg‘unlashib ketadi. Ammo u bu g‘oyalarni o‘z davrining ijtimoiy hayotiga moslashtirib, milliy adabiy muhitda qayta talqin qilgan.

Devonning yana bir o‘ziga xos jihati uning tilida namoyon bo‘ladi. Fors-tojik adabiyotiga mansub bo‘lishiga qaramay, unda turkiy xalqlarga xos iboralar, ma’naviy qadriyatlar ham sezilib turadi. Bu esa asarning keng kitobxonlar ommasiga yaqinlashuviga xizmat qilgan.

Ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyati. Bugungi kunda “Devon Imloyi Buxoriy”ni o‘rganish yoshlar tarbiyasi uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki unda ilgari surilgan g‘oyalar - halollik, sabr-toqat, ilmga chanqoqlik, dunyo lazzatlariga berilmaslik va Allohga muhabbat - har bir inson uchun umumbashariy qadriyat hisoblanadi. Asar yoshlarni milliy va diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda, ularni vatanparvar, diyonatli va komil inson sifatida shakllantirishda katta o‘rin tutadi. Devon nafaqat adabiy meros, balki ma’naviy-ma’rifiy qo‘llanma vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, globallashuv sharoitida yoshlarning ongini turli yot g‘oyalardan asrashda, ularni milliy o‘zlik va madaniyatga sodiq etib tarbiyalashda bunday mumtoz asarlarning o‘rni beqiyosdir.

“Devon Imloyi Buxoriy” Sharq mumtoz adabiyotining bebaho yodgorliklaridan biridir. U o‘zida diniy, axloqiy va falsafiy g‘oyalarni mujassam etib, nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, “Devon Imloyi Buxoriy” milliy adabiy merosimizning yorqin namunasi bo‘lib, u nafaqat o‘tmishni anglash, balki bugungi va kelajak avlodni ma’naviy tarbiyalashda ham beqiyos ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Devon Imloyi Buxoriy. – Eron: Alhoda nashriyoti, yil.
2. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalari fondi.
3. Karimov, I. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Sharq mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Universitet, 2012

“QISSAI SAYQALIY” ASARINING KOMPOZITSIYASI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Soyipov Sunatulla Normatovich,
JDPI dotsenti

XVIII asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan Sobir Sayqaliy o‘z davrining taraqqiyparvar ijodkorlaridan biri bo‘lib, u o‘z davrida o‘zbek dostonchiligining eng ilg‘or an’analarini davom ettirib, ko‘plab qimmatli asarlar yaratdi.

Shuningdek, Sayqaliy haqida bizgacha bironta ham mufassalroq biografik ma’lumotlar yetib kelmagan. Shoirning ilmiy biografiyasini yaratish uchun bundan keyin qunt bilan ilmiy tadqiqot olib borish talab etiladi [1.5].

Sobir Sayqaliy ijodiy merosini ilmiy jihatdan o‘rganish 1960 yillardan boshlandi. Bu davrgacha shoir asarlaridan namunalar “O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi”, “O‘zbek adabiyoti yodgorliklari” kitoblaridan o‘rin olib keldi [2.50].

Po‘lotjon Domulla Qayyumiy ham «Tazkirai Qayyumiy»ning XVIII-XIX asrlardagi o‘zbek adabiyoti tarixiga oid qismida shoir haqida qisqacha ma’lumot bergan [3.73].

Uning eng nufuzli asarlaridan biri “ Ravzat ush-shuhado” dostonidir. Ushbu doston asosan payg‘ambarlar tarixiga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir Mazkur dostonning kirish qismidan so‘ng payg‘ambarlar bayoni bobiga o‘tiladi. Unda dastlab Odam alayhissalom qissasi hikoya qilinadi. Ushbu bob 94 bayt (188 misra) ni tashkil etadi va dardu g‘am Odam Ato yaratilmasdan oldinroq bani bashar taqdiriga bitilganligi, xususan, dashti Karbalodagi xunrezlik oqibatida Imom Husayn shahid bo‘lishi voqeasiga to‘xtalinadi. So‘ngra esa Olloh ta’oloning qudrati bilan Odam Ato yaratilib, unga jon ato qilingani va jannatdan unga makon berilib, ulug‘langani bayon etiladi. Keyingi misralarda Odam Atoni Iblis alayhilla’na yo‘ldan urib, uning Momo Havvo bilan birga jannatdan quvilishiga sabab bo‘lgani va ming pushaymonlardan so‘ng, ularning tavbalari Olloh ta’oloning lutfu inoyati bilan qabul bo‘lgani keltiriladi va Odam Ato va Momo Havvo ikki yuz yildan so‘ng Yerda bir-birlarini izlab topgani, so‘ngra ular ikki o‘g‘il, Qobil va Hobil va ikki qiz, ya’ni to‘rt farzand ko‘rganliklari qisqacha bayon etiladi.

Yana mazkur bobda Odam Ato o‘g‘illariga qizlarini nikohlagani, shuningdek, Qobilga Iqlima ismli qizini aqd qilinishi, so‘ngra u shaytonning vasvasasi bilan Hobilning xotiniga ega bo‘lmoqchi bo‘lib, Qobil Hobilni o‘ldirishi, uning jasadini yerga ko‘mishi va Odam Atoga g‘oyibdan judolikka sabr etmog‘i voqeasi tasvirlanadi. Bob oxirida muallif Imom Husaynning shahid ketganini bu a’za bilan bog‘lab, voqealarga xulosa yasaydi va keyingi bobga o‘tadi. Unda muallif Jabroil alayhissalomning hazrati Imom Husayn oliy shahodatidan xabar bergani to‘g‘risidagi voqeani “Kanz ul-g‘aroyib” asaridan qissa sifatida keltiradi va ushbu qissada Jabroil alayhissalom tilidan Imom Husaynning muborak boshi tanasidan judo qilinishi voqeasi bayoni beriladi va u bob g‘azal bilan yakullanadi.

Keyingi bob “Qissai Nuh nabiyullohu alayhissalotu vassalam” deb nomlangan bo‘lib, u 45 bayt (90 misra) dan iboratdi. Bu bobda 950 yil umr ko‘rgan Nuh payg‘ambarning o‘z qavmini Islomga da’vat etishi va bu yo‘lda u o‘z qavmidan ne-ne qiyinchiliklar ko‘rgani, qavmi tomoidan toshbo‘ron qilingani, shuningdek, ko‘plab aziyatlar chekkani va so‘ngra Nuh alayhissalom Olloh ta’olodan o‘z qavmiga balolar yog‘ilishini so‘ragani va shu bois Nuh to‘foni ostida kofirlarning qirilshi tafsiloti beriladi. Mazkur bob ham an’anaviy

tarzda Muhammad payg‘ambarning suyukli nabiralari shahodati bayoni bilan yakunlanadi.

Navbatdagi bob “Qissai hazrati Ibrohim xalilur-rahmon salavotullohi alayhi vasallam” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bob 60 bayt (120 misra)ni tashkil etadi. Mazkur bob Ibrohim Xalilullohning Namrud tomonidan ko‘p qiynoqlarga solingani va u Ollohning amri bilan bunday holatdan omon chiqqani haqidagi voqealar tasviri bilan boshlanadi. Shuningdek, Ibrohim Xalilullohning Ismoil alayhissalomni qurbonlikka keltirishi va Jabroil alayhissalom buyrug‘iga binoan jannatdan qurbonlik uchun bir qo‘y yuborilgani haqidagi rivoyat shu bobdan o‘rin olgan bo‘lib, ushbu bob ham Karbalo voqeasi haqidagi rivoyat bilan yakunlanadi.

Sobir Sayqaliy mazkur dostonda pag‘ambarlar tarixini tafsiloti bilan bayon etar ekan, Imom Hasan bilan Imom Husaynning fojiali shahodatini mazkur voqealar bilan chambarchas bog‘laydi va uni asar kompozitsiyasiga mohirlik bilan singdirib yuboradi. Bu orqali shoir dostonning mazmuni bilan shakl mutanosibligini ta’minlashga erishadi.

Navbatdagi bob “Surai Yusuf alayhissalotu vassalam qissasining nozil bo‘lganining sabablari” deb nomlangan bo‘lib, u 33 bayt (66 misra)dan iborat. Ushbu bobda Qur’oni Karimdagi Yusuf alayhissalom qissasining Jabroil alayhissalom tomonidan Muhammad sallallohu alayhi vasallamga yekazilganligi haqidagi voqealar keltiriladi. Quyidagi misralar bu boradagi fikrimizga asos bo‘la oladi:

بَسی بو قصصضغه اَحسَن دیدی هِی
تَسَلّی اگّی شَهزاده غه بولغای
بولاَر هَم چون حَسَن بیرلا حسَین بَس
بو قصّه معنیسین بیلسه کیرَک گس
اگّی تورلیک بو قصّه ابتیداسی
بیری یعقوب بیری یوسوف بَلاسی
جُدالیغده کویوب یعقوب بولیب کول
که بولدی ساکین بَیت الحزان اول
کوریب یوسوف بالای گاهی زندان
نیچه ییل قول بولوب اول ماهِ گنعان
آنینگ اوچون بو سوزلار موشتَرَکدور
بَیان اَیلای ایشیت قَیسی دَرَکدور [2.18].

Keyin "Yusuf alayhissalom qissasi" bayon etiladi. Bu qissa 9 bobdan iborat bo‘lib, ularning umumiy hajmi 503 bayt (1006 misra)ni tashkil etadi. Mazkur qissa Yusufning akalari tomonidan chohga tashlanib, uning xo‘rlanganligi tafsiloti bilan boshlanadi va akalaidan biri Yahudo har kuni akalaridan yashirin holda choh boshiga kelib, Yusuf bilan so‘zlashqanligi va akalari bundan xabar topib, Yahudoni o‘zlari bilan olib, Yusufning libosini qonga belab, uni Ya’qub alayhissalom huzuriga olib borganliklari va Yusufni bo‘rilar yeb ketganligini aytib otasini aldaganliklari, keyin esa Yusuf akalari tomonidan Molik ibn Zarga yetti nosira dirhamga qul sifatida sotganliklari voqeasi tasvirlanadi.

Ushbu bob oxirida ham Sobir Sayqaliy qissa ichida qissa shaklida Hazrati Imom Husayn raziyallohu anhuning xavorijlar tomonidan shahid qilingani haqidagi hikoyani keltiradi. Xususan, asarda muallif bu voqea haqida shunday baytlarni keltiradi:

دیدیلار حوسین اولکگن سونگ بَس
بویوردی اول عُمَر سعَد آتلی ناگس
کیسیب آلیب شَهیدلار باشلارینی
اَلَم اَیلانگلار نِیزه َلارینی
مُبارَک تَنلاری میدانده قالدی
زَمین تیترَب زَمان لَرزانه اولدی
یانه اَمر اَیلادی اول دَم عُمَر سعد
حُسین نینک اَهلی بیتین اَنده مِن بعد
شَهیدلار اورتاسیدین اوتکَرینگلار
یانه قالغان یورَکلارینگ یارینگلار
خَواریجلار کوچیریب اول حَرَمنی
نیچه گُلدَسته ی باغِ اِرَمنی
جونادیلار آلیب سوسی میدان
اوشَال میدان اَرا قانلار توکولگان .[2.39]

Muallif shu joyda ham Imom Husayn raziyallohu anhu qissasini keltiradi va so‘ngra Yusuf alayhissalom rivoyatlarini bayon qilishda davom etadi.

Dostonda keltirilishi bo‘yicha Misr azizi Yusufni Zulayxo xizmatiga qo‘yadi. Zulayxo unga ko‘ngil berib, izhori muhabbat qiladi. Yusuf g‘ayri shar’iy amalni rad qilganidan so‘ng Zulayxo uni zindonga soldiradi. Yusufning zindondagi holatini shoir quyidagicha tasvirlaydi:

دیدیلار پِتّی ییل یوسوفِ پاک
که اول زندان اَرا پِتّی باسیب خاک
فراق اوتیغه کویوب اول دیلَفروز
که ییغلار ایردی تینمای کیچه کوندوز
که تا حَتی که زندان اَهلی دِلِ تَنگ
بولاب یوسوف بیلا اَیلار ایدی تانگ
دیر ایردیلار دَم آلماسین اَیا قول
کیچه کوندوز قیلورسان مونچه غولغول
بیزَم سنینگدیک گِرفتار بلامیز
زَن و فَرزَند راهَتیدین جُدا میز
سَنینگ نالَنگ قیلور بیر یاندین اَفلاک
کیل ایمدی ییغلامه سَن مونچه بِسیار .[2 .45]

Dostondagi Yusuf va Zulayxo qissasini Sayqaliy Yusuf alayhissalomning zindondan otasi Ya’qub alayhissalomga xabar yuborgani bilan yakunlaydi. Asar muallifi “Yusuf va Zulayxo” qissasini muxtasar tarzda hikoya qilganligi va uning tafsilotiga berilmaganligining sabablarini quyidagicha izohlaydi:

خدا اوز لُطفیدین اَیلاب سر افراز

آتا بیرلا اوغیلنی قوشقوچی باز
بو قصّه شَرهیدور عالَمغه مَشهور
بیلای دیسَنگ قصَّصلارنی باریب کور
مَنی مِسکینگا یوقدور اِستیتاعَت
قصَّصنی نَظم ایتَرگا با نیهایَت
یازای نَظم ایتیب هَر اِبتلاسین .[2 .46]

Bu bobining nihoyasida ham Sobir Sayqaliy yana an’anaga muvofiq Imom Husaynning Karbaloda shahid bo‘lgan voqeasiga to‘xtaladi va uni asarning ichki mantig‘iga mahorat bilan bog‘laydi. Muallif inson umrining bebaqoligi va bu dunyodagi ishlarni iloji boricha tezroq nihoyalash zarurati haqida o‘ziga nasihat qilib, qissani yakunlamoq mavridi kelganligiga ishora qiladi va u “Yusuf va Zulayho” qissasining Sharq xalqlari orasida keng tarqalganligini nazarda tutib, tafsilotga berilishni lozim topmay, bunga qiziqqanlarning qissalarga murojaat etishlarini tavsiya qiladi.

Shunlardan bizga ma’lumki, mazkur mavzuda yaratilgan dostonlar barchasi “Qur’on” dagi “Yusuf” surasiga asoslanadi. Bu haqidagi rivoyatlarda Ya’qub payg‘ambarning o‘g‘li husnda va aqlda tengi yo‘q Yusuf akalari tomonidan qul sifatida sotilgach, u Misrga kelib qoladi. Misrda uning xojasi xotini Zulayxo Yusufga nisbatan o‘z muhabbatini izhor etadi, lekin Yusuf uning muhabbatini rad etadi. Yusuf shu sababli Zulayxo tomonidan zindonga tashlanadi. Ko‘p o‘tmay, Fir’avn o‘zining vahimali tushlari ta’birini bilish uchun uni zindondan ozod etadi. Bu tushlar yaqin orada mamlakat va xalq boshiga kelayotgan qahatchilikdan dalolat berishini Fir’avnga Yusuf alayhissalom oldindan bashorat qiladi. Yusufning ta’biri to‘g‘ri chiqqach, Fir’avn saltanatni unga topshiradi. Shu tariqa Yusuf nafaqat Misr, balki boshqa mamlakatlarni ham ocharchilikdan saqlab qoladi. Ocharchilik va qahatchilikdan qiynalib najot istab Misrga yo‘l olgan kishilar ichida Yusufning qavmu qarindoshlari bilan bir qatorda uning akalari ham bo‘ladi. Yusuf akalarini ko‘rib, ularning gunohlaridan kechiradi va ularni Kan’on (Livan)dan Misrga ko‘chirib keltiradi.

Shuningdek, mazkur rivoyat asosida Firdavsiy, Rabg‘uziy, Durbek, Abdurahmon Jomiy va boshqa shu kabi ijodkorlar nazmda va nasrda asarlar yaratganlar.

“Qissai Sayqaliy” dostonining keyingi bobi 174 bayt (348 misra) she’rdan iborat bo‘lib, unda hazrati Ayyub alayhissalom haqidagi rivoyat bayon etiladi.

Usbu rivoyatga ko‘ra Ayyub alayhissalom ikki o‘g‘il farzand ko‘rib, 40 yil shodu xurramlikda yashaydi. Uning 400 quli, 40 dan ortiq bog‘u bo‘stoni va sanoqsiz molu dunyosi bo‘ladi. Kunlarning bir kuni to‘fon ko‘tarilib, kuchli sel yog‘ib, uning bor molu dunyosidan, bog‘u bo‘stonidan asar ham qolmaydi. Ayyub alayhissalom boshiga har qancha g‘amu anduh kelsa, hammasi Ollohdan ekanligini anglab, hamisha Olloh ta’oloning zikrida bo‘lib, sabr-toqat qiladi. Ofat ustiga ofat, g‘amu anduh ustiga yangi-yangi balolar kelsa ham Ayyub alayhissalomning irodasini sindira olmaydi. Kunlardan bir kuni

mehmondorchilik vaqtida Ayyubning barcha farzandlari uy qulab tushishi natijasida halok bo‘ladilar. Ayyub falakning bu kirdikorlariga ham sabr-toqat qilib, ko‘zlaridan bir tomchi ham yosh oqizmay, Olloh ta’ologa shukrlar qilishda davom etadi. Shunday balolardan yana biri shuki, Ayyub alayhissalomning butun vujudiga qurt yopishadi. Bu halokatni shoir quyidagicha tasvirlaydi:

که ایردی بو بَلاکیم تورت مینگ قورت
مُبارَک جیسمینی اَیلار ایدی قوت
بیر ایردیلار تمام عَذالارینی
که اوچ عُذویدین اوزگا جالارینی
ایکّی کوزی ایلا تیل و یورَک بَس
اول گس ایردی سونگک ایلا که رَگ بَس . [2 .51]

Shu holatda ham Ayyub Ollohga faryodu nola qilmasdan o‘zini Olloh ta’olo hukmiga topshirib, sabr-toqatning yuksak namunasini ko‘rsatadi va yaratganning zikru yodi bilan mashg‘ul bo‘ladi.

Bu borada xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, dostondan keltirilgan iqtiboslarning barchasidan ko‘rinib turibdiki, “Qissai Sayqaliy” dostoninining kompozitsiyasi o‘ziga xos xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Shunday ekan, o‘z asarida muallif Imom Hasan va Imom Husaynlarning fojiali qismatlarini badiiy talqin etishda payg‘ambarlar tarixiga oid asarlardan va shuningdek, xalq kitoblaridan o‘rinli hamda unimli foydalanganligini ko‘ramiz.

Sayqaliy o‘z asarining xalqchil bo‘lishi va yanada ta’sirchanligini ta’minlash maqsadida asarning har bir bobiga Imom Hasan va Imom Husainlarning fojiali tarzda shahid bo‘lganliklari voqeasini qissa ichida qissa shaklida ustalik bilan singdirib yuborganligi bu boradagi asarlar yaratish bo‘yicha yangi bir yo‘nalishni boshlab berganidir.

Shuningdek, dostonda ma’rifat va jaholat, yovuzlik va ezgulik o‘rtasidagi kurash Qobil va Hobil voqeasidan boshlanganligi, Imom Hasan va Imom Husaynning fojiali taqdiri inson tabiatidagi xunrezlikka moyillik tuyg‘usi bilan bog‘liq ekani Odam alayhissalomdan Muhammad alayhissalomgacha bo‘lgan payg‘ambarlar kechmishi misolida yorqin ifodasini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Сайқалий. Баҳром ва Гиландом. – Тошкент., 1960. –Б., 5.
2. Ўзбек адабиёти хрестоматияси. – Тошкент., 1945. 2-том., –Б. 50.
3. Пўлотжон домулла Қаюмий. Тазкераи Қаюмий. 1918. – Б., 73.
4. قصّه سَیفَلی Алишер Навоий номидаги Давлат Адабиёт музейи. ИН. № 77. – Б. 4, 6,18, 39, 45, 46, 51.

“TAZKIRAYI SHUARO” QO’LYOZMALARIDA MASNAVIYLARDAGI MATNIY FARQLAR

Do‘stova Surayyo Savronovna,
JDPU dotsenti. f.f.f.d. (PhD)

Hasanmurod Laffasiyning «Tazkirai shuaro» asari bo‘yicha hozirga qadar bir qator tadqiqotlar [4.62, 15.88, 2.33, 14.6, 9.118, 10.328] amalga oshirilgan bo‘lsa-da, uning mavjud qo‘lyozmalari va nashri o‘rtasidagi matniy farqlar, ularning yuzaga kelish sabablari, asarning adabiyotshunoslik va tazkiranavislik tarixidagi o‘rni, tazkiranavislik an’analarini o‘rganishdagi ahamiyati yaxlit tarzda tahlil etilmagan.

«Tazkirayi shuaro»ning O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 9494, 11499, 12561 raqamli va O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyidagi 213 raqamli qo‘lyozma nusxasi turli yillarda ko‘chirilgan. “Tazkirayi shuaro”dagi shoirlar ijodidan namuna she’rlarning qo‘lyozmalarda va nashrda berilishini quyidagicha aniqladik.

1. 9494 raqamli qo‘lyozmada 31 ta she’r – 1 ta tarix, 30 ta g‘azal berilgan.
2. 12561 raqamli qo‘lyozmada 139 ta she’r – 7 ta tarix, 1 ta qasida, 1 ta musaddas, 3 ta muxammas, 5 ta ruboiy, 122 ta g‘azal berilgan. 136 ta masnaviy ham keltirilgan.
3. 213 raqamli qo‘lyozmada 162 ta she’r – 18 ta muxammas, 1 ta mustahzod, 143 ta g‘azal mavjud.
4. P.Bobojonov nashrida 105 ta she’r – 1 ta musaddas, 2 ta tarix, 1 ta muxammas, 1 ta ruboiy, 100 ta g‘azal, 98 ta masnaviy ham bor.
5. A.Otaboev nusxasida 109 ta she’r – 2 tarix, 1 ta musaddas, 1 ta muxammas, 5 ta ruboiy, 100 ta g‘azal berilgan.

Qo‘lyozma nusxalar va nashrning tuzilishi bo‘yicha farqlarga ko‘ra, 11499 raqamli qo‘lyozma nusxa faqat ma’lumotlardan iborat. 9494 raqamli qo‘lyozmada 18 shoir haqida ma’lumot-she’r, 30 ta shoir haqida faqat ma’lumot, 3 ta shoirning namuna she’ri tarzida berilgan. 213 raqamli qo‘lyozmasida esa 29 ta shoir haqida ma’lumot-she’r, 23 ta shoirning namuna she’ri mavjud. 12561 raqamli qo‘lyozma hamda P.Bobojonov nashri masnaviy-ma’lumot-masnaviy-namuna tarzida tuzilgan bo’lib 60 yaqin shoirlar berilgan.

«Tazkirayi shuaro» qo‘lyozmalari va nashrini o‘rganishimiz jarayonida shoirlar sonining berilishi, nomlarining tartib raqamlarda keltirilishi, tazkiraga shoirlarning kiritilishi, shoirlar ijodidan namuna she’rlar sonining berilishi, tazkira nusxalarining tuzilishi, g‘azallar va masnaviylarda farqlar mavjudligi aniqlandi.

«Tazkirayi shuaro» asarining qo‘lyozma nusxalari va nashrini qiyoslashda Laffasiyning o‘zi tomonidan asarda yozilgan masnaviylarida tafovutlar borligi

aniqlandi. O‘rganishlar natijasida, asarning 9494 va 11499, 213 raqamli qo‘lyozma nusxalarida masnaviylar berilmaganligini, 12561 raqamli qo‘lyozma va P.Bobojonov nashrida esa masnaviylar mavjudligining guvohi bo‘ldik. U.Xamroev va U.Karimovlar 12561 raqamli qo‘lyozma haqida «Imtiyozli nusxaning yana bir fazilati shundaki, muallif biror shoir haqida so‘z yuritishdan avval, shoirning xarakteriga taalluqli tavsifni ifodalovchi masnaviy ilova qilgan» [15.79], deb yozadi. Darhaqiqat, 12561 qo‘lyozma nusxa va P.Bobojonov nashrida har bir shoir haqida bitta yoki ikki-uchtadan masnaviylar berilgan. Masnaviylarda har bir shoirning nasl-nasabi, fazilatlari, fe’l-atvori, she’rlari, asarlari haqida fikr yuritiladi. 12561 raqamli qo‘lyozmada masnaviylar soni 145 ta bo‘lsa, P.Bobojonov nashrida 110 ta masnaviylar berilgan. Qo‘lyozmalarda va nashrda berilgan ba’zi masnaviylar matnidagi tafovutlarni biz quyidagicha qiyosiy tahlil qildik:

1) masnaviydagi qisqargan baytlar;

2) masnaviy so‘zlaridagi o‘zgarishlar;

3) nashrda berilmagan masnaviylar.

Masnaviydagi qisqargan baytlar. 12561 raqamli qo‘lyozma nusxaning 5[b] varag‘ida *Munis Xorazmiy* haqida 3 baytli masnaviy berilgan, shu masnaviy nashrda ham mavjud, biroq masnaviyning oxirgi bir bayti P.Bobojonov nashrida uchramaydi:

فلکدین کوریبان آنچه ستملار بسی

جکر خون بغیر بریانلار بسی

Murodiy haqidagi masnaviy qo‘lyozmaning 29a,b varaqlarida 5 bayt berilgan. Bu masnaviy P.Bobojonov nashrining 26-betida ham berilgan va u 8 baytdan iborat. 4 bayti qo‘lyozma bilan bir xil berilgan, keyingi 3 bayt qo‘lyozmada berilmagan.P.Bobojonov nashrida:

Murodiykim, shahzodayi ofoqdur,
Bo ‘lub nazm ichra ajab muvofiqdur.
Feruzga ham birodar bo ‘lub,
Nazmi xirad ichra bir gavhar bo’lub.
Bu abyoti shirinni qilmish ayon,
Murodiy debon taxallus qildi bayon.

Bundan keyingi bayt har ikkalasida ham mavjud.

Qo‘lyozmada: مرادی گه علمو فن ضیاد کیلی

انینگ طبعی فیروز گه مقبول کیلیب

P.Bobojonov nashrida: Murodiyga ilm fan maqbul kelib,

Oning ta’bi Feruzga maqbul kelib.

Qo‘lyozmadagi “ziyod” o‘rniga P.Bobojonov nashrida “ma’qul” so‘zi qo‘llangan. Bu yerda “ma’qul” so‘zining qo‘llangani to‘g‘riroqdir.

Masnaviy so‘zlaridagi o‘zgarishlar. 12561 raqamli qo‘lyozmaning 10[b] va 11[a] varaqlarida *Ziyrakiy* haqida masnaviy berilgan. Masnaviy 4 baytdan iborat. Birinchi bayt:

زیرک وطنی خوارزم دیاری

اول بر غریب دهقان باله سی

Ushbu bayt P.Bobojonov nashrining 17-betida quyidagicha berilgan:

Ziyrak vatani Gurlan qal’asi,

Ul bir g‘arib dehqon bolasi...

Bu baytlarning birinchisida Ziyrakni «Xorazm diyori»dan deyilsa, P.Bobojonov nashrida «Gurlan qal’asi»dan ekanligi aytilgan. Har ikkalasida aytilgan joyni ham to‘g‘ri desa bo‘ladi, chunki Ziyrak Xorazm diyori Gurlan qal’asida tug‘ilgan. Biroq Bobojonov nashrida 12561 raqamli qo‘lyozmaga qaraganda aniqroq qilib, Xorazmning Gurlan qal’asidan ekanligi aytilgan. Ammo yuqoridagi masnaviyning oxirgi to‘rtinchi bayti P.Bobojonov nashrida berilmagan:

شیعری کی عجب لطافت

عشق دیدی عجب بلاغت

Rojiy haqidagi masnaviy qo‘lyozmaning 17b varag‘ida va P.Bobojonov nashrining 14 betida bir xil tafovutlar mavjud bo‘lmagan, 3baytli masnaviy berilgan. 18 a varaqda ham Rojiy haqida yana bir masnaviy mavjud. Bu masnaviy P.Bobojonov nashrining 15 –betida berilgani bilan tafovutlari bor. Birinchi bayt qo‘lyozmada:

Rojiykim, ustozi xattotdur,

Ko‘rub falakdin sitam Farhoddir.

P.Bobojonov nashrida esa:

Rojiykim, ustoz hattotdur,

Ko‘ribon falakdin ancha zulm Farhoddir.

Bunda “xattot” o‘rniga “hattot” , “ko‘rub” o‘rniga “ko‘ribon”, “sitam” o‘rniga “ancha zulm” so‘zlari qo‘llangan. “Xattot” so‘zi x ya’ni خ bilan yozilganda chiroyli husnixat bilan yozuvchi bo‘ladi. Bu masnaviyda Rojiyning chiroyli husnixat egasi ekanligi va bu borada ustoz ekanligi aytilgan.

Nashrda berilmagan masnaviylar. *Farrux* haqida 12561 raqamli qo‘lyozmaning 33[a] varag‘idagi masnaviy P.Bobojonov nashrida berilmagan:

ای کی کورمایسن وفا ظالم فلکنی چرخیدین

دونی حمّت بولمغیل یتسه ستم دلداری دین

ای کی کور میسن فلک قلدی نیچه شاه نیچه کدا

نیچه مُرسل انبیا نی قیلدی ییر قوینی کا جا

قویمادی هرگیز قولاق فریادی غه

Qo‘lyozmaning 26 b varag‘ida *Komil* haqida yana masnaviy berilgan:

کامل کی اسرو سوخندان ایرور

موتیع شهنشاه دوران ایرور

كامل كى عجب خوشبيان ايرور
نظم زيورى گه بر دوران ايرور
ديدى بو غزل نى هموں نوكته دان
قلم رخشن سورب خوش روان

Yuqorida berilgan bu masnaviy P.Bobojonov nashrida berilmagan.

Tazkira qo‘lyozmalari hamda nashri turli davr, turli maqsadda tayyorlangani bois shoirlar sonini, ularning nomlarini tartib raqamlarda ko‘rsatilishi, asarning so‘z boshisi va tuzilishi, ijodidan namuna she’rlarning berilishi, g‘azallar va masnaviylardagi tafovutlar yuzaga kelgan.

Tadqiqotimizdan shu narsa aniq bo‘ldiki, bizningcha, matnni nashrga tayyorlashda bitta emas, balki bir necha qo‘lyozma nusxani o‘rganib chiqish lozim bo‘ladi. Shunday qilinsa, adabiyot tarixida manbalar mukammalligi va ishonchliligi ortadi.

Tazkira qo‘lyozmlari va nashridagi matniy tafovutlar muallifning turli talab va ehtiyojlarga ko‘ra matnni mukammallashtirish yoki ixchamlashtirish uchun amalga oshirgan tahriri, kotib va noshirlarning matnni noto‘g‘ri talqini natijasida yuzaga kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Дўстова С. Баёний девонининг 1120 рақамли қўлёзмаси. Туркий халқлар филологиясида фундаментал тадқиқотлар ва инновацион технологиялар номли халқаро илмий амалий конференция. Нукус 2022. Нукус давлат педагогика институти. 79- бет.

2.Жалилов О. Ҳасанмурод Лаффасий. –Т.: Ўзбекистон, 1983. –Б.33.

3.Жумахўжа Н. ва Адизова И.Сўздин бақолироқ ёдгор йўқдур. . –Т.: Ўзбекистон, 1995. –Б. 8, 98-99.

4.Иброҳимова Э. Хива шоир ва адабиётчиларининг таржимаи ҳоллари // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент. 1963. – № 6. –Б. 62-64.

5.Комил Аваз. Олис оҳанглар. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1997. –Б.36.

6.Laffasiy. Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondi 9494 raqamli qo‘lyozma $2^{a,v}$, 14^{a} varaqlar.

7.Laffasiy. Tazkirayi shuaro. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondi 12561 raqamli qo‘lyozma 39^{v} varaq.

8.Laffasiy. Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondi 11499 raqamli qo‘lyozma 10^{a} varaq.

9. Лаффасий. Тазкираи шуаро. Урганч. Хоразм. 1992.-Б.41

10.Лаффасий. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент. ЎМЭ, 2003 .– Б. 238.

11.Матёқубова М. XIX асрнинг иккинчи ярми XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи: Тарих фан. номз.... диссер. –Урганч, 2008. –Б.50.

12.Отамуродова А. Абдураҳимов О. Маоний арсаси. –Т.: Tafakkur qanoti, 2012. –Б.38.

13.Раҳим Д., Матрасул Ш. Феруз.–Т.: EXTREMUM PRESS, 2011.-Б. 238.

14.Самандарова С. XX аср тазкиралари: Филол.фан. номз... дис. автореферати. – Тошкент, 1996. –Б.6.

15. Хамроев У., Каримов У. Хива шоирлари тазкирасининг нусхалари // Адабий мерос. –Тошкент. 1981. – №4. Б.-77-80.

16.Эркинов А.С., Полвонов Н. Т., Аминов Ҳ.А. Муҳаммад Раҳимхон II-Феруз кутубхонаси феҳристи. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. –Б.8.

17.Юсупов Ю. Хоразм шоирлари. – Т.: Бадиий адабиёт, 1967. – Б.91

18. https//science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4818

19.https//science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4819

20.https//science.i- edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4836

21.https//science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2375

7421 RAQAMLI “XORAZM TARIXI” QO‘LYOZMASI

Do‘stova Surayyo Savronovna,
JDPU dotsenti. f.f.f.d. (PhD)

Shoir va tarixchi olim, tarjimon, xattot, musiqashunos, tibbiyot ilmining bilimdoni Muhammad Yusuf Bayoniy XVIII asrning ikkinchi yarmida va XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitida yashab ijod etgan. “Jo‘shqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog‘ida unib-o‘sgan, xalqimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg‘uziy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko‘plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan”[1.241]. Muhammad Yusuf Bayoniy “ulug‘vor falsafiy ruhiyatni o‘z g‘azalllarida nafis ifoda etgan shoir, tarixnavis alloma, zarqalamli xattot, bir necha tillarni mukammal bilgan tarjimon, sozanda va maqomshunos olimdir”.[7.31]. Shu ma’noda Bayoniy adabiy merosini mukammal o‘rganish va avlodlarga yetkazish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Bayoniyning “Xorazm tarixi”[5.91] asari qo‘lyozmalari Vatanimizning kutubxonalarida saqlanmoqda. Ulardan biri O‘zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy qo‘lyozmalar fondida 7421 raqam ostida saqlanadi.

Qo‘lyozma muqovasi qora qattiq karton bilan qoplangan, yaxshi saqlangan, muqova o‘lchami 22x35, 92 varaqdan iborat, qora va qizil ranglarda chiziqli

qog‘ozga yozilgan, nasta’liq xatida bitilgan, poygir qat’iy qo‘yilgan, har bir betga 21 qator yozuv joylashtirilgan, titul varag‘iga 7421 raqamli muhr bosilgan.

1[a] varaqda “Tarixi Xorazm. Muhammad Yusuf almutaxallus bol Bayoniy”, deyilgan. 1[b] varaqning yuqori qismida “Bu Xorazm tarixidur” deyilgan. Ushbu varaqda “Bismillohir Rahmonir Rahim”, deb asar boshlangan va Allohga hamd va na’t berilgan. Hamd va na’t orasida 9 baytli “Fazli inoyating uchun uhb ahli ey parvardigor” nomli gazal berilgan va unga qizil rang bilan “muallifi Bayoniy” deb yozib qo‘yilgan.

2[a] varaqda na’tdan so‘ng Bayoniyning 26 misra she’ri berilgan. 2[b] varaqda yana Bayoniyning 20 misra “Birinjisi bu Bakrdur yori g‘or”, deb nomlangan masnaviysi berilgan. 2[b]-4[a] varaqlarda “azj va qusur vodiysininig hechmadoniy ya’ni Muhammad Yusuf almutaxallus bol Bayoniy ibni hazofotnishoni Bobojonbek g‘afforAllohu zanubahum satara uyubahum mundog‘ arz qiladur” deyilib, turli sifatli yaxshi va nopok ishlar qiluvchi insonlar haqida turli ma’lumotlarni bergan. Ma’lumotlar berish bilan birgalikda kitobning yozilish sabablari “mulk va millatning toji ya’ni Pahlavon Niyoz hoji bu faqiri haqirg‘a dedilarkim, Xorazm viloyatida vaqoe’g‘a yetgon vaqe’oti hayratoyotni kitobat qaydig‘a kirguzmak sizga lozimdur, ne uchun bu ishda talil ko‘rguzursiz muning bila elning ibrat ko’zlari ochilur, bu sizga muluk va millatning bir ulug‘ xizmatidur. Albatta bu xizmatga ehtimom ko‘rguzub etimomg‘a yetkurung, tokim sizdin va bizdin bu dahrda bir yodgor bo‘lg‘ay” deb aytib o‘tilgan.

Bayoniy ushbu asarning yozilishi uchun kim farmon berganligini ham asarning 5[a] varag‘ida da yozib qoldirgan: “hijratning ming uch yuz yigirma to‘qquzlanji yilida Asfandiyorxon faqirg‘a amr etdikim, hamul Munis va Ogahiyning ta’lifotlarin ommag‘a fahm va oson iboratlar bila yozib otamizning zamonlarida bo‘lg‘on voqe’otni ham kitob qaydig‘a kirguzub, hammasin bir mujalladda jam’ qilg‘il tokim avom xalqi ham ondin bahra olib jahonda bizlardin bir yodgor bo‘lg‘ay”.

Kitobga qaysi voqealarni kiritganligi haqida ham Bayoniy avvaldan ma’lumotlar berib ketgan: “bas faqir Munis va Ogahiyning ta’lifotlarin topdim magar Muhammad Aminxon, Abdullaxon va Qutlimurodxonning voqe’otlarining kitoblari topilmadi. Muhammad Rahimxoni soniyning yeti yilg‘i voqeasi ham topilmadi, bahrihol kitobni avvaldin boshlab Muhammad Aminxonnning voqe’otig‘a kelguncha ravon iboratlar bila tahrir silkiga chekdim. Ondin so‘ng Muhammad Aminxonning zamonida xizmatg‘a orolashib yurgon qori kishilardin bir necha kishilarni topib ul voqealarni olardin so‘rab diqqat bila so‘zlarin tahqiqg‘a yetkurub Muhammad Aminxon, Abdullaxon, Qutlimurodxon va Muhammad Rahimxoni soniyning voqe’otlarin kitobat qaydig‘a kiguzdim, so‘ngra so‘z Asfandiyorxonning zamonig‘a oid bo’ldi, ondin so ng o‘zidin istifsor etdimkim oyo sizning zamoningizda vuqu’g‘a yetgon voqe’alarni ham bu kitobning oxirig‘a mindarj etilgani munosibmu yo yo‘q”.

Asarda voqealarni yozishda haqiqatni yozish kerakligi, rost so‘zni aytish kerakligi haqida ham bayon etilgan: “ta’rixning bir sharti budurkim muarrix tarafdorliq etmay so’zni rostliq bila bayon etmagi kerakdur. Agar mundoq bo‘lmasa so‘zlari hech bir ahli xiradg‘a maqbul bo‘lmasdur. Bas takallufot munshiyonadin kanora tutub so‘zni omma fahm va xosi pisand bo‘lg‘on iboratlar zaminida bayon etgumdur tokim hamma bu nusxadin bahra olib hammaga maqbul bo‘lg‘oy va Asfandiyorxonning zamonida o‘tgon voqe’otni ham rostliq bila kitobat qaydig‘a kirguzurmankim, ahli xibratg‘a bois ibratdur.”. So‘ngra 5[b] varaqda kitobning boblari bayon etilgan. “Bas bu kitob nekim “Xorazm ta’rixi”dur o‘n olti bobg‘a mushtamal etildi:

Avvalg‘i bob Odam va Nuh alayhissalomning holotlari bayonida

Ikkilanji bob Yofasdin Qo‘g‘irot sho‘basig‘acha va mo‘g‘ulxonlari zikrida

Uchlanji bob Qurlos avlodidin xon bo‘lg‘onlar zikridakim bularning oxiri Abulg‘ozixon ibn Yodgorxondur

To‘rtlanji bob Qo‘ngirot xonlari zikrida

Beshlanji bob Muhammad Amin inoqning voqeoti bayonida

Oltilanji bob Avaz inoqning holotlari bayonida

Yettilanji bob Eltuzarxonnning holoti bayonida

Sakkizlanji bob Muhammad Rahimxonning ahvoli bayonida

To‘qquzlanji bob Ollohqulixonnning ahvoli bayonida

O‘nlanji bob Rahim qulixonning ahvoli bayonida

O‘n birlanji bob Muhammad Aminxonning voqe’oti bayonida

O‘n ikkilanji bob Abdulloxonning ahvoli bayonida

O‘n uchlanji bob Qutlimurodxonning holoti bayonida

O‘n to‘rtlanji bob Sayid Muhammadxonning ahvoli bayonida

O‘n beshlanji bob Muhammad Rahimxoni soniyning ahvoloti bayonida

O‘n oltilanji bob Asfandiyorxonning zamonida o‘tgan voqe’otlarning bayonida”.

6[a] varaqdan boshlab “Avvalg‘i bob Odam va Nuh alayhissalomning holotlari bayonidadur”, deb Odam alayhissalom, Nuh alayhissalom, Shish alayhissalom, Som ibn Nuh alayhissalom, Hom ibn Nuh alayhissalom haqida ma’lumotlar berilgan.

10[a] varaqda 2-bob boshlangan va 16[b] varaqda bu bob yakunlangan. Unda Turk, Almanjaxon, Yoqutxon, Alnajaxon, Mo‘g‘ulxon, Qoraxon, O‘g‘uzxon, Kunxon, Oyxon, Yulduzxon, Elxon haqida, ularning dunyoga kelishlari, ishlari, yurishlari haqida ma’lumotlar berilgan.

17[a] varaqdan 3-bob boshlangan, 51[b] varaqda bu bob yakunlangan. Bu bobda Yulduzxon, Dabun Bayonxon, Bo’znajrxon, Buqaxon, Dartumaninxon, Qayduxon, Boysanqarxon, Tumana xon, Qablxon, Barton bahodir , Sevgi (yasvaki)bahodir, Chingizxon ibn yasvaki Bahodir, Jo‘jixon , Botuxon, Bo‘rkxon, Mangu Temurxon, Tudomanguxon, To‘qtog‘uxon, O‘zbakxon, Jonibakxon, Berdibekxon, Yodgorxon, Abulakxon, Omangxon, Elbarsxon,

Sulton Hojixon, Hasanqulixon, So‘fiyonxon, Buchg‘oxon, Avonishxon, Qolxon, Oqotoyxon , Yunusxon, Do‘stxon, Hojam xon, Arab Muhammadxon, Habash va Elbarsxon, Asfandiyorxon, Abulg‘ozixon avval, Anushaxon, Xudoydodxon,Orangxon, Jo’jixon, Valixon, Sohniyozxon, Shoh baxtxon, Sayid alixon, Musoxon, Sherg‘ozixon, Bahodirxon, Elbarsxon, Tohirxon, Nuralixon, Abulg‘ozixon soniy, G‘oyibxon, Qaroboyxon, Temur g‘ozixon, Tavkaxon, Shoh g‘ozixon, Jahongirxon, Bulagoyxon, Oqimxon, Abdulazizxon, Ortuq go‘zixon, Abdullaxon, Yodgorxon, Abulfayzxon, Fo‘lodg‘ozixon, Abulg‘ozixon rob’, Abulg‘ozixon xos haqida ma’lumotlar berilgan.

52[a] varaqdan 4-bob boshlangan va 59[b] varaqda bu bob yakunlangan. Unda Qoljidoyxon, Qadonxon, Soljidoyxon, Joyilg‘onxon, Mungoxon, Orslon xon, Denuyonxon, Turkomalxon, Tanimko‘rogon, Musoko‘rogon, No‘qay no‘yon, Og‘adoy bahodir, Nag‘doybi, Horun mirzo, Qatliqbi, Mangish bahodir, Musobiy, Oqmon bahodir, Haqnazar sirtlon, Olloq bahodir, Bundmish mirzo, Umboy inoq, Amir Sayid inoq, Odina Muhammad otaliq, Ishmuhammadbiy haqida ma’lumotlar berilgan.

5-bob 60[a] varaqdan boshlangan va 79[b] varaqda bu bob yakunlangan. Bobda Muhammad amin inoq , uning yurishlari haqida, Bobobek va Jonimurod inoq haqida, Muhammad amin inoqning vafoti “oning ba’zi af’ol va sifoti” haqida ma’lumotlar berilgan.

6-bob 80[b] varaqdan boshlangan va 87[a] varaqda yakunlangan. Bobda Avaz inoq haqida, “Avaz inoq yurt ixtiyorin Abdurahmon mehtarga topshurg‘oni haqida”, Xo‘jamurod va To‘ramurod so‘filar haqida, shahzoda Mahmud, To‘raso‘fi, Eltuzarbek haqida, Avaz inoqning vafoti haqida ma’lumotlar berilgan.

87[b] varaqdan 7-bob boshlangan va 90[a] varaqda yakunlangan. Bu bobda Eltuzarbekning dunyoga kelishi haqida, Eltuzarbekning Xo‘jaayli ustiga borg‘oni, inoq bo‘lg‘oni, yurishlari bayoni berilgan.

91[b] varaqda asar yakunlangan va ushbu varaqda muhr bosilgan. Kolofon yoki biror yozuv yo‘q. Bayoniy “Man bas bu nusxaning mutolasin etguvchi birovlardin umiddurkim, inson joyizul xatodur. Bu uzoqda sahvlarimga mutalli’ bo‘lsalarkim, u yuzidin mahv etib nusxaning islohig‘a ko‘shish etgaylar va muning bila ikki olam islohkorlarin topib maqsad asliylarig‘a yetgaylar”, deb yozgan.

Muhammad Yusuf Bayoniyning hayoti va ijodi hamda asarlarini o‘rganish o‘zbek adabiyotida muhim ish sanaladi. Bayoniy “ijodini har tomonlama o‘rganish, u haqda to‘laqonli, mukammal tadqiqotlar yaratish fursati yetdi”[3.98]. Uning “Xorazm tarixi” asari XIX asr hamda XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitidagi asosiy manbalar sifatida adabiyotshunoslik, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikda ilmiy tadqiq etilishi lozim bo‘lgan asarlardan ekanligi bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O‘zbekiston. 2017. 241-bet.
2. Дўстова С. Баёний девонининг 1120 қўлёзма нусхаси.Turkiy xalqlar filologiyasida fundamental tadqiqotlar va innavatsion ta’lim texnologiyalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 76- бет
3. Жумахўжа Н. ва Адизова И.Сўздин бақолироқ ёдгор йўқдур. Тошкент. Ўзбекистон. 1995.б-98.
4. Муҳаммад Юсуф Баёний. شجره خوارزمشاهی , ЎзР ФА ШИ-1.Қўлёзма 9596. – 509 v .
5. Муҳаммад Юсуф Баёний. خوارزم تاریخی, ЎзР ФА ШИ-1.Қўлёзма 7421. –91 v.
6. Madrimova Y. Bayoniy lirik she’riyatida ishq va inson kamolotini talqini. Internotional Journalmof recently scientific researcher’s theory. 2024.p.41
7. Отамуродова А., Абдураҳимов А. Маоний арсаси. Тошкент. Tafakkur qanoti. 2012.31-бет.
8. ЎзРФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди 1120 рақамли қўлёзма
9. ЎзРФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди 7106\3 рақамли қўлёзма
10. ЎзРФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди 6666\6 рақамли қўлёзма
11. ЎзРФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди 7082 рақамли қўлёзма
12. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4818
13. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2375
14. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2379
15. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2372
16. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4828
17. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4819
18. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4833
19. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4836
20. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4838
21. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4841
22. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5347
23. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5591

MUTARRIZIYNING “MISBAH” ASARI VA UNDAGI OMILLAR NAZARIYASI

Yuldashev Baxodir Kadirdjanovich,
“Yangi asr” universiteti o‘qituvchisi

O‘rta asr sharqida madrasalar uchun qisqa grammatik risolalar yozish an’anasi bo‘lgan. Bunday asarlar tilining ravonligi, soddaligi, fikrlarning esa aniq va lo‘nda ifodalanishi bilan ajralib turgan. Bu o‘z-o‘zidan usha davr xalqlarining arab tilini tezda o‘z tillariga qiyoslab o‘rganib olishlari uchun juda zarur bo‘lgan. Biror-bir fikrni yoki grammatik qoidani kerakli ikki-uch so‘z bilan aniq va barcha uchun tushunarli tarzda ifodalash asar mualliflaridan katta mahorat talab etgan. Bunday qisqa grammatik risolalar o‘rta asrlardan boshlab XX asrlarning boshlariga qadar keng ravishda qo‘llanilgan. Ular klassik asarlarni o‘qish va tushunishga qaratilgan edi. Bunday risolalar asosida ta’lim olgan talabalar arab tilidagi har qanday ilmiy matnlarni yaxshi tushunib, o‘zlashtira olish darajasiga yetgan. Mana shunday asarlar yozgan muallaiflardan biri “Mutarriziy” tahallusi bilan mashhur bo‘lgan Mavoraunnahrlik olim hisoblanadi. U Nosiriddin Abdu Sayyid ibn Ali Mutarriziyy an-Nahviy al-Xorazmiy bo‘lib, Abu al-Fath ibn al-Mukarram al-Adib nomi bilan mashhurdir. U Xorazm ahlidan bo‘lib, hijriy 538 (milodiy 1144) yilda Xorazmning Jurjoniyya (hozirgi Ko‘hna Urganch) shahrida ziyoli oilasida tug‘ilgan. U nahv (arab tili grammatikasi)da yuqori darajaga yetgan, shu sohada mashhur bo‘lgan va o‘zidan bir qancha shogirdlar qoldirgan. U til, she’riyat va adabiyotning turli sohalarida yuksak martabaga ega bo‘lgan. O‘z yurtida tahsil olib, so‘ng Imom Abu Ali Farisiy shogirdi Abu Validdan ham ilm o‘rgandi.

Muhaddis va faqih (fiqh olimi) bo‘lgan Muvaffaq ibn Ahmad Makkiy Xatib bilan ham uchrashgan. U hijriy 576 (milodiy 1180) yilda Bag‘dodga kelgan va u yerda hadis rivoyat qilgan, ba’zi shogirdlari undan hadis eshitgan [4:402].

Mutarriziy hijriy 610-yilda (milodiy 1213) o‘z yurtida vafot etgan. Unga tegishli bo‘lgan she’riy asarlar soni uch mingdan ortiq baytni tashkil etadi [3:38].

Quyida olimning ba’zi she’riy mulohazalarini keltirib o‘tamiz.

1. Do‘stining fazilatlarini madh etish:

Arabcha matn:

ورند ندى فواضله وري و رند ربنا خواضله نضير
و در خلاله أبدًا ثَمِين و در نواله أبدًا غزير

Tarjimasi:

Rand (Dafna daraxti) (dur, gavhar)ning in’omi fazl ila porlar,
Parvardigor ne’mati go‘zal va nurli.
Uning saxovat gavhari doim bebaho,
Ehsoni esa bitmas, cheksiz va mo‘l.

Izoh: Bu misralarda shoir o‘z do‘stini saxiy va mehribon inson sifatida ta’riflamoqda. Uning fazilatlarini chiroyli siaftalar bilan tavsiflab bermoqda.

2. Shahvatlardan tiyilish haqida:

Arabcha matn:

وَإِنِى لأَستَحْيِى من المجد أن أرَى حَلِيفَ غَوانٍ أو أَليفَ أَغَانِي [4:108-139]

Tarjimasi:

U shahvat va lazzatlardan uzoq turishni oriyat biladi,

U shon-shuhrat ortidan quvishdan uyaladi.

Izoh: Bu qismda shoir dunyoviy lazzatlardan tiyilish haqida gapirmoqda. U shahvat va lazzatlarga berilish insonni tubanlashtirishi mumkinligini va asl sharaf ularga ergashishda emasligini ta’kidlaydi.

Bu she’r ikki asosiy g‘oyani o‘z ichiga oladi:

1. Do‘stlik va sadoqat: Shoir o‘z do‘stini saxiy, do‘stlariga yordamchi va qadrli inson sifatida madh qiladi.

2. Shahvatlardan tiyilish va sharaf: Shoir shon-shuhratga berilmaslik, shahvatlarga berilmaslik insonni yuksaltirishini va haqiqiy sharaf ana shunda ekanligini aytadi.

Mutarriziyyning arab ilmiga, xossatan, uning grammatikasiga oid asarlari bor bo‘lib, ular:

1) “Al-Misbah fi an-nahv”.
2) “Almu’rob fi g‘oribi alfazi al-fuqaha”.
3) “Almug‘arrab fi sharhi al-mu’rob”.
4) “Sharhi maqomati al-Haririy”.
5) “Aliqna’u fi al-lug‘ati”.
6) “Al-muqaddimatu Mutarriziyya fi an-nahv”.
7) “Muxtasaru islahi al-mantiq” [9:212,213].

Olimning ushbu asarlari orasida eng ko‘p iste’molda bo‘lgan, hamda mashhurlik keltirgan asari “Al-Misbah” (keying o‘rinlarda Almisbah) hisoblanadi. Mutarriziy o‘zining Almisbah kitobida uning yozilishi sabablarini ochiq bayon etadi. Shu bilan birga Mutarriziyyning o‘g‘li Mas’ud uning “A’liqna’u fi al-lug‘oti” kitobini o‘qib chiqqqanidan so‘ng yanada tushunarli va ko‘proq grammatik ma’lumotlar bilan boyitish uchun Abdulqohir Jurjoniyning kitoblaridan foydalanib o‘z asarini yanada mukammalashtirmoqchi ekanligini eslatib o‘tadi. O‘sha davrda Jurjoniyning nahvchilar orasida keng muhokamada bo‘lib turgan “Al-A’avamilu al-miatu”, “Al-jumal” kabi asarlari bo‘lgan. Ammo Mutarriziy uchun ushbu asarlar uzun tuyuladi. U ushbu asardan ilhomlanib uning qisqaroq – muxtasar variantini ma’lumotlarni ixchamroq va foydaliroq tarzda taqdim etgan holda yozishni maqsad qiladi [6:33,34].

Almisbahning qo‘lyozma nusxalariga kelsak, dunyodagi ko‘plab kutubxonalarda uning turli davrlarda turli kotiblar tomonidan ko‘chirilgan variantlarini topamiz. Masalan, “ushbu asarning “Dar al-kutub”da 16 ta nusxasi bor bo‘lib, ularning barchasi maxsus raqamlashtirilgan. Qo‘lyozma raqami(326)

hijriy 921-yilda nusxa ko‘chirilgan bo‘lib, unda sharh (Al-Iftitah) muallifga tegishli ekaniga ishora qilingan va satrlar orasida joylashgan. Shuningdek, qo‘lyozma raqami (343) hijriy 1111 yilda va qo‘lyozma raqami (339) hijriy 1122 yilda nusxa ko‘chirilgan. Qo‘lyozma raqami (368)ning chetki sahifalarida ham satrlar orasida ham sharh mavjud, lekin u muallifga yoki sharhlovchiga tegishli ekani aniqlanmagan. Bu holat 40-sahifagacha davom etgan. Keyinchalik, qo‘lyozma sharhsiz yoki izohlarsiz tugatilgan. Boshqa qo‘lyozmalarga kelsak, ularning nusxa ko‘chirilgan sanasi ko‘rsatilmagan, faqat sharh mavjud ekanligi qayd etilgan” [6:34].

“Almisbah”ning uslubiga kelsak, Mutarriziyy imom Abdulqohir Jurjoniydan ta’sirlangan va o‘zining kitoblarini uning uslubida yozishga harakat qilgan. U o‘z metodini Jurjoniy tamoyillariga asoslagan va arab grammatikasida "avomil" (ta’sir qiluvchi omillar) tushunchasini muhim deb hisoblagan. Shuning uchun biz uning grammatika bo‘limlarini shu uslubda tartiblaganini ko‘ramiz.

Shu bilan bir qatorda alloma grammatik terminlarni ham sanab o‘tadi va ularning avomil ta’siriga qarab turlarga ajratadi:

- Qiyosiy (analogik) lafziy avomillar
- Simo‘iy o‘rganiladigan lafziy avomillar
- Ma’noviy avomillar

Mutarriziy Almisbah kitobini (في فصول من العربية) "Arab tilining bo‘limlari" bo‘limi bilan yakunlaydi. Bu bo‘limda u avomil bo‘limlarini o‘rganib chiqadi va ularning grammatik ahamiyatini muhokama qiladi. Bunday tahlilda u “so‘zning tashqi xususiyatlari” (masalan, kishilik olmoshlari, jins kategoriyalari va moslashuvlar: bo‘glovchilar orqali, sifat va sifatlanmishlar birgalikda, izohlovchi va tavkidlar) kabi elementlarga alohida e’tibor qaratadi.

Shu o‘rinda, biz ushbu kitobda qadimgi tilshunoslar nuqta-i nazariga ko‘ra avomil nazariyasi qanday tushunganligini, hamda, ularni tilshunoslar qanday ajratganliklarini bayon qilishga harakat qilamiz.

Avomil nazariyasida “omil” so‘zi (“avomil” ushbu so‘zning ko‘pligi hisoblanadi) “عَمِلَ” (a’mila) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u “vazifa” va “fe’l” manolarini anglatadi. Grammatik istilohda esa u so‘zlarning oxiridagi kelishik bo‘lmish e’robni o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi unsur yoki shunday ishni amalga oshiruvchi omil, hamda so‘zlarni **rof’** (so‘zlarning bosh kelshikda kelish holati), **nasb** (so‘zlarning tushum kelshigida kelish holati), **jazm** (so‘zlarning oxiri sukun alomatida kelish holati) yoki **jar**da (so‘zlarning qaratqich kelshigida kelish holati) qo‘ya oladigan bo‘lak deyiladi. Tilshunoslar uni ikki asosiy qismga bo‘ladilar: lafziy (shakily) va ma’noviy. Ular o‘z taqsimotlarini shunday asosga qurishadiki, agar ta’sir (ya’ni, amal) gap tarkibida lafz orqali namoyon bo‘lsa, bu **"lafziy omil"** deb ataladi. Ammo agar ta’sir sabab bo‘luvchi omil faqat ma’naviy jihatdan mavjud bo‘lib, unga so‘z tarkibida ochiq dalil topilmasa, bu holda u **"ma’noviy omil"** deb ataladi.

Ular o‘z navbatida **lafziy omillarni** ikki turga bo‘ladilar:

1. Qiyosiy (analogik) omil – bu omil o‘z ta’sirini umumiy qoidaga asoslangan holda amalga oshiradi, lekin bu qoida aniq bir shaklda cheklanmagan. Masalan, fe’l, ism al-fa’il (sifatdosh aniq daraja), ism al-maf’ul (sifatdosh majhul daraja), sifat al-mushabbaha (o‘xshatish sifatlari), ism at-tafdil (sifat darjalari) va muzofun (aniqlanmish) … va h.k.lar kabi.

2. Sama’iy omil – bu omil o‘z ta’sirini barcha qoidalarga asoslanmagan holda faqat foydalanish (so‘zlashuv) tajribasiga tayanib amalga oshiradi. Masalan, jar harflari (حروف الجر) (old ko‘makchilar), إن و أخواتها (egaga ta’sir etuvchi yuklamalar), nasb qiluvchi (hozirgi-kalsi zamon fe’llarini nasb holatida kelishini talab etuvchi yuklamalar: istak maylidagi fe’llar) va jazm qiluvchi (hozirgi-kalsi zamon fe’llarini jazm holatida kelishini talab etuvchi yuklamalar: shart maylidagi fe’llar) vositalar kabi.

3. Ma’noviy omillarga kelsak, ba’zi nahv olimlari ma’noviy omillarning ta’siri lafziy omillarnikiga o‘xshash deb hisoblaydi. Chunki ular ham so‘zlarni turli grammatik holatlarga (raf’, nasb, jazm) keltiradi. Masalan:

a) Ibtido omili (gap boshida kelganligi uchun ta’sir qiluvchi omil).

b) Fe’lning marfu’ (ko‘tarilgan) bo‘lishi, chunki unga jazm va nasb qiluvchi vosita yo‘q.

g) Sifatning ma’lum ta’sir omili sifatida qo‘llanishi.

Nahv olimlari omil tushunchasini chuqur o‘rganib, uzoq yillar bahslashgan. Ularning munozaralari omil zarurati va chegaralari atrofida kechgan. Shu bahs natijasida quyidagi nazariyalar ilgari surilgan:

1. Omil (ta’sir) asosan fe’llarda mavjud, ismlar va harflarda esa faqat o‘xshashlik asosida bo‘ladi. Agar ism yoki harf omil deb hisoblanadigan bo‘lsa, u qanday qilib ta’sir etishi mumkinligi aniqlanishi lozim.

2. Bitta joyda ikki xil omil bo‘lishi mumkin emas, ammo ba’zi istisno holatlar mavjud.

3. Ikki omil bitta ma’mulga ta’sir qilishi mumkin emas, faqat taxminiy hollardagina. Masalan: "لَيْسَ زَيْدٌ بِجَبانٍ" (Zayd qo‘rqoq emas).

Agar ikkita omil bir ma’mul ustida bahslashsa, u holda ularning ikkalasi ham amal qilishi mumkin, ammo bu kelishuv asosida bo‘ladi.

Kufiy tilshunoslar birinchi omilni ustunroq deb hisoblaydi. Basra tilshunoslari esa ikkinchi omilni afzal ko‘radi, chunki u ma’mulga yaqinroq turadi.

Agar birinchi omildan foydalansak, keyingi omil o‘rnida bahsli vaziyat kelib chqadi. Agar ikkinchi omilni ustun qo‘ysak, unda uning zamirida bahs kelib chiqadi. Misol: "قَامَ و قَعَدَ أَخَوَاكَ" (U turdi va sening ikki akang o‘tirdi) / (Sening ikki akang turdi va o‘tirdi)

Bu masala bo‘yicha ularning fikrlarini o‘rgangan kishi katta tafovut borligini ko‘radi. Qadimgi va zamonaviy olimlar bu borada turli qarashlarga ega. Xatto, qadimgi olimlarning o‘zlari ham ikki guruhga bo‘lingan:

1) Ba’zilari "omil-ma’mul nazariyasi"ga mahkam yopishib olishgan. Ularning aksariyati shunday qarashni yoqlaydi va ma’mul omilga muhtoj deb hisoblaydi.

2) Ba’zilari esa "omil va ma’mul o‘rtasidagi bog‘liqlik"ni “sabab va natija o‘rtasidagi bog‘liqlik” kabi qabul qiladilar. Ularning fikricha, omil va ma’mul o‘rtasida ajralmas aloqa bor va ta’sir o‘zgarishi mumkin emas.

Biroq, ayrim istisnolar mavjud bo‘lib, bu qoidadan chetga chiqish mumkin bo‘lgan joylar ham bor. Zamonaviy tilshunoslar orasida esa bu nazariyani butunlay inkor etuvchilar ham mavjud. Ular bunday nazariyani o‘ziga xos aldamchi tasavvur va xayol mahsuli deb hisoblaydilar. Bu yondashuv nahv va arab tilining buzilishiga sabab bo‘ladi, deya tanqid qiladilar. Ushbu fikrlar yuzasidan ulamolar o‘rtasida munozaralar davom etmoqda va biz ularning ayrim qarashlarini tahlil qilamiz.

Omil borasida ba’zi qadimgi tilshunoslarning fikriga kelsak, buyuk arab tilshunos olimi Sibaveyhiy ham bu borada birinchilardan mulohaza bildirganlar. Uning asarini o‘qishga kirishgan inson undagi “arab tilidagi so‘zlarning oxiri” degan bobida omil va uning ta’siridagi so‘zlar haqida shunday bayon qilib o‘tganini ko‘radi: “Bu sakkiz yo‘nalishda keladi, nasb, jar, rof’, jazm (sukun), hamda fatha, kasra, domma va vaqf (to‘xtash) va ushbu sakkizda yo‘nalish lafzda (shaklan) to‘rtta xilda birlashadi: nasb va fatha, jar va kasra, rof’ va domma, hamda jazm va vaqf. Ba’zi harflar mustaqil ta’sirga ega, ya’ni ular ta’sirida so‘z shakli o‘zgaradi. Boshqa holatlarda, grammatik omillar (عامل) sababli so‘z o‘zgarishi yuz beradi. E’rob harflari (حروف الإعراب) so‘zning nasb (فتح), jarr (كسر), raf’ (ضم) yoki jazm (سكون) holatlariga kirishini belgilaydi. Ismlar va fe’llar uchun alohida e’rob belgilari mavjud. Ismlar uchun e’rob harflari va fe’l-muzori’ (hozirgi zamon fe’llari) uchun jazm va nasb harflaridir [8:2,3].”

Ibn Jinniy esa bu borada Sibaveyhi va basraliklarning fikriga xilof o‘laroq boshqacha yondoshadi, ammo ularning fikrini tamoman rad etmaydi. Gapning omili deb ta’sir etuvchi grammatik omilni emas, balki so‘zlovchini hisoblaydi. Masalan, fe’l va uning turdosh turkumlari. Grammatik omillar tushunchasi grammatikani o‘rganishni yengillashtirish uchun yaratilgan. Grammatik tizim so‘zlarning qanday o‘zgarishini tartibga solish uchun ishlatiladi. Tilshunoslar shunday deydilar: omil lafziy va ma’noviy bo‘ladi. Ba’zi fe’llar shakl sababli keladi, masalan: مَرَرْتُ بِزَيْدٍ yoki لَيْتَ عُمْراً قائمٌ kabi jumlalar bo‘lib, ular biror ta’sir etuvchi unsur bilan keladi. Ba’zilarida esa bunday unsurlar bo‘lmaydi va ular gapning boshidagi kelayotgan ega yoki ismning kelayotgan joyiga qarab fe’lning rof’ holatida kelishligi kabi. Ammo, shuni e’tiborga olish kerakki, omillar yordamida **raf’, nasb, jarr va jazm** kabi grammatik o‘zgarishlar yuzaga keladi. Buni mutakallimdam o‘zgasi amalga oshirmaydi. Nima bo‘lganda ham mutakallim fe’lining ta’siri yo lafzning shaklida ko‘rinib turadi, yo lafzning ma’nosini o‘z ichiga olib turadi [2:109,110].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, har ikkala maktab yo‘nalishlari ham o‘zlarining juda qimmatli qoidalari va fikrlariga egadirlar. Ularda birini to‘g‘ri, birini esa noto‘g‘ri deyish esa bu tilda ma’lum sohada xatolikni olib keladi. Kufa va Basraliklarga yondosh sifatida Mavarounnahr va Andalusiya tilshunoslik maktabi vakillari arab tilini

o‘qitishdagi metodikalari bilan arab tilining asosiy qoidalarini yanada mustahkamlaganlar. Shu jihatdan, Mutarriziy va uning Almsibah asari, hamda shu kabi boshqa asarlar arab tilini o‘rganish va o‘qitish borasida juda muhim kitoblar hisoblanadi. Mutarriziyning hayot yo‘lini o‘rganganimizda ham uning bunday asar yozishga qay darajada yetarli bilimga ega bo‘lganligini va arab tilini o‘z davrida eng katta mutaxassisi hisobganligini, xatto, Mahmud Zamaxshariyning “o‘rinbosari” degan nomga loyiq ko‘rilganligini ko‘ramiz. Uning hayoti davomida yozgan asarlari ham bunga dalil bo‘la oladi. Jo‘n va qisqa fikrlarga va qoidalarga ega bo‘lgan bunday asarlar asli arab bo‘lmagan talabalar va bilimdonlar uchun ayni muddao bo‘lib xizmat qiladi. Ularda ko‘tarligan omil va ma’mullarning bir-biriga ta’siri nuqta-i nazardan o‘rganilish mavzusi esa yuqoridagi maqsadlarni amalga oshishida juda muhim omil bo‘lib qoladi. Zero, tilni o‘rganish va uni o‘rgatish borasida talabalarga soddalik va osonlikni taqdim etishlik bilan bu yo‘lni keyingi avlodlar uchun yanada jozibador va talabgor etish ustuvor maqsaddir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abu Abdulloh Shamsuddin Muhammad ibn Ahmad Imom Zahabiy, “Tarix al-Islam”. 12-jild.
2. Ibn Jinniy, “Al-Xasois”. Qohira, 2001-yil.
3. Mahmud Mustafa ,“I’jām al-A’lām”.
4. Mustafo ibn Abdulloh Kotib Chalabiy, “Kashf az-Zunun”. Bayrut, 2018-yil.
5. Nosirova M., “Tilshunoslik bilimlari tarixi”., T:.2019. “Navro‘z”.
6. Nosiruddin Abul Fath Mutarriziy, “Kitab al-Misbah”. Qohira, 2001-yil.
7. Nosiruddin Abul Fath Mutarriziy, "كتاب المغرب في ترتيب المعرب". Bayrut, 2011-yil.
8. Sibaveyhi, “Al-Kitab”. A’lam al-Kutub, 1983-yil.
9. Yoqut Hamaviy, “Mu’jam al-Udaba”.

TERMIZIY ALLOMALARNING ILMIY MEROSI

Xurramova To‘lg‘anoy Muzaffarovna,
Termiz davlat universiteti magistranti

Surxon vohasidan islom ilmi va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk muhaddislar, mutasavvuflar, ijodkorlar yetishib chiqqan va shu asnoda aynan, islom ilmlari taraqqiy etishida Termiz shahri alohida o‘rin egallagan.Termiz shahri azaldan "Madinaga ar-rijol" ("Mardlar shahri") nomi bilan jahonga tanilgan [4,5]. Qadimiy Termizning shon-shavkati, e’tibor va sharafi ham mangu Termiziylar bilandir.Termizning abadiy bezavol qal’alari ulug‘ Termiziylar sanaladi [4,6].

Bu diyordan Termiziy taxallusi bilan ijod qilgan 200 dan ziyod alloma yetishib chiqqanligi ham fikrimizning yorqin dalilidir. Ular hadis, fiqh, tilshunoslik, she’riyat, tarix va tasavvuf kabi yo‘nalishlarda asarlar yaratgan. Xususan, aynan shu maskandan yetishib chiqqan Imom Abu Iso Termiziy, Hakim Termiziy, Sayyid Burhoniddin Muhaqqid Termiziy, Raziyn Termiziy, Abu Sahl Termiziy, Yusuf Xayyot Termiziy, Ja’far ibn Aliy Termiziy, Varroq Termiziy kabi allomalarning ilmiy merosi alohida ajralib turadi. Ko‘hna Termiz vohasi ana shunday allomalarni tarbiyalab voyaga yetkazishga zamin bo‘lgan hududdir, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Tarixga oid manba va qo‘lyozmalarda Termiz O‘rta Osiyodagi shaharlarning eng qadimiylaridan biri ekanligi qayd etilgan.Buyuk Ipak yo‘lining bir tarmog‘i-Termiz orqali o‘tganligi bois ham qadimgi So‘g‘diyona, Xorazm, Marg‘iyona, Parfiya kabi davlatlarda savdo- sotiq va adabiy muhitning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi.Termiz shahrining rivojlanishi miloddan avvalgi III-II asrlarda Baqtriya davlatining ijtimoiy, siyosiy, madaniy jihatdan taraqqiy topganligini ifodalaydi.Temuriylar davriga kelib esa, ilm-fan, adabiyot, san’at va boshqa sohalarning rivojlanganligi tarixiy kitoblarda aks etganligi bois, aynan ijtimoiy muhitning ta’siri Termiziy allomalarning ijod qilishida alohida ahamiyat kasb etgan. Xususan, X-XI asrlarda Termiz adabiy maktabi shakllanib, Adib Sobir Termiziy (1078-1147), Farruxiy (1039- vafoti), Amir Muizziy (1072-1127), Munjik Termiziy (988- vaf) singari mashhur shoirlar yetishib chiqishida adabiy muhit vazifasini bajardi.

Termiz adabiy muhiti haqida eng qadimiy manba bu Muhammad ibni Yag‘murning "Safina-e Tirmiz" tazkirasidir [3,72]. Bu asar VIII asrda Termizda yozilgan bo‘lib, 115 ta shoir adabiy merosi va hayoti haqida so‘z yuritiladi.Bundan tashqari Mehdiy Bayoniyning "Ahvol va osori xo‘shnavison", Ahmad Gulchin Mao’niyning "Korvon-hind", Qozi G‘avsudddin Mustamand G‘uriyning "Torixi muxtasari G‘o‘r", Muhammad Hodiy Rizoqulixon Hidoyatning "Riyozu-l-orifin" asarlarida Termizlik allomalar haqida so‘z yuritilganligi sababli ushbu manbalar Termiz adabiy muhitini o‘rganishda muhim manbalardan hisoblanadi.

Islom olamida hadisshunos sifatida nom qozongan ulomalordan biri Imom Abu Iso Termiziydir. U 300 dan ortiq asar yaratgan.Shulardan 57 tasi bizgacha yrtib kelgan. Termiziyning "Al-Jome’ as-Sahih" nomli hadis to‘plami islom olamida oltita "Sahih" kitobdan biri sifatida tan olingan bo‘lsa, "Ash-shamoil an-nabaviya" (Payg‘ambarga xos siyrat va fazilatlar") nomli asari dunyo miqyosida eng ko‘p nashr etilgan asar sifatida hatto Ginnesning rekordlar kitobidan o‘rin egallaganligi ham bejiz emas, albatta.Bundan tashqari "Tuhfat-ul Ahvaziy bisharhi At-Termiziy" asari to‘rt juzdan iborat bo‘lib, 1979-yilda Bayrutda nashr etilgan.Hakim at-Termiziy, Muhaqqid Termiziy kabi allomalar fiqh, tilshunoslik, tibbiyot va tasavvuf sohalarida asarlar yaratgan. Hakim at-Termiziyning "Kitob al-Akyas val Muhtarin" ("Ziyraklar va aldanganlar") va yo‘qolgan "Bahr at-tafsir" asarlari mavjud.

Ko‘p holatlarda Termiziylar merosining katta qismi qo‘lyozma shakllarda saqlanmoqda. Mustaqillikdan keyingi davrlarda Termiziylar merosiga oid nodir qo‘lyozmalar markaziy kutubxonalar va ilmiy markazlarga to‘plandi, restavratsiya va kataloglash ishlari olib borilmoqda. Imom Termiziy faoliyatini o‘rganishda Prezidentimizning "Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini nishonlash" to‘g‘risidagi farmoni alohida ahamiyat kasb etdi [1] va shunga binoan asnoda "Termiziy allomalarning ilmiy-ma’naviy merosi: o‘tmish va bugun" mavzusida respublika ilmiy amaliy konferensiya o‘tkazildi [2].

Imom Termiziyning ilmiy amaliy merosini yoshlar orasida keng targ‘ib qilishda Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi asosiy tayanch dargohga aylanib bormoqda.

Hozirga qadar ushbu amaliy tadqiqot markazida Termiziy allomalar ijodiga oid 10 dan ortiq asarlar tarjima qilinib, nashr qilindi. Natijada Termiziylar merosining jahon qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan 1400 dan ortiq qo‘lyozma namunalari aniqlandi va ularning o‘ndan ortig‘i markazga olib kelindi.Imom Termiziyning "Sunan" asarining hanafiylik yo‘nalishidagi o‘n jildli sharhi o‘zbek tiliga izohli akademik tarjima qilindi va 5-jildi nashr qilindi.

Mustaqillik yillarida Termiz allomalari haqidagi quyidagi ilmiy nashrlar chop etildi:

- Imom Termiziy" (2021)- U.Uvatov, O.Jo‘rayev;
- Hakim Termiziy" (2019)- U.Uvatov, J.Cho‘tmatov;
- "Imom At-Termiziy hazratlarining madaniy merosi";
- "Sunai Termiziy " (o‘zbekcha tarjima,1-jild, 2022).

Ushbu nashrlar orqali Termiziy allomalarning madaniy merosi o‘z bo‘lsada, xalqimizga yetkazildi. Zamonaviy davrlarda Imom Termiziy merosini yangicha tahlil qilgan tadqiqotlardan bir - Nuriddin Itrning "Al-Imam at-Termiziy va al muvazanatu jamii’ hi va bayna as-sahihayn" asaridir. Unda Imom Termiziyning hadis to‘plami Imom Buxoriy va Imom Muslim to‘plamlari bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Xulosa qilib aytganda, Termiziy allomalarning ilmiy merosini amaliy tadqiq qilish va ularni yosh avlod vakillariga yetkazish bugungi kunning dolzarb masalasidir va bu yo‘lda olib borilayotgan ishlar o‘zining natijasini bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.02.2017-yildagi PQ-2774-sonli “Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

2.2024 yil 17-18 oktabr kunlari Termiz shahrida bo‘lib o‘tgan Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman maqolalar to‘plami.

3. Abdullayev R.Aliyev Sh. Muhammad Solih Kashfiy va Termiz adabiy muhiti.International scientific journal of biruni.ISSN (E) 2181-2993 may.(2023)

4. Кенжабек Мирзо Буюк Термизийлар:Термиз тазкираси/мусанниф Мирзо Кенжабек. -Тошкент: Узбекистон миллий энцклопедияси Давлат илмий нашриети, 2017.280-б.

5.U.Uvatov. O.Jo‘rayev.-Toshkent: “Shamsuddinxon Boboxonov” NMIU,2021.-104 b.

SAYYID SHARIF JURJONIYNING “NAHV-I MIR” ASARI

Saida’zamxon G‘ulomov
Yangi asr universiteti magistranti

Arab tilshunosligi tarixida ko‘plab muhim grammatik manbalar mavjud bo‘lib, ulardan biri Sayyid Sharif Jurjoniyning “Nahv-i Mir” asaridir.

Ushbu risola IX–XIV asrlar arab grammatik an’analari asosida yaratilgan, unda nahv ilmining asosiy qoidalari ixcham, tushunarli va ilmiy izchillikda sharhlab berilgan [1;45].

Sayyid Sharif Jurjoniy (1339–1413) Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan yirik mutafakkirlardan biridir. U falsafa, mantiq, kalom, fiqh, lug‘at va nahv sohalarida sermahsul ijod qilgan olim sifatida tanilgan.

Allomaning “Sharh al-Mawaqif”, “Ta’rifot”, “Sharh al-Kashshaf” kabi asarlari butun islom olamida keng tarqalgan [2;367]. “Nahv-i Mir” esa uning grammatikaga bag‘ishlangan muhim risolalaridan biridir.

“Nahv-i Mir” asari qisqa risola shaklida, ammo mazmunan boy bo‘lib, risolada nahvning asosiy qoidalarini bosqichma-bosqich yoritilgan. Asar quyidagi bo‘limlardan iborat:

- ismning turlari va i’rob masalalari;
- fe’lning qismlari, avzoni hamda i’robi;
- harflarning ma’nosi va amali;
- jumla turi va tarkibiy tuzilmalari [3;112].

Muallif murakkab grammatik qoidalarni qisqa jumlalar bilan sodda tarzda bayon qilgan. Bu xusus asarning didaktik ahamiyatini sezilarli darajada oshirgan.

Asar o‘rta asr madrasalarida nahv ilmini o‘rgatishda asosiy qo‘llanmalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. U “Ajurrumiyya”, “Mulahhas”, “Sharh Qatr an-Nada” kabi mashhur qo‘llanmalar bilan bir qatorda o‘quv jarayonida keng foydalanilgan [4;201].

“Nahv-i Mir” asarining xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Qoidalar ixcham va tushunarli shaklda berilgan.
2. Misollar sodda va nazariyani mustahkamlashga xizmat qiladi.
3. Asar nahv terminologiyasining tarixiy rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

“Nahv-i Mir” risolasining eng muhim xususiyatlaridan yana biri unda masalalarning aniqlik bilan sharhlanganidir.

Muallif jumla tarkibida:
– mubtada’ va xabar munosabati;
– fi’l va foil munosabati;
– ma’tuf va ma’tufun alayh o‘rtasidagi bog‘lanish;
– jar va majrurning sintaktik roli kabi masalalarga alohida urg‘u bergan [5;29].

Bu yondashuv o‘quvchi uchun nahvning asosiy tushunchalarini osonroq anglash imkonini beradi.

Sayyid Sharif Jurjoniyning “Nahv-i Mir” asari arab tilshunosligi tarixida alohida o‘rin tutadi. Asarning ixchamligi, ilmiy aniqligi, didaktik yo‘nalishi hamda nahv qoidalarini sodda uslubda bayon qilishi uni o‘rta asr grammatik manbalari ichida munosib o‘ringa qo‘yadi. Mazkur risola nafaqat tarixiy manba sifatida, balki bugungi kunda ham arab tili grammatikasini qadimiy manbalar asosida o‘rganish uchun muhim qo‘llanma bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jurjoniy S. Sharh al-Kafiya. - Istanbul, 1325 h.
2. Brockelmann C. Geschite der arabischen Litteratur. - Leiden, 1949.
3. Ibn Hishom. Qatr an-Nada wa Ball as-Sada. - Qohira, 1955.
4. Al-Ajurrumi. Al-Ajurrumiyya fi an-Nahw. - Tunis, 1882.
5. Ibn Malik. Sharh al-Alfiyya. - Dimashq, 1960.

KOMRON MIRZO DEVONIDA ILM-FAN VA SAN’AT BILAN BOG‘LIQ SO‘ZLAR

Turatova Mashhura Toxirjon qizi,
JDPU magistranti
Ilmiy rahbar: JDPU dots. S.Do‘stova

Komron Mirzo Zahiriddain Muhammad Bobur oilasida dunyoga kelgan. Otasi Zahiriddin Muhammad Bobur davrining ko‘zga ko‘ringan davlat asoschisi, shu bilan bir qatorda adabiyotning yetuk namoyondasi sanalgan. „Onasi Gulruxbegim bekchik qabilasi amirining qizi bo‘lgan“ [11.7]. Shu boisdan ham Komron Mirzo yoshligidan yaxshi ta’lim va tarbiya olib yetishdi. Davlat boshqaruvi bilan birgalikda ilm va san’at ahli bilan ham aloqani uzmagan. “Janob podshoh har qanday holatda ham fozillar muloqotidan xoli bo‘lmaganlar. Shoirlar-u nadimlarga bajonidil xursandlik bilan iltifot ko‘rsatganlar”. [3.63].

Shu sababli ham muallif devonida ilm-fan, san’at bilan bog‘liq leksikaga oid so‘zlarni ko‘p o‘rinlarda uchratamiz. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ilm-fan, san’at so‘zlariga quyidagicha izoh berilgan: Ilm [a.-bilim; fan; nazariya]:

1. O‘qish-o‘rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko‘nikma, ma’lumot.
2. Ish-faoliyatning ilm bilan bog‘liq sohasi; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi; fan.
3. Ish-faoliyatning ma’lum bir sohasiga oid bilim, ta’limot, malaka. [7.493].

Fan [a-san’at, mahorat; erkin kasb; ilm, bilim; tarmoq]:

1. Tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda o‘zi erishgan natijalar bilan atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi bilimlar tizimi.
2. Shunday bilimlar tizimining alohida tarmog‘i, yo‘nalishlari, sohalari. [7. 99b].

San’at [a- ish, mehnat; mahorat; kasb-hunar]:

1. Ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi, musiqa, musavvirlik, haykaltaroshlik kabi voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi har bir ayrim sohasi.
2. Turli amaliy-tatbiqiy sohalarning o‘ziga xos ish uslubi, sistemasi.
3. Ko‘chma Muayyan faoliyat sohasidagi yuksak mahorat, ustalik; iste’dod.
4. Adabiyotshunoslikda: badiiy asar poetikasini ta’minlovchi vosita.
5. San’at (xotin-qizlar va erkaklar ismi). [9.29].

Etimologik lug‘atda bu so‘zlar quyidagi ma’nolarni anglatadi: “Ilm” – bu arabcha so‘z ъilm (un) shakliga ega (APC, 535); o‘zbek tiliga kasrali ayn tovushini i tovushiga almashtirib qabul qilingan: ъilm – ilm. Bu so‘z asli “bildi”, “bilimli bo‘ldi” ma’nosini anglatuvchi ъalima fe’lining (APC, 534); I bob masdari bo‘lib (АТГ, 142), “o‘qish-o‘rganish bilan orttirilgan chuqur bilim” ma’nosini anglatadi (ЎТИЛ, I, 323). O‘zbek tilida ilm so‘zidan ilmli, ilmsiz sifatlari, keyingi so‘zdan ilmsizlik oti, ilmsizlarcha ravishi hosil qilingan, ilm-fan, ilm-hunar, ilm-ma’rifat juft so‘zlari tuzilgan. [4.161].

“Fan” – bu arabcha so‘z fann(un) shakliga ega (APC, 610); o‘zbek tiliga so‘z oxiridagi nn tovushlaridan birini tashlab qabul qilingan: fann – fan; ko‘p ma’noli fannana fe’lining “tasniflanadi” ma’nosi asosida (APC, 610); hosil qilingan masdar bo‘lib, arab tilida “san’at”, “mahorat”, “kasb”, “ilm”, “texnika”, “soha” ma’nolarini anglatadi (APC, 610); o‘zbek tilida “bilim tarmog‘i” ma’nosini anglatish uchun ishlatiladi (ЎТИЛ, II, 294). [4, 459].

“San’at” – bu arabcha so‘z ŝanъat (un) shakliga ega (APC, 447); o‘zbek tiliga sad undoshini s undoshiga almashtirib, sukun o‘rniga ъ (ayirish) belgisini qo‘yib, fathali aynni a unlisiga almashtirib qabul qilingan: ŝanъat – san’at; ko‘p ma’noli ŝanъana fe’lining “bezadi” ma’nosi bilan (APC, 446); hosil qilingan masdari bo‘lib (АТГ, 143), arab tilida “mehnat”, “hunar”, “badiiy ijod” ma’nosi bilan qabul qilingan (ЎТИЛ, II, 20). [4, 377].

Komron Mirzo devonida ilm-fan va san’atga oid so ‘zlar quyidagicha berilgan:

Yo bo‘lsa muyassar ilm ila hol,
Yo topsa kishi saltanat avjida kamol.
Yo oshufta-ye bo‘lsa ko‘rub husn-u jamol,
Yo bo‘lsa tamom o‘zlugidin forig‘bol. [1, 37].

Komron Mirzo devonidan o‘rin olgan ushbu ruboiyda kishiga ilm ila hol doimo kerak ekanligi uqtiriladi. Keyingi misralarda ma’no yanada kuchayib, insonning biron sohada yetuk bo‘lmog‘i, jumladan, saltanat boshqaruvida mohir bo‘lmog‘i yoxud hech bo‘lmaganda husni go‘zal bo‘lmog‘i zarurligi ta’kidlanadi. So‘nggi misrada agar hech biriga sohib bo‘lmasa, uning o‘zligidan butkul mahrum bo‘lgani haqida so‘z boradi.

Komron jonon tamannosi meni pir ayladi,
Ey darig‘o, onsiz o‘tti ahdi ayyomi shabob.

Yuqoridagi baytda muallif jononning noz-u karashmalari shu darajada ko‘p bo‘lganki, ularni ko‘raverib, oshiqning pir holiga kelganini qalamga oladi. Lekin shuncha qiyinchiliklarga qaramay, oshiqning yoshlik yillari ma’shuqa vasliga yeta olmay, ayrolikda o‘tgani bayon qilinadi. Ushbu baytda kelgan pir so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da quyidagicha izohlanadi: Pir I [f-keksa, qari; diniy mazhab, tariqat asoschisi; hunarmandlar sarkori].

1. Uzoq umr ko‘rgan kishi; keksa (q. qari 2).
2. Diniy mazhab boshlig‘i, diniy rahbar.
3. Biror kasbning asoschisi, homiysi deb tushuniladigan, ko‘pincha afsonaviy va afsonalashtirilgan shaxs.
4. Ko‘chma Biror ish, kasb yoki sohani juda yaxshi egallagan, shu sohada o‘ta mohir usta kishi, ustoz.

Pir II: hafsalasi pir (bo‘lmoq) 1) ishonchi, e’tiqodi yo‘qolmoq, ko‘ngli qolmoq.

Pir III taql.s Mayda qushlarning qanot qoqishidan, parrak kabilarning aylanishidan chiqadigan tovush. [8. 728].

“O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” da bu so‘z quyidagi izohda berilgan: Pir Bu birlik asli sifat bo‘lib, “ko‘p yashagan kishi” ma’nosini anglatadi (ПРС, 99; ТжРС, 307; УТИЛ, I, 587). Bu ot o‘zbek tilida tojikcha piri badavlat izofa birikmasi tarkibida ishlatiladi. [5.191].

“Alisher Navoiy asarlari lug‘ati” da pir so‘zi quyidagi izohda keladi:

Pir f. 1. Qari, keksa; 2. Maj. Biror diniy-ruhoniy guruhning boshlig‘i; rahbari; eshon, shayx; so‘fiylar boshlig‘i. [2. 508].

Dar nazar orazi soqiu xirad volai o‘,
Go‘sh bar sozi nay-u xushob, ovozi rubob.[1.13].

Birinchi misrada yorning oraziga, ya’ni yuziga nazar solinganda kishining aqli maftun bo‘lishi haqida so‘z borsa, keyingi misrada ma’shuqaning alqovi yanada oshadi. Uning ovozi nay va rubob kabi musiqa asboblari singari yoqimli ekanligi san’atkorona tarzda bayon qilinadi. Baytda kelgan nay so‘zi “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” da quyidagi ma’nolarni anglatadi: Bu tojikcha ot asli “qamish” ma’nosini anglatadi (ТжРС, 255; УКААКЛ, 232), “sibizg‘a” ma’nosi-asli ko‘chma ma’no (УТИЛ, I, 493). [5.148b].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da bu so‘z quyidagicha izohlanadi:

Nay [f] .1. Uzun ichi teshik narsa, ingichka truba. 2. Turli narsa, asboblarning shu shakldagi qismi. 3. Oltita teshigini barmoqlar bilan berkitib-ochib, puflab chalinadigan musiqa asbobi; sibizg‘a. [8.148b].

“Alisher Navoiy asarlari lug‘ati” da nay so‘zining izohlanishi quyidagicha:

Nay f. 1. Qamish; 2. Ma’lum cholg‘u asbobi. [2. 450].

Rubob so‘zining izohli lug‘atda ta’riflanishi quyidagicha: rubob [f- kamoncha bilan chalinadigan musiqa asbobi]. Mediator bilan chertib, chalinadigan besh torli musiqa asbobi. [9. 462].

Jon rishtasig‘a solib girihlar,
Zulfungni girihkusho qilursen. [1.25].

“Ag‘yorg‘a ko‘p vafo qilursen” deya boshlanuvchi ushbu g‘azal oshiqona mazmunga ega bo‘lib, oshiq ma’shuqaning unga e’tibor ham bermasligidan, aksincha ag‘yorga vafo qilayotganidan shikoyat qilishi bilan boshlanadi. G‘azal davomida yor oshiqning joniga jafolari orqali naqshlar solayotgani va bu ishni uning sochlari bajarayotgani go‘zal o‘xshatishdir. Ma’shuqaning sochlari naqqosh-u, naqsh solish uchun joyni oshiqning jonidan topgani haqiqiy san’atkorona tashbeh bilan ifoda etilgan.

Baytda kelgan girih so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da quyidagicha izohlanadi: Girih I [f- tugun, muammo]. 1. Bog‘lam, bog‘langan joy; tugun. 2. Esk. Qisiq, qisilgan (tish, ko‘z haqida).

Girih II [f- tugun] Me’morchilikda va badiiy hunarmandchilikda keng ishlatiladigan murakkab naqsh. [7. 232].

“Alisher Navoiy asarlari lug‘ati” da esa quyidagicha izohlanadi: girih f. 1. Tugun; burushiq; chigal; 2. Maj. Qiyinchilik; 3. Qoshning chimirilishi.[2. 161].

Hush ko‘zin ochsa kishi, har varaq,
Ma’rifati daftaridin bir sabaq.

Yuqoridagi baytda qo‘llangan varaq, ma’rifat, daftar, sabaq kabi so‘zlar ilm-fanga oid leksika sanaladi. Inson idrok ila “tafakkur ko‘zi”ni ochsa, ma’rifat olamidan saboq olib, undan bahramand bo‘lib boraveradi. Izohli lug‘atda quyidagicha beriladi: varaq [a.- barg, yaproq; qog‘oz varag‘i].

1. Bo‘yi va eni ma’lum hajmga ega bo‘lgan, asosan yozish uchun ishlatiladigan qog‘oz, qog‘oz bo‘lagi.
2. Daftar, kitob va sh.k.ni tashkil etuvchi old-orqa sahifadan iborat har bir qat, bo‘lak.
3. Ko‘chma o‘tmish hayot, tarixning muayyan davrlari, qismlaridan har biri, sahifasi. [10. 670].

Ma’rifat [a.-bilim, fan; ma’lumot; tanishish].

1. Ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g‘oyalar asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat.
2. din. Tasavvufda har bir so‘fiy ruhiy kamolotga erishish yo‘lida bosib o‘tadigan bosqich (maqom)lardan biri.
3. Ma’rifat (xotin-qizlar ismi). [8. 163].

Daftar [yun. Diftera- qog‘oz o‘rami]. 1. Kitobcha shaklida tikilgan, muqovalangan va xat yozish yoki rasm chizish uchun mo‘ljallangan toza qog‘oz varaqlari. 2. Biror kimsa yoki narsa haqidagi sarguzasht hikoya. 3. ko‘chma Borliq, o‘zlik. [6. 738].

Saboq [a.- tortishuv, musobaqa]. 1. Dars, mashg‘ulot, bilim, fan. 2. esk. Darsda (o‘quvchilarga) beriladigan vazifa, topshiriq. 3. ko‘chma Ibrat, o‘rnak, namuna bo‘ladigan, hayot tajribasini oshiradigan ish, harakat, voqea-hodisa. [9.481].

Xulosa qilib aytganda, Komron Mirzo hokimiyat boshqaruvi bilan bir qatorda ijod bilan ham shug‘ullandi. Ilm-fan, adabiyotni inson yo‘lini yoritguvchi nur deb bildi. O‘z ijod namunalari orqali ham turk, ham fors adabiyoti xazinasiga munosib hissa qo‘shdi. Shuning uchun ham u yaratgan “Devon” o‘zbek adabiyotining noyob durdonasi sanaladi. Ilm-fan, san’at bilan bog‘liq so‘zlar asarda juda ko‘plab uchradi va bu esa adibning ilm-fanni qadrlagani hamda insonlarni ilmli bo‘lishga undaganidan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Komron Mirzo. Devon. Nashrga tayyorlovchi Saidbek Hasan. Toshkent. “Fan” nashriyoti, 2004.

2. Navoiy asarlari lug‘ati. Alisher Navoiy asarlarining o‘n besh tomligiga ilova.Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1972.

3. Nisoriy Hasanxoja. Muzakkiri ahbob. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. I, II, III tom. – Toshkent: Universitet, 2003.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Birinchi jild. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa uyi, 2023.

7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Ikkinchi jild. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa uyi, 2023.

8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Uchinchi jild. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa uyi, 2023.

9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. To‘rtinchi jild. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa uyi, 2023.

10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Beshinchi jild. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa uyi, 2023.

11. Sh. Yorqin. Komron Mirzoning hayoti va ijodiy merosi. Fil. fan. nom. dissert. avtoreferati. Toshkent – 1999.

V. BADIIY TARJIMA MUAMMOLARI

Shu’ba raisi: f.f.f.doktori (PhD), dotsent Salimova Dilnavoz Akmalovna
Kotibi: JDPU katta o‘qituvchisi Boysinov Sohib Sobirovich

ALISHER NAVOIYNING FORSIY QIT’A VA RUBOIYLARIDA MUHABBAT VA ILOHIY ISHQ MAVZUSI

Bekova Nazora Jo‘rayevna,
BuxDU professori, f.f.doktori
Masutova Shaxlo Omonovna,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Alisher Navoiy - Sharq adabiyotining eng buyuk namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ijodida muhabbat mavzusi g‘oyat badiiy - falsafiy tarzda ifoda etilgan. Navoiy muhabbatni ikki xil talqin etadi: biri insoning insonga bo‘lgan muhabbati, ya’ni maishiy muhabbat, ikkinchisi esa ilohiy va ma’rifiy muhabbat. Ayniqsa, uning forsiy ruboiy va qit’alarida bu mavzu o‘ziga xos obraz va timsollar orqali aks ettiriladi.. Ushbu maqolada shoirning “Devoni Foniy” asaridan tanlangan ruboiy va qit’alar asosida muhabbat va ilohiy ishqning badiiy talqini yoritiladi.. Ishq mavzusi mumtoz adabiyotning bosh tomiri bo‘lgani kabi, Alisher Navoiy ijodining ham yetakchi g‘oyaviy yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Shoir o‘zining ko‘plab g‘azallarida ishqiy tuyg‘ularni betakror tasvirlash bilan birga, ruboiy janrida ham bu mavzuni yuksak badiiy mahorat bilan ifodalagan. Navoiy ishqni tasvirlashda uni nafaqat ilohiy-ma’naviy mazmunda, balki insoniy tuyg‘ularning eng nozik jilvalari sifatida ham talqin etadi. Bu ulug‘ ijodkorning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, u mazkur sharafli mavzuni ham turkiy, ham forsiy tillarda teng darajada yuksaklikda ifoda eta olgan. Quyida shoirning forsiy ruboiylari va qit’alari ma’nosi sharhi va badiiy tarjimasi orqali Navoiy ijodida ishqning badiiy talqinini tahlil qilamiz:

Шаб то ба саҳар ҳамекунам зориҳо,
Дар шиддати танҳоию бемориҳо,
Аз ҳаҷр фикандем ба душвориҳо,
Эй ёр, куҷо шуд он ҳама ёриҳо? .[1; 50]

Badiiy tarjima:

Tundan tongga qadar xasta , zor bo‘ldim,
Tanholikning girdobida xor bo‘ldim,
Hijronlarning azobida bor bo‘ldim,
Senga emas, nega dardga yor bo‘ldim.

Bu ruboiyda oshiqning sadoqati va hijron azobi ifoda etiladi. “Шаб то ба саҳар” birikmasi kecha-yu kunduz davom etadigan iztirobni anglatadi. Oshiq nafaqat jismonan, balki ruhan azob chekmoqda. . Bu yerda muhabbat insonni sinovdan o‘tkazuvchi ilohiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Tasavvuf adabiyotida

ishq azoblari va hijron inson ruhini poklovchi omil sifatida talqin etilganidek, mazkur ruboiyda ham oshiqning mashaqqatlar orqali toblanishi va ilohiy ishqqa intilib yashashi ifoda etilgan.

Shoirning navbatdagi ruboiysida esa ishqning o‘zgacha qirralari ko‘zga tashlanadi. Bu ruboiy orqali Navoiy inson qalbidagi muhabbatni yanada teran falsafiy mazmunda tasvirlaydi:

Ҳар лаҳза, ки аз чарх ҷафое расадат,
В-аз ҳодисаи замон балое расадат,
Гам нест гар аз маҳе вафое расадат,
Сар чун сари зулфи ӯ ба ное расадат? .[1;.49]

Badiiy tarjima:

Menga charxi falakdan har jafo kelsa
Zamonaning zaylidan ne balo kelsa,
Magar sendan menga bir vaqt vafo kelsa,
Dard demasman menga ming g‘am ravo kelsa.

Navoiyning ushbu satrlarida oshiqning sadoqati, sabr-toqati va ma’shuqa yo‘lida har qanday azob-uqubatlarga chiday olishi ifodalangan. Shoir osmon (charh) va zamon hodisalarini keltirib, oshiq hayotidagi qiyinchilik va musibatlarni badiiy tarzda ko‘rsatadi. Biroq bu balo va jafolar oshiq uchun qo‘rqinchli emas, chunki uning maqsadi ma’shuqadan bir ozgina bo‘lsa ham vafo ko‘rishdir. Ma’shuqaning vafo ko‘rsatishi shunchalik yuksak baholanadiki, oshiq o‘zining boshini uning zulfidek oyog‘i ostiga tashlashga ham rozi. Ruboiyning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, haqiqiy ishq insonni barcha musibatlarga sabr qilishga undaydi, vafo esa barcha azoblarning dardini yuvuvchi oliy ne’mat sifatida aks ettirildi.

Navoiyning keyingi ruboiysida esa ishq timsoli bo‘lmish ma’shuqaning ko‘zlari tasvirlanadi. Shoir ularni sehr-jodu bilan tenglashtirib, oshiq qalbini asir etuvchi kuch sifatida ifodalaydi:

Чашмат, ки тариқи сеҳр аз ӯ ёфт ривоҷ,
Аз Бобилу Кашмир ҳамегирад боҷ.
Айёрсифат рабуда гоҳи тороҷ,
Аз танҳо сар чунон, ки аз сарҳо тоҷ. ? .[1; 49-50]

She’riy tarjima:

Ko‘zlaringda cheksiz sehr jilvalanar,
Bobil-u Kashmir sehri senga zorlanar,
Makkorginam, shu qalbim o‘girlab olar,
Toj kabi boshimni oyoqqa solar.

Ruboiyning asosiy markazida ma’shuqaning ko‘zlari turadi. Shoir ularni sehr va joduga tenglashtirib, Bobil va Kashmir kabi sehr-u jodusi mashhur diyordan ham kuchliroq deb tasvirlaydi. Bu ta’rif orqali oshiqning nigoh oldida ma’shuqaning ko‘zlari oddiy go‘zallik emas, balki qalblarni asir etuvchi ilohiy qudrat darajasiga ko‘tariladi.Ruboiyning ikkinchi qismida esa ko‘zning ta’siri “ayyor” (hiylakor, makkor) sifatida gavdalanadi. Ya’ni, oshiqning qalbi va ruhi

shu qadar asir bo‘ladiki, hatto tojning boshdan yechib olinishi kabi, insonning eng aziz narsasi - irodasi ham nigoh oldida ojiz qoladi. Demak, bu ruboiyda Navoiy ishqning sehrli kuchini ma’shuqaning nigohi orqali ifodalab, uni ruhiy va ma’naviy asirlik ramzi ekanini tasvirlaydi. Shoir nigohni oddiy joziba emas, balki oshiqni ilohiy ishqqa eltuvchi qudratli vosita sifatida talqin etadi.

Shoirning ishq haqidagi qarashlari uning forsiy qit’alarida ham teran ifoda etilgan. Quyidagi qit’ada bu mavzu yanada teran ifoda etiladi:

Булбуло, машъуфи ишқи гул машав,
Ёд кун аз шиддати хори фироқ.
3-он ки бандад бор гул дар панҷ рӯз,
Соле афтад бар дилат бори фироқ. .[1; 31-32]

Badiiy tarjima:

Ey bulbul, gul ishqiga dil bog‘lama,
Yuragingni hijronlarga chog‘lama,
Bu besh kunlik chiroyning ozori ko‘p,
Hijronida qolib bir yil yig‘lama.

Bu qit’ada Alisher Navoiy ishqni bulbul va gul timsolida talqin qiladi. Gul – go‘zallik va sevgining timsoli, bulbul esa – oshiq qalbidir. Shoir bulbulga murojaat qilib, uni gul ishqiga oshufta bo‘lmaslikka undaydi. Chunki gulning umrini atigi besh kunlik bahor ifodalaydi, ammo uning hijroni bir yil mobaynida qalbni qiynaydi. Bu orqali Navoiy insoniy ishqning o‘tkinchiligini va undan keladigan hijron azobining uzoqligini ko‘rsatadi.

Tasavvufiy talqinda esa gul – dunyoviy go‘zallik, bulbul esa – insonga qiyos qilinadi. Oshiqlar dunyoviy nafs va o‘tkinchi lazzatlarga berilmasligi, balki ularni tark etib, ilohiy ishqqa yuz tutishi lozimligi ta’kidlanadi. Chunki foniy go‘zallik zavqi juda qisqa, ammo undan keladigan ma’naviy iztirob va hijron og‘ir yuk kabi uzoq davom etadi. Demak, mazkur qit’a ishq mavzusining ikki qatlamini – dunyoviy oshiq iztiroblari va ilohiy ishqqa yetaklovchi saboqni birlashtirgan bo‘lib, Navoiyning forsiy she’riyatidagi falsafiy badiiylikni yorqin namoyon qiladi.

Alisher Navoiy forsiy ruboiy va qit’alarida ishq mavzusini insoniy tuyg‘ular hamda ilohiy ma’rifatni uyg‘unlashtirgan holda aks ettiradi. Bu she’rlar Insonlarni o‘tkinchi ishq, dunyoviy orzu-istaklarga berilmay, ilohiy ishqqa talpinib yashashga, o‘zini komillik sari rivojlantirishga targ‘ib ertadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisherv Navoiy. MAT. XX tomlik. 19-tom. Toshkent: "FAN", 2002.-B.
2. Boboyev, T. Mumtoz adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
3. Karimov, N. Alisher Navoiy va forsiy adabiyot. – Toshkent: Fan, 2000.
4. Sirojiddinov, S. Navoiy asarlarining badiiyati va tasavvufiy mohiyati. – Toshkent: Fan, 2012.

ALISHER NAVOIY FORSIY QASIDALARIDA FAQR-U FANO TALQINI

Bekova Nazora Jo‘rayevna,
BuxDU professori, f.f.doktori
Ibroimova Mahliyo Najmiddinovna,
BuxDU doktoranti

Alisher Navoiy Sharq tasavvufiy tafakkurining eng yirik arboblaridan biri bo‘lib, uning ijodi turkiy va forsiy adabiyot rivojida alohida o‘rin tutadi. Navoiyning forsiy merosi o‘z mazmuni va shakliy yetukligi bilan salaflaridan qolishmaydi, ba’zan esa ayrim jihatlarda ularning eng yaxshi an’analarini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi. Xususan, uning forsiy qasidalarida tasavvufning asosiy tushunchalari -faqr, fano, baqo, tavhid, ishq kabi mavzular chuqur falsafiy va badiiy talqin etilgan.

Tasavvufda “faqr” Alloh oldida ojizlik, dunyoviy nafs istaklaridan voz kechish, ruhiy poklanish ma’nosida qo‘llanadi. “Fano” esa ilohiy haqiqatda “men”ning yo‘qolishi, ruhning ilohiy nur bilan birlashish jarayoni sifatida tushuniladi. Navoiyning forsiy qasidalarida bu ikki tushuncha bir-birini to‘ldirib, insonning ma’naviy kamolot sari o‘tadigan yo‘lining bosqichlari sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolada shoir forsiy qasidalarida faqru fano talqini, ularning ramziy ifodalanishi va tasavvufiy mazmunning badiiy shakllanishi ilmiy tahlil qilinadi.

Faqr tushunchasining tasavvufdagi mazmuni va Navoiyning talqini

Tasavvufda faqr so‘zi lug‘aviy jihatdan “kambag‘allik”, “ojizlik” ma’nolarini bildirsa-da, irfon an’analarida u ruhiy boylik, qalb pokligi, dunyoviy manfaatlardan voz kechish kabi ma’nolarga ega. Navoiy o‘z forsiy qasidalarida aynan ana shu ruhiy mazmunni ulug‘laydi. Shoir uchun faqir -mol-dunyosi kam odam emas, balki, dunyo lazzatlariga mukkasidan ketmagan,nafsini jilovlay olgan, Haqning roziligini barcha narsadan ustun qo‘ygan, ruhiy ozodlikka erishgan insondir.

Uning mashhur baytlaridan birida shunday deyilgan:

“*Dar faqr chu sultoni jahon ast niyoz,*
Sultoni jahon ro ba faqir ast ehtiyoj” .

Mazmuni: *Faqrning o‘zi jahonnning sultonidir; chunki dunyo sultonining o‘zi ham faqirga muhtojdir.*

Navoiy bu satrlar orqali tashqi saltanatning vaqtinchaligiga qarshi ichki boylik -ruhiy saltanatni qo‘yadi. Faqr -odamni kamtar qiladi, uni Haqqa yaqinlashtiradi va insonning haqiqiy yuksalishiga yo‘l ochadi. Navoiyning fikricha, faqr -bandaning o‘zini donishmandlik, boylik yoki maqom bilan emas,

balki Allohning marhamati bilan tirik ekanini anglashidir. Shu bois shoir faqrni insonning ma’naviy komillikka eltuvchi eng muhim bosqich sifatida ta’riflaydi.

“Sittai zaruriya” tarkibidagi birinchi qasidaning, ya’ni umumiy oltilik tizimining birlamchi asosini Ruh tashkil etadi. Shuning uchun asar ”Ruh ul-quds” deb nomlangan. Mutlaq Ruh va undan ajralgan ruhning yana Unga qaytish (uruj) asoslari ifodalangan. Ruh quvvasidagi 6 jihat, asos Fariduddin Attorning “Ilohiynoma”sidagi “Ruhga murojaat qilib degani” qismida birma-bir izohlanadi: “Ruh-ajoyib bir qushsan, na erdasan, na osmonda, balki Tangri taolo huzuridasan. Sening asosingda oltita belgi bor, ammo ularning har biri bir jahon-alohida bir olam. Har biri-bir sohibqiron, bir qudrat.

1. Biri Nafs belib, uning joyi sezgi a’zolaridir.
2. Biri Nafsi ammora belib, ziddiyatlar, nifoq shundan.
3. Biri Aqldir, aql muvofiqlikni, mantiqni boshqaradi.
4. Biri Ilmdir, ma’lumot, bilim teplash bilan band.
5. Biri Faqrdir, fano-yeqlik istar hamisha.
6. Biri Tavhiddir, YAgona zot istar va Unga intilar doim” [1; 12].

“Olti zarurat” tarkibidagi birinchi qasidaning “Ruh ul-quds” deb nomlanishining asosiy manbai ham shudir. “Ruh ul-quds” qasidasi – “Hayrat ul-abror” dostoni singari dasturiy−muqaddimaviy asar. YUqorida sanab etilgan ruhning olti quvvasi haqida “Sittai zaruriya” turkumidagi qasidalarning har birida qayta-qayta (yangicha tasvir usulida) izohlanadi. Chunki Alisher Navoiy Olloh-Olam aloqadorligining barcha sabablarini ruhning ana shu olti jihatiga tegishli deb biladi. Bu oltilik tizimi tarkibiy qismlari ez navbatida yana bir necha oltilik tizimiga belinadi, ya’ni Inson va Koinot, Inson va Mavjudot, Inson va Ilohning ezaro bog‘liqligi olam olti ilohiy kun mahsuli (“Ruh ul-quds”da bu xususda ma’lumot beriladi), olti “nodir jihati koinot va faqr ruknlari (“Aynul - hayot” va «Tuhfat ul-afkor» qasidasida bunga keproq urg‘u beriladi), olti iymon arkoni tarkibiy qismlari (“Qut ul-qulub”da arkoni iymon shartlari keng izohlanadi), jism qafasida ruhning sog‘lom taraqqiy etishining olti tibbiy asosi (“Minhoj un-najot”da bu masalaga doir asosli ishoralar bor), namoz faroizidagi olti xorij va doxil farzlar (“Nasim ul-xuld” va “Qut ul-qulub»da bu masalalar tasviriga kengroq ahamiyat berilgan) bir-biriga bog‘liq ravishda bir ilohiy mohiyatga borib taqaladi va shu tariqa oltilik tizimi − “Sittai zaruriya” shakllanadi.

Bu oltiliklarning barchasi umumiy bir ilohiy maqsadga − odam jismi qafasidagi ruhni Mutlaq Ruh tomon taraqqiy etib borishini ta’minlovchi uzluksiz tadrijiy jarayonga xizmat qiladi. [4; 3]

Fano tasavvufning eng yuksak darajalaridan biri bo‘lib, unda banda o‘z “men”idan voz kechadi va ruhiy jihatdan ilohiy haqiqat bilan uyg‘unlashadi. Bu holat shoirlar tomonidan asrlar davomida “erishiladigan eng oliy ruhiy maqom” deb ulug‘langan.

Navoiyning forsiy qasidalarida fano: nafsni tamoman yengish, o‘zligini Haq ishqida eritish, ilohiy nurni qalbda sezish, komil inson darajasiga ko‘tarilish mazmunlarida talqin qilinadi. Uning bir baytida shunday o‘qiymiz:

“ Faqr ahli istab qurbating, ahli g`ino ham toating,
Yetkanga dog`I furqating ne faqr nofi, ne g`ino”.

Mazmuni: Bu baytda Navoiy **faqr** (ruhiy kambag‘allik, Haqqa to‘la ehtiyoj) va **g‘ino** (boylik, to‘qlik, nafsiy mustaqillik) tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadi. Ya’ni: Haq yo‘lida o‘zini ma’naviy faqir deb bilgan, dunyodan kechgan banda Sen (Haq)ning **yaqinligingni (qurbatingni)** istaydi. Faqr ahli uchun eng oliy martaba – **Allohga yaqinlik**.

Navoiy ijodida faqr va fano bir-biridan ajralmaydi. Faqr -yo‘lning boshlanishi, fano -yakuni. Shoir bu ikki tushunchani ruhiy taraqqiyot bosqichlari sifatida ko‘rsatadi: Faqr -dunyodan voz kechish, nafsni jilovlash, Tark -dunyoviy bog‘liqliklardan uzilish, Ishq -qalbning ilohiy muhabbat bilan to‘lishi, Fano -“men”ning yo‘qolishi, haqiqat bilan uyg‘unlashish, Baqo -ruhning ilohiy haqiqatda abadiylashuvi. Navoiyning forsiy qasidalarida aynan ana shu ruhiy ketma-ketlik badiiy-ramziy obrazlar orqali ifodalangan. Parvona, sham’, gul, xazon, daryo, ummon, sahro singari ramzlar faqru fano jarayonining turli bosqichlarini timsollaydi.

Navoiy faqru fano tushunchalarini tasvirlashda boy ramziy tizimdan foydalanadi. Uning forsiy qasidalarida: Parvona -o‘zini fano qiluvchi oshiq, Sham’ -ilohiy nur, haqiqat, Sahro -tark holati, yolg‘izlik va izlanish, Ummon -ilohiy ma’rifatning cheksizligi, Ko‘ngil -ilohiy tajallining maydoni sifatida gavdalanadi.

“Tuhfat ul-afkor” qasidasining oxirida mamlakatni darvishlardek idora qilish fikri uqtiriladi. Sulton Husayn Boyqaro darvishvash, “faqr-oyin” (o‘zini faqir tutgan) shoh sifatida madh etiladi:

Shahi darvishvash – sultoni faqr-oyin, az ezid
Farozi taxti shohi faqru darvishist dar shohash.

Tarjimasi:
U darvishvash, faqr-oyin sultondir, ki xudo
U faqr shoh taxtini yuksaklarga ko‘tarmish va darvishlik uning shonidadir.

Navoiy qasidada Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Xoqoniylarni faxr bilan esga oladi, ular boshlagan yo‘lni davom ettirganini qayd qiladi.
Adib ushbu qasidalarida dinni adolat bayrog‘i sifatida targ‘ib va tashviq qiladi. Adolatsizlikka qarshi isyon ko‘taradi. Qasidalarda riyokor din arboblari tanqidi Umar Xayyom ruboiylaridagi isyonkor tanqid ruhi bilan juda hamohangdir.

Navoiy “Sittayi zaruriya” to‘plamiga kirgan qasidalarda Qur’onga, Muhammad payg‘ambarga nisbat berilgan, shariat qonun-qoidalariga amal qilishga, odil, faqirona hayot kechirishga chaqiradi. U faqirona hayotni (“faqru fano”, “Nasib soz tariqi fano, ki ayni baqost”) adolatsizlikka, zulmga, jaholat dunyosiga qarshi qo‘yadi. Uning forscha qasidalarida naqshbandiylik ruhi chuqur iz qoldirgan. Qasidalar yuksak san’at, badiiy mahorat bilan yozilgan. Ularni hayotdan olingan xilma-xil badiiy vositalar, rang-barang lavhalar bezab turadi [5;7].

Navoiyning forsiy qasidalarida faqru fano tasavvufning eng muhim tushunchalari sifatida keng yoritilgan. Shoir faqrdagi kamtarlik, dunyodan voz kechish, nafsoniy istaklar ustidan g‘alaba qozonish orqali insonning ruhiy poklanishini ulug‘laydi. Fano esa uning nazarida insonning ilohiy haqiqatga yaqinlashuvi, o‘z “men”idan voz kechib, ruhiy kamolotga erishish holatidir. Navoiy bu tushunchalarni chuqur falsafiy mazmun va mahorat bilan tasvirlab, forsiy qasidalarini tasavvufiy tafakkurning badiiy namunalariga aylantirgan. Uning ijodida faqru fano -komil inson darajasiga yetaklovchi ruhiy-ma’naviy dastur sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Attor Fariduddin Ilohiynoma.-Toshkent:YOzuvchi, 1994. –B.12
2. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 20-том. . - Тошкент: Фан, 2003
3. Bekova N.J. Alisher Navoiy forsiy merosining janriy xususiyatlari va badiiyati, Buxoro- 2021 УДК: [821.222.1-1:801.6]-95Навоий
4. Nazzora BEKOVA, Hikmet KORAŞ ALISHER NAVOIY QASIDALARI: ADABIY TA’SIR VA NOVATORLIK . *XI Beynəlxalq Türk Dünyası Araşdırmaları Simpoziumu 11-13 İyun 2024 / Bakı*
5. Feruza Nizamova. Alisher Navoiyning forsiy qasidalari. 08.02. 2025 https://www.iiau.uz/oz/news/3798

“SAODAT” JURNALIDA CHOP ETILGAN TARJIMA ASARLAR TAHLILI (1966-1976-YILLAR MISOLIDA)

Doniyorova Gulrux Baxtiyorovna,
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti o‘qituvchisi

Joriy yilda “Saodat” jurnali 100 yoshga to‘ldi. Dastlab “Yangi yo‘l” nomi bilan 1925-yildan chop etila boshlagan bu nashr millatimiz xotin-qizlari bosib o‘tib kelayotgan yo‘llarining bir qismi desak yanglishmaymiz. Jurnal nafaqat mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi voqea-hodisalar, o‘zbek adabiyotidagi qizg‘in adabiy jarayonlarni yoritdi balki, dunyo adabiyotining sara namunalarini ham chop etib boradi. Tarjima asarlarning qiymati shundaki, u turli xalqlar, millatlar o‘rtasidagi do‘stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarni yaxshilashga xizmat qiluvchi vositadir. “Saodat” jurnalining 1966-1976-yillardagi sonlarida ko‘plab chet el adiblarining qissa, hikoya va she’rlari chop etilgan. Jurnaldagi nasriy asarlarning tarjimasida Xolida Ahrorova, Lola Tojiyeva, Dilbar Mahmudova, Zumrad, Kibriyo Qahhorova va Hulkar Olimjonava kabi ayol tarjimonlarning faolligini ko‘ramiz.

1966-yil 8-sonida X.Ahrorova tarjimasida Senegal yozuvchisi Semben Usmonning “Ona”, 10-sonida X. Ahrorova tarjimasida Xolida Hosilovaning “Tuni bedor”, 12-sonida X.Ahrororva tarjimasida A.Aleksinning “To‘y arafasida”, 1968-yil 3-sonida Kibriyo Qahhorova tarjimasida Gorkiyning “Onani sharaflaylik”, 6-sonida San’at Yo‘ldosheva tarjimasida turk adibasi Suad Darveshning “Men tug‘ilgan shahar”, 8-sonida Lola Tojiyeva tarjimasida filippin adibasi Gloriya Gusmanning “Sovg‘a”, 12-sonida Dilbar Mahmudova tarjimasida suriya yozuvchisi Adil abu Shanobning “Nikoh ko‘ylagi”, 1969-yil 7-sonida hikoya Hulkar Olimjonova tarjimasida A.Strelsovaning “Dadamning teragi”, 1970-yil 2-sonida X.Ahrorova tarjimasida A.Chexovning “Tomoshadan so‘ng”, 7-sonida Lola Tojiyeva tarjimasida Vera Inberning “Norbuvi”, 10-sonida R.SHomansurova tarjimasida Marokash adibasi Malika Al Forsiyning “Qurbon”, 1971-yil, 4-sonida R. Shomansurova tarjimasida G.Tamarinaning “Jonginam”, 1972-yil 1-sonida X.Ahrorova tarjimasida Fozu Aliyevaning “To‘y”, S.Yo‘ldosheva tarjimasida Jek Koupning “Bir yarimta bilet”, 10-sonida Roza Sayfiyeva tarjimasida A.P.Chexovning “Uyqu istagi” va Labiba Ehsonovaning “Qo‘shiqchining qizi”, 12-sonida X.Ahrorova tarjimasida Sola Draygochevaning “Burch amri bilan”, 1974-yil 1-sonida X.Ahrorova tarjimasida L.N.Tolstoyning “Sabr kosasi”, 12-sonida X.Ahrorova tarjimasida Prem Chandning “Muhabbat gulxani”, 1976-yil 1-sonida X.Ahrorova tarjimasida Rozaliya Frangulyanning “Gilam”, 2-sonida K.Simonovning “Mangulik timsoli”, 10-sonida Yuriy Sokolovning “Kashfiyot” hikoyalari chop etilgan.
Maksim Gorkiyning “Umi” hikoyasi. (Xolida Ahrorova tarjimasi.)

Muallif bu hikoya orqali inson ruhiyatining eng nozik va chuqur qatlamlarini ochib bera olgan. U qisqa hajmli bo‘lishiga qaramay, o‘zida katta ijtimoiy-falsafiy va ruhiy-estetik yukni mujassam etadi. M.Gorkiy hikoyada tabiat bilan inson o‘rtasidagi uyg‘unlik, onaning iztirobi, umid va kutishning fojeali go‘zalligini badiiy vositalar orqali teran ifodalagan. Hikoya qahramoni Umi ismli telba ayol. Asardagi voqealar muallif (hikoyachi) tilidan bayon qilingan. U tog‘li manzillardan birida bo‘lgani va u yerda har kuni tongdan shomgacha bir xil mungli qo‘shiq eshitilib turishini aytadi. Dengizning shovullashi va qushlarning sayrashiga hamohang bo‘lib, bir-birini to‘ldirgan, bir-biriga singib ketgan bu qo‘shiq hikoyachida g‘alati hissiyot uyg‘otadi.

“Qishloq ahli menga yetti yidirki, bu o‘ychan qo‘shiqni eshitishlarini aytishdi. Men ulardan:
-Kim aytadi bu qo‘shiqni?-deya so‘ragan edim, ular, Umi degan bir telba xotin kuylaydi, deb javob qilishdi. Olti yil muqaddam eri bilan ikki o‘g‘li baliq ovlagani dengizga ketishibdi-da, qaytib kelishmabdi” (1)

Umining qo‘shig‘i qo‘shiq emas, alam va iztirobning xirgoyisi edi. Shu kundan hikoyachi unga qiziqib qoladi va kuzatishni boshlaydi. Bir kuni ayolning yoniga borishga qaror qiladi. “Unga yaqinlashdim, yoniga o‘tirib, qo‘shig‘ini tinglay boshladim. Qo‘shiq g‘alati edi-unda ishonch jaranglar va mungga

almashinardi,- unda sabrsizlik va horg‘inlik alomatlari paydo bo‘lardi, to‘satdan uzilar, jimib qolar va umid-orzularda to‘liq bir ohangda yana paydo bo‘lardi.” (2)

Hikoya syujetiga ko‘ra Umi ismli ayolning turmush o‘rtog‘i va ikki o‘g‘li baliq oviga borishadi. Baxtsiz hodisa ro‘y berib, ularning hammasi suvga cho‘kib halok bo‘lishadi. Shundan so‘ng Umi telbasifat ayolga aylanadi. Hikoyaning asosiy mavzusi ona yuragidagi bitmas-tuganmas umid, kutish va iztirob. Umi orqali Gorkiy inson qalbining eng bardoshli quroli umid tuyg‘usi ekanligini ko‘rsatadi. Hikoya qahramoni Umi hatto fojeaviy yolg‘izlikda ham umid bilan yashaydi va umid uni hayotda ruhiy jihatdan tutib turadi. Muallif uni telba ayol sifatida tasvirlagan bo‘lsa ham, aslida Umi taqdir zarbalariga taslim bo‘lishni istamaydigan, achhiq qismatiga bosh egishni xohlamaydigan aqlli ayol obrazidir.

“ - Eringizni ismi nima?-deb so‘radim undan.

Umi jilmayib javob qildi:

- Abduraim… To‘ng‘ich o‘g‘lim-Axtem, kichigi Yunus… Hozir kelib qolishadi. Huv anavi yoqdan kelishadi. Ha demay qayiq ko‘rinadi. Sen ham ko‘rasan!

Umi ana shu “Sen ham ko‘rasan”ni shunday aytdiki, go‘yo ularni ko‘rish men uchun ham katta baxt edi… Men tinglarkanman unga tikilar va o‘ylar edim: “Ishonch yaxshi narsa! Zo‘r quvonchga ko‘z tutib, bunga yurak to‘la ishonch bilan yashash qanday soz!”. Ayol katta dard ichida yashasa ham uning ongi faqat ishonch va umid bilan limmo-lim to‘lgan. Boshqa hech narsani sig‘dirmaydi va buni istamaydi. Yaqinlarini butun umrga yo‘qotganini his qilgan lahzadayoq u o‘lishiga ishonadi.

“Keksa Umi hech qachon hech nimaga yetisholmaydi, lekin qalbida umid bilan yashaydi va umid bilan dunyodan o‘tadi.”–deb yakunlanadi hikoya.

Hikoyaning badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi va estetik yondashuvlarini tahlil qilamiz:

1. “Umi” psixologik-realistik janrda yozilgan bo‘lib, qisqa hajmli, hayotiy, ruhiy kechinmalarga boy badiiy asardir. Asarda dramatik, fantastik yoki sarguzasht voqealar emas, balki oddiy, ammo yurakni o‘rtaydigan insoniy fojia haqida so‘z boradi. Ayolning o‘z farzandlari va turmush o‘rtog‘ini kutishdagi sabri, umid bilan yashashiga urg‘u beriladi. Hikoya ruhiy-psixologik va hayotiy realizm asosida qurilgan.
2. Obrazlar tizimida ham o‘ziga xos jihatlar bor. Bosh qahramon Umi derazasi dengizga qaragan uyda yashaydi. Uning hayoti bir nuqtaga ya’ni, kutish va sog‘inchga jamlangan. Muallif Umini shunday tasvirlaydi: “Umi bo‘ydor, kelishgan, sochlari oppoq, oftobda qorayib ketgan chehrasi mayda ajinlar bilan qoplangan ayol edi”. Umidsizlikda ham umid topa oladigan bu ayolning mungli qo‘shig‘i yurakdagi iztirob va najotning badiiy timsoli qilib tasvirlangan. Muallif bu hikoyada oddiy bir telba ayol taqdiri orqali kamdan-kam insonlarda uchraydigan kuchli sabr, iroda, umid, sog‘inch, ruhiy chidam va ona qalbining buyukligiga e’tibor qaratgan.

Asardagi yana bir obraz bu- hikoyachi. Voqealarga guvoh bo‘lgan bu obraz Umi haqida bevosita hukm chiqarmaydi, faqat uni kuzatadi. Hikoyachining neytral, lekin chuqur hamdardlik bilan to‘lgan pozitsiyasi orqali o‘quvchi ruhiy yaqinlikni his qiladi. Hikoyachining Umi haqidagi xulosalari o‘quvchiga hayotiy haqiqatdan saboq beradi.

Asarda tabiat obrazlari ham mavjud. Dengiz, bog‘, tog‘u toshlarning barchasi inson ruhiyatining badiiy aksidir. Gorkiy tabiatni mohirona jonlantiradi va uni Umining kechinmalari bilan uyg‘unlashtiradi.

3. Gorkiy hikoyada badiiy vositalardan ham mohirona foydalangan:

- Tashbeh: Hikoyada “dengiz yig‘layotganday” tuyulishi, “Ay-Petrining osmonga qo‘l cho‘zib turgan cho‘qqilari” kabi obrazli ifodalari asardagi ruhiy iztirobni kuchaytirishga xizmat qilgan;
- Simvolizm: Hikoyadagi ochiq deraza bu- kutish ramzi, dengiz esa umid va yo‘qotilgan hayotlar timsoli, Umining mungli qo‘shig‘i bu yurakdan chiqayotgan o‘zgarmas va tuzalmas og‘riq ifodasidir;
- Tabiat tasviri: Hikoyada Qrimdagi sokin tog‘lar va sersoya bog‘lar tasviri estetik va ruhiy fon vazifasini bajargan.

Xulosa qilib aytganda, Umi ona timsoli. U farzandlaridan ayrilgan millionlab onalarning ramzidir. Hikoya orqali muallif insoniyatga kutish fojiasi qanchalar og‘ir yuk ekanini ko‘rsatadi. Hikoyaning badiiy ifoda vositalari, realizm bilan uyg‘unlashgan falsafasi uni jahon adabiyotidagi eng ta’sirli psixologik hikoyalar qatoriga olib chiqa oldi.

“Saodat” jurnali yillar davomida jahon va o‘zbek adabiyotining eng sara asarlari, adabiy-tahliliy va publisistik maqolalari, qiziqarli va foydali ma’lumotlari bilan o‘quvchilar qalbidan joy ola bildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020-y.
2. Ergash Ochilov “Tarjimashunoslikning nazariy masalalari” T.: Innovasiya-Ziyo 2022-y.
3. “Saodat” M. Gorkiy. Umi. 1968-yil. – № 2. – B. 9-10.(1)
4. “Saodat” M. Gorkiy. Umi. 1968-yil. – № 2. – B. 9-10.(2)
5. “Saodat” jurnalining 1966-1976-yillardagi sonlari.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Saodat
7. https://press.natlib.uz/ru/publications/saodat

ABDULLA ORIPOV SHE’RLARI QORAQALPOQCHA TARJIMALARIDA ETNOGRAFIK BIRLIKLARNING BERILISHI

Allambergenov Davronbek Maxsudovich,
Qoraqalpoq davlat universiteti stajyor-o‘qituvchisi

Bugungi dunyodagi integratsiyalashuv jarayoni, barcha sohalarga axborot texnologiyalarining kirib kelishi, sanoatlashish jarayonining misli ko‘rilmagan darajada taraqqiy etishi, madaniyatlar va dinlar o‘rtasidagi o‘zaro kurash hamda zamonaviy dunyoning bugungi tendensiyasini belgilaydigan boshqa bir qator omillar insoniyatning o‘tmishi, turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyat va an’analariga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmay qolmayapti. Bu esa o‘z navbatida xalqlarning etnomadaniy merosi, jonli so‘zlashuv tili, etnik o‘ziga xosliklarini xavf ostiga qo‘ymoqda. Har bir millatning madaniyati va etnomadaniy hayot tarzi ma’lum bir tarixiy taraqqiyot davomida shakllanishi tabiiy. Milliy qadriyatlar, millatga xos belgi va xususiyatlar uning tilida, aniqrog‘i, etnografizmlarida saqlanadi.

Etnografizmlar til lug‘at tarkibining alohida qatlami hisoblanadi. U xalqimizning ijtimoiy hayoti, milliy urf-odatlari, mentaliteti, diniy e’tiqodidan paydo bo‘lgan. Shuningdek, etnografizmlar jamiyatdagi odob-axloq qoidalari asosida shakllangan, madaniyat va til manbalaridan tarkib topgan etnolingvistik tushunchalardir. O‘zbek xalqining jamiyatdagi o‘zaro munosabatlari, madaniyati, tarixini o‘zida aks ettirgan etnografizmlarning etnografik leksemalari tilning lug‘at boyligini oshiruvchi unsurlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Zero, „tarjima san’ati dunyo madaniyati rivojida muhim rol o‘ynagan va o‘ynab kelmoqda. Tarjima tobora o‘sib borayotgan, bir tilning jozibasini boshqa tilga ko‘chiruvchi va o‘quvchilarning hurmatini qozonishni maqsad qilib qo‘ygan aqliy ijodiy faoliyatdir“[3;28].

Keyingi yillarda o‘zbek tili etnografizmlari turli jihatdan, folklor yo‘nalishida, tilshunoslik nuqtayi nazaridan, tarjimashunoslik jihatidan, xususan, lingvokulturologik aspektda ham keng o‘rganilmoqda.

Milliy adabiyotimizning XX asr rivojida Abdulla Oripovning munosib o‘rni bor. U salkam oltmish yillik ijodiy faoliyati davomida bir qancha she’riy to‘plamlar, qasidalar va dostonlar yaratdi, jahon adabiyotidan tarjimalar qildi, adabiy-tanqidiy maqolalar yozdi. Shoir qoldirgan ma’naviy meros adabiyotimiz xazinasi bo‘lib qoldi. Uning she’rlari va dostonlari o‘ziga xos badiiyati, tili va ifoda tarzi, hech qaysi adibnikiga o‘xshamaydigan murakkab obrazlari bilan adabiyotda yorqin iz qoldira olgan. Abdulla Oripov o‘z asarlaridagi milliy ruhning betakror ifodasi orqali o‘zbek adabiyoti ravnaqiga katta hissa qo‘shish bilan bir qatorda o‘zbekni o‘ziga tanitdi, o‘zligini anglatdi, qaysidir ma’noda dunyo xalqlari orasida munosib o‘ringa olib chiqdi. Shoir ijodida Alpomish-u

Barchinlar, Layli-yu Majnunlar yangicha talqin va ma’no kasb etdi, xalqimizga xos kamtarlik, mehnatsevarlik, tantilik, soddalik, oilaparvarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar Abdulla Oripov qalamida o‘zgacha ko‘rinish kasb etdi.

Fikrimizning yaqqol isboti sifatida uning „Havas“, „Dorboz“, „Elobod“, „Parhez“, „Qirg‘iz diyori“, „Qovun hidi“, „Do‘stim haqida“ kabi she’rlarini keltirishimiz mumkin. Shoir ular orqali adabiyotimizga xalqimizning o‘ziga xos milliy nafasini olib kirdi, mehnatsevar, kamtar va tanti dehqonlar, chorvadorlar, bog‘bonlarga nisbatan dilimizda iliq va samimiy mehr uyg‘otdi, voha yigitlariga xos g‘ururlilik, or-nomusni jonidan ustun qo‘yish, dovyuraklik, mardlik, sadoqat kuylanadi.

Masalan, uning ko‘pchilikka mashhur „Havas“ she’ridan bir parchani tahlilga tortadigan bo‘lsak, milliy merosimiz sanalgan, belanchak etnografik birligi qatnashganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu she’rni qoraqalpoq tiliga P.Dabilov tarjima qilgan bo‘lib, satrlarni quyidagicha keltiradi:

Besigi basında oynar párshe nur,
Kishkene bóbekke bar dúnya ábes.
Bul párshe shuǵlada kórdiń ne sıyqır?!
Gódegim, men sagan etermen háwes[1;28].

Asliyatda:
Belanchak boshida o‘ynar parcha nur,
Jajji chaqaloqqa bor dunyo abas.
Shu parcha shu'lada ko‘rding ne sehr?!
Go‘dagim men senga qilurman havas[4;55].

Ushbu she'rning asliyatida berilgan belanchak etnografizmi tarjimada beshik deb qo‘llanilgan. Bularning har ikkalasi ham chaqaloqlarni yotqizib, tebratib uxlatish moslamasi hisoblanadi. Ammo **belanchak** etnografik birligiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u, odatda, temirdan yasalib, tebratish uchun qulay tarzda arg‘imchoqqa o‘xshatib ishlanadi. To‘rt burchagidan arqon bog‘lab, daraxtga bog‘lanadi, uy shifti va boshqalarga osiladi. Bolani yotqizishdan avval ichiga to‘shak, yostiq solinadigan maishiy jihoz. Qoraqalpoq tiliga „atko‘nshek“ deb tarjima qilinadi.

Beshik – tut, tol va boshqa turdagi yog‘ochlardan yasalgan yo‘rg‘a oyoqli moslama. Asosan, O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbeklar orasida keng tarqalgan an’anaviy moslama bo‘lib, chaqaloqni parvarish qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Ularning har ikkalasi ham milliy qadriyatlarimizni aks ettiradigan, qadimdan xalqimiz tomonidan foydalanib kelinayotgan buyumlar sanaladi.

Abdulla Oripov o‘zining „Dorboz“ she’rida sodda xalqimizning jasur farzandlari sanalmish dorbozlar haqida shunday mahorat bilan kuylaydiki, dorboz etnografizmiga izoh berishning hojati ham qolmaydi. Quyida ushbu she’rning qoraqalpoq tilidagi A.Qayipov tarjimasini ko‘rishimiz mumkin:

Bultlardıń qasında,
Aspan astında
Kirpiktiń jasınday turıptı dárwaz.
Qılıshtın qırında arqan ústinde
Kózleri jumılǵan júripti dárwaz.
Adamlar, adamlar, onı algıslań,
Qarań, ne degen epshil hám kewli haq.
Biz-she, eh... bazı bir kózi ashıqlar
Eplep júralmaymız úlken joldan-aq[1;8].

Asliyatda:

Bulutlarga yondosh,
Osmon ostida
Kiprikdagi yoshday turibdi dorboz,
Qilichning damiday arqon ustida
Ko‘zlarini yumib yuribdi dorboz.
Odamlar, odamlar, uni olqishlang,
Qarang, u naqadar epchil va o‘ktam.
Biz-chi, eh... ba’zi bir ko‘zi ochiqlar
Eplab yurolmaymiz katta yo‘lda ham[5;7].

Dorboz – dorda o‘ynovchi kishi. Dorbozlik taxminan 2,5 ming yil muqaddam Sharqda paydo bo‘lgan, so‘ng butun dunyoga tarqalgan. O‘zbekistonda dorboz qadim tarixga ega. Ba’zi manbalar Amir Temur saroyida ajoyib dor o‘yinlari ko‘rsatilganini tasdiqlaydi. Dorbozlik O‘zbekistonning barcha yirik shaharlarida, ayniqsa, Quva, Asakada taraqqiy etgan. O‘tmishda o‘zbek dorbozlari Xitoy, Hindiston, Afg‘oniston, Eron, XVIII – XIX asrlarda Rossiyada o‘z mahoratlarini namoyish etganlari to‘g‘risida ma’lumotlar bor. O‘zbek dorbozlari 25 -30 m balandlikdagi ustunlarga qiya qilib tortiladigan arqon ustida langar-cho‘p bilan bo‘ladigan o‘yinlarni: yugurish (olg‘a, orqaga), sakrash, oyoqlarga pichoq yoki patnis bog‘lab, shuningdek, ko‘zni bog‘lab, boshga xalta yoki qozon kiyib yurish, yakka va qo‘sh chig‘iriqda o‘ynash kabi turli-tuman mashqlarni bajargan. Dor o‘yinlari dor tagida raqqoslarning o‘yinlari, qiziqchilar, askiyachilarning chiqishlari hamda an’anaviy sirk turlaridan simdor, yog‘ochoyoq, nayrangbozlik, besuyak, muallaqchilik, o‘rgatilgan ayiq, ilon, maymun, ot, echki o‘yinlari bilan birga olib borilgan.

„Qovun hidi“ she’rini o‘qiganimizda esa undagi qovun navlariga e’tibor qaratishimiz lozim. Ushbu she’rni o‘zbek tilidan qoraqalpoq tiliga K.Karimov tarjima qilgan:

„Bazardan bir qawın satıp aldı shal,
Misli tapqan kibi jerden gáziyne.
«Abinabat» yaki «Kókshe» itimal,
Buǵan bala kibi quwandı jane“[1;179].

Asliyatda:

„Bozordan qovunni xarid qildi chol,
„Obi novvot“midi, „Ko‘kcha“midi yo.
G‘oyat xursand edi, kon topgan misol,
Bagr’ida bolalik bo‘y sochar go‘yo[2;39]*“.*

Bilamizki, o‘zbek qovunchiligi xalqimizning tarixiy merosi, dehqonchilikdagi ko‘p asrlik tajribasi va boy tabiatining in’omi sifatida qadrlanadi. Qovun, o‘zining mazasi va ozuqaviy xususiyatlari bilan qadimdan o‘zbek xalqining sevimli mevasiga aylangan. She’rda qovunning „Obi novvot“, „Ko‘kcha“ kabi navlari tilga olinadi. Tarjimada esa qoraqalpoq tilining fonetik va morfologik xususiyatlariga moslashtirib yozib qo‘yilgan. Ammo qovun navi nomlari atoqli ot bo‘lganligi uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aripov A. Aǵar dárya., - Nokis: Bilim, 2022.
2. Oripov A. Tanlangan asarlar. 8-jild., – T:2013.
3. G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi., – T:2012.
4. Орипов А. Биринчи муҳаббатим., – Тошкент: O‘ZBEKISTON, 2006.
5. Орипов А. Митти юлдуз., - Тошкент: 2002.

TANQIDCHILIK, TARJIMA VA ESTETIK YONDASHUVLAR (Ozod Sharafiddinovning adabiy merosi misolida)

Saidqulova Nargiza Shuhrat qizi,
JDPU magistranti
Ilmiy rahbar: JDPU katta oqituvchisi,
f.f.f.d(PhD) G.R.Tulishova

O‘zbek adabiyotining taraqqiyotida har bir ijodkorning o‘rni beqiyosdir. Shu jihatdan, O‘zbek adibi va olimi, tanqidchi va tarjimon Ozod Sharafiddinov ijodi alohida e’tibor talab qiladi. Mazkur maqolada uning ijodiy faoliyati, tanqidiy va

tarjimonlik uslublari, shuningdek adabiyotga qo‘shgan hissasi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tanqidchilik va adabiy tarjimaning rivojlanishida Ozod Sharafiddinov o‘ziga xos o‘rniga ega bo‘lib, uning ishlari zamonning estetik va ma’naviy talablari bilan uyg‘unlashgan. Adibning ko‘plab asarlari adabiyot ixlosmandlari va jamoatchilik orasida keng muhokama qilinib, milliy adabiy tafakkurga katta hissa qo‘shgan. Ozod Sharafiddinovning hayoti va ilmiy faoliyati: Ozod Sharafiddinov 1929-yil 1-martda Qo‘qon yaqinidagi Oxunqaynar qishlog‘ida tug‘ilgan. U Toshkentdagi 14-maktabni tamomlagan, O‘rta Osiyo Davlat universitetining filologiya fakultetini tugatgan va keyinchalik Moskvada aspiranturada tahsil olib, fan nomzodi ilmiy darajasini qo‘lga kiritgan. “Mustaqillik yillarida Sharafiddinov adabiy tanqidchi, tarjimon va jamoat arbobi sifatida keng qamrovli faoliyat olib bordi. Uning adabiy faoliyati “Cho‘lpon”, “Cho‘lponni anglash”, “E’tiqodimni nega o‘zgartirdim” kabi asarlarida o‘z aksini topgan. Bu asarlar orqali adibning estetik prinsiplari, tanqidiy yondashuvlari va zamonaviy adabiy jarayonni chuqur tushunishi yaqqol namoyon bo‘ladi”[1] (Rasulov, 2000). Ijodiy uslublari va so‘z san’ati: Ozod Sharafiddinov kuchli so‘z ustasi bo‘lgan. Uning asarlarida so‘zlardan to‘g‘ri foydalanish, oddiy so‘zlarni chuqur ma’no bilan boyitish kabi xususiyatlar yaqqol ko‘rinadi. Sharafiddinov hali el nazariga tushmagan o‘nlab iste’dodlarni kashf qilgan. “Ozod Sharafiddinov yozgan maqolalar, adabiy jamoatchilik orasida tez tarqalgan, turli davralarda muhokama mavzusiga aylangan. Ayniqsa Cho‘lpon, Fitrat kabi shaxsiyatlar haqidagi maqolalari va e’lon qilingan kitoblari keng e’tibor va shov-shuvga sabab bo‘lgan”[2]. Sharafiddinov adabiyot ilmiga, xususan adabiy tanqidchilikka katta hissa qo‘shgan. Uning ishlarida haqiqat, demokratik ruh va erkinlik mavzulari kuchli ifodalanadi. “Adabiyot va ma’naviy hayotimizning bironta dolzarb muammosi yo‘qki, u haqda Ozod Sharafiddinov o‘z so‘zi va salmoqli fikrini aytmagan bo‘lsin. Chunonchi, badiiy ijod jarayoni, ijodkor shaxsi, ma’naviy qiyofasi, mumtoz adiblar asarlarining go‘zallik sirlarini kashf etish, milliylik, baynalmilallik va adabiy aloqalar, badiiy til muammolari yoxud adabiyotimiz kelajagi hamda uni yaratuvchi talantli yoshlarga g‘amxo‘rlik, tanqid va adabiyotshunoslikda mahorat masalasi hamda saviyasi”[3]. Shu bilan birga Ozod Sharafiddinov asarlarining barchasiga xos mushtarak fazilat ham bor – ular adabiyotga, iste’dodga yoniq mehr va ijodkor shaxsga nisbatan samimiyatga yo‘g‘rilganligi bilan alohida ajralib turadi. “O‘zbekiston Qahramoni, ustozning mashhur maslakdosh va hassos shogirdlaridan biri Ibrohim G‘afurov to‘g‘ri e’tirof etganidek, “Iqtidorli yoshlarning barchasi Ozod Sharafiddinovni sevardi. Unga ergashardi. Uning rahbarligi ostida ilmiy dunyoga kirish ishtiyoqida bo‘lardi.”[4]

Bugungi adabiy-yestetik qarashlarimiz va ma’naviy tafakkurimiz rivojidagi Ozod Sharafiddinovning katta xizmatini alohida ta’kidlash lozim. O‘tgan asrning 60-yillaridan keyin u O‘zbekistondagi eng mashhur tanqidchilardan biriga aylangan. Tanqidchilikda uning mulohazalari zamonaviy adabiy jarayonni tahlil qilishda asos sifatida qaraladi.

Tanqidchilik va adabiy merosi: Ozod Sharafiddinov o‘zbek adabiyoti durdonalarini mohir zargar singari sinchkovlik bilan tahlil qilgan. U hali el nazariga tushmagan o‘nlab iste’dodlarni ommaga tanitgan. Uning maqolalari va kitoblari adabiyot ixlosmandlari orasida katta shov-shuvga sabab bo‘lgan. Ozod Sharafiddinovning ilmiy va tanqidiy ishlari adabiyot ixlosmandlari uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. “Tanqidning vazifasi ijodkorlarni yetuk asarlar yozishga ilhomlantirish va uni qo‘llab-quvvatlash bilan birga, ayni vaqtda, “adabiyotni har qanday balo-qazodan qo‘riqlash, adabiyotning sergak, jasur posboni” bo‘lish ham uning asosiy vazifasi sanaladi. Bu – adabiyotning fidoiy jonkuyari va targ‘ibotchisi bo‘lgan millatparvar va vatanparvar munaqqid, adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov faoliyatining tayanch nuqtasi va ijodkor sifatidagi maslak hamda e’tiqodining mustahkam bir g‘oyaviy-nazariy asosi edi, deyish mumkin. Shu munosabat bilan Ozod Sharafiddinovning adabiy tanqidchilik kasbi va uning o‘ziga xos xususiyatlari va talablari haqidagi qarashlari ham e’tiborga molik:”[5-39]. “Adabiy tanqid lirika va drama, qissa va roman kabi adabiyotning, so‘z san’atining teng huquqli janrlaridan biridir”[6]. Ya’ni adabiy tanqid ham g‘oyat murakkab va mas’uliyatli janrdir. Tanqidchi bo‘lish uchun, albatta, iste’dod kerak, shoir, dramaturg yoxud nosir bo‘lish uchun iste’dod, talant qanchalik zarur bo‘lsa, tanqidchi bo‘lish uchun ham shunchalik zarur. Kitoblar unga hayoti davomida eng katta boylik bo‘lgan. Munaqqid kitobni “birinchi mo‘jiza” deb atagan. Ellik yilligi munosabati bilan chop etilgan salmoqli kitobi ham “Birinchi mo‘jiza” nomi bilan nashr etilgan. Sharafiddinovning kitoblarga bo‘lgan mehr-muhabbati, ularni qadrlashi va har bir yangi kitobni qo‘liga olganida yuz-ko‘zidan quvonch ko‘rinishi uning hayotiy qarashlarini yaqqol namoyon qiladi (Ozod Sharafiddinov, 2007). Sharafiddinovning ijodidagi cho‘qqi “Ijodni anglash baxti” kitobida o‘z ifodasini topadi. Ushbu kitobda o‘zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonidagi o‘rni va ilmiy-ma’naviy o‘zanlari tadqiq qilingan. Yetmishinchi yillarning oxirlarida u “Tirik satrlar” nomli kitobini nashrga tayyorlab, qatag‘on qilingan shoirlar, jumladan Cho‘lponning ayrim she’rlarini kitobga kiritgan.

Tarjima va adabiy faoliyat: Ozod Sharafiddinov adabiy tarjima bilan ham shug‘ullangan. U o‘zbek nasri, dramaturgiyasi va she’riyati haqida ko‘plab maqola va kitoblar yaratgan. Shu jarayonda Abdulla Qahhorning ustozlik roli uning faoliyatida muhim o‘rin tutgan. Sharafiddinovning tarjima va tanqid ishlari milliy adabiyotning rivojlanishiga xizmat qilgan. “Ozod akaning kitoblarga o‘zgacha bir mehri borligi, ularni hamma narsadan aziz deb bilishi, yangi kitobni qo‘liga olgan kezlarida yuz-ko‘zidan bilinib turardi. Bu paytda unin chehrasi quvonchdan yorishib, lablariga tabassum paydo bo‘lardi Sharafiddinov ijodining cho‘qqisi “Ijodni anglash baxti” kitobidir. Unda o‘zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonda tutgan o‘rni va ilmiy-ma’naviy o‘zanlari tadqiq etib berilgan. Yetmishinchi yillarning oxirlarida Ozod Sharafiddinov , “Tirik satrlar” deb atalgan kattagina kitobni nashrga tayyorladi va unga qatag‘on qilingan qator shoirlar jumladan, Cho‘lponning ayrim she’rlarini qo‘shdi. U maqolalar ketidan

maqolalar, kitoblar ketidan kitoblar yozdi. Adabiy tarjima bilqan ham shug‘ullandi.

Ozod SHarafiddinovning o‘zbek nasri, dramaturgiyasi, xususan she’riyati haqidagi maqola va kitoblarningmaydonga kelishida Abdulla Qahhorning ustozlik o‘rni borligini hisobga olmaslik mumkin emas”[7]. Ozod Sharafidinovning ijodi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ozod Sharafiddinov o‘zining sohasida ko ‘rinarli mehnat qilgan.Chin ma’noda ziyoli, milliy ma’naviyatimizning yirik darg‘alaridan bo‘lgan Ozod domlaning farzandlariga aytgan so‘nggi so‘zlari ham avlodlarga bir vasiyatdek yangrab qoldi:

Ozod Sharafiddinov ijodi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. U chin ma’noda ziyoli, milliy ma’naviyatning yirik namoyandalaridan biri sifatida avlodlarga xizmat qilgan. Sharafiddinovning so‘nggi vasiyati: “Kitoblarimni asranglar, mening eng katta boyligim mana shu kitoblar edi…” – avlodlar uchun qimmatli meros sifatida qoldi. Adabiyotshunos olim yozgan asarlari o‘zbek adabiyoti tarixida takrorlanmas meros bo‘lib qoladi. Tanqidchilik, tarjima va estetik yondashuvlar orqali Sharafiddinov o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga, yangi iste’dodlarni kashf qilishga va adabiy tafakkurda chuqur iz qoldirishga ulkan hissa qo‘shgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rasulov, A. *Iste’dod va e’tiqod*. Toshkent: “Sharq” NMK, 2000.
2. *Adabiyot 8: darslik*, S. Olimov, S. Ahmedov, R. Qo‘chqorov. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2019.
3. Tulishova G. 2025. OZOD SHARAFIDDINOV: ADABIY TAHLIL USTASI GOLDEN BRAIN, ISSN: 2181-4120 https://researchedu.org/index. php/goldenbrain VOLUME 3 | ISSUE 13.2025.13.08 DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.16949822 B.192-198
4. Ozod Sharafiddinov Zamondoshlari xotirasida. –Toshkent: O‘zbekiston, 2007-yil, 164-b.
5. Tulishova G. 2025. ADABIY TANQIDNING ILDIZLARI VA MOHIYATI: O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIK TARIXIGA NAZAR. ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY ISSN: 2181-2802 **http://www.supportscience.uz/index.php/ojp** 39
6. Hamroyeva M. (2024). OZOD SHARAFIDDINOV IJODIDA ADABIYTANQIDIY QARASHLAR. Modern Science and Research, 3(6). Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/34739
7. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. –Toshkent: O‘zbekiston, 2007-yil.

VI. TA’LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYALASH USULLARINI JORIY ETISH

Shu’ba raisi: f.f.f.d. (PhD), dotsent Xidirova Munavvara Rustamovna
Kotibi: f.f.f.d. (PhD), dotsent Turopova Parizod Shavkat qizi

MƏKTƏBƏQƏDƏR VƏ İBTİDAİ TƏHSİLDƏ TƏLİM STRATEGİYALARI: BEYNƏLXALQ TƏDQİQATLARIN NƏTİCƏLƏRİ

Mikayıllı Böyükağa,
Azərbaycan Respublikası Elm və Təhsil Nazirliyinin
“Məktəbəqədər və ibtidai təhsil” elmi-metodik
junralının baş redaktoru

Müasir dünyada təhsilin keyfiyyəti birbaşa cəmiyyətin intellektual, sosial və iqtisadi inkişaf səviyyəsini müəyyən edən əsas amillərdən biri kimi çıxış edir. Xüsusilə məktəbəqədər və ibtidai təhsil pillələri insan şəxsiyyətinin, idrak imkanlarının, sosial davranışlarının və emosional dayanıqlığının formalaşdığı həlledici mərhələ hesab olunur. Məhz bu dövrdə tətbiq olunan təlim strategiyaları sonrakı təhsil uğurlarına, ömürboyu öyrənmə bacarıqlarına və sosial adaptasiyaya birbaşa təsir göstərir. Azərbaycanda “İdrak məktəbi”nin təsisçisi, “İdrak məktəbi” proqramının və pedaqoji texnologiyasının müəllifi Fatma xanım Bünyatova yazır: “Təlim strategiyaları düzgün nəticə əldə etmək üçün qurulan təlim modelidir” [Bünyatova, 2008]. Beynəlxalq təcrübə sübut edir ki, təlimin erkən mərhələlərində effektiv strategiyaların seçilməsi yalnız akademik nailiyyətlərin yüksəlməsini deyil, eyni zamanda uşağın sosial-emosional inkişafını, yaradıcılıq potensialını, tənqidi təfəkkürünü və müstəqil öyrənmə bacarıqlarını da təmin edir. Bu baxımdan son onilliklərdə aparılan beynəlxalq tədqiqatlar məktəbəqədər və ibtidai təhsildə oyun əsaslı öyrənmə, diferensiallaşdırılmış təlim, əməkdaşlıq yönümlü fəaliyyətlər, emosional dəstək və motivasiya əsaslı yanaşmaların xüsusi effektivliyini sübut etmişdir. Bu sahədə aparılan genişmiqyaslı qlobal araşdırmalar sırasında OECD-nin “Starting Strong” hesabatları, UNESCO-nun erkən uşaqlıq təhsili üzrə qlobal icmalları, eləcə də Harvard Center on the Developing Child tərəfindən aparılan neyro-pedaqoji tədqiqatlar xüsusi yer tutur. Bu tədqiqatlar birmənalı şəkildə göstərir ki, erkən yaş dövründə təlimin yalnız akademik bilik ötürülməsi kimi deyil, bütöv inkişaf prosesi kimi təşkili uşağın gələcək həyat uğurunun əsas şərtidir.

Bununla belə, bir çox ölkələrdə, o cümlədən inkişaf etməkdə olan təhsil sistemlərində məktəbəqədər və ibtidai təhsildə hələ də ənənəvi, müəllimmərkəzli, yaddaşa əsaslanan yanaşmalar geniş tətbiq olunur. Bu isə uşağın təbii marağının, təşəbbüskarlığının və daxili motivasiyasının zəifləməsinə, nəticə etibarilə isə

təlimin effektivliyinin aşağı düşməsinə səbəb olur. Beynəlxalq tədqiqatların nəticələri göstərir ki, müasir dövrün çağırışlarına cavab verən təhsil sistemi yalnız şagirdyönümlü, çevik və inkişafetdirici təlim strategiyalarına əsaslanmalıdır. Təqdim olunan məqalənin əsas məqsədi məktəbəqədər və ibtidai təhsildə tətbiq olunan təlim strategiyalarını beynəlxalq elmi tədqiqatların nəticələri əsasında təhlil etmək, onların üstün və zəif cəhətlərini müəyyənləşdirmək, eləcə də bu nəticələr əsasında təhsil praktikası üçün elmi əsaslı ümumiləşdirmələr aparmaqdır. Məqalədə müxtəlif ölkələrin təcrübəsi müqayisəli şəkildə araşdırılmaqla yanaşı, erkən yaşlarda effektiv təlimin təmin olunmasında psixoloji, pedaqoji və sosial amillərin qarşılıqlı əlaqəsi də geniş şəkildə şərh olunur.

Aparılan beynəlxalq elmi tədqiqatların nəticələri göstərir ki, məktəbəqədər və ibtidai təhsildə təlim strategiyalarının effektivliyi birbaşa şagirdin iştirak səviyyəsi, öyrənmə mühitinin keyfiyyəti, müəllimin pedaqoji ustalığı və emosional təhlükəsizliklə şərtlənir. Təlim yalnız bilik ötürülməsi deyil, uşağın idrak, sosial və emosional inkişafını birlikdə təmin edən kompleks proses kimi dəyərləndirilməlidir. Bu baxımdan Con Hətti tərəfindən aparılmış 800-dən çox meta-analizin sintezinə əsaslanan araşdırmalar göstərir ki, geribildirim, məqsədin aydınlığı, şagirdin təlim prosesində fəal iştirakı və müəllim-şagird qarşılıqlı əlaqəsi ibtidai təhsildə akademik nailiyyətlərə ən yüksək təsir gücünə malik amillərdir. Bu nəticələr ənənəvi müəllimmərkəzli yanaşmaların əvəzinə şagirdyönümlü strategiyaların tətbiqinin elmi əsaslarını təsdiqləyir [Hattie, 2009].

Erkən yaş dövründə təhsilin şəxsiyyətin formalaşmasına sistemli təsiri isə UNESCO tərəfindən hazırlanmış qlobal hesabatda xüsusi vurğulanır. Hesabatda qeyd olunur ki, məktəbəqədər təhsilin keyfiyyətli təşkili sosial bərabərliyin təminində, gələcək akademik göstəricilərin sabitliyində və insan kapitalının formalaşmasında həlledici rol oynayır. Bu yanaşma erkən təlimin sosial investisiya xarakteri daşıdığını sübut edir [UNESCO, 2022]. Paralel olaraq OECD tərəfindən təqdim olunan “Starting Strong” indikatorları göstərir ki, oyun əsaslı öyrənmə, diferensiallaşdırılmış təlim və əməkdaşlıq yönümlü fəaliyyətlər erkən inkişaf mərhələlərində uşağın təbii idrak mexanizmlərinə ən uyğun model kimi çıxış edir. OECD məlumatları sübut edir ki, bu yanaşmalar akademik göstəricilərlə yanaşı sosial uyğunlaşmanı da gücləndirir [OECD, 2017].

Oyun əsaslı öyrənmənin elmi əsasları isə Keti Hirş-Pasek, K.Qolinkoff, R.Berk, L.Singer tərəfindən hazırlanmış tədqiqatlarda fundamental şəkildə əsaslandırılır. Onların araşdırmaları göstərir ki, oyun mühiti uşağın dil bacarıqlarını, icraedici funksiyalarını, sosial ünsiyyətini və özünütənzimləmə qabiliyyətini sürətlə inkişaf etdirir. Bu, məktəbəqədər və ibtidai mərhələdə oyun əsaslı öyrənmənin pedaqoji zərurət olduğunu sübut edir [Hirsh-Pasek & Golinkoff, et.al, 2009]. Təlimin strukturlaşdırılması və nəticəyönümlü təşkili baxımından isə Robert J. Marzano tərəfindən irəli sürülmüş effektiv tədris modeli mühüm əhəmiyyət kəsb edir. Marzano göstərir ki, aydın məqsədlər, sistemli geribildirim, müsbət sinif iqlimi və refleksiya mexanizmləri ibtidai təhsildə

şagirdin məsuliyyət hissini və öyrənmə motivasiyasını əhəmiyyətli dərəcədə artırır. “Davranış mühiti düzəlmədən akademik nəticə davamlı şəkildə yaxşılaşa bilməz” [Marzano, 2007].

Davranış → öyrənmə mühiti → akademik uğur” zənciri bu tədqiqatda açıq şəkildə təsdiqlənir.

Müasir qlobal təhsil islahatlarının strateji istiqamətləri isə Andreas Sleyxer tərəfindən sistemli şəkildə təhlil edilir. Onun yanaşmasına əsasən, ənənəvi standartlaşdırılmış təlim modelləri XXI əsrin bacarıqlarını – yaradıcılıq, çevik düşüncə, problemlərin həlli və əməkdaşlığı – kifayət qədər inkişaf etdirmir. Bu yanaşma ibtidai mərhələdə çevik və adaptiv strategiyaların tətbiqinin zəruriliyini sübut edir [Schleicher, 2018].

Fatma xanım Bünyatovanın işləyib hazırladığı konstruktiv təlim texnologiyası XXI əsrdə təhsilin məqsəd, məzmun, metod və nəticələr sistemində köklü dəyişikliklər yaradan müasir pedaqoji yanaşma kimi xarakterizə olunur. Bu texnologiya ənənəvi bilik, bacarıq və vərdişlərin ötürülməsi modelindən imtina edərək, təlimin əsas məqsədini şagirdin mənanı anlama, biliyi dərk etmə, tətbiq etmə və yaradıcı fəaliyyətə çevirmə bacarığının formalaşdırılmasına yönəldir.

Konstruktiv təlimdə məqsədlərin dəyişməsi ilə paralel olaraq, təlim məzmununun quruluşu da dəyişir**:** biliklər diskret (hissələr üzrə) informasiyalar şəklində deyil, tamlıq və kontekst daxilində mənimsədilir. Bu yanaşma təlim materialının məntiqi modelləşdirilməsinə şərait yaradır və nəticədə təlim vaxtının 20-30% səmərəli azaldılmasına imkan verir. Beləliklə, şagird daha az vaxtda daha dərin və sistemli bilik əldə edir. Əldə etdiyi biliklər üzrə məntiqi əməllər apararaq bu bilikləri yeni bir formaya gətirir, yəni yeni biliklər yaradır. Fatma Bünyatova bu texnologiyanı yüksək texnoloji pedaqoji yanaşma kimi təqdim edir və onu təlim-tərbiyə prosesində yeni “nanopsixopedaqoji” istiqamətin formalaşması ilə əlaqələndirir. Bu yanaşma texnologiya əsrinin tələblərinə uyğun olaraq, təfəkkürün keyfiyyətcə yeni mərhələyə keçidini təmin edir. Konstruktiv təlim nəticəsində çoxşaxəli, çevik və analitik düşüncə tərzi formalaşır**,** şagird manipulyasiyaya daha az məruz qalır və müstəqil düşünmə qabiliyyəti güclənir.

Bu texnologiyanın əsas nəticələrindən biri də şagirdin özünü dərk, özünü anlama və özünü inkişaf yoluna yönəlməsidir. Şagird təfəkkürü yalnız hazır məlumatı qəbul edən mexanizm deyil, ömürboyu düşünən, araşdıran və bilik axtaran fəal sistemə çevrilir. Beləliklə, konstruktiv təlim modeli təkcə akademik biliklərin deyil, həm də şəxsiyyətin, təfəkkürün və intellektual müstəqilliyin formalaşmasına xidmət edən strateji pedaqoji sistem kimi çıxış edir.

Şagirdin dərsə fəal cəlb olunması problemi isə A.Fredriks, P.Blumenfeld və A.Paris tərəfindən emosional, davranış və idrak ölçüləri üzrə elmi əsaslarla izah edilir. Onun modeli göstərir ki, şagirdin dərsə emosional bağlılığı, davranış aktivliyi və idrak marağı arasında yüksək korelyasiya mövcuddur və bu göstəricilər akademik nailiyyətlərin bilavasitə proqnozlaşdırıcısıdır [Fredricks, Blumenfeld, Paris, 2004]. Neyro-pedaqoji müstəvidə isə Harvard Center on the Developing Child tərəfindən aparılan tədqiqatlar sübut edir ki, erkən yaşlarda

emosional təhlükəsizlik, qarşılıqlı ünsiyyət və stimullaşdırıcı mühit beynin struktur inkişafına birbaşa təsir göstərir. “Serve and Return” modeli əsasında qurulan təlim mühitləri uşağın yaddaş, nitq, diqqət və özünütənzimləmə bacarıqlarını gücləndirir [Harvard Center on the Developing Child, 2016].

Lev Vıqotskinin elmi yanaşmasına görə, uşağın inkişafı yalnız mövcud bacarıqları ilə deyil, eyni zamanda böyüklərin və daha bacarıqlı yaşıdların dəstəyi ilə çata biləcəyi potensial imkanlarla müəyyən olunur ki, bu da “Yaxın inkişaf zonası” nəzəriyyəsinin əsasını təşkil edir. O göstərirdi ki, pedaqoji proses psixoloji inkişafın kənarında deyil, məhz onun mərkəzində dayanmalıdır. Bu baxımdan təlim uşağın təkbaşına edə bildiklərinə deyil, dəstək vasitəsilə bacara biləcəklərinə yönəldilməlidir [Выготский, 1999]. Müasir beynəlxalq tədqiqatlar bu yanaşmanın məktəbəqədər və ibtidai təhsildə diferensiallaşdırılmış və pilləli dəstək (scaffolding) strategiyalarının elmi əsasını təşkil etdiyini təsdiqləyir. Bu model müəllimə hər bir uşağın inkişaf tempinə uyğun çevik pedaqoji müdaxilə imkanı yaradır. Nəticə etibarilə “Yaxın inkişaf zonası” erkən yaşlarda effektiv təlim strategiyalarının psixoloji dayağı kimi çıxış edir.

Elkonin oyunu uşağın psixi və sosial inkişafında əsas mexanizm kimi dəyərləndirir; o hesab edir ki, oyun vasitəsilə uşaq həm rol-öyrənmə, həm sosial qarşılıqlı əlaqə, həm də daxili iradi tənzimləmə bacarıqlarını inkişaf etdirir. Bu yanaşma məktəbəqədər və ibtidai təhsil kontekstində oyun əsaslı öyrənmə strategiyalarının vacibliyini elmi cəhətdən əsaslandırır. Elkonin göstərir ki, oyun - sadəcə zaman öldürmək üçün vasitə deyil - uşağın psixikasının, fantaziyasının, yaradıcı və simvolik düşüncəsinin formalaşması üçün praktik zəmin yaradır [Эльконин,1989]. Elkonin-in nəzəriyyəsi müəllimlərin və təlim proqramlarının istifadə etdiyi metodologiyaların yalnız akademik bilik yönümlü olmamalı, uşağın psixoloji və sosial dünyasını nəzərə alan strukturlaşdırılmış oyun fəaliyyətlərinə əsaslanmalı olduğunu göstərir. Beləliklə, Elkonin-in «oyun psixologiyası» baxışı milli kontekstdə məktəbəqədər və ibtidai təhsilin modernləşdirilməsi üçün əhəmiyyətli nəzəri dayaqlardan biridir.

Aparılan nəzəri və empirik xarakterli beynəlxalq tədqiqatların sistemli təhlili göstərir ki, məktəbəqədər və ibtidai təhsildə tətbiq olunan təlim strategiyalarının effektivliyi birbaşa şagirdin aktiv iştirakı, emosional təhlükəsizliyi, müəllim-şagird qarşılıqlı münasibətləri və öyrənmə mühitinin keyfiyyəti ilə sıx bağlıdır. Təhlil edilən mənbələrin ümumi nəticələri sübut edir ki, erkən yaş dövründə təlim yalnız bilik ötürülməsi prosesi deyil, uşağın idrak, sosial, emosional və şəxsiyyət inkişafını bütövlükdə təmin edən kompleks bir sistem kimi təşkil olunmalıdır.

Con Həttinin 800-dən artıq meta-analizin sintezinə əsaslanan tədqiqatları göstərir ki, aydın məqsədlərin müəyyənləşdirilməsi, davamlı və keyfiyyətli geribildirim, şagirdin təlim prosesində fəal iştirakı və yüksək səviyyəli müəllim-şagird qarşılıqlı əlaqəsi akademik nailiyyətlərə ən yüksək təsir göstərən amillər sırasında yer alır. Bu nəticələr şagirdyönümlü təlim strategiyalarının ənənəvi

müəllimmərkəzli yanaşmalara nisbətən daha səmərəli olduğunu elmi əsaslarla təsdiqləyir.

UNESCO və OECD hesabatlarının müqayisəli təhlili sübut edir ki, keyfiyyətli məktəbəqədər təhsil gələcək tədris uğurlarının, sosial uyğunlaşmanın və insan kapitalının formalaşmasının əsas şərtlərindən biridir. Oyun əsaslı öyrənmə, diferensiallaşdırılmış təlim və əməkdaşlıq yönümlü fəaliyyətlər uşağın təbii idrak potensialına uyğun modellər kimi çıxış edir və akademik göstəricilərlə yanaşı sosial bacarıqları da əhəmiyyətli dərəcədə gücləndirir.

Замонавий ҳаётдаги стресслар, тез ўзгаришлар, иш ва таълим босими шароитида оила ҳар бир аъзо учун маънавий ҳимоя, меҳр-муҳаббат ва руҳий таскин манбаи бўлиб хизмат қилади. Тинч ва тотув оилавий муҳит инсоннинг ижтимоий фаоллигини ҳам оширади. Замонавий шароитда оиланинг роли янада ортиб, унинг жамият ривожидаги ўрни кучайиб бормоқда.

Мустаҳкам, маърифатли, тотув ва аҳил оила – жамиятнинг барқарор ривожланиши, ёшлар камолоти ва миллий қадриятларнинг сақланишининг асосий кафолатидир. Шу боис оила институтини қўллаб-қувватлаш, ота-оналарнинг тарбиявий ва маданий салоҳиятини ошириш – бугуннинг энг муҳим ижтимоий вазифаларидан бири ҳисобланади. Миллий қадриятлар ва анъаналарни сақловчи муҳит вазифасини бажаради. Ота-онанинг масъулияти, меҳри ва намунаси болалар онгида барқарор ҳаётий позициянинг шаклланишида асосий омилдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023.
2. Оила кодекси. – Тошкент: Адолат, 2023.
3. Абдуқаххор, Ҳ. Оила психологияси. – Тошкент: Шарқ, 2019.
4. Зумо, Қ. Оила ва жамият муносабатлари. – Тошкент: Фан, 2020.
5. Назаров, Қ. Маънавият асослари. – Тошкент: Маънавият, 2018.
6. Тошибоев, Ш. Ёшлар тарбиясида оиланинг роли. – Тошкент: Ўқитувчи, 2021.
7. Ҳасанов, Б. Глобаллашув ва оила муаммолари. – Тошкент: Фан, 2022.
8. Қодирова, Д. “Замонавий ахборот муҳити ва ёшлар тарбияси.” // Педагогика журнали, №4, 2021.

SHAXSDA SUITSIDAL HARAKATLARNING KO‘RINISHLARI VA BELGILARINING NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI

Axmedova Nasiba Achilovna,
JDPU katta o‘qituvchisi

Insonlarning psixik jihatdan sog‘lom, me’yorida rivojlanishida, ularni ruhiy inqirozlardan, og‘riqli kechinmalardan va umidsizlikdan olib chiqishda psixologlarning roli kattadir.

Bugungi kunda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash eng ustivor vaifalardan biridir. Ruhiy sog‘lom, ma’naviyati yuksak, jismoniy va aqliy yetuk farzandlar yurt kelajagidir. Hozirgi kunda fan-texnikaning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi nafaqat jamiyat hayotiga balki o‘sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim-tarbiyasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmayapti. Buning natijasida o‘quvchi yoshlarimizda psixologik tanglik, qiyin vaziyatlar yuzaga kelmoqda. Albatta bunday tanglik holatlari o‘quvchining jismoniy, psixik va aqliy rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Bu esa depressiya va suitsidal xulq – atvor diagnostikasini qiynlashtiradi. Ulardagi depressiv holatlarni tushunish uchun o‘smir shaxsi shakllanayotgan atrof – muhit katta ahamiyatga egadir. U o‘smirning hayotni idrok qilishi xarakteriga, qadriyatlar tizimi va shaxsiy dunyoqarashiga ta’sir etadi.

Psixologlarning oldida turgan dolzarb muammolardan biri bu inqirozli vaziyatlarda shaxsda kelib chiqadigan turli sohadagi buzilishlarni yanada chuqurroq o‘rganish, oldini olish chora – tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishdan iboratdir.

Bu sohada o‘zbek psixolog olimlaridan A.Ye.Shir (1983) , N.Farberou (1964) , Ye.Rigel (1971) , A.G.Ambrumova (1973, 1978, 1989) , A.V.Kovalev (1968, 1972), A.Ye.Lichko (1977), L.Ya.Jezlova (1983), Ye.M.Vrono (1988) , V.T.Kondrashchenko (1988) , M.T.Davletshin (1991) , T.B.Shoumarov (1991) , N.Sog‘inov (1990) , E.Sh.Usmanov (1993) kabi tadqiqotchilar muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlarini olib borishgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, akt sof antropologik va hodisalar toifasiga kiradi. Inson xulq-atvorining bu hodisasi taxminan ikki uchun barcha tirik mavjudotlar uchun uning g‘ayritabiiy tabiati asrlar davomida insoniyatning dolzarb muammolaridan biridir.

Ilmiy – tadqiqot guruhi tomonidan va professor M.G.Davletshin tahriri ostida chop etilgan ―O‘zbekiston sobiq SSRda o‘zbek ayollarining o‘zini yondirishining ijtimoiy psixologik sabablarini o‘rganish‖ nomli ilmiy metodik tavsiyanoma O‘zbekistonda o‘z joniga qasd qilish ijtimoiy – psixologik jihatdan tadqiq qilishga bag‘ishlangan dastlabki yirik asarlardan biri bo‘ldi.

Asarda mualliflar tomonidan o‘zbek xotin – qizlarining o‘zi – o‘ziga o‘t qo‘yish sabablarini ko‘rsatish bilan bir qatorda ichki ishlar xodimlarida Suitsidal xulqning kelib chikish sabablari, suitsidan farqi va o‘ziga xosligi

xaqidagi qimmatli fikr va muloxazalarini ilgari suradilar. Jumladan, mualliflar fikriga ko‘ra yosh inqirozi ma’lum bir yoshga to‘g‘ri kelib, Suitsidal xulqning kelib chiqishiga bu xususiyat aloxida o‘rin tutadi.

Olimlar tomonidan shunday faktlar ham aniqlanganki, insondagi boshqa kishilarga qaratilgan o‘ch olish, norozilik bildirish va tovlamachilik qilish kabi intilishlar ba’zi bir vaziyatlarda o‘z yunalishini o‘zgartirib ushbu insonning o‘ziga qaratilishi mumkin. Inson spirtli ichimliklar iste’mol qilganda o‘zini o‘ldirish haqidagi fikrlarning kelishi osonlashadi.

Suitsidal xulq-atvor deganda o‘zining ustuvor ehtiyojlarini qondirish yo‘lida to‘siqlar uchraganda shaxsda yuzaga keladigan ichki inqirozni yechish vositasiga aylanadigan o‘z joniga qasd qilish kabi kishilar faolligi nazarda tutiladi. Suitsidal xulq-atvor umuminsoniy reaksiyalarning bir varianti sifatida suitsidal faollikning barcha ko‘rinishlari, individning shaxsiy harakatlari asosidagi ehtimoliy o‘limning barcha variantlariga munosabatini qamrab olib, ularga quyidagilar tegishlidir.

Suitsidal xulq-atvorning namoyon bo‘lish shakllari:

- Suitsidal fikrlar (passiv - tasavvur, o‘z o‘limi mavzusidagi xayolot (fantaziya), faol – ko‘ngilli tarzdagi o‘lim haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri e’tirof);
- Suitsidal niyat – Suitsidallik namoyon bo‘lishining faol shakli, ya’ni o‘z joniga qasd qilish tendensiyasi, uning chuqurlashuvi uni amalga oshirish rejasining ishlab chiqilganlik darajasiga muvofiq namoyon bo‘lib, suitsid usuli, harakat vaqti va joyi o‘ylab ko‘riladi;
- Suitsidal maqsadlar – irodaviy komponentning qaroriga ergashish;
- Suitsidal urinishlar – o‘lim bilan yakunlanmagan o‘zini maqsadli ravishda hayotdan judo qilishga harakt;
- Suitsidlar (ko‘rgazmali, affektiv va haqiqiy).

Xavf omillariga quyidagi ekstremal sharoitlar kirishi mumkin:

- armiyadagi xizmat;
- uzoq muddatli ekspedisiya;
- qamoq, majburiy yolg‘izlik va sh.k.

Yu.B.Popov, U. Bille-Brahe, E.Shneydmanlarning fikricha, o‘zini halok etuvchi xulq-atvorning asosida ong ostidagi o‘limga intilish emas, balki hayotiy muammolardan ketishga intilish yotib, bu ba’zi g‘arblik tadqiqotchilar fikricha, Suitsidal xulqatvorning asosi hisoblanadi. Hayotiy zo‘riqish (stress)lar, ayniqsa, yosh kishilarda, Suitsidal xulq-atvor xavfi tarkibiga kiritilgan. Suitsidentlarning 90% Suitsid oldidan bittadan ko‘p stressorlarning ta’sirini his qilishgan.

Bunda Suitsid bilan nisbatan chambarchas bog‘langan stressorlarning uch guruhi aniqlangan:

1. Shaxslararo muammolar (nizolar, ayriliq, xo‘rlanish). O‘z joniga qasd qilishni sodir etish uchun jiddiy va yetakchi motivni psixik shikastlanish tashkil etib, 92%da qaramaqarshi jins vakillari bilan munosabatlarda belgilangan, vaziyatlarning 72% Suitsidentlarning ahamiyatli munosabatlari tizimining

asosini tashkil etuvchi shaxsiy-intim munosabatlar va nizoli vaziyatlarga tegishli bo‘lgan.

2. Iqtisodiy muammolar. O‘z joniga qasd qilish chastotasi yuqori daromadli kishilardan ko‘ra, kam daromadli kishilarda 1,6 barobar ortiqdir.

3. Somatik kasalliklar, infeksiyalar va nospesifik tana shikoyatlari (charchoqlik, uyquning buzilganligi va zo‘riqish hissi). Tadqiqotlarga ko‘ra, Suitsidal xulq-atvor bog‘liq bo‘lgan muhim omillardan biri bu yosh ko‘rsatkichi bo‘lib, suitsidal xavfli davr sifatida yoshlik va keksayish payti hisoblanadi.

Psixokorreksion va profilaktik ish uchun shaxsning o‘ziga – o‘zi baho berishi va da’vogarlik darajasini bilish muhim. Ularning orasidagi farq qancha katta bo‘lsa, shaxsda asab buzilishlari va ijtimoiy moslasha olmaslik xavfi shuncha yuqori bo‘ladi. Shaxsga birinchi psixologik yordam ko‘rsatish vaqtida quydagi qoidalarga amal qilish zarur.

Odamning o‘zini shaxs, individual inson sifatida qidirishi va tan olishi bilan bog‘liq og‘ir kechinmalar depressiv holatga o‘tishi mumkin, u esa o‘z navbatida Suitsidal istaklarni kelib chiqishiga olib keladi. Bu holat ayniqsa o‘smirlik yoshiga xos bo‘lib, ushbu muammonining yetakchi jihati emosional buzilishlaridir.

Darhaqiqat, depressiyadan aziyat chekayotganlarning ko‘pchiligida yomon kayfiyat ustunlik qiladi, biroq har doim ham emas. Masalan, aynan ichki ishlar xodimlarida kuchli inqiroz holatlarida ham qayg‘uni subyektiv tarzda kechirishini ko‘pincha ko‘rmasligimiz mumkin.

Affektiv tarkibning sust namoyon bo‘lishi vaziyatlarda, depressiya xolatida fikrlash va ta’sirlanishning aniq tizimlarini, jismoniy holat, odamda namoyon bo‘ladigan boshqa mexanizmlar va boshqa insonlar bilan aloqa stereotiplari orqali aniqlash mumkin. Bu xolat esa depressiyani diagnostikasini qiyinlashtiradi.

Depressiv xolatni tushunishda shaxs shakllanadigan atrof – muxit muximdir, chunki u hayotni idrok qilish xarateriga, qadriyatlar tizimiga va shaxsiy dunyoqarashga (kechinmalarni kattalashtirish yoki kuchaytirishga moyilik) ta’sir qiladi.

Ota – onalar va farzandlar o‘rtasidagi tushunmovchiliklar ikkala tarafni depressiv xolatga olib keladi, biroq u ko‘proq yosh avlodda namoyon bo‘ladi. Chunki ota – onalar boladan farqli ravishda turg‘un psixika shakllangan shaxsdir. O‘spirinlarga o‘smirlik davridagi ota – ona munosabatidagi ―dushmanlik‖ ahamiyatli bo‘lib chiqadi. Shuningdek, o‘spirinlardagi depressiya bilan otalarning nuqsonliligi o‘rtasida yaqqol bog‘liqlik bor. Qizlar uchun esa onalar amalga oshiradigan tarbiya tizimining noizchilligi katta rol o‘ynaydi.

Profilaktik suhbat o‘tkazish metodi.

Inqirozli holatni yengib o‘tishda asosiysi shaxs bilan individual profilaktik suhbat o‘tkazishdir. Quydagilarni e’tiborga olish muhim;

- Suhbatda mijozni faol tinglashga yetarlicha e’tibor qaratish;
- Faol tinglovchi – bu suhbatdoshning butun diqqati bilan, uni

ayblamasdan tinglovchi odamdir, bu esa unga ichidagini to‘kib – sochish imkonini beradi.

•Faol tinglovchi suhbatdoshning hissiyotlarini to‘liq tushunadi va undan o‘ziga bo‘lgan ishonchni saqlanib qolishiga yordam beradi.

•Faol tinglovchi suhbatdoshini eshitishlariga yordam beradi.

Suitsidal xulq – atvorni belgilarini aniqlovchi diagnostik ishlar alohida e’tiborni talab etadi. Chunki, ba’zi o‘smirlarda kuchli inqirozli vaziyatlarda subyektiv kechinmalarni uchratmasligimiz mumkin. Bu esa depressiya va Suitsidal xulq – atvor diagnostikasini qiynlashtiradi. Ulardagi depressiv holatlarni tushunish uchun o‘smir shaxsi shakllanayotgan atrof – muhit katta ahamiyatga egadir. U o‘smirning hayotni idrok qilishi xarakteriga, qadriyatlar tizimi va shaxsiy dunyoqarashiga ta’sir etadi.

Depressiv holatlar profilaktikasi bo‘yicha tavsiyalar berishda o‘sir yoshdagi yigit qizlar bilan ishlashd quyidagi qoidalarga amal qilinsa samarali natijaga erishish mumkin.

1. Ertak va yarim haqiqatdan saqlaning. Yoshlar uchun eng katta muammolardan biri bu kattalarning sir saqlash istagi, haqiqatning buzilishi tuzatishga qodir sodir bo‘lgan voqyea tufayli tushkunlikka tushgan o‘smirda, ruhiy holati tushkun bo‘ladi. Shunung uchun oddiy va tushunarli ma’lumotlarni o‘smir yoshdagi o‘quvchilariga qulay shaklda yekazish kerak.

2.O‘smir yoshdagi bolalarga xafa bo‘lganini, qayg‘u ko‘rsatish, his-tuyg‘ularni tashlash imkoniyatini bering. G‘azab, umidsizlik, norozilik nafaqat kattalarga, balki his-tuyg‘ularini ochiq ifoda etish huquqiga ega bo‘lgan bolalarga ham imkon berish kerak va ularni e’tibor bilan tinglish lozim. Shu bilan birga o‘smirlarda paydo bo‘ladigan aybdorlik tuyg‘ulariga alohida e’tibor berish kerak, inqirozli vaziyatlarni oldini olish; konstruktiv usullarni muhokama qilish orqali qayg‘uli tuyg‘ularni yengish mumkin bo‘lgan ziddiyatlarni bartaraf etish.

Qanchalik g‘amgin bo‘lmasin, qiyin vaziyatdan chiqishning qorong‘u bulutlardan keyin aslida yorug‘ quyosh chiqishi, yoki inqirozli vaziyatlar eng yomon tish og‘rig‘i kabi bo‘lib, bir oz sabr qilinsa barcha og‘riqlar o‘tib ketishiga ishontirish lozim.

Depressiya va inqirozli vaziyatlar 1-2 kunda o‘tib ketmaydi,bartaraf etilmaydi,bunday holatdagi o‘smirlar yordamga muhtoj bo‘lib, ularni kattalardan mehribonlik va g‘amxo‘rlikni kutadilar.

Bunday olatda o‘qituvchi-psixologning vazifalari:

- o‘smirda o‘z joniga qasd qilishga moyillik bor yo‘qligini aniqlash;
- o‘smirdagi depressiya darajasini aniqlash;
-natijaga asoslanib, ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash bosqichlarini aniqlash (shu jumladan shifokorni ko‘rigidan o‘tkazish zarurati bo‘lsa,ota-onalarga ko‘rsatmalar berish);
- o‘smir bilan individual tuzatish ishlari;

- sinfda guruh ishini tashkil yetish va qayta tiklash maqsadida unga o‘smirni kiritish moslashish qobiliyatlari (bu kommunikativ trening yordamida qilinishi mumkin)
-depressiya holatidagi o‘quvchilar ishtirok etayotgan pixologik treninglarda o‘qituvchilar, ota-onalar va bolalar uchun maslahatlar tashkil yetish;
- o‘smirning holatini kuzatish (kuzatish usuli, suhbat usuli, so‘rov usuli).

Depressiya holatida ijtimoiy va psixologik yordam juda zarur, chunki ularning o‘zlari yordamga muhtoj bo‘ladi va e’tiborsizlik yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin

Umumjahon muammolardan biri xisoblangan o‘z joniga qasd qilish xodisasini tadqiq qilishda barcha mamlakatlar qatori respublikamizda ham qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ularda Suitsid muammosi, shu jumladan suitsidal xulq – atvorgv moyil ichki ishlar xodimlari Suitsidini psixiatrik, psixologik va ijtimoiy jixatdan tahlil qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Алешина Ю.Е., Данилин К.Е., Дубовская Е.М. Спецпрактикум по социальной психологии: опрос, семейное и индивидуальное консультирование.М., 1989.
2.Аминов Н.А., Молоканов М.В. Социально-психологические предпосылки специальных способностей школьных психологов//ВП, 1991, № 1-1. С. 74-84.
4.Бодалев А.А., Ломов Б.Ф., Лучков В.В. Психологическую науку на службу практике. ВП, 1979, № 4. С. 17-13.
5.Александровский Ю.А. и др. Психогении в экстремальных условиях. – М.: Медицина, 1991.

METHODOLOGICAL APPROACHES TO PATRIOTIC EDUCATION WITHIN THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL ACTIVITIES

Norov Nodir Jo‘rayevich,
Researcher, Chirchik State Pedagogical University

In the era of globalization and rapid socio-cultural transformations, the role of patriotic education in shaping the moral, civic, and cultural identity of young people has gained renewed significance. Higher education institutions are not only centers for academic learning but also serve as key environments for developing values, attitudes, and competences that prepare students to contribute responsibly to their nation and society. Spiritual and educational activities, as a complex system of events, programs, and initiatives, provide a strategic platform

for the formation of patriotic competence, enabling students to internalize national values and actively participate in the socio-political life of their country.

The methodological approaches to patriotic education must be grounded in both national traditions and modern pedagogical innovations, ensuring that educational practices are relevant to contemporary realities while preserving cultural heritage. A systematic combination of interactive methods, project-based learning, cultural events, and community engagement can create an educational environment conducive to the formation of patriotic values. This article seeks to explore such methodological frameworks, analyze their theoretical and practical underpinnings, and present effective strategies for integrating patriotic education into the broader system of spiritual and educational activities in higher education.

Patriotic education in higher education is a multi-dimensional pedagogical process aimed at shaping students' civic responsibility, national consciousness, and readiness to contribute to the socio-political development of their country. Within the system of spiritual and educational activities, patriotic upbringing is not limited to theoretical instruction but involves a set of value-oriented and practice-based experiences that foster a deep sense of belonging to one's nation and culture [1]. The methodological approaches to this process must be based on an integration of traditional pedagogical principles with innovative educational technologies, ensuring both continuity of cultural heritage and adaptation to contemporary global challenges [2].

One of the foundational methodological principles in patriotic education is the systemic approach, which treats spiritual and educational activities as an interconnected set of measures targeting students' moral, civic, and cultural development [3]. This involves long-term planning of events, consistent engagement of students in social and cultural projects, and the creation of an institutional environment supportive of national values. Another important methodological principle is the competence-based approach, where the goal is not merely to transfer knowledge about history and culture but to develop practical competences-such as critical thinking, civic initiative, and intercultural communication-that enable students to apply patriotic values in real-life contexts [4].

The cultural-context approach is also significant, as it emphasizes the role of national traditions, historical narratives, and cultural heritage in patriotic education [5]. By integrating folk art, literature, music, and historical commemorations into the educational process, universities can create a strong emotional and cultural connection between students and their national identity. Such integration also supports the concept of continuity, linking students' personal development with the collective memory of the nation [6].

In the modern educational landscape, innovative pedagogical technologies-including interactive lectures, project-based learning, role-playing simulations, and digital storytelling-are essential for increasing student engagement in patriotic education [7]. For instance, digital platforms can be used to organize

virtual excursions to historical sites, online discussions with veterans, and collaborative projects that address contemporary social issues. This not only enhances students' knowledge but also encourages active participation in community life [8].

Practical experience shows that the most effective patriotic education programs are those that combine classroom learning with extracurricular and community-based activities [9]. For example, volunteer programs, cultural festivals, and public service initiatives allow students to apply patriotic values in practice while developing leadership and teamwork skills. Moreover, cooperation between universities, governmental bodies, and non-governmental organizations strengthens the institutional capacity to organize meaningful spiritual and educational activities [10].

Finally, the reflective approach plays a critical role in evaluating the effectiveness of patriotic education [11]. Reflection allows students to critically assess their experiences, internalize learned values, and develop a conscious commitment to their civic responsibilities. Through structured reflection-such as discussions, essays, and peer feedback-students transform abstract patriotic concepts into personal convictions [12]. This ensures that patriotic education is not a formal requirement but a genuine component of students' moral and cultural development.

The conducted analysis demonstrates that the development of patriotic competence within the framework of spiritual and educational activities is a complex pedagogical process requiring a multi-faceted methodological approach [1]. The integration of the systemic, competence-based, cultural-context, innovative, and reflective approaches forms a comprehensive model that can significantly enhance the effectiveness of patriotic education in higher education institutions [2]. This integrated model allows educators to address not only the cognitive but also the emotional and behavioral dimensions of students' development [3].

Comparative analysis of international practices shows that countries with strong traditions of civic and patriotic education tend to combine formal instruction with informal and experiential learning opportunities [4]. For example, in Scandinavian universities, patriotic values are transmitted through community service projects, while in East Asian educational systems, emphasis is placed on collective responsibility and cultural heritage preservation [5]. This supports the argument that patriotic education should be adapted to the socio-cultural context of each country, incorporating both universal civic values and specific national traditions [6].

In the Uzbek higher education context, spiritual and educational activities have historically been an effective channel for promoting moral values, national identity, and civic consciousness [7]. However, the growing influence of global cultural trends, digital media, and increased student mobility requires innovative pedagogical strategies that can compete with external influences [8].

Implementing digital storytelling, virtual history tours, and interactive forums allows educators to connect with students on platforms they actively use, thereby increasing engagement and retention of patriotic values [9].

The findings also indicate that active student participation in designing and implementing patriotic events leads to a stronger sense of ownership and internalization of values [10]. When students are not only consumers but also co-creators of spiritual and educational activities, the learning process becomes more authentic and transformative [11]. Moreover, the inclusion of reflection sessions and peer discussions ensures that students critically process their experiences and link them to personal and societal responsibilities [12].

Nevertheless, challenges remain in ensuring the sustainability and consistency of patriotic education programs. Limited institutional resources, insufficient methodological training for educators, and a lack of integrated monitoring systems can hinder the effectiveness of these initiatives. Therefore, a unified methodological framework supported by policy, training programs, and evaluation tools is essential for maintaining long-term results in developing patriotic competence among students.

The study confirms that patriotic education, when systematically embedded within the framework of spiritual and educational activities, can significantly enhance students' patriotic competence in higher education. The integration of systemic, competence-based, cultural-context, innovative, and reflective approaches provides a robust methodological foundation capable of addressing cognitive, emotional, and behavioral dimensions of student development [1][2][3]. Such an integrated model not only strengthens students' understanding of national history and values but also deepens their emotional attachment to cultural heritage and increases their readiness to contribute actively to societal progress [4][5][6].

Key findings demonstrate that co-creation of activities, the use of innovative technologies, and structured reflection are critical drivers of engagement and value internalization [7][8][9][10]. These elements transform patriotic education from a formal, event-based process into a sustained and meaningful developmental pathway. Moreover, the qualitative evidence reveals that combining traditional cultural components with modern delivery formats bridges generational gaps, making patriotic education more relevant to contemporary youth [5][8][9].

However, the research also identifies challenges that require attention for long-term sustainability: uneven methodological preparedness of educators, lack of institutional coordination, and limited monitoring mechanisms [13][14]. Addressing these gaps will require targeted faculty training, the development of unified institutional strategies, and the establishment of comprehensive evaluation tools to measure both short- and long-term impacts of patriotic education initiatives.

In conclusion, patriotic education within spiritual and educational activities must be approached as a dynamic, participatory, and culturally grounded process. By aligning national traditions with innovative pedagogical practices, higher education institutions can cultivate graduates who are not only professionally competent but also deeply committed to their country’s cultural preservation, civic development, and social cohesion.

REFERENCES:

1. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
2. Shulman L.S. Those who understand: Knowledge growth in teaching // Educational Researcher. – 1986. – Vol. 15(2). – P. 4–14.
3. Bruner J. The Culture of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1996. – 224 p.
4. Delors J. Learning: The Treasure Within. Paris: UNESCO, 1996. – 250 p.
5. Smith A.D. National Identity. Reno: University of Nevada Press, 1991. – 236 p.
6. Hobsbawm E., Ranger T. The Invention of Tradition. Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 320 p.
7. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. – 2001. – Vol. 9(5). – P. 1–6.
8. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. – 256 p.
9. Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. New York: Macmillan, 1916. – 430 p.
10. Banks J.A. Diversity and Citizenship Education: Global Perspectives. San Francisco: Jossey-Bass, 2008. – 320 p.
11. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books, 1983. – 384 p.
12. Mezirow J. Transformative learning: Theory to practice // New Directions for Adult and Continuing Education. – 1997. – Vol. 74. – P. 5–12.

BOLALARDA AXLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Jumanova Nasiba Sherbaevna,
JDPU katta o‘qituvchi

Insoniyat madaniyatining tarixiy rivojlanishi jamiyatdagi munosabatlarning insonparvarlashuv darajasi, odamlar hayotida ma’naviy axloqning ta’sir doirasining kengayishi bilan baholanadi.

“Axloq” so‘zining ma’nosi odamlar o‘rtasida vujudga keladigan, umume’tirof etilgan me’yorlarga muvofiq yaxshilik va yomonlik nuqtai nazaridan baholanadigan haqiqiy munosabatlar yig‘indisi” sifatida izohlanadi. Axloq - bu inson tomonidan odatlar, ijtimoiy muhit, ta’lim va xulq-atvor tajribasiga muvofiq ishlab chiqilgan ehtiyoj, atrof olamga, odamlarga va o‘ziga nisbatan munosabatning axloqiy me’yori tushuniladi.

Axloq - inson va tabiat bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladigan ezgulik, adolat, burch, or-nomus ideallariga asoslangan insonning ichki (ma’naviy va ruhiy) fazilatlaridir. Axloq deganda kishilarning xulq-atvorini, jamiyatga munosabatini tartibga soluvchi me’yorlar yig‘indisi tushuniladi. Inson hatti-harakatlarini tartibga solish va nazorat qilish uchun mo‘ljallangan barcha normalar axloqiy xususiyatga ega. Har qanday axloq normasi shaxsning jamiyatga munosabatini ifodalaydi va tartibga soladi. Ko‘pincha shaxs manfaatlari jamiyat, siyosat, davlat manfaatlari bilan to‘liq mos kelmaydi va natijada ko‘pincha qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Kishilar bu me’yorlarni atrofdagi odamlardan o‘rganadi va ularni o‘zining ijtimoiy xulq-atvorining tartibga soluvchisiga aylantiradi. Binobarin, inson kamoloti, shubhasiz, uning gavdalanishi va axloqiy qoidalar asosida shakllanishi bilan xarakterlanadi. S.I.Ozhegovning lug‘atida axloqiy tarbiyaning ta’rifi: "Inson tomonidan boshqariladigan ichki ma’naviy fazilatlar va axloqiy me’yorlarni tarbiyalash ushbu fazilatlar bilan belgilanadigan hatti-harakatlar qoidalari bilan belgilanadi.

Axloqiy munosabatlarni shakllantirish vazifasi kattalar uchun jamiyatning ijtimoiy zaruriy ehtiyojlarini har bir bolaning shaxsiyati uchun burch, or-nomus, vijdon va qadr-qimmat kabi ichki rag‘batlarga aylantirishdir. Shaxsning axloqiy fazilatlarining shakllanishi tug‘ilishdan boshlanadi, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy elementlar mavjud, birinchi his-tuyg‘ular va g‘oyalar maktabgacha yosh davridan paydo bo‘ladi, axloqiy hatti-harakatlarning eng oddiy qobiliyatlari rivojlanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti maktabgacha yoshdagi bolalarning hatti-harakatlarida va kattalar hamda tengdoshlari bilan munosabatlarida eng oddiy axloqiy bilim va tuyg‘ular, axloqiy hatti-harakatlar, ong, his-tuyg‘ular, munosabatlarning yangi shakllari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun bolalarning ijobiy axloqiy tajribasi axloqiy tarbiya uchun muhim ahamiyatga ega. Ta’lim, birinchi navbatda, kundalik hayotda davom etadi, bunda bola axloqiy me’yorlar, qoidalar, tamoyillarga rioya qilishga odatlanib qoladi va ularning zarurligiga ishonch hosil qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning hatti-harakatlari boshqalarning jamoat manfaatlariga, shuningdek, jamoat hayotiga bog‘liq bo‘lsa ham, axloqiy hisoblanadi. Shunday qilib, axloqiy tamoyil bolaning butun ko‘p qirrali amaliy faoliyatiga, uning hissiy va intellektual sohalariga kiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda faoliyat jarayonlarida: mashg‘ulotda yoki o‘yin faoliyatida ijobiy yoki salbiy axloqiy fazilatlar namoyon bo‘ladi. Biroq, bolaning axloqiy me’yorlarini bilish uning tarbiyaviy xususiyatlarini hali

to‘liq aks ettirmaydi. Yaxshi tushunilgan axloqiy me’yorlar har bir bolaning hatti-harakatining motiviga aylanishi juda muhim, shunda bola umumiy qabul qilingan me’yorlar va hatti-harakatlar qoidalariga mos keladigan har qanday vaziyatda ikkilanmasdan to‘g‘ri qaror qabul qiladi.

Demak, bolalarning faol ijtimoiy pozitsiyasi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, mustaqillik boshqa yoshdagi bolalardan o‘zini o‘zi boshqarishi va o‘zini namoyon qilishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, yoshlarni o‘rganish bo‘yicha asosiy amaliy ishlar F. Akramova, Z. Nishonova, M. Zufarova, E. G‘oziev kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Bolaning rivojlanishida faol jarayonlarining paydo bo‘lishi uning axloqiy me’yorlarga hissiy munosabatda va qoidaga o‘xshash hatti-harakatlarning shakllanishida paydo bo‘lishini ko‘rsatdi. Maktabgacha yoshdagi eng muhim yangiliklar orasida: vizual fikrlash, tasavvur, motivlarning bo‘ysunishi, o‘zboshimchalik va aks ettirish elementlari hisoblanadi. 3 yoshida "Men" kontsepsiyasining paydo bo‘lishi va kattalar tomonidan qo‘llab quvvatlanishi maktabgacha yoshdagi bolaning ruhiy tuzilishida muhim yangi shakllanishlarga olib keladi - o‘zini o‘zi qadrlash va o‘zini o‘zi anglash, bu bola hayotining boshida chinakam faol pozitsiyasini ta’minlaydi. Tarbiyachining birinchi navbatdagi vazifasi bolani kattalardan ajralib, o‘zining "men" ini ochib berishga yordam berishidir. Umuman olganda, ontogenezning ushbu bosqichining funktsional tizimi bolaning aqliy, motivatsion, hissiy, axloqiy va irodaviy tabiatining jadal rivojlanishidan iborat.

O‘yin va muloqotning tobora murakkab shakllari kommunikativ sohada sezilarli o‘zgarishlarga yordam beradi. Ruhiy jarayonlar va hatti-harakatlarda paydo bo‘ladigan o‘zboshimchalik qiladigan vaziyatlarda o‘z-o‘zidan reaktsiyalar nisbati pasayishiga, axloqiy hg‘atti-harakatlar me’yorlari vositachiligidagi motivlarga bo‘ysunishga olib keladi. E.Eriksonning epigenetik rivojlanish nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshning oxiriga kelib, uchta ijobiy komponent: dunyoga asosiy ishonch, shaxsiy avtonomiya va maqsadga erishishda qat’iyatlilikka asoslangan tashabbus kabi sifatlar shakllanadi. M. Qoplonovaning fikricha, bolada o‘z-o‘zini hurmat qilish va o‘zini o‘zi anglash kattalar uchun ideal model bilan muloqot qilish (avval vaziyat-kognitiv, keyin esa tashqi vaziyat-shaxsiy) taqqoslash orqali shakllanadi.

I.V.Sushkovaning “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 6-7 yoshli bolalarning axloqiy ongini shakllantirish” dissertatsiyasida ta’kidlanganidek, tarbiyachiga nisbatan emotsional ijobiy munosabat ijobiy axloqiy me’yorga rioya qilishga qaratilgan. Umuman olganda, ontogenezning ushbu bosqichining funktsional xususiyati bolaning aqliy, motivatsion, hissiy, axloqiy va irodaviy fazilatlarini jadal rivojlantirishdir. O‘yin va aloqaning tobora murakkab shakllari kommunikativ sohada sezilarli o‘zgarishlarga yordam beradi.

Ruhiy jarayonlar va xulq-atvorda yuzaga keladigan o‘zboshimchalik vaziyatga o‘z-o‘zidan reaktsiyalar nisbati pasayishiga, xatti-harakatlarning axloqiy me’yorlari vositachiligidagi motivlarga bo‘ysunishga olib keladi. Bunda

his-tuyg‘ular alohida rol o‘ynaydi, bolaga ma’lum bir maqsadning mumkin bo‘lgan oqibatlarini oldindan ko‘rishga yordam beradi (A.V. Zaporojets buni "hissiy tasavvur" deb atagan). Bilvosita ehtiyojlar "qabul qilingan niyat" (L.I. Bojovich) fenomeni bilan bog‘liq bo‘lib, u insoniy axloqiy munosabatlarning rivojlanishi uchun juda muhimdir.

I.V.Sushkova to‘g‘ri ta’kidlaydiki, "ixtiyoriy xulq-atvorning paydo bo‘lishi individual axloqiy ongni shakllantirish uchun zarur, ammo yetarli emas, chunki axloqiy talablarga rioya qilish, birinchi navbatda, ma’qullash zarurati bilan bog‘liq". Z. Nishonovaning fikricha, bolalarni axloqiy xulq-atvorga undashning birinchi sabablaridan biri bu kattalarning roziligidir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining burch tuyg‘usiga muvofiq axloqiy harakat qilishi - bu asosiy axloqiy motivdir.

Zamonaviy tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolaning axloqiy xulq-atvorining motivatsion yo‘nalishini tashkil etuvchi tarkibiy qismlarni aniqlaydi: axloqiy ehtiyojlar va motivlar, axloqiy o‘zini o‘zi anglash va o‘zini o‘zi qadrlash, his-tuyg‘ular va tajribalar, shuningdek, ijtimoiy tuyg‘ular. Ko‘pgina tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolani ijtimoiy hatti-harakatlarning paydo bo‘lishida eng sezgir davr deb ta’riflaydi. L.S. Vygotskiyning fikriga ko‘ra, "ichki axloqiy holatlar" maktabgacha yoshda paydo bo‘ladi.

Xorijiy tadqiqotchilar ham maktabgacha yosh bolaning axloqiy rivojlanishi uchun eng qulay davr deb hisoblashadi. E. G‘oziev maktabgacha ta’limning muayyan ta’sirlarga alohida ochiqlik va ularni qabul qilishga ichki tayyorlik davri ekanligini ta’kidlaydi hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda ongning rivojlanayotgan axloqiy va baholash faoliyati asosida axloqiy tanlov qilish qobiliyati rivojlanadi, bu esa o‘z navbatida tan olish zarurati bilan bog‘liq ekanligini uqtiradi.

Xulosa qilib aytganda, demak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining "axloqiy qiyofa" toifasidan bolalarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishda foydalanish muhimdir. Bu o‘z o‘rnida bolaning axloqiy fazilatlari, imkoniyatlari namoyon bo‘lishi, ularga nisbatan shaxsiy munosabati haqidagi g‘oyalarni o‘z ichiga oladi va bolaning axloqiy ishni tanlash va bajarish istagini oldindan belgilaydi. Shunday qilib, biz axloqiy munosabatlarni shakllantirish, ayniqsa, maktabgacha yoshda qanchalik muhimligini ko‘ramiz, chunki aynan shu davrda u tarbiyaning asosini tashkil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, bolaning axloqiy munosabatlarini shakllantirishga ta’limning alohida bo‘limi va boshqa har qanday bo‘lim sifatida qarash kerak. Shunday qilib, biz "axloqiy munosabat" tushunchasining mohiyati maktabgacha yosh davrida amalga oshiriladigan ta’lim jarayonini o‘z ichiga oladi, bolalar hayotini tashkil etishda tizimlashtiruvchi omil sifatida organik komponent bu yerda axloqiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyati bo‘lishi kerak degan xulosaga kelishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Psixologik maslahat. R. Abdurasulov va G.Qarshiboeva. O‘quv qo‘llanma Bayoz-Toshkent 2022 yil
2. Karimova V. M. «Psixologiya» T.Sharq 2002y.
3.G‘oziyev E. G‘. «Umumiy psixologiya» 1-2 tom. Toshkent-2002.
4.Xaydarov F.I., Xalilova N.I. «Umumiy psixologiya» T.: Fan va texnologiyalar 2010 yil

IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Soibnazarova Muqaddas Norpo‘latovna,
JDPU katta o‘qituvchi

O‘quvchi shaxsining rivojlanishi, atrof-olamni idrok etishi, bilimlarni o‘zlashtirishi, malaka va ko‘nikmalar, ilmiy tasavvurlarning hosil bo‘lishida muhim bosqich hisoblanadi. O‘quvchida bilish jarayoni ijodiy faoliyat natijasida yuz beradi. O‘quvchining berilgan topshiriqni bajarish jarayonida izlanishi, ijodiy faoliyati namoyon bo‘lishi uchun aniq maqsadga yo‘naltirilgan, rejalashtirilgan, me’yor va mezonlarga ega bo‘lgan, o‘z-o‘zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Bu esa o‘quvchida atrof-olam obyektlari va ular haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish, ta’lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi.

O‘quvchilarida ijodiy faollikni shakllantirish muammosi ko‘p qirrali pedagogik-psixologik ijtimoiy vazifalardan biri bo‘lib, jamiyat ijtimoiy rivojlanishi va taraqqiyoti uchun dolzarb vazifalardan biridir.

Ijodkorlik - faoliyatning turli holatlarida paydo bo‘ladi. Qiziqish, ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo‘lishidan tortib, to namoyon bo‘lishigacha jarayonni o‘z ichiga oladi. Shaxsning ijodiy faoliyat ehtiyoji uning harakatlarida yangi, ilgari maqsad qilib qo‘yilmagan bunyodkorlik intilishini bildiradi.

Ijodkor shaxsni shakllantirishda pedagogning asosiy vazifasi o‘quv-tarbiya jarayonida ijodiy faoliyatni tashkil etish shakl, metod, usul, vosita va yo‘nalishlarini belgilab beruvchi zarur axborotlar bilan ta’minlash hisoblanadi. Shuning uchun axborot ta’minotini pedagogik jihatdan boshqarish, ularni ilg‘or texnika va texnologiya yutuqlari bilan boyitish maqsadga muvofiqdir. Ijodkor shaxsni shakllantirishda ijodiy faoliyatdan tashqari tasavvur qila olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasavvur va ijod bir-biri bilan uzviy bog‘liq, ammo, ularning orasidagi aloqadan maqsadli vazifa kelib chiqadi. Bunda tasavvur ijodni keltirib chiqaradi. Ijodiy tasavvur jarayonida har tomonlama his qila olish yetakchi hisoblanadi.

Tasavvur turlarining paydo bo‘lishi ijodiy faoliyatning xilma-xil shakllarini rivojlantirish natijasi hisoblangan. Shuning uchun inson faoliyatning maxsus, o‘ziga xos turlari qancha bo‘lsa, tasavvurning shuncha maxsus turlari mavjud.

Bularga konstruktiv, texnik, ilmiy, badiiy, tasviriy, musiqiy turlarini kiritish mumkin. ljodiy faoliyatning xilma-xil turlarida tasavvurning barcha turlari ijodiy tasavvur shakllari ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Qiziqish, ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo‘lishidan tortib, to namoyon bo‘lishigacha jarayonni o‘z ichiga oladi. Shaxs- ning ijodiy faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi, ilgari maqsad qilib qo‘yilmagan bunyodkorlik intilishini bildiradi. O‘quvchilaridagi ijodiy faoliyatning har qanday kurtaklari ta’lim-tarbiya, faoliyatdan tashqarida kamol topa olmaydi. Shuningdek, ijodiy faollik quyidagi ichki komponentlardan tashkil topadi:

- o‘quv topshiriqlarini bajarishga tayyorlik;
- mustaqil faoliyatga intilish;
- topshiriqlarni ongli bajarish;
- o‘qishning tizimliligi;
- o‘zining shaxsiy imkoniyatlarini oshirishga harakat qilish va boshqalar.

O‘qituvchi o‘quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirishda qator tamoyillarga amal qilish talab etiladi:

1. Ta’limni individuallashtirish.
2. Ta’limni rivojlantirish.
3. Faoliyat turlariga qulay sharoitlarni yaratish.
4. O‘quvchilar qobiliyatlarining faoliyatda namoyon bo‘lishiga imkoniyatlar yaratish.
5. Darsdan tashqi faoliyatlar (ishlar) imkoniyatlaridan unumli foydalanish.
6. Ta’limning rivojlantiruvchilik tamoyilini qo‘llash.

O‘qituvchi bir nechta fandan dars berishini inobatga oladigan bo‘lsak, u o‘z o‘quvchilarining ijodiy faolligini rivojlantirishda quyidagilarni ham inobatga olishi lozim:

- o‘quvchilarning o‘quv predmetlari ichida qay biriga ko‘proq qiziqishi va iqtidorini aniqlash;
- o‘quv fanlari bo‘yicha tayyorlangan o‘quv materiallar, masala, topshiriqlarning murakkabligi, ijodiyligi, ilmiy-tadqiqot darajalarini o‘z ichiga olgan holda ijodiy faollikni bolalar bilan ishlash buyicha tematik reja va dasturlarini tuzish;
- o‘quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirish yuzasidan individual ish rejalari ishlab chiqish.

O‘qituvchi dars loyihasi tuzishda o‘quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirishda samarali natija beradigan quyidagi faollashtirish vaziyatlarini inobatga olishi muhim:

- o‘z fikrida turish;
- bahs-munozaralarda ishtirok etish;

- o‘z o‘rtoqlari va o‘qituvchi oldiga savollar qo‘yish;
- o‘rtoqlarining javoblarini izohlash;
- o‘rtoqlarining javobi va yozma ishlarini baholash;
- orqada qolganlarga ko‘maklashish;
- bo‘sh o‘zlashtiruvchilarga tushunmaganlarini tushuntirish;
- kuchi yetadigan topshiriqni mustaqil tanlash;
- biluv topshiriqlarining bir necha variantdagi yechimini topish;
- o‘z-o‘zini tekshirish, o‘zining biluv va amaliy xatti-harakatlarini tahlil qilish vaziyatlarini yaratish;
- biluv topshiriqlarini o‘ziga ma’lum bo‘lgan amallarni kompleks qo‘llagan holda bajarish.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida uning aqliy-intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Bu borada, ayniqsa, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroqdir. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari o‘z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san’at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog‘liq. Shunga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda har bir o‘quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Boltayeva Sh.T. O‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi // Zamonaviy ta’lim. №6. 2017. 48-52-b.
2. Samarova Sh.R. Ijodkor shaxslar shakllanishida faoliyat va tasavvur jarayonlarining o‘rni // Zamonaviy ta’lim. 2017, 6. 22-26-b.
3. Shodiyeva M. Akmeologik yondashuv asosida o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish, uning mazmuni va bosqichlari // TDPU axborotnomasi. 2022, 4-son. 100-107-b

MUAYYAN SOHAGA USLUBIY YO‘NALTIRILGAN TARKIBLASHTIRILGAN TO‘PLAMNING LINGVODIDAKTIK IMKONIYATLARI

Tursunov Alisher Rozikjonovich,
Innovatsion texnologiyalar universiteti
Filologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Tarkiblashtirilgan to‘plamni tuzishda matnni tanlashga oid bir qancha savollar yuzaga keladi va bu borada turlicha qarash mavjud.

Tarkiblashtirilgan to‘plamni tuzish bo‘yicha tadqiqotchilarning fikrlari bizga o‘zimizning “Filologiya” ixtisosligi talabalari uchun tarkiblashtirilgan to‘plamimizni tuzish borasidagi ko‘plab savollarga javob topishga sharoit yaratdi.

Tarkiblashtirilgan to‘plam metodik maqsadlar uchun tuzilgan bo‘lib, asosan yozma manbalardan iborat. Biz asosan yozma matnlarga e’tibor qaratganimizning birinchi sababi matnlar tayyor holatda mavjud. Ikkinchi sabab esa mehnat kuchi sarfi bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. Og‘zaki nutqni tarkiblashtirilgan to‘plamga kiritish tarkiblashtirilgan to‘plamni tuzish vaqtini va unga sarflanadigan mehnatini sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

Og‘zaki nutqni ovozli yozuvini qilish va nutqni yozma matnga aylantirish - elektron shaklda taqdim etishdan ko‘ra anchagina mashaqqatli, ko‘p mehnat kuchi talab etadigan va shu bilan birga moddiy tomondan qimmat jarayondir. Bunday xarajatlarni faqatgina yirik tashkilotlar va tadqiqot guruhlari qoplay olishlari mumkin. SHuni ham ta’kidlash kerakki, allaqachon og‘zaki nutqni to‘liq ifodalashi mumkin bo‘lgan yirik tarkiblashtirilgan to‘plam loyihalari mavjud.

Tilning turli sohalari, uslublari va shakllarini ifodalovchi, uni to‘liq aks ettiradigan tarkiblashtirilgan to‘plamni ishlab chiqish borasida keng qamrovli loyihalar birinchi bo‘lib paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, fan sohasida tarkiblashtirilgan to‘plamni yaratish g‘oyasi bir necha yillar davomida amaliyotchi pedagoglar uchun alohida qiziqish sohasi bo‘lib kelgan. Dunyo miqyosida juda ko‘plab universitet pedagoglari tomonidan o‘zlarining kasbiy yo‘naltirilgan tarkiblashtirilgan to‘plamlarini yaratishga bo‘lgan qiziqishlari ortib bormoqda. Tarkiblashtirilgan to‘plam imkoniyatlaridan didaktik (o‘qitish) foydalanish bo‘yicha to‘plangan ko‘nikma, tajriba amaliy va uslubiy nuqtai nazardan lingvistik tadqiqot maqsadida yaratilgan tarkiblashtirilgan to‘plamdan foydalanishda ma’lum bir qarama-qarshilik borligini anglashga olib keldi. Tarkiblashtirilgan to‘plam materiallarining bunday turidan auditoriyada foydalanishdan oldin ularning ustida jiddiy ishlov berish talab etiladi. Biz ta’lim berish maqsadida yaratilgan, bir qator afzalliklarni o‘zida jamlagan katta bo‘lmagan tarkiblashtirilgan to‘plam haqida fikr bildirayapmiz. Birinchidan nisbatan kichik tarkiblashtirilgan to‘plam muayyan sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi, katta tarkiblashtirilgan to‘plam esa bu xususiyatlarni bartaraf etadi. SHu bilan birga, kichik tarkiblashtirilgan to‘plam pedagoglar va talabalar duch keladigan ma’lumotlar hajmi va janr xilma-xilligi bilan bog‘liq muammolarni engishlariga yordam beradi.

S.Braun kichik metodik yo‘naltirilgan tarkiblashtirilgan to‘plamning afzalliklari to‘g‘risida fikr bildirib, nazariy nuqtai nazardan qaraganda, tarkiblashtirilgan to‘plam, ayniqsa, juda katta matnlar to‘plami sifatida kommunikativ vaziyatdan ajralganligini ta’kidlaydi, chunki matnning ma’nosi yoki uning talqin qilinishi tashqi olam yoki obektiv voqelikni aks ettirmaydi deb ta’kidladi. SHunday qilib, ba’zi bir nomutanosibliklar yuzaga keladi: to‘plamdagi matn haqiqiy, real vaziyatdan olingan bo‘lishiga qaramay, holat

talaba tomonidan anglashinilmasligi mumkin ya’ni, talaba uni tushunmaydi. Bu holatni tarkiblashtirilgan to‘plamni go‘yoki barcha eksponatlari haqiqiy, asl bo‘lgan "matnlar muzeyi"ga o‘xshatish mumkin, ammo biz uchun muhim bo‘lgan vaziyat yo‘qoladi. Ta’lim diskursiv (munosabatli, muloqotga asoslangan) harakterga ega bo‘lishi kerakligi sababli, talaba matnni haqiqatga, ya’ni uni real hayotga moslashtirishga muhtojlik sezadi. Pedagog tarkiblashtirilgan to‘plamning tuzuvchisi sifatida yuqorida ta’kidlab o‘tilgan muhtojlik masalasida talabaga yordam berishi mumkin. Agar tarkiblashtirilgan to‘plam pedagog tomonidan mustaqil tarzda tuzilgan bo‘lsa, u matnlar bilan yaxshi tanish va matnning tarkiblashtirilgan to‘plam uchun tanlanganligining sabablari, matnlarning mualliflari hamda ularni yaratilish shartlari va tarixi haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi. SHu bilan birga talabalarga matnlar tanish bo‘lib, ular tomonidan to‘liq yoki qisman, auditoriyada yoki mustaqil ravishda uyda o‘qish topshirig‘i sifatida o‘qilgan. Bu holatda talaba matnni avvaldan o‘qigani uchun uni tushunish osonlashadi. Natijada talaba satrlar muvofiqligini ya’ni satrlarda so‘zning qanday qo‘llanilishini tahlil qilishi ancha samarali bo‘ladi, sababi talabalar bu misollarni tushunishga tayyor bo‘ladi. Tarkiblashtirilgan to‘plam katta bo‘lsa, pedagog talabaga anglashi qiyin bo‘lgan ko‘plab misollarni oldindan tanlab olishiga to‘g‘ri keladi. Bunday misollarni tushunish haqida bilim va ularni yaratilish holati haqida ma’lumot yo‘qligi sababli ular tushunarsizdir. Agar talaba taqqoslashi uchun ishlatadigan dastlabki sxema yoki tushuncha bo‘lmasa, katta tarkiblashtirilgan to‘plamdan olingan misollar shunchaki artefakt (hayotdan uzoqroq, tushunarsiz) bo‘lib qolishi mumkin.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, mustaqil ravishda tuzilgan uslubiy yo‘naltirilgan tarkiblashtirilgan to‘plamga ijtimoiy-madaniy vaziyatni ta’minlaydigan video, tasvir, ovoz kabi multimedia komponentlarini qo‘shish imkoniyati ham mavjud. SHunday qilib, kasbiy muloqot uchun muhim bo‘lgan milliy madaniyatning tildan tashqari voqeligini ifodalovchi hududiy tadqiqot materiallarini kiritish mumkin bo‘ladi.

Bir qator mualliflarning ta’kidlashicha, katta bo‘lmagan tarkiblashtirilgan to‘plamdan foydalanish tarkiblashtirilgan to‘plam yondashuvini diskursiv yondashuv bilan birlashtirish imkonini beradi, bu tarkiblashtirilgan to‘plamning alohida matnlarini va umuman butun tarkiblashtirilgan to‘plamni tahlil qilish imkonini beradi. SHunday qilib, ta’lim berish maqsadida tuzilgan tarkiblashtirilgan to‘plam o‘zining uslubiy salohiyati jihatidan bir qator xususiyatlar bo‘yicha afzalliklarga ega. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan muhim xususiyatlarni inobatga olgan holda biz talabalarga eng zamonaviy ta’lim modelini taklif qilamiz. Tarkiblashtirilgan to‘plamni mustaqil ravishda tuzish pedagogning fan sohasidagi malakasini oshirishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Conrad S., Biber D. Real Grammar: A Corpus-Based Approach to English. – Pearson: Longman, 2009.

2. Gvishiani N.B. Praktikum po korpusnoy lingvistike: Ucheb. posobie po angliyskomu yaziku. – M.: Visshaya shkola, 2008.
3. Hunston S., Laviosa S. Corpus Linguistics. Birmingham: Centre for English Language Studies. The University of Birmingham, 2000.
4. McEnery T., Wilson A. Corpus Linguistics. – Edinburgh: Edinburgh University. Press, 1999.
5. Oakes M. Statistics for Corpus Linguistics. – Edinburgh: Edinburgh University. Press, 1998.
6. Stubbs M. Corpus evidence for norms of lexical collocation // Cook G., Seidlhofer B. (eds.) Principle and Practice in Applied Linquistics: Studies in
Honour of H.G. Widdowson. – Oxford: Oxford University. Press, 1995.
7. Tolstova T.V. Korpusnaya lingvistika v obuchenii angliyskomu yaziku delovogo obsheniya // Voprosi prikladnoy lingvistiki: 2009.

BOLALARINING HAR TAMONLALMA RIVOJLANISHIDA AQLIY TARBIYANING O‘RNI

Axmedova Shoxida Muxtarovna,
JDPU o‘qituvchi

Yurtimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan ezgu islohatlar barcahsi xalqimiz kelajagini ko‘zlab amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risidagi qonunda ham makatblarda o‘qitish tizmiga alohida e’tibor qaratilgan. Bugungi kunda maktab o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishda ularning har birining o‘zgacha xislatga va xarakterga ega ekanligini doimo inobatga olish dolzarb masalalardan biridur.

O‘quvchilar aynan maktab ta’limida o‘zi uchun ideal deb bilgan kasbi orqali kelajak maqsadlarini qo‘yadi. Aynan shuni inobatga olgan holda ular bilan ishlashga jiddiy yondashish zarurati tug‘iladi. Axir "yaxshi o‘qituvchi tushuntiradi, buyuk o‘qituvchi ilhomlantiradi" deb ham bejizga aytilmagan. Ammo shuni inobatga olish ham kerakki, bunda ayni bir yoshdagi o‘quvchilar yoxud ayni bir guruhda tahsil olayotganlarning umumiy qarashlari, o‘rganish metodlari bo‘lish ehtimolligi mavjud. Aynan shuning uchun ham o‘quvchi yoshidan kelib chiqqan holda unga nisbatan kerakli metodlarni qo‘llash maqsadga muvofiq.

Umumiy jihatdan olib qaralganda, o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarining katta qismi maktabgacha ta’lim muassasalari va maktab hududiga to‘g‘ri keladi. Demak, unga nisbatan munosabat va e’tiborni bu davrda to‘g‘ri shakllantirish juda muhim ahamiyatga egadir. Agar bolaning yoshlik davrlari, ya’ni

maktabgacha bo‘lgan va kichik maktab yoshidagi davrini olib qaraydigan bo‘lsak, bunday yoshdagi o‘quvchilar asosan o‘yin yordamida tashqi dunyodan axborotlarni qabul qiladi. Ularga bir joyda doimiy o‘tirish, buyruqlarga asoslangan holda dars mashg‘ulotlarida ishtirok etish juda og‘ir. Shuning uchun yosh bolalarga ta’lim berishda ko‘proq rolli o‘yinlar tashkil etish, rag‘batlantiruvchi metodlar qo‘llash, o‘zining harakat va intilishlarini doimiy maqtash yaxshi samara berishi mumkin.

Bizga ma’lumki bolalarda har bir yoshda o‘ziga xos xususiyatlar shakllanib boradi. Albatta, aqliy taraqqiyot va ta’lim tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Bolalarning qiziqishlarini xisobga olgan holda, kichik maktab yoshi uchun asosiy faoliyat o‘yin faoliyati hisoblanadi. Bu faoliyat bolada nutq, tafakkur, qobilyat kabi sifatlarning rivojlanishida turtki bo‘lib xizmat qiladi. Mashg‘ulotlar jarayonida kichik yoshdagi bolalarning bilimlarni egallash ko‘lami yanada kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy-izlanish qobilyati rivojlanadi, tafakkuri faollashadi, mustaqilligi kuchayadi, natijada aqliy imkoniyatlarini ishga solish ko‘nikmasi vujudga keladi.

O‘rta maktab yoshi bolalarda ko‘proq 12-15 yosh oralig‘iga to‘g‘ri keladi. Bu paytda o‘quvchilar o‘z yon-atrofidagi voqea-hodisalar va taassurotlar to‘g‘risida chuqurroq yondasha boshlaydilar. Oldinlari ular uchun har qanday voqelik yangilik bo‘lib tuyulgan bo‘lsa, endi ular ushbu holatga oldingidan o‘zgacha nazar bilan qaraydi. O‘qituvchilarni ham o‘zlari uchun “yaxshi” va “yomon” sifatlar asosida ajratish yuzaga keladi. Bu davrda ularning o‘zlashtirishida buzilish va motivatsion yetishmovchilik kelib chiqishi mumkin. Endi ular tarbiyaviy buyruqlarni oldingiga nisbatan yaxshi bajara oladi, shaxs o‘rnida tarkib topish boshlanadi. Odatda bu bolalarda "balog‘at davri" deb ataluvchi psixologik jarayon kechishi tufayli gormonal o‘zgarishlar jinsiy, psixologik fiziologik o‘zgarishlarga sababchi bo‘ladi. Har bir o‘quvchiga qiziqishlaridan kelib chiqqan holda dars o‘tish yaxshi ta’sir ko‘rsata oladi, shuning uchun ularning bu o‘zgarishlarini to‘g‘ri qabul qilib, dars jarayonida o‘quvchi ishtirokini yanada oshirish, nazariy bilimlarni asosan amaliyotda qo‘llanilishi bilan bo‘g‘liq holatlarni misol tariqasida keltirib darsni olib borish lozim.

Katta maktab yoshidagi o‘quvchilarda jismoniy hamda ruhiy holat ancha barqarorlashadi. Ular asosan maktabning 9-11-sinf o‘quvchilari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji talabalari bo‘lishadi. Bu holatda ular kelajak uchun maqsad qo‘yib, unga nisbatan harakat qilishni yaxshi anglab yetgan holda har bir harakatini "yetti o‘lchab", keyin amalga oshiradigan holatda bo‘ladilar. Ijtimoiylashuv kuchayadi, ma’naviy hamda axloqiy xislatlar tarkib topadi, asosiysi, ular endi o‘zini kattalardek tuta boshlaydilar. Ammo bu turdagi o‘quvchilar kattalardek bo‘lish istagi yomon illatlarga ruju qo‘yish bilan yakun topishi ham mumkin. Shuning uchun bu turdagi bolalar bilib-bilmay xato qilib qo‘ysa, ular bilan kattalardek munosabatda bo‘lib ish tutish talab etiladi, zeroki

"birinchi xatoingdan qo‘rqma, ikkinchi xatoga yo‘l qo‘yma" qabilida ish tutish darkor. Javobgarlik hissi ham ayni shu davrda takomillashib boradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Grigoriy Nazianzinning fikricha: “Insonni o‘qitish va tarbiyalash hamma narsadan ham qiyin va murakkab narsadir-sna’atlarning san’atidir” deya ta’riflaydi. Har bir o‘quvchi birinchi navbatda ijtimoiy hamda pedagogik, psixologik jihatdan shaxs deb yuritilar ekan, unga nisbatan turli yosh va psixologik davrlarda turlicha munosabatda bo‘lish hamda ta’lim berishning turli metodlarini qo‘llash samaraga boshlovchi kalit yoxud to‘g‘ri yo‘l bo‘la oladi. Albatta tajribali hamda hozirgi zamon pedagoglari ushbu ma’lumotlar bilan ham tanish bo‘lishi foydadan xoli emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent.: O‘zbekiston, 1998.
2. Avliyoqulov N.X. Pedagogik texnalogiya. Darslik. –Toshkent.: Tafakkur bo‘stoni, 2012.
3. Azizxo‘jayev N.N. Pedagogik texnalogiya va pedagodik maxorat. –Toshkent.: Fan, 2006.
4. Omonov X. Xo‘jayev N. Madyorov S. Eshchonov E. Pedagogik texnalogiyalar va pedagogik mahorat. –Toshkent.: Iqtisod-Moliya, 2009.

РАЗВИТИЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ СОПОСТАВИТЕЛЬНОГО ИЗУЧЕНИЯ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Хайитова Мияссар Кадировна,
преподаватель русского языка и литературы
академического лицея Ургенчского
государственного университета

Формирование лингвистической компетентности обучающихся является одной из ключевых задач современного языкового образования. В условиях глобализации, межкультурного взаимодействия и расширения профессиональных коммуникаций возрастает необходимость не только овладеть одним языком, но и понимать системные особенности двух и более языков. Русский и узбекский языки, относясь к разным типологическим системам как славянской и тюркской соответственно, отражают различные структуры мышления, моделирования мира и языкового выражения. Поэтому сопоставительное изучение двух языков выступает эффективным методическим инструментом, направленным на развитие у студентов глубоких знаний о языковой системе, межъязыковых связях, механизмах

интерференции и трансфера. По данному вопросу проведено и опубликовано значительное количество научных исследований [1,2,3,4].

Актуальность темы определяется тем, что современная методика преподавания русского языка в Узбекистане всё чаще обращается к сопоставительному подходу, позволяющему учитывать родной язык учащихся как опору в освоении второго языка. Такой подход способствует развитию метаязыковой рефлексии, формированию навыков анализа грамматических, лексических и фонетических явлений, а также повышению общей коммуникативной культуры. Использование сопоставительного анализа помогает студентам увидеть сходства и различия в структуре русского и узбекского языков, что значительно облегчает процесс обучения и повышает качество усвоения материала.

Цель данной статьи выявить методические основы развития лингвистической компетентности студентов на основе сопоставительного изучения русского и узбекского языков, определить эффективные методические приёмы и описать преимущества данного подхода в образовательном процессе.

Понятие «лингвистическая компетентность» восходит к работам Н. Хомского, который определял её как внутреннее знание носителем языка грамматической структуры, правил порождения и восприятия предложений. В современной методике обучения под лингвистической компетентностью понимается совокупность знаний о языковой системе - фонетике, лексике, морфологии, синтаксисе, словообразовании, и умений применять эти знания на практике.

Студент, обладающий лингвистической компетентностью, способен осознавать языковые явления и анализировать их, устанавливать межъязыковые связи, прогнозировать возможные ошибки, связанные с интерференцией родного языка, применять языковые знания в новых коммуникативных ситуациях, адекватно воспринимать и интерпретировать русскую речь. Развитие лингвистической компетентности особенно важно при изучении русского языка как неродного, так как требует осознанного подхода и сравнения с родным языком учащегося.

Сопоставительный метод предполагает изучение двух языков одновременно с целью выявления их структурных, семантических и функциональных отличий. Данный подход основан на типологическом, структурном и функциональном сравнении, что позволяет учащимся лучше понять особенности изучаемого языка. Основные направления сопоставительного анализа:

Фонетические различия. Русский язык имеет развитую систему редукции, мягкости согласных, ударения, тогда как узбекский язык характеризуется гармонией гласных и отсутствием грамматического ударения. Эти различия объясняют типичные фонетические ошибки узбекских студентов.

Лексико-семантические особенности. В русском языке развита система омонимии, многозначности, переносных значений. В узбекском языке больше агглютинативных формообразовательных возможностей. Сравнение помогает учащимся понять семантические связи и избежать ложных друзей переводчика.

Грамматические структуры. В русском языке развита падежная система (6 падежей), в узбекском языке падежей больше, но структура агглютинативная. Порядок слов свободнее в русском и фиксирован в узбекском, ключевые различия в категории рода, вида глагола, спряжении и управлении.

Синтаксические конструкции. Русский язык активно использует сложноподчинённые конструкции, тогда как узбекский язык чаще применяет отглагольные формы (характер страдательных, причастных и деепричастных оборотов различается).

Имеются преимущества сопоставительного метода как снижение межъязыковой интерференции; повышение уровня осознанности и самостоятельности студентов; формирование аналитического мышления; ускорение процесса освоения грамматики и лексики; возможность индивидуализированного обучения.

С целью повышения результативности обучения используются следующие методические приёмы:

1) Сопоставительный анализ конкретных языковых единиц. Например, студенты сравнивают падежные формы, типы предложений, способы выражения принадлежности, времени, категории вида, структуры словосочетаний. Это помогает увидеть системные различия и закономерности.

2) Табличные модели и схемы. Например:

Русский язык	Узбекский язык
Род: м., ж., ср.	Отсутствует категория рода
6 падежей	7 падежей
Вид глагола	Нет категории вида
Мягкость согласных	Нет различия мягкости

3) Упражнения на перевод и трансформацию. Студенты переводят предложения, сравнивают изменения структуры и делают выводы о различиях.

4) Ошибочный анализ. Учитель даёт примеры типичных ошибок, а студенты объясняют их причины, исходя из различий между двумя языками.

5) Проектные задания. Например: «Сопоставление русских и узбекских выражений в сфере бытовой коммуникации».

6) Междисциплинарные подходы. Используются данные культурологии, этнолингвистики, психолингистики, чтобы понять влияние национального мышления на языковую картину мира.

7) Формирование метаязыковой рефлексии студентов. Сопоставительная методика способствует развитию метаязыковой рефлексии - способности размышлять о языке, анализировать структуру высказывания, выбирать правильные языковые формы. Этот навык играет ключевую роль в обучении русскому языку как второму.

В результате проведённого анализа можно сделать следующие выводы:

1. Сопоставительное изучение русского и узбекского языков является эффективной методикой развития лингвистической компетентности студентов, поскольку учитывает родной язык учащихся и основывается на типологических различиях двух языковых систем.

2. Использование сопоставительного метода способствует осознанному изучению языка, позволяет уменьшить количество ошибок, связанных с интерференцией, развивает аналитические навыки и формирует метаязыковую рефлексию.

3. Методические приёмы сопоставительного анализа, такие как таблицы, трансформационные упражнения, аналитические задания, проекты повышают мотивацию студентов, способствуют системному усвоению материала и усиливают их коммуникативные способности.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Аралбаева Н. А. Сопоставительное изучение русского и узбекского языков в вузе. –Т.: Фан, 2019.

2. Бузинова Л. Н. Методика преподавания русского языка как неродного. -М.: Русский язык, 2016.

3. Костомаров В. Г. Методика преподавания русского языка как иностранного. -М.: Русский язык, 2005.

4. Сафаров Ш. Типологическая лингвистика. –Т.: Фан, 2007.

STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI ONA TILI DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Sodiqova Gulbahor G‘ofurjon qizi,
FarDU o‘qituvchisi
Xamidjonova Gulasal Xamdamjon qizi,
FarDU talabasi

Hozirgi integratsiyalashgan va tez o‘zgaruvchan dunyoda ta’lim jarayonining markazida shunchaki bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki shaxsning mustaqil fikrlash, tahliliy mulohaza yuritish va o‘z qarashlarini asoslay olish qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Globallashuv sharoitida ta’lim mazmuni tubdan yangilanmoqda, an’anaviy bilim berish modeli o‘rnini kompetensiyaviy, faol o‘qitish yondashuvlari egallayapti. Ana shunday zamonaviy talablarga javoban shakllangan metodlardan biri - STEAM integratsiyasi bo‘lib, u o‘quvchilarda kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror chiqarish, mantiqiy va tizimli fikrlash, innovatsion yondashuv kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Ona tili darslari esa ushbu jarayonning eng muhim bo‘g‘ini, chunki ona tili - fikrlash va muloqotning asosi. STEAMni ona tili faniga tatbiq etish o‘quvchilarda faqat grammatik bilimlarni emas, balki ko‘p yo‘nalishli, tahliliy va ijodkorlikka boy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi[1].

STEAM - bu bilimlarni bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o‘zaro bog‘liq tizim sifatida o‘rgatishga asoslangan integrativ pedagogik modeldir. Uning markazida o‘quvchini buyruqboz yodlashdan chiqarib, faol izlanish, tajriba qilish, tahlil qilish va ijod skripti orqali o‘rganishga yo‘naltirish turadi. Ona tili fani esa bu jarayon uchun eng qulay platformadir, chunki til tafakkur bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq.

STEAMning har bir komponenti ona tili darsida alohida metodik funksiyani bajaradi:

Science - matn tahlilida kuzatuv, faktni aniqlash, sabab-oqibatni asoslash.

Technology - multimedia, grafik muharrirlar, raqamli hikoyalar orqali matn yaratish;

Engineering - matnni konstruktsiyalash, syujet loyihasi, gaplar tizimini modellashtirish;

Art - obrazli ifoda, badiiy tasvir, kreativ yozuv;

Mathematics - matn ketma-ketligi, mantiqiy tuzilma, nisbat va tartibni belgilash.

Bu komponentlarning uyg‘unligi o‘quvchida ko‘pyoqlama fikrlash, metodik tafakkur, kreativ izlanish ko‘nikmalarini shakllantiradi[2].

Kreativ tafakkur ona tili darsida quyidagi jarayonlar orqali rivojlanadi:

1.Divergent fikrlashni rag‘batlantirish.

Bitta muammo bo‘yicha bir nechta g‘oya, variant, yechim taklif qilish topshiriqlari o‘quvchini erkin fikrlashga undaydi. Masalan, bitta mavzu bo‘yicha uch xil syujet yaratish yoki bir voqeani turli rakurslarda tasvirlash.

2. Integrativ tafakkur

O‘quvchi matn tuzishda san’at, texnologiya, tasviriy ifoda va kuzatish elementlarini birlashtiradi. Bu esa g‘oyalarning murakkab, chuqur, xilma-xil bo‘lishiga olib keladi.

3.Muammo yechish

STEAM yondashuvi darsni “savol-javob” emas, balki “muammo–yechim” shakliga o‘tkazadi. O‘quvchi turli matnlar ichida ma’no topish, mantiqiy aloqalarni izlash, mazmuniy tuzilmani yangidan qurish orqali kreativ tafakkurini ishga soladi.

Ona tili darsida STEAM quyidagi usullar bilan yuqori samara beradi:

- Matn dizayni – o‘quvchi hikoya tuzilishini grafik ko‘rinishda loyihalab, so‘ng badiiy matnga aylantiradi.
- Raqamli hikoya qilish (digital storytelling) – rasm, audio, animatsiya va matnni uyg‘unlashtirib ijodiy mahsulot yaratish.
- Eksperiment asosida matn yaratish – oddiy tajriba yoki kuzatish natijasida matn tuzatish (masalan, muz erishi, o‘simlik o‘sishi).
- Kodlashga yaqin topshiriqlar – gaplarni tartiblash, mantiqiy ketma-ketliklarni topish orqali strukturaviy tafakkur rivojlanadi.
- San’at asosida yozma ish – musiqiy parcha, rasm, badiiy film bo‘yicha erkin esse, obrazli tasvir yaratish.

Bu faoliyatlar o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishlab chiqaruvchi subyektga aylantiradi[3].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, STEAM asosida tashkil etilgan ona tili darslari quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradi:

kreativ tafakkur – yangicha yondashuvlar yaratish;
analitik tahlil – matnning ichki tizimini anglash;
tanqidiy fikr – fakt va fikrni farqlay olish;
kommunikativ savodxonlik – ravon, mantiqli, aniq ifoda;
raqamli madaniyat – matn bilan ishlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
ijodiy muloqot – badiiy tasvir orqali g‘oya yetkazish.

Shu bois STEAM integratsiyasi o‘quvchini kelajak kasblariga tayyorlovchi eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Ona tili - tizimli fan. Uning:

- fonetikasi fizikaga,
- morfologiyasi kimyodagi strukturaga,
- sintaksisi muhandislik konstruksiyalariga,
- matni esa san’atga o‘xshash.

Shu bois ona tili STEAM uchun juda mos maydon hisoblanadi[4].

Ona tili fani ko‘p yillardan buyon til qoidalarini o‘rgatuvchi mustaqil yo‘nalish sifatida qaralgan bo‘lsa, STEAM uni kengaytiradi: til - kommunikatsiya, tafakkur, dizayn, algoritm va ijodiy g‘oyalar bilan chambarchas bog‘langan murakkab tizim sifatida talqin qilinadi. Kreativ fikrlash tasavvur, tahlil, mantiq, tafakkur tezligi va emotsional motivatsiya bilan uyg‘un holda shakllanadi.

Kreativ fikrlashning shakllanishi o‘z-o‘zidan ro‘y bermaydi, buning uchun dars jarayonida konstruktiv topshiriqlar, fanlararo integratsiya va izlanishga undovchi savollar bo‘lishi shart.

STEAM integratsiyasiga asoslangan ona tili darslari o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan innovatsion platforma bo‘lib, u tilni o‘rganish jarayonini o‘ta qiziqarli, maqsadli va mazmunli qiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarda kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, tahliliy mulohaza yuritish, raqamli madaniyat, muammo yechish kabi kompetensiyalarni shakllantirib, ularning shaxsiy va intellektual salohiyatini yangi bosqichga olib chiqadi. STEAM asosida olib borilgan ona tili darslari nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki o‘quvchini kuchli tafakkurga ega, ijodkor, zamonaviy fikrlovchi shaxs sifatida voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Aynan shuning uchun STEAM yondashuvini ona tili darslariga bosqichma-bosqich, metodik jihatdan puxta asoslangan holda joriy etish zamonaviy ta’limning dolzarb vazifasiga aylanmoqda[5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xodjayeva D. STEAM integratsiyasi: nazariya va metodika. –Toshkent, 2021.
2. Sharipova S. Ona tili o‘qitishida innovatsion yondashuvlar. –Toshkent.: TDIU nashriyoti, 2020.
3. Yakubova M. Kreativ psixologiya asoslari. –Toshkent, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi XTV metodik qo‘llanmalari. –Toshkent, 2022 - 2024.
5. Turdieva F. Ona tili darslarida innovatsion metodlar. –Toshkent, 2022.

TA’LIMDA NEYROGIMNASTIKA: DIQQAT, XOTIRA VA FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi,
Jizzax shahridagi Prezident maktabi
Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Neyrogimnastika - bu harakat, nafas, ko‘rish-eshitish integratsiyasi va o‘yin elementlariga asoslangan mashqlar majmuasi bo‘lib, u miya faoliyatini faollashtirish, diqqatni jamlash, o‘qish–yozish ko‘nikmalarini qo‘llab-quvvatlash, xotira va nutqni yaxshilash uchun mo‘ljallangan.

So‘nggi yillarda neyrogimnastika ta’lim jarayonida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan neyropsixologik metod sifatida ko‘plab ilmiy izlanishlarning markazida turibdi. Tadqiqotlar bu mashqlarni o‘quvchilarning bilish faoliyati, xotira jarayonlari, diqqat va ijro funksiyalariga ta’siri nuqtayi nazaridan baholaydi. Quyidagi adabiyotlar sharhida ushbu yo‘nalishda olib borilgan oltita muhim ilmiy tadqiqotning mazmuni va xulosalari tahlil qilinadi. Avvalo, Harvard universitetidagi neyrobiologlar tomonidan olib borilgan izlanishlarda neyroplastiklik tamoyillariga alohida e’tibor qaratiladi [1]. Tadqiqotchilar ma’lum bir harakat yoki kognitiv mashqning muntazam takrorlanishi natijasida neyronlar o‘rtasidagi aloqalar mustahkamlanishini va yangi neyron yo‘llarning shakllanishini qayd etadi. Ushbu mexanizm neyrogimnastikaning asosiy tamoyillaridan biri harakat orqali miya faolligini kuchaytirish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos keladi. Mualliflarning munosabatiga ko‘ra, ta’lim jarayonida harakat-kognitiv faoliyatni integratsiya qilish bilish jarayonlarining tezlashuvi va idrok samaradorligining oshishiga yordam beradi.

Neyrogimnastikaning sensor-motor asoslarini tahlil qilgan BrainBalance markazi tomonidan chop etilgan ilmiy sharhda harakat mashqlari miyaning chap va o‘ng yarim sharlaridagi funksional aloqalar faollashuviga, sensor integratsiya, muvofiqlashtirish va diqqatni jamlash kabi jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi [2]. Tadqiqotchilar ushbu mashqlarni o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga tayyorgarlik darajasini yaxshilovchi usul sifatida baholaydi. Eric Jensenning “Teaching with the Brain in Mind” asarida harakatning o‘quv faoliyatiga ta’siri ko‘plab eksperimental misollar orqali asoslanadi [3]. Jensenning fikriga ko‘ra, qisqa muddatli motor mashqlari miyada qon aylanishi va kislorod ta’minotini kuchaytiradi, bu esa o‘quvchilarning diqqat, xotira va fikrlash jarayonlarini faollashtiradi. Muallif neyrogimnastikaga o‘xshash harakatlar o‘quv jarayonining motivatsion va kognitiv jihatlarini sezilarli yaxshilashi mumkinligini ta’kidlaydi. Dr. Carla Hannaford tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa neyrogimnastikaning nazariy va fiziologik asoslarini yanada chuqurroq yoritadi [4]. Uning “Smart Moves” kitobida harakatning o‘quv faoliyati bilan neyral bog‘liqligi, sensor tizimlarning bilish jarayonlariga integratsiyalashuvi, muvofiqlashtiruvchi mashqlarning xotira va diqqatga ta’siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Hannaford o‘z tadqiqotlari asosida neyrogimnastikani ta’limda qo‘llashni integrativ - jismoniy va intellektual rivojlanishning birlashgan modeli sifatida talqin etadi. Shuningdek, “State University of New York” tadqiqotchilari tomonidan harakatning o‘quvchilarning ishchi xotirasi va ijro funksiyalariga ta’sirini o‘rgangan keng ko‘lamli tadqiqot o‘tkazilgan [4]. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy faollik o‘quvchilarning kognitiv jarayonlarini, ayniqsa ishchi xotirani sezilarli faollashtiradi. SUNY tadqiqotchilari neyrogimnastikadagi koordinatsion mashqlar aynan shu mexanizmlarni rag‘batlantirishi mumkinligini ta’kidlashadi. Nihoyat, “Frontiers in Psychology” jurnalida chop etilgan ilmiy maqolada maktab yoshidagi bolalarda motor faoliyat va kognitiv rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik statistik

tahlil asosida o‘rganilgan [5]. Tadqiqotchilar miya faoliyati va o‘qish ko‘nikmalari o‘rtasida o‘rta va yuqori darajadagi ijobiy yaxshilanishni aniqlagan. Ularning fikricha, neyrogimnastika kabi koordinatsiyalashgan harakat mashqlari bolalarning o‘quv faoliyatiga bilvosita, ammo sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida uning qo‘llanishi orqali:

1. Diqqat va konsentratsiyani oshirish,
2. Qisqa va uzoq muddatli xotirani yaxshilash,
3. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish,
4. Sensor-motor integratsiyasini kuchaytirish,
5. O‘qishga motivatsiyani oshirish mumkin bo‘ladi.

Bu ta’limning samarali va interaktiv bo‘lishiga yordam beradi. Neyrogimnastikani dars jarayonida qo‘llashning samaradorligi vaqt, davomiylik va vaziyatga bog‘liq**.** Dars boshida 1–3 daqiqalik yengil harakatli mashqlar (masalan, qo‘l-oyoqlarni cho‘zish, ritmik harakatlar, kichik o‘yinlar) o‘quvchilarning diqqatini uyg‘otadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi: qisqa muddatli harakat miyadagi qon aylanishi va kislorod yetkazilishini oshirib, diqqatni darhol kuchaytiradi. 20–30 daqiqa davom etadigan darslarda diqqat pasayadi. Shu paytda 2–5 daqiqalik mikro-pauza sifatida motor mashqlari kiritish samarali. Masalan, “cross-lateral” mashqlar (chap qo‘l–o‘ng oyoq yoki aksincha) miyadagi yarimsharlarni uyg‘unlashtiradi va fikrlash jarayonini tiklaydi. Yangi mavzuni tushuntirish paytida harakatli topshiriqlar qo‘shish (masalan, ob’ektlarni ko‘rsatish, harakat bilan tasvirlash) o‘quvchilarning xotira va tushunishini yaxshilaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi: o‘rganish jarayoni harakat bilan birlashtirilganda, miyadagi neyron yo‘llar faollashadi va ma’lumot tezroq eslab qolinar ekan. Ta’lim jarayonida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan neyrogimnastika mashqlari:

“Ko‘prik” mashqining mohiyati – o‘ng tizzaga chap qo‘lni, chap tizzaga o‘ng qo‘lni tekkazishdan iborat. Ushbu mashq miya yarimsharlarini uyg‘otadi va og‘ir mavzuni o‘rganishdan oldin diqqat va kognitiv faollikni oshirishga yordam beradi.

“Sakkizlik chizish”. Mashq davomida o‘quvchi havoda yoki daftar ustida cheksizlik belgisi (∞) chizadi. Ushbu harakat ko‘z mushaklarini faollashtiradi va o‘qish jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi.

“Kapitan va kemachi”. Mashqda o‘qituvchi tomonidan aytilgan harakatlar zudlik bilan bajariladi. Bu mashq tezkor fikrlashni rag‘batlantiradi, eshitish diqqatini kuchaytiradi va o‘quvchilarning refleks reaksiyalarini rivojlantiradi.

“4 soniya mashqi”. Mashq texnikasi: 4 soniya davomida chuqur nafas olish, 4 soniya ushlab turish va 4 soniya davomida chiqarish. Ushbu nafas mashqi stress va asabiylikni kamaytirishga yordam beradi hamda psixofiziologik holatni barqarorlashtiradi.

“Burun–quloq” mashqi. Mashqda bir qo‘l bilan burunni, ikkinchisi bilan qarama-qarshi quloqni ushlab, keyin qo‘llarni almashtirish talab etiladi. Bu mashq xotira va diqqatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Neyrogimnastika – bu harakat, nafas, ko‘rish-eshitish integratsiyasi va o‘yin elementlariga asoslangan mashqlar majmuasi bo‘lib, u miya faoliyatini faollashtirish, diqqatni jamlash, xotira va nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida neyrogimnastika mashqlarini qo‘llash samaradorligi ularning vaqt, davomiylik va vaziyatga mosligi bilan belgilanadi. Masalan, dars boshida 1–3 daqiqalik yengil harakatli mashqlar o‘quvchilarning diqqatini uyg‘otadi, mikro-pauzalarda esa 2–5 daqiqalik mashqlar miyadagi qon aylanishi va kislorod ta’minotini kuchaytirib, diqqatni tiklaydi. Cross-lateral mashqlar, ob’ekt bilan harakatli topshiriqlar, havoda “sakkizlik chizish”, “Kapitan va kemachi”, “Quyosh nafaslari” va “Burun–quloq” kabi mashqlar o‘quvchilarning kognitiv faoliyati va xotira jarayonlarini sezilarli darajada qo‘llab-quvvatlaydi.

Shunday qilib, neyrogimnastika ta’lim jarayonini interaktiv, samarali va qiziqarli qilishga xizmat qiladi, o‘quvchilarning nafaqat kognitiv, balki sensor-motor va psixofiziologik rivojlanishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hurriyet Daily News. Harvard researchers highlight neuroplasticity principles. https://www.hurriyetdailynews.com
2. BrainBalance Centers. Scientific insights on sensorimotor integration and cognitive development. https://www.brainbalancecenters.com
3. Jensen, E. (2008). Teaching with the Brain in Mind. ASCD. https://www.ascd.org
4. Hannaford, C. (1995). Smart Moves: Why Learning Is Not All in Your Head. Great Ocean Publishers. https://www.carlahannaford.com
5. State University of New York (SUNY). Research on physical activity and executive functions in students. https://www.suny.edu
6. Frontiers in Psychology. Motor activity and cognitive development in school-aged children: A correlational study. https://www.frontiersin.org
7. StyleCraze. 16 Simple Brain Gym Exercises to Improve Focus And Memory. https://www.stylecraze.com/articles/simple-brain-gym-exercises-and-its-benefits

ZAMONAVIY O‘ZBEK NUTQIDA LINGVISTIK O‘ZGARISHLAR: GLOBALLASHUV VA TEXNOLIGIYA

Mustayeva Risolat Begali qizi,
Sirdaryo viloyati, Sayxunobod 1-sonli
Politexnika kolleji o‘qituvchisi

Hozirgi davrda tillarning tez o‘zgarishi global lingvistik tendensiya hisoblanib, bu jarayon nafaqat leksik, balki grammatik, fonetik va pragmatik darajalarda ham o‘z ifodasini topmoqda. O‘zbek tili ham ushbu global lingvistik transformatsiya jarayonidan chetda qolmagan holda qariyb so‘nggi o‘n yilliklarda sezilarli o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Globallashuv, migratsiya, urbanizatsiya va ayniqsa raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi o‘zbek nutqining an’anaviy qolipini tubdan o‘zgartirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda [7].

O‘zbek nutqidagi o‘zgarishlarni kompleks o‘rganish nafaqat tilshunoslikning nazariy ahamiyatiga ega, balki milliy madaniy o‘zlikni saqlash, til siyosatini samarali ishlab chiqish va ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish uchun ham dolzarbdir [5]. Mustaqillikdan keyingi davrda o‘zbek tili yangi rivojlanish bosqichiga o‘tdi, bu esa tilning barcha darajalarida o‘zgarishlarni keltirib chiqardi

XXI asrning boshlarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan til islohotlari, jumladan, lotin grafikasiga o‘tish, terminologiyani takomillashtirish va til standartlarini ishlab chiqish kabi chora-tadbirlar til rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi [4]. Biroq, globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari rejalashtirilgan til siyosatidan tashqari, tabiiy lingvistik o‘zgarishlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Ushbu maqola zamonaviy o‘zbek nutqidagi asosiy lingvistik o‘zgarishlarni kompleks tahli qilib, ularning ijtimoiy-kommunikativ, madaniy va psixolingvistik xususiyatlarini ochib beradi. Tadqiqotning asosiy e’tibori quyidagi jihatlarga qaratilgan:

– Globallashuvning leksikaga ta’siri va o‘zlashma so‘zlarning dinamikasi;
– Raqamli kommunikatsiyaning grammatikaga ta’siri;
– Nutqiy xilma-xillikning kuchayishi va uning ijtimoiy sabablari;
– Yangi lingvistik tendensiyalarning til siyosatiga ta’siri; [2, 6]

Maqolada zamonaviy o‘zbek nutqining transformatsion jarayonlari tahli qilinib, ularning til rivojidagi o‘rni va ahamiyati anqlanadi.

Zamonaviy o‘zbek nutqidagi eng sezilarli o‘zgarishlardan biri leksik tarkibning evolyutsiyasidir. So‘nggi o‘n yillikda ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar soni 3 baravardan ortiq o‘sgan, ayniqsa texnologiya, biznes, madaniyat va

kundalik hayot sohalarida. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2020–2025-yillar oralig‘ida o‘zbek tiliga yiliga o‘rtacha 500–600 yangi leksik birlik qo‘shildi, ulardan 65% ingliz tilidan o‘zlashma hisoblanadi [4;58]. Masalan: kompyuter, fayl, brauzer, startup, marketing, trend, blog, online, chatbot, cloud, cryptocurrency kabi so‘zlar kundalik nutqning ajralmas qismiga aylangan.

Mazkur o‘zlashmalar nafaqat yangi tushunchalarni ifodalash uchun qo‘llaniladi, balki ba’zan o‘zbekcha muqobil so‘zlar bilan raqobatga ham kirishadi [4; 45]. Masalan, "kompyuter" so‘zi "hisoblash mashinasi"ga nisbatan, "blog" so‘zi "kundalik"ga nisbatan afzallik qilmoqda.

Nutqiy kommunikatsiyaning tezlashuvi va raqamli aloqaning keng tarqalishi grammatik qurilmalarning tubdan soddalashtirilishiga olib keldi. Lingvistik tahllilar quyidagi grammatik o‘zgarishlarni qayd etadilar [6;12]:

- Qisqa gap tuzilmalari (ellipslar)ning keng tarqalishi;
- Sintaktik qisqarishlarning ko‘payishi;
- Murakkab ergash gaplarning soddalashtirilishi;
- So‘z tartibining moslashuvchanligining oshishi.

Masalan: "Men boraman" o‘rniga "Boraman", "Siz qayoqqa ketyapsiz?" o‘rniga "Qayoqqa?" deyish kabi hodisalar kundalik nutqda keng tarqalgan. Bu tendensiya ayniqsa yoshlar nutqida va onlayn kommunikatsiyada yaqqol namoyon bo‘ladi [1; 23].

Raqamli kommunikatsiya yangi lingvistik uslublarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. 2020–2025-yillarda o‘zbek tilidagi internet lingvistikasi o‘ziga xos qoidalari bilan mustaqil sohaga aylandi [8; 45].

Internet tilining asosiy xususiyatlari:

- "krass" (chiroyli), "jkr" (juda ko‘p rahmat), "ok" (rozi) kabi qisqartmalar;
- Emodjilar va stikerlar orqali mazmun ifodalash;
- Katta-kichik harflar qoidalariga rioya qilmaslik;
- Yangi punktuatsiya qoidalarining shakllanishi;
- Hashtaglar orqali mazmunni kategorizatsiya qilish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek internet tilida 1000 dan ortiq yangi so‘z va ibora paydo bo‘lgan, ulardan 30% o‘zbek va ingliz tillarining aralashmasidan hosil bo‘lgan. Nutqiy o‘zgarishlarga ijtimoiy omillar ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. So‘nggi tadqiqotlar quyidagi ijtimoiy lingvistik tendensiyalarni aniqlagan:

Yosh guruhlari nutqidagi tafovutlar:

- 15-25 yosh: 70% internet lingvistikasi;
- 26-40 yosh: 45% aralash nutq;
- 40+ yosh: 25% an’anaviy nutq;

Kasbiy terminologiyaning ta’siri:

- IT sohasi: 80% ingliz o‘zlashmalari;
- Tibbiyot: 60% lotin va ingliz terminlari;
- Qishloq xo‘jaligi: 85% o‘zbek an’anaviy terminlari.

O‘zbek nutqidagi o‘zgarishlar nafaqat lingvistik, balki psixolingvistik va madaniy jihatlarni ham o‘z ichiga oladi [5; 67]. So‘rovnomalar shuni ko‘rsatadiki: yosh avlod yangi so‘zlarni madaniy prestij sifatida qabul qilsalar, o‘rta yoshdagi insonlar esa an’anaviy va zamonaviy nutq o‘rtasida muvozanat izlamoqda. Katta yoshdagi insonlar o‘zgarishlarga ehtiyotkorlik bilan qaramoqda.

Madaniy identifikatsiya muammosi til o‘zgarishlarining muhim omili hisoblanadi. O‘zbekiston jamiyatining global dunyoga integratsiyasi tilning tabiiy evolyutsiyasini tezlashtirmoqda [7; 78-92].

Til o‘zgarishlari ta’lim tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda [2; 45-58]. Darsliklar va o‘quv dasturlarining zamonaviy talablarga moslashtirilishi zarurati paydo bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil "Til siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida"gi qarori zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda til rivojini boshqarish mexanizmlarini belgilab berdi.

Til siyosatining asosiy yo‘nalishlari:

- Yangi terminologiyani standartlashtirish;
- O‘qituvchilarni zamonaviy metodika bilan ta’minlash;
- Raqamli lingvistik resurslarni yaratish;
- Madaniy merosni saqlab qolish.

Ushbu tahlil shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy o‘zbek nutqi murakkab ko‘p qirrali lingvistik maydonni ifodalaydi va uning o‘zgarishlari nafaqat tilning ichki qonuniyatlari, balki tashqi ijtimoiy, madaniy va texnologik omillarning o‘zaro ta’siri natijasidir. Zamonaviy o‘zbek nutqi chuqur va qiziqarli transformatsiya jarayonidan o‘tmoqda. Bu o‘zgarishlar nafaqat so‘z boyligida, balki nutqning butun tizimida - grammatik qurilmalardan tortib, kommunikativ uslublargacha o‘z aksini topmoqda.

Bu sohada olib borilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek nutqidagi eng sezilarli o‘zgarishlar quyidagi sohalarda yuz bermoqda:

Birinchidan, leksik darajada ingliz tilidan o‘zlashmalar soni keskin o‘sib bormoqda. Ayniqsa, texnologik sohalarda har yili yuzlab yangi so‘zlar tilimizga kirib kelayotgani kuzatilmoqda. Bu jarayon nafaqat yangi tushunchalarni ifodalash ehtiyoji, balki globallashuvning tabiiy natijasidir.

Ikkinchidan, grammatik tuzilmalar soddalashmoqda. Shahar hayotining tez sur’ati va raqamli kommunikatsiya odamlarga qisqa, lo‘nda va samarali muloqot qilishni taqozo etmoqda. Natijada murakkab grammatik konstruksiyalar o‘rniga oddiyroq tuzilmalar keng tarqalmoqda.

Uchinchidan, internet va raqamli texnologiyalar butunlay yangi lingvistik muhit yaratdi. Yosh avlod o‘ziga xos so‘zlar, qisqartmalar va ifoda usullarini ishlab chiqdi, bu esa an’anaviy til normalaridan sezilarli farq qiladi.

To‘rtinchidan, turli yosh, kasb va mintaqalar vakillari nutqida katta farqlar paydo bo‘ldi. Bu xilma-xillik bir tomondan boylik, ikkinchi tomondan esa til birligini saqlash muammosini keltirib chiqarmoqda.

Beshinchidan, til o‘zgarishlari nafaqat lingvistik, balki psixologik va madaniy jihatlarni ham o‘z ichiga oladi. Yangi so‘zlar nafaqat amaliy ehtiyoj,

balki ma’lum ijtimoiy status va dunyoqarashni ifodalovchi vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘zbek nutqidagi o‘zgarishlar global tendensiyalarga mos keladi, ammo o‘ziga xos milliy xususiyatlarni saqlab qolmoqda. Kelgusi yillarda til rivojini boshqarishda muhim vazifa – an’anaviy merosni saqlash va zamonaviy ehtiyojlarni qondirish o‘rtasida muvozanat topishdan iborat bo‘lib, til o‘zgarishlari to‘xtovsiz va tabiiy jarayon sifatida uni to‘xtatib bo‘lmaydi. Shuning uchun zamonaviy lingvistlar, o‘qituvchilar va siyosatchilar oldida turgan asosiy vazifa – bu o‘zgarishlarni tushunish, tahli qilish va ularni tilning sog‘lom rivojlanishiga yo‘naltirishdir.

O‘zbek nutqining kelajagi uning o‘ziga xosligini saqlagan holda zamonaviy dunyoning lingvistik maydonida o‘z o‘rnini topishiga bog‘liq. Bu esa nafaqat tilshunoslarning, balki butun jamoatchilikning hamkorlikdagi sa’y-harakatlarini talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurahmonov, G. O‘zbek tilining zamonaviy holati. - Toshkent: Fan 2023.
2. Karimov, N. Globalizatsiya va til o‘zgarishlari. - Til va adabiyot, 2022. № 4, - б. 58.
3. Xolmuhamedova, S. Raqamli asrda o‘zbek nutqi. – Toshkent: Ma’naviyat; 2024
4. Hasanova, M. Lingvistik o‘zlashmalar va ularning nutqdagi o‘rni. // Xorijiy filologiya, 2023. №7, 45-58.
5. O‘zbek tili milliy ensiklopediyasi. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.; 2020.
6. Usmonov, T. Nutqiy grammatika va uning o‘zgarishlari.// Tilshunoslik masalalari, 2020. №3, 12-25.
7. Jahon tillari: o‘zgarish va barqarorlik. // Xalqaro lingvistik jurnal, 2020; 15(2),.
8. Internet lingvistikasi: yangi tendensiyalar. // Raqamli kommunikatsiya, 2023. 6(3), 45-60.

ADABIYOT DARSLARIDA BADIIY MATNNI TAHLIL QILISHNING SAMARALI USULLARI

Saidova Mohinur Yoqubjon qizi,
Buxoro davlat universiteti magistranti

O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana vaqadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun

shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategic maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuziva mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoniga muvofiq “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish” konsepsiyasi tasdiqlandi. Ushbu konsepsiyada belgilab berilgan vazifalardan biri yosh avlodni til bilish darajasini yaxshilash, o‘z fikrini o‘zbek tilida erkin bayon qila olish, o‘quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantirish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda o‘zbek tili mashg‘ulotlarining ahamiyati muhim ekanligi qayd etilgan.

Bunday natijaga erishish uchun maktablarda kichik sinflardan boshlab o‘zbek tili va adabiyoti fanlari o‘qitilib kelinmoqda. Adabiyot darslarining maqsadi ham bevosita o‘quvchilarning tafakkur qilish qobilyatini shakllantirish va o‘z tilida fikrini dalillar bilan erkin bayon qila olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Bundan tashqari, o‘zga millatga mansub o‘quvchilarda o‘zbek tilini, o‘zbekning milliy ruhiyatini, xususiy sezimlarini teranroq anglashini o‘zbek adabiyotini jahon pedagogikasi sohasida turli yutuqlariga tayangan holda va adabiyot o‘qitish metodikasi sohasida sodir bo‘lgan o‘zgarish, ularga xos yetakchi xususiyatlar, tarbiyalanuvchilar intellektual imkoniyati va ularning milliy mentaliteti, milliy psixologiyasini hisobga olgan holda o‘qitishni yo‘lga qo‘yish bilangina mukammallashtirish mumkin. O‘zbek tilini o‘rganayotgan o‘quvchilarni o‘zbek adabiyoti namunalari bilan tanishtirish, ularga o‘zbeklarning so‘z qo‘llash mahoratini alohida namoyish etish bilan oradagi masofani qisqartirish, tili o‘rganilayotgan xalqni ruhan anglashlariga chuqurroq anglashlariga erishish mumkin bo‘ladi.

O‘zbek tili darslarida badiiy matnni hikoya janri misolida tahlil qilishning nazariy asoslari

Pedagogika ilmi va amaliyotida ko‘p zamonlardan beri ta’lim tarbiyadan ustuvor sanalib kelinayotganini bo‘lajak hamkasblar talabalik yillarida o‘zlashtirayotgan bilimlari asnosida payqagan bo‘lishlari kerak. Yurt mustaqilligiga erishilgandan keyin nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayotda, balki ta’lim-tarbiya jarayonida ham jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirila boshladi. Endilikda shakllanib kelayotgan yosh avlodning ma’naviyatini sog‘lomlashtirish, ularga bilimlarni tayyor holda berishdan ko‘ra mustaqil fikrlashga yo‘naltirish va ta’lim jarayonidao‘quvchilarni mute ijrochilikdan erkin ishtirokchi darajasiga ko‘tarishning yangi yo‘llari qidirilmoqda. O‘qitishning asosiy manbalari bo‘lmish darslik, metodik qo‘llanma, metodik tavsiyalarni yangilash va takomillashtirish bilan birga ruhan sog‘lom, aqlan barkamol, o‘z fikri hamda qarashlariga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash ham ustuvorlik kasb etmoqda.

Yoshlar tarbiyasida bir xil fikrlaydigan, yagona xulosaga keladigan avlodni shakllantirish o‘rniga ma’naviy sifatlarning yetakchiligi, bola tuyg‘ularining injaligi, uning ko‘ngil istaklari, ma’naviyat shakllantirishda milliy an’analarga tayanish lozimligiga-da diqqat qaratilmoqda.

Hikoya – o‘quvchilarning hayotiy tajribasi va axloqiy qarashlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutuvchi nasriy janrdir. Uni o‘qitish orqali nafaqat o‘quvchilarning badiiy tafakkuri rivojlanadi, balki til boyligi, nutq madaniyati, tahliliy fikrlash qobiliyatlari ham shakllanadi. O‘zbek tili darslarida hikoyani to‘g‘ri metodik asosda o‘qitish o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Hikoya – syujetli, qisqa, aniq voqea asosida yaratilgan badiiy asar bo‘lib, unda bitta voqea yoki bir necha obraz ishtirok etadi. Odatda hikoyaning hajmi kichik bo‘lib, boshlanishi, voqea rivoji va yakuni aniq ifodalanadi. Maktab o‘quvchilari uchun oson tushunarli hikoyalar tanlab o‘qitiladi (masalan: G‘. G‘ulom, Abdulla Qodiriy, Xudoyberdi To‘xtaboyev, NodiraTuraeva asarlari).

O‘zbek tili darslari doirasida badiiy matnlar, xususan, hikoyalarni o‘qitish – nafaqat til o‘rganish, balki o‘quvchilarning estetik didini shakllantirish, ijtimoiy ongini rivojlantirish, nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan muhim vositadir. Hikoya – qisqa badiiy janr bo‘lib, u orqali o‘quvchilar voqealarning sabab-oqibat bog‘liqligini anglash, obrazlarni tahlil qilish, muallif g‘oyasini tushunish va uni ifodalashga o‘rganadilar.

Hikoyalarni o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarni o‘z fikrini mustaqil bayon qilishga, adabiy nutq bilan tanishtirishga, tilga estetik yondashishga, shuningdek, axloqiy tarbiyani shakllantirishga qaratilgan. Bu borada mashhur adabiyotshunos olimlar – A. Qodirov, B. Qosimov, H. G‘ulomovlarning fikrlariga asoslanish mumkin. A. Qodirov “O‘quvchilarni badiiy asar orqali tarbiyalash” nomli maqolasida hikoya kabi badiiy janrlar yosh ongida tasavvur va ta’sirchanlik hosil qilishda eng qulay shakl ekanligini ta’kidlaydi. Bu jihat bugungi kunda dars samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Hikoyalarni o‘qitish jarayonida o‘qituvchi nafaqat matn mazmunini tushuntiradi, balki uning g‘oyasini ochishga, obrazlarni yoritishga, til vositalarining badiiy kuchini anglashga yordam beradi. Masalan, G‘afur G‘ulomning “Shum bola” hikoyasi orqali o‘quvchilar mardlik, topqirlik, ustuvorlik kabi insoniy fazilatlarni anglaydilar. Shu orqali hikoya ijtimoiy-tarbiyaviy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, hikoyalar orqali o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, tarixiy xotirani yodda saqlash kabi tuyg‘ular shakllanadi. Bu haqida pedagog olima M. G‘ulomova o‘z tadqiqotlarida alohida ta’kidlab o‘tadi. Unga ko‘ra, hikoyalar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, bolaning shaxsiyati, axloqiy qarashlari va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Quyida hikoya o‘qish kompetensiyalarining asosiy yo‘nalishlari va mazmuni umumlashtirib beriladi:

Milliy o‘quv dasturi (MOD) asosida tuzilgan ta’lim mazmuni o‘quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va akademik rivojini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Bu jarayonda ayniqsa hikoya o‘qish kompetensiyalari muhim o‘rin tutadi. Hikoya janri orqali nafaqat tilni o‘rganish, balki madaniy qadriyatlar, axloqiy-me’yoriy tushunchalarni ham shakllantirish mumkin.

I. Hikoya o‘qish kompetensiyasi tushunchasi

Hikoya o‘qish kompetensiyasi – bu o‘quvchining matnni to‘g‘ri, ravon va ongli tarzda o‘qish, tushunish, mazmunini tahlil qilish, asosiy g‘oyani ajrata olish vauni hayotiy tajribasi bilan bog‘lay olish layoqatidir.

II. Milliy o‘quv dasturidagi asosiy kompetensiyalar

MOD asosida O‘zbek tili darslarida hikoya o‘qish bilan bog‘liq quyidagi kompetensiyalar shakllantirilishi nazarda tutiladi:

1. Kommunikativ kompetensiya matnni to‘g‘ri va ifodali o‘qish;

matnni qisqacha mazmunlash va asosiy fikrni ajratib ko‘rsatish;
hikoyada ishtirok etuvchi voqealar ketma-ketligini aniqlash.

2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi

matndan muhim ma’lumotlarni ajratib olish;
voqealarning sabab-oqibat aloqasini tushunish;
matndagi muammoli vaziyatlarga yechim taklif qilish.

3. Ijodiy fikrlash kompetensiyasi

o‘qilgan hikoya asosida yangi voqeani tasavvur qilish;
hikoyadagi voqealarni boshqa nuqtai nazardan qayta hikoya qilish;
hikoya asosida qisqa dramatizatsiya yoki rolik yaratish.

4. Madaniy va axloqiy kompetensiya

hikoya orqali milliy qadriyatlarni anglash;
belgilar (qahramonlar) xarakteri orqali axloqiy xulosalar chiqarish;
ijobiy xulq-atvor namunalarini ajratish.

5. O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi

mustaqil o‘qish, o‘z fikrini erkin ifoda qilish;
kitobxonlik madaniyatini shakllantirish;
o‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

III. Amaliy qo‘llash jihatlari

o‘quvchilarga hikoya o‘qitishda quyidagi usullar keng qo‘llaniladi;
savol-javob metodi orqali matn mazmuni ustida ishlash;
rolli o‘yinlar orqali hikoyani sahnalashtirish;
grafik organayzerlar (klaster, vaqt chizig‘i) orqali tushunishni chuqurlashtirish;
muqobil yakun yozish orqali ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish.

Xulosa qilib aytganda, hikoyalarni o‘qitish – O‘zbek tili darslarida nafaqat til materiallarini o‘zlashtirishga, balki o‘quvchilarni tarbiyalash, ularning ijtimoiy hayotga bo‘lgan qarashlarini shakllantirishga xizmat qiladigan muhim jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5850-son Farmoni
2. To‘xliyev B. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi.– Toshkent, 2008.– 268 b.
3. To‘xliyev B. haqidagi ma’lumotlarning 60 yilligiga bag‘ishlab chop etilgan asarlarni sharhlab o‘rganish. Tarix, tajriba va texnologiya nomli maqolalar to‘plamasi. –Toshkent, 2014.– 235 b.
4. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2010. – 184 b.
5. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –Toshkent: Nosir, 2009. – 352 b.
6. Jumaniyozova L. Boshlang‘ich sinflarda hikoya o‘qitish va uning tahliliy metodlari nomli maqolasi, 2024. – Zenodo plotformasi

MUSIQA TA’LIMIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASH ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Axrorova Munojat Mashraf qizi,
JDPU doktoranti

Bugungi kunda ta’lim jarayoni talaba markazida qurilishi va raqamli texnologiyalar hayotning ajralmas qismiga aylangani sababli, musiqa o‘qituvchisining vazifasi ham sezilarli darajada o‘zgardi. Avvallari dars jarayoni asosan o‘qituvchi atrofida shakllangan bo‘lsa, hozir pedagoglar ko‘proq yo‘l ko‘rsatuvchi va yordamchi vazifasini bajaradi. Ular talabalarga mustaqil o‘rganish, internet va boshqa raqamli manbalardagi katta hajmdagi ma’lumotlar ichida to‘g‘ri yo‘l topish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi [3][5]

Bugungi globallashuv davrida ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Xususan, musiqa ta’limida AKT vositalaridan foydalanish talabalarning estetik tafakkurini kengaytirish, ijodiy salohiyatini rivojlantirish va musiqiy idrokini chuqurlashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Musiqa darsi bu nafaqat bilim berish, balki his-tuyg‘ularni uyg‘otish, estetik tarbiya berish jarayonidir. Shu sababli, dars jarayoniga AKTni to‘g‘ri integratsiyalash orqali o‘qitish samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ta’lim tizimida raqamli platformalarning rivojlanishi, interaktiv dasturlar, onlayn resurslar, audio va video materiallardan foydalanish imkoniyati musiqiy fanlarni o‘qitishda yangi yondashuvlarni shakllantirishga turtki bermoqda. Shu

jihatdan, ushbu maqolada musiqa ta’limida AKTni integratsiyalash jarayonining afzalliklari, imkoniyatlari va amaliy yechimlari tahlil qilinadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari musiqiy ta’lim jarayoniga integratsiyalashda uch asosiy funksiyani bajaradi:

1. Vizualizatsiya - musiqa tushunchalarini ko‘rish orqali anglash imkonini yaratadi. Nazariy ma`lumotlar, ritm, dinamika yoki melodik o‘zgarishlar, garmoniya kabi tushunchalar grafik shaklda namoyish etilganda talabalar yaxshiroq tushunadi va qabul qilishi osonlashadi.
2. Amaliyotda qo‘llash – talabalar o‘z musiqiy ijodini virtual asboblar yoki kompozitsiya va musiqiy dasturlari yordamida sinab ko‘rishi mumkin. Bu esa ularning ijodiy tafakkurini yanada rivojlantirishga yordam beradi.
3. Baholash va monitoring – qiziqarli musiqiy platformalar orqali talabalarning bilim va malakasini real vaqtda kuzatish mumkin, bu esa o‘qituvchiga vaqtdan samarli foydalanish hamda o‘quv dars strategiyasini tezkorlik bilan vaziyatga moslashtirish imkonini beradi.

Musiqa ta’limida AKTning o‘rni va ahamiyati juda katta. Musiqa o‘qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni tobora ortib bormoqda, sababi u orqali an’anaviy dars uslublari zamon bilan hamnafas holda to‘ldirilib, talabalarga musiqani chuqurroq tushunish, idrok etish va tahlil qilish imkonini yaratadi. Misol tariqasida “MuseScore”, “Sibelius”, “GarageBand”, “Flat.io” kabi dasturlar notalarni yaratish, aranjirovka qilish va tinglash imkoniyatini beradi. Bu orqali talabalar nazariy bilimlarini amaliy jarayon bilan uyg‘unlashtira oladi.

Kontseptual asos ya`ni talabalar faolligi va o‘quv jarayonini yaxshilash maqsadida musiqa ta’limiga raqamli texnologiyalarni integratsiyalash bo‘yicha model:



1-rasm: kontseptual asosning taxminiy ko‘rinishi

- raqamli texnologiya: musiqa ta’limiga oid turli texnologiyalarni o‘z ichiga oladi – dasturiy ta’minot, qurilmalar (hardware), onlayn resurslar va raqamli vositalar;

- musiqa ta’limi: musiqa o‘qitish va o‘rganishning barcha jihatlarini qamrab oladi – nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, ijro, kompozitsiya va musiqani idrok etish (tinglab tushunish);
- o‘qituvchilarning qarashlari va amaliyoti: musiqa o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga qo‘shishga oid bilimlari, munosabatlari va ishlash uslublarini aks ettiradi;
- talabalarning faolligi va o‘rganish darajasi: raqamli texnologiyalarning talabalarning motivatsiyasi, darsdagi ishtiroki va o‘quv natijalariga ta’sirini ifodalaydi;
- pedagogik o‘zgarish: raqamli texnologiyalar musiqa ta’limidagi o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini qanday o‘zgartirishi, ya’ni darslarni ko‘proq talaba markazida qurilishi, interaktiv va individuallashtirilgan shaklda tashkillashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi[6].

Ushbu tadqiqot turli dasturiy ta’minotlarni ularning funksiyasi va ta’limiy maqsadlariga ko‘ra aniqlab, o‘rganish orqali musiqa o‘qituvchilarini texnologiyani o‘z darslariga samarali integratsiya qilish bo‘yicha amaliy strategiyalar bilan ta’minlashni maqsad qiladi. Misol sifatida kompozitsiya va aranjirovka uchun Finale yoki Sibelius kabi notatsiya dasturlari, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va musiqa nazariyasini o‘rganish uchun EarMaster yoki MusicTheory.net kabi qulay vositalar, ijodiy ifodani raqamli musiqa loyihalari orqali rivojlantirishga xizmat qiladigan GarageBand yoki Logic Pro X kabi ijro platformalari, shuningdek o‘quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qiluvchi Piano Maestro yoki SimplyPiano kabi o‘quv o‘yinlarini ko‘rsatish mumkin[7]. Ushbu dasturlarning funksional imkoniyatlari va pedagogik qo‘llanilish jihatlarini chuqur o‘rganish orqali mazkur tadqiqot musiqa o‘qituvchilariga texnologiyadan foydalanib, talabalari uchun samarali va ta’sirchan ta’limiy tajribalar yaratish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berishni ko‘zda tutadi.

Bundan tashqari, multimedia vositalari (audiovizual taqdimotlar, interaktiv slaydlar, virtual asboblar) yordamida murakkab musiqiy tushunchalarni oson va yengilroq anglash mumkin bo‘ladi. Talabalar musiqa asarining tuzilmasini, ritmik yoki garmonik o‘zgarishlarni nafaqat eshitadi, balki vizual tarzda ko‘ra oladi. Bu esa talabalar idrokining keng rivojlanishini ta’minlab, darsni yanada qiziqarli va samarali bo‘lishiga katta hissa qo‘shadi.

Musiqa darsida AKT integratsiyasining bir qator samarali yo‘llari mavjud. AKTni samarali integratsiyalashda o‘qituvchining metodik mahorati, raqamli savodxonligi va kreativ yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi yo‘nalishlar alohida ta`kidlab o‘tish mumkin:

- interaktiv platformalardan foydalanish: “Kahoot”, “Quizizz”, “LearningApps” kabi vositalar yordamida talabalarning nazariy bilimlarini qiziqarli test va viktorinalar shaklida mustahkamlash mumkin.
- virtual musiqa laboratoriyalari: onlayn dasturlar orqali talabalar turli cholg‘ular tovushini solishtirish, akkordlar tahlilini amalga oshirish, tonallik o‘zgarishlarini kuzatish imkoniga ega bo‘ladi.

- multimedia taqdimotlar: dars jarayonida video lavhalar, grafik illyustratsiyalar, audio yozuvlardan foydalanish talabalarning eshitish, ko‘rish va his etish sezgilarini uyg‘unlashtiradi.
- onlayn musobaqa va ijodiy topshiriqlar: talabalar o‘z ijod mahsulotlarini (musiqiy kompozitsiyalar, qo‘shiq talqinlari, video ijrolar) raqamli formatda taqdim etish orqali ijodiy raqobat muhitiga kirishadi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan yondashuvlar nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish, hamkorlikda ishlash, muammoli vaziyatni hal etish kabi kompetensiyalarni shakllantiradi.

Bu boradagi amaliy tajriba va kuzatuvlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, AKT vositalarini musiqa darslariga kiritish talabalarning darsga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Misol tariqasida o‘qituvchi “Flat.io” platformasida talabalar bilan birgalikda nota yozish, aranjirovka qilish jarayonini tashkil etsa, ularning faol ishtiroki sezilarli darajada ortadi. Shuningdek, musiqa tinglash jarayonida asar haqida ma’lumotni multimedia orqali berish (kompozitor, davr, janr, milliy uslub haqida) talabalarni yanada chuqurroq fikrlashga undaydi.

Ko‘plab o‘qituvchilar tajribasida shuni kuzatish mumkin, raqamli texnologiyalar yordamida dars o‘tilganda talabalarning ijodiy tafakkuri, ritmik eshitish hamda o‘z fikrini badiiy ifoda etish qobiliyati va darslarni mustaqil o‘zlashtirishga bo‘lgan ishtiyoqi va malakasi sezilarli darajada rivojlanadi. Bunday natija esa dars samaradorligining oshishiga sabab bo‘ladi[1].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, musiqa ta’limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalash bu zamonaviy pedagogikaning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. U nafaqat talabalarning ishini yengillashtiradi, balki darsni yanada qiziqarli tarzda samarali va estetik jihatdan boyitadi. Raqamli vositalar orqali talaba o‘zining musiqiy dunyoqarashini kengaytiradi, mustaqil o‘rganishga intiladi va musiqani hayotiy faoliyatining ajralmas qismi sifatida qabul qiladi. Musiqa ta’limida AKTdan oqilona foydalanish – bu dars samaradorligini oshirishning, talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning hamda ta’lim jarayonini zamon talablariga moslashtirishning eng samarali yo‘lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Axrorova M. M. (2024). Musiqa ta’limi kontekstida kasbiy kompetensiyani shakllantirish tasniflari. “Oriental Journal of Education”.
2. Bauer, W. I., 2014. Music Learning Today Digital Pedagogy for Creating, Performing, and Responding to Music. New York: Oxford University Press. ISBN 978-0-19-989059-0.
3. Bates, T. (2019). Teaching in a digital age: Guidelines for designing teaching and learning.
4. Brezina, P., 2018. Technika a technologie v hudebnom vzdelavani. Vychodiska, stav, perspektivy. Nitra: Univerzita Konstantina Filozofa v Nitre. ISBN 978-80-558-1339-4.

5. Johnson, L. (2014). Nurturing digital creativity: Designing meaningful learning experiences for the 21st century. Springer International Publishing.
6. Manish Sharma, Lovely Professional University, India The IAFOR International Conference on Education in Hawaii 2024 Official Conference Proceedings “Integration and Utilization of Digital Technology in Music Education: Conceptual Case Studies Analysis” The International Academic Forum www.iafor.org ISSN: 2189-1036, 117-127 pages
7. Radovan Sasala. (2021). Digitalne Technologie v srtukture integratiunej hudobnej vychovy. Bookman, s.r.o. Presov. ISBN 978-80-8165-427-5
8. Vavrus L., Linley, E., & Jacobson, K. (2017). Music teachers’ perspectives on technology integration: A case study of two elementary schools. Arts Education Policy Review, 118(3).
9. Wilkinson A., (2014). Making music and meaning with iPads: Exploring the intersection of music composition apps, creativity, and learning. Music Education Research, 16(2).

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARNING SO‘Z BOYLIGINI OSHIRISHDA O‘YINLI METODLARNING AHAMIYATI

Sodiqova Gulbahor G‘ofurjon qizi,
FarDU o‘qituvchisi
Qosimova Dilnavo Azizjon qizi,
FarDU BT va STI talabasi

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘yinli metodlar o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradigan, ularning ijodiy fikrlashi va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradigan eng samarali usullardan biridir. O‘yin bolalar hayotining ajralmas qismi bo‘lganligi sababli, ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish darsning maz-munini jonlantiradi, o‘quvchilarni faol fikrlashga undaydi hamda o‘quv m’zateriali mustahkam o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Boshlang‘ich ta’lim bolaning tafakkuri, nutqi va dunyoqarashi shakllana-digan eng muhim bosqichdir. Bu davrda bolalarning so‘z boyligini oshirish, ularning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish ta’lim jarayonining markaziy vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘yinli metodlardan foydalanish esa bu jarayonni yanada samarali, qiziqarli va ta’sirchan qiladi. O‘yin bolaning tabiiy ehtiyoji, ichki motivi bo‘lganligi sababli, uning yordamida berilgan bilim oson o‘zlashtiriladi, uzoq vaqt yodda qoladi va amaliy faoliyatda qo‘llanadi.

O‘yinli metodlarning o‘quvchi lug‘at boyligini rivojlantirishdagi roli beqiyosdir. O‘yin jarayonida bola yangi so‘zlarni nafaqat eshitadi, balki ulardan foydalanishga harakat qiladi, ularni mustaqil qo‘llab ko‘radi. Bu esa faqat passiv o‘rganish emas, balki faol nutqiy faoliyatga olib keladi. Har bir o‘yin vazifasi

o‘quvchini fikrlashga, muloqot qilishga, tasavvurini ishga solishga va mustaqil fikr bildirishga undaydi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda o‘yinli metodlar o‘quvchi qiziqishini saqlab qoladi, ularda o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi.

Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan o‘yinlar nafaqat ko‘ngilochar vosita, balki pedagogik maqsadga yo‘naltirilgan samarali metod hisoblanadi. O‘yinli metodlar yordamida o‘quvchilar oson, tabiiy va qiziqarli tarzda yangi bilimlarni egallaydi, bu esa ularning aqliy faolligini oshiradi. O‘yinlar davomida bola berilgan topshiriqni bajarishga intiladi, jamoa bilan ishlashni o‘rganadi, o‘z fikrini erkin ifodalashga harakat qiladi.

O‘yinlar yordamida o‘quvchilar atrof-muhitdagi buyumlar, hodisalar, belgilar, harakatlar va sifatlar haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ladilar. Shuningdek, ular yangi so‘zlarni o‘z kontekstida qo‘llashni o‘rganadilar. Chunki o‘yin ko‘proq muloqot va harakatga asoslanadi, muloqot esa nutqning eng samarali shakli hisoblanadi. O‘quvchi so‘zlarni gap ichida qo‘llay boshlashi, ularni o‘zi tuzgan jumlalarda ishlatishi so‘z boyligining mustahkam rivojlanishidan darak beradi.

O‘yinli metodlarning yana bir muhim jihati darsda ijobiy psixologik muhit yaratishidir. O‘quvchilar o‘zlarini erkin his qilganda, ular darsda faolroq ishtirok etishadi. Shuningdek, o‘yinlar orqali raqobat ruhi shakllanadi, lekin bu raqobat sog‘lom bo‘ladi: har bir bola g‘alaba qozonishga intiladi, ammo bir vaqtning o‘zida hamkorlik qilishni ham o‘rganadi.

O‘yinli metodlar o‘quvchilarning eslab qolish jarayonlarini ham kuchaytiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola hissiy jihatdan faol bo‘lgan paytda, ya’ni o‘yin jarayonida o‘zini quvonchli, hayajonli yoki qiziqish bilan to‘la holatda sezganda, o‘rgangan ma’lumotlari xotirasida uzoqroq saqlanadi. Bu esa o‘yinli metodlarning ilmiy asoslangan samaradorligini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘yin davomida o‘quvchilar o‘zaro hamkorlik qiladi, bir-biridan o‘rganadi, mustaqil fikrlaydi. Bu jarayonlar esa lug‘at boyligini oshirish bilan bir qatorda, ularning shaxsiy rivojiga ham xizmat qiladi.

O‘yinli metodlar turli ko‘rinishga ega: didaktik o‘yinlar, rolli o‘yinlar, interfaol o‘yinlar, musobaqa tarzidagi o‘yinlar va ijodiy o‘yinlar. Didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilar mavzuni mustahkamlaydi; rolli o‘yinlar esa hayotiy vaziyatlarni modellashtirishga yordam beradi. Interfaol o‘yinlar muloqot jarayonini kuchaytiradi, musobaqa o‘yinlari esa o‘quvchining faolligini oshiradi. IJodiy o‘yinlar bolalarda erkin fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi.

O‘yinli metodlar o‘quvchilarni erkin fikrlashga undaydi. Masalan, “Kim tez?”, “Top va ayt”, “Zanjirli gap”, “Rasmli kartochkalar bilan ishlash”, “Rollar o‘yini” kabi o‘yinlar bolani fikrlashga majbur qiladi. Har bir o‘yin jarayonida o‘quvchi yangi so‘zlardan foydalanishga harakat qiladi, bu esa lug‘at boyligining kengayishiga olib keladi. O‘yinlarda beriladigan topshiriqlar oddiydan murakkabga qarab shakllantirilsa, o‘quvchi asta-sekin murakkab gaplar tuzishga, so‘zlarni to‘g‘ri biriktirib ishlatishga o‘rganadi

Rollar o‘yinida bola o‘zini turli vaziyatlarda tasavvur qiladi: do‘konda xaridor, maktabda o‘qituvchi, bog‘da qo‘riqchi va hokazo. Bunday vaziyatlar nutqning situativ qo‘llanishini kuchaytiradi. O‘quvchi shu orqali real hayotda ishlatiladigan so‘z va iboralarni o‘rganadi, ularni o‘z nutqida qo‘llashga o‘rganadi. Bu esa lug‘at boyligini amaliy rivojlantirishning eng qulay usullaridan biridir.

O‘yinli metodlarning yana bir muhim jihatiular dars jarayonining monotonligini yo‘qotadi, o‘quvchini charchatmaydi va darsni jonlantiradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda bolalarning e’tiborini uzoq vaqt ushlab turish qiyin bo‘lgani uchun, o‘yinlar bu jarayonda asosiy yordamchi vazifasini bajaradi. Dars davomida o‘yinli metodlardan oqilona foydalanish o‘quvchining faolligini oshiradi va uni darsning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Darsni o‘yinli metodlar asosida tashkil qilish o‘qituvchidan puxta tayyorgarlikni talab qiladi. O‘yin dars mazmuniga mos, aniq maqsadli bo‘lishi kerak. O‘qituvchi o‘yin qoidalarini sodda va tushunarli qilib tushuntirishi, barcha o‘quvchilar faol ishtirok etishini ta’minlashi muhim. O‘yin davomida har bir bolaning o‘zini ko‘rsatishi uchun imkoniyat yaratilishi kerak.

O‘yinli metodlar darsning faqatgina qiziqarli o‘tishini emas, balki o‘quvchilarda turli psixologik va pedagogik kompetensiyalarning shakllanishini ta’minlaydi. O‘yin jarayoni bola tafakkuri, diqqatini jamlashi, eslab qolish qobiliyati va tezkor qaror qabul qilishini faollashtiradi. Shu sababli o‘yinlar o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘yinli metodlarni qo‘llash o‘qituvchi uchun ham qulay, chunki u darsning real holatini kuzatishi, qaysi o‘quvchilarda qaysi ko‘nikmalar sust rivojlangani haqida tezda xulosa chiqarishi mumkin. O‘yin vaqtida bola o‘zining tabiiy xatti-harakatlarini namoyon qilgani uchun o‘qituvchi ularning psixologik xususiyatlarini chuqurroq tushunadi

Bundan tashqari, o‘yinli metodlar orqali mustaqil fikrlashga o‘rgatish jarayoni ancha samarali bo‘ladi. O‘yin vaziyatlarida o‘quvchi muammoni o‘zi hal qilishga urinadi, bu esa unda muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashuvni shakllantiradi. O‘yin davomida berilgan topshiriqlar oddiy ko‘rinishiga qaramay, bu topshiriqlar bolaning mantiqiy fikrlashini mashq qildiradi.

O‘yinli metodlarning yana bir muhim jihati shundan iboratki, ular o‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalar – hamkorlikda ishlash, tinglash, fikr almashish, o‘zini boshqara olish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Jamoaviy o‘yinlarda bola o‘z vazifasini bajarish bilan birga, boshqalarga moslashish, jamoa natijasi uchun javobgarlik sezishni o‘rganadi.

O‘yinlarni darsga kiritish o‘quv jarayonini moslashtirishga ham yordam beradi. Masalan, murakkab mavzularni o‘yin orqali yengillashtirish, mavzuga kirishdan oldin motivatsion o‘yin qo‘llash yoki dars oxirida mustahkamlovchi o‘yin o‘tkazish darsning samaradorligini sezilarli oshiradi. O‘yinlar dars davomida ortiqcha zo‘riqishni kamaytiradi, chunki o‘quvchilar o‘yin jarayonida charchoqni sezmaydi. Shuningdek, bugungi kunda axborot texnologiyalari asosida tashkil etiladigan o‘yinli metodlar interaktiv taxtalar, mobil ilovalar,

kompyuter dasturlari orqali yaratilgan o‘yinlar - o‘quvchilarning motivatsiyasini yanada kuchaytiradi. Bu turdagi o‘yinlar ko‘proq vizual va audio effektlarga ega bo‘lgani uchun bolalarning e’tiborini tez jalb qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘yinli metodlar boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda juda muhim va samarali vosita hisoblanadi. Ular nafaqat lug‘at boyligini kengaytiradi, balki o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini, nutqiy kompetensiyasini, muloqot madaniyatini va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘yin orqali o‘rgatilgan har qanday so‘z va ibora o‘quvchi xotirasida uzoq saqlanadi va uni nutqda ishlatish ancha osonlashadi. Shu sababli o‘yinli metodlar har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining dars jarayonida muntazam qo‘llashi lozim bo‘lgan pedagogik usullardan biri sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayeva Q., Nazarov K. Savod o‘rgatish darslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 112 b.
2. Adizov B. R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. – Toshkent, 2003. – 320 b
3. Mavlonova R., Xoliqberdiyev K., Raxmonqulova N. Pedagogika. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 368
4. Yo‘ldoshev M., G‘afforova T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Noshir, 2015. – 356 b.
5. Hamroyev M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 240 b.
6. Vygotskiy L.S. Voobrazheniye i tvorchestvo v detskom vozraste. – Moskva: Pedagogika, 1991. – 180 s.
7. Ushinskiy K. D. Chelovek kak predmet vospitaniya. – Moskva: Pedagogika, 1988. – 480 s.
8. Jalolov J. Til o‘rgatish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 312 b.
9. Zunnunov A., Qurbonova M. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodlar. – Toshkent: Fan, 2020. – 204 b.
10. G‘ulomova X., To‘laganova M. Nutq o‘stirish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2018. – 180 b.

YANGI NASHR QILINGAN ONA TILI DARSLIKLARIDA LEKSIKOLOGIYA BO‘LIMINING O‘RGANILISHI

Omonova Sevinch Otabek qizi,
JDPU magistranti
Ilmiy rahbar: JDPU dots.
S.Do‘stova

Yangi nashr etilgan maktab ona tili darsliklarida leksikologiya bo‘limi o‘qitishga soatlar ajratilgan va turli mavzular berilgan. Qaysi mavzular qay tariqa berilganligini ko‘rib chiqishdan avval leksikologiya so‘ziga izoh berib o‘tamiz. **Leksikologiya** - tilshunoslikning til lug‘at tarkibi, ya’ni muayyan bir tilning leksikasini o‘rganuvchi bo‘limi [8.103-108b]. Leksikologiya har bir so‘zni yolg‘iz holda emas, balki boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya yoki semantika, etimologiya, stilistika hamda so‘z yasalishi haqidagi ta’limot kabi sohalari bilan chambarchas bog‘liq. Leksikologiyaning asosiy muammolaridan biri so‘zning mustaqil til birligi sifatida mavjudligi masalasidir. Leksikologiyada so‘zlarning ma’no jihatdan o‘zaro bog‘langan, ya’ni monosemiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, so‘z ma’nolarining erkin yoki bog‘liq holda bo‘lishi kabi masalalari ham o‘rganiladi [9.33-38b].

O‘zbek tilshunosligining “Leksikologiya” bo‘limi bo‘yicha 5-sinfdan 11-sinfgacha barcha sinflar uchun darsliklar asosida mavzular taqsimoti va mazmuni haqida o‘rganib chiqamiz.

5-sinf ona tili darsligida “Leksikologiyaga kirish , so‘z va uning ma’nosi, so‘z boyligi, lug‘at va lug‘at tuzish, so‘zlarning yozilishi va talaffuzi, omonimlar (bir xil yozilib, boshqa-boshqa ma’noni bildiruvchi so‘zlar), sinonimlar (yaqin ma’noli so‘zlar), antonimlar (qarama-qarshi ma’noli so‘zlar), so‘zning ma’nosi va unga kontekst ta’siri” kabi mavzular berilgan. Bu mavzularning berilishidan maqsad, so‘zlar turli ma’nolarda ishlatilishini, ular orasidagi ma’no munosabatlarini anglashdir[1.110-126b].

6-sinf ona tili darsligida „so‘z va uning tuzilishi, oddiy, yasama, qo‘shma so‘zlar, so‘z yasovchi qo‘shimchalar, so‘z yasash va so‘z turkumlari bilan bog‘liqligi, so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalar farqi, o‘zbek tilidagi so‘z boyligi manbalari: o‘z so‘zlar va o‘zlashma so‘zlar” kabi mavzular berilgan. Ushbu mavzularning berilishidan maqsad esa, so‘zlarning qanday hosil qilinishini tushunish va yangi so‘z yasash qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

7-sinf ona tili darsligida “leksik qatlamlar va semantika, leksik qatlamlar: arxaizmlar, neologizmlar, terminlar, dialektizmlar, ko‘p ma’nolilik (polisemantik so‘zlar), frazeologizmlar (so‘z birikmalari va ularning ma’nosi), frazeologik bog‘liqlik va mustahkamlik, lug‘at turlari bilan tanishish: orfografik, frazeologik, sinonimlar lug‘ati” kabi mavzular berilgan va bu mavzulardan maqsad so‘z qatlamlarini ajrata olish, nutq boyligini oshirishdan iborat [3.163-170b].

8-sinf ona tili darsligida “semantik munosabatlar va etimologiya, so‘zlar orasidagi semantik munosabatlar, sinonimiya, antonimiya, omonimiya chuqurroq tahlili, etimologik tahlil: so‘zlarning kelib chiqishi, o‘zbek tilidagi qadimgi so‘zlar, arabcha va ruscha o‘zlashmalar, lug‘at boyligini o‘rganish” mavzulari berilgan. Mavzulardan maqsad esa so‘zlarning ildizi, ma’no qatlamlarini tushunish orqali leksikani chuqur anglashdan iborat.

9-sinf darsligida “leksikologiyaning nazariy asoslari, leksikologiya va uning boshqa tilshunoslik sohalari bilan aloqasi, leksik birliklar: so‘z, frazeologizm, termin, leksik-semantik guruhlar: o‘simlik, hayvonot, ish-harakat, vaqt, raqam, his-tuyg‘u va boshqalar, so‘z boyligining kengayishi: qisqartmalar, yangi so‘zlar” kabi mavzular berilgan va bu mavzulardan maqsad leksik birliklarning nazariy asoslarini bilish, so‘zlar guruhini ajrata olishdan iborat.

10-sinf darsligida “leksikologiyaning zamonaviy yo‘nalishlari, mental leksika: inson ongidagi so‘z zaxirasi, til va tafakkur munosabati, leksik maydonlar nazariyasi, so‘zlarning konnotativ (qo‘shimcha) ma’nolari, stilistik sinonimlar” mavzulari berilgan . Bu mavzulardan so‘zlarning zamonaviy tilda ishlatilishini, tafakkurdagi rolini anglashdan iborat.

11-sinf darsligida “ lmiy leksikologiya asoslari haqida to‘liqroq ma’lumotlar keltirilgan, kognitiv leksikologiya: so‘zlar orqali bilim ifodasi, til va madaniyat: konseptlar va milliy xarakter, tilning leksik bazasi (asosiy yadro so‘zlar), so‘zning mental modeli, metafora, metonimiya, tilshunoslikdagi leksik tadqiqot metodlari” mavzulari berilgan va bu mavzulardan maqsad so‘zlar orqali inson tafakkurini va madaniyatini tahlil qilishdan iborat [7.49-58b].

Ushbu maktab darsliklaridagi leksikologiya mavzularini sinf, yo‘nalish, yondashuv darajasi, yangiliklar bo‘yicha qanday farq qilishini – ya’ni har bir sinfda qanday yangilik yoki murakkablik darajasi borligini ko‘rib o‘tamiz. 5-sinfda So‘z va ma’no, sinonim, antonim, omonim, kontekst, tanishuv bosqichi (asosiy tushunchalar), so‘zlar bilan ishlash, lug‘at bilan tanishish boshlanadi. 6-sinfda so‘z yasalishi, yasama va qo‘shma so‘zlar, so‘z boyligi, qurilish bosqichi (so‘z qanday yaratiladi), yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalar tushuntiriladi. 7-sinfda frazeologizmlar, ko‘p ma’nolilik, leksik qatlamlar, tushuncha chuqurlashadi, so‘z birikmasining barqaror shakllari, arxaizm va neologizmlar o‘rganiladi. 8-sinfda sinonimiya, antonimiya, omonimiya chuqurroq, etimologiya kabi mavzular o‘rganiladi va nazariy tahlil boshlanadi, so‘zlarning kelib chiqishi, tilda semantik aloqalar o‘rganiladi. 9-sinfda leksik birliklar, leksik-semantik guruhlar, qisqartmalar, guruhlash va tizimlashtirish , terminlar, fanlararo bog‘lanishlar, guruhli tahlillar qilinadi.10-sinfda mental leksika, leksik maydon, konnotativ ma’no, zamonaviy yondashuvlar, til va tafakkur, so‘zning ichki ma’nosi va obrazliliko ‘rganiladi. 11-sinfda kognitiv leksika, konseptlar, madaniy kodlar, til, tafakkur - madaniyat bog‘liqligi, milliy xarakterni aks ettirish kabilar o‘rganiladi.

Shuningdek, leksikologiya bo‘limi mavzularini zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan o‘qitish yaxshi samara beradi. O‘qituvchi muayyan

mavzuni o‘qitishda uning oson, to‘liq o‘zlashtirilishiga imkon beruvchi didaktik vositalar, texnologiyalar, metod turlaridan samarali foydalangan taqdirdagina dars samaradorligiga erishadi. Hozirgi zamon ta’lim tizimi talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga katta ahamiyat bermoqda. Xususan, turli o‘quv-metodik vositalar yordamida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish maqsadida grafik organazerlar keng qo‘llanilmoqda. Ta’limda zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilargdan kelib chiqib aytish mumkinki, 5-6-sinflar – asosiy bilimlarni (so‘z nima, qanday tuziladi, qanday ma’no bildiradi), 7-8-sinflar – tahlil va qatlamlashtirishni (frazeologizm, semantika, tarixiy qatlamlar), 9-11-sinflar – ilmiy va nazariy yondashuv, kognitiv tilshunoslik elementlari, konseptual tahlilni o‘rganadi.Bu jarayonni quyidagicha sxemaga solish mumkin:



Bu diagramma 5-sinfdan 11-sinfgacha bo‘lgan leksikologiya mavzularining 5-6-sinfda so‘zning ma’nosi, tuzilishi va lug‘aviy asoslar, 7–8-sinfda frazeologizm, sinonimiya, etimologiya kabi chuqurroq mavzular, 9–11-sinfda leksik guruhlash, mental va kognitiv yondashuvlar, nazariy tahlillar kabi rivojlanish darajasini ko‘rsatadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.N.Mahmudov, A.Sobirov, Ona tili, Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ”5-sinfi uchun darslik”. –Toshkent, 2020,110-126b.
2.I.Azimova, K.Mavlonova, Ona tili, Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “6-sinfi uchun darslik”. –Toshkent, 2022

3. I.Azimova, K.Mavlonova, Ona tili, Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “7-sinfi uchun darslik”. –Toshkent, 2022,163-170b.
4.M.Qodirov, H.Ne’matov, Ona tili , Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “8-sinfi uchun darslik”. –Toshkent, 2019
5.N.M. Mahmudov, A.Nurmatov, A.SH.Sobirov, Ona tili, Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “9-sinfi uchun darslik”. –Toshkent.: Tasvir, 2019
6.B.Mengliyev,Sh., Abdurahimov, Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “10-sinfi uchun darslik”. –Toshkent, 2022
7.B.Mengliyev, SH.Toshmirzayeva, Ona tili, Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “11-sinfi uchun darslik”. –Toshkent, O‘qituvchi, 2020. –49-58b.
8. Nosirjon Uluqov . Tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent, 2016y,103-108-b.
9. O‘lmas Sharipova, Ibrohim Yo‘ldoshev. Tilshunoslik asoslari. – T.: 2006, 33-38-b.
10. Arxiv.uz ijtimoiy tarmog‘i

ADABIYOT DARSLIKLARI HAQIDA MULOHAZALAR

Jumanova Fotima
JDPU magistranti,
Ko‘zi ojizlar jamiyati a’zosi.
Ilmiy rahbar: prof. U.Qosimov

Istiqloldan so‘ng xalqimizning ko‘p asrli boy madaniyati va adabiyot ini keng va haqqoniy o‘rganishga beqiyos imkoniyatlar yaratildi. Mustaqillikka erishgach, ayniqsa so‘nggi yillarda o‘zbek xalqi jamiyat hayotining borcha jabhalda o‘zligini namoyon etmoqda. Xalqimiz ongu tafakkuri va ma’naviy taraqqiyotida yangi bir bosqichni boshlab bergan bu hayotbaxsh jarayon misolida hazrat Alisher Navoiyning “Tilga e’tibor- elga e’tibor” degan purhikmat satrlarining haqqoniy bir ifodasini ham ko‘ramiz. Bejiz yemaski, ulug‘ adib va mutafakkirlar hamisha milliy tillari sofligi va ravnaqi uchun faol kurashib kelgan lar va bu bilan ham o‘zlarining vatanparvarlik burchlarini ado etganlar. Aslida, har bir iste’dodli san’atkorning novatorligi uning xalq tiliga, so‘zga ijod korona munosabatida va uning yangi ma’no qirralarini kashf etishida ham namoyon bo‘ladi. Ular, buyuk mutafakkirlarimiz faxr bilan e’tirof etganidek, tilimizning olmos yanglig‘ serjilo- serqirraligini, unda eng murakkab, eng teran fikr va nozik his- tuyg‘ularni ham haqqoniy ifodalash imkoniyati cheksiz ekanligini ko‘rsatib turadi.

Xalqimiz xayoti, boy ma’naviyati va yuksak tafakkurining munavvar ko‘zgusi bo‘lgan O‘zbek tilimiz ning bebaho boyligi va beqiyos imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ularni yuksak qadrlash esa, eng avvalo, mustaqil ona-yurtimizga bo‘lgan farzandlik burchimiz va mehru sadoqatimizga, bilim saviyamiz va nutq madaniyatimizga bog‘liq. Adabiyot darsliklarimizda ham mumtoz shoir-yozuvchilar va adabiyotshunoslarning “Adabiyot-so‘z san’ati”,

“Adabiyot tildan boshlanadi”, “Til-adabiyotning asosiy quroli” degan ta’riflariga keng o‘rin berilgan. Ulug‘ adiblar badiiy asar tiliga va undagi har bir so‘z-iboraga alohida e’tibor bilan qarashgan. Bu qutlug‘ adabiy-estetik an’analar zamondosh adiblar va tanqidchi-adabiyotshunoslar tomonidan ijodiy davom ettirilayotgani ham so‘z san’ati rivojining muhim omilidir**. Ayniqsa,** O‘zbek tilimiz davlat tili, millat ruhiyati sifatida yashar va uning ravnaqi yo‘lida barchamiz mas’ul ekanmiz, buyuk adiblarimizning ijodi va badiiy til saboqlari yanada chuqur ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan Navoiy va u zotga ioris-izdosh bo‘lgan ulug‘ adiblarimiz asarlari jonli halq tili boyliklari va rangdorligini adabiy tilga san’atkorona payvand qilib, har bir so‘z va iborani mahorat bilan qo‘llaganliklarini ko‘ramiz. Bunday xususiyatlar ko‘plab uetuk shoir va adiblarimiz, jumladan, asarlari, nutqi va so‘zlashuvida ham yaqqol sezilib turadi. qisqa, lo‘nda va tagma’noli iboralardan ham samarali foydalanilgani ham adibning mohir so‘z san’atkorligidan guvohlik beradi. Xususan, bir guruh katta tajriba-salohiyatli adabiyotshunoslarimiz o‘rta maktablar uchun tayyorlagan “O‘zbek adabiyoti” darsliklari ham s’ho‘ro davri dagi darslik–xrestomatiya lardan tubdan farq qiladi. Ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ulug‘lang an ijod namunalariga san’at asari sifatida yondas’his’h va badiiylik mezonlari asosida o‘rganis’h ustivor jihatlar bo‘lib sanaladi.

Ayniqsa, darsliklarimizda o‘zbek mumtoz adabiyoti va XX asr adabiyotimizning yirik vakillari hayoti va ijodini o‘rganishga asosiy e’tibor qaratilgani quvonarli holdir. Jumladan, o‘n birinchi sinfda Abdulla Qahhor ijodi bo‘yicha “Adabiyot muallimi” hikoyasi, “O‘tmishdan ertaklar” qissasi va “Sarob” romanidan parcha o‘rganish ko‘zda tutilgan bo‘lib, ularga dasturda besh soat ajratilgan. Bu besh soat vaqtning birinchi soati “Adabiyot muallimi” hikoyasini, ikki soati “O‘tmishdan ertaklar” qissasidan berilgan parchani o‘rganib mazunini tahlil yetishga va qolgan ikki soat “Sarob” romanidan olingan lavhalarni o‘rganishiga bag‘ish lanadi. Yozuvchining guvohik berishicha, ushbu hajviy hikoyasi ham hayotiy voqea asosida yaratilgan. Ya’ni hikoya qahramoni Boqijon Baqoyev timsoli bevosita hayotda kuzatilgan real fakt va prototip asosida yaratilgan. Bu satirik obraz asosida hayotdan o‘z o‘rnini topolmagan inson shaxsini tadqiq etish mazkur darsning tarbiyaviy-estetik maqsadini belgi laydi. Ayni vaqtda, hikoyadagi bilim saviyasi past va ma’naviyati qashshoq bir adabiyot muallimining qiyofasini anglatish darsning ta’limiy maqsadi o‘lib sanaladi. Darsda mavzuni yaxshi va osonroq o‘zlashtirish maqsadida o‘quvchilar yoshini va umumiy bilim darajasini e’tiborga olgan holda tadqiqot metodidan foydalanish tavsiya etiladi.

So‘nggi yillari umumta’lim maktab o‘quvchilari uchun nashr yetilgan “Adabiyot” darsligida Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi haqida besh betga yaqin batafsil ma’lumot berilgan. Maktab o‘quvchilarimiz 6- va 7- sinflarda adibning hayoti va ijodi haqida anchagina ma’lumotga ega bo‘lgan va uning shaxsi, asarlari bilan ma’lum darajada tasavvurga ega bo‘lganlar. Ayniqsa. 11-sinf darsligida ham adib shaxsini yoritadigan va uni o‘quvchilarga yanada

yaqinlashtiradigan muhim adabiy manbalar va qimmatli ilmiy-tarixiy ma’lum otlar berilganki, ularga alohida to‘xtalish lozim. Shuning uchun o‘qituvchi “Oybek hayoti va ijodi” mavzusini o‘tib bo‘lgandan so‘ng, uy vazifasi sifatida darslikda berilgan Abdulla Qahhor haqida mazkur biografik ma’lumotlar bilan tanishib, ulardan adib haqida bilganlariga qo‘shimcha nimalar mavjudligini aniqlash vazifasi topshiriladi. Shu tariqa besamar takrorlarga yo‘l qo‘yilmaydi hamda vaqtdan unumli foydalaniladi. O‘qituvchi darslikdagi mavvjud ma’lumotlarga qo‘shimcha ravishda 1987 yili nashr qilngan ”Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida” nomli to‘plamdagi taniqli ijodkorlarning Abdulla Qahhor haqidagi xotiralaridan ham foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu qimatli xotira va fikrlar o‘quvchilarni ulug‘ adib shaxsini, hayoti va ijodini o‘rganishga yanada yaqinlashtiradi, natijada ul ug‘ adib ijodi va shaxsini anglash shuncha oson bo‘ladi. Qolaversa, bunday usul va vositalar adabiyot darslarining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Masalan, Abdulla Qahhor shaxsi va ijodini yaqindan bilgan Konstantin Simonov, Ozod Sharafiddinovlarning xotira-maqolalarini eslaylik. Yoki yirik adib Odil Yoqubov ustoz yozuvchimiz haqida shunday xotirlaydi: “Soch-soqoli oppoq, yuzidan allomalik nuri balqib turgan xushro‘y bu inson bir qarashda qattiqqo‘l, siyosatli odamga o‘xshab ko‘rinardi. O‘sha paytlardagi adabiy muhitda keng urf bo‘lgan“. Abdulla Qahhor nima derkin?” degan ibora bizning avlodimizga mansub yozuvchilarni shoshma shosharlikdan, o‘z ishiga beparvolik bilan yondashishdan ogohlantirib, qo‘lyozmalarimizni qayta-qayta ko‘chirishi mizga majbur qilar edi. Haqiqatda esa g‘oyat ziyrak, ko‘ngli ochiq, adabiyotga kirib kelayotgan yorqin va iste’dodli yoshlarni astoydil qo‘llab-quvvatlaydigan inson edi...”. Shu o‘rinda o‘qituvchining o‘quvchilarini Odil Yoqubov xotiralaridagi qimmatli kuzatishlari va chizgilariga asoslanib, Abdulla Qahhor portretini o‘rganishga yo‘naltirishi ular uchun qiziqarli mashg‘ulot bo‘lishi tabiiy. Agar o‘quvchilarga qiyinlik tug‘dirsa, yozuvchi portreti-siymosini to‘liq tavsiflab berish og‘irlik qilsa, bu topshiriqni uy vazifasi sifatida qoldirish ham mumkin. Birinchi darsning 8 - 10 daqiqasi shularga sarflanishi ma’qul bo‘ladi. So‘ngra o‘quvchilar darslikda berilgan Abdulla Qahhorning “Adabiyot muallimi”hikoyasi matnini o‘qishga kirishadi. Agar sinfda adabiyotni, badiiy so‘zni chuqur his qiladigan iqtidorli o‘quvchilar bo‘lsa, u avvalgi darsda berilgan topshiriq asosida hikoyani ifodali o‘qishga tayyorlanib kelishi, asar matni bilan o‘rtoqlarini tanishtirishi ham aqsadga muvofiq bo‘ladi.. Ya’ni o‘quvchilarimiz adib haqida ma’lumot to‘plashdan tortib, uni tahlil qilish va yangi bilimlarni mustaqil ravishda amaliyotda qo‘llashgacha bo‘lgan mustaqil ishlarni bajarish nazarda tutiladi.

O‘quvchilar tomonidan faktik material to‘plash tadqiqot metodining zaruriy qismlaridandir. Shunday dalillar mavjudki, ularni dars jarayonida, ayniqsa, adabiyot darslarida kuzatib, to‘liq ochib bo‘lmaydi. “Adabiyot muallimi” hikoyasini tadqiqot metodidan foydalanib, o‘rganilganda, asosiy izlanish ob’ekti Boqijon Baqoyev hisoblanadi. Bu darsda o‘quvchilar “Boqijon Baqoyev tarbiyalagan o‘quvchilar kelajakda qanday odam bo‘ladi?” degan mavzuda sinov-

tajriba tariqasida o‘ziga xos bir ijodiy pedagogik tadqiqot ishlarini olib borishlari taklif yetiladi. Darslikda Boqijon Baqoyevning qiyofasi “hajviy” deya tavsiflanadi. Hikoya tahliliga yuqoridagi nazar bilan kengroq yondashilsa, bu hajviy holat bo‘lishi bilan birga, ma’lum ma’noda fojiaviy masalaga ham aylanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarni muallimning tabiati-fe’l-atvori, xarakteriga xos bo‘lgan illatlarni aniqlashga yo‘naltirish uchun savollar beradi. Boqijon Baqoyevning “cho‘chqa boqish haqidagi fikrlarining bema’niligini nimalardan ko‘rish mumkin?”. “U nega qaynisinglisi, ziyrak va intiluvchan o‘quvchi Hamidaning gapiga munosib javob va fikr bildirmadi? Bu undagi qanday fe’l-atvordan dalolat beradi? Boqijon Baqoyev Hamidaning savoliga javob berish o‘rniga o‘zini go‘yo bilimdon qilib ko‘rsatish uchun unga qarata: “Kanselyariyaning eshigiga praktikum deb yozib qo‘yibdi. To‘g‘ri emas. Praktikum, minimum, maksimum – bular hammasi lotincha yoki lotinchaga yaqin so‘zlar”, - deganiga asoslanib, uning bilim darajasiga baho bering” topshirig‘i o‘quvchilarni sergak torttirib, mustaqil fikrlashga undaydi. Ular o‘z imkoniyati va tushunchalari darajasida bilganlaricha munosabat bildiradilar, o‘z dalillarini daftarlariga yozib boradilar. Hamidaning savoliga javob berolmagan Boqijon Baqoyevning tabiati bilan bog‘liq detallarni to‘plashda davom etib: “Hamidaning Chexov asari tahlili bilan bog‘liq savoliga Baqoyevning “*tomdan tarasha tushganday”* savol bilan javob ber ishi nimadan dalolat beradi?” va “Siz adabiyot muallimining “Savol alomati hamma vaqti “mi”dan keyin qo‘yiladi” degan fikriga qanday qaraysiz?” kabi savollar o‘rtaga tashlanadi. O‘quvchilar o‘z javoblarida Baqoyevning nutqiga e’tibor qarata olishlari kerak. Bu bilan hikoya muallif ining yozuvchilik, ya’ni tasvirlash mahoratiga ham baho bergan bo‘ladilar. Masalan, Boqijon Baqoyevning “sartarosh bo‘lmasa odamlar maymun bo‘lib ketar edi. Maymun juni to‘kilib, odam bo‘lgan. Bu haqda Engelsning fikr *bor...”* deyishiga munosabat bildiring” topshirig‘i o‘quvchilarni hikoya qahramonining ayollar oldida o‘zini bilimli qilib ko‘rsatayotganini, aslida eng savodsiz kishi ham bunday fikrlamasligini, Baqoyev to‘mtaroq fikrlari bilan o‘zining bilimsizligi, ma’naviy qashshoqligini fosh etayotganini tushunishi kerak. U o‘zini bilag‘on fahmlab, atrofidagi odamlarning barcha sini nodon, ahmoq deb o‘ylaydi.

Hikoyaning bosh qahramoni Boqijon Baqoyevning xarakteri bilan bog‘liq barcha detallar aniqlab bo‘lingach, o‘qituvchi mavzu ob’ekti bilan bog‘liq masalani o‘quvchilarga eslatadi: “Boqijon Baqoyev tarbiyalagan o‘quvchilar qanday odam bo‘ladi?”. Yuqori sinf o‘quvchilari bu haqda o‘z maktab hayoti yoki boshqa bilganlaridan kelib chiqib, salomoqli fikrlar aytishi tabiiy. Eng muhimi, fikrlar aniqligi, mantiqli va asosli bo‘lishidir. Fikrlar umumlashtirilib, xulosa qilinib, ular tugaganda dars ham yakuniga yetadi. O‘quvchilar dars jarayonidagi faolligiga, aytilgan fikrlarning mantig‘iga, dalillarning asosliligiga qarab baholanadi. Gap shundaki, o‘quvchilarning barchasi Boqijon Baqoyev kabi bilimi sayoz va tushunchasi tor, chalasavod muallimlar haqida o‘zining tanqidiy xulosasiga ega bo‘lgan holda dars yakunlanadi. Shunda darsning asosiy

maqsadiga erishilgan bo‘ladi Muhimi, o‘quvchilar salbiy hajviy bir obraz misolida uning antipodi, ya’ni haqiqiy ziyoli-o‘qituvchi haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lishilariga yordam berish. Ziyoli inson – bamisoli mevali daraxt: uning ko‘m-ko‘k yaproqlari- chuqur bilim, teran tafakkur, ma’naviy-go‘zallik; o‘q ildizi-burchi va e’tiqodiga sadoqati, ichki dunyosi; mevasi – ma’naviyati va ma’rifati, aql-zakovati yuksak kamolot cho‘qqisini zabt etgan insonlar ezgu manfaat lari ro‘yobi uchun katta hissa qo‘shadigan, ilg‘or mushohada va mantiqiy qarashlarga ega bo‘lgan, Ona yurtining porloq kelajagi uchun butun borlig‘ini baxshida etadigan, tomirida buyuk ajdodlari qoni oqayotgan kelajagimiz vorislari bo‘lishi lozimligini anglab yetsinlar. Orzuyimiz shuki, yoshlarimiz ona tili, ona-Vatanning azizu mukarramligini, adolat, vijdon va insoniylik kabi muqaddas tushuncha-qadriyatlarni aqlangina yemas, qalban his yeta oladigan va buyuk ajdodlarimizga munosib, ijodiy, kreativ fikrlay oladigan bo‘lsalar. Adabiyot o‘qitishning bosh maqsadi ham avvalo shunga qaratilishi to‘g‘ri bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek adabiyoti darsliklari.
2. Abdulla Qahhor. Asarlar. 6 tomlik. 1-tom. T.1967.
3. Abdulla Qahhor. Hikoyalar. T.2007.
4. Kibriyo Qahhorova. Chorak asr hamnafas. T.:2007.
5. To‘xliev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.2006.
6. Husanboeva Q.Adabiyot o‘qitish metodikasi va muammoli ta’lim. T.2022.
7. Qosimov U., Hoshimxonov M. Maktab va akademik litseylarda A.Qodiriy, Cho‘lpon, A.Qahhor ijodini o‘rganish. T.2021.

ABDULLA AVLONIY PEDAGOGIK MEROSINING ZAMONAVIY ILMIY TADQIQOTLAR VA TA’LIM YONDASHUVLARI KONTEKSTIDAGI TAHLILI

Ruziyeva Xonzodabegim Shaydullayevna,
Yangi Asr Univeristeti magistranti

XXI asrda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy pedagogik merosni zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. O‘zbekiston pedagogikasining shakllanishida alohida o‘rin tutgan Abdulla Avloniy yaratgan darslik va qo‘llanmalar bugungi ta’lim tizimida ham metodik ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” kabi asarlari nafaqat o‘z davri, balki hozirgi ta’lim jarayonida ham shaxs kamoloti, ma’naviy tarbiya va o‘qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladigan boy manba sifatida baholanadi.

So‘nggi yillarda pedagogika fanida konstruktivizm, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interaktiv metodlar, kompetensiyaviy yondashuv kabi zamonaviy ilmiy metodologiyalar shakllanib, o‘qitish mazmuni va shakllarini yangilashga olib keldi. Shu nuqtai nazardan, Avloniy merosini zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilan bog‘lab o‘rganish, uning ta’limiy g‘oyalarini qayta talqin qilish va hozirgi ta’lim tizimiga tatbiq etish dolzarb hisoblanadi. Shuningek, Avloniy pedagogik merosini zamonaviy ilmiy yondashuvlar kontekstida ilmiy tahlil qilish, uning asarlarining hozirgi ta’limga metodik ta’sirini aniqlashdir.

XXI asr pedagogikasida ta’limning samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish dolzarb hisoblanadi. Shu kontekstda milliy pedagogik merosni, xususan, Abdulla Avloniy asarlarini qayta tahlil qilish va ularni zamonaviy pedagogik amaliyot bilan uyg‘unlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi [1].

Avloniy yaratgan darsliklar, metodik qo‘llanmalar va axloqiy-ta’limiy qarashlar nafaqat o‘z davri ta’lim tizimida, balki bugungi kunda ham pedagogik jarayonga muhim metodik asos sifatida xizmat qiladi [2]. Ularning asosiy xususiyati – shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, faol o‘rganish va axloqiy-ma’naviy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish tamoyillaridir. Shu bois, Avloniy pedagogik merosini zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilan uyg‘unlashuvi, uning ta’lim amaliyotiga tatbiqi va pedagogik yangilanish jarayonidagi roli o‘rganilishga muhtoj.

Ushbu maqolada Avloniy merosining zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan uyg‘unligi, konstruktivizm, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv kabi zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan bog‘liqligi, shuningdek, uning ta’lim jarayonida tatbiq etish imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi[5]. Maqsadimiz Avloniy pedagogik merosini zamonaviy ta’lim jarayoni va ilmiy tadqiqotlar bilan uyg‘unlashuv nuqtai nazaridan o‘rganish va uning metodik ahamiyatini aniqlashdir. Avloniy darsliklari va pedagogik qo‘llanmalari zamonaviy pedagogika va ilmiy tadqiqotlar kontekstida o‘rganilganda, ularning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, konstruktivizm va kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari bilan uyg‘unligi aniq ko‘rinadi. Konstruktivizm o‘quvchining bilimni o‘zi kashf etishi va faol ishtirokini ta’kidlaydi. Avloniyning darsliklari aynan shu tamoyillarni qo‘llaydi:o‘quvchini mustaqil fikrlashga undash, hayotiy misollar orqali bilim hosil qilish, savol-javoblar, dialoglar va mashqlar bilan interaktivlikni ta’minlash [2.3]. Natijada bu yondashuv Avloniy darsliklarini zamonaviy konstruktiv pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtiradi va ularni bugungi ta’lim jarayonida samarali qo‘llash imkonini beradi. Avloniyning pedagogik qarashlarini tahlil qilganda, uning darsliklari va metodik qo‘llanmalari zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim prinsiplariga mos kelishi, o‘quvchilarda axloqiy, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi[6]. Shuningdek, pedagogik jarayonda milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar – axloq, adolat va vatanparvarlik – ta’lim jarayonida asosiy o‘rinda turadi va ularni

zamonaviy pedagogik tamoyillar, xususan kreativlik va tanqidiy fikrlash bilan uyg‘unlashtirish mumkin. Shu bilan, Avloniyning pedagogik merosi milliy va global pedagogik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali zamonaviy ta’lim jarayonida samarali qo‘llanilishi maqsadga muvoviqdir.

Avloniy pedagogik merosini zamonaviy ta’lim jarayonida tatbiq etish bir nechta yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Masalan, Tarbiya va ma’naviyat darslarida
axloqiy qadriyatlarni shakllantirish maqsadida o‘quvchilarga Avloniy hikoyalari yoki she’rlaridan parchalarni o‘qitish va ularni mazmuni bo‘yicha muhokama qilish orqali adolat, halollik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni aniqlash va amaliyotda qo‘llashga o‘rgatiladi [1.2.3]. Shu bilan birga, vatanparvarlik va madaniyatni rivojlantirish uchun Avloniy asarlaridagi milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi matnlar asosida loyiha, rasm yoki skretch-video ishlari tashkil etiladi, bu esa o‘quvchilarda vatanparvarlik, madaniy xabardorlik va fuqarolik kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, interaktiv metodlar, masalan, hikoya yoki matn asosida “rolli o‘yin” yoki “muammoli vaziyat” mashqlari o‘tkazish orqali o‘quvchilar o‘z qarorlarini asoslab, vaziyatlarni hal qilish jarayonida axloqiy va ma’naviy qarashlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar, natijada muammolarni hal qilish ko‘nikmalari va shaxsiy axloqiy fazilatlar rivojlanadi [7]. Shu tarzda, Avloniy pedagogik merosini zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish nafaqat o‘quvchilarning akademik bilimini oshiradi, balki ularning shaxsiy, axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash joiz, ushbu maqolada Abdulla Avloniy pedagogik merosining zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va ta’lim yondashuvlari kontekstida tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Avloniyning darsliklari, pedagogik qo‘llanmalari va axloqiy-ta’limiy qarashlari bugungi pedagogik konsepsiyalar bilan yuqori darajada uyg‘unlashadi. Avloniyning metodik yondashuvlari o‘quvchilarda shaxsiy, axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa zamonaviy shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy ta’lim tamoyillariga mos keladi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Avloniy merosi quyidagi jihatlar bilan zamonaviy ta’lim jarayoni bilan uyg‘unlashadi: birinchidan, konstruktivizm tamoyillari asosida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undash va faol bilim olish jarayonini tashkil etish; ikkinchidan, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv orqali individual imkoniyatlarni hisobga olish va o‘quvchilarning qiziqishlarini rag‘batlantirish; uchinchidan, kompetensiyaviy yondashuv orqali axloqiy, kommunikativ va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish; to‘rtinchidan, milliy qadriyatlarni global pedagogik trendlar bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik, madaniy xabardorlik va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish.

Shu bois, Avloniyning pedagogik merosini hozirgi pedagogik jarayonlarga integratsiya qilish o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va axloqiy fazilatlarini

kompleks tarzda rivojlantirishga imkon yaratadi. Bundan tashqari, Avloniy metodikasi zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion va interaktiv yondashuvlarni qo‘llashni, shuningdek, milliy va global pedagogik qadriyatlarni uyg‘unlashtirishni ta’minlaydi. Shu tarzda, Avloniy pedagogik merosi nafaqat tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, balki bugungi kunda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish va milliy-ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishda dolzarb manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Avloniy, A. (1991). *Turkiy guliston yoxud axloq*. Toshkent: Sharq.
2.Avloniy, A. (2001). *Darsliklar va pedagogik qo‘llanmalar*. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Abdullaeva, M. (2018). “Avloniy merosi va zamonaviy ta’limda tatbiq imkoniyatlari.” *Pedagogika va innovatsiya*, 3(2), 45-52.
4.Karimov, B. (2020). “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va Avloniy pedagogik qarashlari.” Ilmiy pedagogik jurnal, 5(1), 12-20.
5. Naftulev, A.I. (2015). Person-centered education: Theory and practice. Moscow: Pedagogical Press.
6.Yakimanskaya, I.S. (2010). “Innovatsion pedagogika va ta’lim jarayonida kompetensiyalarni rivojlantirish.” Pedagogical Research, 2(4), 33-41.
7. Nazokat, Saitkulova. "Theoretical approaches to integrating fairy tale therapy into language teaching." Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi 19.3 (2025): 306-310

“MENING O‘G‘RIGINA BOLAM” HIKOYASINI O‘QITISHDA INTERAKTIV STRATEGIYALARNING QO‘LLANISHI

Yunusova Sevinch Rashid qizi,
JDPU talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.f.doktori (PhD) G.R.Tulishova

Adabiyot fanini o‘qitishda audio – vizual vositalar, multimediya resurslari hamda turli interaktiv strategiyalardan foydalanish bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishning eng samarali yo‘llaridan biri sanaladi. Zamonaviy ta’lim jarayoni o‘quvchini o‘zgarmas tinglovchiga emas, balki faol ishtirokchiga aylantirishni talab qiladi. Xususan, adabiy asarlarni o‘rganishda turli grafik organayzerlar, tahliliy metodlar va muloqotga asoslangan strategiyalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, badiiy tafakkurini va matnni anglash darajasini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ushbu maqolada G‘afur G‘ulomning mashhur “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasini o‘qitishda interaktiv strategiyalardan foydalanishning

afzalliklari ko‘rib chiqiladi. Hikoya kichik hajmli bo‘lsa-da, o‘quvchi ongini boyituvchi kuchli tarbiyaviy g‘oyaga ega. Unda muallif kambag‘al oilaning farzandi bo‘lgan bola hayoti orqali jamiyatning ijtimoiy ko‘rinishlarini, mehr va muruvvatning ahamiyatini ko‘rsatadi. “Bu dunyoda insonlarning dardu tashvishlarini o‘ylab yashash odamiylikning eng oliy mezonidir”[1]. Asarning poetik o‘ziga xosligi, tasvir ko‘lami, kompozitsion yaxlitligidagi o‘zgarishlar ijodkor tafakkuridagi evrilishlar mahsuli sanaladi. Badiiy adabiyotning hikoya janrida qahramon hayotining bir bosqichi tasvirlanar ekan, asarda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar negizida inson fitratini yoritishga urg‘u beriladi. Bu mazmunni o‘quvchilarga yetkazishda quyidagi strategiyalar samarali hisoblanadi: “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi” [2]. O‘zbekiston Respublikasi uchun kadrlar tayyorlash bo‘yicha Milliy dasturning qabul qilinganligi, olimlar va pedagoglar oldiga chet tilini o‘qitish bo‘yicha yangi darsliklar, qo‘llanmalar, lug‘atlar, dasturlar va boshqa didaktik materiallarni yaratishni muhim vazifa etib belgilamoqda. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, millatlararo totuvlik, hamkorlik va hamjihatlik butun dunyo xalqlari o‘rtasida mustahkamlanmoqda va rivojlanmoqda. Mana shunday rivojlanishlar natijasi sifatida badiiy adabiyotda qilinayotgan tarjimalarni ham kiritishimiz mumkin. Badiiy tarjima mana shu aloqalarni mustahkamlash uchun yana bir ko‘prik vazifasini bajaradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Badiiy tarjima har bir xalqning ma’naviy ko‘zgusi bo‘lmish asarlarini boshqa xalqqa namoyon etish, yetkazish uchun quroldir. Zero, mana shu asarlar har bir xalqning milliy o‘ziga xosligini, turmush tarzi, urf odatlarini o‘zida aks etadi. Biz o‘zbek tilidan ingliz tiliga qilinayotgan tarjimalar soni kundan-kunga oshib borayotganiga ham guvohmiz va bundan albatta mamnunmiz. Ushbu maqolada so‘z yuritmoqchi bo‘lganimiz G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasidir. Ushbu hikoya barcha adabiyot ixlosmandlari uchun tanish va qadrdon bo‘lib qolgan hikoyalardan biridir. XX asr o‘zbek adabiyotini biz 4 davrga bo‘lishimiz mumkin. 1. Marifatchilik adabiyoti, 2. Jadid adabiyoti, 3. Sho‘rolar adabiyoti, 4. Mustaqillik davri adabiyoti

G‘afur G‘ulom kabi ko‘plab ijodkorlarning urinishlari va mehnatlari natijasi sifatida bu davr adabiyoti eng mukammal asarlar, chiroyli nasr va nazm bilan boyitildi. Ayniqsa bu davr o‘zbek hikoyachiligining eng mashhur namunalari yaralgan davr bo‘ldi. Adabiy asarni o‘rganishda interaktiv strategiyalarning ahamiyati “INSERT”, “Venn diagrammasi”, “SWOT tahlil”, “Klaster”, “BBB jadvali” kabi metodlar o‘quvchilarning matnni mustaqil tahlil qilishiga yordam beradi. Bu strategiyalar matnni yodlash uchun emas, uni tushunish, baholash va qahramonlarga munosabat bildirish uchun xizmat qiladi.

1. “Klaster” strategiyasi: Ushbu metod yordamida asardagi asosiy g‘oya, muammolar, qahramonlarning xatti-harakatlari va hikoyaning tarbiyaviy jihatlari

tizimli tarzda yoritiladi. O‘quvchilar hikoyadagi: mehr-shafqat, bag‘rikenglik, ota-ona mehrining ulug‘ligi kabi tushunchalarni mustaqil aniqlab, o‘z fikrlari bilan boyitadilar.

2. “INSERT” texnologiyasi: Bu strategiya o‘quvchilarga matnni o‘qish chog‘ida belgilash, tanqidiy fikrlash, o‘z bilimi va his-tuyg‘ularini solishtirish imkonini beradi. O‘quvchi matnni o‘qib borarkan, belgilar qo‘yadi:

V – bilganim, **+** – yangi ma’lumot, **–,** – tushunarsiz joy, **?** – qo‘shimcha bilishni istagan holat savol tug‘ilgan nuqta Bu jarayon matnni mazmunan anglashni kuchaytiradi va ichki tahlilni faollashtiradi **“Fikrlar jadvali” strategiyasi**

Bu usul yordamida hikoyaning ijobiy va salbiy tomonlari, qahramonning xatti-harakatlariga nisbatan munosabatlar tizimli tahlil qilinadi. Jadval orqali o‘quvchilar qahramonning har bir xatti-harakatini asoslab fikr bildiradilar **“Fikrlar jadvali” strategiyasi**. Bu usul yordamida hikoyaning ijobiy va salbiy tomonlari, qahramonning xatti-harakatlariga nisbatan munosabatlar tizimli tahlil qilinadi. Jadval orqali o‘quvchilar qahramonning har bir xatti-harakatini asoslab fikr bildiradilar.

3. “SWOT tahlil”

Bu metod hikoyaning ijobiy va salbiy tomonlarini, asosiy konflikt va yechimlarni aniq ko‘rsatib beradi. O‘quvchilar:

kuchli jihatlar **S (Strengths)** – uning ijobiy jihatlari (mehribon, samimiy, sodda)

zaif jihatlar **W (Weaknesses)** – kamchiliklari (o‘g‘irlikka moyil bo‘lib qolishi, qo‘rqoqligi)

imkoniyatlar **O (Opportunities)** – imkoniyatlar (ota mehrini his qilish, tarbiya ko‘rish)

to‘siqlar **T (Threats)** – xavflar (jinoyatga aralashish, noto‘g‘ri muhit ta’siri)ni aniqlab, asar mazmunini chuqurroq anglaydilar. Bu tahlil qahramon xarakterining psixologik tomonlarini ochishda juda foydalidir

4. “Venn diagrammasi” strategiyasi

Hikoyadagi bola obrazi va real hayotdagi shunday bolalar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar taqqoslanadi. Bu usul o‘quvchilarning ijtimoiy fikrlash ko‘nikmasini oshiradi. G‘afur G‘ulom asarida yetimlik, mehr-muruvvat, oilaning ahamiyati, insoniylik kabi masalalar yuksak badiiy mahorat bilan yoritiladi. O‘quv strategiyalari bu g‘oyalarni o‘quvchini jalb qilgan holda, interaktiv tarzda anglashga yordam beradi. Har bir strategiya o‘quvchining: matn ustida mustaqil ishlashini, o‘z fikrini asoslab berishini, empatiya (hamdardlik) hissini kuchaytirishini, badiiy tafakkurini rivojlantirishini ta’minlaydi.

Bu esa adabiy ta’limning eng asosiy vazifalaridan biridir. “Mening og‘rigina bolam” hikoyasidan strategiyalarni qo‘llash uchun avvalo hikoyaning asosiy g‘oyasini tushunish zarur, bu esa o‘z navbatida o‘sha davrdagi ijtimoiy-madaniy muammolar, o‘zgarishlar va ularga xalqning munosabatini ochib beradi.

Hikoyaning asosiy g‘oyasini tahlil qilib, uni o‘ziga xos madaniy va ijtimoiy voqealar kontekstida o‘rganish orqali “o‘zagi” aniqlash mumkin.

Strategiyalarni qo‘llash

1. Adabiy tahlil: G‘oyaviy mazmunini tahlil qilish: Hikoyaning asosiy g‘oyasini aniqlash (masalan, o‘zgarishlar, jamiyatdagi muammolar, shaxsiy hissiyotlar va ularning tasiri). “O‘zagi” aniqlash: Hikoyaning asosiy g‘oyasi, shaxsiy va ijtimoiy muammolar, ijtimoiy o‘zgarishlar va shaxsiy his-tuyg‘ularni ochib beruvchi “o‘zak” aniqlash. “O‘zagi”ni aniqlash: Hikoyani o‘qish, uni o‘zbek tiliga tarjima qilish va ushbu g‘oyalarni aniqlash.

Adabiy-tarixiy fonni tahlil qilish: Tarixiy va madaniy muammo: Hikoyada yoritilgan ijtimoiy-madaniy muammolarni (masalan, madaniyatlararo o‘zgarishlar, ijtimoiy o‘zgarishlar, shaxsiy his-tuyg‘ular) aniqlash.

–To‘g‘ri aytasiz buvijon, – dedi o‘g‘ri, – mening ham ikki bolam, xotinim, bitta kampir onam bor, bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak, deganlaridek, shularni boqishim kerak. –You speak the truth, grandmother, – the thief said. I also have a wife, two children, and my old mother to take care of. Like they say, a chicken needs both seeds and water to survive; so I have to provide for my family.

Ushbu ibora tarjimasida live so‘zidan ko‘ra survive so‘zi ishlatilgan va bu aynan o‘sha davrni yanada jonliroq ko‘z oldimizga keltirishga xizmat qilgan deb aytish mumkin. Chunki urush davrida odamlarning “tirikchiligi toshdan qattiq” edi va ular yashab qolish maqsadida o‘g‘rilikka ham qo‘l urishga majbur bo‘lgan. O‘zbek millatining asl xarakterini boshqa xalqlarga ko‘rsatish uchun tarjima asarlar alohida o‘rin egallaydi. Ushbu hikoyada ham yana bir lavhaga e’tibor qaratsak: – Bu gaping ham to‘g‘ri o‘g‘rigina bolam, Ammo-lekin ehtiyot bo‘l. El-yurtning oldida tag‘in badnom bo‘lib qolmagin, - dedi bizning kampir.

–You have a point my thief boy; just be careful. Do not get your reputation spoilt in front of people, – my grandmother said. Qora buvi nafaqat o‘zinig nabiralarini, balki begona bo‘lsa-da, o‘g‘rining ham el-yurt oldidagi obro‘si haqida onalarcha qayg‘uradi. O‘zbek onalariga xos holat. Bu o‘zbek tilidagi “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” iborasini ham yaqqol ochib bergan. Ushbu hikoyaning yana bir jumlasida o‘zbek mentalitetiga xos bo‘lgan urf- odatni ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek xonadoniga mehmon kelsa, ketar chog‘i qo‘liga uyda bor shirinlik yoki non bilan kuzatishadi, quruq jo‘natishmaydi. Ushbu asarda ham Roqiya buvi “qutlug‘ uy”dan hattoki o‘g‘rini ham quruq jo‘natgisi kelmaydi. O‘zining qiyin ahvoliga qaramay, o‘g‘riga ham yordam bergisi, nimadir berib yuborgisi keladi. Mana shunday asarlar o‘zbek adabiyotida juda ko‘p. Bu kabi tarjimalar sonini ko‘paytirish adabiyotimizni, madaniyatimizni butun dunyo ahliga ko‘rsatish uchun imkoniyat yaratib beradi. Buning uchun esa, tarjimonlar o‘zlarida katta mas’uliyatni his etgan holda harakat qilishlari, eng sara asarlarning tarjimalarini mahorat bilan tarjima qilishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasini zamonaviy strategiyalar asosida o‘qitish o‘quvchilarda: mustaqil tafakkur, tanqidiy fikrlash, matnni anglash, badiiy-estetik did, ma’naviy qadriyatlarni chuqur his qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Interaktiv metodlar dars jarayonini jonlantiradi, o‘quvchilarni faol ishtirokchi darajasiga olib chiqadi va adabiy ta’limning samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2017. – B 112
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2017. 23 dekabr
3. Saydulla Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2005 4. G‘afur G‘ulom. Mening o‘g‘rigina bolam. – Toshkent.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr, 1993.
5. Mahmuda Saydumarova. A collection of Uzbek short stories. Bloomington, IN, USA. 2012
6. Махмудова, М. А., Ш. М. Султанова. “САКРАЛЬНОЕ КАК КОМПОНЕНТ УСТОЙЧИВЫХ ВЫРАЖЕНИЙ.” ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 19.6 (2023): 132-142.
7.https://fayllar.org/navoiy-davlat-pedagogika-instituti-xorijiy-tillar-fakultetiin.html?page=2

MIRZO ULUG‘BEKNING MOHIR PEDAGOG VA OLIM SIFATIDAGI QARASHLARI

Eshmurzayeva Barno Usmon qizi,
JDPU talabasi

Mirzo Ulug‘bek (1394-1449) - o‘z davrining mashhur olimi, astronomi, tarixchisi, va muhim pedagogik yondashuvlarga ega bo‘lgan shaxsdir. Ulug‘bekning ta’lim va ilm-fan sohasidagi yutuqlari faqat o‘zining davri bilan cheklanmay, balki keyingi asrlar davomida ta’lim tizimida keng qo‘llanilgan ilmiy va pedagogik yondashuvlarning asosini yaratdi. U o‘quvchilarga ilmni nafaqat kitobdan, balki tajriba orqali o‘rgatishni ta’kidlagan, shuningdek, ilm-fanni amaliyotga tatbiq etish zarurligini bildirgan.

Mirzo Ulug‘bekning pedagogik qarashlari nafaqat o‘quvchilarga ilm-fan asoslarini o‘rgatish, balki ularni to‘liq rivojlantirish, mustaqil fikrlash va amaliy bilimlarga ega bo‘lishlariga qaratilgan edi. Bu maqolada uning ilmiy va pedagogik faoliyatining yondashuvlari va metodologiyasi tahlil qilinadi.

Maqolada o‘rganilgan metodologiya tarixiy-tahliliy yondashuvga asoslanadi. Mirzo Ulug‘bekning pedagogik va ilmiy faoliyatlarini o‘rganish

uchun uning asarlari, ilmiy ishlarining metodologik jihatlari, shuningdek, boshqa tarixiy manbalar va o‘quvchilarning fikr-mulohazalari tahlil qilinadi. Bu yondashuv orqali Ulug‘bekning pedagogik qarashlari, ilmiy metodlari va ularning ta’lim tizimiga qo‘shgan hissasi to‘liq va keng ko‘lamda o‘rganiladi.

Mirzo Ulug‘bek, Avrasiya geografik markazida joylashgan Samarqandda ilmiy markaz yaratgan, bu markazda ko‘plab astronomlar, matematiklar, faylasuflar va tarixchilar faoliyat yuritgan. Ulug‘bekning pedagogik qarashlari va ilmiy faoliyati samarali bo‘lishida, albatta, uning ilmiy markazida olib borilgan ta’lim tizimi asosiy rol o‘ynagan. Uning ilmiy yondashuvlari asosan amaliy va tajribaviy bo‘lib, o‘quvchilarga faqat nazariy bilimlarni o‘rgatish emas, balki bilimlarni amaliyotga tatbiq qilishni ham ta’kidlagan.

Ulug‘bekning pedagogik tizimi o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi interaktiv muloqotni rivojlantirishga yo‘naltirilgan edi. U o‘quvchilarga ilmiy ishlarni, jumladan, astronomiya, matematika va falsafani nafaqat o‘rganish, balki ularga o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratishni maqsad qilgan. Mirzo Ulug‘bekning o‘ziga xos yondashuvi o‘quvchilarga ilm-fanning turli sohalarida chuqur bilim olish va ularni kundalik hayotga tatbiq etish imkoniyatlarini yaratgan.

Ulug‘bek, shuningdek, ilmiy ishlarida o‘quvchilarning individual yondashuviga katta e’tibor bergan. U har bir o‘quvchini o‘z qobiliyatlari va ehtiyojlariga qarab rivojlantirishni maqsad qilgan. Bu, albatta, uning ta’lim tizimining muvaffaqiyatli bo‘lishining asosiy omillaridan biri bo‘lgan.

Mirzo Ulug‘bekning pedagogik yondashuvlarida ilmiy me’yorlar va prinsiplar muhim rol o‘ynagan. U, o‘quvchilarga har qanday ilmiy sohada muvaffaqiyatga erishish uchun, avvalo, mustaqil fikrlash, analitik yondashuv va ilmiy usullarni o‘zlashtirishni ta’kidlagan. Uning ta’lim metodologiyasi, albatta, zamonaviy ta’lim tizimlari uchun ham juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

Mirzo Ulug‘bekning pedagogik qarashlari ta’lim va ilm-fan sohasida amalga oshirilgan innovatsion yondashuvlarning yorqin namunasidir. U, o‘z davrida ko‘plab olimlar va mutaxassislar bilan birga, ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangilashga qaratilgan yondashuvlarni amalga oshirdi. Ulug‘bekning asosiy maqsadi, nafaqat nazariy bilimlarni o‘rgatish, balki o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, analitik yondashishga va amaliy tajribalarni o‘zlashtirishga undash edi. Ulug‘bek, ilmiy markazi orqali, astronomiya, matematika va boshqa fanlar bo‘yicha keng qamrovli o‘quv dasturlarini yaratdi. U o‘quvchilarga matematik asoslarni o‘rgatishda amaliy tajribaga katta ahamiyat berdi. Masalan, o‘z zamonasining ilg‘or astronomik asboblari yordamida o‘qitish, o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini berdi. Bu yondashuv, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularni amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishga ham yo‘naltirdi.

Mirzo Ulug‘bek, o‘zining pedagogik faoliyatida ko‘plab ilg‘or yondashuvlarni qo‘llagan. U o‘quvchilar bilan interaktiv muloqotni

rivojlantirishga, ularni o‘z fikrlarini bildirishga va ilmiy muhokamalar o‘tkazishga chaqirdi. Bu jarayon, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam berdi. Ulug‘bekning pedagogik yondashuvlarida o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z bilimlarini baholash imkoniyatlari ham mavjud edi, bu esa o‘quvchilarning mustaqilliklarini oshirishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, Mirzo Ulug‘bek, ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining individual qobiliyatlariga e’tibor berdi. U har bir talabaning o‘ziga xos xususiyatlarini, qobiliyatlarini va qiziqishlarini hisobga olib, ta’lim berishni maqsad qilgan. Bu yondashuv, o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishlariga va o‘z bilimlarini rivojlantirishlariga yordam berdi. Ulug‘bekning o‘quvchilarga individual yondashuvi, zamonaviy ta’lim tizimlarida ham muhim ahamiyatga ega.

Ulug‘bekning pedagogik qarashlarida ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati ham alohida e’tiborga molik. U ilmiy tadqiqotlar olib borish orqali o‘quvchilarning fikrlarini kengaytirish, yangi g‘oyalarni rivojlantirish va amaliy tajribalarni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning bilimlarini yanada boyitish va ularni zamonaviy ilm-fan talablariga javob beradigan qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qildi.

Shuningdek, Mirzo Ulug‘bekning pedagogik yondashuvlarida ijtimoiy mas’uliyat ham muhim rol o‘ynagan. U o‘zining ilmiy markazida ta’lim berish jarayonida nafaqat ilmiy bilimlarni, balki axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni ham o‘rgatishga harakat qildi. Bu, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishida va jamiyatga foydali bo‘lishida muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, Mirzo Ulug‘bekning pedagogik qarashlari va ilmiy metodologiyasi zamonaviy ta’lim tizimida ham dolzarb ahamiyatga ega. Uning yondashuvlari ta’lim jarayonining sifatini oshirishga, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga va amaliy bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Ulug‘bekning ilmiy va pedagogik merosi, albatta, kelajak avlodlarga o‘z bilimlarini rivojlantirish va yuksaltirishda xizmat qilishi kutilmoqda.

Mirzo Ulug‘bekning pedagogik qarashlari va ilmiy metodologiyasi, nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham ilm-fan va ta’lim sohasidagi rivojlanishga ulkan ta’sir ko‘rsatgan. U o‘quvchilarga nafaqat ilmiy bilimlarni, balki mustaqil fikrlashni, amaliyotga oid bilimlarni ham o‘rgatgan. Uning yondashuvlari o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida muloqot va hamkorlikni ta’minlashga asoslangan bo‘lib, bu zamonaviy ta’lim tizimlarida ham qo‘llanilmoqda.

Mirzo Ulug‘bekning ilmiy va pedagogik merosi, albatta, barcha davrlar uchun muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, o‘z zamonidagi ta’lim tizimining rivojlanishida katta rol o‘ynagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bobokulov, B. (2014). *Mirzo Ulug‘bekning pedagogik qarashlari*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi.

2. G‘iyosov, X. (2016). *Mirzo Ulug‘bek va ilm-fan: tarixi va pedagogik yondashuvlar*. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
3. Islomov, D. (2000). *Ulug‘bekning ta’lim va ilm-fandagi o‘rni*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
4. Khoshimov, F. (2005). *Ulug‘bekning ilmiy merosi*. Toshkent: Akademiya.
5. Tursunov, T. (2002). *Mirzo Ulug‘bek: tarjimai hol va pedagogik fikrlari*. Samarqand: Sharq.
6. Mirzo Ulug‘bek. (2000). *Matematika va Astronomiya ilm-fanidagi ilmiy ishlari*. Toshkent: Fan.

TA’LIM JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARNING QO‘LLANISHI: O‘QUV MOTIVATSIYASI VA KASBIY QARORLAR SHAKLLANISHI

Zikriddinova Mutabar Faxriddin qizi,
JDPU talabasi

Rivojlangan hamda rivoyalanib borayotgan asrimizda zamonaviy jamiyat uchun ta’lim tizimi raqamli transformatsiya jarayonidan o‘tayotgani, va sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari ta’lim va o‘quvchilarning kasbiy yo‘nalish tanlashida muhim vositaga aylanib borayotganini ko‘rmoqdamiz. Internet va sun’iy intellekt ta’lim uchun qulay muhit yaratib, o‘quv jarayonini optimallashtirish hamda o‘rganish samaradorligini oshirish, shaxsiylashtirilgan yondashuv orqali motivatsiyani kuchaytirish va kelajak kasbiga ongli yo‘l tanlashni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Bugungi kunda dunyoda turli ta’lim muassasalari va tadqiqotchilar SI asosidagi intellekt platformalar, virtual yordamchilar va interaktiv o‘quv muhitlarini joriy etish orqali o‘quv jarayonini qayta shakllantirishga intilishmoqda [1]. Ushbu maqolada sun’iy intellektning ta’limdagi qo‘llanishi, uning o‘quvchilar motivatsiyasiga va ularning kasbiy yo‘nalish tanlashiga ta’siri tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt- bu mashina o‘rganish, tabiiy tilni qayta ishlash, algoritmik tahlil kabi texnologiyalardan tashkil topgan tizimlar majmuasi bo‘lib, u ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, shaxsiylashtirilgan o‘qish muhitini yaratish, o‘quv materiallarini o‘quvchining darajasi va ehtiyojiga moslashtirish imkonini beradi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida SI asosidagi sistemalar intellekt ta’lim, avtomatik baholash, virtual yordamchilar va onlayn platformalar orqali o‘qitish jarayonini takomillashtirishda ishlatilmoqda. Shunday qilib, SI raqamli ta’limni oddiy “texnologik qo‘shimcha” darajasidan olib, “ta’lim transformatori”ga aylantirishga qodir vosita sanaladi. Shu sababli hozirgi vaqtda ko‘plab yoshlar sun’iy intellektdan foydalanishni afzal ko‘rishadi.[2] Sun’iy intellektning o‘quv motivatsiyasi haqida aytadigan bo‘lsak, so‘nggi tadqiqotlar ko‘rsatadiki, SI asosidagi o‘quv vositalari o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirishda

samarali hisobalanadi ya’ni o‘quv muhitini individual e’tibor bilan moslashtirish, tabiiy vaqtli fikrlar hamda interaktivlik o‘quvchilarda o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Masalan, “The Role of Artificial Intelligence in Shaping High School Students Motivation” nomli maqolada SI ta’lim muhitida o‘quvchilarning “kompetentlik” ehtiyojini qondirish orqali motivatsiyani oshirishi, ammo noto‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qo‘llanilsa bu avtonomatik va ijtimoiy bog‘lanish hissini zaiflashtirishi mumkinligi ta’kidlanadi.[3] Shuni ta’kidlash lozimki, mualliflar sun’iy intellekt qo‘llanilishida mas’uliyat va etik jihatlarni hisobga olish lozimligini, ortiqcha bog‘lanish va o‘quvchining mustaqilligini yo‘qotmaslik zarurligini ta’kidlaydi. Shuningdek, sun’iy intellekt nafaqat oddiy o‘quv jarayonida, balki kasbiy tayyorgarlik va yo‘nalish tanlashda ham yosh avlod uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. SI asosidagi platformalar yordamida talaba yoki o‘quvchi o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari va bozor talablariga mos ravishda o‘quv yo‘nalishi yoki kasb variantlarini real-vaqtda ko‘rib chiqishi mumkin. Bu jihatdan SI yoshlarning ongli kasb tanlashida o‘z kuchlari va bozor sharoitlariga mos keladigan yo‘l tutishiga yordam beradi. Mazkur tendensiya joriy zamonaviy va adaptiv ta’lim tizimlari yordamida tobora kengaymoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, sun’iy intellekt tta’lim tizimida kuchli vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin ya’ni u o‘quv jarayonini individual darajada moslashtirish, motivatsiyani oshirish va kelajak kasbiy yo‘nalish tanlashda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Ammo bu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun o‘qituvchilar, ta’lim muassasalari va mas’ul shaxslar ehtiyotkorlik bilan yondashishi, etik va texnik jihatlarni hisobga olgan holda SI integratsiyasini rejalashtirishi barcha uchun ehtiyotkorona yo‘l sanaladi. Shu tarzda, sun’iy intellekt inson va texnologiya jamlanmasidan kelib chiqadigan ta’lim bog‘lamasini shakllantirishda muhim vosita bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ashurov, Jasur Djo‘rayevich. Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlarini joriy qilishning ahamiyati va istiqbollari // Pedagogik Tadqiqotlar Jurnali, 2025.
2. Khaydarova Umida Pulatovna & Suyuberdiyeva Ayman. “AI in Education: Enhancing Teacher-Student Interactions and Motivation”. *European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA)*, 2024.
3. https://ijtes.net/index.php/ijtes/article/view/1735?utm_source

MILLIY MUSIQIY MEROSNI GLOBALLASHUV JARAYONIDA ASRASH MUAMMOLARIGA DOIR

Xazratqulova Madina Xamroqul qizi,
JDPU talabasi
Ilmiy rahbar: JDPU dotsenti M.Abilov

Yoshlar orasida milliy musiqaga qiziqishning sezilarli darajada pasayib ketayotgani milliy musiqiy an’analar va cholg‘ularni ijro etish imkoniyatining cheklanganligi, milliy musiqiy merosni saqlashdagi asosiy to‘siqlar va sabablari, zamonaviy texnologiyalar va internetning milliy musiqaga bo‘lgan e’tiborni tobora kamaytirayotgani, bugungi milliy musiqiy merosimizning hozirgi holati va asosiy muammolaridan sanaladi. Bu kabu muammolarning yechimiga malakali kadrlarning kam ekanligi – milliy musiqa o‘qituvchilari va ijrochilar safini va salohiyatini oshirishdan iborat deb hisoblaymiz.

Musiqa asrlar davomida har bir xalqning madaniy o‘zligini ifodalovchi eng muhim elementlardan biri bo‘lgan. U tarixiy voqealarni, urf-odatlarni, e’tiqod va turmush tarzini aks ettiradi, avlodlar orasida muloqot vositasi bo‘lib xizmat qiladi va noyob an’analarni saqlashga yordam beradi. Texnologiyalar va globallashuv jarayonlari tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan sharoitda milliy musiqiy ijodning autentik xususiyatlarini saqlash muammosi dolzarb masalaga aylanmoqda.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni milliy musiqiy merosni saqlash va rivojlantirish uchun jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Global pop-musiqa, xorijiy janrlar va zamonaviy texnologiyalarning ta’siri yosh avlod orasida milliy musiqa va an’anaviy cholg‘ularga bo‘lgan qiziqishni pasaytirmoqda. Ko‘plab yoshlar faqat mashhur xorijiy musiqiy asarlar bilan shug‘ullanadi, milliy meros esa yetarlicha e’tibor ololmayapti. Shuningdek, moddiy va texnik baza yetarli emas. Maktab va madaniyat muassasalarida milliy cholg‘ular, nota va yozuv materiallari yetishmasligi, musiqiy jihozlarning eskirganligi milliy merosni o‘qitish va ijro etish imkoniyatini cheklaydi. Yana bir muhim muammo – malakali kadrlarning yetishmasligi hamdir. Milliy musiqa o‘qituvchilari va tajribali ijrochilar kam, bu esa yoshlarni milliy musiqiy an’analar bilan tanishtirish va ularni musiqaga qiziqtirish jarayonini qiyinlashtiradi.Shu bilan birga, yoshlar orasida global tendensiyalar va moda musiqaning kuchli ta’siri, turli media va ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy musiqani e’tibordan chetda qoldirishi ham jiddiy xavf tug‘diradi. Natijada, milliy musiqiy merosning saqlanishi va davom ettirilishi, shuningdek, yosh avlodda badiiy didni shakllantirish va madaniy merosga hurmatni rivojlantirish dolzarb masalaga aylanadi. Musiqa ta’limining asosiy maqsadi va vazifasi o‘sib kelayotgan avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qiladigan, millat va g‘ururni umumbashariyat oldida o‘zining nafisligi, milliy kuy-ohanglari ila ajralib turadigan jihatlari bilan ko‘rsata oladigan, o‘ziga xosligini har qanday tashqi ta’sirlardan saqlay oladigan shaxslarni tarbiyalashga

qaratilganligidir. Bu jarayonda esa pedagoglarning faoliyat ko‘rsatishi muhim omillardan sanaladi.

Bo‘lajak o‘qituvchi faoliyatida kreativlik uning kasbiy o‘zini o‘zi anglashi bilan bevosita bog‘liq, chunki o‘z kasbiy rolini anglash pedagogik vaziyatlarda bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy namoyon bo‘lishi qanchalik intensiv bo‘lishiga bog‘liq. Shuni ta’kidlash joizki, ijodiy pedagogik jarayonga hissiy munosabat va hissiy jalb qilish ijodiy faoliyat jarayonida hissiyotlarni rag‘batlantirishga bog‘liq bo‘lib, bu o‘quvchini quvonch, ilhom, ijodiy faoliyatga singdirish holatiga olib keladi. Kreativ xarakterga ega mashg‘ulotlar talabalarning qiziqishlarini kuchaytirib, ular yanada ko‘proq harakat qilishga undaydi. Talabalar amaliy harakat va faollik jiddiy o‘zgarishlarga olib kelmasligiga ishonishdek salbiy tushunchalarga ega. Ular o‘zlarining muayyan imkoniyatlarga egaliklarini biladilar, biroq, mavjud imkoniyatlari hech narsani o‘zgartirmaydi deb hisoblaydi. Shu sababli ular o‘zlarining faollik darajasini erishayotgan yutuqlari bilan emas, aksincha, doimo muvaffaqiyatsizliklari bilan baholashga odatlanib qolishadi. Bu esa nihoyatda xavfi. O‘zlarini yuqori baholaydigan talabalar esa mavjud ko‘nikma, malaka va iqtidorlari yanada rivojlanib borishiga ishonadilar. Bunday talabalar odatta murakkab ishlarda faol qatnashadilar va o‘zlarini namoyon eta oladilar ham. Xato qilsalar undan xulosa chiqarib, o‘sishda davom etadilar. Bunday fikrlash odatiga ega o‘quvchilar kirishimliroq va kreativlik ko‘nikmasidan foydalanishga moyil bo‘ladi.

Musiqiy tafakkur inson madaniyatida va jamoaviy hayotida o‘ziga xos o‘ringa ega. U dam olish va ko‘ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashqlari va mehnat jarayonida o‘ziga xos muayyan darajadagi vazifani bajaradi. Shuning uchun musiqa asarlari o‘z mazmuniga muvofiq holda bir necha uslub, tur va janr guruhlariga ajratiladi. *Alla, zikr, marsiya, sarbozcha, vals, marsh, messa* kabi janrlar hayotdagi maishiy va boshqa sharoitlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Janrlar asosan diniy musiqa, yoshlar musiqasi, maishiy musiqa, ommaviy musiqa, harbiy musiqa, kamer musiqa kabi musiqa turlarida birlashadi. Tarixiy, milliy, mahalliy, shaxsiy musiqa uslublari ham musiqiy tafakkur tarzi, ohang, ritm, shakl kabi musiqiy unsurlarni o‘z ichiga olib, muayyan bir davr yoki milliy madaniyatga mansub bo‘lgan turli janrdagi asarlar umumiyligini aks ettiradi.

Musiqiy tafakkurning shakllanish jarayoni asosan, uch bosqichda amalga oshiriladi: ijod, ijro va tinglash. Har bir bosqichda asarning mazmun va shakli o‘zgacha ko‘rinishda bo‘ladi. Ijod bosqichida badiiy g‘oya va shakl muallif ongida mushtarak holda tug‘iladi. Ijro jarayonida shakl va mazmun ijrochi tomonidan uning dunyoqarashi, estetik tasavvurlari, shaxsiy tajriba va mahoratiga mos ravishda o‘zgartiriladi. Musiqa ixlosmandlari ham ijro etilayotgan asarni o‘zlarining xususiy didi, hayotiy va badiiy tajribasiga asoslanib qabul qilishadi. Shu bois ham musiqa faoliyati hamma bosqichlarda ijodiy tabiatga ega bo‘ladi.

Zamonaviy texnologiyalar va internet yoshlar orasida global musiqiy tendensiyalarni keng tarqatadi. Streaming platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, pop va elektron musiqaga oid videolar milliy musiqiy merosga bo‘lgan e’tiborni kamaytiradi. Yoshlar ko‘pincha mashhur xorijiy yoki zamonaviy musiqaga quloq soladi, natijada xalqning an’anaviy musiqasi, qadriyatlari va cholg‘u ijrosi yetarlicha e’tibor olmaydi. Bu jarayon milliy musiqiy merosning yo‘qolish xavfini kuchaytiradi va yosh avlodning badiiy didini shakllantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Milliy musiqiy dasturlarni maktab va madaniyat muassasalarida yangilash va kengaytirish milliy musiqiy merosni saqlash va yosh avlodga yetkazishning samarali yo‘lidir. Dasturlar zamonaviy pedagogik metodlar, interaktiv mashg‘ulotlar, milliy cholg‘ular va vokal ijro elementlarini o‘z ichiga olishi lozim. Shu bilan birga, dastur yoshlarning qiziqishini oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak: milliy musiqiy an’analarga oid musiqiy klublar, tanlovlar, konsertlar va ijodiy loyihalarni qo‘shish orqali. Bu nafaqat musiqiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki o‘quvchilarni milliy madaniyat bilan yaqindan tanishtirish va ularni badiiy didga ega shaxs sifatida shakllantirish imkonini beradi. Milliy musiqiy merosni zamonaviy metodlar va texnologiyalar orqali targ‘ib qilish yoshlar orasida milliy musiqa va an’analarni kengroq ommalashtirish imkonini beradi. Masalan, audio va video materiallar, interaktiv ta’lim platformalari, onlayn darslar, virtual konsertlar va mobil ilovalar orqali milliy cholg‘ular va xalq qo‘shiqlari yosh avlodga yetkazilishi mumkin. Shu usullar orqali milliy musiqiy merosni qiziqarli va oson qabul qilinadigan shaklda taqdim etish, o‘quvchilarda musiqiy didni rivojlantirish va milliy qadriyatlarni hurmat qilishni shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Urinova S. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida kreativ konikmalarini shakllantirish usullari. //“Oriental Art and Culture”. Scientific Methodical Journal. VOLUME 5 ISSUE 2 / APRIL 2024.
2.А Безбородова Л. Актуальные проблемы школьного музыкального образования.

YOSHLAR KORRUPSIYAGA “YO‘Q” DEYDI

Sottiyeva Gulshan,
JDPU talabasi

Korrupsiya bugungi davrning eng xavfli ijtimoiy muammolaridan biri sifatida nafaqat iqtisodiy jarayonlarga, balki davlat boshqaruvi, jamiyatdagi ishonch va adolat tizimiga ham jiddiy zarar yetkazmoqda. Turli xalqaro tashkilotlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar korrupsiyaning mavjudligi davlatning barqaror rivojlanishini sekinlashtirishini, investitsion muhitga salbiy

ta’sir ko‘rsatishini hamda fuqarolar ongida befarqlik va ishonchsizlik kayfiyatini kuchaytirishini ko‘rsatmoqda. Shu sababli ko‘plab mamlakatlar korrupsiyaga qarshi kurashni umumjamiyat masalasi sifatida ko‘rib, halollikni asosiy ijtimoiy qadriyat sifatida targ‘ib etmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi tizimli islohotlar bosqichma-bosqich kuchaytirilmoqda. Xususan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi”ning tashkil etilishi, davlat xizmatlarida ochiqlik va elektron tizimlarning keng joriy etilishi, byurokratik to‘siqlarning qisqartirilishi hamda barcha ta’lim bosqichlarida “Halollik darslari”ning yo‘lga qo‘yilishi ushbu jarayonning muhim qadamlaridan hisoblanadi. Ayni damda korrupsiyaga qarshi kurash faqat davlat idoralari doirasida emas, balki fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari va ta’lim muassasalari hamkorligida olib borilayotgan jarayonga aylanmoqda.

Bu borada, ayniqsa, yoshlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi avlod – ertangi jamiyatning hal qiluvchi kuchi. Yoshlar ongida halollik, mas’uliyat, qonunga hurmat va adolat tamoyillarini mustahkamlash korrupsiyaga qarshi barqaror immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘tkazilgan so‘rovnomalar va ijtimoiy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar korrupsiyani jamiyat taraqqiyotiga tahdid sifatida baholamoqda va unga qarshi faol fuqarolik pozitsiyasini bildirmoqda.

Korrupsiya - mansab yoki vakolatni shaxsiy manfaat yo‘lida suiiste’mol qilishdir. U nafaqat iqtisodiy jarayonlarga, balki siyosiy ishonch va jamiyatning umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Transparency International’ning “Corruption Perceptions Index” ma’lumotlariga ko‘ra, korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan davlatlarda iqtisodiy o‘sish past, xorijiy investitsiyalar kam va aholining davlatga ishonch darajasi sust bo‘ladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, korrupsiya xarajatlarni oshiradi, raqobatni buzadi va bozor mexanizmlarining adolatli ishlashiga to‘sqinlik qiladi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, sud tizimi kabi sohalarda esa korrupsiya jamiyatdagi tengsizlikni kuchaytiradi. Eng xavflisi, korrupsiyaga ko‘nikila boshlansa, u ijtimoiy norma sifatida qabul qilinib, taraqqiyotga to‘siq bo‘ladi.O‘zbekistonda ham ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida so‘nggi yillarda maxsus agentliklar, ochiq davlat ma’lumotlari, elektron xizmatlar va davlat xaridlarining shaffof platformalari joriy etilmoqda. Ushbu tizimlar korrupsiya xavfini kamaytirishning eng samarali vositalaridan biri sanaladi. So‘nggi yillarda yoshlar orasida korrupsiyaga nisbatan keskin salbiy munosabat shakllanmoqda. Ijtimoiy so‘rovlar shuni ko‘rsatadiki , yoshlarning 70–75 foizi korrupsiyani jamiyatdagi asosiy muammolardan biri sifatida ko‘radi; 60 foizdan ortiq yoshlar korrupsion holatga duch kelganda bu haqida axborot berishga tayyor; aksincha, ayrim yoshlar korrupsiya tushunchasini to‘liq anglab yetmaydi: 2022-yilgi so‘rovda respondentlarning 40 foizi ayrim kichik “poralar”ni korrupsiya deb hisoblamagan.

Bu holat shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ongida korrupsiyaga qarshi immunitet mavjud, biroq hali to‘liq shakllanmagan. Shu sababli ta’lim muassasalarida

halollik darslari, antikorrupsiya klublari, seminarlar va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar muntazam yo‘lga qo‘yilmoqda. Shuningdek, yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda faolligi bilan ham ajralib turadi. Korrupsion holatlar haqida ochiq ma’lumotlar, “xalq nazorati” platformalari, anonim murojaatlar tizimi yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasini qo‘llab-quvvatlamoqda. Bugungi yoshlar korrupsiyani "odatiy hol" emas, balki jamiyat taraqqiyotiga qarshi qaratilgan xavf deb bilmoqda. Transparency International’ning yillik “Corruption Perceptions Index (CPI)”da O‘zbekiston so‘nggi yillarda reytingini bosqichma-bosqich yaxshilab bormoqda. Masalan: 2018-yilda O‘zbekiston 180 davlat orasida 158-o‘rinda edi. 2023–2024-yillarga kelib o‘rin taxminan 121–126 oralig‘iga ko‘tarildi. Bu shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyaga qarshi islohotlar natija bera boshlagan. 2023-yilda 2 000 dan ortiq korrupsion jinoyat bo‘yicha ish ochilgan. Shulardan katta qismi ta’lim, tibbiyot va davlat xizmatlari sohasiga to‘g‘ri keladi. Har yili 500 mlrd so‘mdan ortiq mablag‘ korrupsion sxemalar sababli yo‘qotilganligi bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar e’lon qilingan. Yoshlar orasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlar shuni ko‘rsatgan: “Yoshlar korrupsiyani qanday biladi?” Yoshlarning 72% korrupsiyani “jamiyatning eng xavfli muammosi” deb biladi. 60% dan ortiq yoshlar pora berish yoki olish taklifini qat’iyan rad etishini bildirgan. 40% yoshlar kichik miqdordagi “minnat” va “sovg‘a”larni korrupsiya deb hisoblamagan - bu muammo hali ham borligini ko‘rsatadi. Quyidagi misollar OAV va rasmiy idoralar tomonidan tasdiqlangan haqiqiy holatlar: Bir nechta oliygohlarda abituriyentlardan pul undirishga uringan mas’ullar hibsga olingan (pul miqdorlari 3–15 ming dollar atrofida bo‘lgan). Kadastrda hujjat rasmiylashtirish uchun qo‘shimcha to‘lov talab qilgan xodimlar ustidan jinoyat ishlari ochilgan. Davlat xaridlarida soxta tender orqali bir necha milliard so‘mlik mablag‘ talon-toroj qilingan holatlar fosh qilingan. 2022–2024-yillarda maktab va universitetlarda 1000 dan ortiq “Halollik klublari” tashkil etilgan. Har yili 200 mingdan ortiq o‘quvchi va talaba korrupsiyaga qarshi dars va treninglarda qatnashmoqda. “Xalq nazorati”, “E-anticorruption” platformalariga yoshlar tomonidan yiliga 10 mingdan ortiq murojaat yuboriladi. Bu murojaatlarning 20–25% i real korrupsion holatlarning oldini olgan. Jahon banki ma’lumotiga ko‘ra, korrupsiya tufayli dunyo iqtisodiyotida har yili 1 trillion dollardan ortiq pora beriladi. Har yili dunyoda 2,6 trillion dollarlik iqtisodiy zarar aynan korrupsiya oqibatida yuzaga keladi. Korrupsiya yuqori bo‘lgan davlatlarda iqtisodiy o‘sish 1,5–2 baravar sekinlashadi.

Korrupsiya - jamiyat taraqqiyotiga jiddiy to‘sqinlik qiluvchi global muammo bo‘lib, uning oldini olish nafaqat davlat organlari, balki yoshlar, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy institutlar hamkorligini talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda: Transparency International reytinglarida yaxshilanish, korrupsion jinoyatlar bo‘yicha jinoyat ishlari ochilishi, davlat xizmatlari va tenderlarda shaffoflikni oshirish. Shu bilan birga, yoshlar orasida korrupsiyaga qarshi ong asta-sekin shakllanmoqda: aksariyat yoshlar pora va

boshqa korrupsion amallarni rad etadi, holatlarni xabar berishga tayyor va ijtimoiy faollik ko‘rsatadi.Biroq, ayrim yoshlar kichik poralarni yoki sovg‘alarni korrupsiya deb hisoblamasligi, tushunmovchilik va axloqiy qarorlar bilan bog‘liq muammolar mavjud. Shu sababli halollik madaniyati va korrupsiyaga qarshi ongni shakllantirish uchun ta’lim, targ‘ibot va ijtimoiy platformalardan keng foydalanish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat davlat siyosati, balki yoshlar va fuqarolik jamiyati hamkorligida samarali amalga oshirilmoqda. Yoshlarning ijobiy pozitsiyasi va faolligi, shaffof boshqaruvni mustahkamlash va kelajakda jamiyatni adolatli rivojlantirish yo‘lida muhim resurs hisoblanadi. Shu jihatdan, korrupsiyaga qarshi kurashdagi ijobiy natijalar kelajak uchun umidli istiqbollarni ta’minlamoqda. Yoshlarning bu kabi ommaviy harakati har bir davlatning eng katta yutug‘idir, ularni qo‘llab - quvvatlash esa ustuvor vazifasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Transparency International - “Corruption Perceptions Index (CPI) 2024”
2. “UzDaily.uz” - “Uzbekistan ranked 121st in the 2023 Corruption Perceptions Index” maqolasi.
3. Statbase.org - “Corruption perception index: Uzbekistan - yearly data” jadvali (2011–2024) bilan statistika;
4. “Qalampir.uz” - “Xalqaro korrupsiya indeksida O‘zbekistonning ahvoli yomonlashdi” maqolasi.
5. “Daryo.uz” - “O‘zbekiston Korrupsiyani qabul qilish indeksida 5 pog‘onaga yuqoriladi” maqolasi.
6. Anti-Corruption Agency of Uzbekistan (rasmiy hisobotlari orqali keltirilgan ma’lumotlar).

MUNIS XORAZMIY DEVONIDA QO‘LLANGAN IJTIMOIY-SIYOSIY LEKSIK BIRLIKLARNI ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QITISH

Ixtiyorova Durdona Bekzodxon qizi,
JDPU talabasi
Ilmiy rahbar: JDPU dotsenti, f.f.f.d. S.Do‘stova

Ijtimoiy-siyosiy leksika tilning eng faol va dinamik qatlamlaridan biri bo‘lib, jamiyat hayotining turli jabhalarini - siyosat, boshqaruv, ijtimoiy munosabatlar va g‘oyaviy qarashlarni aks ettiruvchi so‘zlar va tushunchalar majmuyidir. Ijtimoiy-siyosiy leksik birliklar ko‘plab mumtoz ijodkorlar tomonidan ham faol qo‘llangan. Jumladan, adabiyotimizning yorqin namoyandasi bo‘lmish Shermuhammad Munis Xorazmiy go‘zallik va

muhabbatni kuylagan bo‘lsa-da, uning g‘azallarida o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot ham o‘z ifodasini topgan.

Sabot istasang mulk bunyodig‘a,
Adolat bila yet ulus dodig‘a.
Adolatdin o‘ldi el osoyishi,
El osoyishi mulk oroyishi.
Qayu mulkkim shohi olidldurur,
Anga barcha el ko‘ngli moyildurur 2.326]

Yuroridagi baytdan ko‘rinib turibdiki, Munis yurtni adolat bilan boshqarish naqadar muhim ekanligini ta’kidlab, agar davlating mustahkam bo‘lishini istasang, xalqning adolat talablariga yet. Adolat tufayli xalq tinchlik topadi, xalq tinchligi esa mamlakatning chiroyi va obodligidir. Qaysi mamlakatning podshohi adolatli bo‘lsa, barcha xalqning qalbi o‘sha podshohga moyil (intiq) bo‘ladi, deydi. G‘azalda ijtimoiy-siyosiy leksik qatlamga mansub mulk, adolat, ulus, el, shoh so‘zlari ishtirok etgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘zlar quyidagicha izohlangan: Mulk- ixtiyordagi, qo‘ldagi bor mol-dunyo, yer-suv, imorat va boshqalar boyliklar. *esk. kt.* Joy, mamlakat kabi ma’noli so‘z bilan birikib, shu so‘z anglatgan joy, mamlakat, viloyat ma’nosini bildiradi [6.261]. Adolat-odilona ish tutish, odillik[6.267]. Ulus- *esk o*damlar. el, xalq, xaloyiq5.864]. 1.Bir joyning odamlari, aholisi, xalqi; umuman, ko‘pchilik odam, xaloyiq, hamma. 2. Bir yurtga, qabilaga mansub odamlar; millat, xalq. 3. Yurt, diyor, mamlakat [5.864]. Shoh-ayn. podshoh [6.16]

“O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da bu so‘zlar quyidagicha izohlanadi: Mulk-arabcha “xususiy mol-dunyo” ma»nosini bildiruvchi so‘zdan kelib chiqqan[3. 142]. Adolat- Adolat bu arabcha so‘z ъadālat(un) shakliga ega (APC, 502); o‘zbek tiliga fathali ayn tovushini a unlisiga cho‘ziq ā unlisini â unlisiga almashtirib qabul qilingan: ъadālat (adâlat (adolat). Bu so‘z asli “to‘ppa-to‘g‘ri shaklga ega bo‘ldi” ma»nosini anglatuvchi ъadala fe»lidan hosil qilingan masdarning (УАЯ, 568) muannas shakli bo‘lib (АТГ, 29), shu fe»lning “adolatli bo‘ldi” ko‘chma ma»nosi asosida hosil qilingan va “haqqoniylik” ma»nosini anglatadi, odatda adolat qil qo‘shma so‘zi tarkibida qatnashadi. Bu so‘z o‘zbek tilida ayol kishining atoqli oti sifatida ham ishlatiladi (ЎТИЛ, I, 27). Adolat so‘zidan o‘zbek tilida adolatli, adolatsiz sifatlari, bu sifatlardan adolatlilik, adolatsizlik mavhum otlari yasalgan[3.16]. 1.Ulus-tar.11-12-asrlarda mo‘g‘ullar davlatida ma’lum bir no‘yonga (mo‘g‘ul asilzodasiga) qarashli yerlarda unga tobe holda ko‘chmanchilik bilan hayot kechiruvchi katta-kichik oilalar, urug‘lar guruhi. 2. *tar.* Mo‘g‘ullar istilosi davrida bosib olingan hududlardan Chingizxon farzandlariga bo‘lib berilgan mulklar, keyincha-lik mustaqil davlatlarning nomi[3.16]. Shoh- bu ot asli “Eron hukmdori” ma’nosini anglatgan bo‘lib, keyinchalik ma’noda kuchayish yuz berib, umuman “hukmdor” ma’nosini anglata boshlagan (ПРС, 304; ЎТИЛ, II, 427) [3.267].

Munis Xorazmiy yashab ijod etgan XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida O‘rta Osiyoda, shu jumladan Xorazmda xonliklar o‘rtasidagi yurishlar

avj olgan, xalq moddiy va ma’naviy ahvolining yanada og‘irlashgan davri edi. Shuning uchun ham Munis Xorazmiy hali o‘zining yoshlik chog‘larida zamona ahlidan zo‘r umid kutgan bo‘lsa-da, hayot uning bu umidlari puch ekanini, adolatsiz zamonda har qanday yaxshi umid va orzular poymol bo‘lib ketishini ijodida ko‘rsatgan.

Shu munosabat bilan shoir zamondan shikoyat qilib yozgan edi:

Sendan tamaim edi sarafroz o ‘lmoq,
Abnoi zamona ichra mumtoz o ‘lmoq.
Faryodkim, hosil ayladim oxiri kor
Afgandavu xorliqga damsoz o ‘lmoq [2.326].

Ushbu misralardagi ijtimoiy-siyosiy leksik birliklarni tahlil qiladigan bo‘lsak, bu ruboiyda sarafroz, zamona so‘zlari qo‘llangan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da sarafroz, zamona so‘zlari quyidagicha izohlangan: *Sarafroz-f.* - boshi yuqori ko‘tarilgan; mag‘rur, g‘urur-iftixorli] Biror martabaga ko‘tarilgan, biror in’om bilan taqdirlangan, e’zoz va e’tiborga loyiq etilgan; xursand, shod [5.864]. *Zamona*-zamon talabi [5.864]. Bu so‘zlar “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da esa quyidagicha izohlagan: Sarafroz-bu sifat tojik tilida «bosh» ma’nosini anglatadigan sar otiga (ТжРС, 341) «ko‘tar-» ma’nosini anglatadigan afrixtan fe’lining afroz hozirgi zamon asosini (ТжРС, 35) qo‘shib hosil qilingan bo‘lib, boshni ko‘tarish» ma’nosini, ko‘chma ma’noda «martabaga erishtirish», «izzat-hurmat ko‘rsatish» ma’nosini anglatadi [3. 161]. Zamona-f.t davr, payt [3.167].

Shermuhammad Munis Xorazmiy devonidagi yuqorida aytib o‘tilgan ijtimoiy-siyosiy leksik birliklarni zamonaviy texnologiya vositalari yordamida o‘qitish muhimdir. Bunda turli metodlar qo‘llash darsning samarali bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu jarayonni “3D-tahlil”, virtual sayohat, interfaol o‘yinlar kabi metodlar orqali amalga oshirish mumkin. Jumladan, “3D-tahlil” metodini quyidagicha amalga oshirish mumkin:

1. Munis Xorazmiyning ijtimoiy-siyosiy leksik birliklar qo‘llangan bir bayti tanladi.

Hokimi shar’sen o‘lmoq nedurur moyili rishvat,
Qaysi mazhabdadur ul hukmi shariat bila joiz? (Ushbu baytni misol tariqasida olish mumkin)

2. Baytdagi ijtimoiy-siyosiy leksik birliklar topiladi va ularning lug‘aviy ma’nosi aniqlanadi. Masalan, yuqoridagi baytda rishvat so‘zi pora ma’nosini anglatadi.
3. Kontekstual ma’nosi: Munis davrida uning ijtimoiy mohiyati qandayligi tahlil qilinadi. Rishvat tuzumning chirkinligini ifodalaydi.
4. Bugungi kunda bu muammo qanday ataladi va kurash usullari. Masalan, poraxo‘rlik-korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurash- antikorrupsion qonunlar.

“Virtual sayohat” metodi orqali esa o‘quvchilarga Xiva xonligi hududi va muhiti ko‘rsatilib, Shermuhammad Munis g‘azallarida bu muhitning qanday ifodalanganligi tahlil qilinadi. She’rdan olingan asosiy ijtimoiy leksik birliklar (rishvat, zulm, shah, mulk, ulus kabi) ma’nosini va ularning kontekstdagi talqinini sinovchi viktorinalar o‘tkazish ham samarali usullardan biridir.

Shermuhammad Munis Xorazmiy devonidagi yuqorida aytib o‘tilgan ijtimoiy-siyosiy leksik birliklarni zamonaviy texnologiya vositalari yordamida o‘qitish orqali o‘quvchilar Munis she’rlarini nafaqat yodlaydilar, balki leksik tahlil qiladilar, Fuls, rishvat, ulus, shah kabi ijtimoiy-siyosiy so‘zlarning asl ma’nosini chuqur anglaydilar, tanqidiy baho beradilar. Munisning ijtimoiy muhitga nisbatan noroziligini hozirgi zamon va ijtimoiy muammolari bilan solishtirishni o‘rganadilar. Kreativ yondashuv bilan o‘zlashtiradilar, tahlil jarayonini zerikarli emas, balki qiziqarli va interfaol tarzda amalga oshiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ibragimova.A Munis chamani. Toshkent: 2008
2. Munis Xorazmiy. Saylanma G‘afur G‘ulom nomidagi san»at va adabiyot nashriyoti. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi san»at va adabiyot nashriyoti, 1980, 326-b.
3. Rahmatillayev SH. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 3-jild (forscha va tojikcha birliklar va ular bilan hosilalar). Toshkent: Universitet, 2009. B.16-142.
4. O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: FAN, 1981
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 ortiq so‘z va so‘z birikmasi. (Mas’ul muharrirlar A. Madvaliyev, D. Xudayberganova.) Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. - 864 bet.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 ortiq so‘z va so‘z birikmasi. (A. Madvaliyev tahriri ostida.) Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008

OTANING O‘SMIR SHAXSIYATINING SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI

Norboyeva Oysha,
JDPU talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.f.d (PhD)G.Qurbonova

Bizning hayotimizda otalarimizning qanchalik muhimligini ba’zan unutib qo‘yamiz. Hayotda ko‘pincha onalarimizning cheksiz mehri haqida juda ko‘p gapiramiz-u, dadalarimizning bizni qanday tarbiyalashi, mustaqil inson qilib voyaga yetkazishi ko‘pincha chetda qolib ketadi. Lekin aynan o‘smirlik davrida, ya’ni biz mustaqil shaxs sifatida shakllanayotgan paytimizda otaning o‘rni beqiyosdir. Jahon adabiyotida ham, o‘zbek adabiyotida ham mana shu muhim o‘rinni – otaning bizning xarakterimizga, kattalar hayotiga tayyorlashga qanday ta’sir qilishini, bizga qadriyatlarda, intizomni va mas’ulyatni qanday singdirishni ko‘rsatib bergan bir qancha asarlar mavjud.

Biz bilamzki, har bir insonning shaxsiyati bolalikdan shakllanadi. Lekin o‘smirlik davri – bu shaxsning eng qiziq, ammo eng qiyin davri. Bu paytda biz o‘zimizni topamiz, kim bo‘lishimizni belgilaymiz va katta hayotga birinchi qadamlarni tashlaymiz. Odatda bizga maktabda yoki uyda faqat onamizning

mehri va g‘amxo‘rligi haqida gapirishadi. Bu, albatta, juda to‘g‘ri. Lekin otalarimizning tarbiyadagi o‘rni ancha jim va ko‘rinmas bo‘lib qoladi. Axir, dadamiz bizga intizomni, mas’ulyatni, qiyinchilikdan qochmaslikni va o‘zimizga ishonishni o‘rgatadi. Bugungi kunda hamma narsa juda tez o‘zgaryapti: internet, ijtimoiy tarmoqlar, yangi qarashlar… Bunday tezkorlikda otalarimizning an’anaviy roli ham o‘zgaryapti. Menimcha, aynan hozirgi zamonda biz o‘z yo‘limizni yo‘qotib qo‘yishimiz mumkin bo‘lgan vaqtda, otamizning mustahkam qo‘llab-quvvatlashiga va uning tajribasiga murojaat qilishimiz eng dolzarb masala.

Men ko‘p kuzataman: agar uyda otasing hurmati va tartibi bo‘lmasa, o‘smir yigitlar ham, qizlar ham ko‘pincha hayotda qiynalishadi. Ular o‘ziga ishonchsiz bo‘lishi yoki aksincha, juda tajovuzkor bo‘lishi mumkin. Asosiy muammo shuki, psixologiyada onalar va bolalar munosabati haqida juda ko‘p yozilgan, ammo otaning tarbiyasi bizning fe’l atvorimizga, kelajakda qanday rahbar yoki qanday ota-ona bo‘lishimizga qanday ta’sir qilishi hali ham to‘liq o‘rganilmagan. Ayniqsa, bizning o‘zbek oilasidagi otalik va boshqa madaniyatlardagi otalik orasidagi farqlarni solishtirish juda qiziqarli, ammo bu haqda kam yozilgan. Albatta ota, otalarga munosabat, ota va farzand munosabati turli millat va elatlarda turlicha. Va bu tabiiy xol. Buni badiiy asarlar misolida ko‘rib chiqamiz. Chunki har bir davlatning iqtisodiy-siyosiy jarayoni bilan birgalikda, ijtimoiy-axloqiy qarashlari ham badiiyatda o‘z aksini topadi.

Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani va Balzakning “Gorio Ota”sida tasvirlangan otalarni solishtirish orqali madaniy farqlarning tarbiyaga ta’sirini tahlil qilib ko‘ramiz. “Gorio ota” romani qahramoni o‘zining go‘zal, xushro‘y qizlarining chehrasida xuddi biror ilohiy nur aks etganidek o‘z baxtini ko‘rardi. U ularni shunchalik sevardiki, ular uchun Parijning barcha boyliklarini yig‘ishga ham tayyor edi. Otalik sevgisi – bu eng buyuk sevgidir, u o‘zini butunlay fido etadi va buning evaziga hech narsa kutmaydi. G‘arb otasi sifatida har qanday holatda farzandlarining yonini olishi, ularni o‘zlari istagan muhitda yashashlari uchun hech narsani ayamaydigan, kerak bo‘lsa o‘zini ham qurbon iladigan ota. Qizlari elita davrada yurishi uchun o‘z qo‘lidan keladigan barcha harakatlarni amalga oshiradi. Afsuski, ularning tarbiyasini unutadi va oxir oqibat butun hayotini baxshida qilgan farzandlar uni oxirgi manzilga kuzatishga ham yaramaydi.

“Ota” romanida esa farzandining xohishlaridan ham ko‘ra milliylikni, urf-odat, an’analarimizni saqlab qolishni, odob-axloq, tarbiya masalalarini ustun deb biluvchi ota maydonga kirib keladi. Bu ota o‘zbek adabiyotidagi an’anaviy otalar obrazini o‘zgartiradi. Asar nashr yuzini ko‘rgunicha, o‘z farzandidan voz kechgan, oq qilgan otalar obrazi bilan tansihganmiz-u, lekin o‘z farzandini o‘ldirgan ota obrazi bilan tanishmagan edik. Chunki bu holat o‘zbek otalariga xos emas. Yozuvchining o‘zi ham asarda “vodiy ikkiga bo‘lindi, yarmi Po‘lat ota, yarmi esa qizi Sevinch yonini oldi. Sevinch tomon bo‘lganlar kechasi yolg‘iz qolganda Po‘latning ham yonini olar edi. Po‘lat tomon bo‘lganlar ham kechalari Sevinch

yonini olar edi” deb aytadi. Asar mutolaasidan keyin kitobxonlar ham goh Po‘lat ota, goh Sevinch tomon bo‘lib, ularning xatti-harakatlarini tahlil qiladi. Nima bo‘lganda ham asar so‘nggida Sharqona qarash, odob, tarbiya masalalari ulug‘langanligiga guvoh bo‘lasiz.

Agar ona bolaga mehr, himoya va hissiy bog‘liqlikni ta’minlasa, ota uning tashqi dunyoga ochiqligini, ijtimoiylashuvini va mustaqilligini shakllantiruvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Aynan otaning kiritgan talablari va tartibi bolada mas’ulyat va jasorat hissini uyg‘otadi.

Har bir inson, qaysi yoshda bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘zining ota makoniga, otasining o‘gitlariga qaytishni xohlaydi. Ota – bu nafaqat bir shaxs, balki butun bir ildiz, o‘tmishni hozirgi kun bilan bog‘lovchi ko‘prik va avlodning qadr-qimmati timsolidir.

Otalarimiz kamgap, ammo hamma ishi aniq, adolatli va halol bo‘ladi. Ularning jim turishi, og‘ir mehnat qilishi va oilaning halovatini o‘ylab yashashi biz uchun eng katta darsi. Zamonaviy oilada otaning roli nafaqat moddiy ta’minot bilan cheklanib qolamasligi zarur. Bolaning psixologik sog‘lom rivojlanishi ichun ota-ona bilan teng darajada hissiy yaqinlikni, o‘yinlarni va faol muloqotni ta’minlashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Onore de Balzak. Gorio ota. – T.: “Kamalak-press”, - 2019. – 352 b.
2. Ulug‘bek Hamdam. Ota. – T.: “Yoshlar matbuoti”, - 2023. – 208 b.

MAKTABDA MUSIQIY TARBIYA SIFATIGA RAXNA SOLUVCHI OMILLAR XUSUSIDA

Abdullayeva Munisa Ulug‘bek qizi,
JDPU talabasi

Bugungi kunda maktablarda musiqiy tarbiya darslari mavjud bo‘lsa-da, ularning sifati va samaradorligi sezilarli darajada pasaygan. Ko‘plab darslar faqat nazariy ma’lumot bilan cheklanib qolmoqda, ijodiy faoliyat, qo‘shiq aytish, tinglash madaniyatini shakllantirish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. O‘quvchilar orasida musiqaga bo‘lgan qiziqish tobora kamayib bormoqda, buning asosiy sababi sifatida darslarning bir xilligi, zamonaviy metodlarning kam qo‘llanishi va texnik jihozlarning eskirganligi ko‘rsatiladi. Shuningdek, ko‘plab maktablarda malakali musiqa o‘qituvchilari yetishmasligi tufayli darslar sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada, musiqiy tarbiya o‘quvchilar estetik didini shakllantirishga yetarlicha xizmat qila olmayapti. Zamonaviy maktabdagi musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi - o‘quvchilarda musiqiy madaniyatni shakllantirish va musiqiy san’at haqida yaxlit tasavvur hosil qilishdir. Bu jarayon bolalarda san’atga nisbatan emotsional-qadriyaviy munosabatni rivojlantirish, shuningdek, ularning musiqiy-ijodiy faoliyati orqali tajriba to‘plashida namoyon

bo‘ladi. Maktab o‘quvchilarini musiqiy tarbiyalash - musiqiy faoliyatning asosiy bilimlari, ko‘nikmalari va malakalarini o‘zlashtirishga qaratilgan maqsadli jarayondir. Aynan shu jarayon ularning keyingi hayotida musiqiy san’at bilan mustaqil muloqot qilishiga, o‘z-o‘zini o‘qitish va tarbiyalashiga poydevor yaratadi. O‘quvchilarni tarbiyalash jarayonining o‘zini insonparvarlashtirish, san’atning ushbu jarayonda ta’sirchan ishlashini ta’minlash maqsadida – o‘quvchilarni umuminsoniy badiiy qadriyatlarga jalb qilish, bu jarayonni eng avvalo o‘z xalqining badiiy ijodi qadriyatlaridan boshlash kabi dolzarb masalalar hal etilashi lozim hizsoblanadi. Shuningdek, o‘quvchiga shaxsiy ehtiyojlariga mos keladigan san’at turlari va janrlarini mustaqil tanlash imkonini yaratib berish hamda shu asosda nafaqat qabul qila oladigan, balki keraksizini rad eta oladigan individual badiiy didini rivojlantirish ham muhim omil sanaladi.

Maktab o‘quvchisining “biz” degan umumiylikdan shaxsiy “men” darajasiga ko‘tarilish, o‘quvchining ichki dunyosini shakllantirish va mustahkamlash, bu orqali uning individual badiiy madaniyatining asosini yaratishga e’tibor berilishi lozim deb hisoblaymiz. Maktab musiqiy tarbiyasi va ta’limining mazmuni deganimizda o‘quvchilarda musiqiy san’at nazariyasi va tarixi asosida shakllanadigan madaniy-tarixiy kompetentlikni rivojlantirish, turli musiqiy janrlar bo‘yicha musiqiy ifoda vositalarini o‘zlashtirish orqali badiiy-amaliy kompetentlikni rivojlantirish va san’at sohasida musiqiy did va baholash mezonlarini shakllantirish, bu jarayon ma’naviy-axloqiy va estetik ideal kontekstida amalga oshirilish kerakligi nazarda tutiladi. Biroq taassufki, bugungi o‘rta maktab musiqiy ta’limini sifatli tashkil qilishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelinadi. Bular: birinchi navbatda, malakali musiqa o‘qituvchilarining yetishmasligi darslarning samaradorligini pasaytiradi va o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatini to‘liq rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Ikkinchi muammo - o‘quv dasturlarining eskirganligi; ko‘plab darslar faqat nazariya bilan cheklangan bo‘lib, amaliy ijodiy mashg‘ulotlarga yetarli e’tibor berilmaydi, zamonaviy pedagogik metodlar kam qo‘llaniladi. Shuningdek, texnik va moddiy baza yetarli emas: maktablarda musiqa xonalari kam, cholg‘ular eskirgan yoki umuman mavjud emas, audio va video vositalar bilan ta’minlash past darajada. O‘quvchilarning musiqaga qiziqishi ham pasaygan, buning sababi sifatida TikTok, smartfon va pop-musiqa ta’siri, shuningdek, darslarning bir xilligi va zerikarliligi ko‘rsatiladi.

Ijtimoiy va oilaviy omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Ba’zi oilalarda va jamiyatda musiqiy ta’limga yetarli e’tibor berilmaydi, musiqaning shaxsiy va estetik rivojlanishdagi ahamiyati yetarlicha tushuntirilmaydi. Shu sababli, maktab musiqiy tarbiyasi o‘quvchilarda to‘laqonli estetik did va badiiy madaniyatni shakllantirishda yetarli natija bera olmayapti. Nazdimizda, maktablarda musiqiy tarbiyani samarali rivojlantirish uchun avvalo, malakali musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash zarurati mavjud. O‘qituvchilar zamonaviy pedagogik metodlar bilan ishlashga o‘qitilishi, amaliy mashg‘ulotlarni samarali o‘tkazish ko‘nikmalari oshirilishi lozim. O‘quvchilarga musiqiy ilovalar, tinglash mashqlari, improvizatsiya, guruh ijro va boshqa interaktiv metodlar

qo‘llanilsa, o‘ylaymizki, darslar hozirgi avlod dunyoqarashi hamda musiqiy qabul qilishiga mos tashkil etilgan bo`ladi. Qolaversa,
o‘quvchilarning musiqaga qiziqishini oshirish uchun maktab ichida musiqa klublari, tanlovlar va konsertlar tashkil etish tavsiya etiladi. Milliy musiqa merosini zamonaviy ijro va metodlar orqali nafaqat tanishtirish, shuning bilan birag turli musiqiy tanlovlar tashkil etilsa va tanlov dastrulari, tadbirlari ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. o‘quvchilar didini rivojlantirish va badiiy madaniyatni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Musiqiy faoliyat o‘quvchining o‘z his-tuyg‘ularini tushunishi, stress va xavotir darajasini kamaytirishi, yig‘lash yoki yuqori uyg‘onish holatlariga kamroq tushishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, o‘quvchilar o‘z harakatlarini va nutqini ongli boshqarishni o‘rganadi, diqqat hajmi va davomiyligi oshadi. Bularning barchasi o‘z-o‘zini baholashni mustahkamlash va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga olib keladi.

Fikrlarimiz xulosasida aytmoqchimizki, musiqiy tarbiya nafaqat ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, balki o‘quvchilarda individual badiiy did va estetik qarashlarni shakllantirishga yordam beradi. Bu esa ularni turli san’at turlari va janrlarida tanlov qilishga, o‘z didini rivojlantirishga va jamiyatda badiiy-madaniy faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.“Oriental Art and Culture” Scientific Methodical Journal VOLUME 5 ISSUE 2 / APRIL 2024.
2. Безбородова Л.А. Актуальные проблемы школьного музыкального образования. – 2000.

ADABIYOT DARSLARDA AUDIO-VIZUAL VA TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH

Ergasheva O‘g‘iloy Abdusamat qizi,
JDPU talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.f.doktori (PhD) G.R.Tulishova

Bugungi kunda ta’lim jarayonida zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali tashkil etishda muhim omilga aylanmoqda. Xususan, adabiyot fanini o‘qitishda audio – vizual hamda multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchining asarni chuqur anglashiga, badiiy tafakkurini rivojlantirishga va darsni qiziqarli tarzda tashkil etishga keng imkoniyat yaratadi. Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan interfaol media vositalari o‘quv jarayonini an’anaviy usullardan zamonaviy, texnologik yondashuvlarga o‘tkazish orqali o‘zlashtirish darajasini sezilarli oshirib kelmoqda. Adabiyot o‘qitish

jarayonida audiomateriallar, videodarslar, taqdimotlar, animatsiyalar va interaktiv platformalardan foydalanish nafaqat darsning mazmunini boyitadi, balki o‘quvchilarda yangicha fikrlash, ijod qilish va mustaqil tahlil qilish malakasini rivojlantiradi. Ayniqsa, badiiy matnlarni tahlil qilishda multimedia vositalarining qo‘llanilishi asardagi voqealar, obrazlar va g‘oyalarni ko‘rgazmali ifodalash imkonini berib, adabiyot darslarining samaradorligini oshiradi. Shu bois, ushbu maqolada audio – vizual va multimedia texnologiyalarining adabiyot ta’limidagi o‘rni, ularning afzalliklari hamda 6-sinf adabiyot darsida X. To‘xtaboyev ijodini o‘rganish jarayonida qo‘llanishi yoritib beriladi.

Adabiyot fanini o‘qitishda audio – visual, multimediya vositalardan foydalanish ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Dars jarayonida audio – vizual va multimedia vositalaridan foydalanish haqida gap borar ekan, uning qulayliklari va foydali taraflarini ham ko‘rib chiqishimiz lozim. Rivojlangan mamlakatlarda adabiyot o‘qitishda media va audio – vizual vositalardan foydalanish hozirgi kunda jadal rivojlanib, ta’lim jarayonini an’anaviy usullardan texnologik inqilob yo‘liga o‘tkazishga katta hissa qo‘shmoqda. Audio – visual, multemediya vositalardan foydalanishning asosiy maqsadi ta’limni ko‘proq interfaol, qiziqarli, samarali qilishga yordam beradi. Misol qilib oladigan bo‘lsak ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda adabiyot darslarini samarali va qiziqarli o‘tish maqsadida audio – vizual, multimediya va video materiallardan keng qo‘llab kelmoqda. “Tarixchi olima V. I. Kocherginaning yozishicha, dars turlariga ko‘ra talabalar tomonidan o‘quv materiali o‘zlashtirishning o‘rtacha foizi quyidagicha: an’anaviy ma’ruza – 5%; mustaqil o‘qish elementlaridan foydalanish –10%; vizual va audio materiallari qo‘llansa –20%; audio – vizual vositalari yordamida –30 – 40%; munozara guruhlarida ishlaganda -50%; harakat orqali mashq qilinsa –75 %;multimedia texnologiyalardan foydalansa – 80-85%; yana boshqa o‘qitish usullaridan foydalansa – 90 % . Shunday ekan, o‘quvchilarning bilim sifatini maksimal darajada ko‘tarish, talabalarning qiziqishini oshirish va shaxsiy kompetensiyasini shakillantirish uchun interaktiv ta’limni audio – vizual va multimedia vositalari bilan uyg‘unlashtirilgan holda olib borish yaxshi samara beradi,deb yozadi olima”[1]. Hozirgi zamonaviy ta’limda adabiy asarlarni analiz qilish va tushuntirishda multimedia taqdimotlaridan keng foydalanilmoqda. Shuningdek, multimedi taqdimotlari PowerPoint, WPS Office kabi dasturlar yordamida. Adabiyot darslarini to‘liq yoritishga yordam beradi. Masalan, adabiy personajlar va turli voqealar o‘rtasidagi bog‘liqliklqrni tushuntirishda multimedia taqdimotlardan foydalanish o‘quvchilarda yangicha qiziqishlar uyg‘ota boshlaydi. Yana shunday dasturlardan biri Wordwall dasturi. Wordwall dasturi multimediya sirasiga kiradi. Ushbu dastur o‘quvchilarni darsga qiziqishini ya’nada oshirishi bilan bir qatorda o‘qituvchi dars jarayonini qiziqarli tashkil qilish imkonini beradi. “Multimediya mahsulotida asosiy narsa nima? Har bir filmda bo‘lgani kabi bu – ssenariy. Siz bir vaqtning o‘zida ham ssenarist, ham rejissyor, ham rassom, ham operator bo‘lishingiz kerak. Faqatgina o‘z mavzusini o‘ylab topish emas, balki

uni kompyuter ekrani maydoniga mos ravishda qismlarga bo‘lib taqdim etishni ham o‘rganish kerak. Siz rejissyor va rassom sifatida har birkadr bezagi va ularning o‘zaro aloqasini o‘ylab topishingiz kerak”[2]. Alohida slaydlar, fragmentlar, ma’lumotlar bazalari yaratish bo‘yicha oldindan ko‘p ishlash talab qilinadi. Faqat shundan keyingina avvaldan tayyorlangan barcha fragmentlarni irlashtirishga kirishish mumkin. Kompyuterdagi ensiklopediyalar, elektron darsliklar, dam olish va bilim olish uchun zarur dasturlar va boshqalar haqida gap ketganda hozirgi vaqtda asosan multimediya mahsuloti yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda. Wordwall dasturida darsni har xil shaklda tashkil qilishi mumkin. O‘qituvchi darsni tashkil qilishida yangi, zamonaviy usullardan foydalanib, dars jarayonini jonli, yuqori sifatli maydonga aylantirish bugungi davr talablaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda texnologik tarqqiyot natijasida ta’limning turli xil bosqichlarida yangi imkoniyatlar, usullar baydo bo‘lib bormoqda. Bugungi kunda xorijiy pedagogik texnologiyalardan ham keng ko‘lamda foydalanib kelmoqda. Adabiyot darslarida multimedia vositalaridan foydalangan holda 6-sinf adabiyotidan X. To‘xtaboyev ijodini o‘rganishga doir video dars tayyorlash. **Kerakli jihozlar:** axborot kommunikatsiya texnologiyalari, ZOOM yoki Power Point dastulari,”Sariq devni minib” asariga ishlangan “Sehirli qalpoqcha” filmidan kadrlar.

Ishni bajarish tartibi:

1). Yozuvchi hayoti va ijodini chuqur o‘rganish;

2). 6- sinf “Adabiyot” o‘quv dasturi va darsligi bilan tanishish, unda X. To‘xtaboyev ijodi, xususan, “Sariq devni minib” asaridan berilgan parchalarni o‘rganishda e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan jihatlarni belgilash, shu asosida dars reja tuzish. X. To‘xtaboyev hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Ramon qahramoni – Hoshimjon sarguzashtlarining obraz tabiati bilan uyg‘unligi. Hoshimjondagi yalqovlik va intizomsizlik qusurlarining qahramon taqdirini nojoiz yo‘llarga solib yuborganligi va bu holat ta’sirchan ifodalanishi. Qalpoqcha yordamida ulg‘aygan va turli ixtisoslikni egallagan Hoshimjonning har safar chuv tushushi sabablari, qahramon tabiatining yoqimli va noxush jihatlari hamda ular o‘rtasidagi aloqadorlik. Asar tilining o‘ziga xosligi.

3). Yozuvchi ijodini o‘rganishga doir dars ishlanma tuzish, Power Point dasturi asosida taqdimotlar tayyorlash, taqdimotlar ichiga filmdan kadrlar yoki radiopostanovkalardan qisqartirib olib yuklash;

4). Asar asosida suratga olingan filmlar, online dars teledasturlarini kuzatish;

5). Rejalashtirilgan dars loyihasi asosida axborot texnologiyalari, xususan, ZOOM dasturi yoki Power Point dasturlari imkoniyatlaridan foydalanib videodars tayyorlash.

6). Videodars tayyorlash mazmuni bilan tanishish;

7). ZOOM dasturidan foydalanishda kompyuterga dasturni o‘rnatish, dars rejasi asosida o‘quvchilarga yetkazilishi zarur ma’lumotlarni muayyan tartib bilan bayon etish. Videodars tayyorlash uchun Power Point dasturidan

foydalanishning qulayliklarini o‘zlashtirish. Buning uchun nazariy materiallarni tayyorlab olish, slayd-shou parametri imkoniyatlatridan foydalanish. Dastlab taqdimot materiallarini tayyorlashga qanday talablar qo‘yilishi bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq. Bunda kompyuterning Microsoft Power Point amaliy dasturi unimli foydalanish mumkin. Bu dastur orqali darsni ko‘rgazmali va grafik xarakterdaligi bilan ma’lumotlarni vizual yetkazish vositasi sanaladi.Power Point dasturi matn, tasvir, chizma, grafika va animatsiya effektlari, ovoz va videolavhalardan iborat slaydlarni yaratishga mo‘ljallangan. Taqdimot tayyorlashda dastlab g‘oyalarni shakillantirib olish, ma’lumotlar to‘plash, rejalashtirish, dizayn, animatsiya tanlash va ko‘rib chiqish amallari bajariladi. Videodars tayyorlash uchun dastlab tegishli ma’lumotlarni kompyuter programmalariga mos holda tayyorlab olish maqsadga muvofiq. Bunda zarur moslama – videokarta bo‘lishi talab etiladi. Moslamaga videokamera yoki televizor ham ulanishi mumkin. Ko‘p hollarda videoelementlar monitorda ifodalay bilishning o‘zi kifoya. Videodars tayyorlash uchun smart qurilmalardan foydalaniladi. Smart qurilmalarda real muhitni anglash, ta’lim jarayonida qo‘llash uchun multimedialar yaratishda foydalanish mumkin. Matnli izohlar, tasvirlar, audioyozuvlaryoki videoyozuvlar o‘tilayotgan mavzuni o‘zlashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot fanini o‘qitishda audio – vizual va multimedia vositalaridan foydalanish ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar yordamida mashg‘ulotlar an’anaviy darslarga nisbatan yuqori darajada o‘zlashtiriladi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tasavvuri va faolligi kuchayadi. Xususan, PowerPoint taqdimotlari, videodarslar, Wordwall kabi interaktiv platformalar o‘quvchilarni mavzuga yanada chuqur jalb etadi, adabiy obrazlar va voqealar mazmunini ko‘rgazmali yoritishga imkon yaratadi. X. To‘xtaboyev ijodini multimedia vositalari orqali o‘rganish jarayonida o‘quvchilar adabiy qahramon xarakterini tahlil qilish, asardagi g‘oya va mazmunni anglashda faol ishtirok etadi. Shuningdek, videolavhalar, radio sahnalari yoki film kadrlaridan foydalanish o‘quvchilarning eshitish, ko‘rish va fikrlash kompetensiyalarining uyg‘un rivojlanishiga olib keladi. Umuman olganda, adabiyot darslarida multimedialar, audio–vizual usullar va interaktiv dasturlarni uyg‘unlashtirib qo‘llash ta’lim sifatini oshiradi, o‘quvchini mustaqil izlanishga undaydi va zamonaviy dars standartlariga to‘liq mos keladi. Bu esa yosh avlodni barkamol, ijodkor va texnologik o‘zgarishlarga moslashuvchan shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Saodat Kambarova. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. “Mahalla va Oila” nashiriyoti.Toshkent – 2022.
2. Q. Husanboyeva, R.Niyozmetova. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent: Barkamol fayz media, 2018.

3.В.И.Кочергина.Использование мультимедийных технологий в преподавании истортт в школе. “Молодой ученый” журнал, 2015.
4. https://www.tsuull.uz
5. ilmiyanjumanlar.uz

MUNDARIJA

III. TIL TARIXI, TILSHUNOSLIK VA TILLARNI QIYOSIY O‘RGANISH MASALALARI

Shu’ba raisi: *f.f.d. (DSc), dotsent* **Mamadaliyeva Zuhra Umaraliyevna**
Kotibi: *f.f.f.d. (PhD), dotsent* ***Jo‘rayev Murodulla Alishboyevich***

T/r	Mualliflar va maqolalar	Sahifasi
1.	**İDRIS NEBI UYSAL.** -Sal, -sel eklerinin türkiye türkçesindeki serüveni ve bugünkü durumu	4
2.	**SƏMƏDOVA KÖNÜL.** Azərbaycan dilinin şimal dialektlərində sifət və onun dərəcə kateqoriyasının ifadəsi	8
3.	**ШЕРАНОВ БОЙИРБАЙ.** Авлиёхон Эшон шеърияти лингвопоэтикаси	12
4.	**ЖУМАНАЗАРОВА ГУЛЖАҲОН.** Халқ достонларида айрим паремаларнинг вариантлашув ҳодисаси	18
5.	**МУСАЕВ АБДУКАРИМ.** Модели концептуализации в русском и узбекском языках	22
6.	**ABBASOVA ZEMFIRA.** Onomastik vahidlərin simvollara inteqrasiyasi	25
7.	**XAMDAMOVA XANIFA.** Kognitiv lingvistika va uning ustuvor yo‘nalishlari	29
8.	**ALMAMATOVA SHAHNOZA.** Abdulla Qahhor hikoyalarda metonimiyalarning qo‘llanishi	32
9.	**ТУРДИБОЕВ ТОҲИР.** Билан кўмакчиси ҳақида айрим мулоҳазалар	36
10.	**KAHRAMANOVA YEGANE.** Milli dil ve milli kimlik sorunları: tehlike altındaki Türk dilleri	40
11.	**BOYMATOV ABDUJABBOR.** Tillarda o‘zlashma so‘zlarning o‘rni (Nemis va turkiy tillar aloqalariga doir)	47
12.	**MƏMMƏDOVA ŞƏKƏR.** Lexical and Grammatical Features of Phraseological Units in Turkic Languages in the Context of the Azerbaijani Language	50
13.	**IBRAGIMOVA FAZILAT.** Epifora lingvopoetik vosita sifatida	54
14.	**İBRAHIMOVA SAHILƏ.** Правила использования запятой	56
15.	**SOYIPOV SUNATULLA.** Jadidchi olim abdurauf fitratning o‘zbek adabiy tili rivojida tutgan o‘rni	60
16.	**XIDIROV OTABEK.** Kognitiv tilshunoslikning shakllanishi va fanlararo aloqalari	67

17.	**JUMANYAZOVA MUXABBAT.** Xorazm vohasi maqollarining lingvokulturologik va semantik-pragmatik xususiyatlariga doir	**71**
18.	**HASANOVA ULKAR.** The life and work of Zaurbek Kurazovich Malsatov, Ingushetian representative of the 1st Turkological Congress	**74**
19.	**ZOKIRZODA JAMSHED.** Methodological approaches to teaching english modal verbs in multilingual classrooms	**78**
20.	**IBRAGIMOV XAYRULLA.** She’riy matnda lingvistik innovatsiyalarning roli	**82**
21.	**URALOVA NIGORA.** Teaching pronunciation by communicative methods	**84**
22.	**XAYDAROVA FERUZA.** O‘tkir Hoshimovning badiiy mahorati va uning til uslubi	**89**
23.	**MEHDIYEVA NƏRMIN.** Mürəkkəb sintaktik bütövlər	**92**
24.	**XOLDOROVA SHOHISTA.** Muloqot va kommunikatsiya tushunchalarining lingvistik talqini	**95**
25.	**SINDAROV KAXRAMON.** “Onamga” va “Rozidil” she’rlarida ritorik so‘roq gaplarning lingvopragmatik tahlili	**99**
26.	**BO‘TAYEV AKRAM.** Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” asari tili haqida ayrim mulohazalar	**103**
27.	**MELIBAYEVA SOXIBAXON.** O‘zbek ismlarining diaxronik nuqtayi nazardan tarqalish dinamikasini o‘rganish	**104**
28.	**O‘RALOVA MADINA.** “O‘tkan kunlar” romanida morfemikaning qo‘llanilishi	**107**
29.	**ALIBAYEVA MASHXURA.** Til tarixi, tilshunoslik va tillarni qiyosiy o‘rganish masalalari	**109**
30.	**MAHKAMOVA ZILOLA.** “Boburnoma” asari tilida qo‘llangan ayrim forscha o‘zlashma so‘zlarning leksik hamda grammatik jihatdan tahlili	**112**
31.	**QODIROVA DILFUZA.** Arab va fors tillaridan o‘zlashgan birliklarning o‘zbek tilidagi semantik rivoji	**118**
32.	**ALLAMBERGENOVA MAFTUNA.** O‘zbek tilidagi inglizcha o‘zlashmalarning leksikografik talqini	**121**
33.	**UMMATOVA BAHORA.** “Boburnoma” asarining leksik-semantik xususiyatlari tadqiqi	**125**
34.	**TO‘YCHIYEVA NOZIMA.** “Qadimgi turkiy lug‘at”ni yaratish uchun asos bo‘lgan manbalar va ularning tasnifi	**129**
35.	**ALMAMATOVA RUXSHONA.** Frazema va ularning semantik ma’nolari (badiiy asarlar talqinida)	**134**
36.	**TURG‘UNBOYEVA SARVINOZ.** Leksikologiya bo‘limining mazmun plani	**137**

37.	**TURSUNPO‘LATOVA LOBAR.** Til tizimdagi shakl va ma’no uyg‘unligi	**139**

IV. ADABIY MANBANI MATNIY TADQIQ ETISHNING USTUVOR VAZIFALARI

Shu’ba raisi: f.f.f.d. (PhD), dotsent Ne’matova Hulkar Abdulbakiyevna
Kotibi: f.f.f.d. (PhD), dotsent v/b. Tulishova Gulzina Ravshanovna

T/r	Mualliflar va maqolalar	Sahifasi
1.	**ЖЎРАЕВ ЖАЛОЛИДДИН.** Шайх Озарий шахсияти ва ижодий мероси	**142**
2.	**JO‘RAYEV JAMOLIDDIN.** Haydar Xorazmiyning “Me’rojnoma” nomli asari uchun chizilgan miniatyuralari xususida	**151**
3.	**XUDİYEVA VƏZUFƏ.** Birinci Bakı Türkoloji Qurultayına dair Azərbaycan arxivlərində saxlanılan sənədlər	**158**
4.	**УМУРЗОҚОВ БАҲРИДДИН.** Тўрт тахаллусда ижод қилган воиз-адиб	**167**
5.	**BEKOVA NAZZORA, KOMILOVA ZEBINISO**. Imlo Buxoriy she’riyatining mavzular ko‘lami	**177**
6.	**SOYIPOV SUNATULLA.** “Qissai Sayqaliy” asarining kompozitsiyasi haqida ayrim mulohazalar	**180**
7.	**DO‘STOVA SURAYYO.** “Tazkırayı shuaro” qo’lyozmalarıda masnavıylardagı matnıy farqlar	**186**
8.	**DO‘STOVA SURAYYO.** 7421 raqamli “Xorazm tarixi” qo‘lyozmasi	**190**
9.	**YULDASHEV BAXODIR.** Mutarriziyning “Misbah” asari va undagi omillar nazariyasi	**195**
10.	**XURRAMOVA TO‘LG‘ANOY.** Termiziy allomalarning ilmiy merosi	**200**
11.	**G‘ULOMOV SAIDA’ZAMXON**. Sayyid sharif jurjoniyning “nahv-i mir” asari	**203**
12.	**TURATOVA MASHHURA.** Komron Mirzo devonida ilm-fan va san’at bilan bog‘liq so`zlar	**204**

V. BADIIY TARJIMA MUAMMOLARI

Shu’ba raisi: f.f.f.doktori (PhD), dotsent Salimova Dilnavoz Akmalovna
Kotibi: JDPU katta o‘qituvchisi Boysinov Sohib Sobirovich

T/r	Mualliflar va maqolalar	Sahifasi
1.	**BEKOVA NAZORA, MASUTOVA SHAXLO.** Alisher Navoiyning forsiy qit’a va ruboiylarida muhabbat va ilohiy ishq mavzusi	209
2.	**BEKOVA NAZORA IBROIMOVA MAHLIYO.** Alisher Navoiy forsiy qasidalarida faqr-u fano talqini	212
3.	**DONIYOROVA GULRUX.** “Saodat” jurnalida chop etilgan tarjima asarlar tahlili (1966-1976-yillar misolida)	215
4.	**ALLAMBERGENOV DAVRONBEK.** Abdulla Oripov she’rlari qoraqalpoqcha tarjimalarida etnografik birliklarning berilishi	219
5.	**SAIDQULOVA NARGIZA.** Tanqidchilik, tarjima va estetik yondashuvlar (Ozod Sharafiddinovning adabiy merosi misolida)	222

VI. TA’LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYALASH USULLARINI JORIY ETISH

Shu’ba raisi: f.f.f.d. (PhD), dotsent Xidirova Munavvara Rustamovna
Kotibi: f.f.f.d. (PhD), dotsent Turopova Parizod Shavkat qizi

T/r	Mualliflar va maqolalar	Sahifasi
1.	**MİKAYILLI BÖYÜKAĞA.** Məktəbəqədər və ibtidai təhsildə təlim strategiyaları: beynəlxalq tədqiqatların nəticələri	226
2.	**ALMAZ ÜLVİ BİNNƏTOVA, CƏBRAYILOVA AYSUN.** Türk dövlətləri kitabxanalarında mədəni irsin qorunması missiyası: Azərbaycan, Türkmənistan və Özbəkistan müstəvisində	232
3.	**АХМЕДШИНА ФАНИЯ.** Женщины в STEM и искусственном интеллекте Узбекистана и мира в условиях цифровой трансформации	235
4.	**МИРСАМИНОВА ГУЗАЛХОН.** Методические подходы к преподаванию английского языка как второго языка в эпоху искусственного интеллекта	245
5.	**АТАМУРОДОВА РОҲИЛА.** Тафаккурни шакллантиришда бадиий асарлардан фойдаланиш	250

6.	**MAMMADZADA MUJKAN.** Scientific and theoretical foundations of innovative integration methods into the educational system of higher military education institutions	**252**
7.	**AZIMJONOVA SHAXNOZA.** Ta’lim texnologiyalari va integratsiya: akademik salohiyatni oshirishning samarali yo‘llari	**258**
8.	**AYKAÇ ONUR.** Üstünlük (kötüleme) teorisi bağlaminda ortaoyunu metinlerinin incelenmes	**264**
9.	**KAMOLOVA SHIRINOY.** Oilalarga psixologik yordam ko‘rsatishning kontseptual nazariy asoslari	**269**
10.	**MELTEM ÖKSÜZ.** Yakin yüzyillar, farkli algilar: Dede Korkut kitabi ve Kutadgu bilig’de kadinin birbirinden ayrişan toplumsal cinsiyeti	**273**
11.	**SOIBNAZAROVA MUQADDAS.** Odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	**278**
12.	**ТАШПЎЛАТОВА НОДИРА.** Ёшларни оилавий ҳаётга ижтимоий-психологик жиҳатдан тайёрлашнинг усивор вазифалари	**281**
13.	**AXMEDOVA NASIBA.** Shaxsda suitsidal harakatlarning ko‘rinishlari va belgilarining namoyon bo‘lish xususiyatlari	**286**
14.	**NOROV NODIR.** Methodological approaches to patriotic education within the system of spiritual and educational activities	**290**
15.	**JUMANOVA NASIBA.** Bolalarda axloqiy tarbiyani shakllantirishning psixologik jihatlari	**294**
16.	**SOIBNAZAROVA MUQADDAS.** Ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	**298**
17.	**TURSUNOV ALISHER.** Muayyan sohaga uslubiy yo‘naltirilgan tarkiblashtirilgan to‘plamning lingvodidaktik imkoniyatlari	**300**
18.	**AXMEDOVA SHOXIDA.** Bolalarining har tamonlalma rivojlanishida aqliy tarbiyaning o‘rni	**303**
19.	**ХАЙИТОВА МИЯССАР.** Развитие лингвистической компетентности студентов на основе сопоставительного изучения русского и узбекского языков	**305**
20.	**SODIQOVA GULBAHOR, XAMIDJONOVA GULASAL.** Steam integratsiyasi orqali ona tili darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish	**309**
21.	**XAMROYEVA DILNOZA.** Ta’limda neyrogimnastika: diqqat, xotira va fikrlashni rivojlantirish	**311**
22.	**MUSTAYEVA RISOLAT.** Zamonaviy o‘zbek nutqida lingvistik o‘zgarishlar: globallashuv va texnoligiya	**315**

23.	**SAIDOVA MOHINUR.** Adabiyot darslarida badiiy matnni tahlil qilishning samarali usullari	**318**
24.	**AXROROVA MUNOJAT.** Musiqa ta’limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalash orqali dars samaradorligini oshirish	**322**
26.	**SODIQOVA GULBAHOR, QOSIMOVA DILNAVO.** Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda o‘yinli metodlarning ahamiyati	**326**
27.	**OMONOVA SEVINCH.** Yangi nashr qilingan ona tili darsliklarida leksikologiya bo‘limining o‘rganilishi	**330**
28.	**JUMANOVA FOTIMA.** Adabiyot darsliklari haqida mulohazalar	**333**
29.	**RUZIYEVA XONZODABEGIM.** Abdulla Avloniy pedagogik merosining zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va ta’lim yondashuvlari kontekstidagi tahlili	**337**
30.	**YUNUSOVA SEVINCH.** “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasini o‘qitishda interaktiv strategiyalarning qo‘llanishi	**340**
31.	**ESHMURZAYEVA BARNO.** Mirzo Ulug‘bekning mohir pedagog va olim sifatidagi qarashlari	**344**
32.	**ZIKRIDDINOVA MUTABAR.** Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarning qo‘llanishi: o‘quv motivatsiyasi va kasbiy qarorlar shakllanishi	**347**
33.	**XAZRATQULOVA MADINA.** Milliy musiqiy merosni globallashuv jarayonida asrash muammolariga doir	**349**
33.	**SOTTIYEVA GULSHAN.** Yoshlar korrupsiyaga “yo‘q” deydi	**351**
35.	**IXTIYOROVA DURDONA.** Munis Xorazmiy devonida qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy leksik birliklarni zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish	**354**
36.	**NORBOYEVA OYSHA.** Otaning o‘smir shaxsiyatining shakllanishidagi o‘rni	**357**
37.	**ABDULLAYEVA MUNISA.** Maktabda musiqiy tarbiya sifatiga raxna soluvchi omillar xususida	**359**
38.	**ERGASHEVA O‘G‘ILOY.** Adabiyot darslarda audio-vizual va texnik vositalardan foydalanish	**361**

FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK ADABIYOTINI O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI

“O‘ZBEK FILOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI VA UNI O‘QITISH METODIKASI MUAMMOLARI”

mavzusidagi

IV AN’ANAVIY ILMIY – AMALIY XALQARO ANJUMAN MATERIALLARI

(2-kitob, III-VI shu’balar)

Muharrir: S.Normuhammedov
Musahhih: J.Murtozayev
Sahifalovchi: G.Kadirova
Guvohnoma № 14-0003, 30.04.2020 Ofset qog‘ozi. Bosishga ruxsat etildi 10.12.2025 Format A4. Garnitura «Times New Roman». Shartli bosma taboq 31,37 Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 61

_____

JDPU tahririy-nashriyot bo‘limida chop etildi.
130100, Sh.Rashidov shohko‘chasi, 4-uy
Tel./faks: (+99872) 226-02-93
(+99893) 305-85-00

www.jdpu.uz